TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SOBIT MUQONOV
QALMAQON ABDUQODIROV

75

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SOBIT MUQONOV

QALMAQON ABDUQODIROV

75

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)
S 74

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Yergash Abduvalitov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8734-2-1
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

SO'ZBOSHI

Atoqli qozoq yozuvchisi Sobit Muqonov 1900-yil 13-aprelda Shimoliy Qozog'iston viloyatining hozirgi Jambil tumanidagi Jamanshubar ovulida (sobiq Aqmola viloyati, Qiziljar tumani) kambag'al oilada tavallud topgan. Sobit sakkiz yoshga to'lganda, otasi Muqon vafot etdi. Yetimlikdan aziyat chekkan Sobit o'n yoshidan mustaqil mehnat qiladi. Sobit kambag'allikdan hammaning eshigiga borib, o'tinchi, suvchi, cho'pon, otliq bo'lib ishlaydi.

Lekin o'qish, o'rganish orzusi xayolidan ketmagan. Natijada ovuldagi va tatar mullalaridan saboq olib, "Shokir-Shokirat", "Ziliha-Jusup", "Zarkum", "Sal-Sal", "Zayna-Zaynab", "Layli-Majnun", "Sayful-Malik", "Badugul-Jamol", "Alpomish", "Er Targ'in" dostonlarini yodlab oladi. Yoshligidan Abay Qunanboyevning 1909-yilda nashr etilgan she'rlari Sobitning shoirlik iste'dodiga katta ta'sir etadi.

Sobit Muqonov 1918-yilning kuzida Omskdagi o'qituvchilar kursiga bir yil tahsil oladi. Shu yillarda "G'am" (1917), "Charchoq" (1918), "Kambag'allik" (1918) she'rlarini yozadi. O'qish davrida buyuk shoir Mag'jon Jumabayevga dastlabki she'rlarini o'qitib, she'riy mahoratini mustahkamlaydi.

Yigirmanchi yillarda S. Muqonov "Jetim qiz kuyi", "Tulpar jo'rgi", "Qandi ko'l", "Qulanning kuni" va ilk "Sulushash" romanini kitobxonlarga taqdim etdi. 1922-yilda Orenburgdagi rabfak (ishchilar fakulteti)ga o'qishga kirib, uni 1926-yilda tugatadi. So'ng "Enbekshi qozoq" (hozirgi "Egemen Qozog'iston") gazetasida, Qozog'iston Davlat nashriyotida bosh muharrir, "Qozoq adabiyoti" gazetasida bosh muharrir, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimlarida ishlagan.

Sobit Muqonov turli xizmatlardan tashqari, turli janrlarda yangi-yangi asarlar yaratgan. Uning "Hayot maktabi", "Cho'loq

polvon", "Butagoz", "Sirdaryo" kabi asarlari hozirgi qozoq adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi deb ayta olamiz.


Qozoq adibi va jamoat arbobi Qalmaqon Abduqodirov 1903-yil 14-aprelda Qizilo'rda viloyatining Yangiqorg'on tumanida tug'ilgan. U o'n ikki yoshida yetim qolib, og'ir qismatni boshidan kechirdi. 1925-yilda "Enbekshi qozoq" gazetasi tahririyatida matn ko'chiruvchi bo'lgan. Ilk she'ri "Sirdaryo" 1925-yilda "Enbekshi qozoq" gazetasida chop etilgan. O'shandan beri uning she'r va hikoyalari respublika gazeta va jurnallarida tez-tez bosilib turdi. "Hojimuqon" qissasi jahon chempioni Hojimuqan Mungytpasovning hayoti haqida qiziqarli hikoyaga bag'ishlangan. Shuningdek, "O'mirtoy qishlog'i", "Amantay", "Olatovning ukasi", "Ixtirochi", "Shirin qovun" va boshqa she'r va hikoyalari bilan qozoq bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi.

Qalmaqon Abduqodirov "Ming bir kecha" va o'zbek she'riyatining sultoni Alisher Navoiyning bir nechta asarlarini qozoq tiliga tarjima qilgan.

Yergash Abduvalitov,
pedagogika fanlari doktori, professor

SOBIT MUQONOV





BOBOLARIM HAQIDA

(memuar qissa)

Bobolarim haqida

Qozoqlarda "Yetti bobosini bilgan o'g'il, yetti yurtning g'amin yer, o'zinigina bilgan o'g'il, qulog'i bilan jag'ini yer" degan maqol bor. Shuning uchun ham qadimgi vaqtlarda odamlar ovullarda o'g'il bolani esini tanigandan so'ng eng kamida yetti bobosini bilishga o'rgatar ekanlar.

Meni ham bolalik chog'imdan boshlab shunga o'rgatishdi. Biroq meni o'rgatgan dodam Muqon emas, uning jiyani Nurtoza edi. U juda ko'p narsani bilardi.

— Dodang kim? — deb so'radi mendan Nurtoza, o'rgatib qo'ygandan keyin, bilgan-bilmaganimni sinamoqchi bo'lib.

— Muqon, — dedim men.

— Uning otasi-chi?

— Shukey.

— Qani uyog'ini birma-bir aytib ketaver!

— Shukeyning otasi Bektemir, uning otasi Baybaroq, uning otasi Sirimbet, uning otasi Qusay, uning otasi O'tarboy, uning otasi Siybon, uning otasi...

Men shu yerga kelganda to'xtalib, Nurtozaga qarab jilmaydim. U mening jilmayib qarashimni sezganday:

— Uning otasi Tanash-ku,— dedi.

— Ha, shunday, — dedim men ikkilanib.

— Uning otasi-chi?

— Ashamayli.

— Uning otasi-chi?

— Kerey[1].

— Uning otasi-chi?

Qozoq bo'ladi-da, — dedim men, Kereydan avval o'tgan ota-bobolarimni bilmaganim uchun.

[1] **Kerey** — urug' nomi.

Nurtoza, o'n otagacha sanashni bilganimdan mamnun bo'lganday, uyog'ini so'ramadi-da, nomlarini bilgan bobolarimning qanday umr kechirganlarini so'ray boshladi...

...Nurtozaning so'zlariga tushundim. Uning aytishicha, Kerey Ashamayli, Aboq ismli ikki o'g'il ko'ribdi. Aboqlilar hammasi Xitoyda ekan. (Keyinroq bilib oldim — o'sha so'z rost ekan, Xitoy tuprog'idagi qozoqlarning yarmi Aboq-Kerey ekan.) Nurtozaning aytishicha, Ashamayli oltmish o'g'il ko'ribdi, shulardan biri Tanash ekan...

Uning aytishicha, sakkizinchi otamiz — Siybon. Odamlarning gapiga qaraganda, Siybon Tanashning jiyani bo'lib, uning urug'i Kerey emas, Uvoq ekan. Aslida Siybon Tanashning o'g'li.

Tanashning xotinidan yolg'iz qiz tug'ilibdi. U qizi voyaga yetgandan keyin, Uvoq urug'idan Jandali degan kishiga xotinlikka beribdi. Shundan tug'ilgan nevarasini Tanashning o'zi asrab olibdi-da, siyli[1] bola bo'lgani uchun uning ismini Siybola qo'yibdi. Tanashning xotini Siybolaga mehr qo'yib uni parvarish qilibdi. Siybolani asrab olgandan so'ng, u bir o'g'il ko'ribdi. Uning ismini Bolta qo'yibdi. Undan keyin, ko'chib ketayotgan paytda yana bir o'g'il tug'ib, uning ismini Qo'shabe qo'yibdi. So'ngra yana bir o'g'il tug'ib, uning ismini Parishi qo'yibdi. Qutlug' oyoq bo'lib kelgan Siybolani Tanash ham, xotini ham yaxshi ko'rib qolishibdi, ulg'ayganda uni Siybon deb atashibdi.

Siybonning Kereyga asrandi o'g'il bo'lganligidan nomus qilibdimi yoki chindan ham shundaymi, Nurtozaning aytishiga qaraganda, Siybonni yoshlik chog'idanoq Uvoq urug'idagi tog'asi o'z tarbiyasiga olibdi. U ulg'ayib yigit bo'lgach, Siybon o'z qarindoshlarini topibdi. Uni Uvoq urug'idan deyishimizning sababi ham shu.

Siybon olti o'g'il — Erimsari, Qo'rtiq, Kungene, Sho'qmator, Jiliboy, Qusay degan o'g'illar ko'ribdi. Bizlarning bobomiz — so'ngisi ekan. Qusay qozoqlarning O'rta yuziga[2] xon bo'lgan, Oblay bilan zamondosh kishi ekan. Bu XVIII asrning o'rtalarida

---

[1] Erka, erkatoy ma'nosida.

[2] XVIII asrda qozoqlar territoriya jihatdan uchga bo'linib, Kichik yuz, O'rta yuz, Katta yuz deb atalardi.

bo'lib o'tgan. Qusay nayzaboz botir bo'lib o'tgan deyishadi. Bunga quyidagicha dalil bor: 1723-yili Sirdaryo bo'ylaridagi qozoq urug'lariga Jo'ng'or qalmoqlari hujum qilib, talangan ovullar Orqaga (hozirgi Qarag'anda, Oqmo'la, Ko'kchatov tomonlariga) o'tib ketgan, shularning ichida mening bobolarim ham bo'lgan.

Orqaga o'tib ketgan qozoqlarga 1737-yildan boshlab Oblay xon bo'libdi.

Volga, Ural daryosi bo'ylariga ketib qolgan qozoqlarga (Kichik yuz) Abilxayir xon bo'libdi. O'rta yuz bilan Kichik yuz yaylov talashib, doimo urushishar ekan. Ana shu urushlardan birida Qusay nayza sanchib, Abilxayirxonni o'ldiribdi. Bundan juda xursand bo'lgan Oblayxon Qusayga hozirgi Ko'kchatov oblastidagi Sirimbet tog'i atrofini yaylov uchun hadya qilibdi. O'sha vaqtda Qusayning O'tarboy degan o'g'li bir farzand ko'rib, uni Sirimbet deb atashibdi. Qusay Oblay hadya qilgan tog'ga o'z nabirasining ismini qo'yibdi.

Sirimbetning Baybaroq degan o'g'li, Nurtozaning aytishicha, uddaburon, qo'biz chalishda hech kim tenglasha olmaydigan baxshi bo'libdi. Shamanizm dinidan qolgan bu afsonaga biz albatta ishonmaymiz. Qozoq xalqining birinchi olimi Cho'qon Valixonov (1835–1864): "Baxshilar — aldovchilar" deb to'g'ri aytgan.

Baybaroqning o'g'illari — Bektemir, Bekqora, To'qqoralarni Oblayning o'rniga xon bo'lgan o'g'li Vali XVIII asrning oxirlarida Sirimbet tog'idan haydab chiqaribdi-da, tog'ga o'zi qishloq joy solibdi. Baybaroqning bolalari esa, hozirgi Mavlit (ruschasiga "Mamlyutka") Petropavlovskning g'arbidagi temiryo'l stansiyasiga kelib o'troqlashibdi. U yerdan haydalishiga Muqonning otasi, ya'ni bobomiz Shukey sababchi bo'libdi.

Bektemirdan besh o'g'il — O'mar, O'span, Mujan, Shukey, Ismoil degan o'g'illar dunyoga kelibdi. Bularning hammasi ham o'z mehnati bilan kun ko'rgan o'rta chorvadorlar ekan. Mavlitga yaqin joyda Zilqora degan yirik feodal yashar ekan. 1822-yil podsho hukumati o'z ixtiyoriga o'tgan qozoqlar o'rtasidagi xonlikni tugatib, ularni okrug-okrugga bo'libdi. Har bir okrugga obro'li boylardan hokim saylab, ularni sulton deb atabdi. Shunda Ko'kchatov okrugiga Zilqora sulton bo'libdi.

Zilqoraning o'n to'rt o'g'li, yolg'iz qizi bor ekan; u qizning ismi Boljon bo'lib, lobar, ko'rkam qiz ekan. O'sha qizni Shukey sevib qolibdi. Ammo unga uylanishning ilojini hech topa olmabdi: qizni molga sotadigan zamona, buning ustiga, Boljonga bir boy sovchi yuboribdi. Nihoyat, oshiqlar — Boljon bilan Shukey kechasi yashirincha qochishmoqchi bo'lib tayyorlanayotganlarida qo'lga tushishibdi. Bunga nomusi kelib jahli chiqqan feodal, Shukeyni o'ldirmoqchi bo'libdi. Yaxlagan Esil o'zanining suviga bog'lab qo'yilgan Shukeyni bir jonkuyar do'sti bo'shatib yuboribdi. Zilqoradan qo'rqqan Bektemirning o'g'illari Mavlitdan qochib, yuz kilometr naridagi hozirgi Qo'stanay oblasti, Presnogorkovsk rayonidagi Siybon urug'iga kelib qo'shilibdi.

Badanidan sovuq o'tib ketgan Shukey, oradan ko'p vaqt o'tmay yigirma yetti yoshida vafot etibdi. Uning xotini Qog'ozdan Ahmat, Muqon degan o'g'illar, Zaynab ismli qiz tug'ilibdi. Qaynag'asi Mujandan Mustafo (Shukeyning o'gay o'g'li) dunyoga kelibdi. Men onam bollaridan o'n uch qizdan keyin tug'ilibman. Shular ichida hozir mengina hayotman.

Ahmatdan qolgan bitta jiyanim bor. Mustafodan qolgan yolg'iz o'g'il Shaken so'nggi yigirma yil ichida "Sobit"[1] nomli kolxozning (Presnogorkovsk rayoni) raisi bo'lib ishlamoqda.

Mening tug'ilish tarixim

Esimni tanigan vaqtimda, ovulimiz qish kunlari "Jamanshubor" degan joyda, yoz kunlari esa "Do's" deb atalgan ko'l bo'yida joylashar edi.

Dodam Muqon shu yerda 1907-yilda o'ldi. Bu haqida keyinroq so'zlaymiz. Hozircha qanday tug'ilishim to'g'risida hikoya qilay. Men qanday tug'ilganligimni dodam o'lgan yili eshitdim.

Yoz oylarining o'rtalari edi. Yaylovga ko'chib chiqqan jamanshuborliklarning "Qirdagi Siybon" deb ataladigan qarindoshlariga "O'likka fotiha, tirikka salom" degan bahona bilan har yili bir

[1] **"Sabit"** — shu kitobning muallifi nomiga qo'yilgan kolxoz.

borib keladigan odatlari bor edi. Shu odatlariga ko'ra ular dodam o'lgan yili ham tayyorgarlik ko'rib to'planisha boshladi.

"Hayit otliqqa, to'y to'nlikka yarashadi" deganlariday, ot-ulovi bor kishilar hovliqib yurishibdi, ot-ulovi yo'qlar esa, uy-uylarida o'tirishibdi... Ba'zilari tarantasga bir yoki ikki ot qo'shayotir, ba'zilar esa, otlarini egarlashayotir, yolg'iz yoki ikki ot qo'shilgan tarantaslarga keksalar bilan xotinlargina tushishardi... Yigitlar salt ot minardilar... Yilqisi ko'p boy kishilarning bolalari katta otdan ko'ra toy yoki g'unanga minishni yaxshi ko'rardilar...

Otlar aravalarga qo'shilib ham, egarlanib ham bo'ldi... Ana, oldingilar jo'nay boshladi, tuproqli yo'lning changi osmonga ko'tarildi... Yo'lsiz, to'g'ridan kesib chiqmoqchi bo'lgan yosh-yalanglar, toy va g'unanlarni minib, ularga ergashgan yosh bolalar ko'lning g'arbiy tomonidan chopishib ketdi... Ko'rkam yozning oydin kechasi, tiniq, musaffo havosi, chiroyli manzarasi, bepayon biyoboni, salt otliq ovuldan chiqa solib otlarini choptirishib ketdilar...

Shu paytda men-chi?

Men ham shu paytda toy-g'unanni, to'g'ri kelib qolsa, otni ham minib chopa oladigan kap-katta bola bo'lib qolgan edim. Ko'nglim orziqardi. Biroq menga ot-ulov qayda!.. Meni aravasiga o'tqazadigan ham, salt otiga mingashtiradigan ham kishi chiqmadi. Shunday qilib, fotiha o'quvchilar ovuldan birin-ketin jo'nagan paytlarida, men ko'zimga yosh olib qolavergan edim.

Shu paytda orqamga qarasam, allakimlar endi jo'nashga hozirlanayotgan ekanlar. Ular otlarini ayab, yo'lda sekin yuradigan Do'yshanning o'g'li Qasenga o'xshash badavlat kishilar va otlari chopishga yaramaydigan kambag'allar ekan. Men yig'lab turganimda, shulardan biri achinib tarantaslariga o'tqazib oldi.

Esenoy ko'liga tushdan keyin yetdik. Ko'l atrofida joylashgan ovullarga olib boradigan yo'lning bo'yida "Qirdagi Siybon"dan kelgan mehmonlarga yo'l ko'rsatuvchi kishi turgan ekan.

— Sizlar ho' anavi Turkman ovuliga borib, Rahmatning uyiga tushinglar, — dedi u.

— Iya, "Rahmati" nimasi? Qashshoq-gado nimasini beradi? Boshqa uy bizlarga qurib qolibdimi? — deb yonimdagilar norozilik bildirishdi. Shunda yo'l ko'rsatuvchi kishi:

— Ulkanlarning taqsim qilishicha shunday, men uni o'zgartira olmayman, undan boshqa bo'sh uy yo'q, — dedi.

"Rahmatning uyi" degan uy — tashqarida turib, ichidagi mol-dunyosini sanab olsa bo'ladigan qirq quroq, kichikroq qora o'tov ekan. Rahmat — Baysenning merosiga ertaroq ega bo'lgan o'g'li...

Kambag'al odamning mehmonga beradigan oshi ham kambag'al bo'ladi, albatta. Uyiga mehmon kelsa tuz-namak tatdirmasdan yotqizishni nomus ko'radigan qozoq, o'z odatini qildimi yoki fotiha o'qish uchun kelgan mehmonlarni siylagisi keldimi, Rahmat mehmonlarga hol-ahvolini aytib, "qo'limdagi bor-yo'g'im shugina edi" deb bitta takachasini so'ydi. Oyog'iga qurt tushib, faqat ovul atrofidagina o'tlab yurgan bu takacha juda oriq chiqdi. Nima ham deyishardi, uy egasining saxiyligidan mamnun bo'lgan mehmonlar bu uydan boshqa yoqqa qo'zg'alishgani yo'q.

Bolani qiziqtiradigan narsa osh emas, albatta, to'y tantanasi. Bo'tpay uyining atrofida zo'r tantana bo'layapti. "Qirdagi Siybon"larning ko'ziga ko'rinarli bir guruh kazo-kazolari shu uyga mehmon bo'lishgan. Bizning Nurtoza ham o'sha uyda. So'zga chechan Nurtoza ovozini baland chiqarib kulib so'zlardi. Shuning uchun ham tengqur, hazilkash o'rtoqlari uni "G'oz tovushli G'ozibek" deyishardi. U ko'pincha o'zi so'zlab, boshqalarning tinglashini yaxshi ko'rardi. Chechanligi ustiga eskicha gaplarga ham usta, ham ko'p bilardi. "Falonchi biy bilan pismadonchi biyning aytishi" degan so'zlarni, "Falonchi bahshining aytganlari" degan so'zlari, ba'zi bir uzundan uzoq she'rlarni, maqol va matallarni to'xtamay aytaverardi.

Nurtozaning Bo'tpay uyida baland ovoz bilan, shaqillab kulib aytgan so'zlari ko'l atrofidagi kishilarga ham eshitilardi. Uning hangomasini tinglagisi kelgan odamlar Bo'tpoy uyiga sig'masdan, o'tov atrofida o'tirishar edi...

Bo'tpay uyining qozoni ham, albatta, Rahmatning qozoniga qaraganda bir necha marta katta, uning ichiga tushgan go'sht ham

yog'li... Shuning uchun sho'rva ichgisi kelganlar Rahmatning o'choq boshiga emas, Bo'tpayning o'choq boshiga uymalashardi... O'sha yerga men ham bordim...

Mana, go'sht ham pishdi. Xushbo'y hid taratib bug'i chiqqan semiz qo'y go'shtini ayollar qozondan katta cho'mich bilan suzib olib chog'roq choralarga solmoqdalar. Tovoq tuzashga usta, epchil ayollar tovoqlarga go'shtlarni taqsimlab ham bo'ldilar... Chaqqon yigitlar ham go'sht solingan tovoqlarni ko'tarishib birin-ketin tizilishib, mehmonlar o'tirgan uyga jo'nadilar. Boyagi chuvvos pasaydi, mehmonlarning og'zi yog'lik go'shtga tegdi...

Shunday paytlarda yetimlik bilinadi. Shunday paytlarda ota-onasi bor bolalar uyga kirib, yo otasi, yo onasi bergan yog'li, sergo'sht iliklarni yeb chiqishardi. Ota-onasi yo'q sho'rlik yetimlar esa, har kimga bir termulardilar. Rahmi kelsa, birov bir parcha go'sht berar, bermasa, quruq qolishaverardi.

Bo'tpayning uyiga yog'li go'sht solingan tovoqlar birin-ketin kiritilayotgan vaqtda, tovoq tashuvchilar bilan aralash-quralash bo'lib uyga kirgan bir to'p bolalarning qatorida men ham bor edim. Men bilan bir qatorda turgan bolalarning har qaysisiga yo otasi, yo onasi: "Hoy, falonchijon, ma ol!" deb iliklarni berar edi. Men har kimning qo'liga termilib qarardim, menga hech kim ilik bermasdi.

Men ham turaverdim, nihoyat kimningdir: "Ma, ol" deb bergan quruq, go'shtsiz suyagini olib, yig'lamsirab eshikka chiqib ketdim. Ko'zimdan yoshim oqib, ostona oldida turdim. Shu vaqtda yonimdan o'tib ketayotgan birov:

— Hoy, mana bu bir bechora bola qolib ketibdi-ku! — dedi.

Kimdir kelib basharamga qaradi-da:

— Ovulimizning bolasi emas, mehmon bola bo'lsa kerak, — dedi.

— Kimning bolasisan? — degan so'roqqa xo'rligim kelib ancha vaqtgacha javob bera olmadim.

Yuzimga bosgan ikki qo'limni birov zo'rlik bilan ochib, basharamga qaradi-da:

— Hoy, mana bu, haligi Muqonning yetim bolasi-ku, — dedi.

— Unday bo'lsa, olib kel bu yoqqa, — dedi o'choqboshidagi xotinlardan biri.

Borgim kelmasa ham bir yigit meni sudrab o'choqboshiga olib bordi. O'choqboshiga to'plangan sho'xroq ayollardan biri:

— Voy bechora-yey, sho'rlik Muqonning bolasi ekan-a, qani bir tovoqqa sho'rva quyinglar-da, anavi o'pka-jigarlardan, ichak-qorindan solib beringlar, ichib-yeb to'yib olsin faqir, — dedi.

Ayollardan biri kattaroq, cheti singan tovoqqa quyib bergan sho'rvani shu yerning o'zida o'tirib icha boshladim. Qulog'im haligi sho'x xotinning so'zida. U mening to'g'rimda so'zlar edi.

— Bilishimcha, bu bolaning ismi Sobit bo'lsa kerak. Shunday-mi, o'g'lim? — dedi u menga.

— Shunday, — dedim men.

— Sen uni qayoqdan bilasan? — deb so'radi atrofidagi ayollar.

— Nega bilmas ekanman? — deb javob qildi sho'x xotin, — bizning uyda tug'ilgan edi-ku, bu bola!

— Ha, shundaymi?! — deb menga qarab ajablanishdi boshqa ayollar.

— Bo'lmasam-chi? — deb javob qaytardi sho'x ayol.

Yonimda o'tirgan bolalardan: "Bu kim?" deb sekingina so'radim.

— O'sha uyning egasi, Turag'ol degan ayol shu, — deb javob berdi bola.

Bu voqea mana shunday yuz bergan edi, deb hikoyasini boshladi Turag'ol, —Andaboy, O'tarboylar yerlaridan ajrab cho'lga ko'chganlarida, marhum Muqon majolsizlikdan ko'cha olmay qolib ketdi-da, bir necha yil bizning uyda tuz-namak tatib, qarol bo'lib ishladi. Tuprog'i tilla bo'lsin, bechoraning hech yomonligini ko'rmadim, halol xizmat qilardi, kuni-tuni baravar ishlar, hech narsa bilan ishi yo'q edi, Bajeng ham shunday edi.

— "Bajesi" kim? — deb so'radi birov.

— Muqonning xotinini Bolsari demasmidik? Uni bizlar Bajeng der edik, — dedi Turag'ol.

— Ha, rostdan ham shunday der edik-ku, — deyishdi ba'zilari.

— Marhum Muqon ko'p qiz ko'rdi-yu, o'g'il ko'rmadi, — deb qo'shib qo'ydi Turag'ol, — o'g'il kuta-kuta sabri tugagan Bajeng qiz tug'avergach, o'g'il bo'larmikan deb umsinib[1], oxiri bir qizining ismini Umsundiq qo'yibdi.

[1] Umid qilib degan ma'noda. — *Tarjimon*

— Bilamiz, — dedi ayollardan biri. — Semeydagi Qorajigit degan kishi Umsundiqni xotini ustiga oldi-ku! Eri Muqon bilan tengqur bo'lsa kerak.

— Kambag'alning qizini qachon o'z tengiga berishgan edi? — dedi Turag'ol, gapga aralashmay, — turaturinglar-chi, gapimni tugatay. Muqon "Shundan so'ng o'g'il tug'armikan" degan niyatda undan keyingi qizining ismini Ultug'on qo'ydi... Shunday qilib, bechora Bajeng o'g'il dog'ida yurganda homilador bo'ldi. O'z ko'zi bilan ko'rmaganga hammasi yolg'on. Shu vaqtda Muqon bechoraning: "Ey, Xudo niyatimga yetkaz-da, ol meni" deb yig'lab yurganini o'z ko'zim bilan ko'rganman.

— Nima qilsin, sho'rlik, — deyishdi atrofidagi ayollar, — qo'lida moli bo'lmasa. Qizlarining qo'lidan nima ham kelardi. Yoshi ulg'ayib, kuchdan qolib boraÿotibdi. Agar o'g'li bo'lmasa, ochdan o'ldi degani shu-da!..

— Rost, — dedi Turag'ol, — shunday qilib Bajengning oy kuni yetdi. Shu yili qo'ylarimiz ko'proq qo'ziladi. Anavi o'tirgan xo'jayinimning mendan so'nggi xotini ham, — dedi Turag'ol yosh bir juvonni iyagi bilan ko'rsatib, — homilador bo'lgan edi. Xo'jayinimiz uni sovuq suvga qo'l urdirmasdi, agar unga: "Bir ishga qarashib yubor" desang, bolasiga shikast yetadi, deb vaysar edi.

— Nima ham qilsin, — deb qo'ydi birov, — u ham o'sha vaqtda ojiz edi-da. Qo'lida yolg'iz Shalaboy o'g'li bor edi-ku.

— Shalaboyni shu yili tug'di-ku, — dedi birov.

— Avval so'zga quloq solinglar-chi! — dedi Turag'ol, atrofdagilarni koyigan bo'lib, — yomg'ir yog'gan, yer loy. Mol qo'zilayotgan payt edi, birgina mening kuchim yetmasdi. Bajeng bechoraga rahmim kelardi. Nachora, u sho'rlik ham noilojlikdan sudralib men bilan birga yurardi. Qo'raning ichida tug'ib qoladimi deb qo'rqardim.

— Qiyin, — dedi birov.

— Shu vaqtda bir bog'oz biyamiz to'lg'oq tutib, panalab qo'radan chiqib ketibdi, — dedi Turag'ol, — qish qattiqroq kelib, biyalarimizdan ba'zilari holdan ketgan, sog'amiz deb turgan biyamiz atigi uch-to'rtta edi. U biyaning to'lg'oq tutib, panalab ket-

ganini xo'jayinimiz eshitibdi-da, achchig'lanib: "Bir yerga borib qulunlaydi-da, yo'ldoshiga o'ralib quluni o'ladi, tez borib topib kel, topmasdan kelma. Agar quluni o'lsa o'zingni o'ldiraman!" deb Muqonni quvib yuboribdi. Men xo'jayinga: "Bajengning bugun qovog'i solig'roq ko'rinadi, to'lg'oq tutib yurgan bo'lmasin tag'in, eri yonida bo'lsin, boshqa birovni yuborsangiz nima qiladi" degan edim, u: "Boradi dedimmi, boradi!" deb baqirdi. Shunday qilib, Muqon sho'rlik chiqib ketdi.

— Shu kuni kechqurun, — dedi Turag'ol, — Bajengning to'lg'og'i tutib qoldi, kechasi bilan yonida bo'ldim. Bechoraning to'lg'og'i muncha ham qattiq bo'larmi, nima qilishni bilmay kayfim uchdi. Shunday qilib, o'ldim-o'ldim deganda, tongotarga yaqin ko'zi yoridi bechoraning... O'g'il tug'di!..

— O'sha, shu bolami? — deyishdi bir necha kishi meni ko'rsatib.

— Xuddi shu, — dedi Turag'ol, — o'g'il tug'gandan keyin behad xursand bo'ldim! Kindigi kesilgan bolani o'rab olib Bajengga qarasam, bechora holdan ketib yotgan ekan. Muqon kelguncha shu ahvolda yotdi. Marhum Muqon biyani izlab yurib topib olibdi, qulunlagan ekan; quluni yo'ldoshiga o'ralib, sal kechiksa o'lib qolar ekan, omon-eson ajratib olibdi. Chala tug'ilibdimi, yo qorasovuqqa chidamaganidanmi, qulun yura olmaganidan keyin, Muqon kechasi bilan to'niga o'rab-chirmab quritibdi-da, saharda oldiga o'ngarib uyiga olib kelibdi.

— Barakalla! — deyishdi ba'zi odamlar.

— Qulun kelguncha notinch bo'lgan xo'jayinimiz qulunni omon ko'rgach, sevinib marhum Muqonga: "Bajeng tug'di, sevinchi!" dedi. Qorachadan kelgan kishi edi-ku, marhum Muqon? U: "Nima tug'di ekan?" deb shubha qildimi, haytovur rangi o'chib oqarib ketdi-da, titroq ovoz bilan: "Meni sevintir-da, xohlaganingni ol, Bo'tpay!" dedi. Xo'jayinimiz: "Unday bo'lsa yana sevinchi, —o'g'il!" deganda, marhum Muqon: "Unday bo'lsa xohlaganingga qo'shib o'zimni ham ol sevinchiga!" deb hushidan ketib otdan og'ib tushdi...

— Qanday qilsin bechora!.. O'g'ilsizlik tinkasiga tekkan-da! — deyishdi ba'zi kishilar achinib, ba'zilari sevinib.

— Shundan keyin ular:

— Xo'sh, shunday qilib, Muqon suyunchiga nima beripdi? — deyishdi.

— Shu yili, — dedi Turag'ol, — marhum Muqon birtalay mol-dunyo berib chegrendan yangi etik tiktirib, uni oyog'iga kiymasdan to'rga ilib qo'ygan edi. Xo'jayinimiz hazillashib: "Unday bo'lsa etigingni berasan-da!" degan edi, bechora Muqon "yo'q" deyolmay, "Olaqol!" dedi. Muqon etigini chindan bermoqchi bo'lgach, xo'jayinimiz: "Hazillashyapman, yolg'iz etigingni olib nima qilaman" degan edi, bechora Muqon: "Bu nima qilganing? Menga o'g'ildan etik qimmat bo'libdimi? Olmasang nega so'rading? So'radingmi, ol! Agar olmasang sevinmaganliging, meni ahmoq qilganliging bo'ladi!" deb, qo'ymasdan etigini oldiribdi.

— Mirzaligini[1] qara! — deb ba'zi kishilar piqillab kulishdi.

— Xuddi shu so'zni odamlar shu paytda ham aytishdi, — dedi Turag'ol ham kulib, — uydagi yolg'iz etigini berganidan so'ng albatta mirza bo'ladi-da!.. Shundan keyin ba'zi bir kishilar uni ko'p vaqtlargacha "Muqon mirza" deyishib yurdi... Shunday qilib, shunchalik sevintirgan yolg'iz o'g'li o'sha edi, — dedi Turag'ol kulgisini tiyib, — "Shakijon" deb juda yaxshi ko'rar edi, uy-joyli, mol-mulkli bo'lganida o'g'lining rohatini ham ko'ra olmay ketdi bechora!..

— Rost, — dedi ba'zi bir kishilar, uning so'zini ma'qullab.

Ba'zilar esa:

— Shunday qilib, buning ismi "Shakijon" bo'ldimi? — deb so'rashdi meni ko'rsatib.

— Agar unutmagan bo'lsam "Sobit" bo'lsa kerak, shunday emasmi, o'g'lim? — dedi Turag'ol menga qarab.

Shu paytda men mazali sho'rvani ichib bo'lib, haligi ayollarning so'zlarini tinglayotgan edim. Dunyoga qanday kelganligimni ilgari eshitmaganimdan, mana bu so'zlar g'alati tuyilar edi. Shuning uchun ham Turag'olning bergan savoliga tezlikda:

— Ha, ismim Sobit! — deb javob berdim.

— "Yomon itning ismini Bo'ribosar qo'yishadi" deganlariday, — dedi birov, — buning o'zidan ham ismi katta ekan-ku!

---

[1] **Mirzalik** — tantilik, saxiylik ma'nosida.

— "Sobit" deb qo'yishini qara! Bu qaysi Sobit bo'ldi ekan? Qurumboyning Sobitimi yoki Jo'ldioyoqning Sobitimi?

— Hech qaysisiniki emas, — dedi Turag'ol, — bizning Tanqiboyning Sobiti.

— Tanqiboy kim? — deb so'radi birov.

— Mahmet[1] og'ang-da, — dedi birov.

— Tanqiboying ham, uning otasi — Tatemning[2] ham bola-chaqalaridan oldin dunyoga kelgani uchun marhum Muqon irim qilib, o'sha o'g'liga Tanqiboyning ikkinchi o'g'li Sobitning ismini qo'ygan. U Sobitdan bu Sobit ikki yosh kichik bo'lsa kerak. Bu bolaning yili Sigir[3], unutmagan bo'lsam, otasi Muqonning yoshi qirq to'qqizda edi.

O'roz

Shu yili men olti yoshda edim. Umrini kambag'allikda o't-qazgan otam Muqon, og'ir kasalga chalinib, mehnat qilishga yaramasdan, uzatgan qizi Zavrening ovuliga ko'chib bordi.

O'sha yili yoshlik chog'imda uchragan odamlarning ichida opam ham, pochcham ham, boshqa kishilar ham esimda yo'q, faqatgina esimda qolgan kishi ovchi O'roz edi. Bu — o'rta bo'yli, keng yag'rinli, gavdali, oppoq soqolli, qirra burunli, yumaloq, o'ynoqi qora ko'zli, o'siq qoshli, keng peshonali, azamat-navqiron yigitlarday ixcham kiyinadigan, keng shimining pochasini qo'njiga tikib, beliga qozoqcha kissali kamar bog'lab yuradigan, kamarning tevaragida miltiq o'qlarini tozalaydigan asbob-anjomlarini osiltirib bog'lab yuradigan, filtali miltig'i yelkasidan tushmaydigan odam edi.

Agar shu qishda uyimizga uning ko'p yordami tegmaganda, uning ravshan siymosi yodimda hech saqlanmas edi...

---

[1] Mahmet (Mahmud) hozirgi o'toqli yozuvchi G'abit Musrepovning otasi. "Tanqiboy" — yangalari quygan ism.

[2] "Tatem" degan Mahmudning otasi Qajimboy. U Bo'tpayning tug'ishgan akasi. Har ikkalasining otasi Musrep.

[3] Nurtozaning hisobicha, bu 1901-yili 13-apreliga to'g'ri keladi. Lekin mening hozirgi hujjatlarimda "1900"-yil deb yozilgan.

Hozir o'sha yordam to'g'risida gapiraylik.

Bizlar ko'chib borgan ovulning qishlovi shimoldan janubga tomon cho'zilgan baland tepaning bag'riga joylashgan edi. Tepa bag'rining uzunligi to'rt-besh chaqrimcha, kengligi esa uch-to'rt chaqrimcha kelardi. O'sha yonbag'irning shimoliy va janubiy qirg'oqlari bo'ylab qalin daraxtlar o'sib yotar edi. Daraxtlar nuqul qayin bilan terak. Ovul o'sha daraxtzorning o'rtasiga joylashgandi. Faqatgina tepadan yog'gan qor-yomg'ir bo'lmasa, qish kunlari bu daraxtzorlardan ovulga bo'ron ham o'ta olmas edi. Ovulning o'rtasida soy bo'lib, ko'klam vaqtlarida soyning suvi otning qornigacha chiqardi... Soy ichida ham qalin daraxtlar o'sgan, ovul o'sha soyning atrofiga joylashgan edi.

Keyin, tanishgandan so'ng bilishimcha, pochcham Sulaymon o'rtacha davlatli, lekin pishiq odam ekan. Shuning uchunmi, yoki O'roz bilan ilgaridan qadrdonmi, dodam bu ovulga dastlab ko'chib kelganida, qishki uyni kuyovini yonidan emas, O'rozning uyi yonidan solibdi.

Arang eslayman: O'rozning uyi bilan bizning uyimiz soyning kungay tomonidagi daraxtlarning o'rtasiga joylashgan bo'lib, boshqa uylardan uzoqroqda edi. Shu yili bizning uyda faqat yolg'iz sigirimiz bor ekan... O'rozda esa bitta ot, bitta sigirdan boshqa hech narsa yo'q deyishadi. Shuning uchun ham uning chimdan solingan uyi bilan qamishdan ishlangan qo'rasiga qaraganda, bizning chimdan solingan uyimiz bilan qamishdan solingan qo'ramiz kichkina edi. Uyimizda: dodam, oyim, Bag'ila bilan Ultug'on, men — besh jonmiz. O'rozning uyida esa o'zi, xotini (ismini unutdim), mendan ikki yosh katta o'g'li Mag'oz, ikki yosh kichkina qizi Jonkumis — to'rt jon bor edi. O'roz haqida keyin so'z bormaydi, shuning uchun ham uning kasbi, xulqi, odati to'g'risida eshitganlarimizni qisqacha aytib o'taylik.

U dastavval ovchilik bilan shug'ullangan deyishadi; yolg'iz o'qni filtali miltiq bilan otar ekan. O'q yetadigan chamada osmonda o'qday uchib borayotgan o'rdakni otib tushurganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Esimni tanib yonida ergashib yurgan vaqtlarimda, O'rozning otgan o'qi bekor ketganligini ko'rgan emasman.

Boshqalar ham: "O'rozning mo'ljali hech qachon xato bo'lgan emas" deyishadi. Uning ko'rsatgan uch merganligi odamlar xotirasida juda yaxshi saqlangan.

Bir merganligining tarixi bunday: O'roz hali navqiron yigit vaqtlarida yaylovga bitta cho'chqa adashib kelib qolibdi. Cho'chqani harom hisoblaydigan ovul kishilari undan qo'rqib mullaga borishsa, mulla: "Sizlarning ko'zingizga cho'chqa bo'lib ko'rinayotgan narsa shayton" deb javob beribdi. "Endi nima qilamiz?" deb hayron bo'lgan odamlarga mulla: "Uy boshiga bittadan mol so'yib qurbonlik berish kerak. Shundagina bu balodan soqit bo'lamiz" debdi.

Odamlar yig'ilishib, qurbonlik berish haqida maslahatlashayotgan paytda, O'roz: "Hoy odamlar, mening bilishimcha, o'sha shayton ham emas, jin ham emas, qadimgi cho'chqa. Ishonmasalaring men otib ko'ray, cho'chqa bo'lsa o'ladi, shayton bo'lsa ko'zdan g'oyib bo'ladi", — debdi.

Odamlar maslahatlashibdi-da:

— Agar otib o'ldira olsang, senga yaxshi bir ot sovg'a qilamiz, — deyishibdi.

Ular shunga va'da qilishib, cho'chqa yotgan ko'lning yoqasiga to'planishibdi. Shunda birov bilimdon bo'lib:

— O'roz, sen bu cho'chqani qayerdan otmoqchisan? — deb so'rabdi.

— Miltiq otgan kishi ovning ma'lum joyini tanlab otadi deysanmi? To'g'ri kelgan joyiga otaveradi-da! — debdi O'roz.

— Bilmading, — debdi haligi bilimdon. O'qni yo yuragidan, yo miyasidan tekkizmasang cho'chqa o'lmaydi, deyishibdi. Agar sen bu cho'chqani o'ldirmoqchi bo'lsang, yo yuragidan, yo ko'zidan ot!

— Yuragiga qanday tekkizadi? — deyishdi ba'zi kishilar, — tanasining yarimi loyga kirib yotibdi-ku!

— Unday bo'lsa, bo'ynidan otish kerak, — debdi bilimdon.

Shunda O'roz: "O'qni berigi qulog'idan otib, narigi qulog'idan chiqarsam, miyasiga tegib o'tadimi?" — deb so'rabdi.

— Agar shunday qila olsang bir emas, ikkita ot beramiz! — deyishibdi ba'zi kishilar.

— Unday bo'lsa, otganim bo'lsin! — deb O'roz cho'chqani nishonga olganda, birov:

— Cho'chqani yuz qadamdan yaqin yerdan turib otish shariatda gunoh bo'larmish, — debdi.

Shunda O'roz:

— Men yuz emas, ikki yuz qadamdanoq otaman — deb chamada masofani o'lchab olibdi-da, filtali miltig'ini oyoqlarini yerga tirab qo'yib, cho'chqaning qulog'ini nishonga olib otibdi, cho'chqa ag'darilib tushibdi. Odamlar yugurishib borib qarashsa, O'rozning o'qi bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketibdi. Cho'chqa o'lib qolibdi!..

Yana O'rozning bir merganligiga odamlar bunday ta'riflashadi: "Yoz kunlaridan birida, el yaylovda o'tirgan vaqtda to'y bo'libdi. To'yga to'plangan kishilar ko'l yoqasidagi ko'm-ko'k maysazorga o'tirishib, oldilariga endigina ovqat kelgan vaqtda, osmonda bir bo'zto'rg'ayni quvlab yurgan qirg'iyni ko'rib qolishibdi. Qirg'iy bo'zto'rg'ayni tutib olmoqchi bo'lib bir necha marta hamla qilibdi-yu tutolmabdi. Qirg'iy hamla qilgan sayin bo'zto'rg'ay yuqorilay beribdi.

Bo'zto'rg'ayga achingan ba'zi odamlar: "Bu bechora pastga qarab uchmay, nega yuqorilay beradi" deyishsa, ba'zi bir kishilar: "Pastga tushgan hamon qirg'iy qoqib oladi, shuni bilib yuqorilayotibdi" deyishibdi. Sal o'tmay bo'ztorg'ay charchab, qirg'iyning uchishi tezlashganini ko'rgan odamlar: "Ana, endi qoqib oladi bechorani!.." deb chuvullasha boshlagan vaqtlarida, yig'inning o'rtasida miltiqning "qars" etgan ovozi eshitilib qolibdi. To'rg'ayning ketidan yurgan qirg'iy chir aylanib yerga tushibdi.

Odamlar: "Bunga nima bo'ldi?" deb hayron qolishsa, qirg'iyni O'roz otib tushirgan ekan!.."

Uchinchisi: — O'rozning bir o'rtog'i unga: "Seni odamlar mergan deyishadi, qani menga ham merganligingni bir ko'rsat-chi?" — debdi. O'roz o'ylanib turib: "Ikki yuz qadam yerdan otingning qulog'ini otib belgi solib bersam rozi bo'lasanmi?" debdi. "Agar, xuddi shunday qila olsang — debdi o'rtog'i, — senga shu otimday bir ot beraman."

O‘roz ikki yuz qadamdan yerdan turib miltiq bilan otib, otning o‘ng qulog‘ining uchidan o‘yib tushirgan ekan, deyishadi...

O‘roz merganlikda qanday mohir bo‘lsa, qush solishda ham shunday edi. U esini tanigandan buyon burgut solishdan, yoz bo‘lsa, qarchig‘ay bilan tuyg‘un solishdan qo‘li bo‘shamagan. Olg‘ir qushlarning ichida o‘rgata olmagani bitta-yarimta uchramasa, har xil qushlarni o‘rgatgan kishi. Qushlarning ichida faqat itelgi (katta qoraqush) gina ovga o‘rganmas ekan. O‘roz o‘sha itelgini ham o‘rgatib ovga solgan ekan.

— Mening molim ko‘p, — der ekan O‘roz.

— Qayerdagi molni aytasan? — deb so‘rashibdi odamlar.

Shunda u:

— Osmondagi uchgan qush, yer yuzidagi ovning hammasi meniki, ular bor ekan, men ochdan o‘lmayman, — deb javob qaytaribdi.

Uning ov qushlarini qanday tutishi odamlarni ajablantiribdi.

Osmonda uchib ketayotgan qarchig‘ay, burgut yoki shularga o‘xshash olg‘ir qushlarni ko‘rsa, O‘roz jilmayib qarab turardi-da, “Boraver, qo‘nadigan joyingni bilaman. Boraman-u, olib kelaman” der ekan. Chindan ham shunday qilar ekan. U uchib ketayotgandayoq qushning ketidan ketar ekan-da, qayerda, qanday qilib ushlashini kim biladi, haytovur birozdan so‘ng ushlab olib kelar ekan.

Lekin u hamma qushlarning orqasidan yuguravermas ekan. Qaysi qush olg‘ir, qaysi qush olg‘ir emasligini o‘sha qush osmonda uchib ketayotganidayoq fahmlab, faqat ovga yaraydigan yaxshi qushnigina quvib, yomoniga ovora ham bo‘lmas ekan. Shu so‘z rostmi, yoki tutgan qushlarining tobini bilganidanmi, O‘roz ushlagan qushlarning hammasi ham olg‘ir bo‘lar ekan.

Yozin-qishin qush soladigan O‘roz har kuni xurjunini, qanjug‘asini ovlangan parrandalarga to‘ldirmasdan kelmas ekan. Shu ovlarning hammasini o‘z foydasiga ishlatsa, uning boyib ketishi mumkin ekan-ku, lekin O‘roz unday qilmas ekan. Uning qanjug‘asi otilgan parrandaga to‘lishini fahmlagan odamlar, u ovga xoh miltiq bilan chiqsin, xoh qushi bilan chiqsin, to‘planishib yonida yurishar ekan. O‘roz o‘zi otgan yoki qushiga oldirgan ov-

larini ularga ham taqsimlab, o'zi bir kunlik yoki ikki kunlik ovqatiga yetarligini olib kelar ekan.

O'roz qish kunlari ko'rsichqon, yumronqoziq, tulki, bo'rilarni ham ko'p tutarkan. Lekin ularning terisini ham ko'ringan odamga sovg'a qilib berib yuborarkan.

O'z umrini go'zal tabiat manzaralari ichida ovchilik bilan o'tkazgan O'roz, xushmuomala, urush-janjalni bilmaydigan, hech kimga ozor bermaydigan, shuning uchun ham o'ziga hech kim tegmaydigan, kishining qo'liga termilmaydigan, bir narsa so'rab kelgan kishining iltimosini qaytarmaydigan, katta bilan ham, kichik bilan ham birday do'stlashib ketadigan ochiq ko'ngilli, dilkash odam edi.

U ayniqsa bolalarni yaxshi ko'rar, do'stlashar edi. Yozda ham, qishda ham ovga chiqsa, o'zi bilan bolalarni olib chiqardi. Topib olgan o'ljasiga bolalarni ham sherik qilar, bugun quruq qolgan bolani ertaga rozi qilar edi.

Haligacha yodimda: O'rozning ovga chiqishini sezgan bolalar ertalab uning uyi atrofiga to'planishardi. O'rozda yolg'iz ot bor degan edi-ku. U qorga odam izi tushmagan paytda ovga ot bilan, qor qalin yog'ganda esa, yayov chiqardi.

Shu yili O'roz oltmish yoshlar chamasida bo'lsa ham qaddini g'oz tutib, chaqqon yurar edi. U itning terisidan ishlangan qo'lqopini o'ng qo'liga kiyib olardi-da, tumoqli burgutini qo'liga qo'ndirib:

— Qani, yuringlar, bolalar! — deb oldimizga tushib jo'nayverardi.

Birtalay bola O'rozning ketidan yugurishganicha ergashardi... Biz "Sog'indiq yoli" deb ataladigan tepadan oshib o'tar edik. Bu tepaning o'ng yonbag'rida "Sodir cho'g'i" degan bir uzun qir bo'lib, orqa tomonda esa, "Eltin" degan qir bor edi. O'sha tepa va qirlarning ora-orasida turli tollar o'sardi.

— Bolalar, — derdi O'roz, soyga tushaverishda, — men hu anavi tolning boshida o'tiraman, senlar shamol bo'layotgan tomondan borib ovlarni bu yoqqa haydanglar!

Bolalar: "Haydaganga yuradimi, bobo", – deyishardi.

— Nega yurmasin? — derdi O'roz, — chuv-chuvdan qochmagan ov bo'ladimi, nariyog'idan qiy-chuv ko'tarsanglar o'zlari bu yoqqa qarab yo'rg'alashadi.

Bolalar O'rozning aytgan tomoniga borishardi-da, daraxt, o'tlarning orasiga kirib chuvvos ko'tarishardi. Tollarning ichidagi hamma jonivor chiqardi. Odatda qiy-chuvdan qo'rqib, dastavval qochib chiqadigan ov — quyon bo'lardi.

Shu paytda O'roz burgutning tumog'ini olib shaylanib turardi. Ovlarda o'rgatilib chiniqqan burgut, bu vaqtda silkinib yon veriga qarab o'tardi-da, qochib chiqqan quyonni ko'rganda, bir marta "changq" etib talpinardi. Shu paytda O'roz burgutini qo'yib yuborardi.

Avvalo balandga ko'tarilib keyin pastga sho'ng'imay, ov olmaslik — burgutga odat bo'lib qolgan. U odatdagiday qochib borayotgan quyonga hamla qilmay, avvalo bo'ynini cho'zib, balandga uchardi-da, shundan so'ng, quyon qochib borayotgan tomonga sho'ng'irdi.

Burgutlarning hammasi shunday bo'ladimi yoki O'rozning burguti shundaymi, har holda egasi yugurib borguncha, bu burgut tutgan quyonni tirikligicha bosib o'tirardi.

Shu vaqtda O'roz astoydil yugursa, bolalardan ham o'zib ketar edi. Bolalar qorga botmasdi, u botardi... Agar qor juda qalin bo'lib, yugurishga xalaqit bersa, O'roz oyog'iga chang'i bog'lab olardi. U: "Chang'i bog'lab olsam, chopgan ot bilan baravar yuraman" derdi. U ot bilan o'zisha oladimi, yo yo'qmi, har holda unisi bizga ma'lum emas. Lekin oyog'iga chang'i bog'lab olganda, qor ustida uchgan yulduzday tez ketardi...

O'sha vaqtlarda uning qizil yuzlari battar qizarib, yuziga oq soqol bog'lab olgan navqiron yigitlarga o'xshardi.

O'rozning qishda yeydigan so'qim go'shti faqat quyongina. Uning oilasi ko'pincha quyonni sho'rva qilib emas, balish[1] qilib yerdi. Uning katta qora tovasi bo'lar edi. Xotini o'sha tovani to'ldirib balish pishirardi. Qurildakdan kuzda ko'chib kelgan dodam, qishda o'sha ovulning yilqisini boqish uchun yollanar-

[1] Tatarcha ovqatning nomi.

di. Lekin bu ishda ko'p ishlay olmay, sog'lig'i yomon bo'lgach, bo'shalardi.

Uyga kelgandan keyin dodam betob bo'lib yotib qoldi. Uyda sotadigan mol ham, xarajat puli ham yo'q. Kuyovining moli ko'p bo'lsa ham qarashmasdi... Endi qanday qilib kun kechirish kerak?

Shu yili O'roz bo'lmasa, uy-ichimiz ochdan o'lar edi, deb o'ylayman.

Hamon yodimda: bizlar saharda kasal dodamning oh-voh tovushidan uyg'onib ketardik. Dodam sho'rlik kasal yotganida, og'zidan "voy-voyey, Ollo-yey, jonim-ey" degan uch og'iz so'z sira tushmasdi. U uyg'oq vaqtlarida bu uch og'iz so'zni ketma-ket takrorlar edi.

Oyim shu yili qishda rus posyolkalaridagi kishilarning to'nlarini tikib berardi. Unga bo'yi yetgan Bog'ila opam yordamlashardi. Lekin uning qo'li o'tda kuyib, tirishib bitgan, ninaga ip o'tkazib berishdan boshqa ishga yaramasdi. To'nni oyim yo'g'on ninada kanop ip bilan tikardi.

Sababini kim bilsin, oyim to'n haqiga kartoshkagina olardi. O'sha kartoshkadan boshqa ovqatimiz yo'q edi.

Mana shunday toliqqan kunlarimizning birida ertalab O'roz bizning uyga kirib dodamning ko'nglini so'rab o'tirdi-da:

— Muqon! — dedi, uy-ichimizni, hol-ahvolimizni ko'rgach, — "Eng og'ir haqi, qo'shni haqisi" ekanligini shariatda ham aytar ekan. Sen bu yili menga qo'shni bo'lding. Baribir kim ko'rinsa, shu yeb ketayotgan mol-dunyo. Shu qish miltiqning nishoniga, burgutning changaliga ilingan o'ljaga ikkalamiz sherik bo'laylik.

Shu maslahatdan keyin ikki uy ham dasturxon bo'lishib ketdi. O'rozning uyidagi quyondan pishirilgan balishga bizning uy ham sherik bo'ldi. Lekin bu balishni ikki uy navbat bilan pishirishar edi. Bir kuni O'rozning uyi pishirsa, ikkinchi kuni bizniki pishirardi.

Kishining qulochi zo'rg'a yetadigan balishning ichiga, quyon go'shti bilan kartoshka ham solinardi. Mo'lligidanmi yoki barakaliligidanmi, — ikki xonadondagi odamni to'ydirardi. Avvalo ular davra qurib o'tirishardi-da, qoshiq bilan balishning ichidagi tuzlangan go'shtni yeb olishardi, keyin qolgan-qutgani bilan choy ichishardi.

Kasal yotgan dodamning ko'nglini ko'targisi keladimi yoki dilkash kishimi, bilmadim, ovqatdan keyin O'roz qiziq-qiziq hikoyalar aytar edi.

U nuqul ovchilik haqida hikoya qilar, ba'zi hikoyalari ikkinchi bir hikoyaga o'xshamas, har kechaning hikoyasi boshqa-boshqa, yangidan boshlanar edi...

Chin yetimlar

Men yetti yoshga to'lgan vaqtimda, Jamanshuborda turadigan amakim Mustafo uy-ichimizni ko'chirib oldirdi. U ham qashshoq-kambag'al, o'z ishiga yaroqsiz, hasta, bolalari hali yosh edi.

O'sha yoz, yodimdan chiqmagan bo'lsa, dodam amakim Mustafoning xotini Silevsin bilan birga pichan o'rishdi. Badavlat qarindoshlarimiz ularni o'zlariga qo'shmadi.

Qishga yaqin boshpana solib olishga dodamning sog'lig'i yaramaganligi uchun Mustafoning uyida qishladik. O'sha vaqt hali-hali esimda: Mustafoning chimdan solingan bir xonalik tor uyining bir burchagida to'shakka cho'zilib kasal dodam yotardi. Bo'sag'aning chap tomonida esa Mustafo yotardi. Har ikkalasi ham kasalning og'irligidan iztirob chekardi.

Nima uchundir oilalari oz bo'lishiga qaramasdan, ikki uyning qozoni boshqa-boshqa edi. Shu yili qisir qolgan ko'k biyani Muqon so'yib yarim go'shtini Mustafoga bergan. Biya semiz chiqqan edi. Uning ham sho'rvasini bo'lib ichishardi.

Uzoq kasalning ta'siri bo'lsa kerak, Muqon bilan Mustafo tez-tez janjallashib turishar edi. U janjalga sabab — menman. Mustafoning bir bolasi menga tegib ketsa bas, dodam janjal ko'tarardi. Buning oqibatida Muqon ukasi Mustafoning uyidan ko'chib ketib, qarindoshi Ismoilning o'g'li Qosimning uyiga kirdi...

Qor ketib, odamlar dalaga chiqqanlarida, yurishga madori kelmagan dodamni qarindoshlarimiz o'tovgacha kigizga solib ko'tarib borishdi. Birozdan keyin odamlar yaylovga ko'chishdi. Ovulimizning yaylovi Do's tepaligi atrofiga joylashgan, uning

yoqasi qumli taqir maydon. Bolalar o'sha maydonda ertalabdan oqshomgacha oshiq o'ynagani-o'ynagan. Ularga men ham qo'shilardim. Bir kuni, o'yin avji qizigan paytda birov otda chopib keldi. Bu amakimiz Sarsek ekan.

— Qani, ukam, uyga bor, — dedi u menga.

Men o'yinni ko'zim qiymasdan: "Bormayman" deb qochgan edim, Sarsek tutib oldi-da, zo'rlik bilan meni otining oldiga mingazdi. Otini ovulga qarab yo'rg'alatgan Sarsekka men: "Qo'yib yubor!" deb tirmashgan edim, u:

— Nima bo'ldi senga, bechora bola, dodang o'lib yotsa ham oshiq o'ynab yurmoqchimisan? — dedi.

Sarsek meni olib kelganda uyning ichi qiy-chuv, yig'i bilan to'lgan edi. Ko'nglimda allaqanday qo'rqinch paydo bo'ldi, uyga kirmay tortingan edim, Sarsek meni ko'tarib uyga olib kirdi. Qarasam, uyimizning o'ng yoq bo'sag'asida eskiroq chimildiq tutib qo'yilgan ekan.

— Ko'rsatish kerak, ko'ngli sovusin! — dedi birov.

— Nima qiladi ko'rib!.. Yosh bola qo'rqadi... — deyishdi ba'zi bir kishilar.

Yoshligimdanmi, avvalo, "Dodasi o'ldi" degan so'zning nimaligini fahmlay olmadim. So'ngra bilsam, dodam vafot etibdi. Sarsekning qo'lidan chiqa qochdim. Yana duch kelgan tomonga qochmay, oshiq o'ynayotgan sheriklarim yoniga qochdim.

Kim ekanligi esimda yo'q, birov ot bilan chopib kelib yana uyga eltdi.

— Qochgani nimasi?! — deyishdi ba'zi kishilar, — kap-katta bola "dodasi o'ldi" degan so'zni tushunmasa-ya.

Bu bola bilmay qochib yurgani yo'q, katta bo'lsa ham bilib qochib yuribdi, — deyishdi allakimlar menga achinib.

Nima uchun ekanligini kim biladi deysiz, odamlar dodamni Do's tepaligining ustidagi qabristonga olib ketganda, men bormay qochib qoldim...

Dodamni ko'mib kelib, tor uyimizga yig'ilishgan odamlarning gapiga quloq solib tursam, ular mening yig'lamaganligimni emas, opam Ultug'onning yig'lamaganligini aytishib, koyishayotgan ekan.

— Mayli, Sobitni qo'yaver-chi, — deyishardi ular, — hali o'yin bolasi, "o'lim" deganning nima ekanligini tushunadi deysanmi!.. Anavi, bo'yi yetgan opasiga nima bo'ldi?!. Dodasini yo'qlab yig'lab o'tiradigan qiz emasmi?.. Anchayin yig'lagani bo'lmasa, dodasini yo'qlab yig'lay olmaydi shekilli, hay bu qiz odam bo'lmas!..

Ultug'onning o'lan aytib yo'qlab yig'lashini biladiganligini odamlar kelasi yil shu vaqtda bilishdi. Dodamning o'lganiga rosa bir yil bo'lganida oyim vafot qildi.

Dodam o'lgach, oyim betob bo'lib yotib qoldi. Shu holatda u tinch yotmasdi, kecha-yu kunduz ingrab yig'lar edi; Ultug'on ikkalamizni har kuni kechqurun "allalab" uxlatadigan ham, tong sahardan uyg'otadigan ham oyimning zor-zor yig'lashi edi!..

O'sha zorlanishdanmi, yoki boshqa bir dardga duchor bo'ldimi, dodam o'lgan yildan boshlab oyimning sog'lig'i yomonlasha bordi, ko'klamgacha shu ahvolda yotdi. Shunday qilib, oyim bilan ham xuddi dodam o'lgan vaqtda abadiy vidolashdik.

Oyim qanday vafot etganligini men juda yaxshi bilaman: vafot etmasdan bir kun ilgari u ovqatdan qoldi. U, shu kuni Ultug'onni uyg'otdi. Men ham uyg'onib ketdim.

— Chanqadim, — dedi u.

Ultug'on "Nima ichasiz?" deb so'radi.

— Choy ichgim kelayotir, — dedi oyim.

Bir tomoni pachaqlangan eski samovarga Ultug'on suv quyib, cho'g' soldi-da, tashqariga chiqib ketdi.

— Haligi bebaxt choy izlab ketdi chamamda, — dedi oyim, — uyda choy yo'qligini bilmabman, sho'rli boshim!.. Eh, bekorga birovga telmiltirdim-a!..

Ilgari, sog' vaqtida meni erkalatib o'padigan oyim kasal bo'lganidan buyon faqatgina peshonamni silar, lekin tanasiga yaqinlatmas edi. U "Kasalim yuqmasin" deb o'ylagan bo'lsa kerak. Ultug'on uydan chiqib ketganda, oyim peshonamni siypadi-da:

— Shakijon, bor, jonim, bolalar bilan o'yna! — dedi.

Quyosh endigina chiqib kelayotganida, bola o'ynarmidi? Kambag'al uyning bolasi bo'lmasa, boy uyning bolasi bu vaqtda shirin uyquda yotardi!.. Shuning uchun ham oyim mening uydan

chiqib ketishimni istagani bilan, men uning so'ziga quloq solmadim...

Ultug'on ham kechikibroq keldi. "Bir damlam choyni ikki-uch uydan so'rab zo'rg'a topdim" dedi u. Shu vaqtda samovar ham qaynadi, choy damlandi, dasturxon yozildi.

— Bir chaqmoq qand bo'lsa! Biroq yo'q-da, — deb oyimning o'kingan tovushini eshitarkan, Ultug'on:

— Topib kelay, — deb o'rnidan qo'zg'oldi. Shunda oyim:

— Ovora bo'lma, qulunim, yana kimlarga termilasan, uyda qurt bor-ku, og'zimni shu bilan ta'mli qilarman, — dedi.

Hanuz ko'z oldimda: oyim quyuq qaymoq bilan choyni terlab-terlab o'tirib ancha ichdi. Shundan so'ng:

— Meni endi yotqiz, jonim, — dedi qiziga.

Ultug'on suyab, chalqancha yotqizdi.

Yodimdan ko'tarila yozibdi: men oyim bilan anchagina choy ichdim. Oldimizga qo'yilgan tovoqdagi qaymoqqa chuchuk qurtni botirib yeb ham oldim. Ultug'on tuz totmadi; rangi o'chib, shahlo ko'zi chaqchayib, ko'ziga kelgan yoshini tez-tez nozik barmoqlari bilan artib tashlar edi...

Biz choyimizni ichib bo'lganda, quyosh terak bo'yi ko'tarilgan edi. Tashqarida qo'shni bolalarning o'ynagan tovushi eshitilib turibdi; men shularning yoniga chiqmoqchi bo'lib alanglab turgan edim, oyim menga sekingina:

— Shakijon-ey, bu yoqqa kelib ket-chi, — dedi.

Men oyimning yoniga kelganimda, u peshonamdan yana bir siypadi-da, ko'ziga jiqqa yosh olib:

— Baxtli bo'l, qulunim, bor o'yna! — dedi.

O'rnimdan qimir etmay, hayron bo'lib turganimda, Ultug'on yuzini oyimning gavdasiga bosib yota qoldi!.. Men termilib qolgan bo'yimcha turardim!.. Shu vaqtda Ultug'onning achchiq-achchiq faryodi ko'tarildi... Nima bo'lganini tushunib men ham yig'lab yubordim... Uyga yugurib kirgan allakimlar, faryod ko'tarayotgan Ultug'onning quchog'idagi oyimga yaqinlashishdi-da, ba'zilari Ultug'onni, ba'zilari esa meni ushlab:

— Sho'ri qaynagan, sho'rlilar-ey, — dedi, — chin yetim bo'ldinglar-ku!.. — deyishdi.

Ovulning eski odaticha, qabristonga o'g'il bola borishi mumkin, qiz bola bora olmas ekan. Men oyimni ko'mishga bordim, Ultug'on zor-zor yig'laganicha uyda qoldi...

Atoqli shoir Mahambet o'lanlarida:

Osmondagi bo'zto'rg'ay
Bo'zda bo'lar uyasi.
Bo'zning tagin suv olsa,
Faryod chekar bolasi.
Qora lochin, oq tuyg'un
Qayindadir uyasi.
Qayin boshi egilsa,
Faryod chekar onasi —

degan misralar bor. Asli Mahambet bu so'zlarni folklordan olganmi deyman-da.

Bunday deyishimning sababi, men oyimni ko'mib kelsam, o'n ikki yashar Ultug'on xuddi bo'yi yetgan qizlarday o'lan aytib yig'lab o'tiribdi, kimdan o'rganganligini kim biladi, yuqorida Mahambetdan olgan,

Osmondagi bo'zto'rg'ay
Bo'zda bo'lar uyasi.
Bo'zning tagin suv olsa,
Faryod chekar bolasi —

kabi so'zlarning oxiriga:

Ota-onamdan ayrilib,
Ko'zimning oqdi qorasi... —

deb qo'shib, aralash-quralash qilib aytayotir... Endi uni odamlar fahmsiz deb so'kishning o'rniga:

— Voy tavba, yosh boshidan o'lan aytib yig'lashni kim o'rgatib qo'ygan bu qizga?! Ota-onasidan judo bo'lib, yetim qolishini bilib tug'ilganmi? — deb hayron qolishdi.

— Sho'ri qaynagandan so'ng yig'lamay nima qilsin? — deyishdi odamlar. — Xudoning rahmi kelmagandan keyin nachora, ha, chinakam yetimlar shular!..

O‘qishga borish

Oyim vafot qilgan yilning yozi boshlandi. Ovulimiz Do‘s tepaligining bag‘ridagi ko‘m-ko‘k maysazorga ko‘chib kelgan edi...

Maysazorda necha turli gul bo‘lsa, u gullarga turli kapalaklar kelib qo‘nar edi. Ularni quvish qanday qiziq!..

Maysazorlarda uchib-qo‘nib yurgan katta-kichik qanotli, qanotsiz chigirtkalar... ularni tutish, katta chigirtkalarni bir-biri bilan urishtirish, birining boshini biriga uzdirish, birining qornini biriga yordirish qanday qiziq!..

Ana, qo‘shqanotli ninachilar uchib yuribdi. Ana shu ninachilarning birini tutib olib dumiga cho‘p sanchib qo‘yib yuborsang, joni og‘rigan jonivor vizillaganicha osmonga ko‘tariladi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. U qanday qiziq!..

Ana, ba’zi yerlarda xuddi chuqur qoqilgan qoziqday qaqqaygan allanimalar ko‘rinadi. Ular o‘zimizga tanish inlarining og‘zida o‘tirgan yumronqoziqlar. Cho‘pdan boshqa narsaga zarari tegmaydigan bu jonivorlarga ko‘klamda ovulimiz Do‘s tepaligiga ko‘chib kelgandan to Jamanshuborga ko‘chib ketguncha tinchlik yo‘q. Bolalar ularni inining og‘ziga tuzoq qo‘yib ham, suv quyib ham tutishardi. Tutgandan so‘ng o‘ldirishmasa mayli edi-ya, unday qilishmasdi-da! Qildan ishlangan tuzoqni dumiga bog‘lab kuni bilan quvlashardi. Bolalarga bu qanday qiziq!.

Ana, keng, bepoyon dala... Tinch yashayotgan vaqtda ham chirillashadigan uning polaponlari ovulimiz ko‘chib kelgandan keyin yana tinchsizlandi, ilgargisidan ham battar chirillashadigan bo‘lib qoldi... Nima ham qilsin, bechoralar?.. “Uchgan qush qochgan ov bola uchun” degan emasmi qozoqlar?.. Agarda ko‘chib kelgan ovulning bolalari ularning tuxumlariga, polaponlariga tegmasalar, chuvullashmagan bo‘lar edi. Unday qilmasdilar. Ko‘pchilik qushlar har yili tuxumlaridan, polaponlaridan ayrilardilar. Shunday bo‘lgach, ular nega chirillashmasin!.. Ularning zor qaqshashi bilan bolalarning nima ishi bor? Ularga faqat qushlar chirillashining o‘zigina qiziq emasmi?!

Biror falokat yuz bersa, qushlarning hammasi ham tuxumlari bilan polaponlariga achinib chirillashardi. Lekin shu qushlarning

faqat ikki turlisigina o‘z polaponlarini himoya qila olardi: — biri Oqqush, ikkinchisi — Qizg‘ish[1]. Oqqushning g‘iyq-g‘iyq etgan tovushigina bo‘lmasa, uncha epchil qush emas. Qizg‘ish esa xuddi seni osmonga olib uchadigan burgutlarday pastlab uchardi...

Oppoq bag‘ri yarqillab, qisqa chipor qanoti lopillab, bo‘ynini cho‘zib tepangda javlon urib yurgan Qizg‘ishga telpak uloqtirish qanday qiziq!

Ana, oynaday yarqiragan Do‘s tepaligi!.. “Keldinglarmi, sog‘ingan do‘stlar?” deganday quyoshning o‘tkir shu’lasiga belanib kulimsirayotganday bo‘lardi. Kelinglar, bolalar, cho‘milinglar ko‘m-ko‘k toza suvimda!.. O‘ynanglar oshiqlaringni qirg‘og‘imdagi taqir maydonimda!.. — deganday bo‘lardi go‘yo Do‘s tepaligi. Uning bu iltimoslarini bajo keltirishni aytmaysizmi, eh!..

Mustafo bilan uning xotini Silevsin, Ultug‘on ikkalamizni o‘z uyida yaxshi parvarish qilayotgan bo‘lsa ham, yetimlikning nima ekanligini oyim o‘lgandan keyin tushundim. Ovulimizning Do‘s yayloviga ko‘chib chiqishi meni ovuntirib qo‘ydi. Abay aytmoqchi:

Yetim qo‘zi — tosh bag‘ir,
Ma’rar, so‘ngra o‘t yeyar.

Ovulimiz Do‘s yayloviga ko‘chib Jamanshuborning boshqa bolalari kabi men ham o‘yinga berilib ketdim... Lekin bu o‘yin-tomoshalar uzoqqa cho‘zilmadi, go‘yo suv sepgan cho‘g‘day so‘nib qoldi. Bir kuni men ertalabki choyni ichib, o‘ynagani chiqmoqchi bo‘lib turgan edim, shunda Mustafo:

— O‘tir, hech qayoqqa borma! — deb katta ko‘zlarini olaytirdi. Butun hayotini qashshoqlik, gadolik bilan o‘tkazgan, ellikdan oshgan, yoshining yarmini kasallikda o‘tkazgan Mustafoning harakatida ham, fe’l-atvorida ham, shu kambag‘alchilik, kasallikning asari sezilib turar edi. Uning doim soliq yuradigan qovog‘i sira ochilmas, jahli chiqib katta ko‘zlarini tikib qarasa, go‘yo ko‘zlaridan chiqqan uchqun a’zoyi badaningdan o‘tib ketganday bo‘lar edi. Shu vaqtda uning chechakdan dog‘ tushgan qora, ozg‘in yuzi tap-taqir bo‘lib, lunji osilib, ingichka bo‘ynidagi yo‘g‘on tomir-

[1] Qushning nomi. *Tarj.*

lari ko'rinardi. Ba'zi bir kishilar uni "Targ'il Mustafo" deb atashi ham, shu sababdan bo'lsa kerak. Agar uning jahli chiqsa bolalarini ham, xotinini ham o'tga dog'lagan moyday jizg'irib, ayamay kaltaklar edi.

O'z bolalarini ayamaydigan Mustafo meni ayarmidi, yoki otasi yo'q, onasi yo'q yetim dermidi, yo bo'lmasa tug'ishganim dermidi, urmasdi ham, urushmasdi ham. Shunday mehribon odamning bugun meni "O'tir, hech qayoqqa borma!" deb birinchi marta jerkishi, butun qahri-g'azabi bilan qarashi yosh qalbimga ninaday sanchildi. Ko'chaga chiqib o'ynamoqchi bo'lib turgan yerimda taxta bo'lib qotib qoldim. "O'tir!" degan qo'pol so'zning ma'nosini tushuna boshladim.

Dodam meni "Shakijon" der edi. Dodam o'lgach, Mustafo ham meni o'sha ism bilan atar edi. Men uni "kichkina doda" der edim.

U meni erkalar, sevar, faqat yotar vaqtidagina: "Shakijon, to'shaginga borib yot" der edi. Do's yayloviga ko'chib kelgan kuni kechasi ham Mustafo:

— Shakijon! — dedi menga muloyimlik bilan.

— Labbay! — dedim men.

— Xudo xohlasa, ertaga seni maktabga olib boraman. O'qiysan. Mulla bo'lasan. Ota-onangga Qur'on tushirasan. Bu dunyoda rohat ko'rmagan bechoralar, Alloh qabul aylasa u dunyoda rohat ko'radi.

Men indamadim. Nima ham derdim. Kichkina dodam meni baxtga emas, jabr-zulmga yetaklamoqchi. Jabr-zulm deyishimning sababi, dars beradigan domlamni men yaxshi bilaman. Uning ismi — Habibulla, familiyasi esa G'azizullin, millati tatar, bizning ovulga uni Mustafo bilan Toyjon degan kishi Troitsk shahridan olib kelgan...

Mustafo bilan Toyjonning Habibulla G'azizullinni Troitskdan bizning ovulga olib kelishining tarixi bunday: ular kunlardan bir kuni, shahardagi o'z eshonining uyiga mehmon bo'lib borishganda, hovli supurib yurgan bir yoshgina tatar yigitni ko'rib qolishadi, hol-ahvolini surishtirsa, u yigit ota-onasiz, yetim o'sgan ekan. So'ngra yetimligiga rahmi kelgan Mustafo undan: "Sura o'qiy ola-

sanmi?" — deb so'rabdi. "Bilaman" debdi yigit. U surani "qiroat bilan" o'qib beribdi. Mustafo unga qiziqib qolib: "sen bunday qilib yurma, yigitcha, — debdi unga, — biz seni olib ketaylik, ovulimizga borib bolalarimizni o'qitgin!.." U yigit: "Qanday qilib o'qitaman, faqat Qur'on o'qiganligim bo'lmasa, yozuv-chizuvni bilmayman" debdi. Mustafo esa: "Bizning bolalarga shu bilimingning o'zi ham kifoya, bolalarni o'qishga o'rgatsang bas" debdi. Eskicha o'quvdan biroz xabari bor Toyjon tatar yigitni sinab ko'rsa, ilmi juda past emish, u: "Bu yigit domla bo'la olmaydi" desa, sura o'qishdan boshqa zo'r domlalik yo'q deb biladigan Mustafo: "Hech bo'lmasa o'yinqaroq bolalarni ovutadi-ku, olib ketaylik" deb qo'ymabdi... Habibullaning ovulimizga kelib domla bo'lishining tarixi ana shunday...

U bizning ovulga taxminan 1903-yillarda kelgan. Bizgacha bir guruh bolalarni "o'qitib" chiqarib, ikkinchi guruh bolalarni "chiqarishga" tayyorlanib yurgan ekan. Uning bolalarni qanday qilib "o'qitib chiqarganligini" keyinroq aytamiz.

Kichkina dodam meni o'qishga olib borganda, o'qitadigan domla qora mo'ylovini qirdirgan, boshi so'poq, qovoq suyagi oldinga chiqib, ko'zi ensasiga kirib ketgan, burnining uchi labiga qarab engashgan, iyagi oldinga chiqqan, bo'yni qisqa, yag'rinsiz, kamalak gavdali, ichgani tanasiga singmaydigan oriq, tanasi ham, yuzi ham qonsiz, qo'l-oyog'i kichkina, barmoqlari ingichka, nozik odam edi.

Uning fe'li-atvori ham tanasiga o'xshash: bir joyda tinch tura olmaydigan sabrsiz, qayg'u hasratga ham, quvonchga ham chiday olmaydigan badjahl, o'zidan boshqaning ishini yoqtirmaydigan ishbilarmon, boshqaga yaxshilik tilamaydigan qizg'anchiq, ko'p so'zlaydigan miljing, mish-mish gapga uchadigan g'iybatchi kishi edi.

Domlamiz mol-dunyo yig'ishga beparvo qaraydigan, hisob-kitobni bilmaydigan, aldanuvchi odam edi. Maoshi bor, xayr-sadaqasi bor, uning ustiga, o'zining topishi mo'l bo'lardi-yu, lekin uni uddalay olmasdi, ko'ringan odam yeb ketaverardi.

Mana shu odatlariga ko'ra unga ovul odamlari: "No'g'oy domla", "Yaltiroq bosh", "Kichkina domla", "Shayxi foniy" deb

har turli laqablar qo'yib yuborishgan edi. Lekin bu laqablarning birortasini ham uning ko'zicha aytmas, eshitib qolsa bo'ldi, undan baloga qolardilar.

U o'zi qo'rqmaydigan kishilarning bolalariga hurmatsizlik bilan qarar, — bu harakati uning bolalarni o'qitishda bo'lgan munosabatidan sezilar edi. Ovul Do's yayloviga ko'chib kelganda, u Jamanshuborning so'lqillama tol chivig'idan bog'lam olib kelgan edi. Domla po'stlog'i archilgan bu chiviqlar bilan shogirdlarining yalang'och orqasiga urganda, chiviqlar xuddi misday egilar, sinmas, tekkan yerini tilib yuborar edi. Shogirdlar qochib qutulmagunlaricha bu chiviq domlaning qo'lidan tushmas, xuddi ilonday to'lg'anib turar edi. Domlaga qilig'i yoqmagan bolaning orqasiga chiviq tezlikda borib tegardi. Chiviq azobi kamlik qilganday, domla bolalarning qulog'ini cho'zib, tilini burab ham azoblar edi.

Domla juma kunlari bolalarni yotqizib qo'yib orqasiga darra bilan urar edi. Bu jazodan aybli bola ham, aybsiz bola ham qutula olmas edi. Juma kuni bolalar darsdan ozod bo'ladigan vaqtda, domla bir-ikkita qiz bolalarni "Ey, nomahram" deb ko'ylaklarining etagiga xo'ja ko'rsingagina chiviq bilan uch martadan urib ozod qilardi-da, o'g'il bolalarni yotqizib, ko'ylaklarini yuqoriga ko'tarib qo'yib, so'ngra kuchi boricha chiviq bilan savalardi. Chiviq bolaning orqasini qilichdek tilsa ham, dod deb ovoz chiqarishga haqi yo'q edi. Agar ovoz chiqarsa, jazo berilardi: bolaning nafasi o'chguncha urardi... ota ham, ona ham bolasini ajratib ololmasdi. Sababi, bilimsiz-nodon ota-onaning tushunishicha, domlaning chivig'i tekkan joy u dunyoda do'zax o'tiga kuymasmish.

Domla bolalarga faqat dars vaqtidagina emas, darsdan boshqa vaqtlarda ham xo'jayin edi. Kuni bilan darsda o'tirib charchagan bola kechasi o'ynamoqchi bo'lsa, uning yoniga "Shayton domla" tez yetib kelardi... Bolalar tum-taraqay qochishardi. U xuddi "shayton"ga o'xshab quvardi. Domla juda yugurik edi, quvlagan bolaga yetmay qo'ymasdi. Ushlasa bas, mushtlardi.

Ana shunday qilib, kunduzi ham, kechasi ham azoblayveradigan domlaning oldiga bola qanday qilib ixlos bilan borsin!.. Lekin oldimda domladan ham badjahl Mustafo: "Qimir etma!" deb turibdi. Nachora?..

Meni o‘tqizib qo‘ygandan keyin Mustafo o‘rnidan turib bo‘sag‘ada turgan kovushini to‘g‘rilab qo‘ydi-da:

— Qani yur! — dedi.

Nima ham der edim, noiloj ergashdim... Mustafo meni “Qochib ketadi” deb o‘ylagan bo‘lsa kerak, uydan chiqishim bilanoq o‘ng qo‘limdan mahkam ushlab oldi. “So‘zlasam yig‘laydi” deganday yo‘lda kelayotib u ham indamadi, ovoz chiqarsam ta’zirimni yeyshimni sezib, men ham indamadim.

Mustafo meni Bo‘lat ovuliga olib kelayapti. U ovul ham Do‘s yaylovida joylashgan. Bizning ovul bilan Bo‘lat ovuli o‘rtasida bir soy bor edi, soyda yozda ham suv bo‘lar edi. Qadim zamonlarda shu soyning qirg‘oqlarida quchoqqa sig‘maydigan daraxtlar o‘sib, uni “O‘dirayning qora cho‘g‘i” deyishar ekan. Ana shundan keyin soy “O‘diray cho‘nqiri ” deb yuritilibdi. Bo‘lat ovuli O‘diray cho‘nqirining ustiga, ovulimizning ro‘parasida joylashgan edi.

Bo‘lat ovuliga yetmasdanoq bolalarning qaysi uyda o‘qiyotganlarini bilib kelar edim. Ular chuvullashib o‘qishar edi. Yana uning ustiga, har bolaning darsi o‘zicha, boshqa-boshqa. Bolalarning hammasi o‘z darslarini o‘qib chuvvos ko‘targanlarida, ular o‘qiyotgan uyning atrofi qo‘y, sigir, yilqi, — hammasi aralash baqirishganday qiy-chuv bo‘lib ketardi. Ana shu chuvvos Bo‘lat ovulidagi Irimboyning uyidan eshitilib turar edi. Irimboyning Isahmet ismli o‘g‘li bor edi, u mendan taxminan uch-to‘rt yosh katta edi. Olti-yetti yoshida ikki ko‘zi birdaniga chechak kasalidan oqib tushgan — ko‘r. U yozuvni ko‘rmasdi, lekin darsni eshitib yod olardi.

Mustafo meni yetaklab to‘ppa-to‘g‘ri shu uyga kirdi. Bo‘sag‘aning o‘ng tomonida o‘zimga tanish bolalar chordona qurib o‘tirishibdi. Qo‘llarida katta-kichik kitoblar... Ba’zi birlarining qo‘lida kalta chiviqning boshiga qistirilgan bitta-bitta varaq qog‘oz. Hamma bolaning beli bukchaygan, boshlari quyi solingan, ularning qiy-chuvidan kimning nima o‘qiyotgani ma’lum emas edi.

Davra qurib o‘tirgan bolalarning o‘rtasida cho‘kka tushib olgan domla, yozilgan dasturxonning ustiga muk tushib tovoqdagi qaymoqqa bo‘g‘irsoq botirib yeb o‘tiribdi... O‘ng bo‘sag‘ada esa

Isahmetning onasi Donishman urchiqda ip yigirib o'tiribdi. Uydagi odamlar faqat shular edi.

Domlaning yoshi kichik bo'lgani bilan yili katta deb yurgan Mustafo eshikdan kirishi bilanoq, o'ng qo'lini ko'kragiga bosib ta'zim qildi-da: "Assalomu-alaykum!" deb cho'zib salom berdi.

— "Va-alaykum-assalom!" deb domla o'rnidan irg'ib turib Mustafoga qo'lini cho'zdi.

Uning Mustafoni bunchalik hurmat qilganini bola bo'lsam ham bilib turibman. U Jamanshuborda faqat uch kishidan o'larday qo'rqardi. Biri Mustafo edi. U juda badjahl kishi edi. Agar jahli chiqsa bormi, — yuzing-ko'zing demay so'kardi. Domla uning shu odatidan qo'rqardi, yana "kelinchakning yuzini kim avval ochsa, shu issiq" deganday, Jamanshubor ovulidan birinchi bo'lib tanishgan, yana uning ustiga, Jamanshuborga birinchi marta olib kelgan kishi Mustafo bo'lgani uchun uni alohida hurmat qilsa kerak. Qo'rqsa ham, hurmat qilsa ham, Jamanshubordagi erkak zotidan kichkina domla faqat Mustafodan qo'rqar edi.

Ikkinchi qo'rqadigan kishisi — Kulshay. U Mullahmed degan bir boy kishining ikkinchi xotini edi. Uning birinchi xotini Kumushdan farzand bo'lmagach, o'zidan ikki hissa kichik Kulshayni xotinlikka olibdi. Chol kishiga tekkanligi uchun tajangligidanmi, yoki o'zining odati shundaymi, u tili achchiq, badjahl xotin edi. Domla uning to'ng'ich o'g'li Smag'ulni bir marta urgan ekan, shuni eshitib qolgan Kulshay domlaga kelib: "Kelgindi, yaltiroqbosh" deb avvalo urishib, so'ngra "bo'yningni uzib olaman" deb do'q uribdi. Shu-shu bo'pti-yu, domla: "Kulshayi qurg'urina tiyarga yaramiy" deb undan qochib yuradigan bo'libdi.

Uchinchi qo'rqadigan kishisi — "Zo'r enang". U kishi bizning qarindoshlarimizdan bo'lib, Smayil degan kishining ayoli. Zo'r enangning o'z ismi Kumush. "Zo'r enang" deyishimizning sababi — zo'r gavdali xotin edi. Esimni taniganimdan buyon men bunday yo'g'on, zo'r gavdali ayolni ko'rgan emasman. Gavdasining zo'rligi bu yoqda tursin, barmoqlarining yo'g'onligi, uzunligi ham yosh bolaning bilagiday kelardi. Ayniqsa, basharasi juda katta edi. Yuzining kattaligi tovoqday yumaloq, ikki yuzining o'rtasida to'mpayib turgan katta burnining ikki katagi xuddi sichqonning

iniday... uning eng qattiq so'kishi "bormoq"[1] edi. Zo'r enang qilig'i yoqmagan kishilarni: "E, padaringga... bormoq" deb so'ka boshlardi. Ham qari kishi deb, ham so'z bilan yenga olmasligini bilib, Zo'r enangga hech kim betlay olmasdi. Kichkina domlaning qo'lida zo'r enangning nabirasi Ashim o'qir edi. Ashimni domlaning bir marta urganini eshitgan Zo'r enang uni biroz "bormoqlasa" kerak... shundan buyon kichkina domla uni ko'rsa qochib yuradigan bo'libdi.

Irimboyning uyiga Mustafo meni olib kirgandan so'ng, salom berib kutib olgan kichkina domla toyning terisidan ishlangan yumshoq po'stagiga Mustafoni o'tqizdi-da, o'tirgan bolalarga: "Ichlaringda o'qinglar!" deb bolalarning qiy-chuvini to'xtatib qo'ydi.

— Domla aka! — dedi Mustafo yonidagi bechorasimon o'tirgan domlaga meni qo'li bilan ko'rsatib, — mana bu bolani taniysan- a?

Rosti bilan tanimadimi, yoki Mustafoni ko'rib shoshib qoldimi, tanisa ham tanigisi kelmadimi, domla:

— Bilmadim, — deb javob berdi.

— Muqonning o'g'li-ku, o'tgan yili o'lgan akamning o'g'li.

— Shulaymi? - dedi domla menga tirjayib.

Domlaning o'zi qiyinchilikda o'sganiga qaramasdan, bizning ovulga kelib qorni to'yib, yaxshi kiyimlarni kiya boshlagach, yomon kiyimli odamlarni, iflos idish yoki yomon to'shaklarni ko'rsa, jirkanadigan bo'lib qoldi. Bola bo'lsam ham domlaning bu odatini men yaxshi bilaman.

— O'qitgani olib keldim, bu bolani, — dedi Mustafo yana meni qo'li bilan ko'rsatib, — mana o'z ko'zi oldida aytib qo'yay, mahkam ushla, ayama. Darsiga beparvo qarasa, ta'zirini ber. Terisidan tasma tilib ol!

Mustafo so'zini tugatib, domlaga tikildi. Domla indamadi. U go'yo menga: "Shu aytilganlarning hammasini qilaman, bilib qo'y!" deganday tikilib qarab qo'ydi.

— Qani, bu bola qayerga o'tirsin? — dedi Mustafo domlaga.

— Tigi o'rniga! — deb domla menga ozg'in, nozik, qop-qora bolaning yonidan joy ko'rsatdi. U bolaning ismi, O'rozali edi. Menga u uchinchi ota-onadan qo'shiladi, qarindoshimiz. Otasi-

[1] **Bormoq** — ruscha varmag so'zining buzilib aytilishi *(Tarj.)*.

ning ismi Rahimboy. Bizning elda Qozoq aralashib o'tirmagan rus yerlarini "ichkari" deb atashardi. Rahimboy ichkarida molboqar edi. Ko'klamda O'rozalini otasi o'qishga olib kelib, Irimboyning uyida qoldirib ketgan edi. Rahimboyni birinchi daf'a shu yerda ko'rgan edim. Ko'zining oqi, tishlari, tirnoqlari bo'lmasa, boshqa yerlari xuddi negrga o'xshash qop-qora edi. Yangalari unga hazillashib "Oppoq" deb ot qo'yishgan. Keyinchalik odamlar ham uni "Rahimboy" demasdan "Oppoq" deb atashgan, deyishadi. O'rozali ham xuddi dodasiga o'xshagan, mendan faqat ikki yoshgina katta edi.

Domla menga joy ko'rsatgandan so'ng, O'rozali bilan uning yoniga o'tirgan bola menga joy bermoqchi bo'lib ikki tomonga siljishdi. Men hadeganda o'tirmadim. Chunki u o'rin menga o'qish o'rniga o'xshamas, ovga qurilgan tuzoqqa o'xshab ko'rinar edi.

O'tirgan bolalarning orasida Mustafoning mendan bir yosh katta o'g'li G'obbos ham bor edi. U ikki yildan buyon o'qirdi, "ziyrak" atalib yurgan bola edi. Shu vaqtda u Qur'onga tushgandi.

— G'obbos Qur'onga tushgan bola, birodar, — dedi domla, — bu bolaga "alifbiy"dan boshlarg'a kerak. Oppoqning bolasi alifbiyda. Birga o'qisinlar, ular!..

— Domlaning aytayotgan "alifbiy"si hozirgi bizning alifbedagi "a" bilan "b" hariflari. Bu ikki harfning nima uchun "alifbiy" deb atalishining sababini keyinroq aytarmiz. Hozir O'rozali masalasiga qaytaylik. Uning o'qishga kelganiga rosa ikki yil bo'ldi. Shundan buyon "alifbiy"dan chiqmaganiga Mustafo hayron bo'lib domlaga qaragan edi.

— Bik zehnsiz bola, — dedi domla, o'quv birda kirmiy boshina. Sabog'ina qaramiy, o'yinga bog'a, qahari so'qqiri!..

Domla ham, Mustafo ham biroz sukut qildi. Domlaning indamasligining sababi keyin ma'lum bo'lib qoldi. Shu paytda domlaning qo'lida "alifbiy"si bor "iymonshart" kitobi yo'q ekan, "alifbiy"ni o'zi yozib beray desa, xat yozishni bilmas, yonida unga yozib beradigan boshqa kishi yo'q, o'qitayotgan bolalari ham, yoza olmas ekan.

Mustafoning sukut qilishining vaji bor edi; meningcha, bolasini o'qitmasdan bo'lmasdi. Qanday qilib o'qitsa ham ixtiyor

domlada, buning ishi yo‘q, agar o‘zi o‘qishni bilganda edi, domlani shu yerda tekshirarmidi? Afsuski, o‘qishni bilmaydi-di! Umrida tahsil ko‘rmagan, alifni tayoq deb tushunadigan kishi. Dindor, namozdan bosh ko‘tarmagan, sura o‘qishdan og‘iz yummagan Mustafo shu namozning arab tilidagi shartlarini, arab tilidagi suralarini o‘z ko‘zi bilan o‘qib o‘rgangan emas, faqat biladigan kishilardan o‘rganib, yod olgan. Agar, bundayroq o‘qishdan biroz xabari bor kishi Mustafoning “bilaman” deb yurganini o‘qitib tinglasa, o‘n ikkidan birini ham ajrata olmas, arab so‘zlarini buzib talaffuz qilganida kulaverib ichagi uzilar edi. Shuning uchun ham Mustafoning nazarida domla qanday o‘qitsa ham mayli, undan boshqacha o‘qishning keragi yo‘q edi. “O‘qish” degan narsani shunday tushungan Mustafo biroz indamay o‘tirgach:

— O‘tir anavi joyga! — dedi menga jahl bilan O‘rozalining yonidan joy ko‘rsatib.

Nachora! Keldim. O‘tirdim.

Mustafo o‘rnidan turib domlaning oldiga borib o‘tirdi. Keyin cho‘ntagidan hamyonini sug‘urib olib, Nikolay podshoning surati bor bir so‘mlik kumush chiqardi. Mustafo menga ko‘z qirini tashlab, bir so‘mni domlaga berdi-da, “Ilohi omin” deb qo‘lini yozdi.

Bir so‘mni olgan domla ham qo‘lini yozib, nimalarnidir ichida shivir-shivir o‘qib yuzini siladi. Mustafo ham yuzini siladi. Lekin diqqat qilgan kishi ikkalasining fotihasi ikki xil bo‘lganligini sezar edi. Domla yuzini siladi. Mustafo bo‘lsa...

Hali men payqagan edim, Mustafoning qo‘llari yozilgach, qaltirab ketdi. Fotiha o‘qib bo‘lgach, ko‘ziga yosh oldi. U, yoshini artmasdan o‘rnidan turib ketmoqchi edi, shunda:

— Qaynog‘a! — dedi jun ip yigirib o‘tirgan Donishman, urug‘i bilan eshilgan junini yerga qo‘yarkan, o‘rnidan turib. Mustafo to‘xtatdi.

— Oshdan totib ket!

Mustafo yana o‘rniga o‘tirdi.

Irimboyning uyi — Jamanshubordagi o‘rtacha davlatmand uy bo‘lib, mayda moli, oz sigiri, ko‘proq qimizi, kamchil ayroni mo‘l bo‘lar edi. Donishman Mustafoga bir tovoqda ayron berdi.

Ochiqko'ngil, yuvosh Donishman Mustafoga ayron uzatar ekan, ko'ngli bo'shashib ketdi.

— Ko'rib o'tiribman, qaynog'a, — dedi u, tovoqni Mustafoning qo'liga bergach, o'rniga o'tirib, — tushunib o'tiribman. Ultug'onning otasiga fotiha o'qishga yararmikan, deb olib keldingku bu bechora bolani!

Mustafoning ko'zlaridan oqqan yosh ho'playotgan ayronga qo'shilib ketdi.

Qabr boshida

Takror-takror o'qiladigan suralardan ba'zilari haligacha yodimda. Ovulimiz "Do's" yayloviga joylashgan edi... Juma kunlari bolalar o'qimasdi... Mustafo o'sha kuni ertalab o'rnidan turardi-da, bog'lab olib qolgan biyasini izvoshga qo'shardi. Aravaga meni ham o'tqazardi... Ikkalamiz qishloqqa qarab jo'nardik... Qishloqning berigi tomoni katta go'ristonlik edi. Daraxtsiz yerda bo'lgan bu go'ristonlikdagi bir necha qabrning (albatta, davlatmand, obro'li kishilar qabrning) chor atrofigina yog'och panjaralar bilan to'silgan... Yonma-yon qo'yilgan Muqon bilan Bolsarining qabrlari esa ochiq yerda, atrofi hech narsa bilan to'silmagan, quruq tepachaga o'xshab ko'rinardi... Butun go'ristonlikning atrofi gir aylantirib o'ralgan edi.

Mustafo ikkalamiz kun chiqqan paytda o'sha go'ristonlik darvozasiga kelib yetdik. Shu vaqtda atrofi ko'kalamzor bo'lib ketgan qishloqda chivin juda ko'p edi, sal to'xtasang bo'ldi, vizillab atrofingni o'rab olardi. Ustingga eng kamida bir necha mingi yopirilardi...

Minib yurgan yolg'iz biyasini ayagan Mustafo, go'ristonlikka yetgandan keyin biyasini aravadan chiqarardi-da, oldingi ikki oyog'idan tushovlab, shabada esayotgan tomonidan xas-cho'p tutatib qo'yardi. Tutunga chivinlar yaqinlasha olmasdi. Shunda biya ham bemalol o'tlay boshlardi...

Mustafo ikkalamiz go'ristonlikka keldik. Boshqa kishilarga qaraganda go'ristonlikka biz ko'p kelamiz, bilmadim, o'tlari ancha

o‘sgan go‘ristonlikning ichidagi, darvozasidan ota-onamizning qabrigacha cho‘zilgan so‘qmoq yo‘lga tushib olar ekanmiz, bizga g‘uj-g‘uj chivinlar yopishardi. Mustafoning aytishiga qaraganda, go‘ristonlik ichiga olov yoqib, tutun tutatib bo‘lmas ekan, sababi, “olov” do‘zaxdan chiqqan emish, shuning uchun ham go‘ristonlikda olov yoqib do‘zah isini anqitish gunoh hisoblanar emish...

— Amaki, — dedim men, chivinlar haddidan oshib, badanning ochiq yerlarini achitib chaqayotgan bir paytda, tutunsiz qanday chidaymiz... Sira ham sura o‘qib bo‘lmaydi-ku, axir!..

— Gunohkor bo‘lma, chirog‘im, — dedi Mustafo, — Ayub payg‘ambarning a’zoyi badanini qurt yegan ekan, agar qurtlardan birortasi to‘yib, yerga tushib ketsa: “Ey bechora, Ollo taolo sening nasibangni mening tanamdan bergan, kel, yegin!” — deb qurtni tanasiga yana olib qo‘yarkan... Tanasini qurt yeb tugatishga sal qolganda, Ayub payg‘ambar: “E parvardigor, tanamning qolgan qismini ham qurt yesa roziman, faqat tilim bilan yuragimni omon saqla, agar tilimni yesa, senga hamd-u sano (madh va nolish) ayta olmayman, agar yuragimni yesa, seni seva olmayman...” deb yig‘lagan ekan. Pashsha shu qurtdan ortiq bo‘libdimi?.. Buni ham Ollo taolo o‘zi yuborgan... Chida!..

Sura qisqa bo‘lsa ham mayli edi-ya, qiynalsam ham chidar edim-ku. Unday emas-da. Qur’onda “Yosin” degan sura bor edi. Bu eng kamida yarim soat o‘qilardi. Xuddi shunday boshqa suraning o‘likka “savobi” yo‘qdek, qabr boshiga borgach, Mustafo menga nuqul “Yosin”ni o‘qitar edi... Darvozadan kirishimiz bilanoq vizillab ergashgan chivinlar, biz qabr boshiga kelib cho‘qqayib “Yosin” o‘qishga kirishganimizda ustimizga duv yopishib oldi. Bu vaqtda ulardan qutulishning hech iloji yo‘q edi. Ustingga o‘nganlarini kafting bilan o‘ldirsang, tiriklari qo‘lingga yopishardi... Qo‘lingni himoya qilsang, yuzingni talardi... Tanangning ochiq yerini topa olmagach, kiyimingning sirtiga yopishardi... Yilqining qalin terisini bigizdek teshib o‘tib, qonini so‘radigan chivinlarning tumshuqlari sening yozlik, yupqa kiyimingni pisand qiladi deysanmi?..

Sariq chivin juda achitib chaqardi. Ularning tumshuqlari tekkan joy bezillab qolardi... Shunday tumshuqlar birgina emas, bir

necha ming edi... Mard bo'lsang, badaningga yalpisiga yopishgan chivinlarning shunday azobiga chidab ko'r-chi!..

Men chidayolmadim. "Yosin"ni sharillatib o'qib o'tirib ham chivinlar bilan kurashar edim...

Mustafoning chidami Ayub payg'ambarnikidan ortiq bo'lsa ortiq ediki, kam emasdi. Mening chivinlarga chidash bera olmayotganimni ko'rgan Mustafo o'qtin-o'qtin olayib qarab qo'yardi-da, indamasdan, qimir etmasdan o'tiraverardi. Ustiga qo'ngan chivinlarning birortasini o'ldirmasdi ham...

Birozdan so'ng chidami tugaydimi, yoki har holda dindor odam bo'lgani uchunmi, o'qilayotgan suraning ma'nosiga tushunmasa ham, butun ixlosi bilan tinglaydimi, haytovur "Yosin"ning o'rtasiga kelgan paytda yuzini pastga qilib yotib olardi... Mustafo tomondan qulog'imga allaqanday hazin tovush eshitilardi... U vaqtda uncha-muncha arvohga ishonardim. Men: "Mana bu tovush qabr ichidan chiqayotgani yo'qmi?" deb o'ylardim. A'zoyi badanim titrab ketar edi...

Bemalol o'qiganda yarim soatga cho'ziladigan "Yosin"ni, azbaroyi chivinlarning hujumidan qiynalganimdan, chamasi o'n besh, yigirma daqiqada o'qib tushurdim... Suraning tugaganini eshitgan Mustafo boshini ko'tarib, ichida duo o'qib, qo'lini yozib o'tirarkan, men allaqachon yuzimni siypab olardim, u esa shu tarzda uzoq o'tirardi... Shu paytda uning qora, ajin bosgan yuziga ko'zim tusharkan, qirra burnining ikki tomonidan pastga yum-yum oqqan yoshini ko'rar edim...

Fotiha o'qilib bo'lgandan keyin ham shu yerda uzoq o'tirib qolgan Mustafo haligi o'qilgan suraning savobi yetarli bo'lmadimi deganday, og'asining hali ustiga o't chiqmagan, qora tuproq tortilgan qabrini quchoqlab yotardi-da, ho'ngrab yig'lay boshlardi...

Men, albatta, u atrofdan allaqachon ketib qolardim, sababi: birinchidan, Mustafoning marhum og'asi arvohiga yolvorib zorlanishi a'zoyi badanimni titratardi...

Ikkinchidan esa, xuruj qilgan chivinlar bir yerda turg'izmas edi...

Ko‘k biya

Opam Ultug‘on ikkalamiz, oyim bilan dodam vafot etgandan keyin Mustafoning uyida qoldik. Men o‘qir edim. “Bizning Shakijon bu domlaning o‘qishini tez tugatadi, — deb xursand bo‘lib yurardi Mustafo, — shundan so‘ng men uni Qariboy hojining madrasasiga olib boraman. U o‘n ikki fanni o‘qib tugatgan kishi. Hojining madrasasini tugatgan, bizning Shakijon katta domla bo‘ladi...”.

Ba’zan Mustafo kelajagi haqida turli-tuman xayollarga borardi.

— Salomatchilik bo‘lsa, — derdi u, — Ultug‘onni qutlug‘ yeriga uzatamiz, uning qalin moliga Hamzani uylantirib, tegishli ulushini ham berib yuboraman. Undan keyin Toshqorinni (G‘obbosni u shunday der edi) yoshi ulkan bo‘lsa ham qo‘ya turib, Shakijonga qalin mol beraman.

— Qalin mol uchun nimangni berasan, — deb so‘rar edi undan xotini.

— Shu ham gap bo‘ptimi? Bizning Marjamga biror yerdan sovchi kelmaydi deb o‘ylaysanmi? O‘shaning qalin molini beraman-da, — derdi Mustafo.

O‘z bolalarining ham, mening ham voyaga yetish vaqtimni ko‘z oldiga keltirgan Mustafo, shunday xayol qilar edi: — “Shaken bilan Shakijonni alohida o‘tov-uy qilib chiqaraman. Toshqoringina qoladi. O‘ng tomonimda Muqonning o‘tovi joylashadi, chap tomonimda esa ”Hamzaniki... Xo‘sh, shundan so‘ng nima armonim bor!

Agarda u bilan mening oramizga “sovuqchilik” tushmaganda, Mustafoning bu xayoli, ehtimol, amalga oshgan bo‘lardi.

Bu “sovuqchilik” opam Bog‘ilaning qaliniga berilgan ko‘k biyadan chiqdi.

Biyaning kattaligi shunday ediki, cho‘zgan qo‘l uning ustiga zo‘rg‘a yetardi, bo‘yni g‘oz bo‘yniday egilib, ikki qulog‘i bigizday sanchilib turar edi, yap-yapaloq sag‘rig‘i xuddi to‘shak solib yotsa bo‘lguday; har yili qulunlaydigan bu jonivorning qorni yerga tegay-tegay derdi; yoyilib turgan yoli tizzasiga tushib, kokili

tumshug'ini yashirardi. Tez iyadigan bu biyani o'z vaqtida sog'ib olmasa, to'rt tomonga tarvaqaylab, suti chakillab tomib turardi...

Bu biyaning o'ziga yarasha yo'rg'asi bor edi. U qo'limizga kelgandan buyon faqat yo'rg'a qulun tug'ardi. Quluni ham o'ziga o'xshash ko'k bo'lardi, yana u erta qulunlar, quluni qora quloq bo'lib o'sar edi. Shu biya qo'limizga kelgan yili amakim uning qulunini sotib, qishga ovqat oldi. Undan bir yil keyingi qulunini sotib, dodamning o'limligiga sotib xarajat qildi. Undan keyingi qulunini ham sotib, oyimning o'limligiga sarfladi. Bularning har uchalasi ham urg'ochi qulunlar bo'lib, olisga sotilmagan edi. O'z ovulimizga sotilgan ko'k qulunlarning dastlabkisi men o'n bir yoshga to'lganimda do'nan bo'ldi, ikkinchisi g'o'nan, uchinchisi esa toy bo'ldi.

Ularni men har kuni ko'rar edim. Ko'rgan sayin o'ksirdim: ko'k toy ham, ko'k g'o'nan ham, ko'k do'nan ham xuddi onasiga o'xshardi.

"Bay, bay, — deb o'kinarim men, — shularning bari o'zimizniki bo'lsa!.. Shunda biz bir uyur yilqisi bor uy bo'lar edik-da!"...

Ko'k biyaning sotilib ketgan qulunlarini birovniki deyishga tilim bormasdi... Ichimda o'zimnikisan, deb his etardim... Ha deb ko'rgim kelaverardi, yana buning ustiga, har kuni ko'rib turardim!..

O'n birinchi yili ko'k biya odatdagidek erta qulunladi, lekin bu safar uning quluni urg'ochi emas, erkak edi.

Men uchun bu qanday sevinch!.. Men — o'g'il bolaman... Ertaga otga minadigan yigit bo'laman... Ungacha mana bu qulun ham ot bo'ladi... O'zi esa yaxshi yo'rg'a... Yana uning ustiga, chiroyli va kattakon yo'rg'a ko'k otni minib yurish qanday mazza!..

Shunday xayollarga cho'mib ketganligimdanmi, qaydam, — ko'k biya qulunlagandan buyon uning yonidan ketmaydigan bo'lib qoldim. Ko'rmasam tura olmasdim...

Ko'k bo'ladigan qulun avvalo qashqa bo'lib tug'iladi. Shunday tug'ilgan qulunni men o'z qo'lim bilan tug'izdim... Katta bo'lguncha parvarish qildim, ulg'aygach, peshonasidagi oq qashqasi kengayinqirab, boshidan boshlab badani ham asta-sekin ko'k bo'la boshlaganini, el yaylovga chiqar paytda butunlay jiyron ko'kka

aylanishini ham ko'zdan kechirdim; odamlarning og'zidan: "faqat ko'z tegmasin, maqtasa arziguday ot bo'ladi", — degan so'zlarni eshitdim...

Shunday xursand bo'lib yurganimda, bir yomon xabar eshitdim. Kapalagim uchib ketdi, nima qilishni bilmay qoldim...

Bu xabarni dastavval menga yetkazgan — Nurtozaning o'g'li Mirzag'ozi edi.

— Ukam, hech narsadan xabaring bormi? — dedi u menga bir kuni ko'l yoqasida.

— Yo'q, hech narsadan xabarim yo'q, — dedim.

— Unday bo'lsa, seni Xudo uray deb yurgan ekan, — dedi u.

— Nega?

— Rostdan ham hech narsadan xabaring yo'qmi? — deb so'radi yana Mirzag'ozi mendan.

— Yo'q, — dedim men.

— Xabaring bo'lmasa, — dedi u, — birodar (ovul kishilari Mustafoni shunday deb atashardi) ko'k biyani Japroq[1] bozoriga olib bormoqchi.

— Nega? — dedim men uning so'ziga tushunmay.

— Bozorga nima uchun olib boradi axir, — dedi Mirzag'ozi meni urushib, — sotish uchun olib boradi-da!

Shu yerda men dodlab yig'lab yuboribman...

Mirzag'ozi mendan to'rt yosh katta edi. Yana u qir-adirda ko'p yurib obdon chiniqqan, abjir, ziyrak, otasiga o'xshagan gapdon bola edi...

Ko'l yoqasidan qaytib kelayotganimizda, Mirzag'ozi menga aql o'rgatdi.

Sen yig'lamoqchi bo'lsang, bu xilda bekorga yig'lama! — dedi u. — Kichkina amakingni oldiga borib yig'la. "Biyani sotma!" — degin. "Agar sotsang men bu uydan ketaman!" — degin.

Men Mirzag'oziga churq etmadim, sababi, uning so'zi menga yog'gan edi, lekin shu kungacha ishim tushmagan, yana uning ustiga, johil kichkina amakim oldida men uning o'rgatgan so'zlarini aytishga jur'at eta olarmikinman?..

---

[1] Presnogorkovsk stansiyasida may oyida bo'ladigan bozor edi.

So‘ziga javob bermaganimdan so‘ng, meni gij-gijlatgisi kelganday, Mirzag‘ozi o‘zicha kuyib-pishib so‘zlab ketardi:

— Birodarga nima bo‘ldi ekana-a?! Seni odam qatorida ko‘rmaganmi? Ikki biyaning bittasi bo‘lsa ham mayli edi, yolg‘iz biyani sotgani nimasi? Hech bo‘lmaganda uning suti kerak emasmi? Bir o‘zi chora-chora qimiz berayotgan asl biyani-ya!.. Bilmadim, umrida baraka kirmagan bo‘sag‘asidan bu yil baraka kirgan edi, qancha ichsa ham uning suti yetib ortar edi. Shunday biyani ko‘zi qiyib qanday sotadi kishi?! O‘z biyasini nega sotmaydi? Ertaga seni yigit bo‘lmasligingga ko‘zi yetibdimi? Senga ot kerak bo‘lmaydimi, axir? Shunda senga nimasini mingizadi? Yana qulunini aytmaysanmi jonivorning! Bunday qulun anavi badavlat Alti bilan Sapida ham yo‘q. Urug‘imizda yo‘q ot bo‘lib o‘sayotgan qulunni qanday ko‘zi qiyib sotarkan-a? Yoki sening yaxshi ot minishingni ko‘p ko‘rdimi?!.

Mirzag‘ozining so‘zlarini qulog‘imga olib, uyga kirdim. U vaqtda bizning Jamanshuborda ba’zi birovlarning o‘tovidagina bo‘lmasa, o‘tovlarga chiroq yoqishmasdi, ovqatni olovning yorug‘ida yeyishar, yoqadigan o‘tinlari tezak edi.

Men uyga kirgan mahalimda kun botib, qosh qorayib, o‘tov ichi qorong‘u bo‘lib qolgan edi. O‘tovda tezak o‘ti sekin yonardi. Olovning yorug‘ida Ultug‘on choy damlar edi. Uning yoshi hozir o‘n beshga chiqqan, uzun bo‘yli, gavdali, xushro‘y yuzli, qirra burunli, orqa sochi beliga tushadigan ko‘rkam qiz edi...

Doim mening kelgan-ketganimni surishtirib, hol-avolimdan xabardor bo‘lib turadigan Ultug‘on, eshikdan kirib kelganimda basharamga bir qaradi-da:

— Nega yig‘lading? — dedi.

Men javob bermay, bo‘sag‘ada lol bo‘lib turib qoldim.

— Nega indamaysan, kim urdi? — deb so‘radi u.

Men yana indamadim. Doimo yonimni olib yuradigon Ultug‘on:

— Nega indamaysan? — dedi menga yana.

Shu paytda tashqaridan qumg‘on ko‘tarib Mustafo kirib keldi. U tahorat olgan, yengi tirsagigacha shimarilgan, qo‘li ham, yuzi ham ho‘l edi.

Ultug'on Mustafoning oldida so'zlamas, uni nihoyatda hurmat qilardi. Shu sababdanmi, bilmadim, mendan javob ololmasligiga ko'zi yetdimi, menga bir qarab qo'ydi-da, choy damlash bilan ovora bo'lib ketdi.

— Men oqshom namozimni o'qib ola qolay, bolam, — dedi Mustafo Ultug'onga, — choyni keyin icharmiz.

Mustafo yuzini artdi-da, joynamozini solib namozini o'qiy boshladi. U ko'p kasal bo'lganligi tufayli darmonsiz bo'lib qolgani uchun namozini o'tirib uzoq o'qir edi.

Mustafo namoz o'qiyotgan paytda men o'tovning chap bo'sag'asi tomonga borib yuz tuban yotib qoldim. Shunday qilmasam bo'lmas edi, chunki ko'k biya bilan uning quluni haqida yuragimda qo'zg'algan alam, butun a'zoyi badanimni bo'shashtirib, ikki ko'zimni jiqqa yoshga to'ldirgan edi. Ko'zimdan yum-yum yosh chiqishini bilganimdan so'ng, turib yig'laganimdan ko'ra, yerga yotib yig'laganimni afzal ko'rdim. Buni sezgan Ultug'on yonimga keldi-da shivirlab:

— Nima bo'ldi senga? — deb boshimni ko'tarmoqchi bo'ldi. Men turmadim.

— Aytmadimmi, — deb to'ng'illadi Ultug'on, — o'larday kaltak yeb kelganga o'xshaydi bu bola. Qaysi qo'liga chechak chiqqur urdi seni?

Yetim bolani kim urmas edi!..

Ovoziga qaraganda, Ultug'on ham yig'laganga o'xshardi.

Tashqaridan kirgan birovning sharpasi eshitildi. Tunuka chelakning taqir-tuquriga qaraganda, — u Silevsin bo'lsa kerak.

— Nima qilib o'tiribsan cho'qqayib? — deb Silevsin Ultug'ondan so'radi-da, — kim bu yotgan? — deb yana so'radi.

Ultug'on indamadi.

"Nima qilib o'tiribdi bular" deb Silevsin to'ng'illadi-da, yonimizga kelib:

— Ha, yana nimaga yig'lashib qoldinglar? — dedi.

Silevsin biroz angrayib turdi-da, Ultug'onga:

— Choyingni damla! — dedi.

Ultug'onning turib ketganini uning sharpasidan eshitib yotibman... Hali ham yig'layapman... Choyga ham turmadim. Kelin-

oyim ham, Ultug'on ham: "Tur, choy ich!" deb o'xtin-o'xtin aytishsa ham o'rnimdan qo'zg'olmadim. Mustafo ham yig'layotganimning sababini sezganday, indamay o'tiribdi.

Menda ham, Ultug'onda ham uyqu yo'q edi... Menga u uydagilar uyquga ketgandan so'ng so'zladi.

— Biyaning sotilishini eshitdingmi? — deb so'radi u.

Men indamadim.

— Eshitgan ekansan-ku, — dedi u og'ir xo'rsinib, — yig'lading nima-yu, yig'lamading nima, sotaman degandan keyin sotadi. Sadqayi ko'z yoshing.

Xafa bo'lgan Ultug'on teskari o'girilib piq-piq yig'lay boshladi.

Ertasigayoq Mustafo biyani yilqidan olib qolib, kechasi ovulning yoniga bog'lab qo'ydi. Biyani sotishiga ko'zim yetdi. Biroq Mirzag'ozi o'rgatgan so'zlarni Mustafoga aytishga jur'at qila olmadim. U ham bu to'g'rida menga churq etmadi...

Mustafo ertalab bozorga bormoqchi bo'lib, o'zining qisir biyasini tarantasga qo'shganda, men bog'lab qo'yilgan ko'k biyaning yonida turgan edim. U o'z biyasini tarantasga qo'shib bo'lgandan keyin, bog'lab qo'yilgan ko'k biyaning oldiga keldi-da, menga o'qrayib bir qarab qo'yib, no'xtalab olib, uyga qarab yetaklab jo'nay boshladi.

Men biya bilan qulunni ko'zim qiymay, baqirib yig'lay boshladim. Mustafo indamasdan qo'shig'liq tarantasning ketiga no'xtalangan biyani bog'ladi, qulunni ham no'xtalab olib, biyaning dumiga bog'ladi. Shunday qilib, tarantasga o'tirib churq etmay jo'nab ketdi.

Uning biyasi chopqir edi. Shuning uchun ham ko'zimdan g'oyib bo'lishga shoshilgan Mustafo biyasining tizginini siltab yubordi. Biya bir cho'chib tushdi-da, qadamini tezlatdi.

Tarantasning ketidan men ham chopdim. Meni ko'rmadimi, yoki ko'rsa ham ko'rmaslikka oldimi, har holda Mustafo orqasiga qayrilib qaramadi. Men bor kuchim bilan baqirib yig'lab, qattiq chopib kelayapman...

Agar ovuldan uzoqlashgan Mustafo otini to'xtatmaganda edi, shu taxlitda qancha joygacha chopishim ma'lum emas edi.

Mustafo qattiq yurib kelayotgan biyasini birdan to'xtatib yerga tushdi-da, menga: "Buyoqqa kel!" deganday, qo'li bilan ishora qildi. Uni nima sababdan chaqirganligini uncha tushunmaganimdan, men: "shafqat qilar" deb o'ylab, yoniga bordim. Shu paytda Mustafo meni yoqamdan ushladi-da, o'ng shapalog'i bilan jag'imga ustma-ust urdi-yu, "shu bilan qol!" deganday ko'kragimdan itarib yubordi. Men yig'laganimcha chalqamdan qulab tushdim, u bo'lsa aravasiga o'tirib, jo'nab ketdi.

Agarda meni bir yoqdan kelayotgan yo'lovchi — qarindoshimiz Shayken salt otining oldiga o'ngarib olib ketmaganda, shu ahvolda qancha vaqt yotishim ma'lum emas edi.

Bo'ronli kechada

Ko'k biyani ovulimiz bilan yaylovdosh, qo'shni "O'tay Davush" ovulidagi Qutining o'g'li Ibroyboy sotib olibdi. Uni sog'iladigan biyalarga qo'shib qo'yibdi, ko'k qulunni esa, bog'lab boqibdi.

Bu ham bir hisobda menga yaxshi bo'lganday tuyilardi. Ertalab yilqi kelib, biya boylanganidan boshlab, kechqurun biyalar bo'shatilguncha, Ibrayboyning bog'log'ida turgan qulunni bir necha marotaba borib ko'raman. Kichkina amakim: "O'qishingga bor" deb sekingina ham, urushib ham, hatto urib ham aytib ko'rdi, men bormadim.

Qulun juda chiroyli edi. Bog'lovda turgan o'n beshta qulunning ichida birortasi ham bunga o'xshamas edi. Ularning hammasi ham bu qulunning oldida eshshakning xo'tigiga o'xshardi.

Har kuni kelaverganimdan zerikkan Ibrayboyning biya sog'uvchilari meni haydaydigan bo'lib qolishdi, haydashganida ketmaganimdan so'ng, urdilar ham. Mendan qutila olmasligiga ko'zi yetgan Ibrayboy Mustafoga kelib chaqdi, u kishi meni bu yo'li koyimadi. Nimaga koyisin, meni qulunga jonim achib yurganini bilmaydimi?!.

Qulunni shu qadar yaxshi ko'rar edimki, endi Ibrayboyning biya sog'uvchilari u yoqda tursin, undan kattalaridan ham qo'rqmaydigan bo'lib qolgan edim.

"Kattarog'i" deganim — jinni xotin edi. Uning ismi Zeyken. U "Telpak" deb ataladigan qo'shni ovuldagi Qopsitboy otliq boyning qizi edi. Shu paytda uning yoshi o'ttizlarga borib qolgan edi.

Qachon jin urganini kim biladi, u biz Jamanshuborga ko'chib kelganimizda ham jinni edi. Odamga ziyoni tegmas edi. U har vaqt bekor yurardi, nima uchundir har doim ko'l bo'yidagi ko'kalamzor o'tlarning orasida yashirinib o'tirardi.

U bolalarni quvishga ishqiboz edi: ba'zan o'ynayotgan bolalarning yoniga yashirinib astagina kelardi-da, birdan baqirib yuborardi. Bolalar chekka-chekkaga qochishardi. Qochmaslikka ilojlari yo'q edi-da. Uning usti-boshi juldir-juldir, paxmoq sochini doimo o'rmay yuraverardi, boshida ro'moli yo'q, tirnoqlarini olmas, yuz-qo'lini yuvmas, basharasi kir-chir, har holda ko'rinishidan juda qo'rqinchli, tovushi kishining o'takasini yorguday... Xullas, ertaklarda, afsonalarda aytiladigan "alvastini"ning o'zginasi edi!..

Bolani quvlashga quvlardi-yu, yetsa ham tutmasdi: tuta olmagan kishi bo'lib quvlayverardi, bola charchab yiqilmaguncha ketidan qolmas edi. Yiqilgan bolaning ustidan bir xatlardi-da, ketaverardi.

Ibrayboyning bog'lovda turgan quluni yoniga borib yurgan kezimda meni ham o'sha jinni xotin quvlardi. U meni bir necha marta holdan toydirib, yiqitib, ustimdan hatladi... Men shunda ham qulun yoniga borishdan voz kechmadim. Bir marta Mustafo: "Endi qulunga borishdan oyog'ingni tortasanmi, yo yo'qmi" deb o'larday mushtladi ham...

Baribir boraverdim...

Shu orada qayg'uli kunlar ham kelib qoldi: kuz kelib O'tay Davish ovuli o'z qishlog'iga, bizlar o'z qishlog'imizga ko'chadigan bo'ldik. Ikki qishloqning orasi o'n besh chaqirim kelardi. Endi qishloqqa ko'chib ketganimizdan keyin men ko'k qulunni kelgusi yozgacha ko'ra olmas edim.

Nima qilish kerak?

Ko'chmoqchi bo'lib hozirlanayotgan Qutining ko'k toyi oldiga borib o'tirganimda, Ibroyning Rais otliq inisi salt ot bilan oldimga keldi-da, meni qamchi ostiga oldi... Badan kaltakka bardosh bera

olarmidi, men qochdim... Rais quvlab ovulga olib kelguncha ko'ch ham jo'nab ketdi. Ko'k biya ham, qulun ham olib ketildi!..

Mustafodan ko'nglim sovigani uchun meni gap-so'z bilan hovliqtiruvchilar ham oz emas edi. Ayniqsa bu to'g'rida qulog'imga ko'proq so'z quyadigan Nurtoza bo'ldi.

— Ey yaramas, landavur! — deb urushardi u meni ko'rgan sayin. — Hay, sen hech odam bo'lmading-da. Yolg'iz biyangdan ayrilib, uning uyida nima qilib o'tiribsan, u uydan ket! Bo'lisga ariza yozib beraman-u, biyangni o'zingga qaytartiraman...

— Nurtozaning bu so'zlari ayni ko'nglimdagidek so'zlar edi, Mustafoning uyidan ketgim kelardi, biroq qachon?

— Har ishning ham biror sababi bo'ladi! U uydan qochib chiqishga ham biror sabab kerak emasmi, axir?

Shunday qilib bir kuni bu sabab ham topildi. Mustafoning menga tengdosh G'obbos degan o'g'li bilan oramizda g'idi-bidi gaplar bo'laverar edi. Har kim oraga suqilib, gij-gijlatavergandan keyin juda burnim ko'tarilib, G'obbosga tegajog'lik qila boshladim. Mustafo o'g'lining tarafini olmas, qaytaga menga bo'lishardi. Mening dastimdan uni talay-talay savalardi ham.

Shunday qilib, kunlardan bir kuni, G'obbosga mening o'rinsiz tegajog'lik qilganimni ko'rgan Mustafo: "Qo'ysangchi" deb ajratmoqchi bo'ldi. Qo'ya qolish o'rniga, men o'chakishib ketdim. So'ngra: "Mana qo'ymasang!" deb yuzimga bir shapaloq tushirdi. Sabab topildi, men uydan chiqa jo'nadim.

Qahraton qish mahali, "Do'ng'iz" deb ataladigan ocharchilik hukm surardi. Endi ocharchilikka uchratgan bu qahraton qish kunlarida kuni-tuni tinmay "Jinni" deydigan bo'ron esib yurardi. Bo'ronning azbaroyi qattiq turganligidan, tinmay yog'ayotgan qorning qalinligidan odamlar ko'z oldilaridagi narsani ham ko'ra olmas edilar. Bir uydan ikkinchi uyga qatnagan odamlar uylarining o'rtasiga arqon boylab qo'ygan kunlari ham bo'lgan... Atrofi mahkam qurshalgan uylarnigina mustasno qilganda, Jamanshuborning ko'pgina uylari qor tagida qolar, bir uy bilan boshqa bir uy odamlari qor tagidan g'ordek yo'l ochib bir-birlariga zo'rg'a qatnar, ba'zi bir uylardagi odamlar esa bir necha kunlab bir-birlariga qatnayolmasdan qor tagida qolib ketishar, ba'zi bir uylar tomi us-

tidagi qorni ko'tara olmay o'pirilib tushar, qancha-qancha mollari qirg'inga uchrar edi.

Men Mustafoning uyidan qochib chiqqanimda, qosh qoraygan, g'ira-shira payt edi. Dalada qattiq bo'ron hukm surardi!.. Ko'z ilg'amas zimiston edi.

Qayoqqa borish kerak?.. Albatta, Nurtozaning uyiga-da!

Nurtozaning uyini taxminan mo'ljallab jo'nadim... Mustafoningmi, bilmadim, uning katta o'g'li Hamzaningmi, — har holda yo'qlab chaqirgan tovushi eshitildi. Men unga qayrilib ham qaramadim. Bo'ronli tun qo'yniga sho'ng'ib ketdim. Meni qayerdan topishni bilmagan sho'rli yo'qlovchini tovushi birozgacha uzilmadi.

Zimiston tun!.. Yon-verimdan dahshatli bo'ron tinmay esib turibdi! Bo'ron qor bilan qo'shilib dovulga aylanmoqda... Pag'a-pag'a yog'gan qordan oyoq bosa olmaysan: meni bo'ron ham, qalin qor ham tez-tez yiqitar edi... To'g'ri kelayotirmanmi, yo'qmi, bilib bo'lmas edi.

Nurtozaning uyi yaqin edi. Qorga qancha qulamay, lekin u uyga hali yetolmayapman.

Bo'ron bilan kurashib, qorga ag'anab ko'p yurdim. Adashganimni endi bildim... Qo'rqa boshladim... Nega qo'rqmay? O'z ovulimdan chiqib ketsam, atrofimizda yaqinroq ovul yo'q. Eng yaqin hisoblangan ovul — Botpaq ko'li bo'yidagi "Angdamas" ovuli bizning Jamanshubordan to'rt chaqirim uzoqda edi. U ovulga meni mana bu jinni bo'ron keltiradi deysanmi? Men uni to'g'ri topib bora olamanmi? Mabodo to'g'ri topib bora olmasam, adashib o'ldi degani shu-da...

Shu yili Jamanshubor atrofida bo'ri ko'payib ketgan edi. Tepin yaylovidagi yilqilarni yeb to'ymagan bo'rilar, ovuldagi qo'ralarning devorini yoki tepasini teshib, qamovdagi mollarni ham yeya boshlagan edi. "Kechasi bizning uyimiz atrofiga bo'ri kelibdi, izini ko'rdik" degan so'zni har kim aytar edi. "O'n besh-yigirmatacha bo'rilar galasini ko'rdim" deyishardi ba'zi odamlar, "Falon joyda falon yo'lovchini bo'ri yeb ketibdi" degan qo'rqinchli ovozlar ham bo'lib turardi. Boshqasini u yoqqa qo'yib turaylik-chi, "bo'rining xudosi" deb atalib yurgan, har yili bir necha bo'rining boshiga

yetadigan Otkeltirning o'zi ham chopqir oti bilan kelayotganida, o'n chog'li bo'ri o'rtaga olishibdi, zo'rg'a qochib qutulibdi, degan mish-mishlar ham bo'ldi!...

O'sha bo'rilarga yo'liqsam-ku, meni dabdala qilib yeyishardi-ya!.. Naqadar dahshatli!.. "Qo'rqqanga qo'shaloq ko'rinadi" deganlariday, nihoyatda qo'rqqanligimdan, esib turgan shamolning tovushi ham bo'rining tovushiga o'xshab ketdi. Yon-verimda bo'rilarning ko'zlari chaqnab turganday bo'ldi... Qo'rqqanimdanmi, charchaganimdanmi, kiyimim yupqa bo'lishiga qaramay, qora terga tushib ketdim!.. Shunday shoshilib ketayotganimda, bir narsaga qoqilib qulab tushdim... Butun kuch bilan o'rnimdan turib, qoqilgan narsamni sipalab qarasam, nuqul qator yog'ochlar!.. Ajabo, bu qanday yog'ochlar bo'ldi ekan?! Ko'zlarimga ishonmay, yana qaray boshladim, qabrga qoqilgan yog'ochlarga o'xshaydi... Ha, xuddi o'zi!.. Ovulimizdagi go'ristonlikda faqat ikki kishining — Itboy va Shayqilning qabrlari yog'ochlar bilan qurshalgan bo'lardi. Shayqilning qabri oldida yuziga ismi-sharifi yozilgan bir tosh ham bor edi.

Shuni eslab yana bir marta paypaslab qarasam, rostdan ham o'sha tosh ekan!..

Nima qilish kerak?

O'likdan shu qadar qo'rqar edimki, yonimda odam bo'lmasa, kechasi u yoqda tursin, kunduzi ham qabristonga kelmas edim. Shuning uchun bo'lsa kerak, shamolning hozirgi tovushi bo'rining emas, arvohlarning dod-faryodiga aylanib ketdi!.. Qo'rqa boshladim... Nachora?.. Mana bu quturgan bo'ronda shu atrofdan ketsam, ovulni qanday topolaman? Endi Shayqil qabrining ichida tunashga bel bog'ladim...

Balandligi odam bo'yi qilib qirqilib, yog'och bilan to'silgan qabrga yaqin borib o'tiribman... Menga endi shamol tegmasdi... Qabr atrofida esayotgan shamolning guvullashiga qaraganda, boyagidan kuchayganga o'xshardi... Bo'rilarningmi, bo'ronningmi, arvohlarningmi, allanarsalarning tovushi yer-ko'kka sig'mayotganday tuyulardi.

Odam ne-ne qiyinchiliklarga bardosh bermaydi deysan... Birozdan so'ng atrofimdagi butun dahshatlarga ko'nikdim... Endi

ko'z oldimda boshqa bir qo'rqinch paydo bo'ldi. U ham bo'lsa, kiyimimning yupqaligi edi. Bir joyda o'tirgach, terim qotdi, badanim sovib, muzlay boshladi. Birozdan so'ng sovuq yeb qaltiray boshladim.

Bilmadim, agar qulog'imga allaqanday bir tovush chalinmaganda edi, balki shu tahlitda o'tirib, o'lib qolarmidim!..

Bu qanday tovush! Bo'rining ham, shamolning ham tovushiga o'xshamasdi... O'liknikimi yo tiriknikimi, har holda, qaysi biriniki bo'lsa ham odamning tovushi edi!.. Biroz cho'chib quloq solib o'tirgach, men bu tovushni o'likning tovushi bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ko'nglimga shu xavf tushganda, yashirinib o'tirgan qabr yonidan noiloj irg'ib chiqibman... Bo'ronga, tunga ko'zim o'rgandimi, yoki ular pasang tushdimi, menga bo'ron bosilganday tuyildi... Ana, baland bir qora ko'rindi, chamamda qabristonga yaqin yerdagi Oymulla, Mullahmadlarning uylari... Haligi tovush qulog'imga yana chalingandan keyin, tovush chiqqan tomonga qo'rqa-pisa qarasam, bir narsa tez yurib kelayapti. Bo'ri desam, bo'riga o'xshamaydi, odam desam, odamga o'xshamaydi!..

Qabr panasiga yashirinib turgan edim, haligi qora sharpa yaqin yerdan o'ta boshladi. Tanidim, Samayke!..

Samayke yetim bola edi. Uning otasi — Qo'shig'ul. Uni: "Ancha yilqisi, qo'rasi to'la qo'yi bo'lgan badavlat kishi edi", deyishardi. Ota-onasi yoshlik chog'ida vafot etgan Samaykening mol-mulkini qarindoshlari talab olishibdi-da, o'zini haydab yuborishibdi. Juda yosh vaqtidan hayr so'rab yetim o'sgan Samaykega og'ir turmush o'z muhrini bosgan. Yoshi shu vaqtda yigirmalarga borib qolgan bo'lsa-da, uning bo'yi o'n uch-o'n to'rt yashar boladaygina, pastakkina, barvastaroq kelgan, bo'yining ikki yog'ini bez bosib ketgan, boshi kal, qulog'i og'irroq, g'idi-bidi degan so'ziga tushunish qiyin edi. Usti-boshi yozin-qishin juldir-juldir bo'lib yurardi. Usti-boshi yuvilmasdi... Kiyimlari bir bit-bir sirka edi. Qish kunlarida qor ustida yalangoyoq yuradigan kunlari ham bo'lardi. Har kim unga rahmi kelib ovqat bergani bilan, sassiq hididan, bitidan jirkanib, uni hech kim uyiga yotqizmas edi... Shuning uchun ham u uylarning orasida yo lo'killab daydib yurar-

di, yoki bo'lmasa biror uyning oldida uyulgan pichanning orasiga kirib yotib qolardi.

Samaykemizning ta'rifi shu!..

Samayke yonimdan o'tarkan, men uni tanib qichqirgan edim, qo'rqib ketgan bo'lsa kerak, — "vo!" deb qattiq baqirdi-da, ura qochdi. Ketidan quvlab yetib olib ushlamasam, to'xtaydigan emas. Orqasidan borib ushlab olganimda, u yana: "vo" deb baqirib yig'lab yubordi-da, "Samayke, menman, Sobitman" deganimdagina yuzimga baqrayib qaradi. Uning menga "Sobitmisan?" degan so'zi qulog'imga "Xaxitmisan?" bo'lib eshitildi.

— Xayoqda zuribsan? — deb so'radi u.

Uning bilan aytishib turishga vaqt bormidi, "Nurtozanikiga olib borib qo'y-chi!" deb yalindim. U mening basharamga biroz qarab turdi-da, hol-ahvolimga tushunganday:

— Zaraydi, — deb meni boshlab ketaverdi.

Samayke doimo lo'killab, daydib yurardi; lo'killab yurganda ham bekorga lo'killamasdi, allanarsalarni aytib, hirgoyi qilib lo'killardi...

Odaticha u hirgoyi qilib lo'killab ketayotibdi. Men ham uning orqasidan kelayapman. Shunda: "Mening ham Samayke bo'lganimmi endi?!." degan fikr boshimga keldi.

Haqiqatdan ham bo'ron bosilibdi. Shuning uchunmi, yoki ko'p yurib yerni taxminlashni bilib qolganidanmi, — Samayke meni to'ppa-to'g'ri Nurtozaning uyiga boshlab keldi-da:

— Endi o'zing bor, men itidan xo'rxaman, — deb ketib qoldi.

Yaylovdagi hayot

Mana, men endi malayman. Yoshim o'n ikkida. Yaylovimiz "Do's" bilan "Sho'shqali" degan ikki ko'lning oralig'idagi tekislikka joylashgan. Atrofimiz oppoq qor bilan qoplangan keng dala. Pichanga serob bu dalaning ustidagi qori, xuddi suv to'lqiniday o'rkach-o'rkach bo'lib yotibdi. Atrofimizdagi shu qalin qorni yaylovda yoyilayotgan yilqilar tepib-tirnab, tagidagi o't-cho'plarini yeganlikdan, aylanamiz tekis tepa bo'lib, yilqining oyog'i bilan

uyulgan oppoq qor tepachalari xuddi yaylovda yoyilayotgan qo'ylarday ola-bula bo'lib ko'rinardi.

Bizlar boqayotgan yilqi — Turtoyning yilqisi bo'lib, yetti-sakkiz yuztacha kelardi, shu yili bizning Jamanshubordan uch-to'rt yuztacha yilqi kelib qo'shilgan edi...

Tebindagi yilqini birinchi bor ko'rishim edi. Yilqi degan jonivor, — mollar ichida eng chidamlisi ekan. Dovul turmasa, qahraton izg'irinli sovuqlarga ham bardosh berib, qor tepardi. Shu vaqtda shamol bo'lsa, uning yoli yalovday hilpirab, ko'tarilib ketardi. Dumi esa osmondan sharillab yog'gan yomg'irday quyilib turardi. Ro'parasidan esib turgan qattiq shamolning kuchi qor betidan izg'igan dovulni keltirib urganida bo'z yilqininggina emas, qora yoki to'riq tusdagi yilqilarning ham peshonasi oq bo'lib qolardi... Qish boshlanib, erkin o'sgan yilqining yungi qunduzday yarqirab, ko'zni jimirlashtirardi...

Shunday qilib, yilqi jonivorlar, qalinligi bag'ridan keladigan va qatqaloqlanib qolgan qorni, ba'zan oldingi o'ng oyog'ini, ba'zan chap oyog'ini ko'tarib turib tepib yuborganda, qor sumba tekkan muzday o'pirilib tushardi. O'pirilgan qorni tuyog'i bilan chetga tirnab tortib, uloqtirib tashlagan yilqilar, qorning o'pirilgan yerini kengaytirib olgach, tagidagi o't-cho'plarni tez-tez yeyishardi...

Yilqilarda ham onalik mehri borligini shu vaqtda ko'rasan. Ketidan quluni, toyi ergashgan ona biyalar qorni titib o'pirishganda, avvalo o'zlari o'tlamay, ular biroz o'tlab olgach, keyin o'zlari o'tlashardi.

Bir yarim mingga yaqin yilqining tuyog'i yerni chidatadi deysanmi, yaylov atrofining o'ti hash-pash deguncha tugab, yilqilar ochiqa boshlardi; shu vaqtda "tebin ag'darish" degan boshlanardi, bu — yilqilarni o'ti ko'p yerga ko'chirish demakdir.

Yilqining boshqa yaylovga ko'chishi oson emas. Har tomonda o'ydim-chuqur joylar uchrab, qor qalinlashib ketsa, yilqilar yaqin yo'lolmay taqa-taq to'xtab qolardi. Bunday hollar dalada tez-tez uchrab turardi; shunday joylardan yilqilarni surib olib o'tishda "ayri shohli oq serka qo'yni boshlar" deganlariday, ko'p yilqini boshlaydigan yetakchilari ham bo'lardi. Chidamli ayg'irlar bilan biyalargina buning ustidan chiqa olardi.

Yetakchi bo'lishni istagan biror ayg'ir qalin qorni kechib jo'naganda, yilqilarning hammasi uning ketidan qator tizilib ketaverardi. Shu izga yilqilar yalpisiga tushganda, ularning tuyog'i bilan ochilgan yo'l xuddi chuqur kanalga o'xshab qolardi.

Yilqi joylari mana shunday almashtiriladi.

O'tovimiz yangi yaylovning o'rtasiga tikilardi. Bu esa yilqichilarga oson, — boqqan mollarni kunduzi yaxshi kuzatib turishardi. O'tov atrofining o'ti sitraklashgandagina yilqilar boshqa bir tomonga yo'l olardi.

O'tovning nima ekanligini tushuntirib o'taylik: kattaligi tarantasning g'ildiragiday keladigan kichkina chambarakka gir aylantirib qadalgan qoziqning sirtidan kigiz yopilardi-da, tutun chiqadigan teshik ochilib, uning ustiga shu teshikni bekitib turadigan to'qimday kigiz qo'yilardi. O'tov ichidagi odam yotib cho'zilsa, boshi o'tovning to'riga, oyog'i bo'sag'aga yetardi. Ovqat ham shuning ichida pishirilardi.

Maqon aytganday, "osh" deganimiz ot go'shti bilan uning sho'rvasiga ezgan qurut edi. Bundan boshqa ovqatni yilqichilar izlamas ham edilar. Uning aytishiga qaraganda, "Ot go'shti bilan uning sho'rvasiga ezgan qurutdan boshqa ovqat qattiq izg'irinli qishda tanaga issiq ham bera olmasdi. Boshqa ovqat yegan kishi bunday qahraton sovuqqa chidayolmasdi ham".

Ot go'shtining boshqa mol go'shtlariga qaraganda kuchli ekanligi va to'q tutishi haqida Maqon bir qancha maslahatlar berardi.

— Masalan, — derdi u, — shu sovuqda olovdan endigina olingan qozonni o'tovdan tashqariga olib chiqib qo'y-chi, agar ot go'shti sho'rvasi bo'lsa, sardagi tezda qotib qoladi; demak otning moyi qattiq sovuq bo'lsa ham qotmaydi, balqib turadi. Nima uchun bunday? Albatta, bu — ot go'shtining boshqa go'shtlarga qaraganda kuchliligidan. Ot go'shtining sho'rva yuziga chiqqan sardagigina emas, go'shtning yog'i ham qotmaydi.

— Qo'yning, sigirning yoki tuyaning go'shtini to'yib yeb ko'r-chi, — derdi Maqon, ikki-uch kungacha sassiq kekirdak bo'lib, kasalga yo'liqasan. Otning go'shtini qancha to'yib yesang ham tez hazm qilasan, yana tez qorning ochadi. Bu ham ot go'shtining boshqa go'shtlarga qaraganda, odamga tez singganligidan.

Yilqining qimizi — sil kasaliga juda shifo, — derdi Maqon, — boshqa molning suti nega shunday dardga davo bo'lmaydi? Bu ham yilqi sutining boshqa sutlarga qaraganda, azbaroyi kuchliligidan.

— Kuchli sut, — derdi Maqon, — kuchli go'shtdangina chiqadi, yilqi go'shtining boshqa go'shtlardan kuchliligini isbot etadigan yana bir misol: mol tanasiga yoz kunlari yara tushsa, chivin qo'nib qurtlaydi. Yilqidan boshqa molni vaqti bilan davolamasang, ichiga qurt o'tib o'lib qoladi. Yilqining go'shtiga qurt tushsachi, qachon shishib bo'lguncha qurtlab yuradi-da, toza go'shtiga o'tgach, qurtning o'zi o'lib, tushib qoladi. Demak shunday ekan, uning tirikligidan go'shtining o'zi ham boshqa mollarning go'shtidan ancha kuchli ekanligini ko'rsatadi.

— Qadim zamonlarda, — derdi Maqon, — "Yashil bog'or" bo'yidagi tog'amning uyiga bordim. U atrofda ilon ko'p bo'lar ekan. Yilqi telining hidi anqigan yerga ilon yo'lamas ekan. Dalada yotib qolgan odam, agarda ilon yonimga kelmasin desa, otining egar-jabdug'ini o'z yoniga yoyib qo'yar ekan. Ilon chaqqan odamga otning teli ichirilsa, em bo'lmasdan qolmas ekan. Bundan ma'lumki, yilqi go'shti bilan sutini hisobga olmaganimizda, telining o'zi ham bebaho ekan-da.

— Bebaho bo'lmasinmi, — derdi Maqon, — yilqi jonivor iflos, loy suvni icharmidi, sasigan suvga yo'larmidi. U nuqul toza suv ichardi, cho'pning aslini yeydi. Shunday ekan, u nega kuchli bo'lmasin?

— Jonivor yilqining nimasini aytasan, — deb mag'rurlanib so'zlardi, umrini yilqi boqib o'tkazgan Maqon, — buringilar aytgan emasmi, axir: "Yilqining ichsa suti; yesa go'shti; minsa usti shamol" deb. "Er-qanoti — ot" deb bilib aytishgan-da, ota-bobolarimiz.

Bo'ta akang aytadigan bir o'landa:

Qizning ko'rki cho'lpida,
Yigitning ko'rki yilqida,
Yilqi qo'ldan ketgan so'ng
Qizig'i bo'lmas kulkining —

der emasmidi? Shu rost. Yilqisi yo'q yigitning qanday barakasi bo'lsin? "Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning o'g'li so'zlasin" deydilar. Rostligi shu-da, buni hozirning o'zidayoq ko'rib turibmiz. Mana Sapining to'rt o'g'li kerilganda, yer-ko'kka sig'maydi. Bu nimaning sharofatidan? Molning sharofatimi, yilqining sharofati-da! Bo'lmasa ishga yaroqli qo'chqorday birortasi bormi shularning ichida?

Yilqini shunchalik sevadigan Maqon, boyning molini boqayapman, deb hech vaqt aytmasdi, yilqilarga yaxshi qarardi. To'rtoydan ba'zan ranjisa ham, "u itning qilig'iga mol aybdor deysanmi" deb, boyning yilqisiga joni o'z molidan ham kam achimasdi. Qay vaqtda uxlab, qay vaqtda uyquning bahridan o'tishini kim biladi, har holda ot ustidan kam tushardi. Shunchalik ehtiyotlik bilan boqishi natijasida, ba'zi vaqtlardagina mol nobud bo'lmasa, bitta toyni ham bo'riga oldirmasdi. Agar oldirsa, o'g'lini yo'qotganday qayg'urardi.

Sovuqda o'sib, ko'nikib ketganligimdanmi, yoki otning go'shti bilan sho'rvasi haqiqatan ham kuchlimi, har holda Maqon qanday sovuq bo'lsa ham qalin kiyinib yurmasdi. Uning "qalin" degan kiyimlari: jun paypoqli katta etik, pochasini shimiga tiqqan keng teri chalvar, etagini chalvarining kamariga qistirib olgan kalta to'n, uning sirtidan kiyadigan yupqa jun chakmongina edi, xolos. Qattiqroq izg'irinli sovuq bo'lmasa, uncha-muncha sovuq ayozda tulki tumog'ini kiymasdi ham. Boshiga chog'roq qorako'l mo'ynasidan qilingan bo'rk kiyib yurar, o'shani ba'zan o'ng chakkasiga, ba'zan chap chakkasiga qiyshaytirib, qulog'ini ilitib olardi. Issiq kunlarda esa, u to'nini ham tashlab, chakmonini ham kiyib ketaverardi.

Bu atrofning qishi eng issiq bo'ldi deganda, o'n besh-yigirma darajadan pastga tushmasdi. Shunday kunlarda ham otning yol, dumiga odamning soqol-mo'ylovi bu yoqda tursin, ko'kragidagi junida ham qirov turib qolardi. Ba'zi bir izg'irinli sovuqlar Maqonning yuzini, quloqlarini chalib ketib, sal o'tmayoq sovuq chalgan yerning terisi qovjirab ko'chib tushar edi. Biroq Maqon buni pisand qilmas edi. Kun qanchalik sovusa, uning shunchalik rangi kirib, qip-qizarib yurardi.

Maqon hech vaqt qor eritib, yuz-qo'lini yuvmasdi. Uyqudan turgach, badanining kindikdan yuqorisini yalang'ochlab o'tovdan chiqardi-da, qup-quruq uyulib yotgan qor bilan tanasini, ikki qo'lini, yuzini ishqalardi. Shu vaqtda Maqonning mushaklari bo'rtib chiqib, bo'liq tanasidan bo'g' burqirab havoga ko'tarilar, terisi qip-qizil bo'lib ketardi....

Ovqatni u tez-tez ichmasdi. Yana, o'larday ko'p ham ichmasdi. Erta bilan bir, tushda bir ovqat ichganida, u faqat yog'liq go'sht yeyishga, yog'li sho'rvaga ezgan qurutni ichishga harakat qilardi. U bunday ovqatlarni ishtaha bilan ichardi. Yog'dan besh-olti oshab, yuzi bilan bitta yog', quruti ko'pirtirib ezilgan sho'rvaning ikki-uch tovog'ini ichib qo'yardi.

Kishiga jabr qilish nega kerak, — To'rtoy yilqichilaridan ovqatni ayamas edi. Otning go'shtini (ham yangi, ham sur go'shtni) boshqa go'shtlardan afzal deb biladigan Maqonga semiz-semiz biyalarni so'yib berardi.

Yaylovning o't-cho'pi tugasa, yoki havoning avzoyi buzilsa, yilqi zoti qishning kunlari yaylovda yuraverishni yaxshi ko'rmasdi. U qorni tepgani-tepgan edi. Shuning uchun ham yilqini yangi yaylovga ko'chirgan vaqtda, Maqon ikkalamiz ko'pincha o'tovda o'tirib ermak uchun o'lan aytishardik.

O'lanni Maqon mengagina aytdirmasdan, o'zi ham aytardi. Ayniqsa uning yaxshi ko'rgan o'lani "Go'r o'g'li" edi. Asli turkman dostoni bo'lgani bilan qozoq baxshilari bu dostonning qahramonini qozoqniki qilib olishgan.

Uning voqeasi ham ozarbayjoncha, turkmancha variantlaridan o'zgarib ketgan. Masalan, ozarbayjonlarda "Ko'r o'g'li"ning bunday deb aytilishining sababi, "Ko'r o'g'li" bo'lishligidan bo'lsa, dostonning qozoqcha variantida, Ko'r o'g'lining bunday atalishiga sabab, qahramonning onasi bola qornida mahalda o'lib, o'g'lini go'rda tug'ganligi uchun uni "Go'r o'g'li" deb atardi!...

Shu dostonning qozoqcha variantini yaxshi biladigan Maqon uni bo'sh vaqtlarida doim hirgoyi qilib aytib yurardi. Dostonlar ichida uning yaxshi biladigan dostoni faqat shugina edi. Ertakdan-chi, biladigan ertaklari son-sanoqsiz edi...

Maqon otimni "Qorachunoq" qo'yib oldi. Keyin bilsam, — Qorachunoq degan kishi To'rsanning qadimgi yilqichisi ekan. Men uni qarigan chog'ida ko'rdim; tanasi kichkinagina, lo'ppigina, semiz, cho'qqi soqol, qora kishi edi.

Maqonning shunday deb atashi menga juda mos kelardi. Sababi, toza havoda yurgach, yog'liq ovqatlarni bemalol yegach, jon koyiydigan ish bo'lmagach, men semirib, kuni-tuni yoqimli shabada esib turgan dalada yurib qorayib ham ketdim. Endi menga dunyodagi eng katta baxt — yilqichilik bo'lib tuyulardi. Men bu ishdan ketishni hech o'ylamas edim, "ishing olg'a bosmasa, go'jaga ham tish sinar" deganlariday, bir baxtsizlik maqsadimga g'ov bo'ldi...

Qish kunlarining oxirlarida yilqilar "Do's" tepaligining Jamanshubor tomoniga yoyilish uchun chiqdi. Shu kunlarning birida:

— Chirog'im, men Jamanshuborga borib kelay, — dedi Maqon, — ust-boshim ham kir bo'lib ketdi, ishlarim ham bor edi, biror kun qolib ketsam kerak, buguncha o'rnimga birovni yuborarman, shu ikkalang yilqilarga qarab turinglar.

— Xo'p, — dedim men. Chunki u vaqtlarda yilqilarni kunduzi ham, kechasi ham boqishni o'rganib olgan edim.

— U kishi kechgacha kelib qolar, — dedi Maqon ketayotib, — mabodo hayallab qolsa, yilqilarga o'zing qarab turarsan.

— Qani, ikkalamiz birga ketaylik, — dedi u menga, — men senga bir yaxshi ot tanlab, mingizib ketay.

Meni ergashtirib borgan Maqon, o'zimga tanish yuvvosh ayg'irni ushlab berdi. Men Maqonni Jamanshubor tomonga kuzatib qo'yganimdan so'ng, u:

— Chirog'im, sen yaylovning qanday joy ekanligiga obdon tushunding-ku, — dedi menga, — yilqilarning qanaqaligini ham bilasan, yana bo'rilarning bu yil yana ko'payib ketganligini ham ko'rib yuribsan. Hozir undan qo'rqmaydigan bo'lding-ku. Agar men yuborgan odam kechikib qolib, yilqilarga bo'rilar hujim qilguday bo'lsa, sen bolalik qilib qo'rqma! La'nati bo'ri ba'zan bola-chaqadan, xotin-xalajdan ham qo'rqmaydi. Mabodo yilqilarni

yeyishgacha borsa, yodingda bo'lsin, uning birgina qo'rqadigan narsasi — olov!

— Undan qanday qo'rqadi? — deb so'radim men, cho'chigansimon.

— Tomga olib kelgan yog'ochlardan bittasining bir uchini qiyning qo'riga ko'mib qo'y, tutab yotsin. Agar bo'ri kelib, seni bola deb hamla qilguday bo'lsa, o'sha chala cho'g'ni qo'lingga olib, unga qarab chop, u shunda qochadi.

Maqon ketdi. Men qoldim. U sho'rlikning menga bu gaplarni aytmayoq ketgani durust edi, bu gaplarni eshitganimdan keyin ko'zimga atrofimdagi har bir soydan bo'rilar kelib yilqilarni poylab turganday ko'rindi. Endi men: "Maqonning yuboradigan odami tezroq kela qolsa-chi" der edim. Agar u kechikib qolsa, nima qilishimni bilmayman...

"Omon bo'lgur" Maqon yubormoqchi bo'lgan odam kun botmasdanoq kelib qoldi. Yiroqda qorayib ko'ringan salt otliqning oldiga chopib chiqdim, tanidim; o'zimizning Jamanshubordagi Aytilesning o'g'li Bekan ekan.

O'tovga kelgach, Bekanning ko'ziga faqat kigizga o'rab tashlangan go'shtgina ko'rindi. Bu vaqt qish kuni so'yilgan semiz biyaning go'shti tugay deb qolgan, uning ustiga bir semiz sovliq qo'yning go'shti kelib qo'shilgan edi.

Semiz go'shtlarni ko'rgandan so'ng, ko'ngli tinchigan Bekan miyig'ida bir kuldi-da:

— To'rtoyning uyi men borganimda doim ovqat bermas edi, endi ustidan chiqdimmi, sol go'shtni chelak to'lguncha! — dedi. Maqon ikkalamiz to'yadigan go'shtning chamasi ma'lum. Men osilgan chelakka go'shtni shu chamada, yana juda yog'ligidan emas, bundayrog'idan solayotganimda, Bekan:

— Ey, sen ajoyib bola ekansan-ku, — dedi, — bu nima qilganing? Meni bu yerga go'shtga to'ygani kelmay, nimaga keldi deb o'ylading? Menga ber pichoqni, o'zim solaman!

Pichoqni qo'liga olgan Bekan ot go'shtining ham, qo'y go'shtining ham, nuqul yog'li joylaridan kesib, yarim qo'yning go'shti sig'adigan katta mis chelakka solaverdi. O'zimcha: "Yopiray, buning barini o'zi yermikan yo uyiga olib ketarmikan" deb o'ylardim

chunki bu go'shtni, qulog'im eshitib, ko'zim ko'rmagan mechkaylar yeb ado qilmasa, odam yeb tugata oladigan emas. Bekan:

— Ol endi, men yilqilardan xabar olib kelay, sen mana bu go'shtni pishirib qo'y, — deb ketib qoldi.

To'ldirib solingan go'sht qaynab pishgach, chelakka sig'may, birdan yuqoriga ko'tarilib ketdi. Shu holda qaynataversang go'shtning tagi pishgani bilan, usti pishmaydi. Ozroq solsang, go'sht ko'p vaqt qaynaydi. Bekan menga: "Qornim ochib keldi, tezroq pishirib qo'y" deb ketgan edi. Bekanning ranjishini bilsam ham, chelakka sig'magan go'shtni olib qo'ydim. Qolgan go'sht yaxshi qaynab, yumshoqroq bo'lib pishgan paytda, Bekan yetib keldi. U chelakda qaynayotgan go'shtga cho'mich tiqib ko'rib:

— Ey, anavi joyi qani, manavi joyi qani? — deb, men chelakdan olib qo'ygan go'shtlarni izlay boshladi.

Olib qo'yganimning sababini men unga tushuntirib, go'shtni ko'rsatgan edim, u:

— O'zing yaramas bola ekansan-ku, — dedi ranjib, — "Boyning oshini boyqush qizg'onadi" degan so'z rost ekan. Sen unday qilma! Mana bu pishgan go'shtni chelakdagi sho'rvaga boshqatdan solgin!..

— Uni yeb tugata olasanmi? — dedim men.

— Tugata olamanmi, tugata olmaymanmi, nima ishing bor, — dedi Bekan meni jerkib, — sol dedimmi, sol!

Chelakdagi go'shtni olib bo'lib, chala pishgan go'shtni ha deganda solavermagan edim, Bekan:

— Burningni pachaqlab tashlaymi? — dedi menga mushtini ko'rsatib. — Sen yaramas, nima qilmoqchisan?

Bekan o'rnidan turib, chala pishgan go'shtni chelakka o'zi soldi.

Yog'och choradagi bug'i burqiragan go'shtning ustiga tuz sepib, ikkalamiz o'rtaga oldik. Men go'shtni to'g'rab bermoqdaman. Bekan yeya yotibdi...

Birov go'shtga bo'kib qolganda, yonida o'tirgan kishi: "Manavi go'shtga bo'kmas edi-ku, nima balo bo'ldi bunga?" desa, ikkinchi birov unga javoban: "Nima bo'pti, go'sht ko'p bo'lsa, qoringa sig'averadi deb o'ylabmiding" degan ekan. Aytganday, Bekan

qanchalik ochko'zlik bilan yemasin, mo'l-ko'l yog' tezda uning ko'ngliga tegibdi. Yog'ini u avvalo qo'lini to'ldirib yedi, so'ngra yaproqlab yeya boshladi, oxiri:

— Bo'lmadi, to'yib ketdim, — deb rad qildi. Pishgan go'shtning aqalli yarmisi ham yeyilmay qolib ketdi.

— Chelakdagi go'shtni nima qilamiz? — dedim men unga.

— Nima qilardik, ertalab yeymiz-da, — dedi peshonasi tirishgan Bekan kekirib.

— Ezgan qurut ichmaysanmi? — dedim men kulib.

— Sen meni kalaka qilmoqchimisan? — deb menga Bekan do'q urdi.

U kechqurun yilqi boqishga otlandi.

— Men ham boraymi? — degan edim, u:

— Sening qo'lingdan nima kelardi? — dedi. — Yotib uxla, ertaroq turib go'shtni ham, go'jani ham isitib qo'y.

Men uxlab qoldim... O'kirgan bir tovushni eshitib, cho'chib uyg'onib dalaga chiqsam, eshikning oldida bir ot turibdi; otning ustiga gavdasi pastga shalviragan holda birov o'kirib qusayotir!..

Tanidim, Bekan ekan!.. Bir qo'li bilan otining tizginini zo'rg'a ushlab turibdi. U qor ustiga engashib o'tirib olib, ikki qo'lini tizzasiga tiragancha, yana biroz qusdi, bir vaqtda darmoni qurigan-day, o'rnidan zo'rg'a turdi-da:

— Meni endi o'tovga olib kir, ukam! — dedi.

— Men uni o'tovga olib kirib, Maqonning o'rniga yotqizdim.

— Og'rib qoldim, uka, — dedi u birozdan so'ng, — go'shtni xomroq pishirdingmi deyman, uka!..

Nima ham derdim, unga faqatgina:

— Yilqini nima qilamiz? — dedim.

— Sen qarab tur, dedi u.

Men ertalab yilqi boqishdan kelsam, Bekanim hali og'rib yotibdi. Oh urganda xuddi joni chiqib borayotgan kishiday!..

Men:

— Kechasidan qolgan ovqatni isitaymi? — desam, Bekan javob berish o'rniga boshini chayqadi...

— Aka, ovqatga ishtahangiz qalay? — dedim men yana.

— Isitsang, isit, ichib ko'ray, — dedi u.

Og'zi aytgani bilan, ovqatga ishtahasi yo'q ekan. U ovqatga betlay olmay teskari o'girilib yotib qoldi. Qosh qoraygach, men yana yilqi boqishga ketib qoldim.

Kechasi yilqiga bo'ri tegdi. Bu yilqilarning chinqirib kishnashidan bilinar edi. O'sha tomonga chopdim...

Men chopib kelayotgan tomondagi yilqilar galasi mendanmi, yoki bo'ridanmi, tirqirab qochishdi... Oldinda qoraygan bir narsa ko'rindi... Yetib kelsam bir ot tipirchilab, chinqirab yotibdi, kattaligi toychaday keladigan bir bo'ri uning halqumidan g'ip bo'g'ib olibdi, yana bitta bo'ri otning chovini yorib, ichiga kirib ketibdi.

"Bo'ri avvalo otning chovidan yoradi-da, degan edi Maqon, — eng avval issiqlayin o'pka-bag'rini sug'urib olib yeydi, shunda ham ot chinqirab yotadi..."

Mana bu ikki bo'rining bittasi ro'paradan kelayotganini bildim... Kapalagim uchib, qaltirab ketdim...Chinqirib, hurkayotgan otimni, tepinib, taqimimdagi quruq-tayog'imni ko'targan edim, otning halqumiga yopishgan bo'ri boshini ko'tarib menga irilladi...

Meni bola deb fahmlaganini bildim. Nima qilish kerak? Yodimda Maqonning "Olov olib yugur" degan so'zi tushdi... Biroq olov qani?.. Olov yoqadigan yerda o'likday sulayib Bekan yotibdi!..

"Bekan yordam qila olmasmikin" degan fikr bilan chopib o'tovga kelsam, u bugun ichgan ozgina ovqatini ham qusib, xudoyiga sig'inayotgan ekan... Qo'zg'olishga holi qolmabdi...

Men yana chopib borsam, haligi biyani tilka-pora qilib yeb to'ygan bo'rilar ketib qolibdi...

Ertasiga ertalab yetib kelgan Maqonga bo'lgan voqeani batafsil gapirib bergan edim, fe'li yaxshi Maqon:

— Ey, chirog'im-ey, mol meniki bo'lsa-ku mayli edi-ya, ko'p yilqidan bir yilqi bosh sadaqasi der edim-da, qo'yardim. Molga ichi tor, xasis edi To'rtoy. Bitta toyning bir yerini bo'ri yulsa, o'lgiday koyir edi. Yilqini bu yili omon-eson saqlab kelayotgan edik, bu ish yuz berdi!.. Ertaga o'zi kelmoqchi edi, bu bir balo bo'ldi senga! — dedi.

Maqonning aytgani keldi: ertasiga kelgan To'rtoy bir biyasini bo'ri yeganini eshitgandan so'ng:

— Aytsam ko‘nmaysan, peshonasida besh ellik sho‘ri bor bolani yilqiga yaqin yo‘latmayoq qo‘yaylik deganimda, “Yetim bola-ku, savobi tegar” deb javragan eding.

Mana, endi o‘z bilganingni qilding!.. — deb Maqonni urishib berdi-da, mo‘min Maqon indamagach, To‘rtoy:

— Yo‘qot, itning kuchugini ko‘zimga ko‘rsatma! — dedi, — Bekan bilan qaytarib yubor.

Biyani bo‘ri yegani uchun o‘zini aybdor his qildimi, yoki o‘zining yuvoshligimi, Maqon To‘rtoyga: “Qoldirsak nima qiladi?” deya olmadi.

“Og‘rig‘idan” sog‘aymagan Bekanni ham To‘rtoy o‘tovda qoldirgisi kelmadi.

— Shuncha yog‘ni yeb, yetti otang ochdan o‘lganmi? — deb To‘rtoy uni ham urishib berdi-da, — murdaday yotib olmay, jo‘na uyingga! — dedi.

O‘tovning yonida yaqindagina tezak ortib kelingan itchana yotardi. O‘sha chanaga o‘tqazib, salt otliq Bekan bilan jo‘natdi.

Mening bir oylik ish haqim bir so‘m edi, to‘rt oy turgan ekanman. Haqimni bermay To‘rtoy yeb ketdi...

O‘ksigan ko‘ngil

Ovulda bekor yurganimda, uzoq safarga chiqqan odamlar ot haydatib meni olib ketgan edilar. Mana, men shu safardan jonajon ovulimga qaytib kelayapman. Juda xursandman.

Nega xursand bo‘lmay?.. Talaygina joylarni ko‘rdim!.. Ko‘pgina ellarni ko‘rdim!.. Esimni taniganimdan buyon biladiganim Jamanshubor atrofigina bo‘lsa, endi men ovulimizni ellik chaqirim uzoqdagi, Sirimbetgacha cho‘zilgan yerlarni ham, ellarni ham ko‘rib keldim. Umuman olganda, “Ovul” deganlarning hammasi birday ovul ekan. Qayerda ovul ko‘rmay, baribir avvalo o‘tov soni birday. To‘rt-besh o‘tovdan kam ovul bo‘lmasdi, o‘n-o‘n besh o‘tovdan ortmasdi ham.

“Ovul” deb atalganlarning hammasining ham qurilishi bir xilga o‘xshardi: har ovulning to‘r tomonida oq o‘tovlar; quyi-pana

tomonida esa qoraroq o'tovlar joylashgandi; har ovulning to'r tarafining moli ko'p, quyi-pana tomonining esa moli oz bo'lardi.

"Ovul" deb atalganlarning madaniyat darajalari ham bir xilga o'xshardi: ularning hammasining ham yaxshi tarantas aravalari yo'q, ko'chganlarida foydalanishadigan yoki ish mashinasiga o'xshagan mashinalar onda-sonda uchrardi...

"Ovul" deb atalganlarning kiyimlari ham bir-biriga o'xshab, qaysi ovulning kiyimini qarasang, baribir, ular qo'lda tikilgan, qo'pol edi. Fabrika kiyimini kiygan odamni juda kam uchratarding...

"Ovul" deb atalganlarning ovqatlari ham birday: badavlat odamlarning ichadigani qimiz, yeydigani — go'sht; nonni ular juda kam yeyishardi, — bir gala mehmonning oldiga tashlanadigan bo'g'irsoq atigi bir-ikki tovoqqina, hozirgi o'lchov bilan aytganda, bir kilogrammga ham yetmasdi. Kambag'al odamlarning ichadigani ayron, yeydigani qurut bilan irimchiq (pishloq) gina edi; ularning uyida nonni juda kam uchratarding...

Yo'l-yo'lakay uchratgan ovul kishilarining tushunchalari ham bizning ovul kishilarinikiday tor, to'r tomonda o'tiradigan bitta-yarimta boylargina bo'lmasa, boshqa uyning kishilari o'z tevarak-atrofidagi, ya'ni yigirma-o'ttiz chaqirim naridagi joyda nima bo'layotganidan xabarsiz edilar...

Lekin shularni ko'rishning o'zi odamga qancha bilim!.. Ilgari, mening nazarimda, dunyoda yolg'iz ovul Jamanshuborgina bo'lib ko'ringan bo'lsa, endi u ovullar ko'z oldimda qator tizilib, ko'payib ketdi. Ilgari ko'zimga Nurtozadan ortiq boy yo'qday ko'rinsa, so'zga undan chechan odam yo'qday tuyulsa, endi men undaylarning ko'pini ko'rib qaytdim.

... Ilgari menga yer yuzidagi eng zo'r pahlavon Qanapiyagina bo'lib ko'ringan bo'lsa, endi men pahlavonlarning pahlavoni — Polvon Sho'loqni ko'rib keldim...

Bu safarimda men ashulachilarning ham, kuychilarning ham, baxshilarning ham talayini ko'rib keldim...

Bu safarimga qadar "O'ris shahri"[1] deganning nimaligini bilmas edim. Yo'lma-yo'l talay posyolkalardan o'tdik, ko'plarida tunadik ham. Ular haqida yodimda ko'pgina taassurotlar qoldi...

[1] O'ris posyolkasini ilgari shunday deb atashgan.

Ilgari men kiyim tikadigan, pichan o'radigan mashinalarnigina ko'rgan bo'lsam, endi xuddi odamlarday so'zlaydigan, — grammofonni ham ko'rdim... Sirimbetdan ovulimizga qaytayotganimizda "Shayton arava"ni ham ko'rdik, u — hozirgi velosiped!.. Ilgari ko'rgan mashinalarim ko'likning kuchi bilan yursa, mana bu mashinalar odamning oyoq kuchi bilangina yuradi... Bunga men tugul yonimdagi Mashik, Taspaylar ham hayron qolishib: "Yopirimoy, bundan buyon ot qolib ketib, mashina bilan yurib ketmasak deyman!" — deyishdi bir-biriga...

Garchi daraxtzor orasida tug'ilib, umrimning dastlabki to'rt-besh yilini daraxtzor orasida o'tkazsam ham, daraxtsiz Jamanshuborga ko'chib borgandan buyon "o'rmon" degan narsaning nima ekanligini butunlay unutgan edim. Sirimbet yo'lida men necha turli o'rmonlarni ko'rdim...

Kichik ko'lning o'zidan boshqa hech suv bo'lmagan Jamanshuborning cho'l dalasida o'sib ulg'aygan edim, lekin Volgaga o'xshagan poyonsiz daryoni ko'rish qanday baxt!.. Yon-verida quruq tepachalar bo'lgan Jamanshubor dalasida o'sib ulg'aygan menga Sirimbetga o'xshash tog'ni ko'rish qanday tomosha! Mana shu singari yangi yer, yangi el, yangi odamlar haqida ovulga qaytib kelganimdan keyin so'zlab yurmaymanmi?..

Bu safardan o'rganib qaytgan ko'pgina ertaklarim, ko'pgina hikoyalarim, ko'pgina qo'shiqlarim bor emasmi?.. Shularni ham aytmaymanmi?..

Mening bu qadar xursandligim Do's tepaligiga joylashgan ovulga yetmasdanoq so'nib qoldi.

— Qaysi uyga tushasiz? — deb so'radim men Mashikdan, ovulimizning yaqiniga kelganda.

— Nurtozaning uyiga, — dedi u.

Elimizning odati bo'yicha, ovulga yaqinlashgach otni sekin haydar edik. Otni qattiqroq haydagan odamga: "Manavi jantoq urug'idan emasmi o'zi" deb kulishardi. Shuning uchunmi, yoki uzoq yo'l yurib charchagan otlarini ayaganidanmi, ovul qorayib ko'ringach:

— Otni sekinroq hayda! — dedi Mashik.

Uning bu so‘zi menga yoqmadi. Ixtiyor o‘zimda bo‘lsa, zavqqa to‘layotgan ko‘nglimning ta’siri bilan ovulga chopib kirar edim. Lekin ot egasi: “sekinroq hayda!” deb turgandan keyin, nachora? Qattiqroq yo‘rtib kelayotgan otni sekin haydashga to‘g‘ri keladi!..

Yoz kunlari biz tomonda yo‘lovchilar siyrak bo‘lardi, ayniqsa qo‘sh ot qo‘shilgan aravadagi yo‘lovchilar kam uchrardi. Shuning uchunmi, yoki bo‘lmasa, bizlarni tanidimi, bilmadim, oldimizga bir to‘p bola chopib chiqdi!.. Hammasini ham tanidim!.. Men ularga ko‘pgina qiziq hikoyalar olib kelayapman!..

Bolalar meni ko‘rib, xuddi aravaga osilguday: “Sobit, Sobit!” deb chuvullashgani bilan yot odamning aravasiga yaqin kelolmay, ro‘parasidan yugurishdi. Shular orasidan Mustafoning kenja o‘g‘li Shaken aravaga yaqinlashib kelib qoldi.

— Aravaning tagida qolib ketmasa edi, mana bu bola! — dedi Taspay.

— Kimning bolasi o‘zi? — deb so‘radi Mashik.

— Mustafoning bolasi, — dedi Taspay.

— Eee, — dedi Mashik, — og‘asini tanib yugurib kelayotgan ekan-ku, sho‘rli.

Judayam sog‘inibdi. O‘tqizib olaylik!

Mashikning so‘zi dalda berdimi, yoki o‘zining odatdagi botirligimi, tarantasning oldida o‘tirgan mening yonimga Shaken sakrab chiqib oldi. Ikkalamiz quchoqlashib ko‘risha ketdik.

— Bo‘jidan ayriladi-da, manavi! Nima bo‘ldi, bunchalik quchoqlashmasanglar? — deb Taspay bo‘jini qo‘liga oldi. Shakenni men quchoqlab, o‘payotibman, sababi, u mendan yetti yosh kichik, buning ustiga yaxshi ko‘radigan ukam.

Shaken bilan quchoqlashib ko‘rishib bo‘lgunimcha otlar ovulga yaqinlashib qoldi. Yo‘l ovulga yondoshib o‘tardi. Nurtozaning uyiga borish uchun yo‘ldan burilib, ovulni yoqalab o‘tish kerak edi.

Mustafoning uyi yo‘lda, Nurtozaning uyiga buriladigan yerda edi. Bu uyni men uzoqdan tanib kelayapman. Bir vaqtlar arazlab chiqib ketgan bu qora o‘tovga so‘nggi vaqtlarda men yana qatnay boshlagan edim. Qatnamay ilojim yo‘q edi, sababi bu uyda eng yaqin ko‘radigan yolg‘iz odamim, mehribon Ultug‘on opam bor edi... Qarindoshlarim meni undan uzoqlashtirishga qanchalik ha-

rakat qilmasinlar, undan ayrilmagan edim. So‘z bilan ham, tayoq bilan ham meni undan judo qila olmasliklariga ko‘zlari yetgan qarindoshlarim, so‘nggi vaqtlarda meni ko‘rishsa ham indashmaydigan bo‘lishgan edi...

Sirimbetga ketish oldidan opam bilan xayrlashgan edim. Shunda u menga oq yo‘l tilaganday, ikkinchidan esa safarga yuborishga ko‘zi qiymaganday, sevinch bilan hijron aralash ko‘z yoshi qilib, yuzimdan qayta-qayta o‘parkan:

— Bor, ukajonim! Sog‘ borib, salomat qayt! Yer ko‘rib, el ko‘rib kelasan. Faqat ko‘nglimning bo‘shligidan bo‘lmasa, xursandchilik bilan kuzatib qoladigan yo‘l-ku. Menga sovg‘a olib kel, — degan edi u ko‘z yoshini artib, kulimsirab.

Sirimbet safaridan unga olib kelayotgan ikkita sovg‘am bor: bittasi bir mirilik to‘g‘nog‘ich, bittasi esa — tanga miriga olgan qizil hoshiyali ipak ro‘mol. Bu sovg‘ani men bir tiyinlab yig‘gan pulimga olgan edim...

Ovulga yaqinlashgach, boshimga: “Bizning ot-aravani Ultug‘on uzoqdan ko‘rib tanidi-da, eshik oldiga chiqib qarab turadi... Men otlar borib to‘xtagan uydan unga qarab yuguraman... U meni yana o‘padi... Men unga sovg‘alarimni beraman...” degan fikr keldi.

Ovulning qorasi ko‘rinishi bilanoq, ikki ko‘zim Mustafoning uyiga tikildi. Yaqinlashgan hamon, men har daqiqa sayin Mustafoning qora uyi oldidan opamni kutdim... Mana, ovulga ham yaqinlashib qoldik... Mana, bolalar ham chopib kelishyapti... Mana, Shaken ham kelib aravaga osildi... Yo‘ldan ham burildik... Mustafoning qora uyi oldidan ham o‘tib ketayapmiz...

“Ultug‘on qani?”

Men bu so‘roqni atrofimdagi butun borliqqa: ovulga, uning odamlariga, dalaga, yer va osmonga... xullas, butun dunyoga berganday, yoni-verimga qarayverar edim... Dunyoda “Ultug‘on” degan odam yo‘qday, butun borliqda, koinotda hech bir tovush yo‘q, jimjitlik hukm surardi...

“Nima bo‘ldi?”

Bu so‘roq ko‘nglimga allaqanday shubha soldi, yuragim o‘ynab ketdi... Nurtozaning uyiga yetgandan keyin, bu shubha orta bordi...

Bizni ko'rgan ovul odamlari Nurtozaning uyiga to'plana boshladilar. Biz yetguncha ular batamom yig'ilib ham qolishdi. Aravadan tushgan mehmonlarni ular chuvullashib qarshi olishdi...

Men-chi?..

Men Shakenni panaroq yerga olib chiqdim-da:

— Ultug'on qani? — deb so'radim.

Shaken javob berolmay, teskari qaradi. Shubham yana orta boshladi. Tutqich bermagan Shakenni ushlab olib yuziga qarasam, ko'zida jiqqa yosh.

— Uzatib yubordimi? — deb so'radim men.

Shaken javob berishning o'rniga, o'pkasini bosa olmay yig'lab yubordi.

* * *

Ultug'onni uzatib yuborishibdi. Kishilarning aytishicha, uni uzoq Siybonda "Joyilg'on" deydigan ovulda, Bo'latboy degan kishiga berishibdi. Dastlabki kunlarda yig'lab yursam ham, keyinchalik Bo'latboyning qanday odam ekanligini surishtira boshladim.

— Xotini o'lgan odam ekan, — dedi menga xabar beruvchi kishi, — Otkeltir yoshidagi kishi...

Otkeltir degan odam — ellikka kirgan, qora soqolli kishi edi. Opam esa o'n beshdan o'n oltiga endigina qadam qo'ygan, go'zalgina yosh qiz edi... bu qanday noinsoflik!..

Dodingni kimga aytasan? Bu to'g'rida Mustafoga ayta olmayman, aytganimdan nima foyda! Bo'lar ish bo'lgan. Ovul kishilarining yomonlaydigan kishisi Mustafo bo'lib qolgan. Butun ovul yig'ilib, yolg'iz Mustafoga kuchi yetmaganiga hayronman!

Qaydasan, opa?

Endi mening Jamanshuborda kimim qoldi... "Do's" da kimim qoldi?..

Yolg'iz opamning "zo'rlik bilan molga sotilib, cholga berildi" degan xabarni eshitganimdan buyon ko'zimga bu ikki o'rtaning

eligina emas, yeri ham yovga o'xshab ko'rinardi. Men bu yerdan ketishim kerak, opamni topishim kerak!

Shunga bel bog'lagan chog'imda, menga sabab topilib qoldi: Qutirlagan deydigan Kazachya stanitsada turadigan buvimiz Kakish bilan uning eri Abubakir kelib qoldi-da, meni mol boqish uchun chaqirib ketdi. Men rozi bo'ldim.

Meni amakim Ibroy olib yurdi. Opamning ovuliga bizlar bir qo'nib yetdik.

Bir-birini sog'ingan qo'sh yetimning yig'lashlarini, ayniqsa, opamning mungli zorini bu yerda tasvirlashning hojati yo'q.

O'quvchim, mana bu holni tasvirsizoq yaxshi tushunsangiz kerak!

"Joyilg'an" degan el qalin daraxtzorning panasida qishlar ekan. Yozda uch guruhga bo'linadigan bu ovulning qishki manzili Jamanshuborga o'xshab faqat birgina yerda ekan. Ovulning biyi — Qo'bdiqning o'g'li Husayin bilan Qiyqim degan kishi ekan. Boyi esa, — "Boy yotoq" deb ataladigan Iriske, Serikboy degan ikki chol. Ularning "Boy yotoq" deb atalishlarining sababi: ikkalasi ham rus boyiga yollanadi, so'ngra bu farzandsiz rus boyi qarib vafot etganda, mol-mulki akt qilinib ikkalasiga taqsimlanadi. Ularning qo'liga mo'l boylik tekkach, o'z ovullariga ko'chib keladilar-da, oq o'tovlar tikadilar, sovliq, biyalar boylaydilar, qishki turar joylari uchun yog'och uylar soladilar.

Opamning eri Bo'latboy shu vaqtda elliklar chamasidagi, cho'qqi soqolli, ulkan burunli, katta ko'zli, ajindor basharali kishi bo'lib, o'zi ikki so'zning birida Allohni tildan qo'ymaydigan dindor, uning otasi Nurali — shu vaqtda yetmishdan oshgan chol edi, biroq moshbirinch soqolli, o'rta bo'yli, keng yag'rinli odam; u ham dinga berilgan so'fi, uning ikkinchi xotinidan tug'ilgan Sag'it ismli o'n yashar o'g'li, Rahila ismli, bo'yi yetgan qizi bor; xotini yo'q ekan. Bo'latboyning ilgarigi xotinidan qolgan, yoshi olti-yettilar chamasidagi Tastan degan o'g'ligina bor ekan.

Bizlar borgan paytda, Bo'latboy o'tovini tikib, dalaga chiqibdi. Yamoqli, qora o'tovning ichi u qadar yasatilmagan. Shu yili Bulatboyning faqat ikki buzoqli sigiri, o'ntacha mayda moli bor ekan.

Ikki buzoqli sigiri bilan bir biyasini Ultug'onning qalin moliga beribdi.

Ibroy tezda qaytgach, men shu yerda qoldim. O'zimcha, Qutirlaganga ketish, Abubakirnikiga borish kerak, deb o'yladim.

Bu fikrim Ultug'onga ham ma'qul bo'ldi, sababi, uning qayin otasi Nurali, xotini o'lganidan keyin qozon-tovoqqa aralashib o'sgan kishi ekan, yangi tushgan kelinni ovqat qilishini yoqtirmay, g'idi-bidi qilaverar ekan.

Bo'latboy o'zi mo'min, uy-ichiga ma'qul odam ekan. Biroq unga: "Xotiningga uni ishlatmaysan, buni ishlatmaysan" deb Nurali po'ng'illagani-po'ng'illagan ekan. O'g'li Bo'latboy: "Ota, qo'ysang-chi" desa, "Nimani qo'yardim, qo'yganim shumi" deb shovqin-suron ko'tarib, ba'zan Bo'latboyni savalar ekan...

Men shunday paytga to'g'ri keldim. "Ochiqqan o'g'rining tili achchiq bo'ladi" degan maqol bor emasmi? Qayin otasi kuniga g'idi-bidi qilaverganidan so'ng, opamning ham tili chiqib, so'z qaytaradigan bo'lib qolibdi...

Shunday bir janjal paytida, Bo'latboy Ultug'onga:

— Qo'ya qolsang-chi, qari kishi bilan janjallashmay, — dedi-yu, achchiq tilli cholning so'ziga javob berishdan Ultug'on to'xtamaganidan keyin, u:

— Bay-bay-bay! Itning bolasi, qo'ymading-da! — deb oldida yotgan teshani olib Ultug'onga otib yubordi. Tesha Ultug'onning manglayiga tegib, shilib tushdi...

Shu vaqtda qanday ahvolga tushganimni bilmayman. Faqat:

— Voy padaringga... — deb Bo'latboyni so'kib, yuvindisi bilan turgan yonimdagi laganni basharasiga to'nkaribman. Shundan so'ng, baqirib yig'lab, yayov qochibman. Boradigan ovulim — Sog'indiq ovuli edi...

Joyilg'andan ikki-uch chaqirim narida qalin o'tli bir ko'l bo'lar ekan. Yayov yurib shu yerga kelganimda, otga yaydoq mingan Bo'latboy ketimdan quvib yetdi.

— Chirog'im, senga nima bo'ldi? — dedi u, izza bo'lib yig'larkanman, meni quchoqlab, — haligi aljigan cholning tiliga kiraman deb... birinchi marta urishim edi... Qayt chirog'im, ovulga, bundan keyin hech ranjitmayman.

Yana bir qancha so'zlarni aytgandan so'ng, Bo'latboy meni otiga mingashtirib olib ketdi.

Biroq men u uyda ko'p turmadim. Avvalo opamni ko'ndirdim-da, so'ngra Bo'latboyga:

— Bu yerda bekor yurib nima qilaman, — deb Abubakirning chaqirganligini aytdim.

Bo'latboy bir-ikki kungacha yuborgisi kelmay turdi-da:

— Mayli chirog'im, borsang bor, o'zim olib borib qo'yay, xabar olib turaman. Endigi uying shu yer bo'lar, — dedi.

Ertasigayoq tarantasda Bo'latboy ikkalamiz Qutirlaganga jo'nab ketdik.

Podalar ketida

Men Qutirlaganning podasini boqa boshladim. Biz sog'im sigirlarni boqardik. Ularning soni besh yuztacha kelardi. Yonimda menga tengdosh Qayirkegina bor edi.

Bizlar har kuni saharda turardik. Shu paytdan boshlab tegirmonning yoniga rus ayollari sigirlarini haydab kela boshlardilar. Shahar sigirlari batamom yig'ilib bo'lguncha kun ham chiqib qolardi. Qayirke ikkalamiz sigirlarni yaylovga haydab olib ketardik.

Qutirlaganning dalasi keng edi. Bu faqat rus posyolkasi emas, kazaklarning stanitsasi edi-da. Qozoq dalasini chor hukumati istilo qilgan paytda, Gurevdan, Uraldan, Orenburgdan tortib Orsk, Troitsk, Presnogorkovsk, Petropavlovsk, Omsk orqali Irtishni yoqalab, narigi cheti Zaysanga taqaladigan "liniya"dagi kazak stanitsalari shahar bo'lganligi tufayli, shu stanitsalarda yashovchi kazaklarga podsho hukumati kengroq imkoniyat tug'dirgan edi, shu imkoniyatlardan biri ularni kengroq yerlar bilan ta'min etish edi.

Dehqon posyolkalarida kishi boshiga o'n besh desatinadangina yer tegsa, kazaklar uchun kishi boshiga o'ttiz desatinadan yer bermoqchi bo'lgan. Shu sababli, xonadon soni birday bo'lgan dehqon posyolkasiga qaraganda, kazak stanitsasining yeri ikki hissa ko'p bo'lar edi. Bundan tashqari, kazaklarning ichidan urush vaqti-

da shuhrat qozonganlariga ayrim yer uchastkalari ham berilardi. Hammasi jam bo'lib, besh yuz xonadonli Qutirlaganning yeri shunga teng — "Isayevka" deb ataladigan ukrain posyolkasining yeridan ikki-uch hissa ko'p.

Qutirlaganga qarashli yerlarning o'rmoni ham, ko'li ham ko'p bo'lardi. Stanitsaning yonida "Ulkan sori", "Kichik sori" deb ataladigan ikki ko'l bor edi. Har ikkalasining ham bu chetidan qarasang, u chetini zo'rg'a ko'rarding.

Qutirlaganliklar ekinlarini stanitsaning bir tomonigagina ekardilar. Ekinni ko'p ekadigan xonadonlar kam edi. Ularning eri o'n besh-yigirma desatinadan oshmasdi. Ko'pchiligi ekinni bir desatinadan besh desatinagacha yergagina ekardi. Ekin mana shunday kam ekilganligi uchun, Qutirlaganning boshqa joylariga podalar erkin yoyilardi. Ko'l va o'zan yoqalaridagi, ya'ni o'rish uchun saqlab qo'yilgan pichanlarga tegmasang bas, boshqa yerlariga podani qanday qilib yoysang, shunday qilib yoy, ixtiyoring.

Sigirlar faqat tush paytigacha o'tlardi. Undan keyin so'na chiqardi, sigirlar bir joyda turmasdi. So'nadan suvga qochgan sigirlar tushdan keyin ko'lanka tushgandagina yana yoyila boshlardi.

Qozoq ovullarida sigirni buzoq bilan iydirib sog'ardilar. Ruslarda esa sigir tug'ishi bilanoq buzoqni onasidan ajratardilar. Sigir bunga tez o'rganib ketardi. Shuning uchun dalaga chiqayotganda va qaytayotganda, ruslarning sigirlari qozoqlarning sigirlariday, bolalarini izlab ma'rashmasdi.

"Ayiqqa namozni o'rgatgan tayoq" deganlariday, ba'zi bir qochqoq sigirlar tayoqdan qo'rqardi. "Tayoq" deyayotganimiz — bir quloch keladigan yumaloq boshli katta cho'qmor edi. Bunday cho'qmorlar tomiri bilan sug'irib olingan qayindan yasalardi. Shu cho'qmor qochib ketayotgan sigirning biqiniga tegsa qulatardi. Bir marta cho'qmor zarbini yegan sigir, nima desang shunga ko'nardi.

Biz boqayotgan sigirlar orasida bitta ola-bula, bitta qizil qashqa buqa bor edi. Ikkalasi ham nortuyaday katta edi. Biz ularni bir-biri bilan suzishtirib ermak qilardik. Ularning bir yaxshi tomoni shuki, odamni suzmasdi. Haydasang oldingga tushib yuraverardi. Shuning uchun ham ular sigirlarning qaysi tarafida yurishmasin, haydab olib kelib suzishtirganimiz suzishtirgan edi.

Suzisha-suzisha charchardimi, yoki ikkalasininig kuchi tengmidi, bo'ynilarini egib birini biri shunchalik itarsa ham, birini biri sura olmasdi. Turib qolardi. Shu taxlitda birozdan so'ng ikkalasining ham ko'zlari qizarib, tillari osilib, og'izlaridan suvi oqib, ko'z yoshi ham qilib olishardi, ularni cho'qmor bilan ajratmasang, o'zlaricha ajrashmasdi...

Sigirlar dam olib yotgan vaqtda, ikkovini ikki joyga ajratib yotqizmasang, ular yana suzishib ketardi, hech charchashmasdi. Sigirlar yotgan mahalda Qayirke ikkovimiz eng avval qo'ltiqqa qisib yurgan uch oyoqli yog'ochga kamarimizdagi mis chelakni osardik-da, ichiga suv quyib choy qo'yardik. Choy qaynaguncha Qayirke ikkalamiz suvda cho'milardik, suvdan bir-bir quchoq qo'g'a ham olib chiqardik. Bu ikki o'rtadagi ko'llarning qo'g'asi ham, qamishi ham juda shirin bo'lardi. Qaynayotgan suvga soladigan choyimiz — dalada o'sadigan "sholpi" nomli o't edi. O'zi yovshanga o'xshash bo'lib, boshida sarg'ish guli bo'lardi, choyi yam-yashil bo'lib chiqardi. U chanqoqni juda yaxshi bosardi. Nonni Qayirke ikkalamiz to'rvaga solib uydan olib kelardik. Bu non ruslarning bulkasi yoki kulichi edi. Agar choy ichgimiz kelmasa, sigirlarning sutini chelakka sog'ardik-da, pishirib ichardik.

Qayirke bilan mening har bir kunimiz shunday o'tardi. Ba'zi kunlari Qayirke uyda qolib, uning o'rniga men bilan mol boqishga og'asi Beysembi chiqardi.

So'nggi paytlarda "Yomon pochcha" atalgan Beysembi, yosh vaqtida yuvosh edi. Chap qo'lining bir barmog'i yo'q edi. Mol boqishga chiqqanda, u uyida do'mbirasini olib chiqardi. Yoyilib kelayotgan poda ketida do'mbirasini chalib hirgoyi qilib yurar edi. Shu hirgoyisi bilan u go'yo o'zini ashulachi hisoblar edi. U, o'lan aytsa, hovliqib ketar, agar men unga jo'r bo'lsam, undan ham battar qizishib, o'rinli yerda ham, o'rinsiz yerda ham avjiga chiqib qichqiraverardi.

Kunlarimiz shunday o'tardi. Ertadan to qorong'i tushguncha poda ketida yuraverish dastlabki paytlarda og'ir tuyulsa ham, keyinchalik o'rganib ketdim. Bu ham ajoyib bir hayotga aylandi. Beysembi poda boqishga kam chiqardi. Ko'pincha podani Qayirke ikkalamiz birgalashib boqardik. Yoshi ham, bo'yi ham men bilan

teng, qora bujir basharali Qayirke juda pishiq odam edi. U ruslar orasida tug'ilgan edi. Rus tilini rus bolalaridan kam bilmasdi. Akasi Beysembiga o'xshab u ham o'lan aytishni, mendan o'lan eshitishni yaxshi ko'rardi. Uning aytadigani nuqul ruscha qo'shiq edi. U qozoqcha o'lanni pala-partish aytar, hech narsani bilmas edi. Do'mbiraga qo'li ham kelishmasdi.

Aslida Qayirkening qozoq "o'lanchilari"dan birinchi marta ko'rgani men bo'lsam kerak. Shuning uchun ham u, men o'lan aytishni bilmagan paytlarimda o'zi biladigan ruscha qo'shiqlarni aytib yurardi.

U:

Nasha ulitsa shiroka
Tolko nekuda xodit,
Na derevne devok mnogo
Tolko nekogo lyubit.

der, yoki:

Zakuryu s toski maxorku,
Poloju garmon na polku,
Poloji Tolyanochka
Poka pridyot belyanochka.

der, yoki:

Ox, moya milka sem pudov,
Ne boitsya verblyudov...

deb, dag'al tovushi bilan moylanmagan aravaning g'ildiragiday do'rillardi. Keyin, mening o'lan aytishimni bilgandan so'ng, u o'lan aytishni mutlaqo yig'ishtirib qo'yardi. Ikkalamiz Beysembining do'mbirasini ba'zan so'rab, ba'zan esa so'ramasdan olib chiqadigan bo'ldik. Lekin Qayirke Beysembiga o'xshab o'lanni poda ketida yurib aytishni yoqtirmasdi, o'tqizib ayttirardi.

So'na tekkan paytdagina bo'lmasa, sigirlar yoyilgan vaqtlarida o'tloqdan ketgisi kelmasdi. Ular bedali, o'lanli yaylovni yaxshi ko'rardi. Shunday maysazor yerlarga olib kelib tashlasang, jonivor aylanib o'tlagani-o'tlagan, nari siljimasdi. Bitta-yarimta qocha-

g‘on sigirlar bo‘lmasa, boshqa sigirlar shahardan dalaga chiqib to qaytguncha o‘tdan boshini ko‘tarmasdi, ketmasdi ham. Yoyilishga ketayotgan yoki qaytayotgan paytlarida oldilariga chiqib: “So‘p” deb ovozingni chiqarib qo‘ysang, sigirlar seni bosib o‘ta olmasdi, to‘xtab o‘tlardi. Yaylovga chiqayotgan yoki qaytayotgan paytlarida Qayirke shunday qilib sigirlarni to‘xtatib qo‘yardi-da:

— Qani, Sobit, boshla o‘lanni, — derdi. Ba’zan o‘lanni birgalashib aytishga shartlashib men uning xohlagan o‘lanini boshlab yuborardim... Bir necha yildan buyon boqqan Qayirkeni o‘z egasi his etadimi, yoki o‘rganib qolganligidanmi, u tovush chiqarsa bo‘ldi, sigirlar yalt etib qarashar, uning ko‘rsatgan tomoniga yo‘l olar edilar. Mening yo‘l ko‘rsatganimni, qichqirganimni ular pisand ham qilmas edilar.

O‘lanni sigirlarning tushki dàm olish paytida ko‘proq aytar edim. Bu vaqtda chelakda qaynayotgan choyimizni ikkalamiz kichkina yog‘och zarang bilan terlab-pishib ichib olganimizdan keyin, men o‘lan aytardim. Qayirke o‘lan aytayotganda Beysembiday qizishmasdi. U “qoyilman”, “do‘st”, “yasha” degan so‘zlarni sekin, shoshmasdan aytar, ko‘pincha menga tikilganicha o‘tirardi.

— Ishonasanmi, — derdi u, — shu vaqtgacha men qozoq ovullarini ko‘rgan emasman. Qayoqdan ko‘ray, — yetti yoshimda onam o‘lib yetim qoldim. Otam uylana olmadi. Shu uyning ayoli ham, erkagi ham otam edi. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmaydigan mo‘min kishi edi va hech qayoqqa bormasdi, u bormagandan so‘ng men ham hech qayoqqa bora olmasdim, yetti yoshimdan buyon poda ketida yurganligimdan ovulni qayoqdan ko‘ray?

— Ko‘rib kelganlar, — derdi u, — ovulni yaxshi deyishadi, mehnati oz, o‘yini ko‘p, yozi bilan dalada bo‘lishadi deyishadi. Borgim keladi, biroq borish qayoqda deysan?..

Qayirke keyingi so‘zini ichida zo‘r armoni borday xo‘rsinib aytdi. So‘ngra ovul yumushining ikir-chikirlarini mendan so‘ray boshladi. Ovul haqidagi maslahatlarimni, ayniqsa, shaxsan o‘z boshim haqidagi maslahatlarimni eshitgach, ovuldagi qash-shoqlarning ham menga o‘xshagan yetimlarning ham hol-ahvollari haqida aytgan so‘zlarimga Qayirke ishonmasdi. Men shunda:

— Ovulda yashash rohat bo'lsa, men shaharga daydib kelarmidim, — der edim. Qayirke bunga javoban:

— To'g'ri, — derdi ma'qullab. — Doimo poda ketida salanglab, ichim pishib, nima qilishimni bilmas edim, — derdi Qayirke, — sening kelganing yaxshi bo'ldi. Sen kelganingdan beri kunlarning qanday o'tayotganini ham sezmayotibman. Endi ikkalamiz shu sigirlarni birga boqishaylik, xo'pmi, sen bu yerdan ketma.

— Umrbodmi, — deb so'rardim men.

— Umrbod bo'lsa nima qibdi? — derdi Qayirke, — umrbod poda boqib o'tgan kishilar bizlardan kam emas. Mening otam Qo'paboy, uning otasi Tulki, uning otasi Quneke, uning otasi Norin, uning otasi Bo'ri, Bo'rining otasi kim ekanini bilmayman, faqat bobolarimiz Jongisi — Samoy deyishadi. Shu kunlarda Jongisi avlodidan Shug'ayin degan mulla bor deb eshitaman. O'sha bizning qarindoshimiz bo'lsa ehtimol. Ota-bobolarimni sanayotganligimning sababi, katta kishilarning so'ziga qaraganda, shu Qutirlaganga dastlab bobomiz Quneke kelib o'rnashib, poda boqqan ekan. Uning bolasi Tulki, uning bolasi Qo'paboy ham butun umrini podalar ketida o'tkazishgan. Kenjaboyni, kim biladi, hali yosh-ku! Bizning Beysembilarning umri ham poda boqish bilan o'tsa kerak.

— Sen o'zing-chi? — deb so'radim men.

— Kim biladi, buni Xudo biladi-da, — dedi Qayirke.

— Nega unday deysan? — so'radim men.

— Nima ham deyman, — dedi Qayirke, — bo'lmasa, bir yil emas, o'n yil emas, umrbod poda boqishning nimasi yaxshi deysan?

— Unday bo'lsa, nega menga podachi bo'l deysan? — dedim men.

— Ikkalamiz birga boqa turaylik, uyog'ini yana ko'rarmiz.

Qayirkening "ko'rarmiz"i nima ekanligini men keyinchalik tushundim. Yozning yarmi o'tib, qutirlaganliklar pichanini o'rib, ekinini yig'ib ola boshlagan paytda, Qayirke menga bundan ilgari sir tutgan bir so'zini aytdi.

— Sobit, ko'nglim sevgan odamsan, — deb boshladi u so'zini.

— Nega?

— Odating yaxshi, aytganimni qilasan, yana uning ustiga o'lanchisan...

Qayirke menga qarab, biroz indamay turdi-da:

— "Oylik xotin sirdosh" degan maqol bor ekan, poda ketida yurgandan so'ng ikkovimiz ham bir-birimizga sirdosh bo'lishimiz kerak emasmi? — dedi.

— Albatta, — dedim men.

— Hech kimga aytmaysanmi? — deb so'radi u.

— Nima demoqchisan?

— Yo'q, hech narsa, — deb Qayirke kulimsirab qo'ya qoldi...

Bu gap shu bilan to'xtatildi. Sigirlar tushgacha yoyilgach, o'z vaqtida ko'l bo'yiga yotqizdik.

Bu payt — so'naning to'xtagan payti edi. Bizlar sigirlarni ko'l yoqasidagi taqir yerga yotqizar edik. Taqir yerda chivin, so'na kam bo'lardi. Bitta so'naning kelganini sezsa, tutqich bermay to'g'ri kelgan tomonga qochadigan sigirlar, tanasiga qo'ngan ozgina chivinni pisand qilmay, kovush qaytarib bemalol yotaverardi. So'nadan qutulgan mahalda mollar tushki dam olishgacha to'yib o'tlardi-da, so'ng yotib kovush qaytarardi. Ba'zi kunlari bunday vaqtda Qayirke ikkalamiz uxlab ham olardik.

Qayirke, bugun ham podani olib kelib ko'l bo'yiga yotqizgach, choy ichib o'tirib, o'sha to'xtatib qo'ygan gapini yana qo'zg'adi.

— Har kuni ichadiganimiz choy, — deb so'zini boshladi u, — yeydiganimiz faqat non. Tozayam yuragimizning yog'ini olib bitirdi-ku bu, Sobit!..

— Yog'ini olgan bo'lsa, nima ham qilardik? — dedim men hazillashib, — mol so'ymasdan xasislik qilgan otangdan ko'r, o'zingdan ko'r.

— E, do'stim, — qiziqsan-a — dedi Qayirke, — agar shu mol qo'limizda bo'lsa, so'yar edik-ku-ya, biroq yo'q-da.

— Bo'lmasa nega gapirasan?

— Bizlarda yo'q bo'lsa ham shaharda ko'p demoqchiman-da.

— E, shahar senga qo'yini berarmidi?

— Rost, bermaydi.

— Bermasa, nega gapirasan?

— Anchayin, bir amallab harakat qilib ko'rsak deganim-da, — dedi Qayirke menga iljayib.

— Qanday harakat qilib ko'rarding? — deb so'radim men.

— Oson-ku-ya, agar she'riging ishonchli bo'lsa.

— Ishonchli bo'lsa nima qilar eding? — dedim men uni sinash uchun.

— Boya "hech kimga aytmaysanmi?" deyayotganimning ma'nosi shu edi-da, — dedi Qayirke.

— Xo'sh, aytmasam-chi?

— Unday bo'lsa, qo'lingni ber, — deb Qayirke qo'lini cho'zdi. Men unga hadeganda qo'limni bermagan edim, u: "Nega bermaysan?", "Ishonmaysanmi?", "Kimdan qo'rqasan" degan qator so'roqlarni bera boshladi.

— Qo'y, bunday och yurmaylik, — dedi u menga, — bir iloj qilib, qo'zi, echki o'g'irlab qornimizni to'ydiraylik.

— Qayerdan o'g'irlaysan?

— O'rozali boqayotgan shaharning qo'ylari shu atrofga kelib, aralashib yoyilib yurgani yo'qmi?

— Undan qanday qilib o'g'irlaysan?

— Oppa-oson, — dedi Qayirke shu paytda ko'zi o'g'ri itning ko'ziday yiltillab.

— Qanday qilib oppa-oson bo'lardi?

— Qo'ylar yoyilib daraxtzorning ichiga kirgan mahalda bitta semizini tutib olamiz-da, so'yib daraxtning tagiga tiqamiz qo'yamiz. So'ngra pishirib yeymiz.

Qayirkening so'zlariga ishonmasdan biroz jim o'tirdim-da, uning bu so'zlarini hali ham bo'lsa, hazil deb bilib:

— Ulog'ini ushlamaysanmi? — dedim.

— Yo'q, u la'nati baqiroq bo'ladi, — dedi Qayirke, — qo'ychivonga sezdirib qo'yadi. Qo'zi-chi, qo'zi degan jonivor, tovush chiqarmaydi... Xo'sh, nima deysan endi, Sobit?.. Shunday qilamizmi?

— Chindan aytayotibsanmi?

— Yolg'oni ham bo'ladimi?

— Yo'q, men bunga qo'shila olmayman, — dedim men.

— Qo'shilmayoq qo'y, — dedi Qayirke menga jilmayib, — faqat aytib qo'ymasang, bas. Qo'zini ushlaydigan ham, bo'g'izlaydigan ham, tilishlaydigan ham o'zim. Sen yeging kelsa ye, yeging kelmasa yema.

— Uni qayerda pishirib yeysan?

— So'yadigan bo'lsak, pishirishni qoyil qilamiz, — dedi Qayirke kulib.

— Qanday qilib qoyil qilasan? Qo'limizdagi chelakka bir ilikning ham go'shti sig'maydi, unga qaysi birimiz to'yamiz?

— Molning go'shtini o'z qornida pishirib yeganini eshitmaganmisan, — dedi u.

— Qornida?!

— Ha, qornida. Ichidagi qorini bor-ku, o'shaning ichidagi go'ngini ag'darib tashlab, tozalab yuvib, ichiga suv quyasan, sig'ganicha go'sht, yana tatimli tuz ham solasan-u, yerni chuqur qilib qazib, chuqur ichiga qum sepib, haligi qorinni shunga ko'masan. Shunday qilgach, uning ustidan yana qum sepib, so'ngra ustidan o't yoqasan. Shunda qorindagi go'sht biqirlab qaynaydi. Qaynaganda bug' chiqib turishi uchun qorinni o'ngachi bilan olasan-da, o'ngachining ichiga ikki boshini kesgan bir qarichcha qamish tiqib qo'yasan. Qamishning teshigidan bug' burqirab chiqib turadi.

— Rost-rost! — deydi Qayirke, — talay marta shunday pishirib yedik. Qorinda pishgan go'shtning oldida, qozonda pishgan go'sht, go'sht emas! Unday shirin go'sht bo'lmaydi dunyoda!..

Qayirkening so'ziga endigina ishonganday bo'ldim.

Esimga O'rozali tushdi. Uni men taniyman. Bizning Siybon avlodidan. U ham o'sha Qutirlaganda tug'ilib o'sgan odam. Uning ham asl kasbi mol boqish edi. Biz yuqorida Abubakirning uy turmushi nochor ekanligini bayon qilgan edik. O'rozalining ahvoli undan ham harob... Bundan tashqari, shu Qutirlaganda o'tiradigan besh-olti xonadon odamlarining aytishicha, O'rozali — "birovning ola ipidan hatlamaydigan", yo'lda yotgan narsani topib olsa, egasini izlab olib borib beradigan, mol boqishdan boshqa ishni bilmaydigan, "xudojo'y" odam. Uning yoshi shu paytlarda ellik-oltmishlarda edi. O'z ko'ylagini yamab kiya olmaydigan, o'z choyini durustroq damlab icha olmaydigan haddan tashqari bo'shang bir kampiri bor edi. U kampirdan ko'pgina farzand ko'rgan-u, o'laverib yolg'izgina bolasi qolgan. U ham muz ustida konki uchib yurganda, o'ng oyog'i tizzasidan chiqib ketib, cho'loq

bo‘lib qolgan... O‘rozalining hol-ahvoli shunday og‘ir ekanligini bilganimdan keyin:

— Mo‘min odamga jabr emasmi? Sen o‘g‘irlagan qo‘zini u egasiga to‘lamaydimi axir? — dedim. Shunda Qayirke menga qarab:

— Nima qibdi to‘lasa, usiz ham Xudoning sho‘rli bandasi, qo‘zisini biz o‘g‘irlamaganimiz bilan, u boyiyotgani yo‘q.

Bu gap shu bilan tugadi. So‘nggi kunlarning birida yoyilib kelayotgan sigirlar bilan qalin daraxtzorning ichiga kirdik. Shu vaqtda ikkinchi tomondan O‘rozali boqadigan qo‘ylar ham ma’rashib kirdi...

— Sen daraxtlarning narigi tomoniga chiq-da, sigirlarni to‘xtat! — dedi Qayirke, — bo‘lmasa ular narigi tomondagi, ruslar yig‘ib qo‘ygan pichanga yopirilib ketadi.

... Qayirke aytgan tomonga borib, sigirlarni qaytardim-da, daraxtzorning bu tomoniga haydab keldim.

Shu vaqtda O‘rozali boqadigan qo‘ylar ham daraxtzordan nariga qarab ketayotgan ekan. O‘rozali bizdan yiroqlashgan mahalda Qayirke yonimga keldi.

— Ajoyib narsa topdim, — dedi u.

— Xo‘sh, nima topding?

— Bir tolning tagidan arining uyasini topdim...

“Arining uyasi” degandan so‘ng sevinib ketdim. Bundan ilgari bir marta Qayirke bilan uyani topib, ertasiga uyasiga tutun tutatib asalini olgan edik. Arining tutundan qochishini men birinchi marta Qayirkedan eshitgan edim. “Asal” degan shirinlikni birinchi marta shundagina tatiganman.

Asalga shunday o‘ch bo‘lganligimdan, Qayirkening: “Arining uyasini topdim” degan so‘ziga ishondim-da, unga ergashdim.

Yonimda kelayotgan Qayirkega:

— Yana tutun tutatamizmi? — dedim.

— Albatta, — dedi u.

Ikkalamiz daraxtlar orasidan chopib ketayotibmiz. Oldimda Qayirke. Men har daqiqada oldimizdan vizillab uchadigan arilarni kutardim...

Meni boshlab chopib kelayotgan Qayirke daraxtlarning qalin yeridagi, tagiga yaproqli yosh butoqlar to'shalgan daraxt yoniga olib keldi-da:

— Uya shu yerda, — dedi.

— Arilar qani?

— Ular yashirinib yotibdi, — deb Qayirke kuldi-da, yaproqlarini ocha boshladi. Men odatda g'uv etib ko'tariladigan arilardan qo'rqib qocha boshladim.

Qayirke qah-qah otib kularkan, yaproqli butalarni narigi tomonga irg'itib tashladi-da:

— Mana ari! — deb hali juni qirqilmagan qizg'ish qo'zini orqa oyog'idan ko'tara boshladi. Men hayron bo'lib qotib qoldim, birdan qo'zining bo'g'izlangan tomog'iga ko'zim tushdi. Qo'zi jon bergan edi...

— Bu nima? — dedim men Qayirkega.

— Ari!

— Ari degan shunday bo'larmikan?

— Voy, sen buni aytasan, bundan ham kattasi bo'ladi.

— Tushunarli, — dedim-u, keta boshladim. Qayirke yugurib kelib yelkamdan ushlab oldi.

— Qayoqqa borasan? — dedi u.

— Men bunday arining asalini yeya olmayman,— dedim.

— Ey, rostdan aytayotibsanmi? — dedi u.

— Rost.

— E, qo'ysang-chi! — deb Qayirke menga hazil qilmoqchi bo'ldi.

— Qo'yganim shu, — dedim men jiddiy turib, — agar sen bunday qiladigan bo'lsang, men ertadan boshlab uyingdan ketaman.

Qayirke meni qo'yib yubordi-da, jim qoldi. Men ham jim qoldim... Ikkalamiz ham biroz bir-birimizga indamasdan qarab turdik.

— Sen, manavi qo'zini so'yganimni aytib qo'ymaysanmi? — dedi Qayirke nihoyat mendan ilgari so'zlab.

— Aytmayman, — dedim men.

— Ikkinchi qo'zini-chi?

— Aytayotibman-ku, uyingdan endi ketaman deb.

— Agar qo'zi o'g'irlamasam-chi?

— Unda, ketmayman.

Qayirke biroz o'ylanib turdi-da:

— Bu qo'zini nima qilamiz? — dedi.

— Nima qilsang, o'zing bilasan. Biroq bu qo'zining go'shti u yoqda tursin, sho'rvasidan ham ichadi dema meni.

Urush

Menga Qutirlaganliklarning hayoti Jamanshuborliklarning hayotidan ancha qiziq ko'rindi. Bizning Jamanshuborda faqat el yaylovda turgan mahaldagina bo'lmasa, boshqa vaqtdagi o'yin-kulgilarning hammasi uyda o'tardi. Ana shu uyda bo'layotgan o'yinni, shu uydagilardan boshqa hech kim ko'rmasdi. Yaylovga chiqqan paytlarda esa, kechasi ovullarning o'rtasiga arg'imchoq qurilar, ovullarning yosh-yalanglari shu yerga to'planishib, arg'imchoqda uchishar, o'lan aytishardi, yoki bo'lmasa, yigitlar ikki taraf bo'lib kurashga tushardilar. Bular ham, albatta, qiziq-da... Jamanshubor yoshlarining o'yinlaridan Qutirlagan yoshlari o'yinlarining ikki narsasi ortiq edi. Bittasi — surnayga jo'r bo'lib o'lan aytish, ikkinchisi — yoshlarning raqs o'yinlari edi.

Men surnayni birinchi marta Sirimbetga ketayotgan paytimda yo'lda, Metrepke shahrida eshitganman. Mol tovushiga solishtirib aytganimizda, men surnayning tovushini ayg'irning hayqirib kishnashiga, o'zimizga tanish do'mbirani esa, qo'yning ma'rashiga o'xshatdim. Ovozi baland bo'lsa ham, surnayning tovushi menga do'mbira tovushidan ancha yoqimli eshitildi. Lekin u vaqtda surnay chalib, saf tortib kelayotgan yosh rus yigitlari otimizni hurkitib, bizga qarab yugurishgach, bizlar orqamizga qarab qochganmiz; kimlarningdir orqamizdan otgan tezak, tarasha, chiviqqa o'xshash narsalari ustimizga yog'ilib ketgan edi.

— Yopirim-ay, Xudo bir saqladi-da! — degan edi chetroqqa chiqqan Taspay, — ruslarning sho'x bo'lishini bilmay, shaharning o'rtasiga kirib qolibmiz. Haligi yigitlar voyaga yetgan bo'lsa ham mast-da, qo'llariga tushsak savab yuborishlari turgan gap...

— Shundan keyin surnay tovushini eshitishga juda xumor bo‘lib yurdim, faqat Sultong‘ozinikiga kelganimda surnay tovushini eshitdim. Sultong‘ozining bir o‘g‘li surnaychi ekanligi bizga ma’lum. Buning surnayi o‘n to‘rt pardali — kichkina bo‘lsa ham, to‘zib teshilgan ba’zi yerlariga xamir bilan latta yopishtirib qo‘ygan, har holda yangi emas edi; u turli maqomlarni buzib chalishiga qaramay, ilgari menga, dunyoda undan o‘tadigan surnaychi yo‘qdek ko‘ringan edi...

Men Qutirlaganda surnayning eng kattasini ko‘rdim. Bu shahardagi surnaylarning oldida Sultong‘ozi o‘g‘lining surnayi, katta tuyaning oldidagi qo‘tir toyloqqa o‘xshab ko‘rinardi. Bu yerda pardali, xullas, “dvux ryadka” deb ataladigan qator pardali surnaylar ham bor ekan. Ularning o‘ng. tomonida ham, chap tomonida ham hisobsiz pardalar bor edi...

Qutirlagandagi rus yoshlarining ichida garmonning har ikki tomonidagi pardalariga ham barmoqlari baravar yugurib turadigan necha turli garmonchilar bor. Ularning chalishiga qaraganda, Sultong‘ozining o‘g‘li hech narsani chala olmas ekan.

Shaharda surnaychilar ko‘p bo‘lgani bilan, hammasidan o‘tadigani Miqtiboyning o‘g‘li Tiniboy edi. Tiniboy shu shaharning yilqisini boqar edi. Miqtiboyning to‘rtta o‘g‘li bor. Bular — Abil, Abilboy, Tiniboy, Shiniboylar edi. Bu vaqtda Miqtiboy o‘lgan, bolalari esa ukasi Jakeshning qo‘lida edi. O‘zlari shu yerli bo‘lishlariga qaramasdan, oq o‘tov tikar, yana shahardan uzoq “O‘lkan sariq ko‘l”ning narigi tarafidagi “Quyon daraxt”ning atrofida turardi. Yilqilarini Abil bilan Abilboy boqardi. Nima ishlari borligini kim biladi, Tiniboy bilan Shiniboy ko‘pincha, ayniqsa, yakshanba kunlari shaharda bo‘lardi. O‘sha paytlarda Tiniboy yigirma beshlar chamasidagi, mo‘ylovi endigina sabza urgan, qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli ko‘rkam yigit edi. Shu vaqtda Shiniboy o‘n besh-yigirmalarda bo‘lsa kerak, u ham ko‘rkam, oppoqqina, navqiron yigit edi.

Qutirlaganning yoshlari Tiniboyni juda hurmat qilishardi. Sababi, surnaychilikda bu shaharda uning oldiga hech kim tusha olmasdi. Rus posyolkalaridagi yoshlar ikki taraf bo‘lishib olib, birinchi tomon bilan ikkinchi tomon doimo bahslashib yurardi.

Shuningdek, o'yinlarda, tomoshalarda ham ular tarafma-taraf bo'lib olishardi. Ular o'zaro mushtlashib ham olardilar. Ana shu ikki taraf yoshlari Tiniboyni o'z tomonlariga olish uchun urinardilar. Tiniboy qaysi tomonga o'tsa, o'sha tomonning o'yin-tomoshasi qiziq bo'lardi...

Bayram kunlari kunduz, boshqa kunlari kechasi surnay chalib ko'chani yangratib yurgan yoshlar, kechqurunlari bir uyga to'planishardi-da, "vecherinka" uyushtirishardi. Har turli qiziq o'yinlar o'sha vecherinkada bo'lardi. Ayniqsa, menga qiziq tuyiladigani raqs edi. Men unga surnaydan ham ko'proq qiziqardim... Uni o'rgangim kelardi...

Kuni bilan mol boqib charchab kelishimizga qaramay, Qayirke ikkovimiz Qo'paboyning: "Ertaga mol boqishga borasanlar, yotsanglar-chi, biroz damlaringni olsanglar-chi" deganiga ham qaramay ba'zan ko'ziga ko'rinib ketardik, agar: Qo'paboy: "Qani yotmay ko'ringlar-chi, oyoqlaringni urib sindiraman" deb urishib yotqizib qo'ysa, ko'rinmasdan ketib qolardik...

Unday qilmaganda-chi?.. Sen uxlayman deb ko'rpaga boshingni tiqqaning bilan, mana, shu shahardan surnayning yangroq ovozi, yoshlarning avjiga chiqqan yoqimli qo'shiqlari qulog'ingga eshitilib tursa... To'shakda qanday yotasan?!.

Shahar tomondan ashula ovozi eshitilsa bas, Qayirke ikkalamiz goh ko'rinib, goh yashirinib ketar edik; yoshlar yotmay, bizlar ham yotmas edik. Ba'zan, boqqan molimizni uxlamasdanoq dalaga haydab ketar edik!..

Shunday shod-u xurram hayot kechirayotgan Qutirlaganni yoz o'rtasidayoq tuman bosib qoldi...

Qayirke ikkalamiz bir kuni kechqurun mollarni daladan haydab kelsak, ilgarigi shod-u xurram shahar oppoq tuproq bo'lib qolibdi. Har kuni kechqurunlari sigirlarining oldiga qo'ltiqlashib, qo'shiq aytishib qiz kelinchaklar chiqar edi. Ularning ba'zilariga ergashib yosh yigitlar ham chiqishar, ba'zi sho'x yoshlar sigirlarini surnay bilan qarshi olardilar...

Bugun jimjitlik hukm surardi. Ko'p sigirlarning egalari chiqmadi. Sigirni olib ketish uchun kelganlar faqat chol-kampirlar edi,

xolos. Ularning ham ko'zlari namlangan, qizarib shishgan. Ba'zi bir kampirlar yig'lashib yurishibdi...

— Nima gap? — dedim Qayirkega.

— Rostdan ham, nima gap o'zi? — dedi u.

Egasiz qolgan sigirlarning bir qanchasini haydab shaharga kirdik. Bu — ish kuni edi. Ish kunlari bu mahalda shaharda savodsiz kishilar yurmasdi. Bugun unday emas, ko'cha-ko'yda tumonat xalq. Ularning orasida mastlari ham ko'p. Olomonning orasidagi mastlarning xunuk tovushlariga xotin-xalajlarning yig'i ovozlari ham qo'shilib, xuddi arilarning tovushidek g'uv-g'uv etardi...

— Nima gap? — dedim men.

— Rostdan ham, nima gap o'zi? — dedi Qayirke.

Egasiz sigirlarni o'z egalariga olib borib berish uchun ketgan Qayirke bilan uyda uchrashdik. Men uyga undan ilgari keldim. Uyda Qo'paboy bilan Beysembi o'tirgan ekan. Oldilaridagi, ohistagina yonib turgan olovning yorug'idan ularning basharasiga qarasam, ikkalasining ham qovog'i soliq... "Ajabo, nima gap o'zi?"

Nima gap ekanligini Qayirke tushuntirib berdi. Qovoqlari solingan Qo'paboy bilan Beysembining oldida o'tira olmay dalaga chiqib, uyning orqasida turgan aravaning ustida o'tirdim. Shu kuni kun sutdek oydin, shahar hali to's-to'polon edi. Shahar odamlarining bezovtaligiga sherik bo'lgisi kelganday, itlarda ham tinim yo'q. Go'yo ularning tovushlari shu hazin tovushlarga jo'r bo'lib, osmondagi siyrak bulutlar bilan to'qnashayotganday tuyilardi... Bu tovushga yer-ko'k aks sado berib, dunyoni xuddi boshiga ko'tarayotganday bo'lardi... Bu nima?! Shahar tomondan birov kelayapti. U chopib kelayapti... Bola... Qayirke!..

— Ho'sh, nima bo'pti? — dedim men uning oldiga chiqib.

— Urush! — dedi u.

— Urush?!

— Ha, urush...

— Qanday urush?

Bu so'roqqa Qayirke javob bermay, uyga jo'nadi. Shu kechaning choyi ko'ngilsiz ichildi. Choyni Qo'paboy quyardi. Beysembi damlab turardi. Kirlanibroq qolgan dasturxonga shahardan olib chiqilgan, ruscha yopilgan nonlar mo'l to'kilardi; yeb-ichib o'tirib

hangoma qilishardik. Bugun unday emas, dasturxon ham yozildi, non to‘g‘raldi, choy ichishga ham kirishdik, biroq hech kim churq etmasdi.

Choy ichilib bo‘lgach:

— Qani endi yotinglar, bolalar! — dedi Qo‘paboy, — ertaga zabota ko‘p bo‘ladi. Sigirlarning ko‘pini o‘zlaring sabirayt qilasanlar. Bunday beda bo‘lgan kuni o‘rislar sigirlarini haydab kela qo‘ymas. Piyaniy o‘rislardan avloq bo‘linglar, cho‘rt znayet, urib ketishi ham mumkin...

Bugun Qo‘paboy yot demasa ham yotadigan kech edi. Bunday qayg‘uli kechda qayerga ham bora olasan? Yotdik. Yonib tugay degan chala cho‘g‘lar kulga ko‘mildi. Kigiz yirtiqlaridan oy nuri tushib, uyning ichi g‘ira-shira yorug‘ bo‘lib turibdi. Qayirke ikkovimiz yonma-yon yotardik. Ko‘rpamiz o‘zimizning egnimizdagi ust-boshimizdangina iborat edi. Qayirke ikkovimiz qator yotdik. U ham indamasdi, men ham. Lekin uning ham menga o‘xshab uxlay olmayotganini u yoq-bu yoqqa ag‘anayotganligidan sezib yotibman. Qo‘paboy hali uyg‘oq edi. Beyasembi bilan Kenjaboy uxlab qoldi.

— Bu qanday urush ekan? — deb so‘radim men Qayirkega shivirlab. Biroz yotganimdan keyin:

— Uxla, dodam urishadi, — dedi u ham shivirlab, — ertaga aytarman.

Birozdan so‘ng Qayirke uxlaganga o‘xshadi. Men hali uyg‘oq yotibman. “Bu qanday urush ekan-a?” degan so‘roqni o‘z-o‘zimga berib ko‘raman, javob topa olmayman. Sababi, tushunchamda “urush” degan narsa qadim zamonlarda: “payg‘ambarlar zamonida, botirlar zamonida” bo‘lib o‘tgan; bu vaqtda yo‘q edi!.. “Unday bo‘lsa, endi bu qanday urush? Shahar odamlarining bunday bezovta bo‘lishlariga qaraganda, bu bir ajoyib urush bo‘lsa kerak... Biroq kim bilan kim urushadi?..”

Men shu xayollar bilan uyquga ketdim. Tushimga allaqanday urushlar kirdi. Biroq bu “urushlar” mening “Zarhum”, “Solsol”, “Qo‘rbola”, “Qo‘blandi”ga o‘xshagan qissalardan o‘qiydigan urushlarim edi... Meni birov turtdi, uyg‘onsam Qo‘paboy ekan. Uni tovushidan tanidim. Uy ichi hali qorong‘i edi.

— Tur, chirog'im, — dedi u, — tong otib qoldi, sigirlarni to'planglar.

Turib dalaga chiqsam kechagiday bo'lmasa ham shahar tomonning shov-shuvi hali bosilmabdi. Ayollar odatdagidek, sigirlarini tegirmonning yoniga haydab kelmoqdalar, lekin ularning ko'zlari kechadan buyon mushtday bo'lib shishib ketgan. Sigirlar har kungidek, dalaga yo'l olgan paytda, Qayirke ikkovimiz ularning ketiga tushdik.

— Xo'sh, Qayirke, kim bilan kim urushar ekan? — deb so'radim men. Shahardagi biladigan kishilarning aytishicha, — dedi Qayirke, — o'rislar bilan Ermansha [1]degan el urushayotir, deyishadi.

— Bu qanday el ekan?

— Kim biladi qanday el ekanini, har holda, bir hiylakor, sehrgar el deyishadi. Unga Turtshina[2] degan el qo'shilibdi. Ular pusirman degan el bo'lsa kerak...

"Ermansha"ning ham, "Turtshinaning" ham qanday el ekanini Qayirke ikkalamiz bila olmadik. Shunday bo'lsa ham:

— Agar hiylakor el bo'lsa, — dedim men, — o'sha "solsol"ning eli emasmikan-a? Qissada (dostonda) o'shalarni juda sehrgar, hiylakor deyishar edi-ku.

— Kim biladi, — dedi Qayirke, — biroq, kim bo'lsa ham, bizning kazaklar unga kun bermaydi, yolg'iz Andrey Chamasovning o'zigina kulrang oti bilan to'daga bir kirib ko'rsin-chi, qilichi bilan yuztasini chopib tashlaydi...

Geografiyadan hech xabarimiz yo'q edi. Qayirke ikkovimiz qancha fikr yuritsak ham, shu tushunchadan nariga o'ta olmasdik... Eshitganimizcha, shahar kazaklaridan yigirma besh-o'ttiztasi urushga otlanmoqchi bo'layotgan ekan. Men endi o'shalarning qanday otlanishini ko'rishga qiziqdim. Lekin, eshitishimcha, ular kunduzi ketar ekanlar. Biz bu vaqtda dalada poda boqib yuramiz. Endi, men qanday qilib ko'raman? Ko'rish uchun chora topish kerak!..

---

[1] **Keyin bilsam** — Germaniya ekan.

[2] Turkiya ekan.

Chora topildi. Urushga boradiganlar ertaga jo‘naydi deganda, kechasi men “kasal” bo‘lib qoldim. Oqshomdayoq yotib, ag‘anab inqillayotganimda, Qo‘paboy menga:

— Ha, senga nima bo‘ldi? — dedi.

— Bilmayman, ichim og‘riyapti...

Men shu ag‘anaganimdan, tong otguncha ag‘anab chiqdim. Ko‘zi uyquga ketguncha, Qo‘paboy menga: “Sekinroq inqillasang-chi, chidash kerak...” deb ovutib yotdi-da, birozdan so‘ng jimjit bo‘ldi. U uxlagan paytda, men inqillamay qo‘ydim. Lekin uxlamadim.

Xayolimga: “Uxlaganimni bilsa, Qo‘paboy meni podaga yuboradi” — degan fikr keldi. Birozdan so‘ng uyqum kelib mijja qoqa boshladim, haligi fikr boshimga keldi-yu, o‘zimni-o‘zim zo‘rlab uyg‘otib yubordim. Odatdagidek u, shaharning xo‘rozlari qichqirgan mahalda uyg‘ondi. U o‘rnidan yo‘tala-yo‘tala turardi. Shu vaqtda men ham battarroq inqillay boshladim...

— Qalaysan, bola? — deb so‘radi Qo‘paboy.

— Ichim-bag‘rim jizillab og‘rib borayapti, — dedim men inqillagan holda, qisqa-qisqa so‘zlab.

— Yopirim-ay, bu bechoraga nima bo‘ldi? — deb to‘ng‘illadi. Qo‘paboy, keyin Qayirkeni uyg‘otdi-da, menga qarab: — mol boqishga bora olmasmikansan, bola, — dedi. Men javob berish o‘rniga battar inqillay berdim.

— Beysembi, ey Beysembi, — dedi Qo‘paboy, — tur-chi!

— Nima, doda? — deb boshini ko‘tardi Beysembi. Shunda dodasi: — Manavi sho‘rli og‘rib qolibdi-ku, podaga men o‘zimoq boray, o‘rislarning uyiga ketganingda eshikni mahkam berkitib ket, — dedi.

Qo‘paboy: “O‘ruslarning uyiga ketganingda” deyishining sababi, Beysembining etik yamaydigan hunari ham bor edi. Ekinga chiqa boshlagan ruslar yirtiq etiklarini unga yamata boshlagan edilar. So‘nggi paytlarda u shu ish bilan shug‘ullanardi.

— Xo‘p, — dedi Beysembi, — biroq manavi kasal bolani nima qilaman?

— U manavi Abubakirning uyida yotaturar, — dedi Qo‘panboy, — u uyning kampiri bor-ku, qarab turar.

Podaga Qo'paboy bilan Qayirke ketdi. Beysembi esa, Kenjatoyni ergashtirib shaharga jo'nadi. Men Abubakirnikida qoldim. Biroq u uyda men ko'p yota olmadim. Sababi, shaharda cherkov qo'ng'irog'ining ovozi yangrardi. Shu vaqtdagina uyg'ongan Abubakirning ukasi Albotir:

— Askarlikka borayotganlar ketmoqchi bo'layotgandir-da, — dedi, — ibodat qilish uchun cherkovga to'planishayotgandir.

Albotir "ko'rib kelay" deb o'rnidan turib ketib qoldi. Uyda Uldanoy ikkovimiz qoldik. "Nima qilish kerak?" "Albatta, borish kerak". Chunki mening "kasal" bo'lish sababim ham askarlarning qanday jo'nashini ko'rish-da.

— Qayoqqa borasan? — dedi Uldanoy.

— Dalaga chiqaman, — dedim-u, ketib qoldim.

Cherkovdan men qo'rqar edim. Shaharga kelganimdan buyon uning ichiga kirib ko'rgan emasdim. Men: "Unga kirgan kishi cho'qinadi" deb o'ylar edim. Qayirke bo'lsa, bemalol kiraverardi. "Nega kirasan?" desam, "Uning ichi ajoyib" deb meni aldardi, men ishonmasdim.

O'sha cherkovning oldiga kelsam, oldi to'la odam; bog'langan egarlangan otlar. Bu shaharda necha turli otlar bo'lardi. Shularning hammasi ham o'sha yerda edi. Yana kazaklarning guldor quyishqonlari, uzangilar, bulg'ori egarlari ajoyib bo'lardi. Qozoqlarning ichida men unday egarni faqat Altoyning o'g'li Seytg'ozining otida ko'rdim. Men: "Unday egarni boylarning boylari, begzodalargina minsa kerak" deb yursam, kazaklarning ko'pchiligi minar ekan.

Cherkov yonida mastlar ham ko'p edi. Askarlikka olingan ba'zi yigitlarni qavm-qarindoshlari cherkovga suyab olib kirishayapti. Askarlikka bormaydigan erkaklar orasida ham, xotin-qizlar orasida ham mast kishilar oz emas edi... Cherkov yonidagi daraxt tagiga shaharlik ayollar, yana bir necha odamlar to'planishib qolgan ekan... Men ham o'shalarga borib qo'shildim. Ularning aytishiga qaraganda, bu shaharning askarlikka boradigan kazaklari Kpitan (Presnovka)ga shu yerdan ketarmish, Kpitanga bu yerdan Malke boshlab olib borar ekan...

Cherkov ichiga kirib-chiqayotganlarga va atrofiga to'planayotganlarga olisdan nazar solib turar edik. Odamlar cherkov ichidan to'pirlashib chiqa boshladi.

Oldilarida etagi yerga sudralgan, keng qora kiyim kiygan, moshrinch soqolli, sochi uzun birov bor...

— Pop, pop! — deb shipshidi yonimdagi qozoqlar.

Popni umrimda birinchi marta ko'rishim edi. U, mo'ragan buqaday, nimalarnidir g'udurlab cherkovdan chiqdi.

— Nima deyapti, — deb so'radim men yonimdagi birovdan.

— Askarlikka ketayotganlarga berayotgan fotihasi bo'lsa kerak, — dedi u.

— Egnilarida qizil hoshiyali shim, kitel, boshlarida tevaragi qizil kartuzlari (shapkalari) bor. Etiklariga shpor taqqan, jingalak sochlarini boshlarining bir chekkasiga yotqizib taragan kazaklarning otga minishlari ham menga qiziq tuyulardi. Ruslarning otga qamchilaydigan tomondan minishlarini shundagina ko'rdim. Ko'zimga Malke allaqanday bo'lib ko'rindi. Uning basharasi har kungidan ham qizarib ketgan, ust-boshi ham boshqalarga qaraganda ko'rkam, ko'kragiga allaqanday yaltiroq narsalarni taqib olgan edi.

— Ko'kragidagi nima? — deb so'rasam, yonimdagi allakim:

— Ilgari urushda qahramonlik ko'rsatib olgan nagradalari, — dedi.

— "Nagrad" degani nima o'zi? — deb so'radim.

— E, jim tura olmaysanmi? — deb yonimdagi odam so'zlashgisi kelmay jerkib berdi.

Otga minganlarning ko'pchiligi g'irt mast kishilar ekan. O'shalar otlangach, Malke ularning oldilariga tushib nimalarnidir baqirib aytdi-da, hammalari Kpitanga qarab jo'nashdi. Ularning ketidan boshqa salt otliqlar ham ergashdilar. Shu vaqtda hozirgina yig'lab xayrlashgan xotin-xalaj bilan kampirlar, chollar qiy-chuv bo'lib ketishdi... Ba'zilari o'zlarini yo'qotib, hushdan ketib ham qoldilar... Orqalaridan zor-zor yig'lab qolib ketayotgan ota-onalarining, xotinlarining yoniga qayrilib kelib, otlaridan sakrab tushib, yana xayrlashayotganlari ham bor. Bu xayrlashish yig'i-sig'ini battar kuchaytirdi...

Guvoh bo'lganimning balosi

Men kelasi yili sigir boqish uchun Qo'paboyga yana yollandim. Sababi, Sho'dir uyining ovqati yaxshi bo'lgani bilan ishi juda og'ir edi. Ayniqsa, ekin-tikin vaqtida yumush juda og'irlashib ketardi. Sigir boqish esa — undan bir necha marta yengil edi.

Abubakirning ukasi Albotir bilan men o'tgan qishdagina yaxshi tanishgan edim. U: o'rta bo'yli, to'lagina, yuzi yumyumaloq, sariq yigit edi. Uning shu yili olgan Umitshoq degan xotini bor bo'lib, u ko'rinishidan go'zal bo'lgani bilan, juda shaloq juvon edi.

O'tgan yili Albotir Abubakir uyidan bo'lak o'tirib, bolalari askarga ketgan bir boy uyining xizmatini qilgan edi. Bunga sabab, bolalari askarga ketgan boylarning uylariga ovul yigitlari orasidan ish izlab kelib yollanuvchilar ko'p bo'ldimi, yoki menga o'xshab mol boqishni afzal ko'rdimi, bilmadim, unisini o'zi biladi.

Qo'ylarni ikki bola boqardik. Abubakir menga sherik bo'lgan bolani yaqin yerdagi yot ovuldan yollab olib keldi. O'zi esa bir boy rusga yollanib xizmat qildi.

Kakish bilan Umitshoq rus xonadonlarining yamoq-chamog'i bilan band bo'lib ketishdi. Albotir esa, kechasi zagonga qamalgan qo'ylarni poylardi. O'tgan yillari qo'ylarni uncha diqqat bilan kuzatmas edi. Sababi, zagonga tushib qo'y o'g'irlovchilar bo'lmas ekan. Bu yil unday bo'lmadi, chilla kirib, qo'ylar semira boshlagan vaqtda zagondan qo'y yo'qola boshladi.

— Kazaklar tugal ovulda ekanligida bunday shumlik yo'q edi, — deyishardi Abubakir bilan Albotir. Bu — urug'larning biznigina emas, mol egalarini ham pisand qilmagani-da. Erlari askarlikka ketgan xotinlardan uyalmagani-da... Qo'y ortidan qo'y yo'qolavergach, Albotir kechasi qo'y poylaydigan bo'lib qoldi.

— Qo'lingga miltiq olib o'tir, — dedi unga Abubakir, — agar o'g'ri kelsa, kim bo'lsa ham otib tashla!..

Albotir kechasi miltiq olib qorovullikka chiqardi. Uyqu kelguncha uning yoniga men ham borib o'tirardim. Chunki ruslarning orasida tug'ilib o'sgan Albotir ruscha ertaklarni yaxshi bilar edi. U menga har xil qiziq ertaklar aytib berar, men zavq bilan eshitar

edim. Shu ertaklarni eshitib o'tirib men uxlab qolardim... Yonimizda Abubakirning qopag'on iti yotardi...

— Yopiray, — deb hayron qolardi Albotir, — itimiz-ku juda qopag'on. Uyning yon-veridagina emas, olisda ko'ringan kishiga hurib chopadi. Lekin nima uchun o'g'riga hurmaganini bila olmadim.

Dastlabki vaqtlarda hushyor bo'lib yurgan Albotir, so'nggi paytlarda qorovullikka beparvo qaray boshladi.

— Bechoralarning o'zlari ham mendan qo'rqqan bo'lishsa kerak, — deydigan bo'ldi u. — Mening qorovullikda o'tirganimni ular bilar, endi ular o'lsa ham bu erga kelmas.

Albotirning bu so'zi mazmunan: "Uka, galma-galdan qorovullik qilaylik" degani edi. "Men uxlab qolaman-ku" derdim, qorovullik qilgim kelmay. "Yaxshisi uxlama" derdi u, — "Agar juda uyqung qistasa, uxlasang ham mayli, aybi yo'q, qorovul borligini bilgandan keyin kim ham kelardi deysan".

Albotir biror qiziq ertakni aytib tugatgan vaqtda, yarim kecha bo'lardi. Shu vaqtda u ham, men ham esnay boshlardik. Shunda Albotir:

— Uka, uyqu kelib qoldi-ku. Qaysi birimiz uxlaymiz, — derdi.

Men indamasdim. U mendan o'zining ulkan ekanligini aytib, alday boshlardi:

— Ertaga bundan ham qiziq ertak aytib beraman, qo'ylarga sen qarab turgin, men ozgina uxlab olay. Keyin sen uxlarsan.

Dastlabki kunlarda Albotirning so'ziga aldanib, uni uxlatsam, hadeganda turmadi; kuni-tuni qo'y qorovullashga, albatta, kishi chidamaydi. Men uni uyg'otib yubordim.

U:

— Bay-bay-bay, shirin uyquda yotgan ekanman, sal qo'ya turmaysanmi, uka, — deb koyidi, biroq ertaga qo'y boqishimni bilgach, qattiq so'zlamadi.

— Mayli, uxlasang uxla, — dedi u, — birozdan so'ng uyg'otarman.

Odatda qorovullikda turgan kishi alahlab uxlay olmaydi. Tez-tez uyg'onib, Albotirga qarasam, u miltig'ini bag'riga bosgan holda xurrak otib uxlab yotibdi.

Uyg‘oq chog‘larida:

— Shu qo‘ylarni o‘g‘irlaydigan kimlar? — deb so‘rardim men Albotirdan.

— Albatta, To‘laboyning bolalari-da, — derdi u.

To‘laboyning bolalarini men bilardim. Ular Abdiraqi, Abdurahmon, G‘abdirahmon degan uch og‘ayni edi. Bular — juda qashshoq yigitlar edi. Faqat Abdiraqisigina uylangan bo‘lib, keyingi ikkovi voyaga yetgan bo‘lsa ham uylanishmagandi. Qanday qilib kun ko‘rishlarini kim biladi, bularning har uchalasi ham ishlamasdi... Bundan ilgari: “Shu To‘laboyning bolalari qanday kun ko‘rishadi” deb o‘ylar edim. Albotirning haligi so‘zidan keyingina ularning nima bilan kun kechirishlari ma’lum bo‘ldi.

— Bog‘lasa bog‘ kesadigan qaroqchilar shular, — derdi Albotir, To‘laboyning bolalari haqida gapirganda, — shu o‘g‘irliklari tufayli hech qayoqqa sig‘may shahardan shaharga ko‘chib yurishadi. Qutirlagandan ketganlariga uch-to‘rt yil bo‘lgan edi, bular yana qaytib kelishdi-yu, balo ham keldi. Endi ular tinchlik berishmaydi!..

— Eh, qo‘lga tushishmaydi-da! — deb g‘ijindi Albotir. — Agar qo‘lga tushishsa bormi, adablarini berar edim la’natilarning...

Yoz o‘rtalari. Kechasi Albotir ikkovimiz qo‘y poylab o‘tiribmiz. Zimiston qorong‘i kecha, osmonni qalin bulut qoplagan, shimol tomondan salqin shabada esib turibdi. Men bilan qo‘y boqishadigan bola ham shu yerda yotibdi. Biroq u oqshomda uxlaganidan tong otguncha bosh ko‘tarmadi; dunyoni suv olsa ham parvoyiga kelmaydigan bola edi. Albotir menga yana bir ertak aytdi-da, oxirini esnash bilan zo‘rg‘a tugatib:

— Uyqum keldi, — dedi menga, — ozgina mijja qoqib olmasam bo‘lmay qoldi. Qo‘ylarga sen qarab turgin, men picha uxlab olay.

— Xo‘p, — dedim men.

— Agar, o‘g‘ri-po‘g‘ri ko‘rinib qolib meni uyg‘otishga ulgira olmasang otib yubor! — deb Albotir miltig‘ini qo‘limga berdi-da, o‘zi bir tomoniga yostanib, bir lahzada xurrak otib uxlab qoldi. Men o‘tiribman... O‘tirgan sayin uyqu bosmoqda. Mana men ham esnay boshladim... Mana...

Itning irillagan tovushidan cho'chib uyg'ondim. Ko'zlarimni uqalab, yon-verimga qarasam, hali ham zimiston — qorong'i. Yonimdagi it yer bag'irlab yotib, allanarsaga tikilib qarab turibdi... Uning qaragan tomoniga men ham yotib mo'ralasam, zagondan olisroqdagi yolg'iz eman daraxtining tagida ikkita kishi o'tirganga o'xshab ko'rindi. Yuragim "shig'" etib ketdi. "O'g'ri!" degan xayolga bordim... Albotirni uyg'otishni ham unutib qo'yibman... It ham, men ham cho'qqayib o'tirgan ikki odamga tikilib qoldik...

Bir vaqtda cho'qqaygan odamning bittasi o'rnidan shu holicha qoldi-da, ikkinchisi bu yoqqa qarab emaklab kela boshladi... Itim irillashdan to'xtadi.. "Ajabo, bu qanday bo'ldi?" deb o'yladim men. "Itga tanish odamlarmikin?"

Emaklab kelayotgan odam yaqinlashganida bir narsani uloqtirib yuborgan edi, it yugurib borib tappa bosdi; shu yerning o'zidayoq yeya boshladi. "Ha, itni go'sht bilan aldab yurgan o'g'ri shu ekan-da" deb o'yladim.

Itni chalg'itgan odam emaklaganicha zagonga kelib, ichiga irg'ib tushganda, men Albotirni uyg'otdim. Bo'lgan voqeani unga shivirlab batafsil aytib berdim. U:

— Tovushingni chiqarma, — dedi menga pichirlab, miltiqni qo'liga olarkan, — payti kelsa sulaytiraman la'natini.

Zagonga kirgan odam katta bir qo'yni ko'tarib tashqariga chiqdi-da, kutib o'tirgan sherigi yoniga jo'nay boshladi. Bir tizzasi bilan o'tirib, miltig'ini o'xtalgan Albotir:

— Stoy! — deb baqirib yubordi. Cho'chib ketgan o'g'rining qo'lidan qo'y tushib ketdi. Uning o'zi engashib qocha boshladi. Shu kezda miltiq tovushi yangrab ketdi... Qochgan odam mukkasidan yiqildi...

Albotir miltiqni ikkinchi marta o'qlab o'g'rining sherigini otguncha, u qochib ketdi. G'azabi keldimi, yoki qochgan o'g'rini ham tutib olgisi keldimi, Albotir shu tomonga qarab yugurdi-da, qulab yotgan kishi yonida to'xtamay o'tib ketdi.

— Ho' nima bo'ldi, ho' nima bo'ldi! — deb chuvullashgan tovushga qarasam, Qo'paboy uyining ham, Abubakir uyining ham odamlari chuvullashganlaricha bu yoqqa qarab ko'ylakchan yugurishib kelishayotgan ekan.

— Nima bo'ldi? — deyishdi ular menga yaqin kelib.

— Odam otildi, — dedim men qaltirab.

— Qani?

— Ana! — dedim men, qulab yotgan odamning qorasini ko'rsatib.

Abubakir, Qo'paboy, Beysembi, Qayirke, Kakish, Umidshoqlar qorayib yotgan odamga qarab chopishdi. Ular orqasidan men ham bordim... Qulagan odamning oyoq-qo'li holsizgina qimirlab bir yonboshi bilan yotgan ekan.

— Voy, sho'rli, mana bu bizning To'laboyning o'g'li G'abdirahmon-ku, — dedi Qo'paboy. U shunday dedi-da, — voy bag'rim, o'lganingmi, shu! — deb boshini quchoqlab baqirib yig'lay boshladi...

Biroz o'tgach, Albotir qaytib keldi-da:

— Eh! — deb o'kindi, — haligi ikkinchisini ham sulaytirganda tomosha bo'lardi-da.

— Mana bu yaramasning meni kech uyg'otib qolgani-da, — dedi Albotir meni ko'rsatib, — bo'lmasa, vaqtida uyg'otganida-ku, ikkovini ham sulaytirar edim...

Tun ichida shaharga xabar qilindi. Ruslar kelib o'likni ko'rdida, shaharga olib ketishdi. Ertasigayoq Kpitandan uryadnik kelib, Albotirni qamoqqa oldi...

O'sha kundan boshlab Qo'paboyning uyiga men sovuq ko'rina boshladim. Sababi, To'laboyning bolalari bularga qarindosh bo'lar ekan.

— Sen bo'lmasang-ku, Albotir uyg'onmas edi, uyg'onmasa-ku, G'abdirahmon otilmas edi. Hamma baloni boshlagan — sensan. Senimi, shoshma hali!.. — deb Qayirke ham, amakisining o'g'li — Duysenboy ham men bilan o'chakishib yurdi...

Shu yilning kuzida men ikkinchi bir baloga yo'liqdim. O'tgan qishda O'rozalining uy ichiga yaqin bo'lib olgan edim. Sababi u ham Siybon urug'idan, men ham. U bilan qarindosh tutinganman. Bu shaharda faqat o'n chog'li xonadonli Siybon urug'idan boshqa Siyboni yo'q. Uning ustiga, turmushi uncha yaxshi bo'lmasa ham O'rozali o'lguday mehmondo'st kishi edi. Uyiga borsang bo'ldi, u: "Qani, mana bu bolaga choy qaynatib yuboringlar!" deb mehmon

qilmasdan yubormasdi. Boshqa bilan ishi yo‘q, o‘z peshona teri bilan kun kechirar, uning uyida ovqat mo‘l-ko‘l bo‘lardi.

Ilgarigi odaticha, shaharning yarim qo‘yini boqqan O‘rozali kuzga tomon “O‘lkan sari ko‘l”ning yoniga ko‘chib keldi. Men uning uyiga onda-sonda borib turar edim. Bir kuni Abubakirdan ruxsat oldim-da, Sho‘dirning otini so‘rab minib, O‘rozalining uyiga bordim. Uning ayoli sutsolma[1] pishirayotgan ekan. Qarindosh ko‘radigan mo‘min O‘rozaliga jonim achir, qo‘limdan kelsa, yordam bergim kelardi...

Men Abubakirning qo‘yini boqish uchun yollangan kezimda, O‘rozali ham har yilgidek Qutirlagan shahrining yarim qo‘yini boqdi. Bu shahardagi butun o‘g‘rilarning ko‘z olaytirgan moli — O‘rozalining moli ekanligini bilganimdan keyin, uning qo‘ylariga hushyor bo‘lib qaray boshladim.

G‘abdirahmon otilgandan keyingi kunlarning birida men To‘laboy bolalarining yana bir o‘g‘irligini sezib qoldim. Uni menga Saken degan kishining o‘g‘li Abil aytdi. Bu — bir mo‘min bola bo‘lib, shu vaqtlarda yetti-sakkiz yoshlarda edi.

— “Bolalik uyda o‘g‘irlik yotmas” deganlariday, o‘sha Abil “Ulkan sari ko‘l” yoqasida o‘tirgan Miqtiboy bolalarining uyiga borib keldi-da, menga shularning uyida obdon qovurdoqqa to‘yganini aytdi.

— Qanday qovurdoq? — deb so‘ragan edim, u:

— Daraxtzorda qo‘y so‘yildi, — dedi.

— Kimlar so‘ydi? — deb so‘ragan edim, u:

— Abdiroqi, Shiniboy, Aliboy so‘ydi, — dedi.

— Necha qo‘y so‘ydi? — deb so‘rasam, u:

— Uchta qo‘y so‘ydi, — dedi...

Endi bildim. Bu O‘rozalining qo‘ylari edi, chunki qo‘y boqqan O‘rozalining uyi shu atrofda edi. O‘tgan kuzda bir boy yo‘qolgan qo‘yi uchun O‘rozalini o‘lguncha savalagani ham esimda. Boshimga: “Mana bu qo‘ylar uchun ham u sho‘rli yana kaltak yeydi” degan xayol keldi. Unga achindim. Nima qilish kerak?

O‘sha kuni Abubakirdan ruxsat oldim-da, Sho‘dirning uyidan ot so‘rab minib, O‘rozalinikiga jo‘nadim.

---

[1] Sutdan pishiriladigan ovqat *(tarj.)*.

— Xabar qil, — deb yubordi meni Abubakir, O'rozalining uyiga nima uchun borayotganligimni bilgach, — odami otilsa ham tinchimaydigan bo'ldi-ku bular. O'rozali qo'ylarining qaysi yerda yotganini bilsin-da, ruslarni ustiga boshlab olib borsin. Bu o'g'rilar shundagina hayiqadi. Bo'lmasa, haddidan oshib ketdi bular.

O'rozaliga borib aytganimda, u qo'zg'alib ham qo'ymadi.

— So'ysa, nima ham derdim, — dedi u. — Har ish Xudodan.

— Nega unday deysan?

— Nima ham deyaolardim, men bir yuvosh kishiman, yolg'izman, ular ko'pchilik. Men shahardan ko'chib ketadigan kishi emasman, ular bilan olishishga qurbim kelmaydi. Agar o'chakishsa, ular meni sog' qo'yarmidi?!

O'rozalini men ko'ndira olmay qaytdim.

— Ey, qo'rqoq bechora! — deb o'kindi Abubakir, — jazosini beradigan payti kelgan edi-ya, tayyor turgan molidan ayrilganini qara!..

Kuzga yaqin O'rozalining uyiga men yana bordim. Uning uyichi sigir sutidan solma qilib ichardi... Sutning solmasi juda mazali bo'lardi!.. Pishgan sut solmani chog'roq yog'och choraga quyib, o'tirib rohatlanib ichayotgan vaqtimizda, uyga o'ntacha rus boylari birdan kirib keldi. Hammasi ham ko'rinishdan jahli chiqqan edi. Bizlar ularga hayron bo'lib qarab turganimizda, zo'r gavdali, sarg'ish soqolli bir rus boyi kelib:

— Qo'yimni berasanmi, yo'qmi? — dedi O'rozaliga.

— Albatta, beraman, — dedi O'rozali.

— Qachon? — dedi u.

— "Kuzda shahardan hisob-kitobimni olganimdan keyin beraman" degan emasmidim, — dedi O'rozali.

— Kuz-puzingni kutib o'tira olmayman, — dedi u, — askardagi bolamga pul yuborishim kerak. Uchta qo'yimni birdan yo'qotding, undan boshqa sotadigan narsam yo'q, hozir top, topmasang sigiringni haydab ketaman.

— Haydasang hayda, — dedi O'rozali unga, — ilojim yo'q.

Jahl ustida turgan rus boyi uydan chiqib jo'nadi. Uning orqasidan boshqalari ham tashqariga chiqishdi. O'rozali bilan men ham chiqdim. O'rozali uyining tashqarisida yolg'iz arava turar

edi. Shu aravaga uning yolg'iz buzog'i bog'lanib, uning onasi esa yonida kovush qaytarib yotgan ekan. Jahli chiqqan rus boyi yugurib borib buzoqni yechib, ipini bo'yniga bog'ladi-da, shu yerda bog'loqli turgan otiga irg'ib minib, sigirni oldiga solib haydadi. Qanchalik chidamli bo'lgani bilan, yolg'iz sigiridan ayrilish qiyin bo'ldi shekilli, O'rozali chopib borib sigirini ushladi.

— Qo'yib yubor! — dedi yo'g'on qamchisini ko'tarib rus boyi.

Javob beraman deguncha, rus boyi uni qamchisi bilan savalab ketdi... "Botirga ham jon kerak" deganlariday, qamchi zarbiga chidayolmagan O'rozali qochib uyiga tiqildi.

— Anavi kungi, sen aytib ketgan qo'ylarni, — dedi O'rozali yig'lab, — Miqtiboyning bolalari bilan To'laboyning bolalari so'yib yebdi. Jakishning uyiga borib terisigacha tanidim. Tanigan-da nima qilardim, shular bilan o'chakishgim kelmay, g'ing-ping demasdan kuzgi moyanamdan rus boyiga qo'yining xunini to'lay deb yurgan edim. Bo'lmadi. Peshonamga bitgan yolg'iz sigirimni haydab ketdi! Endi nima bilan kun kechiramiz?

Unga qo'shilib xotini va bolasi ham yig'ladi.

— Qarab turib, haqingni yuborib o'tiribsanmi? — dedim men, — atamanga aytmaysanmi borib.

Men O'rozalini atamanga[1] aytish uchun ko'ndirdim. O'zim guvoh bo'ladigan bo'ldim. Ataman tekshirib bo'lgandan so'ng, qo'ylar bo'yniga tushadigan bo'lgach, To'laboyning bolalari bu shahardan qochib ketishdi. Keyin qo'lga tushib, qamoqdan qochishdi. Shunda ular: "Qo'yni o'g'irlagan bizlar edik, Miqtiboy bolalari bunga aralashgan emas" deb javob berishibdi. To'laboyning bolalari qochib ketgandan so'ng, Jakish bir kuni dalada menga yo'liqib qoldi-da: "Guvoh bo'ladigan senmisan" deb o'zimni qamchisi bilan savaladi, keyin:

— Agar jon kerak bo'lsa, — dedi menga, — bu shahardan yo'qol! Bo'lmasa, yigitlarning birini yollab, bo'yningni uzdiraman-u, bir quduqqa tashlayman, — dedi.

Qo'rqdim. Qutirlagandan ketishga to'g'ri keldi.

---

[1] Boshliq ma'nosida *(tarj.)*.

Qo‘zg‘olon

Qutirlagandan jo‘nab ketganimdan keyin menga ish topilmadi. Qayoqqa borishimni bilmay yurgan kunlarimda, “Baliqboy” deb atalgan ovulning Toyjon degan boyi o‘ldi-da, Qur’on o‘qishga kishi topilmay meni yolladilar. Men, albatta, xat yozishni bilmaganim bilan Qur’onni sharros o‘qirdim. Yana uning ustiga, ilgarigi savodsiz domlam G‘azizullinga o‘xshab, o‘sha ovulning bolalarini o‘qitmoqchi bo‘ldim.

Baliqboyning uchta ovuli ham “Jambotir” degan ko‘l bo‘yiga joylashgan ekan. Bu ko‘l — beshta bo‘lisli Kerey ovuli bemalol sig‘adigan, radiusi yuz chaqirimdan oshadigan, katta ko‘llarning bittasi edi.

Kunlarning birida Baliqboy ovuli qiy-chuv bo‘lib qoldi...

— Nima bo‘ldi?

— Qozoqlardan ham askar oladigan bo‘lishibdi...

— Buni kim aytdi?

— Ombiga[1] borgan To‘rsan aytib kelibdi... O‘n to‘qqiz bilan o‘ttiz bir yosh o‘rtasidagi yoshlarni bitta qo‘ymay olarmishlar.

— Sho‘rimiz qursin, unda elda o‘smir, yosh yigitlar qoladimi? Xato so‘z emasmikan?

— To‘rsanga uchrashib kelgan kishining o‘zi aytdi.

— Shunday bo‘lsa ham anig‘ini bilish kerak...

— Kimdan?

— Albatta Qurimboydan-da. Uning anig‘ini bo‘lis bilmasa, kim biladi deysan!

— Unday bo‘lsa, unga chopar yuborish kerak. Anig‘ini bilish kerak.

— Kim boradi?

— Unga, albatta Boyjon bilan Ramazon borishi kerak. Baliqboyda u bilan gaplasha oladigan shulargina, xolos. Yana choparlikka yaraydigan otlar ham shularda. Uning ustiga, Boyjonning bolasi va Ramazonning bir bolasi bilan ukasining yoshi askar yoshiga to‘g‘ri keladi...

---

[1] O‘sha vaqtlarda qozoqlar Orenburgni shunday deb atashgan. — *Tarj.*

Ular salt ot bilan Qurimboyning ovuliga tez borib kelishdi. "Soldat" xabarini eshitgandan buyon besaramjon bo'layotgan elga ular shunday xabar olib kelishdi:

— Rost ekan!..

— Endi nima qildik? — deb chuvullashdi odamlar.

— Nurxo'ja bechora nima ham qilsin, — dedi Boyjon, ko'pchilikning odami emasmi? Bizlar borsak: "Essiz yurtim, endi ko'rgan kuning nima bo'ladi?" deb ho'ngrab yig'lab o'tirgan ekan...

— Kim biladi, balki yolg'ondan yig'lab o'tirgandir? — deb gumonsirashdi odamlar. Shunda:

— Yo'qol nari, aljimay! — deb Boyjon koyib tashladi, — g'arazi bo'lsa ham, o'limga og'aynini qiyadi deysanmi... "Boshimizni qo'shib aqllashaylik, qayerga yig'ilishni ma'qul ko'rar ekan" deb To'rsanga chopar yuboribdi. Shunday qilgan odam yolg'ondan yig'ilarmidi?.

— Agar o'z boshi omon qolsa, — dedi Ramazon, — balki yolg'ondan yig'lardi. Hisoblasak, Qurimboyning o'z avlodidan yigirmaga yaqin yigit ilinar ekan. O'zgalarning ko'z yoshiga joni achimayoq qo'ysin, o'z qarindoshlariga achinmaydimi?..

— Kim biladi, — deyishdi odamlar, — mardikorlikka yigit olinganda Qurimboy avlodidan bitta yigit ham ilingani yo'q-ku. Shunga o'xshab bu yili ham askarlikka nuqul bechoralarni haydab, o'z yigitlarini olib qolmasa deb qo'rqamiz!..

— Unday bo'lsa, yolg'iz Qurimboyninggina emas, boshqa ovul boylarining o'g'illari ham qoladi-da, — deyishadi odamlar.

— Yo'q, unday bo'lsa bo'lmaydi! — deb chuvullashdi olomon, — agar shunday qiladigan bo'lsa, avvalo o'shalarni bo'g'izlab, so'ngra askarlikka ketamiz...

Sal o'tmay Nurxo'ja bilan To'rsan Ombiga, gubernatorga jo'nab ketdi, degan xabar keldi... Bu xabardan norozi bo'lganlar ham, rozi bo'lganlar ham oz emas edi.

Nurxo'jangni bilmaymiz, — deyishdi norozi bo'lganlar, — ovulda bizlarga jiltanglagani bilan, o'rislar orasida obro'si yo'qmish. Generalning oldiga kirib og'iz ochish u yoqda tursin, uryadnikning uyiga kirishga ham botina olmas emish. Yana o'ris tilidan "no" degan so'zni ham bilmaydi. U general bilan so'zlashib ham

yolchitmas. U bilan so'zlashsa To'rsan so'zlashadi. U generalga yaqin emish. Uning betini bursa o'sha buradi. Nurxo'jangni qo'yib tur, To'rsanga oq yo'l tilaylik.

Ombiga ketganlar kelishguncha, odamlar besaranjom bo'lib qolishdi. Soldatga boradi, degan yigitlar mehmondo'slikda gap poylab yurishdi. "Oladigan bo'lganmish, olmaydigan bo'lganmish" degan mish-mishlar tarqaldi. Bir vaqt:

— Manifest chiqqanmish, — degan mish-mishlar ham chiqib qoldi.

— Bu qanday so'z bo'ldi?

— "Rahm-shafqat" degan so'zga o'xshaydi. Podsho qozoqlarga rahm-shafqat qilib askarlikka olmaydigan bo'libdi.

— Nega?

— Shu vaqtda podshoning yolg'iz o'g'li tug'ilibdi. U har yili o'g'lining tug'ilgan kuniga bag'ishlab to'y qilib berar ekan. To'y qizib turgan paytda podshoning qo'liga osmondan yumaloq qog'oz tushibdimish, ochib o'qib ko'rsa, birov podshoga: "Taqsir, bu nima qilganing? Qozoqlarni qaram qilib olganda, otang askar olmayman deb ont ichib, itning terisiga muhr bosib bergani qani? Otangning ontini buzasanmi? Unday qilmagin, xalqni zor yig'latma!.. Yolg'iz bola asrab o'tiribsan, ko'pchilikning ko'z yoshidan qo'rq!" — deb yozganmish...

— Voy sadag'asi ketay, kim yozdi ekan-a, buni? — deb yig'lab yuborishdi ba'zi odamlar.

— Buni yozsa, To'rsan yoki Obloygina yoza oladi. Boshqa kishining qo'lidan kelmaydi, — deyishdi ba'zilari.

— To'xtanglar-chi! — deyishdi ba'zi birovlar. — Manifestning qolgan qismini eshitaylik!..

— Shunday qilib, — dedi xabardor qiluvchi, — haligi yumaloq xatni podsho o'qib, otasining ontini buzganligi uchun qattiq uyalibdi-da, qozoqlardan askar olinmasin, deb manifest chiqaribdi...

"Manifest"ga ishonganday, to'polon biroz to'xtaganday bo'ldiyu, yana boshlandi. Unga rus posyolkalarida ishlab yurgan qozoq yigitlarining ovulga qochib kela boshlaganligi sabab bo'ldi. Ularning bayon qilishicha, shahar ichkarisida yurgan qozoq yigitlarini tutib olib, urushga jo'natayotgan ekanlar.

— Agar askar oladigani rost bo'lsa, — deb g'ijinishdi yigitlar, — bu yerdan tirik ketmaymiz... Urushda o'lguncha shu yerda o'lamiz...

Otliqlar otini ishlata boshladi. Otsizlar: — janjallashadigan kun kelmasin-da. Agar janjallashadigan kun kelsa, bekorga yayov o'lamizmi?.. Boylarning yilqilarini ushlaymiz-da minaveramiz, — deyishdi.

Ombiga ketganlardan oldin Nurxo'ja kelibdi deb eshitdik. U: "Bu ishning ildizi gubernatorda emas, podshoda ekan. Bizning Bekboyni tilmoch qilib olib, podsho oldiga To'rson jo'namoqchi bo'ldi. U Ombida qoldi. Men unga pul-mul yig'ib yubormoqchi bo'lib keldim..." deb keldi.

Xalqdan ozdir-ko'pdir pul yig'ilayotgan vaqtda, el ichiga yana sovuq xabarlar tarqala boshladi:

— Nurxo'ja bizni aldabdi, — degan shivir-shivir gaplar chiqib qoldi bir vaqt, — o'zi Ombidan qochib kelgan ekan. Generalga faqat To'rsangina ko'ringan ekan, uni tutib olib qamab qo'yibdi...

— Unday bo'lsa nega eldan pul yig'ayapti bu?

— Qurimboy avlodining nafsi qachon to'ygan edi? Tag'in nafsi qo'zg'agandir-da.

— Boshqa vaqtda esa mayli edi, mana bunday vaqtda esa, uning ham jig'ildoniga tiqilar!.. Bu xabar yolg'ondir, agar rost bo'lsa, avvalo Nurxo'janing o'zini bo'g'izlaymiz...

Endi odamlar Nurxo'ja bilan Ibroyning payiga tushdi. Ular buni sezib qolib, yaylovdan qochishdi.

— Qani ular?

— Stapda!..

— U yerda nima qilyaptilar?

— Jonlarini saqlamoqchi. El qora qoniga belanganini bilishgan-da, o'risning shahriga borib tiqilib olishgan.

— Yo'q, — dedi, el oralab kelgan birov, — mening eshitishimcha, Stapda ular tinch yotmay, bir balo o'ylab yotgan ko'rinadi.

— Qanday balo?

— Soldat olinishi rostga o'xshaydi. Ularning endigi maslahati, — kimlarni yuborish, kimlarni olib qolish. Shuning ro'yxatini chizishayotganga o'xshaydi. Bu ro'yxatga nuqul kambag'allarning

bolalarini kirgizib, boylarning bolalarini olib qolmoqchi bo'lishayotganga, boylar esa porani rosa berayotganga o'xshaydi...

— Bu rost! — dedi olomon chuvullashib, — bizning Boyjon, Ramazon, Ibroy uchalasi ham anchadan beri tinchlanib qolishdi, o'z bolalarini ro'yxatdan o'chirishgan ekan-da!

Bu xabar haqiqatga aylana boshladi. Yigitlarni olish xabari eshitilganda, Boyjonning Jarkeni qora-to'riq otini, Ermishi esa — to'riq otini minib, Baliqboy ovuli yigitlarining ko'ziga balodek ko'rinib yurishdi-da, Nurxo'ja bilan Ibroy Stapga tiqilganidan keyin, sal o'tmayoq otlaridan tushib, uylaridan chiqmay qo'yishdi.

— Bu nima qilganlaring? — deb so'raganlarga, ular:

— Tangrining peshonaga yozgani uyda o'tirib kutib olishdan ortig'i yo'q, — deb javob berishdi, — harakat qilganing bilan qayerga ham bora olarding?.. Qo'lingda qamching bilan so'yilingdan boshqa qanday yarog'ing bor? Miltiqli o'n askar chiqsa, yaylovdagi barcha yigitingni qirib ketadi. Qaysi quroling bilan bardosh berasan ularga?..

Xuddi shu so'zni boshqa ovul yigitlari ham ayta boshladi... Biroq ular ozchilikni tashkil qilardi. Ko'pchilikning og'zidagi so'z:

— Mirzalar uyida tinch o'tira olmas, bizlar ularni tinch qo'ymasmiz. Agar tinch o'tiramiz desa, ko'radiganini bizlardan ko'raversin.

G'azabga kelgan xalq, so'zdan amaliy ishga ko'cha boshladi. "Falon boyning yilqilarini elining yigitlari tortib olib minishibdi" degan xabarlar har tomondan eshitila boshladi...

"Falon joyda falon bo'lisni, falon ovulnoyni yigitlar kaltaklashibdi... falon joyda o'ldirib ham tashlabdi... Uryadnikni o'ldirib ketibdi... Falon joyga hukumat qurolli askar chiqarib, yigitlar bilan urishibdi".. degan xabarlar avj olib ketdi...

"Oqmo'la tomonda... To'rg'ay tarafda... Yettisuv yoqda mingminglab yigitlar yig'ilib hukumat askari bilan urushayapti deyishadi" ... — deb gapirishardi to'planishgan yigitlar...

"To'rg'ay tarafda qo'zg'olgan elga Omongeldi degan botir boshchilik qilayotgan ekan. Unga otsa o'q, chopsa qilich botmas emish ... uch yuz mingcha kishi yig'ib urishayotgan ekan" degan xabar keldi.

— Shunga bora olsak edi, — deb armon qilishdi bu yerning yigitlari.

— Qayerga ketsak ham, — deyishdi ko'pchilik yigitlar, — Qurimboy avlodidan o'chimizni olib ketamiz. Nurxo'ja bilan Ibroyni o'ldirmay hech qayoqqa ketmaymiz...

Nastasip bo'lisining yigitlari endi Nurxo'ja bilan Ibroyning yo'lini poyladi. Chillaning issiq kunlaridan birida, bir gala yigit Toyjonning uyiga yig'ilib qimiz ichib o'tirishgan edi, tashqaridan:

— Voy-voy, chiqinglar, yigitlar! — degan dahshatli qichqiriq eshitildi.

Yigitlar tashqariga chiqishsa, ustida ko'ylak-ishtonidan boshqa kiyimi yo'q Boyjon hovliqib yugurib kelayotgan ekan.

— Nima bo'ldi? — deb so'rashdi yigitlar undan.

— Ana!.. Ana!.. — dedi Boyjon zo'rg'a "Jambotir" tarafni qo'li bilan ko'rsatib.

O'sha tomonga qaragan edik, ko'lni yoqalab bir qo'sh otliq arava qochib kela boshladi... Orqasidan ko'pgina salt otliqlar quvib kelyapti... Qochgan bilan quvganlarning orasi bir chaqirimcha kelardi...

— Bular kim bo'ldi ekan? — deb so'radi odamlar.

— Yo Nurxo'ja... yo Ibroy, — deb javob berdi Boyjon, entikib zo'rg'a, — quvib kelayotganlar, bilishimcha, Shaqabay bilan Qutining yigitlari... O'ldiradi ular... Ajratish kerak.

Boyjonning o'g'illari:

— Otlanaylik! — deb shaylanishdi. Shu paytda:

— Avvalo bilaylik! — dedi ko'pchilik yigitlar, — Nurxo'ja ham, Ibroy ham emasdir, boshqa birovdir...

— Bordi-yu shular bo'lsa-chi? — dedi allakim.

— Unda birgalashib adabini beramiz, — deyishdi ko'pchilik bir ovozdan...

— Astag'firullo, nima-nima? — deb Boyjonning quti o'chib ketdi.

Qochgan qo'sh otliq yaqinlashib qoldi... Ularning mo'ljali — Ibroyning uyi... Salt otliqlar ham quvib kelyapti. Qichqirishib chopib kelyapti. Bu ovulning piyoda, otliq kishilari ham Ibroyning uyiga qarab chopishdi. Ular Ibroyning uyiga yaqinlasha borish-

ganda, qo'sh otliq aravaning ustidan ikki odam sakrab tushdi-da, bittasi uy tomonga yugurdi. Aravaga qo'shilgan otlar ilgariga o'tib ketdi, ularni hech kim ushlamadi ham...

— Ibroy! — deyishdi yigitlar.

U uyga qochib kirganda, quvlab kelayotganlar ham yetib olishdi. Boyjon, uning ikkita o'g'li Ramazon, uning ukasi Abu, Ibroy, uning ukasi Ahmad va yana boshqa bir necha kishilar eshikda qotib turib qoldilar...

— Och eshikni! — deyishdi otlaridan sakrab-sakrab tushgan yigitlar, eshikni to'sib turganlarga qarab.

— So'zlanglar, so'zlanglar! — dedi Boyjon bor tovushi bilan qichqirib.

— Do'stmisan, dushmanmisan?, — deyishdi yigitlar unga, — do'st bo'lsang, och eshikni! Dushman bo'lsang uningni ayt!..

Boyjon yana birnima demoqchi bo'lib og'zini juftlaganda, qora, o'rta bo'yli bir yigit uni yoqasidan xippa bo'g'ib silkib yubordi... Boyjon uchib ketdi...

— Manavi nima qilmoqchi?! — deb Boyjonning Jarken degan o'g'li qora yigitga hamla qilgan edi, shunda:

— U mana bunday qilmoqchi! — deb bir necha yigit uning ustidan qamchisini yog'dirib yubordi.

Eshikni to'sib turganlar qamchi zarbiga chiday olmay, tum-taraqay bo'lib qochishdi... Yigitlar uyga bostirib kirishdi. Ular bilan o'ralishib men ham kirdim...

Uyda Ibroy yo'q!..

— U qani?!

Yigitlar yasatilgan uyning tit-mitini chiqarishdi, ko'rpa-to'shaklarni ag'dar-to'ntar qilishdi...

— Yo'q!..

Derazadan tushib qochdi desa, atrof to'la odam...

— U qayoqqa ketdi?...

Nurxo'ja Shayke degan juda kambag'al bir odamning Beren degan qizini ukasi O'sponga zo'rlab olib bergan edi. To'pning ichida shu ham yurgan ekan. U jahli chiqqanda og'zi ko'pirib, boshi qaltirab ketar edi. Shunday holatda turarkan, "U qayoqda!?" deb qichqira boshlagan yigitlarga yalt etib qaradi-da:

— U, bu yerda bo‘lishi kerak! — dedi o‘ng bo‘sag‘adagi eski sandiqni ko‘rsatib, og‘zi ko‘pirgan holda. — Moy yegan Qurimboy avlodi, moyli sandiqqa kirgan-da, yegisi kelib!

Narigi tomonda jahl ustida turgan bir yigit sandiqni bir tepgan edi buzilmadi... Jig‘i-biyroni chiqqan Shaykening chaqchaygan ko‘zlari bo‘sag‘ada yotgan boltaga tushdi. Boltani darhol qo‘liga olib, sandiqni urib-urib yuborgan edi, taxtalari uchib ketdi. Ibroy sandiqning ichidagi qoringa solingan moylarning orasiga kirib olib, kulcha bo‘lib yotgan ekan... Sandiq buzilganda, u titrab o‘rnidan turgan edi, chopib yuborishga hozirlanganday Shayke boltasini ko‘tardi. Kimdir, uning boltasini ushlab qoldi.

— Qo‘yib yubor, o‘ldiraman! — deb yig‘lab yubordi Shayke.

Atrofda kuzatib turgan yigitlar, Ibroyni tozilarning o‘rtasiga tushgan tulkiday qurshab olishdi... Ba’zilar qamchi... ba’zilar musht, ba’zi birovlar esa tepki yog‘dira boshladi. Hammasining ham ola olmagan o‘chi borday, yopirilib ura boshladi...

Ibroyning topilganini eshitgan tashqaridagi yigitlar kigiz uyga sig‘masliklariga ko‘zlari yetib, uyni ko‘tarib olib ketishdi-da, nariroq bir joyda ag‘darib tashlashdi... Ibroyning ustiga yopirilayotgan odamlarning orasiga odam kirib bo‘lmasdi. Men chetga chiqib qoldim...

G‘azab bilan urayotgan yigitlarning og‘zidan: “Qurimboy uchun!.. Nurxo‘ja uchun!.. Satka uchun!.. Aymish uchun!.. To‘ra uchun!..” degan so‘z ketma-ket chiqardi.

Sal o‘tmay ajratuvchilar ko‘payishib qoldi. Ularni boshlab yurganlar: Boyjon, Ramazon, Solmo‘yin, Boytemir, Kurkeboy, Miqon, O‘spon va boshqalarga o‘xshagan Qapsitning otga minarlari... Shunda ularning aytadigan so‘zlari: “Nima aybi bor, bu Ibroyning?.. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmaydigan mo‘min bir bechora emasmidi bu, axir?.. G‘arazlaring Qurimboy avlodida bo‘lsa, o‘chlaringni Nurxo‘jadan olinglar!..” degan so‘zlar bo‘ldi.

Kaltakdan zo‘rg‘a ajratishganda, chalajon bo‘lib yotgan Ibroyning kiprigigina qimirlar edi...

Baliqboy ovuli yaylovdan qaytgach, "Oqbaliq" ko'lining bo'yiga kelib joylashdi. O'z qishlog'idan olti-yetti chaqirim uzoqlikdagi ko'lga ovul bahorda va kuzda kelib joylashar ekan. Baliqboyning uch ovulidan tashqari o'sha ko'l bo'yiga Qarasha, Anda, Teli, Soldat kabi ellarning mollari ham yoyilar ekan.

Soldat ovuli Toyjon ovuli bilan "Jambotir"da qo'shni bo'lib o'tirishgan edi. "Oqbaliq"da ham shunday qildi. Qapsit avlodiga kiradigan, besh-oltita xonadonli bu ovulning davlatmandi Soldatning O'sponi, o'zi shu yili "Qaspit" elining ovulnoyi bo'lib ishlagan. Bu ovulda Nurzaynab, Ulpon, Rabig'a degan uchta qiz bor edi; uchalasi ham o'n besh, o'n oltilar chamasidagi o'spirin yosh qizlar; yana o'sha kezda, mening nazarimda, ular dunyodagi eng go'zal qizlar edi... Bu qizlarni tilga olayotganligimning sababi: dastlabki muhabbatimni uyg'otgan shular bo'ldi...

... 1916-yilning qiyinchiligiga duch kelgan yigitlar o'z dushmanlariga qarshi shafqatsiz kurashib yursalar ham, ora-orada o'z ko'ngil xushchaqchaqligini ham unutishmasdi. Masalan: el ichi bezovta bo'lib turgan vaqtning o'zida, Qapsitning yigitlari: "O'lsak ham o'ynab-kulib o'laylik" deb, qo'shni bo'lib o'tirgan bizning Siybonning qizlarini mehmonlikka chaqirib, bir kun-bir tun o'yin-kulgi qilishdi. Sal o'tmay Siybon yigitlari ham Qapsitning qizlarini chaqirib, mehmon qilib, o'ynatib-kuldirib jo'natishdi...

Qiz-yigitlarning o'yin-kulgilarini kim to'xtata olardi?..

Qapsit yoshlarining o'yin-kulgisiga aralashganimda, ko'zim boshqa qizlardan ko'ra Soldat ovulining uchta qiziga tushdi. Muhabbat hayotidan tajribasizligimdanmi, bilmadim, birin-ketin o'sib kelayotgan uchala qizning hammasi ham menga o'zim dostonlardan biladigan go'zallarga yoki "parizodlar"ga o'xshardi. Yolg'iz uchratganimda bittasi qolgan ikkalasidan go'zalroq ko'rinsa, agar qolgan ikkalasining birortasini panaroqda uchratsang, ko'zingga eng go'zali shu bo'lib ko'rinardi... uchalasi birga o'tirganda qarasang, biridan birini ortiq ko'ra olmaysan. Ba'zan bittasining ko'zi boshqalarinikidan chiroyli bo'lib ko'rinsa, birovining qoshi chiroyliroq bo'lib tuyulardi; uchinchisining kiprigi esa boshqala-

rinikidan chiroyliroq va hokazo... Umuman olganda, bu uchovining qaddi-qomati, Oqon serining:

Men bugun uxlab yotib ko'rdim bir tush,
Ko'rganim: Gulbahromda uch to'ti qush, —

deb ta'riflaydigan uch go'zaliga o'xshardi-da turardi... Qozoq og'zaki o'lanlarining birida:

Ko'chganda ko'ch haydayman do'nan bilan,
Yoz yaylab, kuz yuborgan podang bilan,
Ko'rganda tilim bormas so'zlarimni —
Yo'llayman senga jonim o'lan bilan, —

deyiladi-ku, axir. O'sha o'landagi "Ko'rganda tilim bormas" degan so'zlar bekorga aytilmagan. Sevgining nima ekanligidan xabari bor yigitlargina aytgan bo'lmasa, hali yosh o'spirin yigitlar o'z sevgilisiga yurak sirlarini qanday qilib yuzma-yuz ayta olsin!.. Demak, ayta olmas ekan, ularni bir-biri bilan bog'lash uchun o'landan ortiq qanday vosita bor? Demak, o'lan bilan boshlanmaydigan muhabbat bo'ladi deysizmi?..

Soldat ovulining "uch to'tisi"ni ko'rganda tilim borib ayta olmadim, yurak sirini men bir kuni ularga o'lan bilan quyidagicha yo'lladim:

Gulzaynab, Rabig'a, Ulpon go'zal,
Bu yerda uchovingga kim par go'zal?
Daryo-ko'lda yasangan uch oqqushning —
Ko'rkiga kim bo'lmaydi xushtor, go'zal!..

Uchoving sayrab uchgan qo'ng'ir g'ozsan,
Faqat uchta yaralgan, — juda ozsan!
Osmonda qarchig'ayday yurgan yigit,
Ko'zlarin uchovingdan nega olsin!..

Uchoving ko'lda suzgan churagaysan[1],
Birovning bir qiz emas biragaysan!..
Qaymoqsan desam sut ham qalin bo'lar,
Qaymoq emas, muloyim gulchehrasan.

[1] **Churagay** — o'rdakning polaponi *(tarj.)*.

Go'zallar, qarchig'ayday tushsam kelib,
Siz bilan suhbatlashsam, sirdosh bo'lib.
Qalbimda qolmas edi sira armon,
Yursam agar birovingla o'ynab-kulib.

Bu o'lanni men Do'simbetning Birimjon degan, men bilan tengdosh o'g'lidan berib yubordim. Birimjon bu o'lanni Boyjonning Ermish degan o'g'liga ko'rsatibdi.

— Xudo berdi, — deb quvonibdi Ermish, — men ham o'sha qizlarga o'lan yozishni o'ylab yurgan edim. Bu o'lanni ko'chirib, o'z nomimdan yubora qolay.

— Uyat bo'lmaydimi, — deb Birimjon unamagandan keyin, Ermish so'zini takrorlabdi, so'ngra u bola ham ko'nibdi.

Ko'nmay desa, nachora, iloji yo'q. Birimjonning uyi bu ovulga kirma-mehmon, urug'i Kerey emas, Bog'anali edi. Eski ovullarda kirma uyning ixtiyori "ovul og'asida" bo'lardi. Bu ovulning "og'asi" Boyjon edi. Ermish esa Boyjonning mirzasi edi. Yoshi yigirmalardan oshgan bo'lsa ham bu yigit askarlikdan ham, pravi-antlikdan ham qolib ketgan. El yaylovdan qaytib "Oqbaliq"da qo'nganda, Toyjon ovulida undan boshqa hech yosh yigit yo'q edi. Boshqalari g'azna ishi bilan band edilar.

Ermish o'ziniki qilib olgan haligi o'lanim, yoshlar o'rtasida tezda tarqalib ketdi.

Bu men uchun juda alam qildi, so'ngra Ermishga quyidagi mazmunda o'lan yubordim:

Salom deb noma yozdim Ermish senga,
Odamlardan biri edim ishongan senga,
Ega bo'p kishi o'lanin qizga yozib,
Topdingmi biror foyda ayt-chi, menga?

Men emas seni o'langa qilgan yorli[1]*,*
Ayamas orli odam qo'lda borni.
Xotining yo'q kosovla kaltaklashga,
Kamariga tugib olib nomus-orni.

[1] **Yorli** — o'langa gado qilgan ma'nosida *(tarj.)*.

Sen nechun menga buncha g'ashlanasan.
Boyman deb o'z-o'zingcha tashlanasan.
Men yozgan o'lanlarni dastak qilma,
O'z molingla o'zingni oshirasan!

Shu o'lanni olganidan keyin, Ermish menga quyidagi mazmunda javob qaytardi:

Bozordan olib kelgan kumush boldoq,
Yoshligingdan yetim qolding Xudo qarg'ab.
Yozda qo'yim boqadi deb Toyjon seni
Mullalikka emas, qarollikka olgan yollab.

Bozordan olib kelgan qaramaydi,
Olamni yorug' qilgan kun-la oydi.
Quturtirib buni uyiga qo'yganicha
Nega olib borib, sigiri-la qamamaydi?

Ermish bu o'lanni menga o'zimning qo'limda o'qib yurgan Do'doq degan boladan berib yuboribdi. Do'doqning onasi — bizning Siybonning qizi edi, shu sababli uni men jiyan deb o'zimga yaqinroq ko'rardim: u ham meni yaxshi ko'rardi. Do'doqning otasi Ismoyil u vaqtda zo'r gavdali, sersoqol kishi edi. Ovul kishilari uni: "Moy og'a" deb atashardi. Yoshlik chog'ida o'zini pardozlab yuradigan Moy og'ang o'sha kezlarda ham qunduz telpak kiyib, tepasiga ukpar taqib yurardi. Hech o'yindan, to'ydan qolmasdi, qiz-kelinchaklar bilan hazillashab ketardi. Men u kishini pochcha derdim; u ham meni qayin ini derdi. Ermishning yuborgan o'lanini o'sha Moy og'angga ko'rsatib, maslahatlashgan edim, u:

— U seni boplabdi, qaynim, — dedi menga, — sen ham bopla. Agar zo'rlik qilguday bo'lsa, bizlar bormiz, seni uning oyog'i ostiga tashlab qarab o'tirmasmiz.

Moy og'angning so'zidan dadillanib, Ermishga bunday javob berdim:

Ermish do'stim, senda qani labiz!
Quruq, yolg'onchisan, o'zing semiz.

Sigir bilan birgalikda qamaydigan,
Dedingmi meni buqa, yoki ho'kiz?

O'ylab ko'rsam, ularga o'zing tengsan,
Sababi: or-nomusdan bezgan jonsan.
Bundan so'ng og'zimni qichitma zinhor,
Bu aytish shuning bilan to'xtay qolsin.

Ermish bu o'langa javob bermadi. Faqat shundan keyin uchrashganimizda u menga bunday dedi:

— La'nati, axir qo'limga tusharsan, o'lan yozishni men senga ko'rsatib qo'yaman!..

* * *

Ermish ikkovimiz bir-birimizdan xafamiz. Ovul qishloqqa ko'chib kelganda "Ermish berdi" deb, Do'doq menga shu o'lanni olib kelib berdi:

Qaranglar bu Sobitning chiranganin,
Chiranib yigitlikka bo'y o'rganinin.
Chamadan oshiq tuzoq solaman deb,
Sinmagay, biroq sening bo'yning, jonim,

So'zga ham yetim odam bo'lgay mechkay,
Biroq sen anglab so'zla, yelday esmay.
Hovriqib, o'z holingga qaramasang,
Tars etib yorilarsan shishgan meshday.

Mana shunday yig'iq fikrli, mazmundor o'lan kelgach, sinchiklab surishtira boshlagan edim, bu o'lanni yozgan — Ermishning o'zi emas, uning qaynag'asi Boymag'ambet ekan.

— Sen ehtiyot bo'lgin, — dedi menga bu ma'lumotni beruvchilar, — bu joyda Esilboyning G'alavitdinidan keyin, o'qishni oxiriga yetkazgan yigit shu. U bilan tenglashishi oson emas.

— U yigitning yoshi nechada? — deb so'radim.

— Yoshi, o'sha Ermishlar qatori bo'lsa kerak. Biroq otasi uni yoshligidan o'qitgan. Dunyoda uning bilmaydigan narsasi yo'q.

— Bu o'lanni u qachon yozib bergan ekan?

— Yaqinda Boyjonning uyiga kelib qo'nib ketdi. O'shanda yozib berib ketgan bo'lsa kerak.

— Endi yana qaytib kelarmikan?

— Yaqin o'rtalarda yana qaytib keladi, degan gaplar bor. Troytskiyda no'g'oycha o'qigan ekan, uni tugatib, endi Stap[1]ga borib o'rischa o'qiyman debdi.

Ilgari ismi-sharifini men hech eshitmagan, buning ustiga, xabar beruvchi kishi yuqoridagidek ta'riflagan yigitni ko'rgim, u bilan bahslashgim kelardi. Lekin u kelguncha Ermishga javob bermay o'tiramanmi?..

So'nggi marta qaytargan javobimda unga "or-nomusdan bezgan jonsan" yoki "og'zimni qichitma!" degan so'zlarni bekorga aytgan emasman-da.

Ermish bilan uning yangasi Dametgan o'rtasida "mish-mish" gaplar yurganligini odamlar rostga chiqargan edi. Dametgan — o'sha paytlarda o'ttizlarga borgan xotin edi. U — Qo'shaboy urug'idan Qoziboy degan kishining qizi edi. Dametgan — usti-boshini, uy-ichini ozoda tutadigan, chevar, ishchan, so'zga chechan, aqlli, go'zal ayol edi. U qiz mahalida eri Birkeni hech mensimay, tegmayman deb bosh tortganda, elning gap-so'ziga chidayolmay noiloj kelgan edi. Ba'zi bir kishilarning aytishlariga qaraganda, erini mensimagan Dametgan "navqiron chog'ini otasining o'ng tomonida gasht qilib o'tkazgan", kelin bo'lib tushgandan keyin ham shunday davr surgan edi...

"Og'zimni qichitma" deganimda, Ermishga aytmoqchi bo'lgan gapim — Dametgan bilan uning o'rtasidagi munosabat edi. Unga Ermish tushunmadimi, yoki tushunsa ham pisand qilmadimi, har holda, yana jonga tegib o'lan yozibdi. Endigi muqaddas burchim — unga haqimni yubormaslik edi. Shu maqsadda yana javob qaytarganimda, "og'zimni qichitma" degan so'zimni yozmay tura olmadim.

O'lan quyidagicha:

Ermish do'stim qo'ymadi o'chakishin,
Qara, uning yengaman deb kerilishin.

[1] **Stap** — stanitsaning noto'g'ri talaffuzi *(tar.)*.

Bahona izladi degan shu emasmi,
Bir kaltakni o'larday yemoq uchun.

Sipohi aytishgandim avvalo men,
Nachora? Boshlay endi janjal bilan.
Bir so'zni ichimda sir saqlagandim,
Bo'lmas bo'ldi endi uni yashirgan bilan.

Sen mening er yigitim eding qaybir,
Desa ham o'zi boy va mirza, olg'ir.
Gar balo — sir izlasam sen emasmi, —
Enasiga lat bergan yomon ayg'ir?

Yigitsan kezib yurgan har o'tloqni,
Unutgan or-nomushi, odoblarni,
Uyatni bilsang edi sen zig'irday,
Yurmas eding pay-paslab Dametganni.

Bilamiz sening yomon hunaringni,
Bilmading bu kishandan kennoyingni —
Ayamayin o'zingning nabirangni,
Bildingmi endi harom o'laringni.

Yaratsa ne qilarding seni qiz qip[1]
Har kimga qilar eding vafosizlik...
Kelgusi gal achchiq so'z topay senga,
Hali ham chuchuk bo'lsa ushbu tuzlik.

Ermishga bu o'lan yuborilgan vaqtda, men O'sip degan kishining uyida turar edim. U taqir bosh, sariq chol edi. U o'sha ovulning eng qashshog'i edi. Katta o'g'li Muqash yolg'iz oti bilan praviantda yurar, o'n yoshlar chamasidagi ikkinchi o'g'li (otini unutdim) esa — menda o'qirdi. "O'sip birodar" atalib ketgan bu chol nihoyatda yuvosh, hech kim bilan ishi yo'q, ochdir-to'qdir hech kimning qo'liga termilmagan, qo'lida boriga shukur qiladigan, sabr-toqatli, bor ovqatini mehmonining oldiga to'kadigan ochiqqo'l kishi edi. Men o'zim ham bu uyda e'tiborli edim. Bir

[1] Qip-qilib so'zining qisqartirilgan formasi. — *tarj.*

katta sigir va govmishning eng mazali suti meniki edi. Qaymoqsiz, moysiz choy ichsam, boshqa ovqatni o'ylamas ham edik...

Bir kuni O'sip qayoqqadir ketib, uning bo'yi yetib qolgan Halima degan qizi tush paytida menga pishloqni qaymoqqa qorib, choy qo'yib berib o'tirgan edi. Qo'liga yosh tol novdasini ushlab uyga quti o'chgan Dametgan kirib keldi-da, ro'paramga o'tirib olib:

— Hay, daydigan it! — dedi tutaqib. — "Sol yigit"[1] bilan meni qachon ushlab olgan eding sen? — dedi.

— Qaysi "Sol yigit?" — dedim men unga go'yo tushunmagan bo'lib.

— Mana buni sen yozmagan bo'lsang, men yozdimmi? — dedi Dametgan, mening Ermishga yozib yuborgan o'lanimni cho'ntagidan olib.

Men vaj qilmoqchi bo'lib og'iz juftlaganimda, Dametgan qo'lidagi chiviq bilan bir urdi.. Ikkinchi marta urmoqchi bo'lgan edi, uning qo'lini ushlab qoldim.

— Qo'yib yubor! — dedi jahli chiqqan Dametgan, chivig'ini yulqilab. Shu paytda ochiq turgan eshikdan hovliga kirib kelayotgan Ermishga ko'zim tushim qoldi. Uning qo'lida ham chiviq bor edi... Chaqqonlik bilan yurib kelayapti... Holim nima kechishiga ko'zim yetgach, oynasi solinmagan derazadan sakradim...

Dametgan bilan Ermish meni Toyjonning uyigacha quvlab kelishdi-da, qolib ketishdi. Orqamdan ular Toyjonning uyiga kelib kirishga botina olishmadi, sababi, u uyda ayiqday hayqiradigan badjahl fe'lli Salima bor edi...

Boymag'ambet iztulin

Ermish bilan janjallashganimdan keyin Baliqboy elidan ketishga to'g'ri keldi.

— Bizlardan xafa bo'lgan bo'lsang uningni ayt, agar o'zing qatori bolalar bilan janjallashgan bo'lsang, biz aybdormizmi? Bir tentakni tiyib olishga qurbimiz keladi... "Burgaga achchiq qilib

[1] Ermishni u "Sol yigit" deb atar edi *(tarj.)*.

ko'rpaga o't qo'yma" deganlariday, bir odamdan o'kpalab, issiq o'rningni nega sovutasan? Sen unday qilma! Ikkovingni yarashtiraylik. Bundan buyon uni senga tegmaydigan qilaylik, — deb, bolalari o'qiydigan ovulning kishilari meni yuborgilari kelmagan edi, ularga unamagan ham edim, meni olib ketish uchun kelgan pochcham Bo'latboy:

— Bu so'zlaringni tangri yorlaqasin. Lekin qaynimni tashlab ketolmayman. Axir qanday tashlab ketay? Mushti hazrati Alining gurzisiday keladigan bu yo'g'onbilak ho'kizing bir urib o'ldirib qo'ysa nima qilaman? U, bilagining kuchiga ishongan bir baloga o'xshaydi. Balodan mashoyix ham qochibdi. Undan qochmasa bo'lmaydi. Yaylovdosh, qo'shni bo'lib joylashgan quda elmiz. Bir tentagingning kasofatidan oramizga sovuqchilik tushib qolmasin. Undan ko'ra, quda ham, qudag'ay ham tinch vaqtida qaynimni olib ketay, — deb hech ko'nmadi.

Gup shunga qaror topgach, o'qituvchilik qilgan kunlarim uchun tegadigan mehnat haqini hisob-kitob qilmoqchi bo'lib, Bo'latboy Moy og'angnikida qoldi. Moy og'ang uni semiz serka so'yib ziyofat qildi.

O'sha kuni oqshomda Do'doq menga yangi xabar olib keldi. Moy og'ang onda-sonda menga turli qissalardan ayttirib tinglar edi. U odatdagidek bugun ham gasht qilib tinglab o'tirgan edi. Kechroq Do'doq: "Bu yoqqa qarab keting" deganday imo qildi. E'tiborli biror narsa borligini bilganday, men ham bir narsani bahona qilib, qissani bir qiziqroq joyida to'xtatdim-da, tashqariga chiqdim. Do'doq ham chiqdi.

— Ermishning qaynag'asi kelibdi, — dedi Do'doq. Men undan:

— Kim? Boymag'ambetmi? — deb so'radim.

— Ha, Boyjon ota to'qli so'yayotir, — javob berdi Do'doq.

Borgim keldi-yu, u bilan arazligim esimga tushib ketib, Do'doqdan xat yuborishni loyiq ko'rdim. Qo'shni uyiga kirib yozilgan bir og'iz xat quyidagicha chiqdi:

"Hurmatli qadrdon Boymag'ambet!
O'yim bor senga bugun yo'liqishga,

Yo'q deydi bu atrofda senday oqin.
Agarda ma'qul ko'rsang bu so'zimni,
Uchrashib bo'lmoqchiydim senga yaqin!..

Do'doq kechikib keldi. Bu vaqtda men qissani tugatib, Do'doqni sabrsizlik bilan kutib o'tirgan edim. Do'doq kirib, mening yonimda yonboshladi-da, uydagi begona odamlarga bildirmay, bir parcha qog'oz uzatdi.

Qog'ozga husnixat bilan quyidagilar yozilgan edi:

"Hurmatli Sobit!
Oqinga o'zimni hech teng ko'rmayman.
Oqinman deb ham sira maqtanmayman.
"Bu yerda senday oqin yo'q" degan so'zni
Xato bo'lsa kerak, deya fahmlayman".

Shundan so'ng oxiriga: "R.S[1] harflarini qo'yib:

"Ertaga ertalab ovul chekkasidagi daraxtzorning nariyog'ida uchrashaylik. Bugun charchab o'tirgan edim, xafa bo'lma. Uchrashar paytingda, o'sha bolani yuborib xabardor qil.

Hurmat bilan Boymag'ambet"

debdi.

Ertasiga ertalab Do'doq orqali ikkovimiz xabarlashib, qishloq chekkasidagi daraxtzorning nariyog'ida uchrashdik.

Va'dalashgan joyimizga men undan ilgari bordim. Sal kutgandan keyin daraxt orasidan chiqib kelayotgan novcha, shahar odamlariday kiyingan birovni "o'sha bo'lsa kerak" deb oldidan to'sib chiqqan edim. Rangpar, so'poqroq yuzli, qirraburun, ko'kko'z yosh yigit ekan. Menda: "Ajabo, shu bo'lmasa edi" degan shubha tug'ildi. Buni sezganday, u menga jilmaydi-da, qo'lini cho'zib:

— Boymag'ambet Iztulin, — dedi, men ham qo'l berdim. Lekin u vaqtda o'qimishli odamlarday ko'rinishni bilmaganligim uchun "Sobit Muqonov" deganim yo'q.

[1] "Pochta skriptum" deb o'qiladigan lotincha "R. S." harflariga tushunmadim. Nima uchun qo'yilganiga ham aqlim yetmagan edi.

— Sobit degan yigit sendirsan-a? — dedi Boymag‘ambet, so‘rashib bo‘lib.

— Ha.

— Ko‘p kutib qolganing yo‘qmi?

— Yo‘q.

— Yurib so‘zlashamiz-da, — dedi u.

— Mayli.

— Mana bu tomon ham kir, ham yaydoq dala ekan, — dedi Boymag‘ambet, “Shirikmoya” deb ataladigan ko‘l tarafni qo‘li bilan ko‘rsatib, — o‘sha tomondan aylanishib qaytamizmi?

— Mayli.

Ikkalamiz yonma-yon ketayotgan edik:

— Avvalo bir-birimiz bilan yaxshilab tanishib olaylik-chi, - dedi Boymag‘ambet, — sen ham o‘z ahvolingni ayt, men ham aytay.

— Xo‘p bo‘ladi.

— Qani, qaysimiz boshlaymiz?

— Siz bilasiz-da.

— Nechaga kirding?

— O‘n oltiga.

— Mendan uch yosh kichik ekansan. “Omonlik og‘adan” deydilar. Men boshlashim kerak ekan. Lekin avvalo ahvolingni bilishni istardim.

— Marhamat, — dedim-da, boshimdan kechirganlarimni qisqacha gapirib berdim. Boymag‘ambet zo‘r ixlos bilan o‘rtaga savol tashlab tinglarkan, men so‘zimni: “Turmushim mana shunday” deb tugatganimdan keyin, “Da!” deb qo‘ydi. Keyin:

— Hu anavi tepagacha borib o‘tirsak nima qiladi? — deb so‘radi.

— Juda soz bo‘ladi, — dedim men.

— Tamaki chekarmiding? — deb so‘radi u mendan, qizilko‘k, guldor, og‘zini qizil ip bilan bog‘lagan barqut xaltachasini cho‘ntagidan olib.

— Chekaman, — dedim men.

Xaltachaga juda havasim keldi. Chunki bunday xaltacha u vaqtlarda ba’zi bir mirzalardagina bo‘lmasa, uncha-muncha o‘smir bolaning cho‘ntagiga tushmasdi. Yana yigitlarning tushunishicha:

unday chiroyli xaltachani yigitlarga faqat sevgan qizigina tortiq qila olardi.

Buklangan xaltachaning orasiga solingan oq qog'ozni men ajablanib qo'limga oldim, chunki u vaqtda el ichida "qanday xat" desa, "qog'oz xat!" deyishardi. Oq qog'ozni tamaki u yoqda tursin, bozorga olib borib sotadigan moliga udostovereniye yozdirishga ham topa olmay ovora bo'lib yurgan kishilarni ko'p marta ko'rganman.

Xaltachada bizning el "kurepka" deb ataydigan maxorka bor ekan. Bir qutisining bahosi sakkiz tiyin turadigan bu maxorka elimizdagi kashanda yigitlardan ko'pchiligining qo'liga tushmas ekan. Yigitlarning nazarida "kurepka"ni mirza odamlargina chekardi, ko'pchilik yigitlarning chekadigani — qo'lda pichoq bilan to'g'ralgan tamaki yaprog'i edi. U ham ba'zi birovlarning qo'liga tushavermas, ba'zi bir tamaki xumor qilganlar quvray degan o'simlikning yaprog'idan bahra olar edilar.

Boymag'ambetning usti-boshiga, xaltachasiga, qog'oziga, maxorkasiga qarab, tamakini o'rar ekanman, ichimda: "Asli, boy odamning o'g'li ekansan-da!" deb qo'yardim.

O'ralgan tamakimni tutatib olganimdan keyin, tutunini goh burnidan, goh og'zidan sekin chiqarayotgan Boymag'ambet: "Endi o'zimni tanishtiray" deb so'z boshladi-da, o'z ahvolini bayon qila boshladi:

— Bizning urug'imiz "Uvoq" bo'lib, uning ichida "Bo'ydali" ham bor, — dedi u. — Bizning ovulni "Shalingke" deb atashardi. U bizning katta bobomiz edi. Shalingkedan Izto'la, undan Qanapiya bilan Jakilar tug'ilgan. Qanapiyadan men tug'ilganman. Otamni Shalingkening Qanapiyasi deyishardi. Men familiyamni Iztulin deb ataganman, chunki men otam Iztulin bag'rida o'sgan edim.

— Bizning xonadon, — dedi u tamakisini tortib, — o'n choqli xonadonning davlatmandi: uyur-uyur yilqimiz, qo'ylarimiz, besh-oltita sog'in sigirimiz, katta uyimiz bor edi. Otam bir necha yildan buyon Oqqusoq bo'lisiga qarashli Bo'ydali ovulining ovulnoyi edi. Qishlog'imizning oti "Bo'rli ko'l" edi.

— Ovulimizda Qutiboy degan mulla bor, — dedi Boymag'ambet tamaki chekar ekan. — Yaqin qarindoshimiz. Hozir o'rta yosh-

lardagi kishi. O'zi manavi Boyjonga kuyov. Eskichadan savodli odam. Otam dastlab meni o'sha mullaning qo'liga o'qishga berdi.

— U mullani men bilaman, — dedim, — Boyjonning uyida ko'rganim, yaltiroq peshonali, ko'saroq odam edi-da!

— To'g'ri. O'zing no'g'oy domlada qanday o'qigan bo'lsang, men ham Qutiboyda shunday o'qidim. Ikki-uch yil umrim bekorga o'tdi. O'rgan darrasigina bo'lmasa bergan bilimidan esimda qolgani yo'q.

— Shunday azobda yurganimda, — dedi u, — ado bo'lgan tamakisini so'nggi marta chekarkan, kulini qo'li bilan tushirib, — baxtimga bir tasodifga duch keldim.

— Qanday qilib?

— Bizning uyga bir kuni bir mehmon keldi. U — shaharliklarga xos kiyingan, qora mo'ylovli, o'rta bo'yli, qora basharasiga ajin tushgan, katta burunli bir kishi edi... Ko'rinishidan qozoqqa o'xshamas edi. Uni keyinroq bilib oldim: boshqird ekan. Saidkerey maxsum degan kishi ekan. Bizlar bilan qo'shni, Oltoy urug'idagi Qurum ovulining o'qituvchisi ekan. O'qituvchi degan so'zni bilasanmi?

— Bilaman, — dedim men. Boymag'ambetning bu savolidan o'zimcha: "Meni shunchalik nodon deb o'yladimi?" deb ko'nglimga oldim.

Men unga Jamanshubordagi bolalarni o'qitgan Idrisni aytdim. O'z savolidan shundagina pushaymon bo'lgan Boymag'ambet:

— Nega bunday so'radi deb ko'nglingga olib yurma yana! — dedi menga. — Men seni "o'qituvchi" ko'rmagan bo'lsa kerak deb o'ylagandim, ko'rgan bo'lsang, — juda soz. Idris qayerda o'qigan ekan?

— Upida[1] o'qidim dedi-ku menga, — dedim.

— Saidkerey ham shu yerda o'qigan. — "Madrasayi oliya"da. O'zi boshqird bo'lgani bilan, tili qozoqchaga o'xshaydi. Sho'x, o'lanchi yigit ekan. Ham qozoqcha, ham boshqirdcha o'lanlar yozar ekan. Yoshlik chog'imdayoq men o'lan yozishni juda sevardim. Otamga hazil tariqasida yozgan bir juft o'lanim ovul orasiga tarqalib ketib, qiziq bo'lgan.

[1] Ufa demoqchi. — *Tarj.*

— Qanday o'lan?

Boymag'ambet ko'k ko'zini bir o'ynatib jilmaydi-da:

— Berigi tomonimizda, bizdan yetti-sakkiz chaqirim narida "O'rimboy" degan ovul bor, — dedi u kulimsirab so'zlab, — o'sha ovuldagi qarindoshimizga otamning beradigan qo'yi bo'ladi-da, qishning kuni bitta qo'yni chanaga solib jo'nab ketadi. Kun ham sovuq, ham bo'ron bo'lsa kerak. Yupqa kiyingan otamni sovuq yengib, oti bilan ovora bo'lib kelayotganda qo'yning chanadan tushib qolganini sezmaydi. Bir vaqt orqasiga qarasa, qop-qora bir narsa chopib kelayotganmish. Otam bo'ri deb o'ylabdi. Yana "qora bo'ri"... Elning nazarida, "qora bo'ri" mol u yoqda tursin, odamni ham yer ekan... Nihoyatda zahrasi uchgan otam, otini savalab ura qochibdi!..

— Xo'sh, shundan keyin-chi? — dedim men qah-qah urib kulib.

— Ovul yaqin ekan, — dedi Boymag'ambet ham kulib, — shoshgan otam qarindoshlarining hovlisiga chopganicha kirib ketibdi... Qarindoshlari: "Nima bo'ldi?" deyishsa, otam: "Bo'ri! Bo'ri!" deb zo'rg'a javob beribdi.

— Shunday qilib, qo'y nima bo'libdi?

— Ular "Bo'ri"ning chanadan tushib qolgan qo'y ekanligini bilib, chopib borishguncha, qo'yni daydi bir och bo'ri yeb ketibdi.

— Bay-bay-bay!..

— Mana shu haqida men otamga:

Chanagga qora qo'yni bosganing-ay!
Tushib qop[1] *qo'rqib undan qochganing-ay!..*
Qo'yingni chin bo'rilar yeb ketganda,
Olayib ikki ko'zing, shoshganing-ay!" —

deb o'lan yozdim. Boyagi aytgan o'lanim mana shu o'lan edi.

— Ajoyib ekan. Yana qanday o'lanlar yozgansan o'sha vaqtda?

— Ko'pgina o'lanlarim bor, ular qanaqa o'lanlar deysan, yoshlik paytining o'lanlari-da.

— Xo'sh, shundan keyin, haligi Saidkerey kechalari menga ham o'lan ayttirib: "Talantli bola ekansan" deb o'tirdi-da, ertalab:

[1]Qolib.

"Bu bolani menga ber, o'qitay" deb oyoq tirab turib oldi. To'g'risini aytganda, otam chiqimni yoqtirmaydigan, xasisroq kishi edi. Xarajatini o'ylab, meni Saidkereyga bergisi kelmagan edi, otamning ukasi Jaki: "Xarajatini o'zimoq to'lay" deb pirovardida og'asini ko'ndirdi.

— Shunday qilib, Qurimsoq ovuliga borib, Saidkereyda o'qiy boshladim, — dedi Boymag'ambet, tag'in bir tamaki o'rab tutatgach, — o'zingga ma'lum, "jadidcha" o'qish...

Biroq o'qishim uzoqqa cho'zilmadi.

— Nega?

— Bir yil o'qigach, kelgusi yili arab tilining "sarfi"dan nahvi"ga o'tib boshqa fanlardan ham biroz ilmga ega bo'lib qolganimda, o'qituvchimizni uryadnik kelib ushlab olib ketdi.

— Nega?

— Bir yig'inda yigitlar Saidkereyni Jonkumush degan qizning yoniga o'tqizay desa, qiz: "O'rismi, qozoqmi, kim bu o'zi?" deb uni o'tqizmabdi. Buni ko'ngliga olib qolgan Saidkerey yig'indan so'ng u qizga quyidagi mazmunda o'lan yozib yuboribdi:

Jonkumush bir qiz ekan biladigan,
Ko'ringanni asta sinab yuradigan,
Tegmaganga kesak otib, chechansinib,
Bilaman deb boshqalardan kuladigan.

Birovdan ulushini olsa sozlab,
Jismida takabburlik so'nadigan.
Bujrayib menga boqib mazax qilib,
Topibsan bir miljingni ko'nadigan.

Sen o'zing qanday go'zal yurtdan oshgan!
Qon bilan sut oq yuzingga aralashgan!..
Tug'ilgan "go'zal pari" sen emasmi,
Tarbiya ko'rmay o'sgan bola yoshdan.
Kishini sinagunday ne holing bor,
Ko'zguga raso payqab qaramasdan?

Odobsiz, qiz ham bo'lsang, tuzsiz so'zing,
Tuzsiz so'zga etmadi jonim to'zim.

Gavdangdan bunday cho'chib qachon uchgan,
Yosh ayolda bo'ladigan nozik sezim?

Odamla odamlarcha so'zlashmaysan,
Og'zingda o'jarlardek bordir so'zing.
Men kimman? O'qigach so'ng shu o'lanni
Boshqa odam tushuntirmay yetar ko'zing.

— Qanday ekan? — dedi Boymag'ambet, o'lanni o'qib bo'lgach, jilmayib.

— Durust. Qiz qanday javob beribdi bunga?

— Qanday javob berardi? Ermishning senga bergan javobiday bo'lmag'ur bir narsalarni yozdirib yuboribdi.

— Xo'sh?

— Saidkereyning javobi undan ham o'tkirroq bo'lgach, Jonkumush tarafdori bo'lgan kishilar o'lan yozib beradigan kishi izlashibdi. Ularning topganlari — narigi tomonlarida qo'shni bo'lib o'tirgan "To'qti", "Sari" degan ovullardagi Mektepboy ekan. Shunga o'lan yozdirib, Saidkereyga yuboribdi.

O'sha o'lan bormi?

— Bor. Lekin u ham suyuqroq. Undan ham ko'ra Saidkereyning javobini o'qiylik:

Mektepboy sening og'ang Olimboyim,
So'zlasang oqizasan tiling moyin.
So'zingga javob yozib qaytarishga
Mana, vaqtim keldi, qilma voyim[1].

Og'angiz Qulqay botir vafot bo'pdi,
Imonin qabul etgay bor xudoyim.
Yo'q yerdan ajaliga sabab bo'psan
Bilmasdan tabiblikni — emlash joyin.

Tuz bilan tamakini qaynatibsan,
Qulqayni mazilka-la moylatibsan.
Terlasa emi bo'yga singadi deb,
Xipchinla aylantirib savatibsan.

[1] Vahima.

Qulqayning joni shunda xo'p qiynalib
Qizil qon tanasidan sapchib chiqib,
Qamza ila ikkovingni qarg'apti u
Achishib badanlari, xallos urib:

"Ey, Qamza, sening ko'zing ochilmasin!
Qayg'udan ko'ngling doim bosilmasin,
Yaramga tuzli suvni quya solding,
Chivin jon endi nega achinmasin!"

Ne javob aytding og'ang o'larda sen?
Yurtga qanday qarading ko'marda sen?
Bo'yningda shunday aybing bo'la turib,
Nimasiga xumor bo'lding o'langa sen?

— Bu qalay? — dedi Boymag'ambet.

— Juda ajoyib yozilibdi!.. Xo'sh, shundan so'ng nima bo'ldi?

— Urush bo'layotgan kezda, o'chakishib qolganlar: "Soldatdan qochgan" deb, ariza berishibdi, so'ngra uryadnik kelib bechorani ushlab olib ketibdi. Keyin urushga olib ketibdi deb eshitdim. Menga ham, ovuldagi boshqa do'stlariga ham xat yozib turardi. Nuqul o'lan bilan yozardi. Bittasi manavi, o'qib ko'r!

U taklif qilgan o'lanni o'qib ko'rsam, shunday yozilgan ekan:

Yot yerdan qayg'u chekib yozdim nazm,
Bilmayman umrimning ko'pin, ozin.
Ustiga shinel, mundir taqib olib,
Bu xatni yozdi senga chin yo'ldoshing.

Yonimdadir suyangan qilich, miltiq,
Oyog'im oqsab qoldi holdan ketib.
Ust-boshim bus-butun, tomog'im to'q,
Lekin mening ko'nglim och, qalbim o'ksik.

Sog'indim qozoqning keng saxarasin[1]
O'rtanib sho'rlik qalbim oh urasan,
Ko'ngil yarasiga davo — asl qimiz,
Qachon menga tamingni totdirasan?!

[1] **Saxara** — sahro, bepoyon dala *(tarj.)*.

Saidkereyning yana bir necha o'lanlarini o'qidik. U o'lanlarida urushning menga notanish bo'lgan ba'zi manzaralari tasvirlanibdi. Boymag'ambet ham o'lan o'qir ekan, urush to'g'risida ko'pgina izoh va ma'lumotlar berdi. Bu menga urushning qanday urush ekanligi haqida boshlang'ich ma'lumotlarni berdi.

— Saidkereydan o'qishdan chiqqandan keyin nima ish qilding? — deb so'radim men Boymag'ambetdan.

— O'qishga ketdim.

— Qayerga?

— Troitskka.

— Qanday o'qishga?

— Qozoq maktablarida o'qish yo'qligini o'zing ham bilasan. O'qigisi kelganlar uchun faqat ikki turli o'qish bor emasmi: biri ruscha, biri esa tatarcha. Saidkereyda men tatarcha o'qiganman, rus maktabiga kirishga yaramaganman, biladigan bir kishining maslahatiga ko'ra Troitskdagi "Madrasayi Vazifa"ga ketdim. U yerda ikki yil o'qidim-da, bu yili ikki sabab bilan bormay qoldim: biri — olis joyga borib o'qishga xarajat bo'lmadi. Boya aytdimku, "Otam xasis kishi" deb. U kishi xarajatimni ko'tarmadi.

— Unday bo'lsa qanday o'qiding?

— Troitskning tevarak-atrofi qozoq ovullari bilan to'la edi. O'sha ovullardagi, hali madrasaga kelib o'qishga ilmi yetmaydigan bolalarni o'qitdim, ya'ni yollandim; badavlat kishilarning bolalarini o'qitdim.

— O'zingning o'qishingga xalaqit bermadimi?

— Nachora? "O'g'irlik qilsang ushlanasan, o't yesang qalqib ketasan" deganlariday, qiyin bo'lsa ham o'qittim, bir iloj qilib kun ko'rish kerak edi-da...

— Nega endi o'qishni tashlading?

— Sababini o'zim ham aytmoqchi edim, so'rayverasanmi? Ikkinchi sabab: o'qishning zo'ri, rusda. Rus tili "Madrasayi Vazifa"da ham o'qiladi. Hozir men rus tilini durustgina bilib qoldim, yozib, o'qiy olaman. Lekin maqsadim bugina emas. Maqsadim — rus tilinigina bilish emas, rus tilidagi fanlarni ham o'qish edi; madaniyat jihatidan ham, o'qish jihatidan ham qozoqdan yuqori deb hisoblashib yuradigan tatarlar ham ruslardan o'rnak olardi. Rus

adabiyoti tatar adabiyotiga qaraganda ancha boy. Shunday ekan, bizning zamonda rus o'quvini chala bilgan kishi madaniyatli hisoblanmaydi. Shuning uchun men tatarchani yig'ishtirib qo'yib, Stapda ruscha o'qish uchun bel bog'ladim.

— Stapda unday katta o'qishlar bormi?

— Menga yetarli bor, — dedi Boymag'ambet kulimsirab, — lekin sharoitim ko'tarmaydi-da unga: ham xarajatim yo'q, uning ustiga, ruscha o'qimaganman!..

— Shunday! — dedim men xo'rsinib.

— Ermishga atab yozgan o'lanlaringni o'qidim, — dedi Boymag'ambet, — umidli bola ekansan. O'lanlaring tuppa-tuzuk. Albatta, kamchiligi ham yo'q emas. Biroq gap hozirgi saviyangda.

Bu haqida maslahatlashib bo'lgach, men Boymag'ambetdan o'zining o'lanlarini ko'rsatishini o'tindim.

— Menda qanday yaxshi o'lan bor deysan, — dedi u, — yaxshi yozish uchun yaxshi bilim kerak. U bilim menda hali oz. Tatar oqinlarining, rus oqinlarining o'lanlarini o'qisang, o'z o'laningni o'lan deyishga ham or qilasan kishi! Ayniqsa, rus oqinlarining!.. Ajoyib o'lanlar ana shularda!..

— Qanday-qanday oqinlari bor? — deb so'radim men.

— Juda ko'p, — dedi Boymag'ambet, savollarimni qiziq deb fahmlab jilmayarkan.

— Masalan?

— Masalan, Pushkin! — dedi Boymag'ambet og'zini to'ldirib so'zlab, — dunyoda undan kuchli oqin yo'q.

— Tirikmi u?

— O'lgan.

— Yana qanday tirik oqinlar bor?

— Ko'p-ku, — dedi Boymag'ambet, — qanday qilib senga batamom aytib beraman? Yana o'tiraverib, oyog'im uvishib qolibdi. Endi yurib so'zlashaylik, xo'pmi?

— Mayli.

Ikkalamiz yana bitta-bittadan tamaki o'rab olib, o'rnimizdan turdik-da, yonma-yon yurib ovulga ketdik.

— Qanday qilib bo'lsa ham, sen bolani o'qitish kerak ekan, — dedi Boymag'ambet. — Mumkin qadar ruschani o'qitish kerak.

— Qayerda? Qanday qilib?

— Bu so‘rog‘ingga javobni men Stapga borgach, yozib yuboray. U yerdagi sharoit bilan tanishay. Ehtimol, bir ish chiqar.

Boymag‘ambetning bu so‘zlariga men unchalik e’tibor bermadim, uning o‘lanlari bilan tanishishga shoshildim. Qayta-qayta iltimos qila berganimdan so‘ng, Boymag‘ambet paltosining yon cho‘tagiga solib qo‘ygan daftarini yana sug‘urib oldi-da, bir necha varag‘ini ochib: “Mana buni ko‘r-chi!” dedi. Men uni o‘qib ko‘rsam, o‘lan:

Birov shekilli,
Bog‘loqli — qamalgan,
Hayotim xavf olgan;
G‘azabni qo‘zg‘atdi,
Qalbimni achitdi,
O‘sha qayg‘u-alam, —

deb boshlanar ekan-da, keyin:

Intilsa odamzod,
Bo‘sh kelmas hech bir vaqt.
Yozadi keng qanot! —

deb tugalar ekan.

Otam olisdagi o‘qishga yubormay yurgan chog‘da yozgan edim, — dedi u, men o‘lanni o‘qib bo‘lib yuziga qaraganimda.

Men uning “Jonim-jononim” degan ikkinchi o‘lanini endi boshlagan edim, Boymag‘ambet:

— O‘qimayoq qo‘y! — dedi.

— Nega?

— Yoshlik haqida yozilgan, xususan, qizlarga yozilgan. Lekin bu o‘landa qizg‘in muhabbat yo‘q, faqatgina yigitning qizga oshiqligi bor, xolos.

— Unday bo‘lsa muhabbat haqidagi o‘lanlaringni ko‘rsat.

— Rostini aytsam, unday o‘lanlarim yo‘q, — dedi Boymag‘ambet kulimsirab.

— Nega endi?

— O'lan yurakdan chiqqandagina ta'sirli bo'ladi. Haqiqiy o'lan — haqiqiy muhabbatdangina tug'iladi. Hali hech kimga muhabbatim tushgan emas, ya'ni men hali hech bir qizni seva olganim yo'q.

— Voy, u shunchalik qiyinmi?

— Boshingga tushganda bilasan, o'rtoq. Hali yoshroqsanda!.. — deb Boymag'ambet qo'zg'oldi, — endi bir o'lanni o'qi, shundan so'ng ovulga qaytamiz, — dedi.

— Xo'p.

— Tabiat manzaralari haqida yozilgan manavi o'lanni o'qib ko'r-chi! — deb Boymag'ambet "Kechaning boshlanishi" degan o'lanini o'qitdi.

Yashil, ko'k oltin ufq qo'ng'irlanib,
Kunbotar qip-qizarib, o'tday yonib...
Iliq kech kirib keldi sekin-asta,
Shimol tomon qoradan to'n yopinib.

Yer yuzini tun qoplab yoyib qanot,
Qosh qorayib, ko'rinmas har bir taraf.
Jim-jim o'rmon, keng dala uxlab-mizg'ib,
Ufqdan tug'ilmoqda oy ham qarab.

Yulduzlar tog' boshidan, aylanadan,
Chaqnab turur milt-milt etib samo-ko'kdan.
Qurshab qorong'ilik yerning yuzin —
Keladi asta bosib ko'k jiyakdan...

— Manavi o'laningga qoyilman!.. — dedim men, shu vaqtgacha hech kimdan eshitmaganim uchun qattiq ta'sirlanib...

— Endi bir o'lanni o'zim o'qib beray, — deb u daftariga qo'l cho'zdi, daftarini varaqlarkan, so'zida davom etdi:

— Biz tomonda "Pishildoq O'mar" deydigan badjahl, xasis, yangilikka qarshi boy odam bor edi, mana bu o'lan shu haqida yozilgan edi, eshit:

Basharasi targ'il buqa go'yo uning,
Chiranar ko'kragini ko'kka kerib,

Qizarib ikki ko'zi odam ko'rsa —
Qocharmish xilvat joyga jadal yurib.

O'makang[1] *bir to'p elning oqsoqoli*
O'zi boy, yurtda yo'q uning moli.
Yotgan bir ulkan gavda, timsohsifat,
Shunday qasd yangilikka uning joni.
So'zlasa yangilikdan birov kelib,
U bilan aqllashar o'lib-tolib.
Qo'liga tol tayog'ini olib chopib,
Qoladi payti kelsa boshga solib.

Ushlaydi — bir boshiga to'p-to'p yigit,
Buyurar xasislik-la farmon qilib,
Yuziga hech kim qarshi so'z aytolmay,
Yuradi xizmatkorning bari biqib.

Tekshirib, xotin-xalaj bolalarin,
Achchig'lansa bir hovuch etar barin.
Ko'rinishdan do'zaxcha dahshati bor,
Odati qo'zib ketsa shunday torin[2]*.*

O'makang shunday qilib biroz vaqt
"Hoy-hoy" bilan odamlarni lol qoldirib,
Savdosi rivoj topdi chor tarafda,
Shu xilda boyidi u uyda yotib.

— Qoyilman, zap o'lan ekan-da! — dedim ichimda.

Yana aytishuv

Domlalik qilib o'rganib qolganligim uchun, Baliqboydan ketganimdan keyin "Yo'g'on yog'och" ovulining bolalarini "o'qitish" uchun yollandim. O'sha ovuldagi Do'smag'ambet meni yana bir aytishuvga qatnashtirdi. "Yo'g'on yog'och"ning bolalarini o'qita

[1] **O'makang** — O'mar akang *(tarj.)*.

[2] **Torin** — tor, xasis ma'nosida *(tarj.)*.

boshlagan vaqtimda, Jongisining "Qo'yqo'ra-Cho'yqo'ra" deb ataladigan ovulidan o'n ikki, o'n uch yoshlar chamasidagi Muhammadiyor degan bola menda o'qish uchun keldi. O'ylab ko'rsam, men o'qita oladigan bola emas ekan.

Yo'g'on yog'ochga qo'shni bo'lgan Qo'lboy ovulida mendan bir yil ilgari Ufadagi "Madrasayi oliya"dan kelib jadidcha o'qitadigan tatar o'qituvchisi bor ekan. Muhammadiyor shunda o'qibdi. Ilgari ham eskicha savodi bor, ziyrak Muhammadiyor bir yoz ichidayoq tatar o'qituvchidan hisobning to'rt amalini, jo'g'rofiya, tabiat, shuningdek tatar tilining "sarfi" va "nahv"ini o'qib, ulardan xabardor bo'lib qolibdi. Uning ustiga, arab tilining "sarfi" bilan "nahvi"ni o'qib, Drusoashshifohiya" kabi xrestomatiyasini yod olib, sal-pal arabchani ham bilibdi. Bular mening tushimga ham kirmagan fanlar edi. Shunday bo'lgach, Muhammadiyorni men qanday o'qita olay?.. U, mening chalasavod ekanimni ko'rarkan, uch-to'rt kun o'qigach, uyiga ketib qoldi. Men bilan hazillashaveradigan Do'smag'ambet bir kuni:

— Hech narsadan xabaring bormi? — dedi.

— Yo'q!

— Muhammadiyorning sen to'g'ringda aytib yurgan gaplarini eshitdingmi?

— Nima debdi?

— "Baloni ham bilmaydi" debdi. "Alifni tayoq deydi, o'z ismini hijjalab zo'rg'a yozadi" debdi. "U meni o'qita olmaydi, men uni o'qita olaman" debdi...

— Mayli nima desa deya bersin, — dedim men, sir bermagan kishi bo'lib, lekin ko'nglimga tugib oldim.

— "Nima desa deyaversin"mish. Shu ham gap bo'ptimi? — dedi Do'smag'ambet, — ertaga bu xabar elga yoyilsa, ko'rgan kuning nima bo'ladi? Yaxshi bo'lsang ham, yomon bo'lsang ham biz seni domla deb bilamiz. Emantoy o'g'lining ko'ngli to'lmagani bilan o'zimizning ovulga yarayapsan. Biz seni hech kimdan kam deyayotganimiz yo'q. Shu so'zni eshitgandan buyon g'azabim qaynab yuribdi.

— Nega g'azabing qaynaydi?

— G‘azabim nega qaynamasin? — dedi Do‘smag‘ambet achchig‘langan kishi bo‘lib, — bir ovulning domlasisan, allakimning haromi bir bolasi orqangdan yomonlab yursa, yaxshimi?

— Haromimidi u?

— Albatta haromi-da, — dedi Do‘smag‘ambet.

— Qanday qilib?

— O‘ndayning Tursunboyini bilasanmi?

— Bilaman.

— Shuning bolasi-ku, u?

— Qo‘ying-e!

— Rost. Oyisining ismi — Oysuluv. U Ementoyni nazariga ilmay, Tursunboyga borgan. Ikkalasi ham qarindosh, — Temir xalfaning avlodi.

— Shunday deng?!. — dedim men hayron bo‘lib.

— Shunday! Endi maslahat shuki, sen qarab o‘tirma. Unga qaratib qoyilmaqom qilib o‘lan yoz.

“Og‘zi kuygan puflab ichadi” deganlariday, Baliqboy ovulidagi aytishuvlardan og‘zim kuygan edi. Do‘smag‘ambetning hovliqtirganiga avval ko‘nmagan edim, orqamdan qolmay yurib, axiri menga bir o‘lanni beixtiyor yozdirdi:

Xat yozdim Muhammadiyor Ementoyev,
Sobitni bilmaydi deb yurtga yoyib —
So‘zlabsan har bir yerda o‘z holingcha,
Topdingmi shundan boshqa hech bir ayb?

Sendaylar so‘z qadrini bilsin qaydan,
Chalinding mana menga qaltis joydan.
Ementoy bolasiman deb yuribsan,
Tug‘ilsang ham “etak osti” Tursunboydan.

Tursunboy — zamonida bo‘lgan yigit,
Xushchaqchaq, o‘lanchilik qilgan yigit.
Shu yigitni ota derga hech qilma or,
Chunki u — nomusli va durust yigit.

G‘iybatchilar har narsa deb chalg‘itadi,
Ma’noli so‘z so‘zlagin farq qilib.

Men bilan avvalo sen bo'y tenglashtir,
O'rtoqjon, o'z otangni aniq bilib.

— Voy, seni qara-ya!.. bo'sh kelmaysan! — dedi Do'smag'ambet yozilgan o'lanni o'qib bo'lgach, qog'ozni buklab cho'ntagiga solarkan. — Bugun birovdan berib yuboraman. Lekin, yodingda bo'lsin, bizning bu Jongisi ovuliga o'lan dorigan. Boshi Ayapberganning Qayralabidan to Jamantoy birodar Tursunboylargacha o'lanchi. Ustingdan o'lan toshini yog'diradi. G'ofil qolma, shaylanaver. Lekin senga hech kim Baliqboy ovulidagiday tayoq olib yugurmaydi. Unga yo'l qo'ymaymiz. Biroq o'lan masalasida bizdan tegar yordam yo'q senga...

Do'smag'ambet cho'ntagiga solib ketgan o'lanning javobi kechikmay kelib qoldi:

Bu kishi qaydan chiqqan oqin bo'lib,
Yursa, hamki xayr so'rab faqir bo'lib.
O'z ismini zo'rg'a yozgan domlada hech
O'qirmi esi bor jon ma'qul ko'rib?

Yoshingdan oqin bo'psan o'lan yodlab,
Yozibsan bilganingni qog'oz xatlab.
Shu o'lanning ketidan yuravermay,
Nechun kerak domlalik ishin qilmoq?

Baxshining avlodisan, hech qizima,
Bu qiliq o'tirg'izar seni muzga.
Birovning otasiga kulmayoq qo'y,
Bo'lganday otang Muqon xatam-mirza!..

Qo'shni el emasmidi Siybon eli
Hovliqqaning sening nimaning eli?
Faqirlikda otang Muqon o'lgan yo'qmi,
Manglayidan sho'r arimay ikki ellik?

Sen mening qaysibir irischimsan,
Yo'lingni bil, bekorga sen yuribsan.
"Holin bilmas doim halak" deganlar-ku,
Gerdaymay holingni bil, durust yur, san.

— Jamontoydan boshqa kishining qo'lidan kelmaydigan o'lan bu! — dedi Do'smag'ambet. — Oyoq olishi xuddi shuniki. Endi shunga yopishish kerak...

— Qanday qilib?

— Jamantoyning Davlat degan og'asi bo'lib, uning Zakenoy ismli xotini bor edi. Davlat o'lgandan so'ng Zakenoyni Omontoy olgan. Davlatdan Esantoy, Amire degan bolalar qolgan. Amireni Jamantoy yosh kunida bola qilib asrab olgan. U ulg'aygach, to'y-tomosha qilib uylantirgan. Amire sal o'tmay vafot etgach, uning ayolini Jamantoyning o'zi olgan...

— E, qo'ying-e!..

— Rost. Hamma biladi. Agar ishonmasang so'ra.

— Voy, tavba, shundaymi-a?!

— O'sha vaqtda butun el ham norozi bo'lib Jamantoyga la'natlar o'qigan. Ko'pchilikning qarg'ishi qo'yarmidi, sal o'tmayoq kelini o'choqda qaynayotgan qurutga tushib ketib kuyib o'ldi. Jamantoy shundan keyingina tavbasiga tayandi. Mana, shunga o'lan yozish kerak...

Do'smag'ambetning so'ziga u qadar ishonmay, boshqa kishilardan surishtirib ko'rsam, bu voqeaning bo'lganligi rost ekan. Biladigan kishilarning aytishlariga qaraganda, uning o'lan yozganligi ham rost bo'lib chiqdi. Masalan, Do'smag'ambetning ovulidagi Dalaboy degan, o'zi qatori bir kishining uyiga Jamantoy borib qolgan ekan, uning ayoli Qoniy yaxshi ovqat qilib bermabdi.

Shunda Jamantoy unga:

Berar eding go'sht-u yog',
Kelib qo'nsa Tursunboy.
Ajratasan mehmonni,
Shu odating qursin-ay!
O'zi yolg'iz Dalaboyning
Ko'ziga cho'p solasan,
Tepangdan xudoy ursin-ay!.. —

debdi. Uning shunga o'xshagan o'lanlari ko'p ekan. Lekin Jamantoy xat yozishni bilmas ekan. Menga kelgan o'lan esa, xat

biladigan odamning o‘ylanib o‘tirib yozgan o‘laniga o‘xshardi. Do‘smag‘ambetga buni ham aytgan edim:

— Bu ham to‘g‘ri, — dedi u, — Tursunboy yordamlashgan. U kishi xatga usta. Aytishuvga juda ishqiboz odam. Uning To‘rsonni qoralab yozgan o‘lani butun elda shuhrat qozongan.

... Shunday bo‘lsa ham, Jamantoyga javob yuborish lozim deb topilib, quyidagi mazmunda o‘lan yuborildi:

Alqissa so‘z boshlandi Jamantoydan,
Bu Jamantoy yo‘lidan yomon toygan.
Yoshida bor buzuqlik shundan chiqqan,
Ko‘rinsa ham yosh bo‘lib, u qartaygan.

Kelinin olarmidi bo‘lmasa buzuq,
Bundan ortiq hayvonga qanday qiziq!
Garchi u million namoz o‘qisa ham,
Do‘zahda kuyar joni bo‘lib jiziq.

Na darkor bu so‘filik, ey qaltang bosh,
Gunohingni so‘filik o‘tay olmas.
Kuni-tuni ibodat qilsang hamki,
Do‘zaxga sendan boshqa odam bormas...

Aytishuv shunday davom etardi...

Abay o‘lanlari

1917-yilning boshlarida “Yo‘g‘on yog‘ochda” turadigan Sonsizboy domla bilan Do‘smag‘ambet Stapda to‘xtab, keyin qaytib kelayotganlarida, bir sandiq kitob keltirishdi.

— Bular nima? — deb so‘radi allakim.

— Esilboyning G‘alavitdini kitoblarini olinglar degan edi, — dedi Sonsizboy. — Odamlarga qo‘shilib men ham axtargan edim, nuqul qalin-qalin ruscha kitoblar chiqdi... Ularga men albatta tushunmasdim... Ozgina tatarcha kitoblar ham bor edi.

— Voy-bo‘y... Shuncha ko‘p kitob-a! — deb hayron qolishdi ba’zilari.

— Sen uning ko'pligini aytasan, qalinligini aytsang-chi, — deyishdi ba'zilari. — Shunchalik ham qalin kitoblr bo'lar ekan, voy tavba qildim-ey!..

— Shuning hammasini o'qiydimikin G'alavitdin? — deyishardi boshqalari.

— O'qimasa nega yig'adi?

— Shuncha kitobni o'qigan u mulla bo'lmaganda, biz mullo bo'larmidik!..

— Ko'p o'qigan odam osmonga uchib ketadi, — deyishar edi, osmonga uchib ketmay nima qilib yuribdi u?

Yurt shunday mulohaza qilishayotganda:

— Kitoblarni qo'ldan qo'lga uzatganlaring nimasi? Yig'ishtiringlar!.. Birov bir narsani olib ketib, sharmanda bo'larmiz! — deb Do'smag'ambet yig'ishtiray deganida, Jangbirboy chol birdaniga:

— Nimaga o'rtaga suqilasan? — deb unga yo'l bermadi, — nimaga qurshab olasan, tiliga tushunmaydigan kitoblarni?..

Chamamda yetmish-saksonta kitobning ichidan, muqovasi qo'lda ishlangan bir kitob meni juda qiziqtirdi. U — "Ibrohim (Abay) Qunonbayev o'g'lining o'lanlari" edi.

"Boymag'ambet aytgan Abay shumikin?" degan fikr keldi boshimga. Sog'ingan bir og'aynimni uchratganday, yuragim o'ynab ketdi... O'qiy boshladim... Dastlab o'qigandayoq kishiga rohat baxsh eta boshladi! So'zlari ko'nglimga yoqdi!..

Kitobni Sonsizboy domladan yalinib-yolvorib ikki-uch kunga so'rab oldim-da, uyimga olib ketdim... Kunduzi o'qidim!.. Kechasi o'qidim!.. Dalada o'qidim!.. O'qigan sayin o'qigim kelaverdi! To'qayevning o'lanlariga chalaroq tushunar edim, Abay o'lanlarida men tushunmaydigan so'zlar yo'q edi. Uning o'lani o'zim ko'rib yurgan ovul kishilarining hayotini tasvirlardi:

"Gadoy sho'rlik yuradi poda boqib,
O'tini yo'q isinsa olov yoqib,
Xotin urchiq yigirar, yung savalab,
Chakmon to'qir sovuqda yelka qoqib",

— "Bu mening ota-onam kabilar ekan" — deb yo'yaman o'zimcha.

"Bo'ronda ham to'ngmaydi boy bolasi,
Uy issiq, kigiz tutgan aylanasi.
Qarol o'g'li bosh egar xizmatida,
Pisand emas ko'z yoshi, oh-nolasi".

— "U bolaning biri menman, elda bunday qarol bolalari ham, boyning bolalari ham ko'p" — deyman ichimda.

"Pishiq kim deb so'rasang,
Shaharga borib uyalmay,
Yolg'ondan ariza bersa,
Ko'ringandan uyalmay.
Shivirdan o'zga siri yo'q,
Charvoga ham budi yo'q.
Yolg'on bilan g'iybatga
Oqib turgan xuddi suv!"

— "Bular Mashik, Mustafo, Nurtoza, Husayin, Salimlar" — deb yo'yaman o'zimcha.

"Bo'lis bo'ldim mana, ko'r,
Hamma molimni berib
Tuyada dum, otda yol —
Qolmadi yurt — elga sochib.
Baribir hech elimni
Ushlay olmadim mahkam.
A'yonlarim so'z qotsa,
Bosh egaman men shu dam.
Qashshoq so'zini chalg'ib
Chala tinglayman shunda ham".

— "Bular Altining Saduvi, Husayinning Birkasi, Aymishning Ibroyi, Kurkening Abubakiri" — deyman men.

— Bir go'zal qiz bo'libdi xon qo'lida,
Xon ham jonin berarkan qiz yo'lida;

Oltin-kumush, kiygani — shohi ipak,
Qutuchi qiz-kelinlar bor so'nggida.

Qo'ynimni, chol siypagan, qurt yesin deb,
Jar toshdan qiz qulabdi teran suvga.

Boy qartaysa, moliga berar chilvir,
Mol umrini yangratmas Xudo urgur".

— "Bu Qurimboyning Aymishi" — deyman men. Aymish saksonda, uning so'nggi ayoli esa yigirmada!.. Bu xotin hali "Jar toshdan suvga qulagani" yo'q. Biroq qulashi kerak, chunki Qurimboy avlodi uni osonlik bilan bo'shatarmidi?!. Qutulmasligiga ko'zi yetgan bechora juvon tirikchilik "g'ami"ni qilib, u to'g'rida mana bunday bir qiziq voqea bo'lganini ham eshitganman:

Bir kuni Aymishning xotini bilan yaqin bo'lib yurgan xizmatkorlaridan biri Aymish kecha-yu kunduz hotinini ko'z oldidan yiroqlashtirmaganini ko'rib, hiyla ishlatibdi-da:

— Ay aka, — debdi Aymishga, — har kuni kechasi birov keladi, o'g'ri bo'lsa kerak. Kim ekanligini bila olmay yuribman.

— Qaysi vaqtda? — debdi shubhalangan Aymish.

— El uyquga ketganda.

— Unday bo'lsa ikkovimiz bugun poylaylik!

— Bo'pti.

Qish payti ekan. Qosh qoraygach, xizmatkor yigit kurakni qor ustiga sanchibdi-da, unga to'nini yopib, o'zi eshik oldida turibdi. Aymish so'nggi xotini bilan boshqa yog'och uyda turarkan, kech bo'lishi bilanoq Aymish eshikka qulf solib kalitini cho'ntagida saqlarkan. Aytgan mahalda Aymish uydan chiqib qo'liga panshaha ushlab qo'raga kiribdi.

Shu paytda yigit lip etib uyga kiribdi. Aymish tashqariga chiqsa, birov tikka turganmish!..

"Ha, o'sha ekan!" — deb o'ylagan Aymish, tikka turgan "odamning" orqasiga panshaha bilan bir uribdi. Tikka turgan "odam" tap etib qulabdi. Urushga urib qo'yib: "Xap, o'ldirib qo'ydim" deb qo'rqib, Aymish uyiga qochganida, haligi yigit hech narsa bilmagan kishi bo'lib oldidan chiqibdi.

— Voy peshonam qursin, to'satdan qattiq urdim, o'ldimi, qoldimi, bilmadim! — debdi Aymish unga.

— Men xabar olay, — debdi yigit.

— Nima bo'lsa ham, yo'qot ko'zini! — deb aymish jo'nab qolibdi.

— O'lib qolibdi mana bu it, — debdi yigit Aymishning ketidan.

— Sharmanda bo'ldik desang-chi!.. Chirog'im, nima desang aytganingni qilaman!.. Hech kim sezmasin, yo'qot!..

Quv yigit Aymishni qo'rqitib, o'z nayrangiga ko'ndirib olish niyatida:

— "Kelma kezak kelar" deganlar. Menga ham ko'p yomonlik qilar eding. Shularning hammasini yuzingga solaman. Uryadnikka aytaman.

Shundan keyin: butun Qurimboy eli yopirilib ko'r, qani qutula olarmikansan! — debdi.

Xullas, xizmatkor yigit Aymishdan "aytganingni qilaman" degan va'da olibdi-da, o'ldirilgan "odam"ning ko'zini "yo'qotgan" bo'libdi...

Yolg'iz bu voqeanigina emas, Abay o'z o'lanlarida tasvir etganidek boshqa voqealarni ham topib bera olaman. Nazarimda, Abay o'z To'biqti avlodininggina emas, men yashayotgan ovullarning hayotini ham ko'rib yozganga o'xshardi.

Uning o'lanlari mazmunan shunday bo'lsa, badiiylik jihatidan ham yuksak edi!..

"O'lan so'zning podshosi, so'z sarasi,
Qiyindan qurashtirar er donasi.
Tilga yengil, yurakka issiq tegib,
Tep tekis pishiq kelsin aylanasi", —

deb yozilgan o'lani tili yengil, yurakka ham orom baxsh etardi. Haqiqiy o'lanlarni men uning o'lanlaridangina ko'ra oldim, sababi, bu o'lanlarda fikr siqilmay keng yotardi; misra, turoqlar ham sun'iy bo'lmay, balki fikr izidan tabiiy yo'sinda tug'ilardi. Zo'rma-zo'raki tuzilgan misra va boshqalarni hech bir o'lanidan topa olmaysan...

O'lanlari jon ozig'i bo'lgan Abaydan "Odam qanday qilsa yaxshi odam bo'la oladi?" degan so'roqning javobini topa oladiganga o'xshayman. Abayning maslahati shuki:

Ne iloj, yotga yollan, mol topib kel...
Moling bo'lsa siylamay turolmas el...

— "Rost", — deyman ichimda, — "ayniqsa, so'nggi misrada aytilgan fikri rost!" Chunki eldagi biladigan kishilarning so'zlariga qaraganda, bizning "besh bo'lis" deb ataladigan Kereyning eng boyi ham, eng obro'lisi ham Alti Kukenov. Bu yoshlik chog'ida gadoy bo'lib, bir tomondan savdo ishi bilan shug'ullanib, ikkinchi tomondan "Qizildagi buzoqqa" pul berish bilan boyigan.

Alti bilan bo'lislikni talashib, "Prasnov" deb ataladigan bo'lisning yarmini bo'lib olib ketib, "Tovzar" bo'lisi deb atalgan Sapining bolalari ham bir tomoni savdodan, ikkinchi tomoni kurashda o'lgan otasining xunini da'vo qilib olib boyigan.

Shu xilda boyib, elga "obro'li" bo'lgan kishilar to'lib yotibdi. Unday bo'lsa, — deb o'ylayman men, — obro'li bo'lish odamning o'zida emas ekan, uning boyligida ekan. Abayning aytgani rost:

"Moling bo'lsa seni el siylamay turolmaydi", lekin o'sha molni qanday qilib topish kerak? "O'ldiriladigan savdogar", yoki bo'lmasa, yo'qolgan pul" doim topilaveradimi? Topilmasa nima qilamiz?

Abay: "Yotga yollan, yot yerga ket, mol topib kel" deydi. Xo'p, buni ham qildik. Shuning bilan boyiy olamizmi? Agar undaylar boyisa: o'z elidan yoshligida ketib shahar boylariga, zavod-fabrikalarga yollanib yurganlar nega boyimaydi?! Men o'zim undaylardan talayini bilaman... Abay:

"Mehnat qilsang erinmay,
Qorning to'yar tilanmay!"

deydi. Boylarga yollanib yurib, kuni-tuni mehnatdan qo'li bo'shamaydiganlarning ham ko'pini bilaman. Shularning ko'pi, mol orttirish bu yoqda tursin, topganlari kiyimlari bilan ovqatlariga ham yetmasdi.

Abay:

"Mehnat qilmay topgan mol davlat bo'lmas,
Qor suviday bir zumda oqib ketar" —

deydi. Unday bo'lsa, mehnatsiz boyigan Kereyning yuqorida aytib o'tilgan boylarining mol-mulki nega "qor suviday bir zumda oqib ketmaydi?".

Shularni o'ylayman-u aqlim yetmaydi. Boyigim keladi. Lekin ko'z oldimda ko'rinib turgan boylik yo'q. Endi nima qilmoq kerak?..

Abayning yana bir fikri, — "o'qi, boshqani emas, ruschani o'qi, chunki dunyoning kaliti o'qishda" deydi. Bu fikrni menga Boymag'ambet bilan Junis ham aytgan edi. Rus maktabi qayerda ekanini ham bilaman, u — Stapda. Biroq unga borishga pul qani?!

Abay o'lanlarini o'qiganimdan so'ng shunday chuqur fikrlarga sho'ng'ib ketdim...

Qarab tursam, bu savollarni Abay ham o'z-o'ziga berganga o'xshaydi. Uning barcha o'lanlariga: "O'sha odam boylar tarafdorimi, yoki kambag'allar tarafdorimi" degan so'roqni bersang, "kambag'allar tarafdori bo'lsa kerak" degan fikrga kelasan, chunki uning aytishicha:

Qorni to'qlik,
Yumush yo'qlik,
Ozdirar odam bolasin.

Bundaylar kimlar? Albatta, boylar!.. Qorni to'q boylarning o'z xizmatkorlarini ezish bilangina qanoatlanmay, Abay aytganidek, o'zaro hokimlikni talashib yurganini talay marta ko'rdik. Bu ozish bo'lmay nima? Molini isrof qilib, hokim bo'lib mansabga mingach, bu chiqimini halqdan yulib olayotgan boylarga, Abay:

Xo'sh, qo'rqdi eling,
Qo'rqitadigan sening —
Hunaring qaysi, aytib ber!
El poylab seni,
Sen poylab uni, —
Qimir etkizmay boqib ko'r!

deb hatto ranjiydi.

...Lekin Abayning mungli o'lanlari qarigan chog'ida yozilgan edi. Yosh vaqtida, umidi alangalangan vaqtida yozgan o'lanla-

ridan g'ayrat bilan ishchanlikning, umid bilan talabning hidi anqiydi. Shunday ekan, hayot sahniga endigina kirib kelarkanman, Abayning qarigan chog'ida yozgan o'lanlariga ergashishim kerakmi, yoki umidli, yoshlik chog'ida yozgan o'lanlariga ergashishim kerakmi? Albatta, yoshlik chog'idagiga-da! Shu fikrning oqibatida 1926-yili birinchi marta nashr qilingan o'lanlar to'plamining boshidagi:

Ko'nglim muncha zoriqding,
Nimalarni o'ylanib?
Nega muncha hovliqding,
Gup-gup urib, shaylanib?
Biroq sendan ginam yo'q,
Nechun urding derga-da.
Hisob etmas, juda ko'p
Qayg'u-xasrat gavdada.
Maqsadingga intilib,
Parvoz qilding, yetmading.
O'qtalsang-da qilichday,
Nochor bo'lding, o'tmading.
Endi qayga borasan,
Yubormasa nochorlik?
Bilimni qaydan olasan,
Jahonga ibrat socharlik.
Qo'y, sen bunday zoriqma,
Ilgari yur, talab et!
Bunday parvoz qilmoqqa
G'ayratlan-u, shaxdam ket! —

degan o'lanni yozdim. Shundan so'ng Abayning asarlariga qiziqa boshladim.

Abay asarlarining ichida meni juda maftun etgani, — ruschadan qilgan tarjimalari edi. Abay ulug' rus shoirlaridan: Krilovning masallarini, Pushkinning "Yevgeniy Onegin"idan parchalar va Lermontov lirikalarini tarjima qilgan.

Tarjimasi juda yaxshi, ravon chiqqan bu asarlarning originalini o'qiy olmasam ham, yonimdagi, Sonsizboy domla olib kelgan

kitoblarning ichida "Sobraniye sochineniye" degan nom bilan Krilovning ham, Pushkinning ham, Lermontovning ham qalin-qalin kitoblari turibdi...

Biroq ularni men o'qiy olmasdim; o'qish, uni tushunish u yoqda tursin, harflarini ham bilmasdim. Faqat, ruscha katta kitoblarga, ularning birinchi betlariga solingan suratlariga qarab, qiziqardim xolos!..

Ruschani sal-pal biladiganlardan so'rasam, katta kitoblarning ba'zilari — she'rlarini Abay tarjima qilgan Krilov, Pushkin, Lermontovning kitoblari bo'lib chiqar edi...

Ularning she'rlari tarjimasiga diqqat qilsam, ajoyib she'rlar ekan!.. Shuning uchun ham ularni Abay o'lanlaridek sevib, yod oldim... Ayniqsa, Tatyana bilan Oneginning maktublarini!.. Men u maktublarni yig'in-to'ylarda o'zim biladigan kuylarga solib, do'mbira bilan aytib ham ko'rdim. Shunda ularning yoqimli ekaniga mengina emas, tinglovchilar ham hayron qolar, menga takror-takror ayttirar edilar.

Zo'r armonim shunda ediki, rus shoirlarining bu ajoyib she'rlarini o'z ona tilimda o'qiy olmasdim!

Abayning o'lanlarida Saltikov bilan Tolstoyning nomlari ham zo'r muhabbat bilan tilga olinardi. Olib kelingan kitoblar ichida, birinchi betida oppoq soqoli ko'kragini qoplagan kishining surati bosilgan edi. Ikkita-uchta qalin kitob bor edi. Ruscha o'qiy oladigan kishilar bu oq soqol odamni "Tolstoy" ekan deyishardi... "Abay aytgan Tolstoy shu bo'lsa kerak" deb o'yladim men. "Unday bo'lsa, uning yozganlarini ham o'qisang!.. nimalarni yozdi ekan u!.."

Pushkinning, Krilovning, Lermontovning nimalar haqida yozganligini Abay tarjimalaridan uncha-muncha bilaman. Ular ajoyib she'rlar edi!.. Fikrlari ham, uning go'zalligi ham joyida! Abay ham, To'qayev ham shuning uchun tarjima qilganlar-da ularni!.. "Eh, men ham shularni tushunib, o'qib, ular kabi tarjima qilolsam!.." Endi ulug' orzum shu edi...

Podsho taxtdan tushganda

Qadim vaqtlarda har ovulning o'ziga yarasha "oqsoqoli" bo'lar edi; ovul tashqarisida bo'lib turadigan ba'zi kengashlarga shu kishigina borardi. Shuning uchun uni ovul kishilari "otga minar" deb atashar edi.

U qadar boyligi ham yo'q, eng davlatmand deganda bir uyurlikkina yilqisi bor. Yo'g'on yog'och ovulining otga minari — Uvoqboyning O'mari edi; men shu ovulga boradigan yilim, ko'klam chog'ida, u vafot qildi-da, o'rniga o'zimizga tanish — shum Do'smag'ambet oqsoqol bo'ldi.

Boyligiga kelsak, uch-to'rttagacha qulunli biyasi, to'rtta sog'im sigiri, yigirmatacha qo'y-echkisi bo'lgan Do'smag'ambetning uyida u mollarini boqadigan kishi to'lib yotibdi: ellik besh-oltmish yoshlar chamasidagi otasi Itekboy bor; uning soqol-mo'yloviga hali oq oralamagan, hovuridan tushmagan yop-yosh kishi; uy-ichi ovqatiga chevar onasi Umsinoy bor; tani sog', g'ayratli yosh ayol Ayqon bor; tirsillab yetilib o'tirgan singlisi Rabig'a bor... Uyda ulardan ortadigan yumush yo'q. Shuning uchunmi, bilmadim, o'zining ishiga pishiqligidanmi, Do'smag'ambet doimo ot ustidan tushmay el oralab yurardi, uyiga onda-sonda bir kelib ketardi.

U, albatta bekorga yurmasdi. El ichida birovning birovga o'pka-arazi, yoki dov-janjali bo'lmay qolmasdi. U vaqtning bo'lislari, ovulnoyi, beklari, otga minarlari shunday ishlarni "bartaraf" qilmoqchi bo'lib oralab yurardi. Bu yurishning bir tomoni, Abay tili bilan aytganda, "xarom bo'lis, och biylarning" pora izlashiga, ikkinchi tomoni esa — qornini to'ydirishiga bog'liq bo'lgan tomonlardir. Elning butun noz-ne'matlari ana shularning og'zida edi. Kim bilan kim arazlashgan, kimda yaxshi ovqat bor, kimning so'qimi semizligini bilib, bu "quzg'unlarni" boshlab yurganlar — Do'smag'ambet kabi yulg'ichlar edi.

Shunday qilib, Do'smag'ambet el oralab yurdi, Yo'g'on yog'och odatdagidek kun kechirib turdi...

Bizning Shimoliy Qozog'istonning qishi har turli bo'ladi: ba'zan ayozli, bo'ronli; ba'zan esa — oftobli charog'on... Kim biladi deysiz, — qishi issiq bo'ladigan yoz durust keladi. O'tgan

yozda podsho hukumatining qozoq yigitlarini askarlikka olishiga bog'liq to'polonlar bo'lgani bilan, yoz tinch, shamolsiz, saraton-siz, yomg'irli, salqin bo'lib o'tgan; yer sero't bo'lgach, mollar ham yayragan, kuz ham uzog'roq cho'zilib, qor ham osoyishta yog'gan; elning mollari qo'raga keyinroq qamalgan, yilqilar yay-lovga chiqib faqat miniladigan otlargina qolgan. Bizning Kerey eli avliyo ko'rib, so'zlariga qulog'ini to'sib o'tiradigan Shag'iray va Qaliq degan hisobchilarning aytishicha, bu yilgi qish ham yozdek yaxshi kelarmish...

Haqiqatdan ham shunday bo'ldi. Birinchi yarmi o'n oltinchi yillarga, ikkinchi yarmi esa, o'n yettinchi yillarga doir bo'lgan o'sha qishning ham issiq kelganligi, yozning yaxshi kelishidan bo'lsa kerak, — fevral, mart oylaridayoq bo'g'oz mollar tug'a boshladi. Shu oylarda "yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" de-ganday, mol boquvchi odamlarning yozda yig'gan oziqlari tamom bo'lib "qiyinchilik" boshlandi. Shunday kezda mol qo'zilab, ba'zi kishilarning og'zi oqardi, bu qanday yaxshi!..

Chorvasi kam bo'lgani bilan, Yo'g'on yog'ochda o'ziga to'q, dasturxoni noz-ne'matlarga to'la uylarning biri Shaymardonning uyi ekanligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Qish bo'lib, bolalari men-da o'qiydigan ba'zi qashshoq uylarning oziqlari tugay deb qolgan paytda, Shaymardonning sigiri tug'ib sutga yolchidi. Shundan so'ng Ulbergan opa:

— O'g'lim, sen boshqa xonadonlarning mollarini tullaguncha biznikida turaver, hech qayoqqa bormayoq qo'y, — deb boshqa yoqqa yubormadi.

Boylargina bo'lmasa, kambag'alroq odamlar u vaqtda so'qimni oz so'yardilar-da, go'shtni to'g'rab sho'rva qilib ichar, mehmon-do'st odamlar esa, "birorta mehmon kelib qolib uyalib qolmaylik" deb, go'shtning yaxshi joylaridan mehmoniga saqlab qo'yardi. Shaymardonning uyi ham — shunday uylardan biri edi. Shuning uchun ham qish o'rtalarida Ulbergan opaning holi tang bo'lib, sho'rvani kamroq pishira boshlagan edi. Shunday paytda ikki sigi-ri tug'gan Ulbergan opa har kuni chog'roq qozonini to'ldirib qatiq ivitardi-da, tush paytida ovqat o'rniga tovoq-tovoq qatiq berardi, bizlar ichiga non to'g'rab yeb olardik. Shaymardonning yuvosh,

mo'min kishi ekanligi yuqorida aytilgan edi. U xotini, onasi, bolalari bilan, ayniqsa, Qo'kish, Bo'kis degan qizlar bilan, men bilan, hatto uyiga kelgan boshqa odamlar bilan ham hazillashib o'tirardi. Bir kuni:

— Shaymardon, hoy Shaymardon! — degan tovush eshitildi tashqaridan, — bu yoqqa qara!

O'sha vaqtlarda ovul rasmida bunday baland tovush bilan chaqirish — ne to'y, ne janoza kabi boshqa bir voqea munosabati bilan bo'lardi. Shularning qaysi biri ekanligini bilmay, shoshib qolgan Shaymardon: "Yopiray, bu kim bo'ldi ekan?" deb, derazadan qaradi-da:

— Do'sim! — dedi, "kim?" deb qo'rqqan onasiga javoban.

— Qaysi "Do'sim" — Do'smag'ambet.

— Ey, u jinniga nima bo'ldi shuncha baqirib. Nima balo bo'libdi? Bil-chi tashqariga chiqib!..

Shaymardon bilan tashqariga men ham chiqdim. Ostidagi oti terlab ketgan salt otliq Do'smag'ambet:

— Shake, suyunchi! — dedi Shaymardonga sevinch bilan.

— Xo'sh nima bo'pti?

— Hurriyat!..

— Nima deysan? — dedi Shaymardon, Do'smag'ambetning so'ziga tushunmay.

— Hurriyat bo'pti, hurriyat, hurriyat!..

— Ho'v, jin o'rgirov, — dedi Shaymardon, o'zidan kichik Do'smag'ambetni so'kib-so'zlab, — aytadigan bo'lsang, durustroq aytsang-chi aytadiganingni. Nimalar deb valdirayapsan?..

— Nega urishasan, Shake-ov, xushxabar olib kelgan kishini! — dedi Do'smag'ambet.

— Agar so'zingga tushunsam o'lay, nima deyapsan?

— "Hurriyat bo'pti" deyapman-ku axir.

— Aljimay uyga tush!.. Shunday ham hazil bo'ladimi, — deb yengil-yelpi kiyimi bilan chiqqan Shaymardon sovqotib uyga jo'nadi.

— Rost, Shake! — dedi Do'smag'ambet, — sabr qil, aytaman.

Shaymardon indamay uyga kirib ketdi. Men "kir-kir" deganimdan so'ng, Do'smag'ambet otdan tushdi.

— Ha, shapka, omonmisan? — deb u men bilan hazillashib ko'rishdi-da, uyga kirib ketdi. Men sal turib uyga kirsam, Do'smag'ambet ayrondan bo'shagan tovoqni Ulberganga qaytarib berib, mo'ylovini artayotgan ekan.

U mo'ylovini silab olgach:

— Shake, bormay qolma! — dedi o'rnidan turib Shaymardonga.

— Ko'ramiz, — dedi Shaymardon.

— Ko'ramiz dema, bor!

— Nima o'zi? — deb so'radim men, Do'smag'ambet chiqib ketgandan keyin Shaymardondan.

— U jinnining so'ziga o'zim ham tushunganim yo'q.

— Nima deydi!

— "Podsho taxtdan qulapti" deb vaysayapti.

— Qaysi podsho!

— Nikolay podshoni bilmaysanmi? —

— Ha, ha, xo'sh!..

— O'sha podsho taxtdan qulapti deb aljirayapti Do'sim. So'ziga tushunsam o'lay.

— Shu bolani kechqurun olaborgin, baribir chana qo'shib borasan-ku, — dedi Shaymardonga onasi.

— Ma'qul, agar borsam, — dedi Shaymardon.

— Ataylab chaqirgandan so'ng borgin-da, — dedi onasi.

— Qayerda bo'ladi? — deb so'radim men.

— Qoraterakda, — dedi Shaymardon.

— U yerda nima bo'lar ekan?

— "U yerga kechqurun G'alovitdin keladi, bo'lis keladi, ovulnoy keladi, majlis bo'ladi" deb ketdi haligi rasvo. Kim biladi, chinimi, hazilimi, u jinnining. U shunday qilib, odamlarni aldashdan ham tortinmas edi.

— Bu galgisi quvlik emas, — dedi Ulbergan, — boshqa bilan hazillashsa ham mayli, podsho bilan hazillashadimi u? "Elda eshitilmagan so'z ko'p" degan ekan. Podsho taxtdan qulapti degani qanday shumlik bo'ldi!!. Qoraterak deganimiz Samay urug'ining bir ovuli bo'lib, Yo'g'on yog'ochdan besh-olti chaqirim nariroqda edi; u yerda Samayning boy kishisi — Ayapberganning Qayralabi

turardi. Shu ovulga borish uchun Shaymardon kechga yaqin hozirlanib, qora-ko'k otini chanaga qo'shdi-da, meni ham olib jo'nadi.

— Qayrakengning uyida aziz mehmonlar bordir, — dedi u, Qoraterakka yaqinlashgach, — biz Jamontiq birodarlarning uyiga tushaqolaylik.

Kambag'al Jamontiq birodarning uyida choy ichib isinib olganimizdan so'ng, Shaymardon ikkovimiz Qayralabning uyiga ketdik. Ilgari biz ko'rmagan bu uyning atrofiga ot, chana sig'may ketgan edi.

Qayralabning qishki uyi ikkita ekanligidan xabari bor edi. Birida kichik o'g'li Qoziy bilan o'zi turardi, birida katta o'g'li Imoq turardi. Har ikkala uy ham chimdan yasalgan, Qayralabning uyi ikki xonali, keng, Imoqniki esa o'tovga o'xshash kichikroq uy edi. Ikki uy, ikki qo'raning yon devoriga taqalib solingan edi.

Ichiga fonar osilgan keng qo'rada fonarning g'ira-shira yorug'i bilan ko'p odam ko'zga tashlanib turardi. Shularning orasini yorib, Shaymardonga ergashib kelarkanman, Qayralib uyi eshiginining oldida yo'liqqan, shu ovulning hovliqma yigiti Boyg'utti:

— Sen qayoqqa borasan? Ket nari! — deb yelkamdan ushlab qoldi.

— Men bilan borayapti, — dedi Shaymardon unga.

— U yerda katta odamlar o'tiribdi, bu bola Imoqnikiga borsin, o'zing kiraver, — dedi Boyg'utti.

— Yo'q, men bilan kiradi! — dedi Shaymardon jiddiy turib. — Yur, o'g'lim, qolib ketma! — deb bir qo'limdan ushlab uyga olib kirdi. Uy ichi juda tiqilinch ekan. Dahlizdan o'tib bo'lmasdi. Shuning uchun ham:

— O'g'lim, sen shu yerda turatur, — dedi Shaymardon menga, — men to'r uydagi azizlarga salom berib chiqay.

— Men Shaymardondan qolib ketdim. Bu uy o'sha paytdagi elning standart uylaridan biri edi... Devorlari chimdan qurilib, tepasi yassiroq qilib yopiladigan bu uylar, agar boyning uyi bo'lmasa uzunligi taxminan o'n besh-yigirma metrcha, ko'ndalangi esa besh-o'n metrcha bo'lardi... Devori shunday tutash solingan uyning o'rtasi "Shuvalma" deydigan pech bilan bo'linib, u dahliz va to'g'ri uy bo'lardi. Ovqat dahlizda tayyorlanardi. Lampa

yorug'i har ikkala uyga birday tushishi uchun, o'rta devorda kichik teshik qoldirilardi. Odatda dahlizda pishiriladigan ovqat bugun yo'q ekan. Sababini o'zim ham fahmlab turibman... Juda hurmatli mehmonlar kelganda, o'tovi bor xonadonning ovqati o'tovda tayyorlanar ekan.

Shaymardon tushgan uyga o'tganda, men ham qisilib sham qo'yadigan teshikka yetdim-u, to'rni sinchiklab ko'zdan kechirdim. Eng avvalo issiq uyda sirtqi kiyimlarini yechib, kamzuli bilan bemalol o'tirgan yo'g'on gavdali, o'zimizga tanish Nurxo'jani ko'rib qoldim. U cho'qqaygan katta burnini ahyon-ahyonda bir qoqib, qizargan holda jiddiy o'tirar edi. Uning o'ng tomonida tatarcha do'ppi kiygan, ustida shahar odamlariga xos tikilgan kastumi bor, galstukli oq ko'ylak kiygan, oyog'ida oq piymasi bor, yumaloq ko'rkam yuzli, kichik ko'zli, kichik gavdali, o'ng betida oy tamg'asi bor yigit o'tiribdi... Shamnimi yoki issiqni yaxshi ko'radimi, shunday issiq uyda sirtiga yashil mata sirilgan yengil tulki jeletkasini yopinib olibdi... Boshimga: "G'alavitdin shu bo'lsa kerak" degan fikr keldi. U nimalarnidir so'zlab o'tiribdi, boshqalar esa boshlarini quyi solib uning so'zini tinglar edilar...

Nurxo'janing ikki qanotini qurshab o'tirganlarning ko'pini tanidim. Ular: Anastasin deb ataladigan urug'larning otga minarlari: Nurimbetdan, — Qipchoqboyning Rahimi, Imonqul, Qopsitdan, — Seytenning Muqoni, To'rabekning Boyjoni, Solmo'yin, Boytemir, Qurniboy, Soldatning O'smoni, Qurimboydan, — Nurxo'ja, uning bo'lis ukasi Ibroy, Temirbekning Toyjoni, Jangisidan, — Qayralab, Omontoy, Shakining Mo'ldaboyi, Ushmurining Sizdig'i, Shug'oyib mullalar edi...

"Azizlar"ga salom bergan Shaymardon tezlikda dahlizga chiqdi.

Har ikkala uyda g'ovur-g'uvur gap avj olgan edi. So'zning ko'pi "Podshoning taxtdan qulashi" haqida borardi. Qanchalik ixlos qo'yib tinglamay, baribir, men tushunadigan so'zlar emas edi. Qanday qilib tushunay, — mendan boshqalar ham biridan biri so'rab, — "mana bunday" degan ishonchli javobni hechqaysisi ham ayta olmay, har hil gap to'qishyapti.

— Qani, mehmonlarga osh tortiladi, ular bemalol ovqatlanishsin, tarqalinglar endi dahlizdagilar! — degan tovush eshitildi shu orada. Dahlizdagi kishilar endi tarqalishayotgan edi:

— Shaymardon, sen mehmonlarga osh tort! — dedi Boyqutti, u ham odamlar bilan chiqib ketayotganida, — yoningdagi mulla bolang Imoqning uyiga borib sho'rva ichar.

To'g'risini aytish kerak, Qayralab mirzaning uyi shu kuni yilqi etini mo'l-ko'l osgan ekan. Shuning uchun ham alohida tovoqda et yemaganim bilan, menga ham qanoatlanguday ovqat tegdi. Ovqatga emas, hangoma eshitishga qiziqar edim... "Podsho taxtdan qulabdi!.." Bu qanday so'z?! Qanday qilib qulagan?! Kim qulatgan?!.. Rostmi, yolg'onmi?!

Bu so'roqlarga "Qoraterak"dan qaytgandan keyin, Shaymardondan javob oldim:

— Meningcha, podshoning taxtdan qulashi yolg'on, — dedi u.

— Nega, Shake?

— Podsho qulasa, unga suyanganlarning bittasi qulashi kerak. Masalan, Qurimboy avlodi... Nurxo'ja. Shu yerning podshosi shu emasmi? Podsho qulasa, u nega qulamaydi? Qulashning o'rniga gul-gul yashayapti... So'zidan payqasam, ilgarigisidan ham haddidan oshib ketganga o'xshaydi.

— Qanday qilib?

— Shu vaqtgacha u ukasi Ibroyni bo'lis qilib, elni tashqaridan kuzatuvchi edi. Hozir mana, hurriyat bo'lganda, ikkinchi ukasi Qoziyni bo'lislikka ko'tarmoqchi.

— Kim aytdi?

— Hurriyatning bo'lisini saylash uchun, Esilboyning G'alavitdini chiqqanini ko'rdingmi?

— Ko'rdim.

— Ko'rgan bo'lsang, biz borguncha, yangi bo'lisni saylashga Qayralab uyida o'tirgan olchoqlar fatvo o'qib qo'yipti.

— Kimni?

— Boyxo'janing Qoziysini. Bilasanmi uni?

— Bilaman. Boyxo'ja Nurxo'janing ukasimi?

— Xuddi o'zi. Qoziy ham yosh, ham Ibroyga qaraganda ancha quv. Ko'rarsan, — elning og'zidan shimganini ham yuladigan

yulg'ichining o'zginasi bo'ladi u, saylanib olgach. Hurriyatning bo'lisi qanday bo'lishini odamlarga ko'rsatib qo'yadi u.

— Shake, — dedim men, — odamlar "Hurriyat, hurriyat!.." deyishadi, bu nima degani?

— Uning ma'nosini G'alavitdin aytib berdi, — dedi Shaymardon, — arabcha so'z ekan, qozoqcha ma'nosi: "erkinlik, ozodlik" degan so'zlarga to'g'ri kelar ekan, "yovuz podsho o'rnidan tushib, xalq erkinlikka, ozodlikka chiqdi" degan so'z ekan. Lekin Qurimboy avlodidan bo'lislik ketmay, elda erkinlik bo'larmikan? Shunga qaraganda, bularning "hurriyat" deb yurgani "quruq uyat" bo'lib chiqmasa deb qo'rqaman.

— Nima dedingiz? — dedim men, so'nggi "hurriyat" degan so'zni Shaymardon "quruq uyat" deb aytarkan.

— "Quruq uyat" degan qozoq so'zini bilasanmi? — dedi Shaymardon, "Quruq" bilan "uyat" so'zlarini atayin bo'lib.

— Bilaman-ku, — dedim men, — uyat keltiradigan ishni aytishadi "quruq uyat" deb.

— Shunday ekan, "podsho taxtdan quladi, hurriyat bo'ldi" deganlari bilan, "hurriyat, hurriyat!" deb hovliqishning natijasi "quruq uyat" bo'lib qolmasa edi, deb qo'rqaman.

Podshoni quvgan botir

Shaymardonning: "Bularning hurriyat deb hovliqishlarining natijasi quruq uyat bo'lib qolmasa edi" degan so'zini sal o'tmay barcha ovullardagi yuvosh kishilarning hammasi ham aytdi. Shunday demaslikka choralari ham yo'q edi. "Podsho taxtdan qulabdi" degan bilan, u taxtda ekanligida ovul kambag'allarini talab yeb yurganlar hali o'z mansablarida edi. Ularning ilgarigi zo'ravonligi ortgan bo'lsa ortgan ediki, kamaymagan edi.

Shunday ahvol yuz bergan bir paytda, Yo'g'on yog'ochda turadigan bizlar siyosat olamida nima bo'layotganini o'z ovuliga ot ustida kelib ketadigan Do'smag'ambetdan eshitar edik.

— Podshoning o'rniga, Kerenskiy degan birov podsho bo'libdi, — deb keldi u ovuliga kunlardan bir kuni.

— Kim ekan u Kerenskiy? — deb so‘radi odamlar.

— Otasi Mekalayning otchopari bo‘lib o‘tgan ekan. O‘zi Mekalay bilan tengdosh ekan, ikkalasi ham maktabda birga o‘qib, yoshligidan do‘st bo‘lib o‘sgan ekan. Yurtning o‘zidan norozi bo‘lganini sezib, Mekalay taxtdan ataylab tushibdi-da, o‘z o‘rnini do‘stiga beribdi. Keyin yurt tinchigach, taxtga o‘zi o‘tirmoqchi ekan, — deb javob berdi Do‘smag‘ambet.

Otga minarlar shunday hovliqqanlari bilan, ovul kambag‘allari bu “hurriyat”ni ozodlik deb bilishmadi. Haqiqiy ozodlikni istagan xalq, bo‘lib o‘tgan inqilob haqida ertaklar yaratdi. Bunga o‘sha paytlarda o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, qulog‘im bilan eshitgan bir voqeaga bog‘liq ertak guvohdir.

Derazasini qo‘y qorini bilan qoplagan, tomiga o‘rnidan turgan kishining boshi tegib qoladigan kichik bir chim uyda o‘t yoqib kengashayotgan besh-olti kishi, qo‘zi va echkilarning ma’rashidan bir-birlarining so‘zlarini eshitmas edilar.

— Bay-bay-bay... jag‘ing qarishgurlar-ey!.. Zorlanib qoldinglar-ku! — dedi shu uyning ayoli, qo‘zi bilan echkini qarg‘ab.

Bu so‘z hatto uy egasi Jangbirboyga ham tegib ketdi. Uning bu kichkina uyiga ikki bolali molning umrida birinchi marta sig‘ishi edi. Ilgari uloqli echki ba’zan sig‘ib, ba’zan sig‘mas edi. Bu yil qishda qo‘shni ovuldagi boyga yollanib, mehnat haqiga qo‘zili qo‘y olmoqchi bo‘lgan edi. Boy Jangbirboyga bergan qo‘yining qo‘zisini boqishni og‘rinib, kecha unga:

— Qo‘zili qo‘yingni endi uyingga olib borib tashla, Jangbirboy. Qo‘zisini uyingda boq! — degan edi.

Peshonasida oq qashqasi bor, jajjigina qo‘zi bilan oqsoq qo‘yni ko‘rsatib boy: “Shuni ol” deganda, qo‘yga ko‘ngli to‘lmasa ham, nishonali qo‘zini irim ko‘rib, boydan biya so‘rab minib, qo‘zini qo‘yniga tiqib, qo‘yni oldiga o‘ngarib Jangbirboy uyiga kelgan. Bu — 1917-yil aprel oyining o‘rtalari bo‘lib, qor endigina eriyotgan payt edi.

Jangbirboyning ilgarigi ovqati faqat echkining sutiga so‘k solib ichish bilan o‘tardi. Unga bugun oqsoq qo‘y qo‘shilgach, xotini qo‘yni ham, echkini ham qoqlab sog‘ib, uloq bilan qo‘zini ichkarigi uyga qamagan edi.

"Tong otguncha shuni kavshab turaturar" — deb quroq tashlagan edi. Qurib qolgan quroqni yosh mollar hidladi-da, og'izlariga ham olishmadi. Onalarini hech bo'lmasa bir marta cho'lp emmagan qo'zi, uloqlar iliq, totli sutni qo'msashardi.

— Onalarini ham uyga kirgizaqol-chi! — dedi Jangirboy ayoliga, — onasini emsin jonivorlar, so'zni so'zga qo'shmadi-ku.

Xotini esa Janbirboyga qarab qichqirdi:

— Nima, uyda qop-qop uning, qoplagan qurut-moying to'lib turibdimi, bo'yiniari turnaday ingichka besh-oltita mayda-chuyda bolang ertaga nima yeydi? Omborda don-duning qoplanib turgan kishiday so'zlaysan-a?!

Bu so'zga javob qaytarolmagan Jangbirboy indamay pastga qararkan, shunda:

— To'ybola! — dedi Jangbirboyning ukasi Jilqiboy, — ayronni ertaga bizning uydan olarsan, qo'zi bilan uloqni onalariga emdir! Hikoya eshitaylik deb kelgan edik, ataylab kelgandan keyin eshitib ketaylik-da!

To'ybola ko'pchilikning so'zini qaytara olmay, echki bilan qo'yni onalari yoniga qo'yib yuborgan edi, qo'zining ham, uloqning ham ovozi o'chib, jimjit bo'lib qolishdi. Tarashaning yorug'i kichkina, qorong'i uyni yorita olmadi. G'ira-shira qor ustida esayotgan shamol derazaga mixlangan qo'y qornini goh ichkariga, goh sirtga itarar, ba'zan qorinning bir chetidan g'irillab esgan shamol uyga kirib, zo'rg'a yonayotgan tarashaning alangasini so'ndiraverar edi. U uyda sham yo'q, yoritarliq olov pechkaning ichida ham yo'q edi. Cho'g' bilan tutayotgan tarashani To'ybola puflay-puflay charchaganligidan boshi aylandi.

— Xotin! — dedi Jangbirboy, — shamol qurg'ur ham qutirib ketdi-ku, derazaga choponimni to'sib qo'y!

To'silgan chopon shamolni o'tkazmadi. Tarasha gurullab, yarqirab yona boshladi. To'ybola pechka ustida qurg'ab turgan qayin polyoning bittasini qo'liga olib, maydalab yorib, biri tugaganda ikkinchisini yoqib o'tirdi.

Salqin uyda yelkasiga kiyimini yopinib olgan kishilar Jangbirboyning og'ziga tikilishdi. Ko'rpa o'rnida to'nda o'ralashib, boshlarini chiqarib turgan besh-olti bolaga To'ybola:

— Yotinglar! Nima bor senlarga! — deb olayib qaragan edi, bolalar ham tindi-yu, lekin yotishmadi.

— To'ybola, mayli, qo'yaver, hikoya eshitaylik, — dedi allakim, — o'tiraversin, bular ertaga xirmonga chiqishmaydi-ku, axir. Uxlashar. Qani, Jangbirboy gapir!..

Jangbirboy hikoyasini boshlaganda, uydagi qo'zi bilan uloq sutga to'yishmasa ham ma'rashmay, uydagilarni bezovta qilmaylik deganday va hikoya eshitgilari kelganday, quloqlari tikkayib, ko'zlarini tarashaning lip-lip yonib turgan oloviga tikib, qimir etishmay qarab turishdi. O'sha hikoyaning mazmuni quyidagicha edi:

"Podsho qirq qavat qo'rg'on ichida turar ekan. Tashqi qo'rg'oni toshdan, undan keyingisi temirdan, undan keyingisi misdan, undan keyingisi jezdan, undan keyingisi kumushdan, undan keyingisi oltindan, undan keyingisi gavhardan, undan keyingisi marjondan, undan keyingisi yoqutdan, undan ham keyingisini kim biladi, har holda qimmat narsalardan bo'lsa kerak. Aytmoqchi bir qo'rg'onini molning suyagidan, bir qo'rg'onini esa odamning suyagidan, qubbalarini esa, nuqul bosh suyakdan o'rnatibdi, deyishadi.

Shu qirq qo'rg'on ichidagi podsho yashaydigan oltin saroyning aylanasi oylik yo'l, ko'ndalangi kunlik yo'l bo'lsa kerak. Saroyning atrofi turli meva daraxtlari bilan qoplangan bo'lib, uning o'rtasida oydin ko'l bor ekan; unda oqqush, g'ozlar, oltin kumush baliqlar suzib yurarkan; saroyda qish bo'lmas emish, shamol bo'lmas emish. Qirq qo'rg'onini butunlay berkitib turadigan, quyosh nurini to'smaydigan bir turli chodir bor ekan; izg'irinli qish kunlari shu chodirni yopib qo'ysa, sovuq ham o'tmasmish, cho'p boshi ham qimir etmasmish. Saroyning atrofi esa, doimo yashnagan yoz ekan!..

Yigitlarni askarlikdan bo'shat, ariza beramiz deb, turli ellardan kishilar ketdi, deb eshitgan edik-ku. Shular necha oy, necha kun yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, podsho turadigan Ketrampor[1] shahriga zo'rg'a yetibdi. Podshoning saroyiga ketrampor shahridan borilarkan. Izlab borganlar so'rab yurib, saroyni topib, ariza berish uchun ruxsat so'rashsa, qorovullar qo'yishmabdi. U

[1] Peterburg.

tomonda ham kun shunday izg'irin, sovuq bo'lsa kerak. Tuf degan tupuk yerga tushmaydigan qahraton ayozda ular necha kun, necha tun qo'rg'on darvozasi oldida termilib turishibdi.

Shunday qilib, kuta-kuta darmonlari qurib, ish bitmasligiga ko'zlari yetgach, yana Ketramporga qaytishibdi.

Haligilar Ketramporga kelib, bir uyga tushibdi-da, podsho bilan so'zlasha oladigan kishini izlashibdi. Haligi uyda yoshi yuz yetmishga kelgan qari rus bor ekan. Rus bo'lsa ham, dunyoda uning bilmaydigan narsasi yo'q, dono kishi ekan. Shundan so'ragan ekan, u debdi: "Bu shaharda podsho bilan so'zlasha oladigan faqat bir kishi bor. Oti Raspekov" (Rasputin bo'lsa kerak.S. M.)

Haligi chol aytibdi: "Raspekovga borib kelinglar, og'zi katta kishi edi, tushib ketib, chiqolmay qolmanglar, ehtiyot bo'linglar!"

Nachora? Qo'rqib-qo'rqib, Raspekovga borsa, og'zi ajdahoning og'ziday keng, ko'zi laganday, peshonasi kapaday, burni tepaday, tanovi o'ngirday, eti chandirday, soqoli quloch-quloch, a'zoyi-badani tirishgan, ko'ringan bilan urishgan, gavdasi egri-bugri bir kimsa ekan.

Raspekov borgan odamlarga: "Mayli men podshoga uchrashtiray, lekin, menga ming million oltin beringlar", debdi. Shuncha oltinni qayoqdan topsin...

Shunday qilib, bo'shashgan holda Raspekovdan umidini uzib, huzuridan chiqib ketayotgan ekan, Raspekov ularni chaqirib olib: "Senlarday kishilarning bu shaharda turishiga ruxsat yo'q, ertadan qolmay ketmasanglar yetti qavat yerning ostidagi qirq qulochli zindonga soldirib chiritib yuboraman" debdi.

Raspekovdan qochgan, nihoyatda shoshgan baxtsizlar uylariga kelib, bir yuz yetmish yashar cholning oldida yig'lashibdi. Shunda cholning bularga rahmi kelib: "Ey, bechoralar, — debdi. — Raspekov haydayman desa, hayday oladi, unga bu shaharda kuchi yetadigan yolg'izgina odam bor, ismi Bolshevik[1]. Shunga borib uchrashinglar, ehtimol, ko'z yoshlaringga rahmi kelar!.."

Choldan Bolshevikning yo'l-yo'rig'ini surishtirib, izlab topibdi. Bolshevik yo'lovchilarning hol-ahvolini so'rab, afti-angorini

[1] **Bolshevik** — odam ismi.

o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach, rahmi kelib, podshodan jahli chiqibdi. So‘ngra, eng katta o‘g‘lini chaqiripti.

Lenin[1] uning oldiga kelgach, Bolshevik aytibdi: “Chirog‘im, mana bu musofirlarga juda jabr bo‘libdi, podshoga borib huquqini olib ber”.

O‘g‘li otasining so‘zini yerga tashlamay, yo‘lovchilarga ergashib bormoqchi bo‘libdi.

Lenin ham Bolshevikning o‘ziga o‘xshab alp gavdali ekan. Yo‘lovchilarga ergashib boradigan bo‘lgach, g‘ayrati qo‘zg‘ab, temir qalpoq, jez telpak kiyib, ustiga burama temir sovut kiyib, olmos shamshir bog‘lab, yog‘adigan bulutday gurkirab tavakkal qilib jo‘napti!

Qorovullarni tor-mor qilib, qo‘rg‘onning oldini tozalagach, darvozani ochay desa ochilmabdi. Kaliti yo‘q ekan. Darvozaning qalinligi qirq quloch po‘latdan yasalgan ekan. Nari-beri itarib ko‘rsa bo‘lmabdi, Lenin achchig‘lanib butun kuchi bilan itargan ekan, darvoza qulabdi. Hullas, qirqta qo‘rg‘onning qalinligi qirq gazdan keladigan darvozalarini ham tepib qulatib, yo‘lovchilarni ergashtirib saroyga kirib boribdi.

Bu voqea tush paytida bo‘libdi. O‘sha vaqtdagi podshoning qiladigan ishi: daryo, ko‘lga qarmoq solib, oltin baliqlarni tutib o‘ynash ekan.

Lenin podshoni axtarsa, har kuni o‘tiradigan joyida u yo‘q emish!..

Ketrampoda: pastak bo‘yli, hiylakor, itarsa qulaydigan Menshevik degan bir sehrgar, fitnachi odam bor ekan. Podsho har yili unga otning boshiday oltin berib, menga kim qasd, kim do‘st, shuni payqab yur der ekan. Leninning podsho oldiga bormoqchi bo‘lganini o‘sha hiyla bilan bilib olib, bir kun ilgari xabar beribdi, podsho saroyning hech kim topmaydigan bir joyiga yashirinipti.

Shundan so‘ng, Lenin qorovul chol orqali podsho yashiringan yerni topib, eshigini ochsa, ichida podsho, Raspekov, Menshevik uchovi inga tiqilgan kalamushdek, bo‘yinlari qisilib, shumshayib o‘tirishganmish. Leninni ko‘rgach, qutlari uchib bo‘riday uvlab, yig‘lab yuborishibdi!

---

[1] **Lenin** — odam ismi.

Qadim zamonda podsho itning terisiga muhr bosib, askar olmayman deb qozoqlarga va'da berib, qasam ichgan ekan. Haligi yo'lovchilar o'sha qasam yozilgan terini cho'ntaklariga solib olib borishibdi!

Yo'lovchilar haligi qasamni ko'ziga ko'rsatganlarida, podshoning yuzi qora bo'lib, azbaroyi uyalganidan betidan olov chiqib ketipti. Shundan so'ng Lenin podshoning ko'z oldida: "Qasam yo'qolmasa, ot chopilmaydi!" — debdi, — "o'z qasamingni o'zing oyoq osti qilding" debdi, "sen va'dasizsan, odam emassan, itsan!" debdi, — "senday zolim podshoning elga keragi yo'q, el bundan buyon rahbarlikka xohlagan kishisini qo'yadi, sen endi taxtdan tushding" debdi.

Shunday qilib, Lenin: Podshoning, Raspekovning, Menshevikning boshlariga no'xta solib, endi mol bo'ldinglar deb, yuzlariga qoramoy surkab, no'xtaning bog'ini yo'lovchilarga berib, oltin saroydan uchalasini ham yetaklab olib chiqib, Ketramporga olib borib, ko'cha-ko'yda yetaklab, odamlar o'rtasida sharmandasini chiqaribdi. Shunday qilib, Lenin yurtga jar solibdi: "Endi podsho bo'lmaydi, podsho tarafdori bo'lgan kishilarning hammasi mana bu mal'un podshoday sharmandayi sharmisor bo'ladi, boylik kambag'allarning qo'liga o'tadi".

Jangbirboyning ertagini zo'r ixlos bilan tinglagan odamlar, podsho o'rnidan tushgani bilan uning quyqalari hali tugatilmaganidan afsuslanishibdi-da:

— Ha, bizning shu holimizni birov Leninga borib aytarmikan! — deyishibdi.

— Leninning o'zini ko'rsak edi! — deyishibdi xo'rsinib ular...

Dostobren

Podsho taxtdan tushdi, mening tug'ilgan yerimda hukumat tepasiga Kolchak o'tirdi. Uning siyosati ham podshoning siyosatidan boshqacha emas edi. U ham qozoq mehnatkashlarini qonli qilichining kuchi bilan bo'ysundirib turdi. Qozoq boylarining inqilobiga qarshi bo'lgan Olash-o'rda partiyasi Kolchakka yor-

dam berdi... Men hali xat yoza olmasdim. O'qigim kelardi, lekin pul yo'q edi. Mening bu ahvolimga rahmi kelib, hozirgi Lenin ordenli keksa o'qituvchi Hamit Mahmudov meni o'qishga oldi. Olti ovul Siybondan qirq-ellik bola o'qir ekan. O'quvchilarning ichida o'qishni "Alifbe"dan boshlagan kichik bolalar ham bor, men qatori: Rustamboy, Andixo'ja va Bayazit, Juken, Nurqon, Zubayza kabi bolalar ham bor edi, ular mening nazarimda, ko'p dars o'qishgan...

Men o'qishni "Alifbe"dan, hisobni 1+1=2 dan boshladim. Bolalarning ichida oldin kirganlari ham, keyin kirganlari ham mendan oldinda. Faqat menga qarashga o'qituvchining vaqti yo'q, shuning uchun o'qituvchi meni: Bayazit, Nurqon kabi, mendan kichik bo'lganlari bilan o'qishda oldinda borayotgan bolalarga qo'shib qo'ydi...

"Yarmidan o'qish" oson deydilar, lekin menga dastlab sira ham oson bo'lmadi, bunga birinchi sabab, — zerikkan bolalar menga hisobni, imloning belgilarini xato tushuntirib, mazax qilar ekanlar... Shunday bo'lsa ham, ulg'ayib yigit bo'lib qolgan edim; bir oyda "Alifbe"ni o'qib bitirdim-da, katta bolalarning qatoriga qo'shildim.

Hamit ruschani kam bilardi. Shunday bo'lsa ham u mening iltimosimni qaytarmay, o'z bilganicha ruscha o'qitdi. Yanglishmasam, Hamitning menga o'qitgani Smag'ulov degan odamning ruscha-qozoqcha lug'ati edi. Lug'at ikki kishining bir-biri bilan so'zlashishi usulida tuzilgan edi. Masalan, o'qituvchi mana bunday so'zlarni ruschalab so'rasa, ruschalab quyidagicha javob berishim kerak edi:

— Otkuda yedesh?
— Iz aula.
— Kuda yedesh?
— V derevnyu.
— Zachem yedesh?
— Muku pokupat.
— Skolko stoit pud muki?
— Odin rubl pyatdesyat kopeyek.
— Net, eto dorogo, sbavte nemnogo.

— Na dengi dorogo? Mogu obmenit na koju"...

Shu tahlitda Smag'ulovning "lug'ati"ni yod olib yurganimda, bir kuni boshida qorako'l mo'ynadan tikilgan bo'rki bor, egniga ruscha tikilgan, yoqasi qora barqutli tuya jun palto kiygan, bo'ynida ipak sharfi, oyog'ida qiyshiq poshnali etigi bor, men tengi bir yigit bizlar o'qiyotgan yerga kelib qoldi; ko'rinishidan xuddi G'abitga o'xshardi.

— G'abit degan ukam, — deb tanishtirdi uni menga o'qituvchi. — Stapdagi visshenachalnoye uchilishening oltinchi sinfida o'qiydi...

Tushundim; birinchi marta ko'rganim bilan, uning haqida ko'p eshitganman. G'abit men bilan ruscha so'zlashib ko'rgan edi, men uning birorta so'rog'iga ham javob bera olmadim. Lug'at bo'yicha so'ragan edi, men faqat so'zini yod olgan yerlarimgagina javob bera oldim.

— Hali ekzamen berishga yaramas ekan, — dedi G'abit meni sinab ko'rib.

O'quvchilar may oyining oxirlarida ozod bo'lishdi-da, men Jaylig'ondagi Bo'latboy pochchamnikiga ketdim. Pochcham yo'tal kasaliga chalingan ekan. Ahvollari og'ir edi. Shu ovulga bir kuni ovulnoy Mashik keldi, yonida xatchisi bor. U G'abit edi.

— Mahmudning mana bu o'g'li yetilgan ekan, — deyishdi Jayilg'onning kishilari. — Shavvozning o'rischaga ustaligini-yey!.. Qo'li qog'oz betida yo'rg'alab ketadi!.. Ayniqsa, ariza yozish bilan dostobren[1] yozishga kelganda-chi, ajoyib!

Bo'latboy meni urishdi.

— O'qidim, o'qidim deysan, — dedi u, — nima o'qiding? Eng osoni — dostobrenni ham yoza olmaysan!.. Qozoqning o'zing qatori bolasini qara-chi, yoshligidan xatchi bo'lib, boy bo'lislarning orasiga kirib, birovning bermaganini olib, yemaganini yeb, ichmaganini ichib yuribdi. Hamma foyda shunda: arizani ham, dostobrenni ham pul olib yozadi.

"Dostobrenning nusxasini yozdirib olay-chi" degan xayolga keldim-da, G'abitdan iltimos qildim. U bir varaqqina qog'ozga bunday deb yozib berdi:

[1] Udostovereniye so'zining buzib aytilgani. *(Tarj.)*

UDOSTOVERENIYE

Dano sie kirgizu Tauzarskoy volosti, Petropavlovskogo uyezda, Akmolinskoy guberni, 2-go vverennogo mne aula..... v tom chto on imeyet sobstvennuyu domoroshennuyu loshad, masti gnedoy, griva na obe storoni, pravoye uxo szadi ivernem, levoye uxo sverxu podporoto, posedelnie podpari, na bryuxi podpori.

Chto i udostoveryayetsya podpisyu i prilojeniyem kazennoy pechati.

Aulniy starshina *Pisar*
(Podpis) *(Podpis)*

Buning o'zbekchasi:

Ushbu qog'oz berildi qozoqqa: Tovzar bo'lisi, Petropavlovsk uyezdiga qarashli, Oqmo'la gubernasidagi 2-nchi ovulning ..... ga shu sababdankim, uning qaramog'ida o'zi boqib o'stirgan oti bor, to'riq yoli ikki tomonida, o'ng qulog'i orqasidan o'yilgan, chap qulog'i ustidan tilingan, orqasining ikkala tomoni ham oqqoptal, qornining ikki tomonida ham ayilning belgisi bor.

Ushbuning rostligiga qo'l qo'yib, g'aznaning muhrini bosaman.

Ovul starshinasi *Mirzasi*
/Imzo o'rni/ */Imzo o'rni/*

— Shu qog'oz hamma molga ham yaraydimi? — dedim men.

— Albatta, — dedi G'abit.

Qog'ozni cho'ntagimga solib uyga keldim-da, yozda bolalarimizni kelib o'qit, degan Esenoy ovuliga va'da berib, o'zim Jamonshubarga qarindoshlarimni ko'rib kelgani jo'nab ketdim.

Men borsam ovulimizning kishilari Stapda bo'ladigan Japroq bozoriga jo'nashmoqchi bo'layotgan ekan, lekin sotiladigan mollarga dostobren yozadigan kishi yo'q ekan.

— Men yoza olaman! — dedim.

— Qo'y, sen qayoqdan bilasan bunday o'qishni? Dostobren yozadigan sen kimsan o'zing! — deb ba'zi kishilar urishgan edi, ba'zi birlari:

— Bu ham o'qib yuribdi deyishgan edi, buni ham sinab ko'raylik. Nima ham qilaolarding, ovulnoy olis, — deb uncha-muncha odam dostobrenlarini menga yozdirishdi.

Men qo'limdagi tayyor nusxasidan bemalol ko'chirib beraverdim, — bozorda sotiladigan yilqilarning bari: "to'riq, yoli ikki tomonida, o'ng qulog'i orqasidan o'yilgan, chap qulog'i ustidan tilingan..." bo'lib ketaverdi...

... Bozor tarqalmasdanoq Jamonshubordan ot olib borib sotuvchilarning ba'zi birlari qochib kelishdi.

— Ha, tulpor ot omonmi? Nega erta qaytding? Moling o't-madimi? — deb so'radi odamlar. Shunda:

— "Biya tugul, bosh qayg'i" — deb javob berdi bozorchi, — mol sotish u yoqda tursin, o'zim zo'rg'a qochib qutuldim.

— Nega?

Qarab tursam, sotiladigan yilqilarning ichida, ko'ki ham, jiyroni ham, qashqasi ham bor bo'lib, ularning hammasi dostobrenda "to'riq" bo'lib, bozorda yurgan uryadnik ularni "o'g'irlik mol" deb shubha qilib, bozorchilarni ushlab qamab qo'yibdi; ular pora bilan zo'rg'a qutuldi. O'shalarning ba'zilari meni urmoqchi ham bo'lishdi.

— Bilgani shu bo'lsa nima qilasan, — deb ba'zilari meni urgizmadi. Lekin "tayoq etdan, so'z suyakdan o'tadi" deganlariday, achchiq so'zlar meni tayoqdan kam qiynagani yo'q. "Bunchalik nodon bo'lgandan ko'ra, o'lganim ortiq" deb xo'rligim keldi, lekin o'lgim kelmadi, bilgim keldi...

Askar so'rovchilar

Hamitda o'qib savodimni chiqarganimdan keyin, To'rsan boyning ovuliga borib o'qituvchilik qildim.

To'rsanning boshqa bolalariga qaraganda, menga Arab ancha yaqin edi. U vaqtlarda adabiyotdan tushuncham kam bo'lgani bilan, Arab menga o'z xususiyati, qilig'i, yurish-turishi jihatidan haqiqiy shoirga o'xshab ko'rinardi. Shuningdek, u bilan maslahat-

lashganda yoki u muzika chalganda men undan juda rohatlanardim...

Arabning uyi u qadar hashamatli bezatilmagan edi. Uning ayoli Donishman Nurxonning qizi bo'lsa ham, uning ustiga ko'p dunyo bilan tushsa ham, To'rsan shu paytda bir qizini erga uzatayotganida, bechora Arabning ayoli olib kelgan qimmatbaho mol-dunyolarning hammasini shu qiziga berib yuboribdi. Arabning uyidagi qolgan mol-dunyolar — bir vaqtlar ichiga mol-dunyo to'ldirilgan, lekin hozir bo'shab qolgan katta sandiqlar edi.

O'sha sandiqlarning bittasini ochgan edi, uning ichida To'rsanning boshqa bolalarida yo'q narsalar chiqdi. Ular: gazeta, jurnallarning yig'ilgan sonlari edi. Shularga qarab o'tirsam, 1911-yildan boshlab Troitsk shahrida chiqqan va 1916-yili yopilgan "Ayqop" jurnalining, 1913-yili Orenburgda chiqib, 1917-yildan so'ng yopilgan "Qozoq" gazetasining, 1917-yildan boshlab Semeyda chiqqan "Sariq orqa" gazetasi bilan "Abay" jurnalining, 1918-yildan boshlab Qiziljarda chiqqan "Uch yuz" va "Yosh azamat" gazetalarining birinchi sonidan boshlab keyingi sonlarigacha to'liq yig'ilib, har bir yilning sonlari alohida kitob qilib muqovalangan ekan... Yana bir sandiqda ko'pgina tatarcha badiiy adabiyotlar bor ekan...

Menga qiziq tuyulgan kitoblar — tatar tilidagi emas, qozoq tilidagi, tosh bosmada bosilgan kitoblar edi, chunki men ularga bemalol tushunardim-da. Shuning uchun ham To'rsanning uyiga har juma kuni kelib turadigan "Sariq orqa", "Yosh azamat" gazetalari va "Abay" jurnalining hamma sonlarini qoldirmay o'qish bilan birga, haligi muqovalangan gazeta va jurnallarni ham qaytadan o'qiy boshladim...

Bu gazetalar va jurnallardan olgan boshqa ma'lumotlarim bilan bir qatorda, "Olash-o'rda" degan partyaning qanday kelib chiqishini, qanday tashkil topganini, qaysi vaqtda qanday majlislar o'tkazilganini, unda qanday masalalar ko'rilganini va qanday qarorlar qabul qilinganligini bilib oldim. Bu so'zni eshitishganda, ular quturgan nor tuyaday bo'kirishardi, og'zilaridan oq it kirib, qora it chiqardi.

"Qozoq" gazetasining xabar berishicha, 1917-yilning dekabr oyida Orenburgda Olash-o'rdaning butun Qozog'iston syezdi

o'tkaziladi. Bu syezdda "Olash militsiyasi" nomi bilan qo'shin tuzish haqida alohida qaror qabul qilinadi. Qarorda ko'rsatilishicha, qo'shinning umumiy soni o'n uch ming besh yuzta bo'lishi kerak, oblastlarga taqsim qilganda: Bo'kaydan mingta, O'roldan — ikki mingta, To'rg'aydan — uch mingta, Oqmo'ladan — to'rt mingta, Semeydan — bir ming besh yuzta, yetti suvdan — ikki mingta; bularni o'qitish-o'rgatish va boqish xarajati, syezd qarorining ko'rsatishicha, 68960000 so'mdan iborat bo'lishi kerak...

Bunday qaror bo'lganini el ichida faqat To'rsanning o'ziga o'xshash ba'zi boylarning xonadonlarigina bilmasa, boshqa ko'p uylar bilmasdi, chunki butun Siybon ovulida, faqat To'rsan ovulidan boshqa gazeta oladigan ham, gazeta o'qiydigan ham, gazeta o'qitadigan ham bir kimsa yo'q edi. Shuning uchun el ichida: "Bu askarni qachon so'rar ekan?" deb Arabgina bezovta bo'lardi. "Soldat" degan so'zni bir baloday ko'radigan qozoqlar: "Ey jag'ing qarishsin, yomon so'zni aytma" deb koyishardi.

Odamlar Arabni koyiganlari bilan, Olash-o'rda o'z qarorini bajarishga kirisha boshladi, bu harakat 1918-yilning bahoridan boshlanib, gazetalarda bu haqida bosilgan maqolalar ham ko'rina boshladi. Gazetalarning tushuntirishicha: "Bolshevik xavfidan" qutulish uchun Olash militsiyasini tuzib, elni qo'shin orqali saqlashdan boshqa chora yo'q emish...

Qiziljarda chiqadigan "Yosh azamat" gazetasining yozda bergan xabariga qaraganda, taxminan avgust oylarida, Oqmo'la oblastining Ko'kchatov va Qiziljar uyezdlaridagi qozoq bo'lislarining majlislari o'tkazilmoqchi bo'lib, unda Olash militsiyasiga qozoq yigitlarini olish masalasi ko'rilmoqchi bo'lgan, majlisga Orenburgdan, Ombidan, Qiziljardan Olosh-o'rda "hukumatining" bosh arboblari kelmoqchi bo'lgan...

Iyul oyining oxirlarida yuqorida aytilgan majlisning bizning Oqqusoq bo'lisida o'tkaziladiganligi ma'lum bo'ldi. Uning bo'lisi — millioner Altining o'g'li Sadvoqas edi. Biladigan kishilarning so'ziga qaraganda, nomi aytilgan ikki uyezdda qozoq bo'lislarining soni yigirma ikkita edi.

Shularning hammasidan ham majlisga odamlar kelishi lozim edi. Ulardan tashqari Olash-o'rdaning rahbarlari ham kelardi...

Bunchalik ko'p odamni kutib olish haqida bir kun ilgari so'z bo'ldi. Bu kengashga To'psanning katta o'g'li Shaqon ham chaqirildi. Uning xabar qilishicha Alti hoji:

— O'n bo'lsin, yuz bo'lsin, undan ortiq bo'lsin, o'qigan azamatlarni men o'zim kutaman, hech kimdan ovqat ham, ko'rpa-to'shak ham, idish-tovoq ham so'ramayman. Qolganlarni boshqalar kutib olsin, — debdi.

Boshqalar ham shunga qaror qilishib, har bir boyga: mehmonlarga so'yadigan mol, oziq-ovqat, ko'rpa-to'shak taqsim qilishibdi...

Sal o'tmay: "Olash azamatlari Qiziljardan otlanibdi" degan xabar ham kelib qoldi. To'rsanda: "mehmonlardan ilgariroq kelsin" degan xabarni olib chopar keldi... Shu vaqtgacha o'qituvchilikdan tashqari, To'rsanga men aravakashlik ham qilardim; shu sababli tarantasga "Shaqonning ko'k yo'rg'asi" degan otni qo'shib To'rsan bilan birga jo'nadim.

Biz Altining ukasi Oqish degan boyning uyiga tushdik. Unda Kerey, Uvoq urug'idan: To'rsanga o'xshash bir necha boylar bor ekan...

Bizga qiziq tuyiladigani, o'zimiz biladigan To'rsanga o'xshash ovul boylari emas, Olosh-o'rdali o'qimishli odamlar edi. Shuning uchun ot bo'shatilgandan so'ng o'tga qo'yiladigan mahalgacha men Alti uyiga ketdim. Ikki ovulning orasi yaqin edi.

"Qadrli" mehmonlarni uzoqdan qarshi olish uchun Alti bir necha otliq odamlarni tayyorlab qo'ygan ekan; ularni boshqaruvchi — bizning elda bir joyda: "cho'qingan hoji", ikkinchi joyda "tikoyoq hoji" deb ataladigan, Makkaga uch marta ziyorat qilgan, o'zi Olash-o'rdaning a'zosi oblay Ramazonov edi. Bu kishini men birinchi bor ko'rishim, lekin u to'g'risida ko'p eshitganman. Ta'rifini yetkazadigan kishilarning so'ziga qaraganda, u "yetti tilni bilardi", "yuragi tog'dan ham, toshdan ham qaytmasdi", "faqatgina Kerey avlodining emas, butun qozoqlarning jasuri" deb, shunchalik ta'rifi ketgan Oblayni Altining uyida ko'rsam: zo'r gavdali, qirra burunli, qalin qora mo'ylovini soqoliga tutashtirgan, soqolini bir tutam ixcham qilib pardozlagan, gavdali qora kishi ekan...

Mehmonlar ko'ringan vaqtda xabar berish uchun, Alti ovulidan besh-olti chaqirim uzoqlikdagi "To'liboy" degan rus posyolkasiga chopqir otli kishi qo'yilgan ekan... Bir vaqt o'sha otliq chopib kelib: "keldi!" deb xabar berdi. Tayyor turgan salt otliqlarni olib, boshida qora qalpog'i, ustida ruscha paltosi, oyog'ida fabrichniy chegren etigi bor Oblay jo'nab ketdi... Kimdir, Alti ovuliga yig'ilgan odamlarga:

— Hoy, tarqalinglar, tez-tez!.. Kishilar kelayapti... To'rga chiqmanglar! — deb quvlab, shovqin solgani bilan "o'qigan azamatlarni" ko'rish uchun to'planishgan odamlar tarqalishmadi, shularning biri — men edim...

Bir mahal "To'liboy" tomonidan quyuq chang ko'tarildi... Mana, chang yaqinlashib qoldi... Mana, ikkita-ikkitadan ot qo'shilgan izvoshlar ham ko'rina boshladi... Ular atrofida pavonadek uchib salt otliqlar ham kelmoqda... Ana, ular o'zlari uchun tikilgan o'tovlarga yetib ham kelishdi... Ana, shaharcha kiyingan odamlar qator-qator izvoshlardan tushayaptilar... Ana, ularni boshqalardan ilgari otidan sakrab tushgan Oblay uyga kirgizayapti... Biz ajablanib qarab turibmiz... Lekin ko'p turolmadik.

Oblay uydan tez chiqib, baqirib qozoqchalab so'kdi-da:

— Haydanglar mana bularni, — dedi to'planishgan bizlarni ko'rsatib. Kimdir birov:

— Haydagan bilan ketishmaydi, — deb javob qildi.

— Nima deyapsan? — dedi Oblay baqirib, — shuni ham so'z deb aytayotibsanmi? Qamchining ostiga solinglar!.. Ketarmikin, ketmasmikin...

Quturgan bir necha yigit ot ustida hamda yayov qamchi olib yugurishganda, to'planib turganlar birdaniga qochishdi... Men ham qochdim...

Oqish ovulining narigi tarafidagi tepaga o'qimishli odamlardan boshqa mehmonlar uchun atab o'tovlar tikilgan ekan. Kechqurun shu o'tovlarga aravali, salt otli mehmonlar to'planisha boshladi. Biladigan kishilarning aytishicha, Ko'kchatov va Qiziljar uyezdidagi ikki bo'lislikdan bo'lis boshiga besh-oltitadangina obro'li kishilar kelishi kerak ekan. "Obro'li"lari albatta, bo'lislar, otoqli boylar, biylar edi... Agar shu hisobdagi kishi kel-

sa, yigirma ikki bo'lisdan kelgan odamlar yuz ellik-ikki yuzdan oshmasdi. Mana bu kelayotgan odamlarning hisobi yuz emas, bir necha yuz kelardi!..

O'sha kun kechgacha mehmonlarni kutish bilan o'tdi. Bu kutish kechasi bilan ertalabgacha, ertalabdan kechgacha cho'zildi. Shuning uchun ham, bu vaqt ichida kengash bo'lmadi.

Bizlarga, albatta, ovul-ovullardan kelayotgan kishilar tansiq, chunki bu kishilar, biladigan odamlarning aytishiga qaraganda, bir chekkasi Ombiga tushadigan, bir chekkasi Oqmo'la bilan Ko'kchatov uyezdlariga qo'shiladigan yerlarga boradigan, g'arbiy O'bag'an o'zani bo'yidagi ovullardan kelar edilar. Shularning orasida ba'zilarini Otig'ay, Qorovul urug'ining otga minarlari, ba'zilarini esa Qanjug'ali va Qurlevining otga minarlari, ba'zilarini esa Kerey, Uvoqning otga minarlari, birini falon bo'lisning avlodidan, ikkinchisini falonchi dvoryanindan, falonchi boylarning avlodi... Ba'zilarini esa, oqsuyak xonzodaning avlodi deb har kimni har turli ta'riflashayotir... Shularning birini ko'rish biz tugul, chollar uchun ham qiziqarli edi.

— Voy tavba, quloq eshitgan narsani ko'z ko'radi degan so'z rost ekan, "falonchi bo'lis", "falonchi biy" deb eshitganimizda, shularni ko'rishni orzu qilardik, mana, endi ko'rdik ham! — deb ular hayron qolishardi... Shunday bo'lsa ham, mehmonlarni kutishga boshchilik qilib yurgan odamlarning otga minarlari: Qo'paboyning Ismoni, Omongeldining Mashigi, Qunto'qning Shokiri, Meshitboyning Bolaponiga o'xshagan mag'rurroq kishilar, uzoqdan kelgan mehmonlarning egar-jabduqlarini va ust-boshlarini, ularni aft-basharalarining nuqsonini topib, ba'zilarini haddan tashqari maqtab, ba'zilarini esa yerga urib masxara qilib kulishib yuribdi... Buning ustiga, ular charchashgan, chunki ular chamalagan "yuz" mehmonning o'rniga minglarcha mehmon kelgan. Shu atrofdagi uy-qirlarga odam sig'ishmay ketgan... Boshliqlarning fikricha, shularning hammasini ham ranjitmay kutish kerak edi. Bunday qilmaganda, janjal chiqishi mumkin edi... "Buning chiqimi boshimizdan oshadigan bo'ldi" deb hamma ranjir, bo'lislar bilan ovulnoylar va biylar bilan boylar: "Yig'ilmasin-da, yig'ilgandan so'ng kutmasdan turolmaysan, bu bir mushkul ish bo'ldi biz

uchun. Buni butun el birgalashib ko'tarishimiz kerak", deb davlatmand kishilarga bir tomoni o'tinch, bir tomoni zo'rlab yuklamoqchi bo'lardilar...

Olosh-o'rdalilar kelgan kuni ertasiga:

— Azamatlar elning oqsoqol kishilari bilan kurashamiz deyishdi, o'zlari kelishmoqchi edi. Alti hoji: "Sizlarning yo'rig'ingiz boshqa, oqsoqollarning o'zlari kelib ko'rishsin" deb ruxsat bermadi, sizlarni chaqirib keldim; o'zara maslahatlashib, urug' boshiga bir kishidan yubora qolinglar, — degan xabar keldi.

Bizning Siybon urug'idan To'rsangina bormoqchi bo'ldi. Har urug'dan shuncha odamdan yig'ilib, ikki uyezddan ellik-oltmish odam bo'ldi. Ular arava bilan, salt ot bilan Alti uyiga qarab jo'nashdi...

Olosh "odamlari" oldiga otlangan oqsoqollar qaytib kelishguncha, boshqa kishilar har xil ovoza tarqatishdi.

— Ularni bekorga chaqirgani yo'q, — deyishdi ular, — ko'pchilik bilan maslahatlashguncha, avvaldan kelishib olmoqchi... Mana qarab turinglar, ular va'dalashib keladi.

— Nimani? — deb so'radi ba'zilari.

— Nimani bo'lardi? — deb javob berdi ular, — qudachilikka kelishgani yo'q-ku olosh "azamatlari", askar so'rash uchun kelishgan...

— Oqsoqollar ko'ngani bilan biz ko'namizmi, — deyishardi ko'pchilik duv etib, — ko'nsa, o'z bolalarini bersin. Ilgari, 1916-yili bizni bir marta sotgan boylar bilan bo'lislarning endigi nayrangiga biz ko'nmaymiz. Va'da bersa berar, bizni bu safar ko'ndira olmaydi!

— Rost, to'g'ri, — deb chuvvos soldi xalq...

Qaysi yig'inga borsang ham so'zlari mana shu. Hammasining ham aytadigani: "Olosh-o'rda u yoqda tursin, uning bobokaloni kelsa ham beradigan askarimiz yo'q. Qanday qilib beramiz? Nima yaxshilik ko'rdik, deb beramiz? Mekalay zamonini yomon desak, Kolchak bilan Olosh-o'rda ham yomon bo'lib chiqdi. Ilgari zo'rlik qilar edi, hali ham zo'rlik. O'zlarigina rohat umr so'rib, kambag'al bolalarini o'qning oldiga ko'ndalang qilishlariga yo'l qo'ymaymiz!.."

Xalq Muqishning oldiga: "Ertaga javob bergan vaqtingda, oqsoqollarning emas, bizning so'zimizni aytasan" deb shart qo'yadi. Muqish "aytolmayman" desa, xalq: "Nega aytolmaysan?" deb, avvalo darra bilan biroz uradi-da, so'ngra: "Agar shu biz aytgan so'zni aytmas ekansan, birinchi galda sening uy ichingni, keyin oloshingni ham tugal so'yamiz" deydi unga... Ahvol shunday ekanligini tushuntirib, Muqish oqsoqollardan:

— Xalqdan qo'rqayotirman, aytganini qilmasang, albatta, haligi so'zining ustidan chiqadiganga o'xshaydi... "Ko'p qo'rqitadi, teran cho'ktiradi" deb bekorga aytmaganlar. Men chinakamdan cho'chib qoldim. So'zga boshqa bir odamni chiqarib, meni bo'shatsanglar nima qiladi? — deb o'tindi.

Olosh odamlaridan bir-ikkitasi so'zlagach, majlisni boshqarib, hammaga so'z berib turgan Oblay hoji:

— Xo'sh, xalq! — dedi baqirib. — O'qimishli azamatlarning so'zi tamom bo'ldi. Eshitadiganlar bo'lsa yana so'z yetarli. O'qigan azamatlarga javob berish uchun navbatdagi so'z sizlar vakil qilib saylagan Muqish oqsoqolga beriladi...

Muqish o'rnidan ko'ngilsizgina, erinchoqlik bilan turib, Oblayga:

— Shu yerda turib so'zlasam ham maylimi? — dedi.

— Yo'q, bo'lmaydi, oqsoqol, — dedi Obloy, — xalqning ko'ziga ko'rinib so'zlash kerak, aravaga chiqmay ko'rinmaysiz.

— Ko'rinib baraka topay deb turganim yo'q, — dedi Muqish, — shunday qilib, ikki so'zning qaysi birini yoqlay?

— Muqish og'a, nima deyapsiz, dovdirayapsizmi? Uzoqdan kelgan qadrli mehmonlarning so'zini aytmay, qora qarg'aday chuvullashgan nodon xalqning so'zini so'zlamoqchimisiz? Ayting topshirilgan so'zni!

— Aytaman-ku, agar aytkizsa! — deb Muqish og'ir xo'rsinib oldi-da, bo'sh tarantasning ustiga sudralib borib zo'rg'a chiqdi.

— Oblaydan topshiriq olgani bilan, u aytgan so'zdan boshlashga qo'rqdimi, bilmadim, — Muqish tarantas ustiga chiqib olgandan keyin:

— Eeey, xalq, — deb so'zini boshladi, — ikki so'z bor, shuning qaysisidan boshlashimni bilmay turibman...

Muqishning nima uchun so‘zlayolmay qiynalib turganligini xalq sezganday:

— “Ko‘p og‘iz biriksa, bir og‘iz yo‘q bo‘ladi” deganlar. Ozchilikning so‘zi qachon amalga oshgan edi, ko‘pchilikning so‘zini so‘zla! — deb har chekkadan chuvullashdi.

Xalq ichida bu so‘z momoqaldiroqday gurullab, atrofga keng yoyilib borib tingach, “aqlli” Muqish bu yerda chechanlikning foydasi yo‘qligini sezdi-da:

— Ikki xil so‘z bor, xalq, — dedi, — “el og‘asiz, to‘n yoqasiz bo‘lmaydi” deganlariday, el og‘alarining so‘zlari... Ular...

— Bo‘ldi, uyog‘ini aytma, — deb chuvullashdi xalq, — u so‘zlar bizga ma’lum, — sen, mana bu xalqning so‘zini ayt!..

Qiy-chuv ko‘tarilib, pasaygan vaqtda, Muqish qovog‘ini solib:

— Azamatlar, — dedi u olosh-o‘rda odamlariga qarab, — xalqning so‘zi qisqa, ularning javobi: “Militsiya bo‘lsa ham, askar bo‘lsa ham, beradigan yigitimiz yo‘q” demakdir.

— To‘g‘ri!.. Shunday!.. — degan ovozlar ilgarigidan ham jaranglab eshitildi...

— Azamatlar, — dedi Muqish yana olosh-o‘rda odamlariga, — endi men aytadigan so‘z qolmadi, qolgani bo‘lsa o‘zlaring aytinglar!..

Muqish hali aravadan tushmasdanoq xalq: “Bizning ham so‘zimiz tamom!” deb o‘rinlaridan turaboshladilar...

Shu paytda Miryoqibning rangi-ro‘yi o‘chib, ikki ko‘zi qon talashgan holda, bezgak turgan yo jin urgan odamday o‘rnidan titrab turdi-da, qoqila-suqila bosh tarantasning ustiga chiqa boshladi...

U titragan gavdasi bilan tarantasning ustiga zo‘rg‘a chiqib, kuchi boricha, og‘zidan ko‘pigini sachratib: “Hoy, olosh!” — deb baqirganida, duv ko‘tarilgan olomon tevarak-atrofga tarqalib ketdi.

Bu to‘polondan ko‘tarilgan qo‘rg‘oq yerning quyuq changi tumanday bo‘lib atrofni qopladi... Qalin chang ostida qolgan olosh-o‘rdachilar daqiqa sayin yerga cho‘kib ketayotganday tuyulardi...

Ovuldan jo‘nash

Sentabrning oxirlarida boy ovulidan ruxsat olib, Ombiga o‘qishga borishga hozirlandim. Biroq ustimda tuzukroq kiyimim, cho‘ntagimda pulim yo‘q edi. Qayoqdan olay?..

Tug‘ilgan ovulimni esladim; u yerda Hasan hojiga omonat tariqasida berib qo‘ygan pulim bor edi, shu esimga tushdi; borib shuni so‘rab olmoqchi bo‘ldim-u, Sulaymon pochchamdan ot so‘rab minib, Jamonshuborga ketdim. Borsam, qarindoshlarim: “Sobit bir kunini ko‘rib ketdi” deb o‘ylab, Hasan hojidagi pulimni olib kerak-yaroqlariga ishlatib qo‘yishibdi. Ulardan pulimni so‘rasam, avvalo: “Ertaga qalin berib uylanasan-ku, o‘shanda qo‘shib berarmiz” deb, hazil qilishdi-da, men jiddiy turaverganimdan keyin: sening kelishingni bilganimiz yo‘q, hozir pulni qayoqdan olamiz! — deb koyishdi.

O‘z pulimdan umidim uzilgach, qarindoshlardan yo‘lga xarajat so‘ray boshladim, lekin ellik xonadonli Jamonshubordan siniq chaqa beradigan kishi topilmadi; turmushi nochorlar: — “Chirog‘im, hech narsamiz yo‘q edi” deb ahvollarini tushuntirishdi, badavlatlari esa: “Kuningni ko‘rib tinchgina yuravermay, sang‘ib yurishning nima keragi bor senga?.. “Hayit otliqqa, to‘y-to‘nlikka yarashadi” degandek, senga o‘qishni kim qo‘yibdi... Ombiga borib o‘qimasang, shu yerning o‘qishi yetmaydimi senga!.. Yoki sang‘ib, o‘liging dalada qolib, bizga isnod keltirmoqchimisan? Valpajringni o‘qima!.. Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!..” deb jerkib tashlashdi.

Meni faqat Shayingina qo‘lladi. “Tavakkal qilib jo‘nab ket”. “Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra”, “Er ozig‘i bilan bo‘ri ozig‘i yo‘lda” deganlaridek, ajoyib yigitsan, o‘qib yurib yumush qilsang ham kuning o‘tadi. Avvalo bu ishni o‘ylama, o‘yladingmi tavakkal qil, maqsadingdan qaytma! — dedi u.

Mullag‘ozi yordam bergisi kelgan edi, biroq otasini ko‘ndirolmadi. O‘z cho‘ntagidan besh so‘mgina pul chiqdi. Unga Qo‘r qori besh so‘mgina qo‘shdi; shunday qilib men, yordam so‘rab borgan ellik xonadonli og‘aynimdan o‘n so‘m pul undirib keldim. Shayinning bergan maslahatlari menga qanot bog‘laganday bo‘ldi: “Xarajat topilsa ham, topilmasa ham, baribir, o‘qishga ketaman!” — deb qattiq ahd qildim.

Xarajat masalasiga so'nggi umidvor kishilarim — ikki pochcham: Sulaymon bilan Bo'latboy edi. Bo'latboy: "Endi nima qildim, qo'limda hech narsam yo'q edi" deb ahvolidan zorlandi, Sulaymon bo'lsa — Jamonshubordagi boy qarindoshlarimning so'zini takrorlab urishib berdi. Opalarim ba'zan:

— Yolg'izim-ov, sang'ib qayoqqa borasan? Orqangda qolgan bo'tang yo'q, bir tovoq oshdaysan, to'kilsang tamom bo'lganing!.. Ko'p qizdan keyin tug'ilgan yolg'iz arzandamiz eding, sho'rlik otangning nomini yo'qotmoqchimisan? Borma, ukam! Elda sendan boshqa hech kim o'qish izlayotgani yo'q. To'rsanning o'g'li bilan tenglashmoqchimisan? U nima qilsa ham yarashadi. Uning kiyimi ko'p, kissasi pulga to'la. Sen-chi, nimangga ishonib ketayotibsan? Bir yerda ochdan o'lishgami? — deb yig'lashardi.. Keyin yana:

— Tilga kirmaysan. Bu qanday qiliq? Ajal sudrab ketayptimi?! — deb qo'yishardi. Biroq qarorim-qaror, ko'nglim to'q edi.

Shu paytda Mustafo, Qo'shaba urug'idan Bolg'aning O'mari degan boy bilan quda tushib, to'y boshlab yubordi. O'mar o'g'liga so'ratgan Badig'ul degan qiz opam Zavredan tug'ilgan bo'lib, farzandsiz Mustafo yosh kunida asrab olgan. Quda tushar vaqtida Badig'ul o'n bir-o'n ikki yoshlar chamasida edi.

— Bechora baxting bor ekan, — dedi menga Bo'qpos degan yigit, bekorga ham yetim qo'zidek zorlanib yurar eding. Endi mana bu qudalarga o'lan aytib, xizmat qil! Kuching kelsa, bosh qudalarni maqtab o'lan yoz, shunda ular senga pul berishadi...

— O'lan yozolmasman...

— Unday bo'lsa, bilgan o'lanlaringni aytib ber...

— Ha, mayli,

— Men tayyorman!.. Senga yordamimni ayamayman...

Quda tushishga nuqul boylar kelgan ekan... Kechqurun Mustafoning katta uyi odamlar bilan liq to'ldi. Buqpos meni:

— O'sha bola Ombiga o'qishga bormoqchi bo'lib yuribdi, — deb qudalar bilan tanishtirdi-da, xarajatimning yo'qligini aytdi.

— Ol, uka, xizmat qil, uyog'ini yurting o'zi biladi, — dedi u.

— Pul yig'moqchi bo'lsa elga borsin, xizmati yoqsa ko'ramiz, — dedi qudalardan biri.

— Yashavor, uka! — dedi Buqpos.

Ovqat pishguncha og'zim o'landan tingani yo'q. Bo'qpos o'rtaga ro'mol yozib, tarelka qo'ydi. Men: "Qambar botir"ni aytib bo'lgan paytimda, tarelkaga bir tangalab, yarim so'mlab, bir so'mlab pul tusha boshladi. Endi: "Qiz Jibek"ni aytdim. Pul ko'paya boshladi, sevinib o'tiribman!.. Bir vaqt:

— Shu qaqshayotganing kim? — deb so'radi Esonlining o'g'li O'spon.

— Jamonshubordagi Muqonning o'g'li, — dedi allakim.

— Haligi, menga o'lan yozgan shu ekan-da, — dedi O'spon, yonboshidagi yostiqdan boshini ko'tarib, uning jahli chiqqanligi sezilib turar edi, bunga bergan pullaring harom! Qaytib olinglar pullaringni!

— Shu haromi edimi?! — deyishdi bir necha quda chuvullashib, — sen pulni qaytib olishni aytasan, O'saka, bundan o'z holicha yurmaydigan haromining burnini urib pachaqlash kerak!..

— Shunday qilish kerak! — deb, bo'sag'a tomondan birov mushtini ko'rsatib hamla qildi.

— Quda! — dedi Bo'qpos, — sen urolmaysan, biz urg'izmaymiz!

— Urolmaysan! — deb chuvullashdi bo'sag'a tomondagi, ovulimizning yigitlari.

Haligi hamla qilgan yigit bo'shashib qoldi. Boshqa qudalar ham jimjit, faqat ular menga yer tagidan o'qrayib qolishgan edi... Shu paytda Bo'qpos tarelkadagi pulni yig'ib cho'ntagimga soldi-da:

— Yur, ketdik! — dedi. Ikkovimiz chiqib ketdik. Bo'qposning uyiga borib pulni hisoblasak, — yigirma yetti so'm to'plangan ekan. Men uchun bu ham bir yordam!..

— Endi ko'zlariga ko'rinma! — dedi Bo'qpos, — sho'rva-po'rvani o'choq boshidayoq icharsan. O'spon kim ekanligini payqamay qolgan ekan. Bu ham bo'lsa sening baxting, bo'lmasa siniq chaqa ham bergizmas edi.

Shu kuni kechqurun To'rsanning o'g'li Bekan bilan Bo'rjaboyning Qiziljarga jo'namoqchi ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular, odatdagidek, kooperativ ishi bilan borayotgan ekanlar; o'zlari erta bilan barvaqt jo'namoqchi bo'lishibdi. Ular meni aravalariga o'tqazib Qiziljargacha olib bormoqchi bo'lishdi.

Saharda To'rsanning uyiga borsam, yo'lovchilarning otlari aravaga qo'shilayotgan ekan.

— Yaxshi kelding, uka, — dedi Bekan, — opang bilan bira-to'la xayrlashib keldingmi?..

Men indamadim va so'zlashga tilim ham bormadi. Tavakkal qilib ketib borayapman; bo'lmasa, ko'z oldimni qorong'ilik bosgan, orqamda opalarim, yurtim, o'sgan elim qolib ketmoqda edi... Bularni ko'zim qiyib tashlab ketish osonmi?!.

Opam bilan xayrlashmay kelgan edim... Nimaga ham xayrlashardim? Pochchamning shu vaqtda sigiri, oq o'tovi bor edi. Shu davlati bilan Zavre opam menga qarashmaydigan bag'ritoshmi? Lekin uning so'zini kim tinglardi? Qattiqroq so'zlay oladigan uning ota-onasi bormi? Mening tarafimni olaman deb rosa kaltak yegani hali ko'z oldimda!.. Shunday ekan, betob bo'lib to'shakda yotgan opamni yana bir marta zor yig'latishdan menga nima foyda?

Shu xayollarga g'arq bo'lib opam bilan xayrlashmasdan, saharda To'rsan ovuliga ketib qolgan edim. Biroq yo'l-yo'lakay achinib yig'lab keldim. Buni Bekan sezdim shekilli, boyagi so'rog'ini endi takrorlamadi. Biz jo'nab ketdik. Bekan bilan Bo'rjaboy tanatasdagi yashikning orqasida yonma-yon o'tirishibdi. Men old tomonda, bo'ji ushlab o'tirbman.

Ko'nglim bo'shligi shunchalikki, agar ko'zimdan yosh chiqarsam, tamom bo'shashib, nima bo'lganimni o'zim ham bilmay qoladiganga o'xshardim. Shuning uchun dadillanib, ko'zlarimga jiq to'lgan yoshimni zo'rg'a to'xtatib o'tirbman. Bu dadilligim, hali uyquda yotgan opamning ovuli ro'parasiga kelgunchayoq ekan. Shu yerga kelgandan keyin, esimga kasal opam bilan, uzoqdagi opam Ultug'on tusharkan, nima bo'lganimni o'zim ham bilolmadim!..

— Xo'v, bunga nima bo'ldi?! — dedi Bo'rjaboy.

— Nima qilsin, yurtini tashlab ketishga ko'zi qiymayotgandir-da! — dedi Bekan.

— Qo'y, uyat bo'ladi! — dedi Bo'rjaboy menga, — qara, buning qilig'ini!..

O'n sakkiz yil o'ralashib chiqa olmagan qadrdon yer, qadrdon ovul uzoqlashgan sayin, men ularni sog'ina boshladim... Shu paytda og'zimga bir og'iz so'z keldi:

— Hayr, jonajon yurtim!

CHO'LOQ POLVON

Bu kunda qirq to'qqizda mening yoshim,
Buzar kezim qal'aning tog'-u toshin.
Kechagi sentabrning bozorida,
Ko'tardim ellik bir put sirkning toshin.
To'planishib rus, qozoq tang qolishdi,
Qahramonning avlodi, deb ushbu boshim.
Garov qo'yib yetmish besh so'm, kurashganda —
Sindirdim Karon polvon qovurg'asin.
(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

"Alp — onadan tug'iladi"

Bu ovulning qishlovi Qayroqli ko'lining bo'yida, qalin o'rmon o'rtasiga joylashgan edi.

O'sha kuni bu qayg'u-hasratga botgan, ko'z yoshi buloqday oqqan mazlum qishlov ahlining g'am-anduhiga go'yo sherik bo'lganday, jala quydi, shamol guvlab esdi.

— Qani, tez bo'linglar! Jo'nanglar! Yo'qolinglar! — deb ot ustida ajdarhoday hayqirgan politsayning havoga siltagan qamchini xuddi, bulutlar orasida chaqnagan chaqinday pishqirib, talaylarning orqasini tilib o'tdi.

Xuddi bo'ri oralagan qo'ydek to's-to'polon bo'lgan ovul ahli qochish uchun boshqa joy topolmagandek, hozirgina politsaylar haydab chiqqan uylariga qarab qochishar edi.

Odamlarni uy-uylaridan haydab chiqarolmay yurgan uryadnik:

— Yong'in! — deb baqirdi.

Ovulning har yer-har yeridan havoga quyuq qora tutin o'rlab, alanga lovullay boshladi. Uy-uylaridan beixtiyor chiqqan odamlarning og'zida bittagina so'z edi, xolos:

— Xayr, jonajon qishlovim, xayr!

Ovul tinchgina yashayotgan edi. O'tgan yili o'tkazilgan saylov paytida ovulda yashovchi bir guruh odamlar bo'lislikka nomzodi ko'rsatilgan Sizdiq To'qsonboy o'g'liga qarshilik ko'rsatishgan edi. Shunday bo'lsa ham, u o'zini bo'lislikka nomzod qilib ko'rsatganlarga ham, saylovchilarga ham pora berib, bo'lislik lavozimiga saylangan edi. Qo'liga muhr tegib amaldor bo'lib olgach, u ovulida saylov paytida o'ziga qarshi chiqqanlardan o'ch olmoqchi bo'lib qo'ygan edi. O'sha yillari qozoq dalalariga odamlar ko'chiriladigan bo'lib qolib ko'chmanchilarga yer so'raganlarida, Sizdiq bo'lis ularni mana shu ovulning yeriga ko'chirib kelishni taklif qilgan edi. Shundan sal o'tmay, yer o'lchovchilar ham yetib kelgan edi.

Kuz kirib, odamlar yoz bo'yi yig'gan cho'p va xashaklarini uyi tevaragiga uyushib, qor uchqunlab qolib qishloviga kelib qo'nishganda:

— Ko'chasanlar! — degan ko'ngilsiz xabar eshitishdi.

— Nima uchun? — deb so'rashdi ovuldagilar.

— Uch-to'rt yuz xonadon dehqonlar ko'chib keladi. Oldi kelib ham qoldi. Endi bu yerda o'shalar yashaydi.

— Xo'sh, biz nima qilamiz?

— Bu bilan bizning ishimiz yo'q. Qayoqqa borsanglar boraverasizlar.

Ovul kishilari: "Yo'g'-e, juda ham undoq emasdir-ov", deyishib bemalol o'tirishganlarida, biri aravada, biri piyoda dehqonlar ko'chib kelib qolishadi.

O'sha kuni uryadnik ham yetib kelib ovulni yondirib ko'chirdi. Bo'lgan gap shu!..

Ko'chish uchun tayyorgarlik ko'rmagan ovul odamlari hangmang bo'lib qolib, azbaroyi uryadnikning qahrli vajohati, yong'in alangasiga chidayolmay uy-uylaridan chiqqanlari bilan tezda keta olmadilar. Besh-olti chaqirimcha joyga borib, to'planishib kengashishdi.

— Xo'sh, endi qayoqqa bordik?

— Qayoqdan bilamiz qayoqqa borishimizni?

— Arz qilib podshoning oldigacha borish kerak, — dedi kimdir.

— Yo‘q yerdagi gaplarni gapiraverma! — dedi kimdir jahli chiqib. — Falon chaqirim keladigan Ketramporga[1] borib arz qilaman deganingda mana bu munkillagan qari-qartanglar, go‘dak bolalar qirilib ketmaydimi? Avvalo shularga boshpana topishning chorasini ko‘rish kerak. Shundan keyin arzning ketiga tushsak yarashadi.

— Shu gap to‘g‘ri, — deyishdi odamlar. — Biroq qani shunga bo‘sh turgan qishlov? Yigirmaga yaqin xonadonmiz, qayerga borib sig‘amiz?

— Atrofda ovullar ko‘p-ku. Hammamiz bir joyda sig‘masak ham, otliq ovul oralab, bir qish yashab chiqish uchun boshpana toparmiz.

— Shundan boshqa chora yo‘q.

Xotin-xalaj, bola-chaqa qalin qarag‘ayzor ichiga tikilgan kapa va chaylalarda qolishdi-da, erkaklar otliq ovul oralab ketishdi. Bu yerda faqat Boymirza qoldi.

— Ha, sen nega bormading? — deb so‘raganlarga, u:

— O‘g‘limni izlab yuribman, — deb javob berdi.

— Qaysi o‘g‘lingni?

— Nurmag‘ambetni-da.

— Ha, u qayoqda qolibdi?

— Toyni o‘rgataman deb ertalab chiqib ketgan edi, haligacha toyi ham, o‘zi ham yo‘q. Asov toy edi, mayib qilib ketmasa edi.

— Shuni ilgariroq aytsang bo‘lmasmidi, ko‘pchilik bo‘lib izlashar edik.

— Uryadnik tinch qo‘ydimi? Endi esimizni yig‘ib olyapmiz-u.

Boymirzaning shu toydan boshqa oti yo‘q edi. Qoramoldan yolg‘iz cho‘loq ho‘kizi bo‘lib, u ham ko‘lik, ham mol o‘rnida edi.

— Hoy, xotin, — dedi u ayoli Qalampirga odamlar tarqalgandan so‘ng. — Haligi ho‘kiz qayoqda ekan, minib borib bolani qidirsam. Toyi tushmagur mayib qilib ketmasa yaxshi edi? Ishqilib, omon bo‘lsin-da!..

— Kun bo‘yi tinim bilmadi, bechora. Yaqindagina bo‘shatgan edim, bu atrofda ko‘rinmaydi, daydib ketgan bo‘lsa kerak.

---

[1] Peterburg demoqchi *(Tarj.)*

Boymirza ho'kizni topib keldi.

— Sug'ormaganmiding, boy bo'lgir? — dedi Qalampir ho'kizni ko'riboq. — Qovurg'alari ich-ichiga kirib ketibdi-ku? Bor, sug'orib kel!

— Yomg'ir yog'ib turganda ho'kiz suv icharmidi?

— Shu ham gap bo'ldimi? Bor, sug'orib kel!

Ovul kelib to'xtagan joy o'tgan yili ko'chib kelgan dehqonlarga bo'shatib berib ketilgan yer bo'lib, bu yerdagi tolzor orasida quduq borligidan Boymirza xabardor edi.

U qo'liga chelak olib o'sha quduqqa qarab ketdi. Endi yomg'ir to'xtab, bulutlar siyraklasha boshlagan edi. Biroq shamol quturar, kun sovuq edi. Ufqning qizarib turishidan kun botib borayotgani ma'lum bo'lib turardi.

Quduqning chekkalari o'pirilgan, atrofi botqoq ekan. Boymirza chelakni ipga bog'lab quduqqa tushirmoqchi bo'lganda, ho'kiz chanqab qolgan ekanmi, quduq tagidagi sasib qolgan suvning hidini olib pastga engashdi. Boymirza chelakning suvga to'lganini payqab, endi torta boshlaganda, yelkasiga birov turtganday bo'ldi. O'girilib qarasa, ho'kizi soz balchiqqa sirg'anib quduqqa qulab tushyapti.

Shoshib qolgan Boymirza chelakning ipini oyog'i bilan bosib, ho'kizning shoxidan mahkam ushlab qoldi. Sirg'anib borayotgan og'ir ho'kizni u qayoqdan to'xtata olardi deysiz? U gup etib quduqqa qulab tushdi. Qaytanga Boymirzaning o'zini ham olib tushib ketayozdi. Tirik jon emasmi, o'zini to'xtatib qolishga harakat qilib ko'rdi. Bo'lmadi. Suv quduqning yarmidan kelar edi. Ho'kiz boshi bilan tushsa, halok bo'lishi turgan gap. Yolg'iz ho'kizi! Undan ajrasa tirikchiligi nima bo'ladi?

Boymirza jonholatda ho'kizning shoxidan bog'langan arqonni yuqoriga qarab tortdi, haytovur, boshini yuqoriga ko'tarib oldi.

Baxtiga katta bir qora tol shundaygina quduq yonida o'sgan ekan. Boymirza nam tegib qotib qolgan arqonni bor kuchi bilan o'sha tolga ilintirib bog'ladi, ho'kizning boshi suvdan chiqib qoldi.

Bundan yuqoriroqqa ko'tarishga kuchi yetmadi. Shundan keyin nima qilishini bilmagan Boymirza: "Qa-lam-pir!.. Hoy Qa-lam-pir!" deb qichqira boshladi.

Cholining tovushini eshitib Qalampirning jon-poni chiqib ketayozdi. "Nurjonginam bir kori holga uchrabdi-da", deb bor kuchi bilan chopdi. Uning ketidan ovuldagi xotin-xalaj, bolalar ham yugurib ketishdi.

Qalampir Boymirzani eng qattiq urushganida "bor bo'lgir!" deb qo'ya qolardi. U yetib kelishi bilan ahvolini tushundi-da:

— Bor bo'lgir-ov! — dedi o'ziga kelib. — Kayfimni o'chirding-ku. Bu yoqqa tur!

Boymirza uning nima uchun "Bu yoqqa tur!" deganini tushunolmay hayron bo'lib turganda, Qalampir ho'kizning shoxiga bog'langan arqonni mahkam ushladi-da, quduqqa engashibroq "Haup!" deb tortdi. Ho'kizning shoxi qo'lga ilinar darajada yuqori ko'tarilib qoldi. — Arqonning uchini oyog'imga o'ra! — dedi ayoli Boymirzaga.

— Nima uchun?

— Nima ishing bor? O'ra degandan keyin o'rayver-da!

Boymirza hayron bo'lib arqonni oyog'iga o'radi, Qalampir tag'in sirg'alib chiqib ketmasin, deb arqonning uchini bir oyog'i bilan bosdi. Keyin engashib ho'kizning shoxidan mahkam ushlab, quduqdan tortib oldi...

Bu gap el orasiga tezda tarqalib ketdi. Chindan ham u baquvvat ayol edi.

Boymirzaning duradgorlik hunari ham bor edi. U yog'och uy qurayotgan mahallarida Qalampir unga yordamlashar, bir odam zo'rg'a ko'taradigan xarilarni dast ko'tarib olib berar, buni ko'rgan odamlar hayron qolar edi. Endi esa ho'kizni quduqdan tortib olganini ko'rgach, odamlar battar hayratda qoldi. Quduq atrofini o'rab olgan odamlarga maqtangannamo qaragan mahalida, ko'zi odamlar orasida turgan Nurmag'ambetga tushib qoldi.

— Chiroqqinam! — dedi u quvonib. — Qayoqlarda yuribsan, bo'talog'im? Bu yoqqa kel-chi? Kayfim uchdi-ya yo'qligingni eshitib!..

Oq sariq, qirraburun, o'tkir, qora ko'zli bola ha deganda onasi oldiga kelavermagach, xotin-xalaj: "Bor onangning oldiga", deyishib itarishgan edi, bola orqasiga tisarildi.

— Kichkinagina bo‘lib kuchliligini qara-ya! — deyishdi ayollar, — halitdan zilday og‘ir-a! Qoqqan qoziqday o‘rnidan jilay demaydi!

— “Alp onadan tug‘iladi, ot biyadan...” deyishadi-ku, — dedi bir keksa ayol, — “Suv burun” [1] ga tortgan bo‘lsa barzangiday yigit bo‘ladi. Qaddi-qomatini, gavdasini ko‘rmaysanmi? Xuddi quyib qo‘yganday kelinning o‘zginasi! Tuf, tuf, yomon ko‘zdan asrasin!..

Qalampir o‘n to‘rtta farzand ko‘rdi. Shundan hayot qolganlari uzatilgan ikki qizi, To‘leboy degan o‘g‘li-yu Nurmag‘ambetgina xolos. Nurmag‘ambet kenjasi. Shuning uchunmi yo farzandlari o‘la-o‘la yurak oldirib qolganidanmi, harqalay, Nurmag‘ambet deganda Qalampir girdikapalak bo‘lib qoladi. Nurmag‘ambet besh yoshga to‘lguncha onasini emdi. Mana, o‘n bir yoshga kirib qolsa hamki, kechqurun yotish oldida onaizorining ko‘kragini bir marta, ertalab turish oldida bir marta hidlamasa, ko‘ngli joyiga tushmaydi. Nurmag‘ambet ko‘z oldidan sal nari ketsa, Qalampir uni darrov sog‘inadi. O‘g‘lining ikki chakkasidan o‘pmasa xumori tarqamaydi.

Mana bugun ham xuddi shunday sog‘ingan Qalampir uni quduq yoniga chaqirgan edi, bola ha deganda kela qolmadi. “Bu nimasi?” deb o‘g‘lining oldiga yaqinlashgan edi, u orqasiga tisarilib:

— Ko‘k kuchugim qani? — deb qoldi.

Qalampirdan esa sado chiqmadi.

— Turimtoy [2] qani?

Qalampir yana indamadi.

— Yonib ketdimi? — bu gal bolaning tovushi qaltirab chiqdi. Qalampir yana indamagach:

— Eh, attang, — dedi Boymirza. — Boyagi to‘s-to‘polonda esimdan chiqib ketganini qara. Ko‘k kuchuk bilan Turimtoy kapaning ichida qolib ketaveribdi-ya!.. Yonib ketdi-ya, bechoralar!

Nurmag‘ambet turgan joyida ho‘ngrab yubordi, u yuzini kaftlari bilan bosganicha chopa jo‘nadi.

---

[1] Yoshi kattaroq ayollar Boymirzani kalaka “Suv burun” deb atashardi.

[2] Qush. *(Tarj.)*

Xuddi yorilay deb turgan yaradek, Nurmag'ambetning yig'isi odamlarning qayg'usini yangilab yubordi.

— Esiz qo'nish joyimiz! Esiz qishlovimiz! — deb yig'lay boshladi odamlar.

Kek

Boymirza yoz bo'yi bir boyga yog'och uy qurib berib, mehnat haqi uchun toy olib, ovuliga endigina kelgan mahali edi.

Jiyron qashqa toy sal kenjaroq tug'ilganiga, jussasi mujazroq bo'lishiga qaramay, ikki qulog'i nayzaday osmonga sanchilgan, qo'yruq-yoli ukparday mayin, o'zi tiqmachoqday semiz, to'rt oyog'i qoqilgan qoziqday tip-tikka, suluv ekan.

Toyni ko'rib Nurmag'ambet o'zida yo'q xursand bo'ldi, kichkinagina jussasini yer-u ko'kka sig'dirolmay u yoqdan bu yoqqa chopdi, sakrab o'ynadi, ko'm-ko'k maysa ustiga dumaladi. Albatta, uning bunchalik xursand bo'lishining sababi bor edi.

O'tgan yili yozda shu atrofdagi ovul kishilari bolalarini sunnat qilishdi. Sunnatga yotish oldidan bolalar o'zlariga atab olingan otlari yoki toylarini minishib, kim o'zdiga o'ynashdi. Toyi bo'lmagani uchun Nurmag'ambet ularga qo'shilolmadi. Oti, toyi yo'q boshqa bolalar haligi otli, toyli bolalarning chopishganlarini tomosha qilishib ketlaridan yugurishib ketgan mahallarida, Nurmag'ambet o'tovga kirib yuztuban yotib oldi. Bo'sag'ada ip yigirib o'tirgan Qalampir o'g'lining nima uchun xafa ekanini sezib, bildirmay ko'z yoshlarini artdi.

Shu payt Boymirza kirib keldi-da, erkakligi tutib ketib Qalampirni urisha ketdi:

— Nega ko'z yoshi qilasan, noshukur banda? Bu payg'ambarning sunnati! Undan ko'ra, xo'janing qo'lini yengil qil, deb tila!

Odatda, bolaga ot mindirmay sunnat qilish, unga "umr bo'yi ot minmay o't!" degan bilan baravar. Shularni o'ylab qayg'usini ichiga sig'dirolmay o'tirgan Qalampir birdan Boymirzaning yuziga sapchidi:

— Ana, bolangni ko'rib qo'y! — dedi u alamidan bo'g'ilib. — To'qsonboyning uyini qurganingda xuddi to'ngib o'ladiganday to'n olding! "Kelasi yil Nurjonni sunnat qilamiz, to'n olma, toy ol", deb qayta-qayta aytdim, tinglamading. O'g'lingning shaxtini qaytarding, bor bo'lgir!..

Qalampirning tomog'iga bir nima tiqilib, gapining bu yog'ini ayta olmadi. Uning Boymirzaga aytmoqchi bo'lgan gaplari ko'zlaridan yosh bo'lib oqdi.

Boymirza o'g'lini sunnatga zo'rg'a ko'ndirdi-yu, o'zicha qasam ichdi. "Kelasi yili agar omon bo'lsam, yonimdan qo'shib bo'lsa ham mehnat haqimga toy olganim bo'lsin!"

U va'dasining ustidan chiqib, qilgan mehnati evaziga yoniga boltasini qo'shib berib, hali aytgan toyni olib keldi.

— Mana, sunnat toying, chirog'im! — dedi u oldiga chopib chiqqan o'g'lining yuzlaridan o'pib. — Bultur minmagan bo'lsang, bu yil minasan, bolam! Faqat yaxshilikka min!

Gaplarga qaraganda, Boymirzaning otasi dovyurak, botir kishi o'tgan emish. Boymirzaning peshonasiga ot bitmasa ham, o'sha otasidan qolgan — yalpoq qoshi kumush bilan qoplangan egar-jabduqlarini ehtiyot qilib, uyining to'riga ilib saqlab kelar edi. "Bu qutlug' buyum..." deb u xotin-xalajni yaqinlashtirmas edi.

Ostonasiga jiyron qashqatoy kelib boylangach, Nurmag'ambet quvonchi ichiga sig'may shu egarni olib chiqdi.

— Bolam, sal sabr qil. Toy seniki, hech kim hech qayoqqa ketmaydi, sal o'ssin! — dedi Boymirza. Qalampir erini jerkib berdi:

— Jim o'tir, nima, toy bolaginamdan ortiqmi? Bolam omon bo'lsin. Minaver, chirog'im! Avval kattaroq bir bolaga mindirib o'rgatib ol. Tag'in o'zim minaman deb yiqilib tushma?"

Tashqarida toyning atrofini bir to'da katta-kichik bolalar o'rab olgan ekan. Nurmag'ambet kattaroq ikkita bolaga toyning boshi, qulog'idan mahkam ushlatib qo'yib, ustiga egar soldi.

— Yo bobojon, o'zing madad ber! Chiroqqinamning umrini uzun qil, yaratgan! — deb Qalampir bo'sag'ada ko'z yoshi qildi.

Boymirzaning dilida ham shu gaplar bor-u, biroq ichidagisini sirtiga chiqarmay, toyga egar urayotgan bolalarga yordamlashdi.

— Qani, biroving minib o‘rgatib beringlar-chi... — dedi u.

Boymirza egar urilgan toyning qulog‘idan mahkam ushlab bolalarga qaragan mahalda, Nurmag‘ambet irg‘ib minib oldi.

— Chirog‘im, yiqilasan, tush! — dedi Qalampir tashqariga chiqib.

— Nima deyapsiz, oyi! — dedi bola sal ranjib. — Tilab olgan toyimni birovga mindirib jinni bo‘libmanmi?

Nurmag‘ambet bir qimtingan edi, toy bir intilib Boymirzaning qo‘lidan chiqib ketdi. Toy osmonga sapchidi. Qalampirning kayfi uchdi:

— Voy, qulaydi bola!

Toy osmonga sapchidi, biroq bola yiqilmadi. U toyning tizginini qisqaroq ushlab qamchini bilan bag‘riga soldi. Qamchi zarbidan hayiqdimi yo bolani yiqitishiga ko‘zi yetmadimi, toy endi oldinga qarab chopib ketdi va birpasda qalin o‘rmon panasiga o‘tib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Boymirza “tag‘in bolasi tushmagur qulab-netib yurmasin”, deb birovning otini olib ketidan borsa, Nurmag‘ambet asta yo‘rtib yurgan ekan. Toy ancha bo‘shashib qolibdi.

— Kechikmay qayt, bolam. Ko‘p chopsang, toying oqsab qoladi, — deb Boymirza ovuliga qaytdi. U kelsa uryadnik odamlarni ko‘chirayotgani ustidan chiqib qoldi. Buni ko‘rgan Boymirza “Baytal emas, bosh qayg‘u” deganlariday, bolasi esida yo‘q, o‘z boshining qayg‘usi bilan bo‘lib, o‘t tushgan ovul bilan ko‘chib ketdi...

Otasi, tez qayt, deb tayinlagan bo‘lsa ham, bola tez qayta qolmadi. Bir ozdan so‘ng toyni tamom o‘rgatib oldi. So‘ngra, toyim oqsab qolmasin, deb goh yo‘rttirdi, goh yeldirdi...

Kech kirib ovuliga toyini asta yo‘rttirib kelar ekan, o‘zini dunyoda eng baxtli deb his qildi. Uning yoshlikdan ermagi faqat Turimtoy bilan qirg‘iyga bedana, to‘rg‘ay ovlatish edi. U shunday piyoda ov qilib yurgan kezlarida “afsus, bitta toyim bo‘lganda!” deb orzu qilar edi. Mana, o‘sha orzusi ushaldi.

Kuzda bir boyga qarashli qo‘ylarning junini qirqishganida mehnat haqi uchun bo‘ribosar ko‘k cho‘loq tozisining kuchugini olgan edi. Nurmag‘ambet o‘sha kuchukni ko‘tarib kelar ekan: “Bu

kuchuk besh oyda quyon ovlashga yaraydi, kelasi yili bo'riga ovga olib chiqaman!" deb o'kingan edi. "Mana, endi otim bor, qushim bor, itim bor, endi mendan baxtli kim bor?" deb xayol qildi Nurmag'ambet.

Qarshidan esayotgan shamol uning dimog'iga yong'in dudini olib keldi. Bola xayoldan boshini ko'tarib, ovuli osmoniga o'rlayotgan quyuq qora tutunni ko'rib qoldi. Yong'in bo'lishi bolaning xayoliga ham kelmagan edi, shuning uchun ham u: "Sovun uchun olabo'ta yondirishayotgan bo'lsa kerak" deb taxmin qildi.

Asta yomg'ir sepalay boshladi. Bola ovuliga tezda yetib olish uchun toyini qistadi. Chopa-chopa charchab qolgan toy, hadeganda yo'rtmay qiyshanglayverdi. Jala quydi. Hali ko'nikmagan toyini qiynashga ko'ngli bo'lmadi chog'i, bola toyni boshqa savalamadi...

Ovulni yonayotganini ko'rib bolaning kayfi uchib ketdi! Ovul tutash yonar edi!.. Biroq negadir, na biror jon, na mol ko'rinardi! Ovul bo'm-bo'sh!.. Yonayotgan uylarning devorlari, tomlari o'pirilib tushardi!.. Jala endi sal tinay dedi. Biroq jala yong'inga zarracha ham monelik qilolmas, qaytanga moy quyilayotganday avj olar edi.

— Bu nima?!

Qo'rqqanidanmi yo qop-qora tutundanmi, harqalay, bolaning nafasi bo'g'ilib, o'pkasi qisila boshladi.

Toyi hurkib yonayotgan uylarga yaqinlasha olmagach, uni bir butaga bog'lab, o'zi yugurganicha uyiga bordi. Otasi bilan onasini baqirib chaqirdi. Hech kim sado bermadi.

Qayoqqa ketishibdi?!

Nurmag'ambet lovullab yonayotgan alangaga angrayib qarab turgan mahalda, chaylaga o'xshatib qurilgan uyning tomi o'pirilib tushdi. Bolaning esiga darhol Turimtoyi bilan kuchugi tushdi. Ularga joni achib, olovga o'zini urmoqchi bo'lib bir intildi-yu, to'xtab qoldi.. "Ovul yong'indan qochgan bo'lsa kerak. Otam bilan oyim nima uchun Turimtoy bilan kuchukni tashlab ketdi ekan? Yo'g'-e, tashlab ketmagan bo'lsa kerak!" deb o'yladi u.

Shu xayol bilan kelayotganida, oldidan bir salt otliq chiqib qoldi. Bu qozoq tilini yaxshi biladigan, "Baske" degan feldsher edi.

Bola uni ko‘rib ho‘ngrab yubordi.. Feldsher uni yupata olmadi.

— Ey, zolim podsho, xalqni muncha yig‘latib qo‘ymasang! — dedi u bolani bag‘riga bosib.

— Kuydirgan kim, og‘a? — deb so‘radi bola yig‘lab turib.

— Podsho!

— Qanaqa podsho?

— El-u yurtni so‘raydigan podsho-da...

— Biz unga nima yomonlik qilibmizki, uyimizni yondiradi?

— Katta bo‘lib esing kirganda aytaman buni, o‘g‘lim. Hozir yoshsan, tushunmaysan bunaqa gaplarni. Ovuling “Qayingsho‘q”-da. Tez borgin. Ota-onang qidirishayotgan edi. Kel, toyingga mindirib yuboray.

Yig‘lab, bo‘g‘in-bo‘g‘ini bo‘shashib ketgan bolani feldsher toyiga suyab mindirdi-da, o‘z yo‘liga ketdi.

“Attang, Turimtoy bilan kuchugimni so‘ramabmanda, Baske og‘amdan” deb o‘kindi bola uzoqlashib qolganida.

Kuchugi bilan Turimtoydan keyin bolaning boshini qotirgan narsa — podsho edi. “Podshoga ovulimiz nima yomonlik qilibdi? Nima uchun u ovulimizni yondirdi?” O‘ylay-o‘ylay bu gapning tagiga yetolmadi bola.

U podsho degan gapni ilgarilari ham bir-ikki bor eshitgan, biroq uning qayerda turishi-yu, nima ish bilan shug‘ullanishini yaxshi bilmas edi. Haligina uni feldsher “yondiruvchi!” deb ketdi. “Bu gapga qaraganda podsho shu atrofda bo‘lsa kerak, — deb o‘yladi bola. — Agar shu atrofda bo‘lsa, yondiruvchi ekanligi rost bo‘lsa, Turimtoyim bilan kuchugim yongan bo‘lsa, uning o‘zini ham o‘sha kuchugim bilan Turimtoyimdan kuydirmasam, dunyoda yurmaganim, Nurmag‘ambet otimni boshqa qo‘yganim bo‘lsin!”

Yong‘in

“Podsho degan so‘z Nurmag‘ambetning qalbiga ninaday sanchilib, tinchlik bermay yurdi.

Feldsher yana bir kelganida, podshoning qo‘lga tushmasligini, bu yerda uning amrini bajaradigan uryadnik ekanligini aytib ketdi.

Feldsher ketdi. Uning "Podshoning amrini bajo keltirgan odam — uryadnik", degan so'zini esida saqlab qoldi. Endi uning butun fikri yodi uryadnikdan o'ch olish bo'lib qoldi. Biroq uryadnikka kuchi yetmasligini yaxshi bilar edi.

— Xo'sh, endi nima qilish kerak? — dedi o'ziga o'zi va bu savolga o'zi javob berdi. — Yondirish kerak.

Bola shu qarorga kelib — ko'chib ketgan eski Qayroqli ovuliga bordi-yu, uryadnik yashaydigan uyni topdi. Endi qulay fursat kuta boshladi. Qulay fursat esa yoz fasli edi. Bu paytda hamma narsa qo'rg'oq bo'ladi.

Yoz ham yetib keldi... Nurmag'ambet tag'in bir Turimtoyni tutib, o'rgatib, bedana, to'rg'ay ovi qila boshladi. U shu ishlar bilan band bo'lib uyiga ikki-uch kunda bir keladigan bo'ldi. Ovga goh otda, goh yayov chiqardi. Yillar o'taverdi. Qalbida mahkam o'rnashib qolgan kek hali o'chganicha yo'q. U o'n to'rt yoshga chiqdi. Kunlardan bir kuni u besh yoshga to'lgan toyini mindi-da, Turimtoyini qo'liga olib jo'nab ketdi. Bu safargi maqsadi ov qilish emas, uryadnikning uyiga o't qo'yish edi. Shu niyatda cho'ntagiga bir quti gugurt solib olgandi. Qayroqli ovulini aylanib o'tib, ovulga yaqin joydagi qalin qarag'ayzor ichiga kirib o'tirdi.

Odamlar uyquga ketgan mahalda u Turimtoyni qarag'ayning butasiga qo'ndirdi-da, Qayroqlining ko'chasiga kirdi. Chillaning issiq kezlari, anchadan beri yomg'ir yog'magani uchun hamma yoq qurg'oqchilik edi. Buning ustiga, kechqurun asta esib turgan shamol kechasiga borib zo'raydi. Nurmag'ambet shahar chekkasidan aylanib o'tib, uryadnikning qamish tomli uyi oldiga keldi. Uning uyi bir chekkada, shamol tegadigan joyda.

Bola tomga o'rmalab chiqib, qamishga gugurt chaqqan edi, shamolda birdan lov etib o't olib ketdi.

"Boplab o'chimni oldimmi?" deb o'yladi u. Bola chopib borib otiga minguncha, qip-qizil alanga balandga o'rlab ketdi. O'zi esa qalin qarag'ayzor ichiga berkinib tomosha qila boshladi... Bir lahza ichidayoq qishloq alanga ichida qoldi... Bolaning qulog'iga mollarning ma'rashgani eshitilib turdi. Atrof-tevarakda kuygan

go‘sht, yog‘ hidi anqidi. Bu yoqimsiz hidlardan bolaning ko‘ngli ozib, boshi aylana boshladi...

Birpasdan keyin bola o‘ziga kelib, yonayotgan qishloqni o‘chirish qo‘lidan kelmasligiga aqli yetgach, otiga minib qochib qolgan edi... Ammo xayoli hamon yong‘inda edi. Qishloqdan uzoqlashgan sari a’zoyi badanini achinish, afsuslanish hissi o‘t bo‘lib kuydira boshladi.

Feldsher Baske bir gapida: “Bu qishloqdagilarni podsho zo‘rlab haydab olib kelgan” degan edi. “Ehtimol, shu gap rostdir, — derdi Nurmag‘ambet esi kirib, ulg‘ayib qolgan mahalida. — Ularni qay ahvolda haydab kelishganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman-ku: yayov, och-yalang‘och...”

Mana shunday haydab kelingan dehqonlarning hayot uchun qanday kurashayotganlarini, uylarini qanday azob bilan qurganlarini, qanday ekin ekib, uni qanday yig‘ib olganlarini Nurmag‘ambet o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Dastlab ularga yotsirab qaragan qozoqlar, keyin-keyin o‘rganishib, hatto ba’zilari yollanib ularning uylarini ham qurib berishgan, aralashishib ketishgan, mehnatda bir-birlari bilan do‘st tutinishib, birining kamiga ikkinchisi qarashib, totuvlashib ketishgan edi. Mana shular orasida Nurmag‘ambetning otasi Boymirza ham, og‘asi To‘leboy ham bo‘lgan. Onasi Qalampir bo‘lsa, ularning choponlarini tikib bergan. Shunday qilib, qo‘shni bo‘lib qolgan bu qishloq ko‘pchilik kambag‘al qozoqlarning joniga oro kirgan, ilgari olisdan topiladigan nonini yaqindan arzon bahoda topib yeydigan bo‘lib qolgan edi. Ilgari Nurmag‘ambetlarning oilasi yil bo‘yi bolta chopib xizmat qilsa ham qorni to‘ymas, hatto og‘asi To‘leboy ovul boylari eshigida ishlasa ham, yolchimas edilar. Dehqonlar kelganidan so‘ng ularning ishlariga qarashib, nongagina qorinlari to‘yadigan bo‘lib qolgan edi. Ilgari onasidan pishloq so‘rab yig‘laydigan erka Nurmag‘ambet ham og‘zini to‘ldirib non yeydigan bo‘ldi...

Boymirza Baskening uyida ko‘proq ishlar edi. Butun ovul kishilari uni “Baske” deb atashgan. Aslida uning ismi Vasiliy Petrovich Kurganov edi. Bu yerga u yosh paytida, feldsherlik kursini bitirib kelgan. U o‘zining qayerda tug‘ilganinini aytgani bilan,

baribir bu yerdagi omi xalq tushunmas edi. Dastlab kelganida Vasiliy bir og'iz ham qozoqcha so'zlay olmasdi. Keyinchalik suvday gapiradigan bo'lib, odati, odobi yaxshi bo'lgani uchun xuddi ovulning o'z bolasiday aralashib ketdi. So'ngra ovul qiziga uylandi, bola-chaqali bo'ldi. Katta bolasi Anton yigirmaga kirdi, undan kichigi — Andrey Nurmag'ambet bilan teng. Undan keyin esa ikki-uchta mayda bolalari ham bor...

Ilgari Kurganov yaqin bir qishloqda yashar edi. Qayroqli tashkil etilganidan so'ng, xizmatiga yaqin bo'lgani uchun shu joyga uy qurib, oilasi bilan ko'chib kelgan edi. Bu uyni qurishda ham Boymirza bilan To'leboy yordam qildi. Ekinni ham o'shalar ekib berishdi. Shunday qilib, Kurganovlar oilasi bilan Boymirza oilasi juda ham yaqinlashib, qarindoshday bo'lib ketishdi.

Kurganovning gapidan keyin uryadnikning uyiga o't qo'ygan Nurmag'ambet uryadnikning uyi bilan birga Kurganovning uyi ham yonishini xayoliga keltirmagan edi...

Mana endi ko'pchilikning uyi bilan birga Kurganovning uyi ham yonib ketibdi... "Faqat uyigina yonsa-ku mayli-ya, — dedi u ot ustida qochib ketayotib, — joni yonsa nima bo'ladi?!"

Bu xayoldan o'zi ham yong'in o'rtasida qolganday bo'ldi, aqlidan adashib, ot ustida zo'rg'a o'tirib kelardi...

Keyinchalik eshitsa, yong'inda kuyib o'lgan odam bo'lmabdi-yu, yaralanganlar ancha ekan. Shu jumladan, Kurganov ham... og'ir yaralanibdi-yu, oila azolari omon qolganlar ham oz emasmish. Qishloqqa o't qo'ygan noma'lum odamni jabr ko'rganlar qarg'ar emish! Nurmag'ambet shu gaplarni eshitib: "Uvollaring podshoga! Senlarni ham, bizlarni ham kuydirib, yondirayotgan o'sha podsho!" dedi ichida.

O'radagi bo'ri

Quyosh botib borardi... Kundizi qor yog'ishdan to'xtab, shamol tindi. Osmon oq sur bulutlardan arib, qishning yuzni chimchilaydigan achchiq ayozi boshlandi.. Ovul kishilari mollarni qo'ralarga qamab uy-uylariga kirib ketishdi.

Xuddi shu mahalda, ovul sirtida Boymirza dalada yakka, xuddi qorovulday qaqqayib turar, uning kichkina ko'zlari o'rmon tomonga tikilgan edi.

— Hoy, nima qilib turibsan uyga kirmay? — dedi kul to'kish uchun chiqqan Qalampir.

— Bolangni kutib turibman.

— Qaysisini?

— Nurmag'ambetni-da.

— Voy sho'rginam qursin, men uni ovulda o'ynab yuribdi desam, o'sha ertalab ketganicha hali kelgani yo'qmi?

— To'leboyni yuborgan edim, topib kel deb. Hamma bolalar uylarida emish. Nurmag'ambetni yo'q deb qaytib keldi.

— Shu bor bo'lgir bola doim izlatgani-izlatgan! Shu bor bo'lgir o'raga tushib ketmasa yaxshi edi. Qo'y, desam qo'ymaydi, bor bo'lgir! Quyon ovlaydi, qur ovlaydi, haytovur, uyda o'tirmaydi!

— Bo'lmasa, men qidiray, sen ovqatingga qara. Toza sovuq qotgandir. Issiq ovqat ichsin. Bir gap bo'lgandir-ov. Bo'lmasa, bunday paytda uyga kelmay qolmasdi.

Qalampir uyga kirdi. Boymirza o'raga qarab jo'nadi...

Voqea bunday bo'lgan edi: bu yil bo'ron ko'p bo'ldi. Natijada, qarag'ayzorning bo'ron turadigan tomonida qor uyumlari paydo bo'ldi. O'sha uyumlarning pana-panasida quyon yuragidan joyga, Nurmag'ambet kishi bo'yi keladigan o'ra kovladi. O'raning og'zini tor, ichini keng qilib, ichiga somon solib yondirdi, o'ra ichidagi qor erib, silliq bo'lib qotdi. Shundan keyin o'raning ustiga shox-shabba tashlab, xashak bilan yopib qo'ydi. Quyonlar o'ra ustidan o'tayotib qulab tushaverdi...

Nurmag'ambet uzun tayoqcha uchiga ipdan tuzoq qilib bog'lab, o'raga tushgan quyonni ilib oldi...

Bugun ertalab odatdagidek o'raga borsa, uning og'zida xashak ham, shox-shabba ham yo'q. O'ra ichiga engashib qarasa, quloqlarini dikkaytirib bir nima o'tiribdi. Bu nima balo ekan deb tikilibroq qaragan edi, yelkasida otning yoliday yoli bor, tumshug'i yarim gazcha keladigan, kattaligi xuddi toyday, qoraquloq bo'ri o'tiribdi!..

Bo‘ri Nurmag‘ambetni ko‘rib irilladi.

Nima qilish kerak?

U ovulda “Polvon bola” atalib ketgan edi. Yaqin o‘rtada u bilan kurash tushadigan bola qolmagan, hammasini yiqitardi. Shuning uchun ham uni “Botir bola” deb ham atashardi. Ovuldagi bolalar toy yo qunon o‘rgatar bo‘lsa, dastlab Nurmag‘ambet oldiga kelishardi. U yosh bo‘lishiga qaramay, toyning qulog‘iga mahkam yopishib olar, ustiga chaqqonlik bilan minib olganidan so‘ng esa, toy, qunon u yoqda tursin, hatto ot sapchisa ham ustidan tushira olmasdi.

Odamlar uni “Polvon bola”, “Botir bola” deyishgan sari, u o‘z kuchini ko‘rsatishga harakat qilar edi.

O‘ra ichidagi bo‘riga qarab turib, Nurmag‘ambetning nafsoniyati qo‘zib ketdi. “Buni o‘zim o‘ldirmay birovga o‘ldirmasam, meni kim polvon deydi? — deb o‘yladi u. — Ertaga buni eshitib boshqa bolalar mazax qilishmaydimi? Qo‘y, yaxshisi o‘zim harakat qilib ko‘ray”.

Nurmag‘ambet cho‘qmorli tayoqchasi bilan bo‘rini itarib yuborgan edi, u irillab tayoqning uchini tishlab oldi. Nurmag‘ambet tayoqchasini sug‘irib olmoqchi bo‘lgan edi, tayog‘i mayishib sinay dedi.

Jahl ustida bor kuchi bilan “Xaup!” deb tortganida orqasiga gup etib yiqilib tushdi. Tayog‘iga qarasa, xayriyat sinmabdi. U o‘rnidan uchib turib o‘raga engashdi. Bo‘ri bolaga boyagiday haybat qilib irillamadi, xuddi uning vajohatidan hayiqqanday, o‘ra ichini gir aylanib tepaga sapchidi. Orqa oyoqlari toyib ketdimi yo tayoq tumshug‘iga qattiq tegdimi, harqalay, orqasiga qarab gup etib yiqildi.

Nurmag‘ambet tayoq uchi bilan choviga tag‘in turtdi, bo‘ri uchib turib tayoqni yana tishlamoqchi bo‘lgan edi, bola chaqqonlik bilan tortib oldi.

Bo‘ri endi tepaga sakrashni qo‘ydi. Ko‘zlarini olaytirib qaragancha, o‘raning kamariga bag‘rini berib jim yotar, faqat bola tayoqchasi bilan itarganidagina tishlarini tirjaytirib irillab tayoqni tishlashga harakat qilar edi.

— Nima qilish kerak?

Shu mahal bolaning ko'zi bo'rining tumshug'idan sizib oqqan qonga tushib qoldi.

— Aha, yaraladimmi? — dedi u. — Endi mendan qutulib bo'psan! Balki yozda yolg'iz buzog'imizni yeb ketgan sendirsan?

Bo'ri "Xo'sh, men bo'lganimda qo'lingdan nima kelardi?" deganday tishlarini irjaytirdi.

Bolaning belbog'ida qinda mugiz dastali o'tkir pichog'i bor edi. Bu pichoqni ovuldagi temirchi usta unga: "Yordamlashganing, bosqonimni bosishib yuborganing uchun", deb toza po'latdan yasab bergan edi.

Hozir shu pichog'i esiga tushib qoldi-yu, qinidan sug'urib olib, uzunligi bir gazcha keladigan enlik qayishdan tasma tildi, tayoq uchiga tasma bilan pichoqni mahkam bog'ladi...

Bola "yuraging mana shu dukullab turgan joyda bo'lsa kerak", deb tayoqchasi bilan o'sha joyini mo'ljalga olib sanchdi. Bo'ri bir sakrab tushdi-yu, aylanib pichoq qadalgan joyini yalay boshladi, uning qalin yungidan sizib chiqqan qon qorong'i o'rada endi yona boshlagan olovdek qizarib ko'rinar, uning sur yungidan uzun qizil yo'l solib pastga tomchilar edi...

— Endi tamom bo'lgandirsan, — dedi bola. — Pichoq sanchmayoq qo'ya qolay.

Bola tepadan engashib o'ra ichiga qaradi. Bo'rining gavdasi dirillar, dumi likillar, og'zi katta ochilib titrar edi. Shu alfozda biroz yotdi-da, jim bo'lib qoldi.

"O'ldimikan yo o'lmadimikan?" degan fikrda bola tayoqchasining uchi bilan asta turtgan edi, bo'ri qimirlamadi. O'lganiga qanoat hosil qilgach, terisini shilish payiga tushdi. Tayoqchasining uchiga sirtmoq qilib, bo'rining bo'ynidan yuqoriga tortib ko'rgan edi, zilday og'ir ekan, kuchi yetmadi.

— Iye, shunchalik og'irmisan! — deb kuch bilan tortgan edi, o'ra chetidagi qor o'pirilib, gup etib o'ra ichiga yiqilib tushdi. Bo'ridan seskanib, shu zahoti pichog'iga yopishdi. Bunday qarasa, o'lib qolibdi. Har ehtimolga qarshi oyog'i bilan turtib ko'rgan edi, bo'ri qimir etmadi.

"Asfalosofilinga ketibsan!" — dedi-da, uni u yonidan bu yoniga ag'dardi. Kattakon toydek erkak bo'ri ekan!

Bola bo'rining terisini shila boshladi... Qancha vaqt kuymalanganini bilmaydi. Bo'rining terisini shilib bo'lib, chiqay desa hammayoq tayg'oq muz. Pichoq bilan muzni o'yib, qorni o'pirib ham ko'rdi, chiqa olmadi.

Uning kiyimi yamoq-yamoq bo'lgani bilan issiq edi. Buning ustiga harakat qilar, shuning uchun ham darrov sovuq qotmadi. Biroq boya bo'ri ovorasi bilan yurganda, ichigini yechgan edi, endi ichik tashqarida.

U pichog'i bilan muzni, tayog'i bilan qorni o'yib arang yuqoriga chiqqanida, barmoqlarining uchlari achisha boshladi. Bunday qarasa, qon yuqqan barmoqlari ko'karib ketibdi, "Ushuk uribdi-da" deb barmoqlarining uchini qor bilan ishqalay boshladi.

Kunning achchiq ayoz ekani ham endi bilindi. Qo'lidagi qor erib ketish o'rniga, aksincha, qum kabi shiqirlab to'kilar edi. Ayniqsa, o'ng qo'lining uchlari qattiq achisha boshladi. "Shu qo'limni ushuk urdi shekilli", deb o'yladi bola. Shu mahal kimdir uni chaqirganday bo'ldi. Bunday qarasa, otasi!

Xursand bo'lib ketgan o'g'il, qo'lini ushuk urgani esidan chiqib, qilgan ishlarini otasiga aytib maqtana boshladi. Ota-bola uyga qaytishdi.

Albatta, Qalampir bo'ri uchun emas, bolasining eson-omon kelganidan xursand edi. U o'g'lini erkalab, qip-qizarib ketgan yuzlaridan o'pdi. "Qo'ling ham rosa sovuq qotgandir, bolam" deb uning qo'llarini ushlagan edi, barmoqlarining uchi ko'karib, qonsiz bo'lib qolganini ko'rdi.

— Voy sho'rim. Endi nima qildim! — dedi onaizor shoshganidan. — Qo'llaringni ushuk uribdi-ku.

U jon holatda o'g'lining qo'llarini uqalar ekan, "endi nima qildim, chirog'im", deb ho'ngrab yig'lab yubordi...

Yoqimtoy xizmatkor

Qalampir bilan Boymirzaga qolsa, Nurmag'ambetga o'zlari ko'rgan mehnat tashvishlarini ko'rsatmay, erka qilib o'stirishmoqchi edi.

— Mayli, bizlarni-ku qo'yaver,— derdi er-xotin bosh qo'shib gapirishganda, — oshimizni oshadik, yasharimizni yashadik. Peshonamizga faqat mehnat qilish yozilgan ekan. Mehnatda tug'ildik, mehnat bilan o'sdik, mana mehnat bilan yashab kelyapmiz. Endi to'rimizdan go'rimiz yaqin...

— O'zimiz butun umr og'ir mehnat bilan o'tib kelyapmiz, — deyishardi ular og'ir xo'rsinib. — Mayli, endi biz ko'rgan tashvishlarni bolalarimiz ko'rmasin!..

— Biroq — deb o'kinishardi ular, — "Oldingi arava qayoqdan yursa, orqadagi arava ham shu yerdan yuradi" deganlariday, katta o'g'limiz To'leboy ham biz kechirib kelayotgan azob so'qmog'iga giriftor bo'ldi. Esini tanibdiki, la'nat bo'yinchasi bo'ynidan tushgani yo'q. Endi u ham shu mehnat bilan o'tadi dunyodan!

Nurmag'ambet masalasiga kelganda, dastlab er-xotin kelisholmay yurdi. Boymirza o'g'lining ulg'ayib qolganini payqab, garchi uni ayasa ham, biror ish bilan mashg'ul bo'lishining tarafdori edi.

— Hoy, xotin, — dedi u bir kuni Qalampirga turmushlari og'irlashib qolgach. — Bu deyman, ipi qurmag'ur qisqalik qilib, bog'lashga kelmay qoldi-ku!..

— Xo'sh, shunga nima qil deysan? — dedi Qalampir xotirjam holda. Bu so'zni u talay eshitib, qulog'i o'rganib qolgan edi. — Uzaytirish yo'lini topgan bo'lsang, men bir nima dermidim?

— O'sha ipga tag'in biroz ip ulasak, sen nima deysan?

— Qanday qilib?

— To'leboyni-ku sakkiz yoshidan birovning eshigiga xizmatkor qilib berdik, — dedi Boymirza gapini uzoqdan boshlab.

— Xo'sh? — dedi Qalampir erining maqsadini fahmlab.

— Barzangiday yigit bo'lib qoldi. Yoshi ham yigirmadan oshdi. Boshqalarning bu tengi bolasi uylanib ham oldi...

— Qalin molini topsang, sen ham uylantir!..

— Nega kesatasan, xotin, — dedi Boymirza sal ranjib. — Men qalin moli topmay deb yuribmanmi? Ro'zg'orchilik qiyin ekan, qo'lga tushaganini og'zimizga tashlab o'tiribmiz...

— Xo'sh, nima demoqchisan o'zi — dedi Qalampir koyinib. — Maqsadingni ayt-chi, achishib turgan yaramga tuz sepavermay.

— Shuni aytmoqchi edimki, o'zing ko'rib turibsan, xotin, turmushimiz tobora og'irlashib boriyabdi. Ozgina bo'lsa ham yordami tegarmikan deb... Nurjonni bitta-yarimtasiga xizmatga bersakmikan?

— Kimga? — dedi Qalampir erining yuziga tik qarab.

— Ota-bobolarimiz "O'n uch yoshda o'tov egasi" deyishgan emasmi, axir? — deb Boymirza ayolining yuziga qaradi. U xotinidan qattiq hayiqar edi. — Mana, omonlik bo'lsa, Nurjon ham o'n uchga kirdi. Yomon ko'zdan asrasin, kap-katta yigit bo'lib qoldi...

— Kimga bermoqchi eding, deyapman senga? — deb takror so'radi Qalampir. — Nega yashirasan, ayt, kimga va'da qilgan eding?

— To'qsonboyga.

— Sening aytganing bo'la qolsin, deylik. Xo'sh, undan nima chiqadi? Mana, sen bir umr mehnat qilib kelyapsan. Nima foyda chiqdi? Men qarab turganim yo'q, kuchim yetganicha senga qarashib kelyapman. Bundan nima foyda chiqdi? Ikkalamizga To'leboy ham qo'shildi.

Xo'sh, undan nima foyda chiqdi? Ming ishlaylik, ming tirishaylik — boyagi boyagi, boy otamning tayog'i! Nurjonni botirganimizda nima chiqadi?

— Men bir nima chiqadi deyotganim yo'q, — dedi Boymirza. — Harqalay, "Suvga cho'kkan cho'pga yopishadi" degandek... chorasizlikdan aytyapman-da, xotin. Bunday deyayotganimning sababi, nima yomon, g'iybat so'z yomon, odamlar gap-so'z qilishyapti...

— Nima deb?

— Nurjonimiz o'lan aytishga, do'mbira chertishga ixlos qo'yib yurgani yo'qmi, ba'zi odamlar shuni ham ko'risha olmaydi. "Nima balo, avlodingda shoir, baxshi o'tgan emasdi-ku? Mana, sendan ham baxshi chiqib qoldi. Endi otini, egar-jabdug'ini hozirlab ber" deyishib jon-holimga qo'yishmayapti.

— Gapirishsa gapiraverishsin, — dedi Qalampir gapni qisqa qilib. — Biz ularning eshigiga osh-non so'rab borgan joyimiz yo'q. Ularning birortasi qozonimizga masalliq solganlari ham yo'q. Nimaiki qilsak, o'z mehnatimiz, o'z peshona terimiz bilan

qilyapmiz. Nurjonimiz ham xizmatga borar, hali yosh, bo'g'ini qotsin. Yoshlayin xizmatga tushib ketsa, bola bechora ezilib qoladi. Esi kirsa o'zi tek qarab o'tirmas — aqli bor-ku...

Qalampir bilan Boymirza bu gapni qaytib qo'zg'amadi, o'g'lining ulg'ayishini, ishga boraman deyishini kutdi.

Ular bu kunni uzoq kutishmadi. Qayroqli qishlog'i yonib ketgandan so'ng, tevarak-atrofdagi odamlar yig'ilishib, ularning uylarini qurib berish uchun otlanishdi. O'shalarning orasida Boymirza ham bor edi. Nurmag'ambet otasi yo'lga chiqayotganida:

— Men ham boraman, ota, — dedi.

— Qayoqqa?

— Shaharga.

— Nima qilasan?

— Ishlayman!..

Boymirza uni o'zi bilan olib ketgisi keldi, Qalampirning esa yuborgisi kelmadi, Nurmag'ambet esa "boraman" deb o'z so'zida turib oldi. Nega bormasin, axir, orzu qila-qila zo'rg'a yetgan oti, selo yonib ketgach, qarg'ish tegdimi, harqalay, ko'p kechikmay o'lib qoldi. Endi ularda mol zotidan yolg'iz sigir qoldi. U bergan sut choy oqlashdan boshqaga yetmasdi. Buning ustiga To'leboy To'qsonboyda biror ish bo'lsagina ishlar, uning topgani oilaning ehtiyojlariga yetmas edi. Onasi butun topgan-tutganini Nurmag'ambetga kiyim qilib berar, o'zlari esa, yamoqli kiyimda yurishar edi. Ko'rpa-to'shaklari ham, kigiz o'tovi ham to'zib bitgan. Qishki uyi emas, yerto'laga o'xshagan narsa... Shu ham turmush bo'ldi-yu!..

Nurmag'ambet bu turmush qiyinchiliklariga yoshligida uncha ahamiyat bermay, esi kirgach, qanday qilsam oilaga yordamim tegar ekan, deb o'ylaydigan bo'ldi. Mana, vaqti kelib, ish topilganidan so'ng, u otasi bilan shaharga qarab jo'nadi...

Boymirzaning duradgorlik kasbi borligi bizga ma'lum. Qayroqli qishlog'i yonib ketgach, duradgorlarga ish topildi. Shunday qilib, Nurmag'ambet otasiga ko'makchi bo'lib qoldi.

Nurmag'ambet yoshligidanoq yog'och randalashni yaxshi ko'rar edi. Tesha, bolta, pichoq va qalamtarosh bilan yog'ochlarni yo'nib turli o'yinchoqlar yasar edi. Ammo hali u

boshqa bolalarnikidek chiroyli qilib yasay olmasa-da, harqalay bir amallab nusxasini o'xshatar edi. U yoshligidayoq do'mbira chertib, o'lan ayta boshladi. U tabiatan sho'x, o'yin-kulgiga moyil bo'lganligi tufayli ba'zilarning odati va qilig'ini o'langa qo'shadigan ham bo'ldi. Boshqa bolalarga nisbatan gavdali bo'lib, novcha o'sgani uchun ba'zida o'zidan miqti bolalar bilan kurashga tushar, goh yiqitib, goh it yiqish qilib yurar edi. Uning mana shu fazilatlarini ko'rgan odamlar: "Bu bola qanday bo'lar ekan?" deyishib yurishar, har kim o'z fikrini o'zicha yo'yar edi. Uning yog'och yo'nishini ko'rganlar: "Otasiday duradgor bo'lsa kerak", — deyishsa, "Ehtimol shunday bo'lar", — deyishadi ba'zilar.

"Tog'da tug'ilgan qulunning ikki ko'zi toshda bo'ladi" deyishadi-ku. Ko'z ochib ko'rgani duradgorlik bo'lganidan so'ng qayoqqa borardi deysan. Ammo yurish-turishiga qaraganda, otasidan oshib hech qayoqqa bora qo'ymas, bu ham duradgor bo'lsa ajab emas.

Ba'zilar uning do'mbira chertib, o'lan aytishiga qarab, bu bola baxshi bo'ladi, desa, ba'zilar:

— "Chopavergin har yonga, puling bo'lsa hamyonda" deganlaridek, baxshilik qilish uchun ham davlat kerakdir-ov. Cho'ntagida hemiri yo'q, qayoqdan baxshi bo'lsin? — deyishar edi.

Ba'zilar esa gavdasiga, kuchiga qarab:

— Bola zo'r polvon bo'ladi, — deyishsa, ba'zi birovlar:

— Ana, polvon bo'ldi ham deylik. Keyin nima qiladi? Har kuni to'y, hayit qani, u kurashga tushadigan? Bekordan bekorga kurash tushib yiqitgandan nima foyda? Oti qani uning to'yga minib boradigan? Birovning otini so'rab minib, to'nini kiyib borganning nimasi yaxshi? — deyishardi.

— Bu gaplarni u bola o'ylarmikan? — dedi kimdir.

— Qaydam, bu gaplarga aqli yetmas, — deyishardi ba'zilar. — Aqli yetsa, mol-dunyo topishning payiga tushar edi. Bunaqa narsalar xayolida ham yo'q. Bor topgani: "La-la-lay! Taralabedod!"

— Hali yosh-ku.

— Nimasi yosh? "O'n uch yoshda o'tov egasi" deyishgan qadimgilar. O'n uchdan oshib ketdi-ku. Qaddi-bastini qara, o'n besh,

o'n olti yashar bolanikidek. Shu paytda kirmagan es qachon kiradi unga?

— Buning uchun bola ham, ota ham aybdor emas, bildingmi? Buning uchun faqat onasi aybdor, ha! Otasi uni xizmatkorlikka beraylik desa, onasi: "Bolam bechora ezilib qoladi" deb ko'nmagan. "Boyning moli-yu, xizmatkorning joni shirin" deganlari shu-da!

— Onasi sen o'ylagancha aqlsiz ayol emas. Uning ham bir bilgani bordir, axir. Ha, bo'yi o'ssin, bo'g'inlari qotsin, degandir...

Shu yo'sin o'zaro gap-so'z qilishgan odamlar, ish topilib Nurmag'ambet otasininig ketidan ketganidan so'ng, "Ha, barakallo!" deb suyundi-yu, "Qani, ko'raylik-chi, oxiri nima bo'lar ekan?" deb kutdi.

Nurmag'ambet o'ziga tilakdosh odamlarning ishonchini oqladi: otasiga bo'lishdi, bolta chopishdi, ishda otasidan qolishmadi. Kuchda ham ustun kelsa keldiki, bo'sh kelmadi: u urgan bolta otasinikidan chuqurroq botdi, otasi bilan birga ko'tarishgan xarining ikkinchi boshi yuqoriroq ko'tarildi...

— Mana endi yigit bo'ldi, — deb quvonishdi uni ko'rgan odamlar. — Ota-onasini boqa boshladi, degani shu endi!..

Boymirza ancha yillardan beri duradgorlik qilib yurib, ishi nihoyatda og'irligi tufayli bel og'rig'i kasalini orttirib olgan edi. Ba'zan bel og'rig'i tutib qolsa, qimir etolmay yotib qolar, ba'zan bel og'rig'i haftalab cho'zilar, ba'zan qattiq tutib qolganida oylab to'shakda yotib qolar edi. Uning bu kasali ko'proq bahor yo kuz paytlarida tutardi.

Bu yil, o'g'li Nurmag'ambetni ergashtirib ishlash uchun Qayroqliga borganida ham uning bel og'rig'i tutib, tirishtirib tashladi. Qimir etishga majoli qolmaganini ko'rgan bir og'aynisi uni aravaga solib uyiga olib keldi. Nurmag'ambet esa o'sha joyda qolib, otasining ishini davom ettirdi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Nurmag'ambet Qayroqlida uzoq qolib ketdi. Shunday qilmay iloji yo'q edi. Otasi shu yotganicha qish bo'yi yotib qoldi. Yolg'iz To'leboyning topgani ro'zg'orga yetmas edi. Nurmag'ambetning topgani qo'shilib, har holda, oshib ketmasa ham "ochdan o'lmaydigan, kuchdan qolmaydigan" darajaga yetishdi.

Boshga tushganini ko'z ko'rar ekan. Ilgari otasiga yordamchi bo'lsa, endi boshiga tushgandan keyin duradgorlik ham qila boshladi. Topishi uncha ko'p bo'lmasa ham, boltasiga ish topilib turdi.

Dastlab og'ir mehnatdek tuyulgan duradgorlik ishi unga keyinchalik havasga qiladigan ish bo'lib qoldi. Havasga ishlamay nima qilsin endi? Bu yerdan ketib qayoqqa ham borardi? Hamma yerda ham tosh-tarozu. U o'zicha ovuldagi xizmatkorlik bilan qishloqdagi duradgorlik ishini qiyoslab ko'rsa, keyingisi ma'qul ekan. Ovuldagi xizmatkorlikni u o'z og'asi To'leboyning ahvolidan biladi. Uni boy tun-kun ishga buyuradi, na kiyimga, na ovqatga yolchiydi, mehnat haqini ham o'z vaqtida bermaydi, ba'zan yeb ham ketadi; o'ris boylarning ishlari ham aytarli yengil emas-u, ammo qozoq boylarichalik ovora qilishmaydi, tomog'ing to'q, usting but. Kelishilgan mehnat haqingni o'z vaqtida olasan, haftasiga bir kun hordiq beradi, mo'rchaga tushiradi, toza o'ringa yotqizadi...

Nurmag'ambet o'z mehnati, chaqqonligi bilan xo'jayinlariga yoqib qoldi. Buning ustiga u baquvvat ham edi, nima ishga buyursalar ham hafsala bilan bajarar, o'rinlatmay qo'ymas edi. U ishni bajonidil qilar, u ko'targan yukni o'zidan katta bolalarning bir-ikkitasi zo'rg'a ko'tara olar edi; o'roq o'rganida esa u yo'lni boshqalarnikiga nisbatan bir yarim baravar keng olar, bir yarim marta tez o'rar edi. U yalqovlik qilishni, charchashni bilmas, erta turib, kech yotar edi...

Qayroqlining boylari shu fazilatlari uchun uni yaxshi ko'rib qolishdi. Unga mehnat haqini biridan biri oshirib to'lab, talashib yollashadigan bo'lishdi. Shunday qilib, u qishloqda "yoqimtoy xizmatkor" atalib ketdi.

Kutilmagan falokat

Nurmag'ambet shu ketgancha to'rt-besh yil qolib ketdi. "Qo'li qimirlaganning og'zi ham qimirlaydi" deganlariday, ko'p ishlagan sari topishi ham mo'l bo'ldi.

O‘ziga qolsa, niyati, topgan-tutganini uyining ahvolini yaxshilashga xarj qilish, oilasini tuzuk yashaydigan xonadonlar qatoriga qo‘yish edi.

Haqiqatdan ham Nurmag‘ambet xizmatkorligida yurgan kezlarida uning oilasidagi ahvol tobora yaxshilana bordi, ro‘zg‘ori boyiy boshladi, idish-tovoq, ko‘rpa-to‘shak, kiyim-kechaklari yangilandi; buzoq-muzoq, to‘qli-mo‘qli deganday... mol ham to‘plana boshladi. Xullas, turmushlari tuzala boshladi.

Shunday kunlari Nurmag‘ambet uyiga bir kelganida:

— Ota, endi birovlarning eshigida ishlashni qo‘ying. Endi ochdan o‘lib, kuchdan qolmaydigan darajaga etdik-ku. Mana, To‘leboy akam ishlayapti, qolaversa, men ham, — dedi. — Oyi, endi siz ham birovlarning kiyim-kechagini tikib yurishni qo‘ying. Ikki bolangizning topgan-tutganiga qanoat qilib, uyda o‘tiringlar. Undan ko‘ra, qo‘llaringdan kelsa, bitta mix topsanglar ham uyga qoqinglar, bitta nina sanchsanglar ham o‘zimizning oilamizni boy-badavlat yashaydigan xonadonlar safiga qo‘shish harakatiga tushinglar...

Otasi bilan onasi Nurmag‘ambetning aytganini qilib, qo‘llaridan kelgancha ro‘zg‘or ishlarini butlashga harakat qilishdi. Tashqaridan kirim kirib, oilani ichidan butlovchilar chiqqanidan so‘ng, Boymirzaning ilgarigi eski uyiga rang kirib, yil sayin yaxshilana bordi, tuzuk yashaydigan xonadonlar qatoriga qo‘shila bordi.

Qalampir sal tiriklik qilmaganda, ehtimol, bu uyning ahvoli tag‘in ham yaxshilanib ketarmidi.

— Mayli, bolam, aytganingni qilaylik, — dedi u Nurmag‘ambet yana bir kelib, uyining tuzala boshlaganini ko‘rib, tag‘in ham yaxshilash kerakligi haqida gapirganida. — Ammo sen ham bizning aytganimizni qil.

— Xo‘sh, qani, ayting-chi?..

— Marhum otam hayotligida: “Hech kim boy bo‘lib mahv etolmas yer yuzini, suluv bo‘lib qamashtirolmas kun ko‘zini”, der edi. Karomat qilganini qarang. Talay boyni ko‘rdim, hech qaysisi boyligi bilan yer yuzini mahv etolgani yo‘q. Boylik degan narsa qo‘lning kiriga o‘xshagan gap ekan, yuvsang ketadi-qoladi.

Shuning uchun ham oto-bobolar: "Boy — bir otliq, botir — bir o'qlik", deyishadi.

— Sizningcha, boyimagan ma'qulmi, oyi,— deb kuldi Nurmag'ambet.

— Tangri boylik beraman desa qochmassan, bermayman desa, u boylikning ketidan quvmassan, o'g'lim. Quvlaganing bilan yetolmaysan...

— Bordi-yu, men yetsam-chi?

— Shakkoklik qilma, bolam!.. Bobolaring: "O'g'il tug'mas xotin bo'lmas — umrini so'ra: dunyo topmas, yigit bo'lmas — barakasini so'ra" deganlar. Kim boyigisi kelmaydi deysan, chirog'im. Kim harakat qilmaydi deysan, boyish uchun, faqat barakasini bersin. Tangri barakasini bermasa qiyin!..

Ba'zan onasi bilan hazil tariqasida adi-badi qilgani bo'lmasa, onasi bilan gap talashib ko'rmagan Nurmag'ambet bu gal ham boylik haqidagi gapni cho'zib o'tirgisi kelmadi.

— "Maslahat aytaman" degandingiz-ku, oyi. Shumi maslahatingiz?.. — dedi kulib.

— Aytmoqchi bo'lgan gapim, — dedi Qalampir salmoqlab. — Bobolaringning: "Etigi yomon to'rga chiqaolmaydi, yengi yomon osh yeya olmaydi", degan gapi bor. Tag'in: "To'ni yomonni it qopadi", "Tanigan joyda boy hurmatli, tanimagan joyda to'n hurmatli" ham deyishadi...

— Muncha maqolchi bo'lib ketdingiz? — dedi Nurmag'ambet kulib.

— Maqolni ko'p aytayotganimning sababi, — dedi Qalampir boyagi salmoqli qiyofasini o'zgartirmay. — Yomon ko'zdan asrasin. Shukur, topishing yomon emas, boyishni qo'yib tur, ustboshingni but qilishni o'yla!.. Shunchaki butunlab qo'ya qolmay, yaxshilab kiyin! Mana man degan boyning o'g'lidan olifta bo'lib yur!

— Yarasharmikan, oyi? — dedi Nurmag'ambet xo'rsinib.

— Nega yarashmas ekan?

— Tagimda yaxshi otim bo'lsa, yashayotgan uyim tuzuk bo'lsa, yaxshi kiyim yarashar edi. Ba'zilar olifta kiyinib yurganimni ko'rib kulmasmikan?

Bolasining gapini eshitib, ichida: "Bu gapning ham joni bor", deb o'yladi-yu, ichidagi gapini tashqariga chiqarmadi.

— Noumid shayton, bolam, — dedi u. — "Go'ng tushgan joyda o't-o'lan chiqadi", deyishgan bobolaring. Hali yoshsan, nimaga noumid bo'lasan. Oldini bergan ketini ham beradi. Baxt bilan davlat yomg'ir emaski, bir kunda shovullatib yog'a qolsa. U xuddi ko'z yoshi misoli toma-toma ko'l bo'ladi. "Toy otga, ot murodga etkazadi". Avvalo dushman ko'zi qilib kiyimingni tuzat. Keyingisini tag'in ko'raverasan!..

Onasining gapi ta'sir qildimi yo yoshligidan yaxshi kiyinishni odat qilgani uchunmi, harqalay Nurmag'ambet ham ro'zg'orga qarashib turdi, yildan yilga yaxshi kiyina boshladi. Kiyinganida ham ovulcha emas, shaharchasiga, ruscha kiyimlarni kiya boshladi. U mahallarda o'rischa kiyinish unchalik odat tusiga kirmagan bo'lib, bitta-yarimta odam ruscha kiyinsa, ovulning dindorlari "cho'qingan" deb gap qilishar, iloji boricha monelik ko'rsatishar edi. Nurmag'ambet dastlab ruscha kiyinib kelganida, ovulning haligi dindor oqsoqollaridan emas, o'z onasidan sal cho'chigan edi. Aksincha, onasi o'g'lini ko'rganida:

— Bu kim bo'ldi? — deb hayron bo'ldi. Keyin bag'riga bosib o'pdi.

— Qalay, kiyimlarim yarashibdimi, oyi, — deb so'radi bola onasidan.

— Yarashganda qandoq, o'g'lim. Issiq tanangda to'zisin! — deb onaizor o'g'lini qayta qo'chib o'pdi. Ba'zi qo'shnilar:

— Yarashibdi-ku, biroq o'rischa-da, — deyishgan edi.

— Nima farqi bor? — dedi Qalampir ularga. Keyin o'g'liga dedi:

— Chiroyli bo'lsa, toza bo'lsa bo'ldi-da. Kiyaver, chirog'im!.. Faqat sochingni oldirib yur!..

Nurmag'ambet onasining bu tilagini bajo keltirdi. U qishloq yoshlarining orasida faqat yaxshi kiyimlari bilangina emas, kasbi, hunari bilan ham ko'zga ko'rina boshladi.

Yakshanba kunlari, ayniqsa, ishi oz yakshanba kunlari yo bayram kunlari shahar yoshlari o'yin-kulgi kechalari uyushtirishsa, ikki yigit shu kechaning guli hisoblanadi. Ularning biri — Andrey Kurganov, ikkinchisi — Nurmag'ambet.

Avvalo ikki og'iz gap Kurganovlar haqida: feldsher Vasiliy Kurganovning Andrey va Anton degan ikki o'g'li borligidan siz xabardorsiz, albatta. Anovi yili Nurmag'ambet shaharga o't qo'yganida Vasiliyning uyi yonib, o'zi og'ir jarohatlangan, kasalxonaga tushib, zo'rg'a tuzalib chiqqan edi. Biroq tanasiga yong'in tushirgan jarohatlardanmi, yong'in paytida cho'chib uyg'ongani uchun yuragi o'ynab qolgani uchunmi, yo esa yong'in tufayli ilgarigi kasallari qo'zigani uchunmi, harqalay, bir yilcha o'ziga kelolmay sudralib yurdi-da, qazo qildi. Xotini-yu, ikki o'g'li orqasida qoldi.

Andrey Nurmag'ambet bilan teng edi. Anton esa to'rt-besh yosh katta, ikkalasi ham boshlang'ich maktabni bitirdi. Yoshligidan sho'x, tentakroq bo'lib o'sgan Anton boshqa o'qiy olmadi. Akasiga qaraganda Andrey o'qishga havasi bor, quntli edi-yu, uyi yonib ketgach, Vasiliy uni o'qitishga qurbi yetmadi. Shunday qilib ikkala o'g'ilning peshonasiga dehqonchilik ishlari yozildi.

Ammo bu qanday dehqon bo'ldiki, uning na moli, na omochi bor? Bunday dehqonning yollanib ishlashdan o'zga nima chorasi bor deysiz?

Aka-uka Kurganovlar ham xuddi shunday qilishga majbur bo'lishdi. Otasi kasalga chalinib, ishga yaramay qolganidan keyinoq Anton shahar boylariga yollanib ishlay boshladi. Andrey esa, bo'yinturiqni otasining vafotidan keyin bo'yniga kiydi... Ammo Anton xizmatkorlikda ko'p yurmadi. U qaysidir bir shaharga ketib, bir yilda, ikki yilda bir marta keladigan, kelganida ham qisqa muhlatga yaxshi kiyinib keladigan bo'ldi. Aytishicha, mato to'qiydigan fabrikaga ishga kirganmish.

O'ziga qolsa, Andreyni ham, Nurmag'ambetni ham o'zi ishlaydigan fabrikaga olib borib ishga joylashtirmoqchi edi, biroq onalari ruxsat berishmadi.

Andrey bilan Nurmag'ambet do'st, totuv bo'lib ketishdi. Chunki ular bir-birini yoshligidan tanishar, birga tepkilashib o'sishgan edi. Andrey qozoqlarning ichida o'sganligi uchun bo'lsa kerak, qozoqchani yaxshi bilar, Nurmag'ambet uni jonidan ham ortiq yaxshi ko'rar edi.

Qishloq yonib ketgandan keyin, ayniqsa, u yerga kelib ishlay boshlagandan keyin Nurmag'ambet Andrey bilan yana ham yaqinlashib, totuvlashib ketdi. Bunday qilishining boisi, avvalo Andreyning uyi yonib ketishidan bo'lsa, qolaversa, o'zini bu oila oldida aybdor his etishidan edi, u o'z aybini yuvish uchun ular bilan do'st tutinishdan boshqa iloji qolmagan edi.

Nurmag'ambet xuddi shu maqsadda, otasining vafotidan so'ng Andreyni o'z yoniga oldi. Andrey aqlli, ziyrak yigit bo'lgani bilan hali kuchsiz edi. Shuning uchun ham Nurmag'ambet uni shatakka oldi.

— Birga ishlaylik, — dedi u Andreyga, — og'ir ishlarni men qilaman, yengillarini sen...

Birga ishlaganda omoch haydasa, Andrey qulog'ini ushladi, cho'p-xashak g'aram qilsa, tepasiga chiqdi, bug'doy o'rganda seyalkaning qulog'ini aylantirib yurdi, qop ko'tarishganda suyashdi.

Andrey surnay chalganda Qayroqlida hech kim uning oldiga tusholmasdi. To'y surnaysiz bo'lmaydi, albatta. Surnaysiz o'tgan to'yning qizig'i yo'q. Shuning uchun ham biron uyda to'y bo'lsa, Andreysiz o'tmaydi...

Nurmag'ambet ham surnay chalishni havas qilsa-da, biroq barmoqlari yo'q. Qaysi yili, bo'ri tutaman, deb yurganida ushuk urgan, keyin Vasiliy uni kesib tashlagan. Kalta barmoqlari surnay pardalarini bosishga yetmaydi, kuyni buzib chalishga nafsoniyati yo'l qo'ymaydi, hamma ishni o'ng qo'li bilan qilib o'rgangani uchun chapaqay chalay desa barmoqlari tushmagur jadal harakat qilolmaydi.

Nurmag'ambet surnayni eplab chala olmagach, hushtak chalib Andrey chalgan surnay tovushiga jo'r bo'lishni mashq qildi. U, bora-bora, kurak tishlari orasidan hushtak chalganida hushtagi ancha joygacha yetadigan bo'ldi. Biroq u bekordan bekorga emas, surnayga jo'r bo'lib, ohang bilan chaladi hushtakni.

Shunday qilib hushtak chalishda qishloq yoshlari orasida uning oldiga hech kim tusholmaydigan bo'ldi. U rus qo'shiqlari ohangini yaxshi o'rgangani bilan rus tilini yaxshi talaffuz qilolmaydi, shuning uchun rus so'zlarini buzib aytishga iymanib, qo'shiq aytishga

ham uncha ixlos qo'ygani yo'q. Qozoq kuylarini, albatta, o'z tili bo'lgani uchun yaxshi aytadi. Nurmag'ambet o'lan boshlasa bas, Andrey ham surnayi bilan jo'r bo'ladi.

Shunday qilib, Andrey bilan Nurmag'ambet Qayroqli yoshlari orasida xushchaqchaq davralarning guli bo'lib yurgan kezlarida, to'satdan bir falokat yuz berdi. Falokatning bosh sababi Anton edi. U uzoq shahardan uyiga bir necha kunga mehmon bo'lib kelgandi. U qishloqning eng yirik boyi — Yegor Propadkoning qizini sevib qolibdi. Nurmag'ambet bilan Andrey bu kezda o'sha Propadkoning xizmatini qilib yurishar edi.

Natashaning badjahl otasi buni sezib qolib, qizini uyiga qamab qo'ydi. Anton Yegorning uyiga kirolmasligiga ko'zi yetgach, Nurmag'ambet orqali Natasha turgan xonaning kalitini qo'lga olib u bilan uchrashadigan bo'ldi. Yegor buni ham sezib qolib, qizi turgan uy oldiga qorovul qo'yadigan bo'ldi.

Yegor qizini Ko'kchatog' shahrining eng boy odamiga va'da qilib, undan katta qalin olib qo'ygani uchun shoshib qoldi. U qiziga: "Bu nima qilganing?" degan edi, qizi: "Faqat shu yigitni deyman!" dedi. Otasi: "Unashtirilganingga tegsang ham tegasan, tegmasang ham tegasan. Zo'rlab beraman!" deganida, qiz: "Baribir men unga xotin bo'lmayman, aytganimga tegmasam, o'zimni o'zim nobud qilaman!" deb turib oldi.

Nima qilishni bilmay qolgan Yegor, Antonni o'ldirish kerak, degan qarorga keldi.

Yegorning qarindosh-urug'lari ko'p edi. U qarindoshlari, inilari, amakivachchalarini yashirincha bir joyga to'plab, Antonni o'ldirish haqidagi qarorini aytgan edi, ular ham bu fikrni ma'qul topdilar.

— Biroq qanday qilib? — deb so'rashdi ular.

— Bunday qilamiz, — dedi Yegor. — U anavi xizmatkor qozoqning yordamida biz uyquga ketgan mahalda darvozani ochib kiradi, shekilli. Huddi ana shu vaqtda bir ilojini qilib o'ldirish kerak.

— Qozoq yigitni nima qilamiz?

— Agar qarshilik ko'rsatsa, o'ni ham!..

— Qarindoshlari qidirsa-chi?

— Ovuliga ketgan edi, hali kelgani yo‘q, deymiz qo‘yamiz. Ularning qo‘lidan nima ham kelardi, sudga berishsa uning yo‘lini topamiz! Pulga sotilmaydigan sud yo‘q!..

Shunga qaror qilindi. Yozning o‘rtalari edi. Kechalari oydin... Kechqurun darvoza odatdagidek berkitildi. Nurmag‘ambet bu kecha Antonning kelishini bilib, kechqrurun Natasha orqali kalitni olib qo‘ydi.

Anton keladigan kuni odatda Nurmag‘ambet o‘rniga yotar edi-da, odamlar uyquga ketgan mahalda eshikni ochar edi. Bugun ham shunday qildi. U o‘zini qanday falokat kutayotganini payqagani yo‘q. Bu harakatdan ayg‘oqchilari orqali xabar topgan Yegor, Antonni o‘ldirish uchun hozirlab qo‘ygan odamlarini qorong‘i, pastqam yo‘laklarga joylashtirdi-da, qo‘llariga bolta, cho‘qmor, bolg‘a kabi qurollarni taqsim qildi. Ular tayyor turishganida xizmatkorlar yotadigan tomondan sharpa eshitildi. Bu albatta, ximatkor qozoq.

Yotoqdan ehtiyotkorona chiqqan odam oyoq uchida borib darvozaning qulfini ochdi. Pastqam joylarda pusib turganlar qorong‘ilikka ko‘zlari o‘rganib qolganidan, tashqaridan kirgan odamni ko‘rishdi. Kirgan odam, albatta, Anton bo‘lsa kerak! Qotillar hayajondan titrashib qo‘llariga qurollarini ola boshladilar.

Hech narsa xayollarida yo‘q, Nurmag‘ambet bilan Anton hovliga kirib kelishganida, haligi berkinib turganlar birdan hamla qilib qolishdi. Antonning boshiga bir narsa qattiq tegib uchib tushdi. Nima hol yuz berganini sezmay, Nurmag‘ambet yiqilib tushgan Antonni ko‘tarmoqchi bo‘lib engashganida, bir talay odam uning ustiga yopirildi.

Nurmag‘ambet jonholatda o‘rnidan uchib turib, o‘ziga yopishgan odamlarni har yoqqa uloqtirib tashladi. Ular tag‘in yopirilishdi. Shunda kimdir Nurmag‘ambetni chopish uchun bolg‘a o‘qtalgan edi, Nurmag‘ambet uning qo‘lidan boltasini yulib olib, o‘ziga o‘qtaldi. O‘ldimi yo hushidan ketdimi, harqalay, haligi odam yiqilib tushdi...

Nurmag‘ambet boya intilganida boshqa odamlar ham in-iniga kirib ketgan edi, u Antonning oldiga keldi. Qarasa, qimir etmay yotar edi, ko‘tarib oldi-yu, ko‘chaga qarab qochdi... Orqasida quvlab kelayotgan odamlarning qorasi elas-elas ko‘rinib qoldi-yu, bi-

roq qattiq chopib kelayotgan Nurmag'ambetga ular yo yetolmadi, yo yetishlariga ko'zlari yetsa ham botina olishmadi. Uzoqdan bir nimalarni otishgan bo'lishdi, biroq ularning otgan narsalari Nurmag'ambetga tegmadi... Quvlab kelayotganlar hovlidan chiqmay qolib ketishdi...

Nurmag'ambet yugurganicha Kurganovlarnikiga keldi. O'sha kuni Andrey uyga borib yotaman deb ketgan edi. Eshik qattiq taqilladi. Andrey cho'chib uyg'onib, eshikni ochdi-yu, qotib qoldi: eshik oldida birov kimnidir ko'tarib turibdi!..

— Bu kim?!

Voqeaga fahmi yetgach, Andrey hushidan ketib, yiqilib tushayozdi. U "Oyi, oyi!" deb qichqirdi. Ona sho'rlik bu tovushdan qo'rqa-pisa qorong'ida paypaslab chiroqni yoqib qarasa, karavot ustida kimdir sulayib yotibdi... Yonida Andrey bilan Nurmag'ambet tikka turishibdi. Bunday qarasa, o'g'li Anton! Yuz-ko'zi qon. "Voy dod, nima bo'ldi bunga?!" deb baqirganicha bolasining ustiga o'zini otdi. O'g'li allaqachon o'lib qolgan edi!

Ona hushidan ketdi... Usiz ham kasalga chalinib yurgan ona bechora dunyodan ko'z yomdi...

Hash-pash deguncha qo'ni-qo'shnilar to'planishdi. Nima hodisa yuz berganligini tag-tugi bilan tushunib yetgan Kurganovlarning yaqin qarindoshlari : "To'planib boramiz, qonga qon bilan javob beramiz!" deb hovliqishgan edi, odamlar ularni to'xtatishdi.

— Nurmag'ambetning aytishiga qaraganda, — deyishdi ular, — ular tarafdan ham odam nobud bo'lgan ko'rinadi. Bekordan bekorga hovliqa bermanglar. Sho'rtanga — ataman oldiga odam yuboraylik. Kelsin, tekshirsin. Odil qonun hal qilib beradi.

Atamanga odam ketganida, Andrey odamlarga bunday dedi:

— O'ladigan odam o'ldi. Propadkoga yaqinlashma, deb zorlandim. Gapimga kirmadi. Mana, ko'rib turibsizlar, o'z boshiga yetdi! Endi birovlarni nohaq kuydirmaylik...

— Kimni?!

— Nurmag'ambetni!.. Buning aybi shuki, Antonga bo'lishgan. Shuning uchun jazolansa, adolatsizlik bo'ladi bu.

— To'g'ri! O'zining aytishiga qaraganda, ular tomondan ham bittasi gumdon bo'libdi. Tekshirilsa, jazolanadi-da!..

— U emas, men jazolanaman!..
— Nima uchun?
— O'lgan odam mening tog'am. Men javob berishim kerak.
— Qanday qilib?
— Men o'ldirdim, deb bo'ynimga olaman...

Ertasiga ataman, yana boshqa amaldorlar kelib, voqeani tekshira boshladi. Nurmag'ambet bolta bilan urgan odam ham o'libdi. U Yegorning inisi Farfiriy ekan.

Har ikkala tomondan ham odamlar javobgarlikka tortildi. Yegor Ko'kchatog'dagi savdogar qudasining yordami bilan sudni sotib oldi-da, o'z odamlarini ozod qildi, faqat Andrey jazolandi, u besh yil muddat bilan surgun qilindi. Ammo sud davomida tergovlarda faqat o'zim aybdorman, deb hamma aybni bo'yniga olib, o'zi bilan birday javobgarlikka tortilgan Nurmag'ambetni bo'shattirib yubordi. Nurmag'ambet unga ko'nmagan edi, azbaroyi do'stligini o'rtaga qo'yib, uni zo'rg'a ko'ndirdi...

Cho'loq polvon

Nurmag'ambet tergovdan ozod bo'lganidan keyin ikki sababga ko'ra, Qayroqliga kelmay uyiga qarab ketdi. Birichidan, paytini topib Propadkolar o'ldirib yuborishidan qo'rqqan bo'lsa, ikkinchidan, Propadkolar Kurganovlarning uyini buzib olib ketgan edi, o'shani ko'rmay qo'ya qolay, dedi.

U shu ahvolda shalvirab uyiga kirib keldi. U dastlabki kunlari nima bilan mashg'ul bo'lishi kerakligini o'ylab ham ko'rmadi. To'g'risi, o'ylashga ham vaqt bo'lmadi. U Kurganovlarga o'xshagan bechoralarni Propadkoga o'xshagan zo'ravonlar qachongacha qiynaydi, azoblaydi, deb o'ylar, o'yining tagiga yetolmas edi. Mana shunday og'ir xayolda yurgan kunlari ovulga bir otni minib, ikkinchi otni yetovga olib bir yo'lovchi kirib keldi. U:

— Xo'sh, yo'l bo'lsin? — deganlarga:

— To'qsonboyga yil oshi beriladigan bo'ldi, shunga sog'in[1] so'rab yuribman, — deb javob berdi.

[1] Qimiz qilish uchun biya suti yig'iladi.

— Yil oshi qachon berilar ekan?

— Tag'in bir oydan so'ng.

— Qancha odam taklif qildi?

— Ko'kchatog', Otbosar, Oqmo'la, Qarqarali, Kerakuv, Qizil-jar, O'mba — shu yetti uyezdning odamlari tugal taklif qilindi.

— Yopiray, bunga osh yetkazib bo'ladimi?

— To'qsonboyning o'z molidan ming qo'y, yuz biya, yaqin qarindosh, do'stlaridan yuz ellikta biya, bir yarim mingta qo'y, jami bo'lib ikki yarim ming qo'y, ikki yuz ellik yilqi so'yiladi. Shu yetmaydimi? Qimizni yil oshiga keladiganlarning o'zlari olib keladi.

Bir oy qimiz to'plashib yil oshiga hozirlangan odamlar, qimiz-larini saba[1]ga quyishib, ba'zilar aravaga, ba'zilar otlarga yuk-lashib... deganday, chortarafdan To'qsonboyning ovuliga oqib kela boshladilar. Keng dala chumoliday o'rmalab yurgan odamlarga to'lib ketdi.

Bular orasida Nurmag'ambet ham bor edi. Bu paytda u xayol suraverib rang-ro'yi so'lib qolgan. Odamlar yil oshiga ketishayot-ganida onasi uni sen ham borgin deb koyidi. O'ziga qolsa borgisi yo'q, uyida xotirjam o'tirgan edi.

— Sen nega o'tiribsan? — dedi Qalampir o'g'liga.

— O'zim... shunday...

— Ha, yil oshiga bormaysanmi?

— Nima foyda menga?

— Yo'q, borasan! — dedi onasi buyruq ohangida. — Nega buncha shalvirab ketyapsan? Shu ham yigit bo'ldimi, boshiga bir ish tushsayoq bo'shashib ketadigan? Bu odatingni qo'y! Borgin oshga! Shu turishda emas, yaxshilab kiyinib bor!..

Nurmag'ambet onasining gapiga kirdi. Onasi bolam ovulga kelsa kiyar, deb hozirlab qo'ygan qozoqi kiyimlarini sandiqdan olib berdi, keragada osilib turgan yangi egar to'qimlarni ham olib qo'liga tutqazdi, bu yil beshga to'ladigan otini mindirib, bolasini otlantirdi.

Bunday to'y-tomoshalarda el-yurting og'ziga tushadigan nar-sa — polvon yigit bilan yaxshi ot bo'ladi.

---

[1] Ot terisidan qilingan mesh, taxminan 250–300 litrgacha qimiz sig'adi.

Yetti uyezd odami to'plangan bu ovulda poygaga qo'yish uchun mingga yaqin ot hozir bo'libdi. Ayniqsa, bular orasida Oqna baxshining Qulager oti odamlarning og'ziga tushib qolgan edi. Odamlar uni: "Qanoti bor emish, sal chopganidan keyin qush bo'lib uchib ketarmish", deb gap-so'z qilishdi. Bu gaplarni eshitganlar, Qulagerday otni havas qilishib, o'z otlarini puf sassiqqa chiqarib qo'yishdi. Ular: "Bu safar ham poygani o'sha Qulager oladi" deyishdi.

"Falonchi polvon kelibdimish, tugunchi polvon kelibdimish", degan gaplar ham tarqaldi. Bularning ichida eng zo'r dovruq qozongani "Qoraqipchoq Ko'blandi botirning avlodi" — "Tuya polvon" edi. Uni borib ko'rib kelganlar vahima qilishdi.

— Bilaklari xuddi odamning soniday, barmoqlari bilakday, sonlari esa odamning gavdasiday, gavdasi esa o'tovday, quloqlari uzangiday, boshi qora qozonday, og'zi bir qarich, ikki labi ikki bo'lak go'shtday bor. Qovoqlari ustiga bitgan qalin qoshi kichkina ko'zlarini berkitib turibdi, a'zoyi-badanini tuk bosib ketgan, har mo'yi otning dumiday qattiq, ko'rinishi, turqi xuddi nor tuyaga o'xshaydi, ikki yelkasiga ikki odam minib o'tirsa bo'lguday... So'zlasa xuddi arslon irillaganday bo'ladi. Bo'yni qayrilmaydi, agar birovga qaraydigan bo'lsa butun gavdasi bilan buriladi. Bir o'tirib ovqat yeganida bir qo'yning go'shtini ko'rdim demas ekan, bitta saba qimizga zo'rg'a qonar ekan.

— U bilan kim kurash tushar ekan? — deb so'rashdi odamlar.

— Qaydam, ajali yetgan bitta-yarimtasi bo'lmasa, u bilan kim tushardi deysan?..

— Attang, — deyishdi ba'zi odamlar o'kinib. — Yiqitgan polvon ot, tuya, qunduz, ipak... xullas, yuzga yaqin yirik qoramol oladi deyishgan edi, endi o'sha poygani kurashsiz oladigan bo'ldida, haligi shovvoz!

— Unchalik bo'lmasdir-ov, — deyishdi ba'zilar. — Tuya polvon chiqqan el-yurtdan boshqa polvon chiqmaydi deb o'ylaysanmi? Xalq emasmi, chiqib qolar bitta yarimtasi.

— Qaydam...

Yil oshiga to'rt urug' odamlari kelishgan edi: Org'in, Qipchoq, Keray, Uaq urug'laridan.

Odatda, "Org'in bosh bola" deb, to'y-marakalarda bosh polvonni berish huquqi Org'inga berilar edi. Bu gal unday bo'lmadi. Nega deganingizda osh berayotgan urug' bosh polvon chiqarishga haqqi yo'q.

Bu ma'rakada kurashadiganlar faqat Qipchoqlar bilan Kereylar bo'ladi. Kerey bilan Uaq qarindosh bo'lganligi tufayli ular bel ushlasholmaydilar ular to'y-ma'rakada ham birga o'tirishadilar.

Osh tortilib, qimiz ichilgandan so'ng, bir otliq tayoq boshiga bir gazcha keladigan qizil matoni o'rab, "Musobaqaga! Musobaqaga!" deb qichqirganicha Ko'ksengirdagi Ko'ktepaga qarab ot choptirib ketdi. Otliqlar ham, aravasi borlar ham uning ketidan ergashishdi. Yayovlar ham, yer-u ko'kni changitib chopishdi. Qumursqaday o'rmalab kelgan odamlar ko'p kechikmay katta yo'l ustida ikkiga bo'linib, chordana qurishib o'tirishdi. Yo'lning bir tomonida — Qipchoq, ikkinchi tomonida esa — Kerey bilan Uaq. Org'in esa mehmonlarga xizmatda.

— Kamida yigirma ming xalq to'plangan bo'lsa kerak, — deyishdi bu yig'inga qatnashganlar.

Odatda kurashdan oldin poygaga qo'shilgan ot kelishi kerak. Ma'rakaga mingga yaqin ot kelsa ham, ular orasidan uch yuztasi tanlanib olingan edi. Chunki odamlar ot poyga ko'p vaqtni olishini, unga ketgan vaqtni kurashga berib, polvonlarni tomosha qilgusi borligini aytishgan edi. To'y boshi bo'lib yurganlar bu istakni inobatga olib, otni kamaytirgan edi. O'z baxtini sinab ko'rishni istaganlar kecha kechqurun Ko'ktepaning narigi yog'ida, ellik chaqirimcha keladigan Sileti degan joyga jo'nashdi.

O'sha joydan ertalab poyga qo'yildi. Boshqalar esa polvonlarning kurash tushishini tomosha qilish uchun to'planishdi.

Otlar jo'natilib, bosh polvon berish huquqi Qipchoq urug'iga tekkandan so'ng, ular o'zlarining "Tuya polvon"ini yechintirib, o'rtaga tushirishdi, u polvon kurash tushar oldidan tuya junidan to'qilib tikilgan pochasi tizzasidan yuqori chalvar kiyib, belini qayish belboq bilan mahkam qisib bog'lar ekan. Ustiga undan boshqa hech nima kiymas, o'rtaga tushguncha jun chakmonini yelkasiga tashlab o'tirar, kurashish oldidagina yelkasidan olib tashlar ekan.

Shunday qilib, Tuya polvon katta yo'l bo'yiga kelib o'tirdi. Kerey, Uaq odamlari bunday qarashgan edi, hech qaysisi chiqqisi kelmadi. Kerey tomondagilar ichida sakkiz uyezdga bosh sulton bo'lgan "Pang" atalib ketgan Nurmag'ambet degan kishi bor edi. U tuya polvon bilan kurash tushadigan odam topilmaganidan jahli chiqib:

— Nima balo, Kerey, Uaq xotin olmaganmi? Senlardan bola tug'ilmaganmi: senlar er tug'may qora yer tug'ganmidilaring! Sadqayi odam ketinglar-a! — deb baqirdi.

Shu mahal novchadan kelgan, yelkador, ammo beli ingichka, katta-katta bo'ta ko'zlari besaranjon, mo'ylovi endi sabza o'rgan, oqquvadan kelgan chiroylikkina bir yigit xuddi quyon kabi yengil odim tashlab Nurmag'ambetning oldiga kelib ta'zim qilib, qo'llarini cho'zdi. Nurmag'ambet esa, "Bu qaysi yigit bo'ldi?" deb unga tikildi. Yigitning esa etagi bilan jiyaklarini oq bo'taninig yungidan yigirilgan ip adiplab, yoqasiga to'rt enlikkina qunduz qoplangan kamzuli bor, boshida o'ng qulog'iga bostirib kiyib olgan oq tumog'i, oyog'ida poshnasi baland qozoqi etik...

Nurmag'ambet pang bilan uyda ham, dalada ham to o'zidan ruxsat bo'lmaguncha hech kim so'rasha olmasdi. Haligi yigitning hovliqib kelib salom berishi unga yoqmadi.

— Kimsan o'zing? — dedi semiz yuzlarini tirjaytirib.

— Otamning ismi Boymirza, — dedi yigit sal iymanibroq.

— Mening ismim sizning ismingizga adash — Nurmag'ambet.

— Yomon itning otini Bo'ribosar qo'yibdimish, — dedi Nurmag'ambet, yigitning ismi o'z ismiga o'xshash bo'lganini yoqtirmay, — isming tuzuk ekan. Qaysi urug'dansan?

— Turg'un emasmiz. Oz otaning urpog'iman. Bobokalonim Uysin. Obloy xon davrida otam botir o'tib bu yerga kelgach, Kereydan uylanib turg'un bo'lib qolgan ekan. O'sha kishidan qolgan besh-oltita oila shu joyda yashab turibmiz. Kereyga qarashli bir ovulda o'tiribmiz, taqsir, kelgindimiz, Pang ota, — dedi Nurmag'ambet tez-tez so'zlab.

— Ruxsat eting, taqsir. Kereyning arvohiga sig'inib, qipchoqlarning polvoni bilan bellashay. "Er yigitning uchta yurti bo'lar emish. Bittasi — o'z yurti, bittasi — qayin yurti, yana bittasi —

tog'a yurti", deb eshitgan edim. Asli zotim Uysin bo'lgani bilan Kerey qizidan tug'ilganman, taqsir. Men ham Kereyning bitta bolasiman.

Nurmag'ambet pang yigitga javob berish o'rniga atrofga qaragan edi, odamlar: "Mayli, ruxsat bering, taqsir, tushsin!" deyishdi.

— Tusha qol! — dedi Pang.

Yigit chaqqon borib, ko'pchilik o'rtasida yechina boshlaganda:

— Tentakroq emasmi? — dedi Pang.

— Ishqilib uyatga qoldirmaydimi?

Kimdir uning shoirligi ham borligini hamda Qayroqlida boshidan kechirgan gaplarni qisqacha gapirib berdi.

— Aytmadimmi, sal tentakligi bor, deb. Tentak bo'lmasa, o'zi kambag'alning bolasi bo'lsa, haliginday tuzuk kiyimlarni kiya olarmidi? Yollanib ishlashga bo'yni yor bermay yurgan bola-ku. Yoshi nechada ekan?

— Bu yil yigirmaga chiqsa kerak.

Pang o'ylanib qoldi: "Yoshiga nisbatan gavdasi ulkan ekan. Bu bolada bir gap bo'lsa kerak".

Sal o'tmay haligi yigit oppoq boldirlarini yaltiratib ildam o'rtaga tushdi. Egnida qo'y junidan to'qilgan chakmon, yenglarini shimarib olgan.

Kerey, Uaq tomondagilar: "Yo o'zing qo'llagaysan!" deb qichqirishdi.

O'sha paytdagi udumga ko'ra polvon yo'lni hatlab o'tmas edi. Nurmag'ambet parvo qilmay, odamlarning: "Hoy to'xta!" deganiga ham qaramay, chopib o'tib ketdi. "Attang, — deyishdi Kerey tomondagi odamlar, — biron qusur bo'lmasa edi. Yo'lni hatlab ketdi!"

Tuya polvon ham o'rnidan turdi. Bunday qaragan odamga o'rtacha ko'ringan Nurmag'ambetning bo'yi Tuya polvon bilan bo'ylashganda ancha novcha ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Uncha-muncha odam Tuya polvonning ko'kragidan kelar edi. Nurmag'ambet esa uning yelkasidan keldi.

— Hm, Kereyning polvoni senmisan? — dedi u ovozini do'rillatib. — Isming nima?

— Keyin so'rasharsan. Avval kurashaylik.

— Bo‘pti unda, — dedi u Nurmag‘ambetni mensimay, — Qani bola, xohlagan joyingdan ushla!

Nurmag‘ambet cho‘loq qo‘llari bilan Tuya polvonning qayish kamaridan mahkam ushladi, kamarni qo‘liga bir o‘rab oldi. Nurmag‘ambet boshqalar bilan kurash tushganda quchoqlab ko‘tarar edi, bu unday bo‘lmadi, beliga quchoq yetmadi, xuddi nor tuyaga o‘xshaydi.

Yosh yigitning bel ushlashiga, mushtlarining qattiqligiga qarab: “Kuchi bor ekan”, deb o‘yladi Tuya polvon. Shunday bo‘lsa ham undan xavf qilmay, chakmonining ikki biqinidan mahkam ushladi-da, bir qo‘lini bo‘shatib:

— Qani, harakat qil, bola! — dedi.

Shu mahal Nurmag‘ambet Tuya polvonning so‘l yoq buyridan ushlab yonboshiga oldi-da, siltab yubordi. Tuya polvon surinib borib arang qaddini rostlab oldi.

— Yiqitdi, yiqitdi!.. — deyishdi Kerey tomonda o‘tirganlar o‘rinlaridan turib. Odatda polvonning tizzasi bukilsa, uning yiqilgani hisoblanar edi.

— To‘xtanglar! — dedi Nurmag‘ambet baqirib. — Mening nomusimni himoya qilayotgan bo‘lsalaring, orqaga qaytinglar! — Tizzasini bukib poyga olmayoq qo‘yay. Baxtimdan ko‘rdim qayta kurashaman.

Har ikkala tomon ham polvonlarini o‘rtada qoldirib, orqaga chekinishdi.

Ilgari bunday kuchga ro‘baro‘ bo‘lmagan Tuya polvonning jahlidan yuzidagi tuklari tikka bo‘lib ketdi. U Nurmag‘ambetni ezib tashlamoqchi bo‘lib tanasining u yer-bu yeridan ushlamoqchi edi, qo‘li temirga tekkanday botmadi, mushak go‘shtlari o‘ynab, Tuya polvonning qo‘liga ilinmadi. Endi Tuya polvon bolaning belidan ko‘tarib urmoqchi bo‘lib uni mahkam quchoqlab, u yoq-bu yoqqa surib ko‘rdi, bo‘lmadi. Ko‘tarib urmoqchi bo‘lsa, bola oyog‘i bilan yerga dik etib tushar edi.

Tuya polvonning nihoyatda jahli chiqdi, terga botib, og‘zidan ko‘pik sochdi. Endi yoqasidan olib otib yuborishni o‘ylab turgan mahalda, Nurmag‘ambet chaqqonlik bilan uning bag‘riga kirib, yelkasiga dast ko‘tarib oldi. Tuya polvon tipirchilar, lekin Nur-

mag'ambet uni yelkasidan yerga tushirmas edi. Nihoyat, aylantirib-aylantirib yerga bir urdi. Yerga qulab tushgan Tuya polvonning salmog'idan yer silkinganday bo'ldi. Nurmag'ambet xursand, o'ynoqlab o'zini Kerey tomondagi odamlar orasiga urdi. Tuya polvon yiqilib tushgan joyidan turolmay qoldi.

— Qovurg'am!.. — dedi u boshini suyab ko'tarmoqchi bo'lganlarga basharasini bujmaytirib. — Sindi, shekilli...

Nurmag'ambetni Kerey tomondagi odamlar ko'tarib olib ketishdi. "Seni tug'gan onangdan aylanay... Kuchingdan o'rgilay... Yasha, bola!.." degan tovushlar dalani yangratib yubordi.

Bir mahal Nurmag'ambet pang bunday atrofga qarasa, uch-to'rttacha oqsoqoldan boshqa hech kim yo'q, hamma yosh polvon atrofida girgitton bo'lib yuribdi.

— O'tiringlar, ko'p hovliqavermay! — deb baqirdi Nurmag'ambet pang. — Nega buncha hovliqasanlar, yolg'iz ovul kelgindi Uysinni shuncha ardoqlab, xushomad qilib! Nima, u Kereyning men degan bolasimidi shunchalik!

Pangga kim gap qaytara olardi deysiz... Odamlar jim bo'lib qolishdi. Bu mahal Org'inlar oldinda, ustiga ajoyib gilam yopilgan, o'rkachiga ipakdan tikilgan ola chopon tashlangan tuya, kumush qoplangan egar-jabduqli jiyron ot boshliq yuzta yirik molni — yiqitgan polvonning poygasini Pangning oldiga olib kelishdi. Bir to'qqiz molni qo'shib tuya bilan otni Pangning o'z oldida, qolganini boshqa oqsoqollarga ulashib berdi.

— Polvonning o'ziga ham beringlar. Kambag'alning bolasi ekan, mehnati... — deyishgan edi odamlar, Pangdan ilgari Nurmag'ambetning o'zi javob berdi ularga:

— Men bu yerga dunyo yig'ish uchun kelganim yo'q. Sog'-salomat bo'lsam, xalqim omon bo'lsa, menga shundan ortiq boylikning nima keragi bor?.. Men poygadan bir qatim ip ham olmayman. Bu, odamlar, sizning ulushingiz!..

Odamlar Nurmag'ambetning atrofini o'rashib, unga rahmat yog'dirayotgan bir paytda, boshiga oq ipak shol ro'molini yengil-yelpigina o'rab olgan, oltin sirg'ali, egnidagi ko'ylagi bilan nimchasi tatarcha tikilgan, o'rta bo'yli, qorachadan kelgan, yuzida ozgina dog'i bor, o'ynoqi ko'z, qirra burun, taxminan, yigirmalar-

ga borib qolgan, istarasi issiqqina bir juvon odamlarni itara-itara kirib keldi-da, Nurmag'ambetning yelkasiga ola shoyi chopon yopdi, cho'ntagidan kattagina oq ipak ro'mol olib qo'liga berdi.

— "Ro'mol to'n bo'lmaydi, yo'l bo'ladi" deyishadi, — dedi u sipogina yoqimli tovush bilan. — Mardligingiz uchun... Oz bo'lsa ham ko'pday ko'rib oling!..

Juvonning kulib turgan tim qora ko'zlari Nurmag'ambetga quyosh nuridan ham o'tkirroq tuyuldi. U shu paytgacha hech kimdan uyalmagan edi, haligi juvonning qarashlariga tob berolmay, ko'zlarini olib qochdi. Uning qarashlaridan yigitning a'zoyi badani erib ketganday bo'ldi, nima deyishini bilmay, tevarak-atrofga qaray boshladi.

Yigitdan hadeganda jo'yali gap, sado chiqavermagach, juvon tag'in bir nima demoqchi bo'lib turgan edi, uni bir yigit kelib chaqirib qoldi:

— Polvon, seni Pang chaqriyabdi. Yur!

— Biz yo'lvochimiz, — dedi haligi juvon. — Makonimiz Qorao'tkalda. Ketayotgan edik. Xayr bo'lmasa!.. — Juvon mo'jaz qo'lchalarini yigitga cho'zdi. Nurmag'ambetga bu qo'llar olovdek tuyuldi. Uning tili faqat:

— Xayr! — degan so'znigina ayta oldi, xolos.

Juvon yigitga ko'zlaridan nur hadya etib bir qaradi-da, og'ir xo'rsinib, asta jo'nab ketdi...

— Haligi juvonning ismini bilasanlarnmi? — deb so'radi Nurmag'ambet u ketgach, yonidagilardan Pangning oldiga kelayotib.

— Bilmaymiz.

— Attang, so'rab qolmaganimizni qara, — dedi Nurmag'ambet o'kinib. — Ana, jo'nab ketdi...

Pang Nurmag'ambet polvon Nurmag'ambetni oldiga chaqirib oldi-da:

— Qani, qo'llaringni och! — dedi.

Nurmag'ambet ikki qo'lini duoga ochdi.

— Yasha, bolam, — dedi Pang. — Kuching bor ekan. Nima fotiha tilaysan?

— Pang ota, fotihani tilab oladimi?

— Ikkalamiz adash ekanmiz, — dedi Pang.

— Sen Nurmag'ambet degan ismdan voz kechib, "Polvon" degan nom olsang nima qiladi? Bu ozlik qilsa, yoniga "Cho'loq" degan nomni ham qo'shib beray!..

— Pang ota, menga bergan fotihangiz "Polvon" degan ismni qo'shish bo'lsa, uni boya mana bu odamlarning o'zlari fotihalariga qo'shib aytishgan.

— Ha... aytganmiz... Odamlar sevgan bolasini "chunog'im" deyishadi. U bu nomni xalqdan oldi. Endi uning nomi "Cho'loq polvon!" — deb chuvullashdi odamlar.

Bu nom odamlarning qulog'i tagida ko'p vaqtlargacha aks sado berib turganday bo'ldi.

Karon bilan kurash tushish

Cho'loq polvonning dong'i ketdi. To'qsonboyning yil oshidan so'ng Ko'ksingirdagi Ko'ktepa atrofida yashovchi ovul odamlari uni biridan so'ng biri taklif qilib, qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

Cho'loq polvonda shoirlik, baxshilik, qo'shiqchilik, sho'xlik kabi fazilatlarning hammasi bor. U borgan to'y katta tomoshaga aylanib ketadi. Ma'rakalarga to'planishgan odamlar haliga qadar undan nuqson topgani yo'q.

— Qirqta hunari bor degani shu bo'lsa kerak-ta, — deyishar edi odamlar.

Bu gaplarni eshitgan odamlarga Cho'loq polvon erkalik qilib bunday o'lan yozgan edi:

Nurmag'ambet ismim bo'ldi — Cho'loq polvon,
Bir qo'limni ushuk urib bo'ldi cho'loq,
Go'zal-qiz juvon ko'rsam turolmayman,
Jismimdagi bor nuqsonim mana shul-oq.

Yaylovdagi to'y-tomosha, yig'inlarni gul-gul yashnatib yurgan kunlari Cho'loq polvonning qulog'iga bir gap eshitilib qoldi: "Ko'kchatog' shahriga g'alati polvonlar kelibdimish. Ular xuddi ajdahoga o'xsharmish, odam bolasi bas kelolmasmish!..

Ba'zi Cho'loq polvonni ko'rolmaydigan odamlar: "Kuching bo'lsa, Ko'kchatog'ga borib o'shalar bilan kurash tushgin!" deb polvonni tezlatdi.

Bu gaplarga chidayolmagan Cho'loq polvon: "Bo'lmasa men ketdim, — dedi do'stlariga. — Xohlaganlaring yuringlar ketimdan".

Do'stlari Cho'loq polvonning bir o'zini o'lib qolsa yuborarmidi? Bir to'p odam u bilan birga Ko'kchatog'ga qarab jo'nab ketdi.

Polvonning Ko'kchatog' shahriga birinchi marta kelishi edi. Buqpa tog'ining shundaygina etagiga joylashgan Ko'kchatog' shahrining yonida kattakon ko'l bor. Bu ko'l tog'ning bir yonini o'rab olgan. Xuddi shu tog' etagi bilan ko'l tutashgan joydagi bir qozoq uyiga Cho'loq polvon boshliq yigitlar qo'noq bo'lishdi.

Kuz payti edi. Biroq har yili bo'lib turadigan yog'in-sochin yo'q, qop-qora sur bulutlar osmonni qoplab, ko'l atrofi kun bo'yi salqin.

Ertasiga, ya'ni sentabrning birinchi kuni Ko'kchatog'da yarmarka ochiladi, unga atrof-tevarakdan xalq chumoliday o'rmalaydi.

Cho'loq polvon bilan uning do'stlari o'zlariga qo'ngan uy egasiga qimiz oldirib ichishdi-da, otlariga minishib Ko'kchatog' ko'chalarini tomosha qila boshlashdi. Ular ko'chada kelayotib, allakimlarning kattakon bir taxtaga yopishtirib qo'yilgan suratlarini ko'rib qolishdi.

— Yuringlar, ko'ramiz.

Qarashsa, suratdagilarning hammasi ham xuddi suzag'on buqaga o'xshash yo'g'on-yo'g'on odamlar. Ularning o'rtasida boshini qora mato bilan o'rab olgan bittasi turibdi. Xat taniydigan bir yigit suratlarning tagidagi yozuvlarni o'qib qarasa, kurashga tushadigan polvonlar shular ekan.

— Bular sirk degan uyda kurash tushishar ekan, — dedi yozuvni o'qigan yigit.

— U uy qayerda ekan?

— Kim biladi?!

— Unday bo'lsa qidirib topaylik?

Ular surishtirib yurib, sirkni topib olishdi. Sirk degani — xuddi o'tovga o'xshagan, ustini brezent bilan berkitgan, ammo ichi an-

cha keng, kamida ming kishi sig'adigan joy ekan. Bular yetib borishganda, sirk oldidagi kichkina uycha oldida odamlar to'planib turishgan ekan.

— Ha, nima qilib turibsizlar?

— Bilet sotib olmoqchimiz.

— Nima uchun?

— Kelgan polvonlarni tomosha qilish uchun.

— Iye, kurashga tushgani uchun pul olishadimi ular?

— Olishadi, deydi-ku.

— Kuchini pulga sotadigan qanaqa polvonlar bular o'zi?

Nurmag'ambet do'stlari bilan ellik tiyindan chipta sotib olib, kechqurun tomoshaga tushishdi. Avvalo, ot o'yini boshlandi. Bularni ko'rib Cho'loq polvon "Men ham o'rtaga tushib ketsammikin?" deb qizishib o'tirardi. O'rtadagi otlar nihoyatda go'zal edi. "Attang, keng dalaga olib chiqib mana bu otlarni choptirarmidim? — dedi Cho'loq polvon. — Tor joyda bag'rini yozdirmay xor qilib qo'yganini qara bularni?".

... Kurash boshlandi. Polvonlar safga turib, sirk sahnidan aylanishdi. Hammasi ham gavdali. Biroq qora niqob kiyib olgan bittasining gavdasi o'zgacharoq. Xuddi Tuya polvonga o'xshaydi.

Fransuzcha kurash hadislari Cho'loq polvonga uncha unamadi. Ich-ichidan titrab, qizishib tomosha qilib o'tiribdi.

...Qora niqob kiygan polvon hamma polvonlarni yiqitdi. Odamlar uni yer depsiniib, sirkni ko'targuday chapak chalishib olqishlashdi. Shu mahalda Cho'loq polvon chidayolmay to'siqdan hatlab o'tib, o'rtada alpang-talpang qilib yurgan qora niqobli polvonning oldiga borib qo'lidan ushladi.

To'qsonboyning yil oshidan keyin polvon ancha pishgan, to'lishgan edi, yonida kelgan yigitlar buni Qora niqobning oldiga borganida payqab qolishdi: Cho'loq polvonning qorni qora niqobnikiga qaraganda kichikroq ekan-u, biroq gavdasi unikidan qolishmas ekan.

— Kurashasanmi? — dedi unga Qora niqobli.

— Kurashaman!

Sirk boshlig'i: "Vaqt tugadi... ertaga!.." degan edi, odamlar chuvullashib: "Kurashsin!" deyishdi.

Cho'loq polvonning gavdasini ko'rib sal seskanay degan Qora niqobli noilojlikdan "Garov qo'yib kurashaman" dedi. Maqsadi — bahona qilib qutulib ketish edi.

— Qancha so'm? — dedi Cho'loq polvon.

— Yetmish besh so'm! (Bu pulga o'sha vaqtda uchta ot berar edi).

Cho'loq polvonning do'stlari hamyonlaridan pul olib uzatishdi.

— Sen tag'in qozoqcha kurashaman deb o'ylamagin, — dedi sirk boshlig'i.

— Fransuzcha kurashasanlar... Ikki yelkani yerga tekkizmagunlaringcha yiqilgan hisoblanmaydi.

— Menga ham xuddi shunisi kerak. Yelkasi bu yoqda tursin orqasini yerga tekkizib beraman.

Cho'loq polvon o'rtaga sirk kiyimini kiyib chiqdi.

Ikki polvon o'rtada xuddi suzishadigan buqalarday bir-birini g'oful paytini poylashib yurishibdi. Cho'loq polvonning mushak go'shtlari tugun-tugun bo'lib, xuddi shamolli kundagi dengiz betiga o'xshab to'lqinlanib ketdi.

Cho'loq polvon Qora niqoblining hadisini boya obdan ko'rgan edi. U o'zi bilan kurashayotgan polvonning bo'ynidan qisiq, chalqanchasiga yiqitar edi.

U xuddi shu hadisini ishlatmoqchi bo'lib burilgan paytida Cho'loq polvon ko'z ilg'amas darajadagi bir chaqqonlik bilan uning bo'ynini mahkam ushlab oldi. Tezda yelkasiga olib, xuddi qamg'oqday otib yubordi.

Boya Qora niqoblidan yiqilgan polvonlar qornini osmonga qilib kamalakday egilib qolar, yelkasini yerga tekkizmas edi. Cho'loq polvon shunday qilarmikan, deb uni qayta bosmoqchi bo'lib turganida, Qora niqobli "bosma" deb ishora qildi.

O'rtada hakamlik qilib turgan odam hushtagini chalib, yiqilgan polvonning boshidan niqobini sidirib oldi. Chiroylikkina, oqquvdan kelgan yigit ekan. U shu yotganicha, qimirlamay qoldi, basharasini bujmaytirib: "Jarohatlandim!" dedi.

Ikki-uch odam Qora niqoblini zambilga solib olib chiqib ketishdi: kurashning natijasi e'lon qilindi.

— Kurashga ingliz polvoni, jahon chempioni — "Qora niqobli" bilan qozoq xalq polvoni Cho'loq polvonlar tushishdi. Ular fransuz kurashi usulida bel ushlashdi. Kurash bir yarim daqiqa ichida Cho'loq polvon foydasiga hal bo'ldi. Ilgari hech kim ola olmagan Qora niqoblining g'ilofini Cho'loq polvon yechib oldi. Yetmish besh so'm miqdorida qo'yilgan garov Cho'loq polvonga beriladi. "Qora niqobli"ning o'z familiyasi — Karon.

— Tasodifan yiqitdi...

— Hiyla bilan yiqitdi... — chuvullashdi ba'zi odamlar.

— Agar Cho'loq polvonning kuchi bo'lsa, gir-tosh ko'tarib ko'rsatsin, — deb chuvullashdi odamlar.

— Bugunga shuning o'zi yetib ortadi. Ertaga ko'taradi, — dedi sirk boshlig'i. Bunga Cho'loq polvonning o'zi ko'nmadi.

— "Tasodifan yiqitdi" degan so'zni men ko'tarolmayman, — dedi u.

— Ko'targanim bo'lsin toshini.

— Necha pudlik tosh ko'tarasan? — deb so'rashdi undan.

— Haligi men yiqitgan polvon necha pud tosh ko'tarar edi?

— Qirq pudligini.

— Menga ellik pudligini olib kel.

Cho'loq polvon cho'kkalab o'tirdi. Bir polvon yalpoq qayishlarga bog'langan o'n pudlik to'rtta tosh, olti pudlik bir tosh, besh pudlik bir toshni yukladi.

Toshlar ortilib bo'lganda cho'kkalab o'tirgan polvonning bilaklari mayishib ketganday bo'ldi.

Cho'loq polvon boshda qo'llarini yerdan uzib tizzalab o'tirdi, so'ng tizzasini ko'tarib, tovonini yerga bosdi. Keyin toshlar chandib bog'lab tashlangan qayishdan mahkam ushlab "Xaup!" dedi-da, turib ketdi, alpang-talpang bosib maydon bo'ylab yura boshladi.

— Bo'ldi, bo'ldi! Tushir!.. — deb chuvullashdi tomoshabinlar.

Cho'loq polvon xuddi erakishgandek tag'in biroz aylanib, toshlarni tevarak atrofga uloqtirib yubordi.

— Yasha! Ko'p yasha, Cho'loq polvon! — deb qichqirishdi odamlar.

Shubha

Atrofinga qaragin ko'zing yummay,
O'ylab ko'rgin, dunyo — keng bir saroy.
Qozoqlar podshoga qaram bo'lgandan beri
Botirlar xo'rlik ko'rdi talay-talay.
(Xalq qo'shig'i).

Cho'loq polvon sirkdan chiqqanida zim-ziyo qorong'i edi. Ko'cha chuvullashib yurgan odamlar bilan to'lib ketibdi. Bu odamlarning kim ekanliklarini qorong'ida payqay olmadi.

— Qani, polvon, bu yoqqa yur! — dedi yonidagi jo'rasi.

— Qayoqqa!

— Ishing bo'lmasin. Otingga min-u, yuraver. Borsak ko'ramiz.

Cho'loq polvon jo'rasiga ergashib, haligi to'planib turgan odamlar orasini yorib o'tdi-da, otiga mindi. Endi uning ko'zi qorong'ilikka o'rganib qolgan edi, atrofda chuvullashib yurgan odamlarni aniq ko'rdi. Atrofdan:

— Qani Cho'loq polvon? — degan ovozlar eshitildi.

— Meni so'rayotgan kim? Men bu yoqdaman! — dedi Cho'loq polvon.

— Unday bo'lsa nega qarab turibsanlar. Cho'loq polvon chiqqan bo'lsa ketdik! — deb chaqirdi kimdir.

— Ketdik. Mana men boshladim, — dedi-da, bir odam oldinga tushib chopib ketdi.

Haligi to'planishib turgan otliqlar xuddi yo'lini topib bir tomonga urib ketgan suvdek chopib ketgan odamning orqasidan oqib ketdi. Ular Buqpa tog'iga qarab ketardi. Bu oqim Cho'loq polvonni xuddi yuzada suzib yurgan g'ildirakdek o'zi bilan birga olib ketdi. Ko'pchilik orasida chopib kelar ekan:

— Qayoqqa ketyapmiz? — deb so'radi Cho'loq polvon yonidagilardan.

— O'zimiz ham bilmaymiz. Faqat bilganimiz shuki, odamlar sen bilan tanishmoqchi shekilli.

Kechasi yerni gursullatib chuvullashib chopib kelayotgan otliqlar to'dasi Buqpa tog'ining pastqam belidan oshib o'tib, Jeltov bag'rida to'xtashdi.

— Shu yerga tushamiz, — dedi boshlovchi.

Odamlar otlaridan tusha boshlashdi. Endi ko‘zi tun qorong‘iligiga ancha o‘rganib qolgan Polvon bundoq nazar solsa, odam juda ko‘p ekan.

— O‘n ikki ota Qorovul, sakkiz ota Davut edik, — dedi Cho‘loq polvonga bu yig‘inni tashkil qiluvchilar.

— Elimizning dong‘ini chiqarganing uchun bugun senga ziyofat bermoqchimiz. Ilgarilari nomingni eshitar edig-u, o‘zingni bilmasdik. Mana, shukur, o‘zingni ham ko‘rdik. Bugungi kechani bir o‘yin-kulgi bilan o‘tkazaylik.

Polvon ularga tashakkur aytdi.

— Qani molni olib kelinglar! — dedi boshliq.

— Bir-ikkitang tog‘dan o‘tin olib kelinglar, bir-ikkitang suv tashinglar.

Salt otliq yigitlar chopib borishib tog‘dan yiqilgan qarag‘aylarni sudrab kelishdi. Shox-shabbasi olinmay tutash o‘t qo‘yilgan qarag‘ay yolqini osmonga o‘rladi. To‘satdan yongan olovdan qo‘rqqan kabi tun uning atrofini o‘rab oldi...

— Olib keldik, — degan tovush eshitildi qorong‘ilik qo‘ynidan.

— Mana bu olov ko‘zimizni olib qo‘ydi-ku, — dedi birov. — Hech narsani ko‘rib bo‘lmayapti. Polvon, bu yoqqa kel-chi?

Polvon haligi yigitga ergashib borsa, chetroq joyda bir-ikkita yigit bir otni yiqitib, quloqlaridan mahkam ushlab turgan ekan.

— Shuni sizga atab so‘ymoqchimiz, — dedi haligi ergashtirib olib yurgan yigit. — Ko‘z tegmasin, Polvon, ertaklarda aytiladigan Qo‘blandi, Alpomish, Qambar botirlarni ko‘p eshitganmiz-u, ammo sizga o‘xshab ellik pud yuk ko‘targan polvonni ko‘rish tugul, eshitgan ham emasmiz. “Yuzdan yugirik, mingdan tulpor tug‘iladi” degan gap bor. Kim biladi, tulpor minib tug‘ ushlab, ko‘k po‘latdan sovut kiyib, qo‘lingizga nayza olib, xalqni yovdan himoya qiladigan rahbar bo‘larsiz, balki. Shuning uchun ham sizga uncha-muncha to‘qli-mo‘qli so‘yishni o‘zimizga ep ko‘rmadik. Polvon. Mana shu baytalni so‘ymoqchi bo‘lib turibmiz.

Yigitlar baytalni birpasda bo‘g‘izlab tashlashdi. Terisi ham shilindi.

— Semiz chiqdi. Qazisi ikki enlikcha bor, — deyishdi odamlar.

Baytalning go'shtlarini nimtalayotganlarida bir-ikki yigit borib hali qon hidi anqib turgan o'pka, jigar-bag'irlarini olib qovurdoqning g'amini yeya boshlashdi.

— Hoy, qonsuqli qilishni unutmanglar, otamiz qozoqdan qolgan taom-a, — dedi kimdir.

— Men ham unutganim yo'q, — dedi baytalni so'yganlardan biri. U ichak-chavog'i ag'darilib, o'zga joylari nimtalanmay chalqasidan yotgan baytalning qovurg'alari orasiga to'planib, quyilib qolgan yog'li qonni hovuchi bilan olib ichakka quydi.

— Polvonning ulushini tugal pishiringlar! — deb qichqirdi yig'in oqsoqoli baytalni so'yayotganlarga.

— Bu bir ajoyib taom bo'lsin, — dedi qonli qo'llarini shimarib o'tkir pichog'ini yalt-yult etkizayotgan yigit. — Polvon bugun bizlarga o'z kuchini ko'rsatdi. Men ham Polvonga qulog'i eshitmagan taom pishirib beray.

— Qanday qilib? — deb so'rashdi yigitlar.

— Baytalning qorni bilan o'ngachi birlashgan joyidan ozgina kesaman-da, ag'darib tozalab yuvaman. Shundan so'ng ichiga suv qo'yib, sig'guncha go'sht solaman, ozgina tuz tashlayman, me'yorida sarimsoq ham solaman, murch ham... Keyin qorinni tikib, qamish tiqaman-u, qumga ko'maman. Haligi qamishni esa, nariroqdan chiqarib qo'yaman. So'ng ustidan o't yoqaman. Bu usulda pishirilgan go'sht dunyoda eng lazzatli taom bo'ladi.

— To'g'ri eshitganimiz bor. Biroq ko'rmagan edik. Mayli, shunday qil.

Qoringa Polvonning ulushidan boshqa tag'in ancha go'sht sig'ib ketdi. Qolgan go'sht qozonga tushdi. Yigitlar olovga ko'milgan jigar-bag'irlarni yeb, qimiz ichayotib, Polvondan iltimos qilishdi:

— Polvon, biz seni "bir sirli sakkiz qirli" yigit deb eshitamiz. Shoirlik, o'lanchilik, chechanlik, o'tkir zehnlilik kabi fazilatlarning hammasi senda bormish. Biz bu gapni o'zingni ko'rganimiz uchun aytayotganimiz yo'q, bor gapni aytyapmiz. Kuchingni-ku, ko'rdik. Endi boshqa hunaringni ham bir ko'rsatgin.

— Nima dey?

— O'lan ayt! Ota-bobolarimiz: "Yaxshining yaxshiligini yuziga ayt, nuri toshsin, yomonning yomonligini betiga ayt, quti qochsin!" degan. Seni nima deb maqtasak ham yarashadi. Bugungi kurashda ko'rsatgan tomoshangni, kuchingni o'lan qilib ayt, mana bu bo'z bolalar ovullariga aytib borishsin.

Ko'pchilik iltimos qilib qo'ymaganidan so'ng Polvon sirkda kurash tushganini asta o'lan qilib aytdi:

Bu kunda yigirmada mening yoshim,
Buzar kezar qal'aning tog'-u toshin.
Kechagi sentabrning bozorida,
Ko'tardim ellik pud sirkning toshin.
To'planishib rus, qozoq tong qolishdi,
Qahramonning avlodi deb ushbu boshim.
Garov qo'yib yetmish besh so'm kurashganda —
Sindirdim Karon polvon qovurg'asin.
Kuch bergan, madad bergan, erkalatgan —
O'zlaringsan, mehribonim, bovurlarim!..[1]

Qayoqdandir qo'ng'iroqning jarang ovozi eshitilib, Polvonning o'lani bo'lindi.

Odamlar: "Bu kim bo'ldi?" deb hayron bo'lib turganlarida olovni qurshab o'tirganlar oldiga bir juft ot kelib to'xtadi. "Uryadnik" degan shivir-shivir tarqaldi.

— Nima qilib yuribdi bular bemahalda?

Bularning biri sirkning rahbari, ikkinchisi politsay uryadnigi ekan.

— Senga keldim, — dedi sirk rahbari Cho'loq polvonga. Yonidagi uryadnik mo'ylovini burab qo'ydi.

— Menda nima ishing bor?

— Keraksan. Qani, min aravaga!

---

[1] Cho'loq polvon shu o'lanini takror-takror aytishni sevar edi. U bu o'lanni qaysi yoshida aytsa, o'sha yoshini qo'shib o'qirdi. Masalan, 25 da, 34 da, 49 da kabi. U qissa boshida "Bu kunda qirq to'qqizda mening yoshim" deyishining boisi shundan.

— Tag'in bular Polvonni qamamoqchi bo'lib kelishgan bo'lmasin! — deyishdi ba'zilar.

— Nima uchun?

— Nima uchun bo'lardi, qovurg'asi singan polvon o'lib qolgan bo'lsa...

— Unday emasdir-ov. Agar unday bo'lsa, Cho'loq polvonni osonlikcha ularning qo'liga bermaymiz! — chuvullashdi odamlar.

— Jim bo'linglar! — deb baqirdi uryadnik.

— Menda nima ishing bor? — deb tag'in so'radi Polvon.

— Xoli joyda aytaman.

— Yo'q shu joyda ayt!

— Shaharga borganimizdan so'ng aytaman.

— Iye, gapini eshitdinglarmi? — deb chuvullashdi odamlar. — Bularning niyati buzuq. Polvonni qochirib yuborsak nima qiladi?

Bu taklifni bir yigit Polvon cho'loqqa shivirlab aytdi.

— Bo'lmagan gap! — dedi Polvon uni koyib. — Menda nima haqqi bor bularning. Nima uchun qochishim kerak ekan!

— Jim!! — deb baqirdi uryadnik odamlarga.

Sirk rahbari qanday niyatda kelganini aytmadi. Uryadnikning ham, uning ham kayfi bor ekan. Ularning ikkalasi ham qovurdoqqa to'yib olgach, Cho'loq polvonga: "Ertaga borgin. Qo'rqma. Ko'p mukofot olasan bizdan. Oltin olasan!" dedi-da, aravalariga o'tirib jo'nab ketishdi.

Bu gap odamlarning ko'nglida shubha tug'dirdi.

— Aldashyapti. Qamasa kerak, — deyishdi ba'zilar.

— Qamamaydi, — dedi ba'zilar. — Polvonligini ko'rishdi-ku ular. Ajab emas, mukofot berishsa...

Cho'loq polvonni nima uchun chaqirishgani, bu ishning oxiri nima bilan tugashi odamlarga qorong'i bo'lgani uchun ularda shubha tug'ilib, yig'in sovidi qoldi.

— Esing borida etagingni yop. Odamlar seni tutib berishmaydi, bu kecha qoch, — deb yalinishdi odamlar Cho'loq polvonga.

Polvon ularning aytganini qilmadi.

— Nima, aybsiz odamni tutib qamayversa, unda odam qoladimi? — dedi u. — Ertaga ataylab borganim bo'lsin. Qani, nima qilishar ekan, ko'ray-chi?

— Mayli, borsin. Tavakkal, — deyishdi odamlar. — Agar qasdlik qilishsa yo aybsiz qamashadigan bo'lsa, biz ham jonmiz-ku, qarab turmasmiz.

Odamlar ziyofatdan so'ng, tongga yaqin tarqalishdi.

"Er yigitning qanoti — ot"

Berkitolmas yo'limni yov qal'asi,
Men jahonning emin-erka qo'nog'iman.
Sevgilim, ardoqlim, deb erkalagan
Xalqimning tanti polvon Cho'log'iman.

Polvon uyqudan turib bunday qarasa, kun tushlikdan og'ib borayotgan ekan.

Dahlizda kimlarningdir so'zlashgani qulog'iga chalindi. U bular kim bo'ldi ekan, deb eshik tirqishidan mo'ralagan edi, o'zining jo'ralari choy ichishib, hangomalashib o'tirishgan ekan. Polvon kiyinib dahlizga chiqdi.

— Uyqung buzilmasin, deb uyg'otmagan edim, — dedi unga sheriklari.

— Meni hech kim so'ramadimi?

— Uyezdning Sutemgan degan pochtachisi bor edi-ku, o'sha kelib ketdi.

— Nega kelibdi?

Uyezd boshlig'i seni ko'rgisi bormish.

Meni ko'rib nima qilar ekan?

— Qayoqdan bilamiz nima qilishini. Rostini aytsak, o'zimizning ham yuragimiz gupullab turibdi. Ishqilib, yaxshilikka bo'lsin-da...

Polvon bu vahimali gaplarga parvo qilmay, choyini ichib bo'lib tashqariga chiqqan edi, Sutemgan pochtachi salt otda kelib turgan ekan.

— Sut aka, nima gap o'zi? Nega bunchalik polvonni so'rab qolishdi ular? — deb odamlar uni o'rab olishdi.

— Hech narsadan xabarim yo'q, — dedi u. — Nega shuncha cho'chiysanlar? Menimcha, nomi chiqqan polvonni ko'rgisi bordir. Shundan boshqa nima ham bo'lardi...

Sutemgan bilan Cho‘loq polvon uyezd boshlig‘ining shahar markazidagi tosh devor bilan o‘ralgan hovlisiga salt kirib borishdi. Ular kirishgach, darvoza shartta yopildi.

“Polvonni uyezd chaqirib olib ketdi” degan xabar qal’aga ham, dalaga ham zudlik bilan tarqaldi. Odamlar bozorni bahona qilib, uyezd eshigi olididan ivirsishib u yoq bu yoqqa tinmay o‘tishar, bu gapning oqibati nima bilan tugashini bilgilari kelar edi. Odamlar qo‘rquvda. “Hech bo‘lmaganda ularning polvonga ko‘zi tegmasa edi”, deb qo‘rqishadi irimga ishonadigan ba’zilar.

Uyezd darvozasi shartta yopilganda Polvonning o‘zi ham cho‘chiy dedi. “Nima qilar ekan bular?” deb o‘yladi u.

Sutemgan ergashib uyezd boshlig‘ining uyiga kirsa, uzun qora soqolini mo‘yloviga qo‘sha ikki chakkasiga qayirgan, qovog‘i qalin, quyuq qoshli, peshonasining sochlari to‘kilib qashqa bo‘lib qolgan, gavdasi yo‘g‘on bir erkak: oqquvadan kelgan, semiz, bag‘baqalari osilib tushgan bir ayol: o‘rta bo‘yli, ko‘k ko‘z, oqquvadan kelgan jingalak soch, xuddi otasi bilan onasininig buyog‘ini qorishtirib yasaganday chiroyli, o‘n besh-o‘n olti yoshlar chamasidagi bir qiz: sirk rahbari — hammasi stolda choy ichishib o‘tirgan ekan.

— Mana shu, — dedi rahbar uyezd boshlig‘i Cho‘loq polvonni ko‘rsatib.

— Omonmisan? — deb uyezd boshlig‘i barmoqlari yo‘g‘on-yo‘g‘on jundor qo‘lini Polvonga uzatdi. Salomlashgach, uyezd boshlig‘i Polvonga “o‘tir” degan ishora qildi, joy ko‘rsatdi.

— Mo-lo-dets! — dedi uyezd boshlig‘i Polvonning savlatiga nazar tashlar ekan. — Yaxshi yigit, o‘rischa bilasanmi?

— Mala-mala, — dedi Polvon.

Polvon uyezd boshlig‘i bergan so‘roqlariga qurbi yetgancha javob berib o‘tirdi, biroq ovqatidan tatimadi. Stol ustidagi taomlarni yegisi kelib tursa-da, ular ovqatga zahar qo‘shib beradi, degan gap esiga tushib nafsini tiydi.

— Sen bunga nima uchun chaqirganimizni aytdingmi? — deb so‘radi uyezd boshlig‘i Sutemgandan Polvon bilan biroz hazil-huzul qilishgach. — Yo‘q, — dedi Sutemgan.

— Nega?

— Menga unday topshiriq berganingiz yo‘q-ku.

— Boyagi gap esingdan chiqmagan bo‘lsa kerak?

— Esimda.

— Unday bo‘lsa, mana bunga aytib tushuntir o‘sha gapni!

Cho‘loq polvon sirkda Karon polvonni yiqitganini eshitib, uyezd boshlig‘i noma’lum polvonni ko‘rgisi kelib qolibdi. Qidirtirishsa, dalaga ketibdi, degan xabar olib kelibdi Sutemgan.

— Unday bo‘lsa, ertalab oldimga olib kel, — deb buyruq beribdi uyezd boshlig‘i.

Nima uchun chaqirishayotganini so‘rashsa, uyezd boshlig‘i:

— Ehtimol, sirkka qabul qilarmiz, — debdi. — Avvalo o‘zim bir gaplashib ko‘ray-chi?

Uni sirkka olishsa ahvoli qanday bo‘lishini uyezd boshlig‘i Sutemganga aytib bergan. Hozir uyezd boshlig‘ining: “Nima uchun chaqirilganini aytganmidim?” deyayotganining boisi shu edi.

Sutemgan uyezd boshlig‘ining oldida nima uchun chaqirishganini qisqacha bayon qildi-da, oxirida:

— Gapning qisqasi shuki, — dedi u Polvonga, — bular sening kuchingga qiziqib qolishibdi. Besh-olti oy sirk polvonlari bilan bo‘lib kurash hadislarini o‘rgansin, shundan keyin sirkka polvon qilib olamiz, deyishyapti, butun jahonni kezasan, oltinga g‘arq bo‘lasan, deyishyapti...

— Qancha oltin berishar ekan? — deb so‘radi Polvon ataylab.

— Nimasini so‘raysan? — dedi Sutemgan. — Oltin tekin ... Kechagi sen yiqitgan Karon oyiga o‘n besh so‘m moyana olar ekan. O‘-ho‘!.. Bu nima degan pul! Yiliga bir yuz sakson so‘m!.. Bunga oltita gijinglagan ot beradi. Ovulda yurib bir yilda bir otning pulini ham topolmaysan. Boshqa gapni qo‘y, rozi bo‘l!

Uyezd boshlig‘ining taklifini Sutemgan oshirib aytdi. Buni eshitgandan so‘ng Polvon sal qiziqay dedi.

— Mayli, o‘ylab ko‘ray. Ertaga javobini aytaman, — dedi u.

Uyezd boshlig‘i: “Hozir ayt!” deb qistagan edi, ayoli: “Mayli qistama, — dedi. — Ko‘nadi. Bu shuncha oltindan voz kechadigan ahmoq emas. Meningcha, aqlli yigit ko‘rinadi!”.

— Rost, mamulya, u aqilli yigit! Yurish-turishi ham, ko'zi ham aqlli!.. — dedi boyadan beri Polvondan ko'zini ololmay qiz hovliqib.

Polvon qizga qarab iljaydi.

— Mayli, o'ylab ko'r, — dedi uyezd boshlig'i Polvonga. — Biroq javobingni ertadan kechiktirma. Tentak bo'lma. O'zi kelgan baxtni qo'ldan boy berma. Sendan jahon chempioni chiqishi mumkin. Bu hazilakam gap emas!..

Cho'loq polvon uyezd boshlig'idan ruxsat olib tashqariga chiqdi. Ketidan Sutemgan ham ergashdi. Ikkalasi otlariga minib darvoza tomon yo'l olgan edi, Polvonning ko'zi ayvon panjarasida turgan yosh qizga tushib qoldi. Bu gal qiz Polvonga o'zgacha qiziqish bilan qarab turgan edi.

— Ismi nima? — deb so'radi Polvon Sutemgan bilan qizning yonidan o'tib ketayotib.

— Tatyana.

Polvon ichida: "Yaxshi qiz ekan", deb qo'ydi.

Ko'chaga chiqishlari bilan kutib turgan odamlar Polvonning atrofini o'rab olishdi. "O'ylab ko'r! Rozi bo'l!" dedi-da, Sutemgan burilib ketdi.

— Nega chaqirishibdi? — deb so'rashdi odamlar Polvondan.

Polvon chaqirish sababini aytdi.

— Sen nima deding?

— O'ylab ko'ray, dedim.

— Mayli, o'zing bilasan, — deyishdi odamlar. Biroq ular Polvonning oralaridan ketishini xush ko'rishmas edi. — Birovdan aql o'rganadigan yigit emassan. El-yurt bergan nom bilan shuhrating yetib ortadi. Jahon bergan baxt bilan shuhrat bir odamning hovuchiga sig'maydi. Ammo "ko'pchilikdan ayrilgan ko'muvsiz qoladi", degan gap ham bor. Buni ham o'yla!

Ertasiga choshgohdan keyin Polvon otini minib uyezd boshlig'ining uyiga qarab ketdi. U kechadan beri tinchlik bermay yurgan ikki fikrni yo'l-yo'lakay tarozining ikki pallasiga solib o'ylab ko'rdi.

Uning bir o'yi: "Oltin... Ko'p oltin... Boylik! Shon-shuhrat qozonish!"

Ikkinchi o'yi: "O'z ovuli!.. Jonajon ovuli! Xalqi!.. Polvonlikni o'shalarning oldida namoyish qilib, shon-shuhratni o'shalardan olish!.."

Xo'sh, qaysi birini tanlashi kerak?

Polvon shunday xayol bilan kelar ekan, uning ko'ziga o'z el-yurtining manzarasi ko'rinib ketdi.

Ana, boshiga bulutdan salla o'rab, gavhartoshga o'xshab olisdan ko'rinib turgan Bo'raboy tog'i!.. Narigi tomoni dala!.. Bepoyon dala!.. Yonma-yon qo'ngan ovullar... Jonajon ovul... Tug'ishgan ovul... U yerda ota-ona!.. Og'a-ini!.. Qavm-qarindoshlar! Do'st-yor!!! Ular Cho'loq polvonning, Cho'loq polvon ularning mehriboni, o'yin-kulgisi, ko'ngil ochar ermagi. Ular o'z polvonini qalbdan sevishadi...

Uyezd boshlig'ining taklifi o'z ovulidan hatlab chiqmagan Polvonga zim-ziyo ungurga o'xshab ko'rindi. "Ana shu noma'lum ungurdan oltin izlab, shon-shuhrat qozonishning nimasi qiziq, — deb o'yladi u. — Izlaganim topila qolsa-ku, nur ustiga a'lo nur. Bordi-yu topilmasa-chi, ovoragarchilikdan boshqa narsa emas. Unday bo'lsa hayotning achchiq-chuchugini nega elim bilan baham ko'rmayman?"

Uning nodon xayoli shundan narini mulohaza qilolmadi. "Ohiri nima bilan tugashi noma'lum ungurdan baxt qidirguncha, peshonamda borini o'z elimda yurib ko'ray", degan qarorga keldi.

Shu xayol bilan u otining boshini beixtiyor orqaga burdi. U Ko'kchatog' shahrining shundaygina yonidagi Chalqar ko'li bo'yidagi gavjum bozorga qarab ot qo'ydi.

Polvonning nima uchun ot qo'yib ketayotganini tushungan bir to'p otliqlar ham unga qo'shila chopishdi, qo'rg'oq yerning changi osmonga ko'tarildi.

Tumanday quyuq, bo'ron kabi guvlagan chang-to'zon ichida chopib kelayotgan Polvon: "Menga ergashib kelayotganlar ko'paydi shekilli", deb bundoq orqasiga qaragan edi, behisob salt otliqlar undan o'zib ketyapti! O'z oti charchab, chopishi susayib qolibdi... Sal o'tmayoq qandaydir kunon, baytal, oriq-tirriq, qir-chang'i otlar orasida qolib ketdi.

U: "Boyning o'g'li chopganda bir esga tushadi, to'xtaganda bir esga tushadi" degan maqolning ma'nosini endi tushundi. "E-ha... — deb o'yladi u otining tizginini tortib. — Shu so'z rost ekan. Qaysi kambag'alning boydan o'zishgisi kelmaydi deysan? Boy bilan talay kambag'al man shunday o'zishar ekan-u yarim yo'lda oti charchab qolib ketar ekan-da, menga o'xshab. Haligi maqol shundan chiqqan ekan-da!"

Cho'loq polvon otining boshini tortib ketayotganida, o'zgalar undan o'zib ketgan edi. Avval boshda unga xushomad qilib chopganlar endi haqoratdek tuyuldi. "Nima ham qildim ilgarilab?.. Shu yerdan qayta qolsam bo'larmidi?." deb o'yladi u. Bordi-yu, ba'zi otliqlar: "Nega orqada qolding?" deb Polvonning atrofini o'rashmaganida, balki qaytib ketgan bo'larmidi?

To'planishib qolganlar Polvonning nima uchun to'xtaganini bilishgani yo'q, shuning uchun ular yana boyagiday xushomad gaplar ayta boshlashgan edi.

Polvon qovog'ini solib ro'yxush bermadi, faqat ba'zi-ba'zida ular bergan so'roqqa qisqa-qisqa javob qaytarib turdi. Ba'zi gaplar uning qulog'iga kirmadi ham. Hozir uning butun o'y-xayoli uchqur otda edi.

"Er yigitning qanoti — uchqur ot" degan maqol tushdi uning esiga. Dostonlardan eshitgani Qo'blandi botirning Toybuvrili, Alpomishning Boychibari, Qambar botirning Qoraqashqasi... xullas, chopganda qushdan o'tadigan, charchash nimaligini bilmaydigan, egasining quvonch va qayg'usiga sherik bo'ladigan tulporlarni qo'msaydigan edi u. "Eh, shunday oti bor botirlarning armoni bormikan?" deb o'ylar edi Polvon.

Mana, ko'pchilikdan orqada qolgan Polvon xijolat bo'lib kelyapti. "Er yigitning qanoti — uchqur ot" degan qadimgilar, — o'yladi ko'pchilik o'rtasida asta-asta kelar ekan. — Bu gapi uchun ota-bobolarimizdan ming o'rgilsang ham ozlik qiladi... Uchqur xayolini yomon ot to'sar ekan-da!.. Otsiz kishi bamisoli qanotsiz qush ekan-da..."

Endi uning armoni o'ziga qanot bo'larli yaxshi bir ot topib minish edi...

Oq bo‘z ot

Men cho‘loqman o‘n sakkizda hunar topgan.
Oq bo‘z otga uki bilan tumor taqqan.
Boshginamda issiq bo‘rku chakkamda uki,
Sarpolarim g‘irt ipakdan, nuqul oqdan.

(Cho‘loq polvonning o‘z she’ridan.)

Qilshaqti degan o‘zanning Chalqar ko‘liga kelib quyiladigan tomonida Qorovul deb ataladigan cho‘qqi bo‘lib, tevarak-atrofi, bahorda suv yoyiladigan joylari qalin o‘t-o‘lan bilan qoplangan. Bu o‘t-o‘lanlardan ming-minglab g‘aramlar uyiladi. Bu yilgi sentabr bozori oldidan egalari o‘sha uyilgan g‘aramlarni bozorchilar mollariga yedirib qo‘yishidan qo‘rqib yig‘ib olishgan, shuning uchun atrof bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolgan edi. Faqat ba’zi-ba’zidagina o‘rilmagan bedazor, chirmovuqzorlargina qolgan. Cho‘loq polvonga ergashib kelayotgan bir to‘p yigitlar ana shu o‘rilgan joylarga yetib kelganda, har yer-har yerda to‘planib turgan bozorchilar ularning atrofini o‘rab olishdi, izzat-hurmat ko‘rsatishib, mehmon qilishdi.

Polvon bir to‘p yigitlar davrasida shunday izzat-hurmat bilan kelar ekan, yo‘l-yo‘lakay to‘qayzor ichiga tikilgan chodir ustidan chiqib qoldi. Chodir oldida, bir to‘p odamning o‘rtasida, qo‘ling bo‘yiga zo‘rg‘a yetadigan arg‘umoq turganini ko‘rib qolishdi. Polvon yaqinroq kelib qarasa — ayg‘ir. U shu atrofdagilardan: “Bu qanaqa ayg‘ir?” deb so‘ragan edi, ular: “Sotiladigan”, deb javob berishdi. Sotayotgan o‘ris-u xaridor bo‘lib turgan odam Ko‘kchatog‘ning nomdor boylaridan Ne’matjon ekan. Bozorda asov otning narxi yigirma besh, o‘ttiz so‘m turadi. Ot egasi bu ayg‘irga uch yuz so‘m so‘rab turgan ekan.

— Shu ayg‘irga havasim kelib turibdi, — dedi Ne’matjon atrofida turganlarga qarab. — Qimmatsinib turganim yo‘q. Bozorga ellik ot olib keldim, juda deganda o‘n beshtasining pulini olar. Ovulimdagi uch yuz yilqim omon bo‘lsin. Bir yili tug‘iladigan qulunlarning yuzdan birining bahosi-ku bu!..

— Unday bo‘lsa, nega olmaysan? — dedi Polvon Ne’matjonga.

— Eng yaxshi biyalarimga choptirish niyatida shu ayg'irniki ikki kundan beri beri aylanib ko'raman, — dedi Ne'matjon. — Olgim bor-u, lekin shunday yaxshi otni egasi nuqsoni bo'lgani uchun sotyaptimi, degan andishadaman. Yo oyog'ida, yotishida bir nuqsoni bormikan deb ko'rmoqchi bo'lsam, juda asov, yaqinlashtirmaydi: oldiga borsang, tishlaydi, orqasidan kelsang, tepadi. Nuqsoni bo'lmagan taqdirda ham ayiqday haybat qilib turganidan bu bilan qanday qilib muomala qilaman deb ham o'ylayman.

Ne'matjon bilan Cho'loq polvon tengqur edi. Shuning uchun ham Polvon botinib:

— "...Mol adashib itga[1] bitadi" degani rost ekan, — dedi. — Mana, senga mol... "Ayiqqa namoz o'rgatgan — tayoq!" degan-ku, qozoq otang. Ot ayiqdan ham asov bo'libdimi? Tizginini mening qo'limga bergin, qani bir ko'ray, tentaklik qilarmikan?

— Unday bo'lsa, berdim tizginini qo'lingga, yuvosh qilib ber-chi!

Cho'loq polvon ot egasidan tizginni qo'liga oldi-da, ayg'irning oldiga yag'inlashdi. Odatda boshqa odamdan hurkadigan ot Polvonning savlatidan hayiqdimi yo uning ko'zlariga tob bera olmadimi, haytovur, sapchimadi. Polvonning o'zi borib ayg'irga tegishdi. U ayg'irning no'xtasidan mahkam ushlab, og'zini ochib tishlarini ko'rmoqchi bo'lgan edi, ot boshini silkib ko'rsatmadi.

— E-ha, men bilan erakishmoqchimisan hali? — dedi Cho'loq polvon ayg'irning og'zini bo'shatib. — Seni o'z erkingga qo'yib ko'ray. Qani, erakisha qol! Bir ko'ray!..

Erki o'ziga tekkach, senmi meni yuvosh qiladigan, deganday ayg'ir osmonga sapchidi. Tizginni uchidangina ushlagan Polvon ot yuqoriga sapchigan mahalda chaqqonlik bilan bag'riga kirdi.

— Ehtiyot bo'l, tepib yuboradi! — deb chuvullashdi atrofda turganlar. — Orqangga qayt!..

— Bu odamlarni yiqitib bo'lib endi otni ham yiqitmoqchi. Qani, ko'raylik-chi, nima karomat ko'rsatarkin? — dedi kimdir.

Polvon vahima gaplarga quloq solmay, tepmoqchi bo'lib turgan ayg'irning oldingi ikki oyog'idan ushlab oldi-da, bir yonga siltab yubordi. Ayg'ir o'ng tomonga yiqilib tushdi. Ayg'ir jonho-

[1] "Yomon odamlarga" ma'nosida.

latda turishga harakat qilayotganida, Polvon zudlik bilan borib quloqlaridan mahkam ushlab yerga bosdi-da, biqinidan tizzaladi. Ayg'ir xuddi burgut bosgan tulkiday Polvonning tagida tipirchilar, turolmas edi.

Polvon ayg'irning jag'iga barmoqlarini tiqib ochdi-da:

— Mana, ko'ringlar tishini! — dedi. — Qulun paytida soqov bo'lgan ekan. Kurak tishida dog' qolibdi. Biroq ot desa deguday ekan, jonivor. Oziq tishlari qashqirnikiday, a? Juda uchqur ot ekan. Biroq uzoqqa chopa olmasa kerak, nega deganingda, tishlari qisqa-qisqa ekan. Ammo bundan tug'adigan biyadan talay-talay qorabayir tulpor chiqsa ajab emas. Oyoqlarida nuqson yo'q ekan.

Polvon ayg'irni bo'shatdi. Ayg'ir o'rnidan turganida Polvon: "Qani endi tishingni bir ko'rsat-chi?" deb qo'lini cho'zgan edi (qalay, yuvosh bo'lmas ekan) avvalgiday sapchimadi ham. Salgina hurkkan bo'ldi xolos.

Ayg'irni Ne'matjon uch yuz so'mga sotib oldi. Odatda ot sotib olinganda uni yuvish odati bor.

— Xo'sh, Polvon, — dedi Ne'matjon o'sha udumga ko'ra. — Chodirimizning oldida bir to'qlining go'shti osig'lik turibdi, buguncha o'shani tamaddi qilaylik. O'z ulushingni keyin olarsan.

Cho'loq polvon sheriklari bilan chodir ichida qimiz ichib o'tirib bir to'p tol orasida turgan besh-oltita otga ko'zi tushib qoldi. Otlarning hammasi bo'z ot edi. "Shunaqa ham bo'z ot bo'lar ekan-a?" deb o'yladi u. Keyin bir narsani bahona qilib tashqariga chiqib, otlarni ko'rsa, o'rtasida bir chiroyli bo'z ot turibdi. Shuncha yaxshi otlarini ko'rib yurib bunaqasini uchratmagan ekan... Otlarning hammasi ham semiz-semiz edi.

Polvonning bu otlarga ishqi tushib, haligi o'rtada turgan chiroyli bo'z otni yaqinroq borib tomosha qilish, iloji bo'lsa u yerbu yerini ushlab ko'rish niyatida bir-ikki qadam bosgan edi, otlar hurkib yaqinlashtirmadi. "Ot deb mana buni aytibdi!" dedi Polvon. U qo'tonga kirgan edi, otlar qo'ton eshigi oldiga kelib to'planib qolishdi.

— Ne'matjon, anavi oq bo'z ot senikimi? — deb so'radi Polvon.

— Meniki.
— Asovmi?
— Hali yugan urilmagan.
— Sotmoqchimisan?
— Albatta.
— Shunday otni ham sotadimi kishi?
— Nima qilay, o'zimning ham ko'zim qiymaydi. Juda fe'li yomon!.. Bu yil to'qqizga chiqadi. O'rtaga olmayoq qo'ydik. Hatto, dalada asov yilqilarni o'rgatib minadigan yilqichilar ham o'rtaga olmadi. Avvalo, juda qochag'on; otib ushlamasang, ushlatmaydi. Tuzoq solsang, o'nta yigit bo'lsa ham sudrab ketadi. Uchinchidan — to'rt oyog'ini bog'lab, ustiga egar solmasang, egar urdirmaydi. To'rtinchidan — ustiga odam minsa, boshini oldingi ikki oyog'i o'rtasiga tiqib olib keti bilan osmonga sapchigani-sapchigan. Mingan odamni yiqitmasdan qo'ymaydi. Qancha yil o'rgata olmay azob chekdim. Nachora, sotmoqchi bo'lib olib keldim. Bo'lmasa sotiladigan ot emas edi.

Polvon, menga sota qol, deyolmadi. Bunaqa otning bahosi kamida qirq yo ellik so'm, Cho'loq polvonda bunaqa pul yo'q. Shuning uchun u Ne'matjonga gap tashlab ko'rdi.

— Agar birov shu otingni o'rgatib bersa, nima qilar eding?
— Xohlaganingni berar edim, — dedi Ne'matjon.
— Bordi-yu, otning o'zini xohlasa-chi?

Ne'matjon chaynalib qoldi.

— Baribir, birovga sotiladigan otini ko'zi qiymaydi deysanmi? — deyishdi atrofda turgan odamlar Ne'matjonga shama qilib. — Tekinga bermas, pulini olib berar...

— Gapingning ma'nosini tushunib turibman, — dedi Ne'matjon Cho'loq polvonga. — Otga ko'ngling bor ekan. Baribir ham sotaman-ku. Undan ko'ra sengayoq bera qolay. Sendan juda qimmat haq ham so'ramay. Faqat ko'z oldimda o'rgatib min-chi! Bu otning narxiga ikkita ot olish mumkin. Agar o'rgatib mingsang, bitta otning bahosini to'lay qol. Ikkinchi otning haqi senga siylov. Faqat bu la'natining bo'ynida ketib borayotgan o'chimni olib bersang bas. Rostini aytay: xaridorlar savlatini ko'rib qiziqqani bilan fe'lini ko'rib hech kim savdo qilgani yo'q. Shu bilan bozorga

uchinchi bor olib kelishim. Agar sen ham olmasang bu yil so'qimga so'yib, boshini mujiyman.

— Bunaqa otning boshini mujigandan ko'ra o'z boshingni mujimaysanmi? — dedi Cho'loq polvon hazillashgan bo'lib. — Men senga bu otning boshini mujitmaganim bo'lsin. Qani, bo'yniga boylaydigan arqon olib kel!

Arqon olib kelib berishdi. Polvon hamma kiyimlarini yechdi, ishton pochasini yuqoriga shimardi, arqonni tayoqchaning uchiga sirtmoq qilib bog'ladi-da, xuddi to'ng'izga hamla qiladigan yo'lbarsday oyoq uchida to'da bo'lib turgan otlarga yaqinlashdi. O'ng qo'lida o'n sakkiz o'rim yo'g'on qamchi.

To'dalashib turgan otlar uning yaqinlashib kelganini payqamay qoldi. U yaqin kelib otlarni hurkitdi-yu, qochib ketayotgan oq bo'z otning bo'yniga sirtmoqni tashlab yubordi. Bo'yniga sirtmoq ilingan oq bo'z ot sapchib, jo'namoqchi bo'lganida, Polvon cho'qqayib o'tirganicha siltab tortib yubordi. Ot chalqanchasiga qulab tushdi. Ot to o'zini o'nglab turaman deguncha Polvon ildam borib, uning quloqlaridan mahkam ushlab oldi. Oldingi oyoqlarini rostlab tura boshlagan ham ediki, Polvon uning quloqlaridan pastga bosgan edi, yana yiqilib tushdi.

Ot jonholatda yana tura boshlaganida, Polvon uning uzun yolini qo'liga burab ushladi-da, yo'g'on qamchisi bilan choviga solib yubordi. Ilgari bunaqa qamchi zarbi yeb ko'rmagan ot o'rnidan uchib turib, jon achchig'ida chopa jo'nagan mahalda Polvon sakrab ustiga minib oldi.

Ot munkimoqchi bo'ldi, ammo Polvon yo'l bermadi, chovi aralash bag'riga qamchi bilan urib-urib yubordi, badanni pichoq bilan tilib yuborganday, ot to'g'ri kelgan tomonga chopa boshladi. Ustidagi "baloni" tushirishga ko'zi yetmagan ot o'zan tomonga panalamoqchi bo'lgan edi, bo'yinga tushgan qamchi zarbidan dalaga qarab chopishga majbur bo'ldi. Atrofdagilar hammasi otni, Polvonni tomosha qilib turishar edi. Hammasining og'zida bitta so'z:

— Yopiray, shunday ham ot o'rgatadigan odam bo'lar ekan-ov!

Sal o'tmayoq Polvon otni bo'ysundirib oldi. Polvon qayoqqa imo qilsa, yugansiz ot o'sha yoqqa yurdi. Polvon jon-jahdi bilan

chopib ketayotgan ot ustida o‘ynay boshladi: u otning goh o‘ng tomonidan, goh so‘l tomonidan tushib, yana sakrab minar, kaftlari bilan tikka turar, goh orqasidan sidirilib tushib, dumidan ushlab sakrab minardi.

To‘qqiz yoshigacha yugan urilmagan asov ot charchab, o‘pkasi og‘ziga sig‘may qoldi. A’zoyi badani bamisoli o‘tga toblangan muz yanglig‘ erib, qora terga tushib ketdi. Shunday qilib, otning chopishi susaydi, yelishga, yelishdan sekin yurishga tushdi. Keyin gavdasini eplayolmay to‘xtab qoldi.

Cho‘loq polvon chodir oldiga kelib otdan tushdi. U ot bo‘ynini quchib silab turib, “arqon!” deb qichqirdi. Bir yigit yugan bilan arqon oborib berdi. Polvon otga yugan urib, tizginini yelkasiga tarang qilib tortdi, arqon bilan oyog‘iga tushov soldi, keyin ildam yurib Ne’matjonning oldiga keldi. Ne’matjon avvaliga bu otni beraman deb qo‘ygan bo‘lsa-da, keyinchalik ko‘zi qiymadi. Shuning uchun oldiga Polvon kelganda unchalik ro‘yxush bermadi, boshqalar kabi Polvonni maqtamadi ham.

— Xo‘sh, mirza, — dedi u chodirga kelib suvsin ichganidan so‘ng. — “Va’da — qasamdan ulug‘” deyishadi. Va’da — va’da-da, a?

— Shunday, — deb yuborganini Ne’matjonning o‘zi ham bilmay qoldi.

— Nega talmovsirayapsan? Yo ko‘zing qiymayaptimi?

— Va’dam — va’da, ot seniki, siylov qilaman desang o‘zing bilasan...

— Sen o‘zingni bunday u yoq-bu yoqqa tashlama! Bermayman desang, tortib olmayman. Nima uchun senga siylov qilishim kerak ekan? Oting yo‘q debmi? Beraman deb va’da qilgan o‘zing, lafzim yo‘q desang, tag‘in o‘zing bilasan!

— Nima, jahling chiqyaptimi?

— “Er yigitning ikki so‘zlagani — o‘lgani” degan ota-bobolarimiz. Nega jahlim chiqar ekan, jahlim chiqib sen bilan yoqalasharmidim? Yo, yalinadi deb o‘ylaysanmi? Sadqayi or-nomusim ketsin!

— Va’dam — va’da! Berdim senga otni!

— Tangri yorlaqasin, — dedi Polvon. — Men tilanmayman. Xayr-sadaqa so‘raydigan darajaga yetganimcha yo‘q hali. So‘ra-

gan narsamni oldim. Xo'sh, endi mendan otingni haqini ol. Xohlasang mana bu minib kelgan otim bilan yigirma besh so'm pul, xohlasang ellik so'm ol!

Ne'matjon pul oladigan bo'ldi. Polvonning hamyonida ellik so'm tugul ellik tiyin yo'qligini bilgan jo'ralari darhol hamyonlaridan ellik so'm pul chiqarib berdilar.

Tamaddi qilib olganidan so'ng, Polvon ko'p to'xtamadi. O'z otining no'xtasini oq bo'z otga taqib, yetakka oldi-da jo'nab ketdi.

Qiz olib qochish

Bir qizi bor Xo'janing, ismi Balqash,
So'zlari goh shakar-u, goh achchiq osh.
Kiroyi qayliq olsang shundayin ol,
Bo'tako'z-u g'uncha lab-u qayrilma qosh.
(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Oq bo'z Polvonning ko'nglidagiday ot bo'lib yetildi: etdan tushib, qorni tortilib, sumbatli bo'lganidan keyin uning yonidan o'tgan odam bir qaramay o'tolmaydigan bo'ldi. Asta yursa ham, yo'rtsa ham, chopsa ham uning oldiga tushadigan ot bo'lmadi. Biroq Polvon: "Minib yurganimning o'zi men uchun katta davron emasmi?" — deb uni poygaga qo'shgani yo'q.

Oq bo'z juda yaxshi ot chiqdi: Polvondan boshqani oldiga yaqinlashtirmaydigan, egarlog'liq holda bog'lamay qo'ysa ham bir joyda qimir etmay turadigan, bo'shatib yuborsa qochmaydigan, sayoq yurib o'tlamaydigan, yot desa yotadigan, tur desa turadigan, xullas, egasi nimani buyursa, gapini ikki qilmaydigan bo'ldi.

Polvon ham o'z navbatida oq bo'zni yaxshi parvarish qildi: vaqtida o'tladi, sug'ordi, yem-xashagini saralab berdi, ozoda tutdi, har kuni yol-quyrug'ini tarab turdi, bobosidan qolgan qalmoqli egar to'qimidan boshqa jabduqni urmadi, kokiliga ukpar, dumiga cho'lpi taqdi, minganida qamchi tekkizmadi. Shunday e'zozlaganini sezgan oq bo'z ot ham egasining maqsadini tizgin ushlashdan sezadigan bo'lib qoldi.

Oq bo'zga minib kayf-u safo qilib yurgan kunlaridan birida Polvon qiz uzatayotgan ovulga duch kelib qoldi. Ovul udumiga ko'ra, qiz oqshomi kuni ovulning yosh-yalanglari, qiz-yigitlari birga o'tirishadi. Polvonga uzatiladigan qizning oldidan joy tegib qoldi. Bu paytda Polvon yigirma uch yoshda edi.

Polvon bunday qarasa, yonida o'tirgan qiz xuddi archilgan tuxumday oppoqqina, ko'zlari tiniq, sho'x ekan.

Qizlar bilan tez til topishadigan Polvon bu gal ham haligi qiz bilan gaplashib o'tirib, hamma sir-asrorini bilib oldi: u bo'lajak kuyovini xohlamas, nochorlikdan uzatilayotgan ekan. Otasining ismi — Xo'ja, o'z ismi — Balqash ekan.

Azaldan rahmdil Polvon qizning tuzog'iga ilinib qolganini sezmay qoldi.

Qiz bo'lajak kuyovidan norizo ekanini aytib, boshqalarga bildirmay ko'z yoshi qildi va Polvondan: "Bugunchalik emas, bir umrlik panohingizga oling!" deb iltimos qildi. Xullas, bu ko'z yoshlarining oxiri ahd-paymon bilan tugadi. Ertasiga qiz belgilangan joyga yashirincha chiqadi-da, Polvon bilan qochadi. Shunga kelishishdi.

Va'daga muvofiq, Polvon ertasiga kechqurun belgilangan joyga keldi-da, otini qantarib, yonboshladi. Qizning chiqishiga uning shubhasi yo'q. "Yopiray, shunday qilib uylanadigan ham bo'ldimmi- a?" dedi ichida kulib.

Sal o'tmayoq boshiga boshqa bir xayol keldi.

U paytlarda ovul odati bo'yicha katta turib, kichik uylanmasligi kerak edi. Uning oldida og'asi To'leboy turibdi, avval o'sha uylanishi kerak edi. U qalin mol topolmagani uchun uylanolmay yuribdi. Polvon o'ris selosida duradgor bo'lib yurgan kezlarida To'leboy uchun qalin mol berish darajasiga yetib qolgan, uydagilar ham shuni o'ylashadigan bo'lib qolgan edi. Hozir bunga chama yo'q.

Polvon chorasizlikdan ishni tashlab kelganidan keyin, ular kalta qo'l bo'lib, qalin mol to'lash u yoqda tursin, kun ko'rish ham amri mahol bo'lib qolgan edi...

Kechasi, soyda Balqashning kelishini kutib o'tirarkan, Polvonda uch mulohaza paydo bo'ldi:

Birinchidan: To'leboydan ilgari uylanganim uyat emasmi? Ota-onam nima deydi? Yor-birodarlarim-chi?

Ikkinchidan: xotin kishi erkakning oyog'iga tushov bo'ladi, deyishar edi. Agar shunday bo'lsa, o'sha tushovga o'z ixtiyorim bilan tushamanmi?

Uchinchidan: u birovning, birovning bo'lganda ham, katta boyning asiri. Ertaga dov-janjal bo'lishi turgan gap. Ehtimol o'lpon ham olar. Xo'sh, menda o'sha dov-janjalga qarshi turgudek qudrat, davlat bormi?

Polvon shu mulohazalarga borib, azbaroyi cho'chib, bor-e, deb jo'navormoqchi ham bo'ldi.

Ammo ahd-paymon-chi? Esini tanibdiki, ikki xil so'zlagan emas, endi bugun gapidan tonadimi? "Er yigitning ikki so'zlagani — o'lgani" emasmi? Yo'qolgan nomusni qayta tiklab bo'larmikan?

— Tosh tushsa toleyimdan ko'rganim bo'lsin, — dedi Polvon qat'iy qarorga kelib. — Tavakkal, gapim — gap!

Polvon Balqashni intizor bo'lib kutar, u esa hali-beri kelavermas edi. Nazarida qizning keladigan mahali allaqachon o'tib ketgan edi.

Polvon chidam bilan kutar, nazarida shu kechaning har bir daqiqasi bir yildek ko'rinar edi. Tepalik orqasidan bo'rilarning uvullashi eshitilmaganida, ov qilib yurgan yapaloq qush qanot silkib uchmaganida, yo nimaningdir sharpasini sezganday oq bo'z ot atrofga alanglab pishqirmaganida — bu kechaning sokinligiga chidash qiyin edi...

...Bir mahal: "Baxt yuldizingman" degan kabi yarqirab cho'lpon tug'ildi. Tong xabarchisi — mayin shabada go'yo yumshoq kaftlari bilan Polvonning yuzlarini silab, quloqlariga shivirlaganday bo'ldi. Tim qora osmonda, go'yo biz ham yaxshi xabar olib kelyapmiz, degan kabi o'rdaklar "fru-fru" qilib, g'ozlar "g'aq-g'aq" qilib uchib o'ta boshladi.

Polvonning gavdasini bosib-yanchib turgan qorong'i kecha asta chekina boshladi, u o'rnidan turib, otining yoniga keldi, asta sag'risidan silab, yonginasida jimirlab oqayotgan buloqdan sug'ordi. Keyin birpas o'tlab olsin jonivor, deb qo'yib yubordi. "Buncha

kechikdi?" deb bir tepalik ustiga chiqib ovul tomonga ko'z tashlagan edi, g'imirlab bir narsa kelayotganini ko'rdi: uchgan qushmi yo biror hayvonmi, bilib bo'lmas edi. Ishqilib bu yoqqa qarab jadal kelardi...

Hayron bo'lib tikilib turgan Polvonning qulog'iga ot dupuri chalindi. Sal o'tmay, birovning ot qo'yib kelayotgani ma'lum bo'ldi...

Polvon: "O'sha bo'lsa kerak!" deb pastga tushdi-da, otini jadal egarlay boshladi. U hozirlanib tepaga chiqqandi, kelayotgan — Balqash ekan!.. Qiz o'tib ketayotib, Polvonni ko'rib qoldi-yu, otining boshini qaytardi.

— Va'dangizda turgan ekansiz, — dedi qiz otidan sakrab tushib Polvonni quchar ekan. — Roziman. Kechikkanim uchun xafa bo'lmang, — dedi qiz atrofiga alanglab. — Sababi bor keyin aytaman... Tez otlanmasak bo'lmaydi... Orqamizdan quvishlari mumkin..

— Tong otib qolganida-ya?!

— Biror gap sezib qolishdi shekilli, poyloqchilar ko'payib ketib, zo'rg'a chiqdim...

Bu payt tong bo'zarib ota boshlagan, atrofdagi narsalar elas-elas ko'rinib qolgan edi. Polvon bilan Balqashning qulog'iga ot dupiri eshitilganday bo'ldi. Ular shubhalanib, tepa ustidan ovul tomonga qarashgan edi, uch-to'rtta otliq chopib kelayotganini ko'rishdi. Qizning kayfi uchdi.

— Sen soyga tushib ko'rinmay tura turgin — dedi jahli chiqqan Polvon Balqashga. — Men ularning oldiga chiqay.

— Voy, qo'ying, — dedi qiz qo'rqib. — Ko'pchilikka bas kelib bo'ladimi? Qo'lingizda qamchidan boshqa qurolingiz yo'q. Undan ko'ra otingiz yaroqli bo'lsa qochib qutulaylik!

— Men unaqa yigitlardan emasman! — dedi Polvon kulib. — Qadimgilar aytishar ekan: "Tayyor miltiq bilan qurshovli yovga yo'liqtir" deb. Ular ham farishtadan emas, menga o'xshab onadan tug'ilgan. Nomim Cho'loq polvon bo'lsin-u tag'in yovdan qochaymi? Shunda mening kim bo'lganim? Bundan ortiq nomus bormi men uchun? Peshonada bor o'lim bo'lsa, qochib yurib o'lgandan ko'ra, qochmay yurib o'lgan ma'qul emasmi? Yo'q, Balqash, men

qochsam o'laman-u, qochmasam o'lmayman. Sen tomosha qilib turgin, men yov bilan qanday olishar ekanman!.. Men sen uchun qalin mol to'laganim yo'q. Tekindan tekin olib ketganim odamgarchilikdan emasdir. Molimni ko'rsatolmasam ham, kuchimni bir ko'rsatay!..

Balqash Polvonni endi gap bilan qaytarolmasligiga ishonch hosil qilgach: "Yuzini teskari qilaman desangiz qiling-u, faqat o'lim bo'lmasin. O'lim bo'lsa, bir umrga qutulolmaysiz!" deb iltimos qildi.

— Xo'p bo'ladi! — dedi Polvon.

Cho'loq polvon qizni soyda turishga ko'ndirib, oq bo'zni o'ynatib tepa boshiga chiqdi. Bu mahalda tong oppoq oqarib, kun chiqish tomondagi ufq sarg'aya boshlagan edi.

Quvib kelayotganlarning oldida bir salt otliq o'zibroq kelar edi. Asli Polvonni tanib kelayotgan bo'lsa ehtimol, so'yil-cho'qmorini ko'ndalang ushlab qichqirdi:

— Otdan tush!.. Tush otdan!

Cho'loq polvon unga qarshi chopdi. Ikkovi qarama-qarshi chopib, haligi odam cho'qmorini siltagan mahalda Polvon uni qo'lidan yulib oldi, ot shamoli bilan o'tib ketdi-da, qayta burilib haligi yigitning etagidan mahkam ushlab oldi, yigit qiyalab tortishib tob bermaslikka harakat qildi, biroq Polvonning kuchli qo'llari uni ot ustidan yulib oldi-da, taqimga o'ngarib ancha joygacha olib keldi, so'ng yerga tashlab yubordi. Oti o'ynoqlab qochib qoldi...

Polvon yigitning ketidan kelganlarni ham shu usulda otdan ag'darib tashladi. Quvlab kelganlardan ot ustida hech kim qolmadi.

G'ayrati jo'sh urgan Polvon bo'sh otlarni haydab soyga tusha boshlagan mahalda, uning kuchini ko'rib xursand bo'lgan qiz otiga minib soydan chiqib kelayotgan ekan.

— Sen mana bu tepalikka chiqib otlarni bir joyga to'play tur, — dedi Polvon qizga. — Men haligi yigitlarning oldiga borib kelay.

— Nima uchun?!

— Kecha to'yda birga o'tirishgan yigitlar bilan bugun arazlashib ketaymi endi? Oldilariga borib kechirim so'rayman.

— Voy, bormang, ushlab olishadi. Otliqqa qaraganda yayov kuchli bo'ladi, deyishadi. Qo'llariga tushib qolsangiz bo'shatishmaydi!

— Sen qarab turgin, qanday bo'shatisharkan.

— O'tinib so'rayman, Polvon! — deb otining tizginiga yopisha ketdi qiz.

— Qo'yib yubor tizginni! — deb baqirdi u. Qiz noiloj tizginini qo'yib yuborishga majbur bo'ldi. Polvon gina qilgan bo'ldi: — Men seni erga erday, shoirga shoirday hamkor bo'ladi, deb o'ylasam, sen shunaqa zaifmiding? Er yigit qayralgan qilich emasmidi? Nechuk uning damiga qo'l tekkizishga jur'at etding?

Qiz nima deyishini bilmay turib qoldi. Polvon otini choptirganicha jo'nadi. Bu mahal otdan ag'darilgan yigitlar ham bir joyga to'planib turishgan edi.

— Ot ustida turib gaplashsam, ko'ngillaringga kelar, do'stlar, — dedi Polvon ularga yaqinlashganda otdan tushib. — Xo'sh, mana, tutib beraman desanglar, mana, men, oldilaringga keldim!

— Nima, kuchi yetmaydimi, deb o'ylayapsanmi? Ushlanglar! — deb boya oldinda chopib kelib birinchi ag'darilgan yigit xo'rozlangan edi, yonida turgan yigitlardan biri uni kesatdi:

— Bechoraning mardligi tutib ketganini qara! Bor, bog'lab ola qol kuchli bo'lsang! Boshqalar otdan o'zi shundaygina tushdi deb o'ylaydi, shekilli! O'zi ham g'ofil qolib ag'darilgandirsan!..

Haligi xo'rozlangan yigitning popugi pasayib qoldi.

— Bizlarning bu ishimiz to'y tarqar oldidagi yiqishmachoq o'yiniga o'xshaydi, — dedi Cho'loq polvon. — Qani aytinglar-chi, yigitlar, qaysi biringizning chuchuk etlaringga achchiq tayoq tekkizdim?

— Tayoq tekkizdimmish, bundan ham ko'ra urib o'ldirib ketganing tuzukroq edi, — deyishdi ba'zi yigitlar.

— Xo'sh, yigitlar, o'yin-kulgidan qo'ymasin. Qiz zotining ko'nglini qaytarolmaydigan odatim bor, o'sha odatim tutib ketib bitta qizlaringni olib qochganim rost. Ammo tengdoshlar, sizlar menga qizdan ham qimmatsizlar. Olib qolaman desalaring qizning ahd-paymoni mening gardanimga, ana qizlaring, boringlar-u olib qolinglar!..

— Hoy, yigitlar, — dedi yigitlardan biri shu mahal. — Bir pulga arzimaydigan nomusni himoya qilib nima qilamiz? Cho'loq polvon bo'lib tug'ilsanglar, senlarga birov qo'y dedimi? Ovulimizning bitta qizining Polvondan sadag'asi ketsin? Sotaman desak boshqa qizlarimiz ham yetadi bizlarga. Qizni nima deb qaytarib olib boramiz? Tortib oldik deymizmi! Agar bilsanglar, Polvonni shuncha joyga quvlab kelganimizning o'zi katta ayb. Shu gunohimizning o'zi ham biz uchun yetarli!

Bu gapga hech kim qarshilik ko'rsatmadi. Shu maslahatni aytgan yigit Polvonning bo'z otini minib borib, otlarini olib, qizni ergashtirib keldi. Boyagi xo'rozlangan yigitga o'xshagan bittayarimtasi bo'lmasa, boshqa yigitlar qiz bilan Polvonga yaxshi tilaklar aytib, kuzatib qo'yishdi.

Bu mahal quyosh chiqib, atrof yorishib qolgan edi. Qiz bilan yigit quyoshning oltin nurlariga cho'mib, "Jon sevgilim" o'lanini jo'r bo'lib aytishib, yo'rtib ketishdi.

Er yigit — el farzandi

Elga unar yigit qilig'i bilan,
Ot qutulmas siltasam qurug'imdan[1].
Dushmanlarim o'rab olib qamasa ham,
Sirdaryoning suvi kelmas to'pig'imdan.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Erayman tog'ida istiqomat qiladigan, Balqashga qalin moli to'lagan kuyov Cho'loq polvonnnig ovuldoshi — Sotiboy degan kishining jiyani ekan. U tog'asi Sotiboyning oldiga odam yubordi.

— Jiyaningiz yubordi, — deb keldi u yuborgan odam. — Nozaninday yesirimizni sizning qo'shningiz, kelgindi Uysinning qandaydir daydi yigiti kuppa-kunduzi olib qochib ketdi. Bu to'rtbesh xonadon Uysin kimning ko'ziga cho'p solmoqchi o'zi? Bilamiz, ular siz Kereylarga orqa qilib qilyapti bu ishlarni. Oldin-

[1] Uchiga tuzoq bog'langan uzun tayoqcha. *(Tarj.)*

gizdan o'tgani keldik. Qani, yesirimizni qaytarib, qo'shningizdan o'chimizni olib berasizmi yo dovlashamizmi?

Bu gaplarni eshitib Sotiboy ham Cho'loq polvonning oldiga odam yuborgan edi, Polvon: "Mening olib kelganim mol emas, odam. Egasiga qaytarolmayman! — deb javob berdi. — Tortib olib ketamiz desa, o'zlari biladi".

Bu gaplarni eshitgan Sotiboy, jiyani yuborgan choparga shunday dedi: "Yigitlarni yig'ib bu bemaza yigitdan bevalaringni tortib olinglar-u, o'zini ham ushlab bog'lab ketinglar. Ovulni men qimir etkazmayman!".

Chopar ketganidan keyin Sotiboyning unga aytgan gaplari ovul orasida yoyilib ketdi.

Uysinga qarashli uch-to'rtta xonadon odamlari, Polvondan o'zgasi, yuvosh-mo'min odamlar ekanligi bizga ma'lum. Buning ustiga ular qishlovlaridan ajralganlaridan so'ng bir kambag'al ovulga ko'chib kelib o'tirishgan edi. Sotiboyning gapini eshitib ularning jon-poni chiqib ketdi.

— Chirog'im, — deyishdi ular Polvonning oldiga to'planishib kelib, — sen bunday beg'am o'tirmagin. Sotiboyning jiyani hazilakam raqib emas. U Qanjig'alidagi mashhur Soqquloqning qarindoshi bo'lsa ajab emas. Besh bo'lisga qarashli qanjig'aliliklarni to'plashayotgan emish. Ertaga osmonga chiqqan bulutday yov yopirilib kelib qolsa, bir o'zing bas kelolmaysan.

— Xo'sh, buning uchun nima qil deysanlar?

— Qurbing yetmaydigan dorga osiladigan ahmoq yigitlardan emassan-ku. Joning kerak-ku...

— Muddao?..

— Yesirini qaytarib ber!..

— Bu ish mening qo'limdan kelmaydi. Balqashni faqat mening o'ligim ustidan hatlab olib ketadi...

Polvonning aytgan gapidan qaytmaydigan bir so'zli, o'jar ekanligini bilgan ba'zi qo'shnilari:

— Unday bo'lsa o'zinga qarashli odamlarga xabar qil, yig'ilishib, senga bo'lishsin. Yolg'iz odamga yov oson chopadi, har holda ko'pchilikdan hayiqadi...

— Men hech kimga "menga bo'lishib yubor" deb bosh egmayman, — dedi Polvon. — Naryog'ida bor yigitlar o'ziyoq keladi. Men do'stlarim uchun keraksiz bo'lsam, yolvorganim bilan ham kela qolmaydi. Nima bo'lsa peshonamdan ko'rdim.

— Unday bo'lsa, bu yerdan ket. Yov bizlarning nimamizni oladi deysan? Keladi-yu, ketadi.

— Yovdan qochgan odam xotin bilan teng. Qochgandan ko'ra keladigan yovni qarshi olsam bo'lmaydimi?

Cho'loq polvon hech kimning oldiga yolvorib bormadi ham, yashirinmadi ham. U oq bo'z otini tobida ushlab, uyida o'tiraverdi, u hammaning gapidan ko'ra onasining gapini qadrlar edi. Onasi boshqalardek bolasiga vahima gaplarni aytmadi. Uning tushunishicha, erkak kishi bir ishni qilaman deganida ayol zoti uni qaytarishi kerak emas, ayniqsa, Cho'loq polvonga o'xshagan nomdor yigitning...

Aslida tushunchasi shunaqa Qalampir bu ishning nima bilan tugashini o'ylab, ba'zi-ba'zida pinhoniy ko'z yoshi qilib oladigan bo'ldi. Ba'zan esa, ko'z yoshini tiyib, ko'nglida qandaydir umid uchquni yiltirab qoladi. U qadimgi botirlar haqidagi dostonlarni ko'p eshitgan, o'z navbatida boshqalarga ham, o'g'li Nurjonga ham gapirib bergan edi. Keyinchalik bolajoni "Cho'loq polvon" atalib, el og'ziga tushib ketganidan so'ng, unda qandaydir faxrlanish hissi paydo bo'lgan edi. Uning ko'nglida shu'la kabi yarqiragan umid uchquni ham o'z faxrlanish hissidan. Tumonat yov bilan olishganda bolasining mag'lub bo'lish xavfi tumandek bostirib kelsa, g'olib chiqish quvonchi uning oldida quyosh bo'lib porlab turardi go'yo. Uning ko'nglida nima uchundir o'g'li mag'lub bo'lmaydi, g'olib chiqadi, shunga u qattiq ishonadi. Mana shu hissiyot uni olg'a chorlaydi, o'g'lining tumonat yov bilan yolg'iz olishadigan kunini orziqib kutadi...

Cho'loq polvonning hech kimni yordamga chaqirmaganligining sababi: birinchidan, yaxshi kunlarida o'zini do'st ko'rsatib yurganlarni mana shunday yomon kunlarida sinab ko'rish bo'lsa: ikkinchidan, o'zining kuchini yana bir sinab ko'rish edi. Fahmlashicha, hali o'z kuchining boshqa tomonlari ochilmaganday edi.

Kunlardan bir kuni "Yov tomon besh yuz kishi bo'lib kelayotgan emish" degan xabar kelib qoldi. Polvon, o'g'irlab ketishmasin, deb bo'z otini kishanlab qo'ygan edi. U oq bo'z otini olib kelib egarladi, quyushqon soldi, to'sh aylini bo'sh, chov ayilini mahkam tortdi. Bobosidan qolgan temir sotuvni ko'ylak ustidan, oyog'iga qalin etik kiydi. Boshiga besh gazcha keladigan oq ipakni o'radi-da, bir qulochcha uchini orqaga shalviratib tashlab qo'ydi.

Cho'loqning ovuli tepalik ustida edi. Bu tepalik ustida kattagina balandlik bo'lib, uning ustiga bir bolani qorovul qilib qo'ygan edi. Tush og'gan bir mahalda haligi bola tepalik ustidan hovliqib tushib keldi:

— Polvon og'a, polvon og'a... Chumoliday yer-u ko'kni qoplab kelyapti!.. — deb qichqirdi u.

Qalampir bu mahalda tashqarida, Boymirza uyda edi. U vahima gaplar boshlanganidan beri ko'chaga chiqmay, nimanidir bahona qilib uyida kuymalanib yurar edi. Bugun uyda yamoqchilik qilib o'tirgandi.

Qorovul bolaning: "Chumoliday yer-u ko'kni qoplab kelyapti!" degan gapi Boymirzaga yashindek ta'sir qildi.

— Oh!.. — dedi u ko'zlari qinidan chiqib ketguday bo'lib, qo'rqib. Qo'llaridan ninasi bilan bigizi tushib ketdi. Chalqanchasiga tushgan otasini Polvon suyayotgan mahalda onasi kirib keldi.

— Bu bor bo'lgirga nima bo'ldi?! — deya Qalampir ham kelib Boymirzani suyadi.

— Vay-bay, og'a.. kelib qoldi! — deb qichqirdi tashqarida turgan bola jon holatda.

— Bolam... Nurjon... — dedi saldan keyin Boymirza ko'zlarini ochib. — Endi nima qildik?

Cho'loq polvon otasini suyab, qaddini rostladi. Qalampirning ko'zi o'g'lining ko'zlariga tikilgan edi, kayfi uchib ketdi, jahl ustida turgan Polvonning ko'zlari cho'g'day yonib, qizil chiroyli yuzlari qo'rg'oshinday ko'karib ketibdi. Lablari, dahanlari sovuqda qolgandek dir-dir titrab turibdi...

— Oyi! — dedi Polvon. Uning tovushi salmoqli chiqdi. — Men ketdim!

U "qulunim!" deb quchog'ini yozib kelayotgan onasining yuzidan bir o'pdi-yu, chiqib ketdi. Onasi esa o'pishga ulgurmay qoldi. Polvon bo'sag'aga suyanib ko'z-yoshi qilib turgan Balqashni payqamadi ham. U uydan jahl bilan chiqqanda ko'ziga butun olam: o't-o'lanlar ham, yer-ko'k ham, mol-jon ham olovdek ko'rindi.

U otiga qanday qilib minganini payqamadi. Ketayotganida, orqasidan Balqash:

— So'yilingiz... cho'qmoringiz qoldi! — deb qichqirdi.

— Bir siltashga yaramaydigan narsani otga yuk qilib nima qilaman. Undan ko'ra so'yilni yovning o'zidan tortib olib, o'zini savalaganim yaxshi emasmi? Yovning so'yiliyam meniki-da! Mana shu qamchidan qo'ymasin! — deb qamchisini baland ko'targancha chopib ketdi.

Polvon yer-ko'kni changitib kelayotgan otliqlar tomonga chopib borardi. Oq bo'z ot ham go'yo qanot bog'lab uchib borardi. To'rt tuyog'idan osmonga tuproq sochib chopib ketayotganini ko'rgan odamlar ham uni uchib ketyapti deb o'ylashdi. Cho'loq polvonning boshiga o'rab olgan ipak sallasining uchi osmonda hilpirab borardi.

Cho'loq polvon shu zaylda haligi tumonat otliqlarga yaqinlashib qolgan mahalda uning oldidan kimdir ko'ndalangiga chopib chiqdi. Polvon uning kimligiga e'tibor bermadi. "O'sha ko'p yovning biri bo'lsang kerak-da!" deb o'ylab, otining boshiga qamchisi bilan solib yubordi. Oq bo'z epchillik bilan ancha nariga o'tib ketdi.

Polvon otining boshini qaytarib, otliq yov tomonning yakkama-yakka chiqqan odami bo'lsa kerak, degan xayolda tag'in urmoqchi bo'lib yaqinlashgan edi, u odamning yiqilib tushgan oti tagidan chiqolmay yotganini ko'rib qoldi. Polvon boshda uni qamchi bilan bir tushirmoqchi bo'lib engashdi-yu, yiqilib yotgan odamni urishni o'ziga ep ko'rmay, uning yoniga kelib turib qoldi. Bunday qarasa, boyagi tumonat otliqlar bu yoqqa qarab changitib chopib kelayotibdi.

Jahldan sal tushgan Polvon kelayotganlar bilan savalashmoqchi bo'lib otining boshini burgan mahalda:

— Polvon! — dedi otining ostidan chiqolmay yotgan haligi yigit. Polvon bunday qarasa, shu atrofdagi o'z do'stlaridan biri ekan.

— Ha, buning qalay? — dedi Polvon uni yov tomoniga o'tib ketibdi deb gumon qilib.

— Nega urasan? — dedi do'sti ham hayron bo'lib.

— Qasdmisan yo do'stmisan?

— Men senga qachon qasd bo'lgan edim?

— Anavi kelayotganlar kimlar?

— O'zimizning yigitlar.

— Ha, qayoqqa ketyapsizlar?

— Nima, seni yovga talatib qo'yarmidik?

— Qani yov?

— Mana bu tepaning naryog'ida. Bizning yigitlarni ko'rib hayiqib turishibdi. Seni chaqirgani kelayotsam... Nega urding meni?!

— Yov bo'lsang kerak, deb...

Polvon otidan sakrab tushdi. Bunday qarasa, yiqilgan ot o'lib qolibdi, qamchi tekkan joy qars ayrilib ketibdi...

— Mana bu otga min, — dedi Polvon o'zining otiga ishora qilib.

— Nega?

— Otingning xuni uchun...

— Bu nima deganing?! Sen bir otga arzimaysanmi?

Boshqa yigitlar ham kelib qolishdi. Haligi yigit esa ko'pchilik oldida otining xunidan kechdi. Yigitlar Polvonni o'rtaga olib tepalikka chiqishsa, yov tomon to'planishib turgan ekan. Ular yuztacha, bular esa to'rt-besh yuztacha bor...

Har ikki tomon ham o'rtaga vakil qo'ydi. "Besh-olti xonadon Uysin" deb mensimay kelgan yov tomonning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Sotiboy o'ziga o'xshagan zo'ravonlarni Polvonga qarshi qutqilamoqchi bo'lgan edi, ulardan ish chiqmadi. Axiri, yov tomondagilar bitimga kelib, Polvonga qalin molini to'latishga qaror qilishdi. Bu molni Polvonning do'stlari yig'ib berishdi.

— "Er yigit — el farzandi" degan gap rost ekan, — deyishdi Polvonning do'stlari ham, dushmanlari ham. — Eli ham, er yigiti ham omon bo'lsin!"

Anqovlik

Shu kunlarda oqar suvday toshib yuribman,
Dushmanimning ko'kragini bosib yuribman.
Gardanimga sakson ho'kiz dovi tushib,
Shu sababli ulug'lardan qochib yuribman.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Kuyov tomon Balqash uchun berilgan qalin molni undirib olgani bilan, Polvonga bo'lgan adovati tugamadi.

— Cho'loq polvonning bu zo'rligi bizlarga nisbatan senga qattiqroq tegishi kerak, — dedi Balqashdan ajrab qolganlar ovullariga qaytayotganlarida Sotiboyni gij-gijlab. — Hulkarday bir to'da Uysin Kerey urug'i ichiga kirib olib, senga tenglik bermasa-ya! Agar shunday ketaversa, bugun bizlarning xotinimizni tortib olsa, ertaga sening xotiningni tortib oladi. Bizlar uzoqdamiz, oyog'i yetmas-u, bitta yesirimiz sadaqa, ertaga sening molingga ko'z olaytiradi, joningga qasd qiladi. Boshvoqsiz qo'yaversang, hali bu yurganing holva bo'lib qoladi, pand yeysan. O'ylab ko'r!...

Sotiboy o'ylanib qoldi. Mehmonlari ketgandan so'ng, yordo'stlarini chaqirib: "Shu baloni daf qilsak nima qiladi? — deya maslahat soldi. — Biroq el ichida e'tibori zo'rayib ketyapti, ehtiyot bo'lmasak boshimizga bir balo orttirib olishimiz turgan gap".

Sotiboy shu masalada Qayroqliga borib ko'p mahallardan beri ko'rmagan do'sti Yegor Propadko bilan maslahat qildi. U Polvondan chekkan ozorlarini ko'pirtiribroq gapirdi:

— Sening ukangni o'ldirib omon qutulib ketgach, — dedi Sotiboy og'ir xo'rsinib. — Boshqalardan hayiqarmidi? Hali ham boshqalarni qirib tashlamay yurganiga shukur.

— Xo'sh, nima qilish kerak? — dedi Propadko. — Hukumatga chaqib hibsga oldirgudek aybi yo'q. O'ris qonuni aybsiz kishini qamayolmaydi. Eng yaxshisi, bir ilojini qilib uni o'ldirib yuborish kerak. Biz ham shu qarorga kelgan edik, sezib qolib, bu yerlarga qadam bosmay qo'ydi. Nega o'zlaring shunday qilmaysanlar? Ovulda shunday qilishning iloji bor-ku?

— Yo‘q. Iloji yo‘q! Yo‘lini to‘sib o‘ldiraylik desak, u uch-to‘rt-ta odamga bo‘y bermadi. Ko‘pchilik bo‘lib o‘ldirish noqulay, ko‘pchilik uni deydi...

— Zahar bersa-chi?

— Unda katta to‘polon bo‘ladi...

Ikkalasi ham o‘ylana-o‘ylana shunday qarorga kelishdi: uni birdan bir qo‘lga tushiradigan kalit — oq bo‘z ot. U oq bo‘zini jonidan ham yaxshi ko‘radi, ot qo‘lga tushsa, u ham tushadi. Buning uchun “ekinimizga tushdi” degan bahona bilan oq bo‘z otni qo‘sha Polvon ovulining yoyilib yurgan yilqilarini bir kechasi Sotiboy haydab keladi-yu, Propadkoning saroyiga qamaydi. Ekinni yeb qo‘yganini, uning xuni uchun Propadko faqat oq bo‘z otni so‘raydi. Albatta, Polvon otini qutqarib olib ketishning harakatini qiladi. Ana shu paytda bir ilojini topib o‘ldirishadi qo‘yadi.

Ular shu qarorga kelishgach, sal kun o‘tmay, oq bo‘z bilan birga ovul yilqilari Propadkoning saroyiga olib kelib qamaldi.

Polvon ovul odamlari bilan otining ketidan bordi. Biroq Yegor ularga tenglik bermadi. U aslida do‘l urib payhon qilgan ekiniga shahar starostasini olib borib: “Ovul moli yeb qiyratib ketdi” degan ma’noda akt tuzdirib qo‘ygan ekan. Uning da’vosiga ko‘ra, agar payhon bo‘lgan ekinining xuni to‘lanishi lozim bo‘lsa, saroyga qamalgan mollarning yarmi ham yetmas ekan. Ammo shunga qaramasdan Yegor oliyjanoblik qilib, ekinning xuni uchun faqat oq bo‘z otni so‘rabdi.

Mol egalari nima qilish kerakligi haqida maslahat qilishdi. Ba’zilar yuqoriga — ulug‘ga arz qilish kerak, deyishdi.

— Ulug‘dan yaxshilik kutmay qo‘ya qolinglar! — dedi Cho‘loq polvon. — Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.

Hammasining tili bir.

— Endi nima qilamiz bo‘lmasa?

— Zo‘rlikka zo‘rlik bilan javob beramiz.

— Qanday qilib?

— Kechasi qo‘rasiga tushib, yilqilarini haydab ketamiz?

— Qo‘raga qanday qilib tushamiz? Pastgina bo‘lsa ekan? Baland, toshdan yasalgan, qal’aga o‘xshaydi. Buning ustiga darvozalari mahkam. Begona yilqilar qamalib turgan qo‘rani qoro-

vulsiz qo'ymas... Buning ustiga odamni ot ustidan yulib oladigan qopag'on iti bor! Qorovullari ham quruq qo'l bilan turmas, miltiqlari bordir. Ayaydi deysanmi ular, paq etadi otadi tashlaydi, ayniqsa, seni! Qo'y sen ham borma, biz ham bormaylik. Hammadan ham jon shirin. Mol uchun jonni qurbon qilmaylik, tag'in...

— Endi nima qildik?

— Ko'kchatovga borib ulug'ga arz qilishdan boshqa chora yo'q...

Polvon ovuldoshlari bilan kelisholmadi. Qishloqda Kurganovning bir yaqin kishisi bor edi. U qonun-qoidani bilar, qishloqda mirza bo'lib ishlar, familiyasi Larionov edi. Polvon o'shaning oldiga borib, maslahat so'radi. U Polvonni ilgaridan tanir, Yegorni yomon ko'rar edi.

— Gaping to'g'ri, — dedi Larionov Polvonga. — Qonun bilan uni mot qilolmaysan. Kattalarning hammasi uning gapini qiladi. Eng to'g'risi, hali o'zing aytganday, ilojini qilib, yilqilarini kechasi qo'radan haydab chiqib ketasan. Buning uchun hammaning Ko'kchatovga otlangan bo'lib yo'lga tushasanlar, toki Yegor shubha qilmasin. Keyin yo'l-yo'lakay, sen qalin o'rmon ichiga kirib, qolib ketasan. Boshqalar ketaverishsin.

— Nega?

— Negaligi shuki, birinchidan — Yegor orqalaringdan odam qo'yishi mumkin. Mabodo shunday qiladigan bo'lsa, shaharga ketganlaringga ishonch hosil qiladi. Sen, qalin o'rmon ichiga kirgan paytlaringda, evini qilib aravadan tushib qolasan. Ikkinchidan — boshqa qozoqlar ham sen bilan birga qolishsa, oyog'inga tushov bo'ladi...

— Yolg'iz qolsam nima qilolaman?

— Tanish, do'st o'ris yigitlaridan yordamchi beraman. Ular seni dog'da qoldirmaydi...

Ular shu qarorga kelishdi. Polvonning sheriklariga ham bu maslahat ma'qul tushdi. Ular "Ko'kchatog'ga ketdik" deb ovoza qilishdi-yu, jo'nab ketishdi. Larionov avliyo ekan, aytgani to'g'ri chiqdi. Yegor ularning ketidan ayg'oqchi qo'ydi. Salt otliq ayg'oqchi uzoqdan ko'z-quloq bo'lib borar ekan, qalin o'rmon

orasiga kirganda, Polvonning aravadan tushib o'zini chakalakzorga urganini payqamay qoldi...

— O'rmondan yalanglikka chiqqunlaricha kuzatib qaytdim. Hammasi tugal Ko'kchatog'ga ketdi, — deb keldi ayg'oqchi. Yegor uning gapiga ishondi. U:

— Bilganlarini qilsin, — dedi-da, qanoat hosil qilib, odatdagiday uyquga ketdi.

Pavel Larionov aytgan gapining ustidan chiqdi. Polvon kechqurun kelganida, u kunduz kuni ogohlantirib qo'ygan yigitlar shay bo'lib turishgan edi. Polvonning ketidan yigirmatacha yigit ergashdi, u o'zida yo'q xursand edi. Yegorning uyi qishloqda eng chiroyli, hashamatli uylardan. Polvon yarim kechada yigitlari bilan yetib keldi. Qishloq uyquda, tun zim-ziyo qorong'i.

— Qani, yigitlar, — dedi Polvon Yegorning uyiga yetgach. — Endi sizlar shu joyda turinglar. Mabodo menga xavf tug'ilguday bo'lsagina ichkariga kiringlar. Hech gap bo'lmasa, shu joyda kutib turinglar. Qo'ra ichi menga tanish. Yilqilarni qayerga qamaganini ham bilaman...

— Otingning oyog'ini kishanlab qo'yishdi degan edi, uni qanday qilasan?

— Burab buzaman...

— Darvozaning qulfini-chi?

— Uni ham...

Polvon sakrab devor ustiga chiqdi. Naryog'ida tepasi tunuka bilan yopilgan qo'ra. Qo'raning ustiga bir amallab chiqib, pastga engashib qaragan edi, qorong'ida, bir chekkada oq bo'z kishanlog'lik turganini ko'rdi. Boshqa yilqilar ham uning atrofida... Qo'rada tag'in anchagina qoramol kavsh qaytarib yotibdi.

Boyadan beri jim yotgan it, sezib qoldi shekilli, hurib, uzun zanjirini shildiratib sudrab keldi. Tepada o'tirgan Polvonning naq yoniga kelib "Kimsan o'zing?" deganday irilladi. Ilgari, Polvon shu yerda xizmat qilib yurganida, bu hali kuchuk edi, endi toydek katta bo'lib ketibdi. It hamon boshini yuqori ko'tarib irillardi. Shu mahal Polvon chaqqonlik bilan zanjirni qo'liga oldi-da, yuqoriga qarab tortdi. It bo'g'ilib, yuqoriga osilgan mahalda Polvon uning tumshug'iga poshnasi bilan bir-ikki tepdi. Itning nafasi ichi-

ga tushib ketdi. Polvon uni devorga osib bog'ladi-da, pastga sakrab tushdi. Oq bo'z ot egasini taniganday o'qrandi.

Polvonning ko'zidan yoshi chiqib ketdi. Shu mahal kavsh qaytarib yotgan ho'kizdan biri o'rnidan asta turib Polvonga yaqinlashdi. Polvon bu yerdan ketganidan keyin, bir suzag'on buqa paydo bo'lganini, talay odamlarning otlari qornini yorganini eshitgan edi. O'sha buqa bo'lsa kerak, deb o'ylab Polvon uning oldiga borgan edi, buqa sal taysalib turib, oldingi oyoqlari bilan yer tepib tezak socha boshladi. Polvon tap tortmay uning oldiga bordi-da, shoxidan ushab oldi. Buqa suzish uchun harchand harakat qilmasin, Polvon uni erkiga qo'ymadi, belidan qasmchisini sug'irib olib och biqiniga tortib-tortib yuborgan edi, buqa qaytib uning oldiga yaqinlashmadi.

Polvon tezroq ketish niyatida darvozaga borgan edi, yo'g'onligi bilakday-bilakday keladigan halqalarga kattaligi naq kurakday keladigan qulf solib qo'yilgan ekan. Yerdan ingichkaroq bir temirni olib darvoza halqalarini burab ko'rgan edi, temir mayishib ketdi. Keyin boshqa qurol topolmagach, jon-jahdi bilan buragan edi, qulfning ikki betiga yopishtirib qo'yilgan qalin temirlari, mixlari uchib tushdi, qulf ochildi. Polvon qulfni shovqin-suronsiz olib tashladi-da, darvozani ochdi. Shundan so'ng uyqisirab yotgan ho'kizlarni, otlarni qo'radan haydab chiqdi. Darvoza oldida tovush chiqarmay kutib turgan do'stlari mollarni shahar chetigacha haydab borishdi, so'ng Polvon bilan xayrlashib, orqaga qaytishdi. O'sha yigitlarning orasida Larionovning o'zi ham bor ekan.

— Mollarni shu tomonga qarab hayda. Mengrevning qalin qarag'ayzori ichiga bir amallab kirib olsang, marra seniki. Yegor tugul shayton ham topolmaydi seni. Keyin nima qilishingni o'zing bilasan. Bizlarning qo'limizdan kelgani shu.

Polvon do'stlari bilan xayrlashib, rahmat aytib, Larionov aytgan tomonga qarab jo'nab ketdi...

Cho'loq polvon it tumshug'ini suqolmaydigan qalin qarag'ayzor orasidagi o'zigagina ma'lum tor so'qmoq bilan tongotar paytida mo'ljallangan yerga yetib bordi. Bunday ho'kizlarni sanab ko'rsa — saksonta ekan. Hammasi ham shohlari katta-katta, tuyaday yirik-yirik, miqti ho'kizlar ekan.

Polvon ovulidagi kishilar bilan xufiya xabarlashdi, Oqmo'la savdogarlari Qiziljar shahridagi go'sht zavodiga qoramol haydab kelishayotgan ekan. Polvon haligi sakson ho'kizni savdogarlarga ko'tarasiga qirq so'mdan sotdi-da, pulning yarmidan ko'pini ovuldagi yaqin odamlariga taqsimlab berib, ozroq pulni o'z hamyoniga urdi. So'ng bu masala bir yoqli bo'lguncha ko'rinmay turish niyatida, oq bo'z otiga minib Otbosar shahridagi endi ochilayotgan yarmarkaga jo'nab ketdi.

G'aliya

Xat bitaman, G'aliya, senga atab,
Izzatingni, hurmatingni bajo aylab.

(She'ri ham, kuyi ham Cho'loq polvonning o'ziniki.)

Podsho hukumati Oqtepa shahridan O'mba shahriga harbiy yurish qilgan mahalida, Otbosar shahriga bekat o'rnida tushib o'tgan edi. Bu 1854-yili edi. Bu shaharning harbiy bekat bo'lishi sababini uning nomidan bilsa ham bo'ladi. "Otbosar" so'zi ikki so'zdan iborat. Biri "ot", ikkinchisi "bosar". Bunday nomlanishining sababi bor: Otbosar shahrining tevaragida Org'in urug'ining Quvondiq, Suyindiq, Begendik, Shegendik, Qo'zg'on, Qoqsal kabi mayda urug'lari bo'lib, ularda mol, ayniqsa, yilqi ko'p bo'lgan. Atoqli Qultuma shoir Oqqo'chqor, Saydali kabi boylarning boyligini tasvirlar ekan:

So'rasang gar urug'im Quvondiqdir.
O'z vaqtida qilibdi xo'b zo'rlikni.
Oqqo'chqor va Saydali zamonida
Bir ko'lda qirq ming yilqi sug'oribdi...

deydi.

Atoqli shoir Birjon esa:

Kim teng kelar Oltoydagi Jonaydarga,
Olti yuz besh bo'ta bilan toylog'i bor. —

deydi.

Dastlab Otbosar shahrida bozor ochilganda hamma yoqni yilqi bosib ketadi. Shundan keyin bu harbiy bekat "Otbosar" deb atalib ketadi...

Otbosar shahri uchta o'zanning, ya'ni: Esil, Keregetosh, Jabay o'zanlarining tutashgan joyida.

Cho'loq polvon bozorga kelsa, o'sha uchta o'zan tutashgan joyda to'plangan molning, yilqilarning hisobi yo'q!..

Bu paytda kino, teatr degan narsalar yo'q bo'lgani uchun xalq bozorni sayilgoh-tomoshaxona o'rnida ko'rar edi. Xalqda: "Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor" degan naql bor. Bolaning qizig'ini bozor bilan tenglashtirishning ma'nisi shundan.

Otbosar bozorining guli Cho'loq polvon bo'ldi. Uning shoirligi, o'lanchiligi, hazil-mutoyibasi, ot ustida o'ynashi, polvonligi odamlarni hayratda qoldirdi. Odamlar uning nomini eshitiboq otliq, yayov oqib kela boshlashdi.

Cho'loq polvonning qayerga kelib tushganini, qayerdan kelayotganini, qayoqqa borayotganini odamlar bilib, eshitib turadigan bo'lishdi. U dengiz-u boshqalar daryoga o'xshar, u qayerda bo'lsa odamlar o'sha yoqqa oqib borar, go'yo u ohanrabo-yu, odamlar ma'dan — u qayerda bo'lsa odamlar o'sha yoqqa qarab intilar edi.

Cho'loq polvon shunday davr surib yurgan kunlaridan birida Keregetosh o'zani bilan Jabay o'zani o'rtalig'iga tikilgan ko'pgina oq o'tovlarga duch kelib qoldi.

— Bu o'tovlar kimlarniki? — deb so'radi Polvon sheriklaridan.

— Qimiz sotadiganlar bilan qassoblarniki!

— Tushadigan bo'lsak tanlab tushganimiz ma'qul, — dedi yigitlardan biri, — savdo yaxshi bo'lsin debmi, bilmadim, qimizni nuqul yosh-yosh kelinlar sotadi, tag'in hammasi go'zal... O'sha joyda Qorao'tkaldan kelgan bir kelinchak bor. Asli o'zi uncha go'zal emas-u, biroq istarasi issiq, muomalasi ipakday, hazil-mutoyibaga ham usta. Eri bechora yuvoshgina, uyida u xo'jayin emas, kelinchak xo'jayin. Kelinchagi tushmagur o'yin-kulgini yaxshi ko'radi, u quyib bergan qimizdan bol tatiydi. Ismi — G'aliya.

— Qaysi uyda turishadi? — deb so'radi Polvon.

— Huv anavinisida!

Boshlab kelayotgan yigit Polvonni oq o'tovlarning o'rtarog'idagi, ustidagi kigizning etagini o'yib, qizil mato bilan gul tikilgan, qurlari, iplari yaxshilab to'qilgan bir o'tov oldiga olib borib tushirdi.

Ular otlarini o'tov yoniga bog'layotganlarida popukli ipak shol ro'molini boshiga bir o'rab orqasiga tashlagan, yoqasi va etaklarini zarvaraq bila hoshiyalagan ingichka bel yengsiz kamzulli, egnida to'pig'idan sal yuqori qilib tiktirilgan qo'shetak ko'ylak, oyog'ida poshnasi baland etik, quloqlariga oltin sirg'a taqib olgan yoshgina juvon o'tov ichidan chiqdi-yu, yo'lovchilarga birpas tikilib turib, yana uyiga kirib ketdi.

— O'sha! — dedi kimdir.

— Kimni aytyapsan? — dedi Polvon.

— Haligi uydan chiqib, yana kirib ketgan kelinchakni-da!..

— Nega unday qildi?

— Polvonning salobati bosdi, shekilli...

— Bu kelinchakni "otliqqa yo'l, piyodaga gap bermaydi" deyishar edi, qalay yumshab qoldi ekan? Boshqa sababi bordir-ov...

— Nima bo'lsa ham uyga kiraylik-chi, — deb yigitlar uyga kirishsa, haligi kelinchak boshqa qimizxo'rlarni o'rinlaridan turg'azib, to'rga shohi ko'rpachalar to'shayotgan ekan.

— Bizlarga to'shamagan ko'rpachangni to'shab... Kelayotgan kiming edi shuncha? — deb uydagilar hazil qilishgan edi, kelinchak ularga javob bermay, ko'rpachani tez yoydi-da, Cho'loq polvonga ko'z qirini tashladi, odob bilan qimiz to'la choraning oldiga bordi. Ammo u o'tirmadi. Ovul odatiga ko'ra hurmatli odam tik turganida, yosh-yalanglar o'tirmaydi. Polvonga ko'z-qirini tashlab tikka turaverdi.

To'rga to'shalgan shohi ko'rpacha ustiga "mana bu menga yaxshi bo'ldi-yov!" deb bir sho'xroq yigit o'tirmoqchi bo'lgan edi:

— Yig'ishtir maynavozchilikni! — deb jerkib tashladi o'rta yoshliroq bir kishi. — Ko'rmayapsanmi kim uchun solinganini bu ko'rpachaning?

— Kimga? — dedi haligi sho'x yigit.

— Dadangga!

"Mening dadam kim ekan?!" deb bundoq qaragan edi, oldida turgan Cho'loq polvonni ko'rib kayfi uchib ketdi. "Shu ekan-ku dadam!" deb o'yladi haligi sho'x yigit, — "bu odamda bir gap bor!.."

Uyda o'tirganlar Polvon bilan o'rinlaridan turib ko'rishishdi. To'rda keng, pastakkina xontaxta turar, ustiga aylantirib billur kosalar terib qo'yilgan, o'rtadagi yog'och chorada to'g'ralgan qazi-qarta, ustini doka bilan yopib qo'yibdi...

Cho'loq polvon ham, o'zgalar ham o'tirishdi. Kelinchak hamon tikka turar edi.

"Hech kimga gapini bermas edi. Polvonning salobati bosganini qara-ya!" — deb so'z qilishdi o'tirganlar o'zaro.

Polvon kelinchak bilan omonlashar ekan: "Yopiray, bu kelinchakni qayerda ko'rganman?!" deb o'yladi.

Kelinchak Polvonning salomiga lablarini bilinar-bilinmas qimirlatib alik oldi-da, choraning yoniga o'tirib, ikkita nafis kosaga qimiz quydi; birini Polvonga, ikkinchisini uning yonida o'tirgan yigitga uzatdi. Kelinchakni Polvon endigina tanidi: ho' ilgari, To'qsonboyning yil oshida Tuya polvon bilan kurash tushganida, Polvonning ustiga chopon yopgan kelinchak-da bu!

"Duch kelganini qarang, — deb o'yladi Polvon o'qtin-o'qtin kelinchakka tikilib. — Ismi G'aliya ekan-da!"

U G'aliyaga qaragan sayin qaragisi kelar edi. Polvon ot ustida chanqab kelayotganida bir saba qimizni ichib qo'ysam kerak, deb o'ylagan edi. Hozir esa yarim kosagina qimizni zo'rg'a ichdi, u ham bo'g'zida turib qolganday bo'ldi.

O'tovda o'tirgan yigitlar qimiz ichilib bo'lganidan so'ng, Polvondan o'lan aytib berishni iltimos qildilar. Bungacha, yig'inlarda hech to'xtamay o'lan aytadigan Polvonning og'ziga negadir bugun o'lan kelmadi, go'yo o'lan aytishni unutib qo'yganday edi. Barmoqlari ham do'mbiraning pardalariga yurmay qo'ydi. Hozir go'yo uning ko'nglida boshqa bir yangi o'lan tug'ilayotganday bo'ldi-yu, ammo u halqumidan beri chiqolmay turganga o'xshadi.

— Ot ustida yuraverib charchagan ekanmanmi, — dedi u qo'liga tutqazgan do'mbirani yonboshiga suyab qo'yib. — Aybga buyurmanglar, sal mazam yo'qroq.

Bo‘sag‘ada o‘tirgan yigitlar shivir-shivir qilishdi:

— Dovulpaz degan bir qush bor. O‘zini ko‘rsang mushtumday keladi-yu, tovushi yer-u ko‘kni yoradi, — dedi bir yigit. — Shuncha “Polvon, Polvon!” deb hovliqib yurganlaring shumi? Gavdasini demasang, ichida hech gap yo‘q ekan-ku!

— Bilmasdan gapiraverma-da, — dedi unga yonidagi yigit. — Men bilsam, uni anavi kelinchak sehrlab qo‘ydi. Ayolni ko‘rib erimagan, ayol sabrini ham, chidamini ham olmagan erkak zoti bormi dunyoda? Birgina qarashi bilan G‘aliya uning kuch-quvvatini ham, jur’atini ham olib, xuddi burunliq solgan tuya kabi ixtiyorini ham olib qo‘ydi. Ko‘rmayapsanmi?

— Men boya sezganman, — dedi uchinchi yigit. — O‘tovga kirgandan beri Polvonning ikki ko‘zi shunda.

— Bular ko‘pdan beri tanish bo‘lsa kerak, — dedi to‘rtinchi yigit. — Bo‘lmasa, Cho‘loq polvonga o‘xshagan mard yigitlar ovulda oz deysanmi? Bir ko‘rganda bunchalik aql-hushini yo‘qotib qo‘ymagan bo‘lar edi...

— Qani, sabr qilinglar-chi, oxiri nima bo‘lar ekan? — deyishdi ba’zilar.

G‘aliya Polvonning o‘ziga ko‘ngli borligini birinchi uchrashgandayoq payqagan edi, bu gal ham fahmladi.

G‘aliya Oqmo‘la shahrida istiqomat qiluvchi Tilev degan kishining yolg‘izgina qizi. Shuning uchunmi yo ayol kishini haddan tashqari erka qilib o‘stiradigan qozoq odatidanmi, harqalay, Tilev qushxonada mol so‘yib, qo‘l uchida kun ko‘rsa hamki, qizi G‘aliyani ichish-yeyishdan, kiyim-kechakdan qismadi. Yoshligidan erka o‘sgan G‘aliya qo‘shiqqa, kuyga, surnay chalishga havas qo‘ydi, shaharda uni “qo‘shiqchi qiz”, “surnaychi qiz” deb atashadigan bo‘lishdi.

Ilgarilari faqatgina tanish-bilish odamlargina bo‘lmasa, uning ostonasiga boshqa hech kim qadam bosmas edi, keyinchalik G‘aliyaning bo‘yi yetib qolgach, uning eshigi serqatnov bo‘lib qoldi: shahardan ham, ovuldan ham tez-tez manman degan odamlar keladigan bo‘ldi. Ilgari ovuldan kelgan mirzalar shaharning eng tuzuk, badavlat uylarini tanlab qo‘nishadigan bo‘lsa, G‘aliyaning bo‘yi yetganidan so‘ng, Tilevning shahar chetidagi ko‘rimsiz uyi-

ga talashib-tortishib mehmon bo'lishadigan bo'ldi. Uning qo'rasi otlardan, yerto'lasi — uyi odamlardan arimay qoldi.

Shaharning, ovulning mirzalaridan, u uylanganmi yo yo'qmi, baribir, G'aliyaga xaridor bo'lmagan kamdan kam edi. Shahar boylari behisob pul, ovul boylari mo'l-ko'l mol va'da qilishdi.

Ammo, qizning otasi bularning birortasiga ham uchmadi. Otasi "Qizim bo'yi yetsin, aqlli, hushli bo'lsin, keyin kimga erga chiqaman desa o'zi biladi. Tengi topilsa tekinga beraman, — deb javob qildi u kelganlarga. — G'aliyaning qalin moli tufayli kun ko'rsam, kun ko'rmayoq qo'yay".

G'aliya bo'yi yetdi. Uni deguvchilar ko'payib ketsa-da, lekin otasi hech kimga va'da qilmadi. Qizning o'zi bilan gaplashishsa, hazil-huzul bilan gapni aylantirib yuboradi. Ustalik bilan tuzoq tashladim, deb yurganlarning tuzog'iga ham ilinmadi.

Uning bu odatidan jahli chiqqan yigitlar, uni unday qildim, bunday qildim kabi yolg'on gaplarni tarqatishdi. Ba'zi gaplar ota-onasining qulog'iga ham yetib bordi. Bunday gaplarni eshitib, chidayolmagan onasi: "Bolam bechoraning baxtini boylading, oqibatda, mana, gap-so'zga ham qoldi", deb eriga ko'z yoshi to'kdi. Biroq baribir, bu gaplarni eshitib otasining qiziga joni achigani bilan, uni bittasiga qon yig'latib berib yuborishga ko'ngli bo'lmadi.

Haliginday ig'vo gaplar joniga tekkach, bir kuni ota bechora qiziga odam qo'ydi:

— Qizimga borib ayt, — dedi u, — o'zi biladi. Birjon degan qimizchi yigitning ko'ngli bor ekan. U — ham yuvosh, ham o'ziga to'q oiladan. Qizim bundan xabardor. Men ham ancha yoshga borib qoldim, onasi bo'lsa xasta. Kuch-quvvatim borida egasiga topshirganim ma'qul... Qizim shunga xo'p desin.

Elchi bo'lgan odam otasining gaplarini G'aliyaga ortig'i bilan yetkazdi. G'aliya ha deganda javob beravermagach: "Mayli, o'ylab ko'r, — dedi elchi. — Faqat, aqling bor qizsan, boshingga qo'nay deb turgan baxtni uchirib yuborma".

Elchi aytmasa ham G'aliya o'zining bo'lajak turmushi, turmush o'rtog'i haqida ko'p o'ylar edi. U shaharda o'qib tuzukkina musulmoncha bilim olgan qiz. U yoshligidan kitobni sevib o'qir,

ayniqsa, o'qigan kitoblari orasida unga muhabbat haqidagi dostonlar juda yoqar edi. "Dostonlardagi qizlar oshiq bo'lgan yigitlarga o'xshagan yigitlar duch kelsa, men ham oshiq bo'lar edim" deb o'ylardi u. U shunday yigitni izladi ham, biroq topolmadi. Oshiq bo'lishga arzigulik yigit, uning nazarida, xayoliy bir ertak edi. Mana shunday mashaqqatli o'ylarning oqibati uni hayotda muhabbat yo'q, degan fikrga olib keldi. Ko'p g'iybat gaplar eshitaverib charchadi, bir yog'i yoshi ham o'tib qoldi. Mana shu jihatlarni o'ylab, u kimga bo'lsa ham turmushga chiqishni o'ylab yurgan mahalda, otasining taklifi chiqib qoldi.

Xo'sh, endi nima qilish kerak?

"Unga tegmayman!" desa otasi ranjiydi... "Xo'p, mayli" desa, Birjon uning tengi emas... Bunday paytlarda ayol zotining kuchi yetadigan narsa — ko'z yoshi, u o'tirib olib yum-yum yig'ladi... Uzoq yig'ladi... Yig'idan hech narsa chiqmasligiga ko'zi yetgan G'aliya: "Baribir, taqdir menga, mana bu sening baxting, deb biror yigitni oldimga ko'ndalang qilib qo'ygani yo'q. Xayolimdagi yorni topolmasligimga ko'zim yetdi. Mayli, otamning ko'ngli ranjimasin, shunga erga chiqsam chiqa qolay!.." deb qaror qildi.

Qizining ko'nglini eshitib xursand bo'lgan otasi Birjonning oldiga shart qo'ydi:

— Yakka-yu yolg'iz bolam bo'lgani uchun erka qilib o'stirgan edim, — dedi u. — Yoshligidan o'yin-kulgiga, qo'shiq va o'langa mayl qo'yib o'sgan edi. Uyingga olib borganingdan so'ng qozon-tovoqqa aralashtirib, gung qilib qo'yma. Qimiz sotishni kasb etgan yigitsan, bolamni ana shu halol ishinggagina buyur: toza joyda, toza ust-bosh bilan, toza idishda qimiz sotsin. Uzoq-uzoqdagi bozorlar bilan yarmarkalarga ham borib qimiz savdo qilasan. O'shanday paytlarda yonginangdan qo'yma! Qimiz bor joyda o'yin-kulgi bor, undan yuzini qaytarma.

Birjon, bu gaplarning hammasini bajo qilaman, deb va'da berdi.

...Ko'p kechikmay to'y qilindi. Birjonning to'rt xonali qarag'ay uyiga G'aliya kelin bo'lib tushdi. Ilgari mirzalar Tilevning uyiga yopirilishib keladigan bo'lsa, endi Birjonning uyi ulardan bo'shamay qoldi. Bir hisobdan bu Birjonga zarar qilgani yo'q.

Ilgari keksa onasi qimiz sotardi, uncha ko‘p foyda ololmasdi, G‘aliya ostonasidan hatlab kirgan kundan boshlab, uning savdosi kushod bo‘lib ketdi. Qimizxo‘rlarning hammasi ularning uyiga keladigan bo‘ldi. Uning hovlisida katta uy bor bo‘lib, qimizxo‘rlarni shu uyga qator o‘tqazib, G‘aliya sho‘x bo‘z yigitlarga o‘z qo‘li bilan qimiz quyib beradigan, u quygan qimiz yigitlarga boldek shirin tatiydigan bo‘ldi.

Aslida kamgap G‘aliya erga chiqqanidan so‘ng ochilib-sochilib ketdi, odamlar bilan tortinmay gaplashadigan bo‘lib qoldi. Bir yog‘i hazil, bir yog‘i kulgi bilan qimizxo‘r bo‘z yigitlarni o‘ziga rom qildi-qo‘ydi. Goho-goho surnayga jo‘r bo‘lib o‘lan ham aytib, tomosha ko‘rsatadigan bo‘ldi.

Birjon “uy egasi” degan nomi bo‘lmasa, hamma biylikni G‘aliya o‘z qo‘liga oldi. G‘aliyaning visoliga yetolmagan ba’zi birovlar alam qilganidan “xotining falonchi bilan...” kabi ig‘vo gaplarni ham tarqatishdi. Bu gaplardan Birjonning jahli chiqsa ham, botinib G‘aliyaga bir nima deyolmadi.

Rostini aytganda, taqdirga tan bergan G‘aliya Birjonni erkak deb emas, faqat erim deb bildi. Shuning uchun ham uni yo‘ldan urmoqchi bo‘lganlar ko‘p bo‘ldi-yu, biroq u eriga bevafolik qilmadi, bevafolik qilishni xayoliga ham keltirmadi. “Menga er bo‘larlik yigitni hali uchratganim yo‘q, — deb o‘ylardi u. — Men ko‘rgan erkaklarning hammasi faqat erkakkina. Birjon ham shularning biri, xolos. Shunday ekan, ularning hammasi bilan bo‘lgandan ko‘ra, bittasi bilan bo‘lsam yetmaydimi?”

Shu qarorida u mustahkam turar edi. Uning hayotdan endigi olmoqchi bo‘lgan lazzati — Birjonning qimizini sotib yurib vaqtini hazil-mutoyiba, o‘yin-kulgi, o‘lan-kuy bilan o‘tkazish edi.

Oqmo‘la, Semey viloyatlarida har yili uch joyda yarmarka ochiladi: Qo‘yandida, Toyinshada, Otbosarda. Oqmo‘laga, eng yaqini, taxminan, yuz ellik chaqirim keladi. Bu bozorlarga eng kam deganda, ming kilometrlik joylardan xalq to‘planadi. Goho, bir chekkasi Peterburgdan, bir chekkasi Toshkent bilan G‘uljadan, bir chekkasi Vladivostokdan savdogarlar keladi.

G‘aliya Birjonga turmushga chiqqanidan beri ana shu uch bozorni ham ko‘rdi. Birjon bozorga sog‘in biyalarni haydab bor-

maydi, u sog'in biyalarni uyuri bilan o'tovni tayyor holda ijaraga oladi-da, to bozor tarqaguncha savdo, o'yin-tomosha qilib yuradi.

Bunday qaragan kishiga u, bir bozorda qilgan savdosigayoq pulning tagida qolganday ko'rinadi, nega deganingizda, bozorchi qimizxo'rlarning hammasi qimizni shuning uyidan kelib ichishadi. Odamlarga shunday tuyulsa ham, uning uyida ko'zga tashlanarli hech narsasi yo'q, ilgari qanday bo'lsa hozir ham shunday.

G'aliya borgan eng uzoq bozor — Toysha edi. Dastlab Cho'loq polvonni u o'sha Toysha bozoriga ketayotib, To'qsonboyning yil oshida ko'rgan edi.

O'shanda u, Cho'loq polvonga chopon yopganida, uning nomini ilgari eshitgani uchun yoki uni yaxshi ko'rgani uchun yopmagan edi. Cho'loq polvon Tuya polvon bilan bel ushlashganda: "Anavi yo'g'oni ingichkani ezib tashlaydi, — degan edi kelinchakning yonida turgan yigit. — Ingichkaning peshonasida sho'ri bor ekan!"

G'aliya ham shu fikrda edi, biroq u ingichka yigitni tanimasa ham, unga ich-ichidan tilakdosh bo'lib turdi. Yo'g'on polvon ingichka polvonni ko'tarib aylantirganida G'aliya naq o'zini ko'tarib aylantirganday hayajonlandi. Shunday qilib, ingichka polvonning holi nima kechar ekan, deb turganida, ingichka polvon yo'g'on polvonni yelkasiga olib yeldi... Ingichka polvon yo'g'onni yerga urganida, G'aliya o'zida yo'q xursand bo'ldi... U chopqillab aravasiga bordi-da, katta oq sandig'ini ochib, Toshkentdan kelgan ola ipak choponini olib Cho'loq polvonning oldiga qarab yugurdi. Uning yosh polvonga chopon yopishidan maqsadi unga hurmat ko'rsatishgina emas, balki ismi-sharifini ham surishtirib bilib olish edi. Afsuski, u polvonning ismini so'rashga ulgurolmay qoldi, polvonni pang Nurmag'ambet chaqirib olib ketdi. Armonda qolgan G'aliya aravasiga qaytib kelsa, ilgari rashk qilmaydigan eri bu gal, jahl ustida, otlarini aravaga qo'shayotgan ekan.

— Nega muncha oshiqmasangiz? — dedi G'aliya.

— Ketamiz! — dedi Birjon qovog'ini solib. U tezda aravasiga o'tirib oldi. — Qani, min tezroq!..

— To'y tugasin-da, axir...

— Vaqt yo'q!

"Bu nimasi, rashk qilyaptimi?!" — deb o'yladi G'aliya. U yurib ketayotgan aravaga arang o'tirib oldi...

Keyinchalik G'aliya ingichka polvonning ismi Nurmag'ambet ekanini, elidagilar uni "Cho'loq polvon" deb atashlarini bilib oldi. Bozordan qaytishda G'aliya Cho'loq polvonning ovuliga tushib o'tish istagi borligini aytgan edi. Birjon yo'limiz teskari, deb rozi bo'lmadi.

G'aliya shundan beri Cho'loq polvon haqida o'ylar, uni yana bir ko'rishni orzu qilar edi, mana endi o'sha orzusi ushaldi.

G'aliya yaqinda, Otbosar shahriga Cho'loq polvon kelibdi, hunarini namoyish qilib, odamlarni tang qoldirib yurganmish... degan gaplarni eshitgan edi. U polvonni ko'rgisi kelardi-yu, ammo uni ikki andisha to'xtatib turgan edi: biri — ayol boshim bilan izlab borsam qanday bo'lar ekan, deb o'ylasa, ikkinchi o'yi — agar To'qsonboyning yil oshida uchrashganimizda uning menga tikilib qarashini xato uqqan bo'lmasam, meni o'zi qidirib kelishi kerak, derdi.

U kecha-yu kunduz shu ezgu xayolda yurar, uni sabrsizlik bilan kutar, ko'zlari nogiron bo'lib tez-tez yo'liga qarar edi. Hali Polvon jo'ralari bilan otdan tushayotganida G'aliyaning uyidan chiqib qarashi — o'sha chiqishlar navbatdagi intizorlik natijasi edi.

Polvon ilgarigiga nisbatan to'lishgan bo'lsa-da, G'aliya baribir uni tezda tanib oldi. U Polvonga borgan sari termilgisi kelar, ilgari u ko'ngliga tashlab qo'ygan cho'g' battar alanga olar edi...

Botir — bir o'qlik

Bir ot keldi bozorga, kulrang qashqa,
Ipak no'xta boshida, bog'i boshqa.
Oshiq bo'ldim men senga, G'aliyaxon,
Kel, ikkovmiz minaylik tarantosga.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Otbosar shahrining kungay tomonida Esil daryosi bo'lib, keng yo'lda yulduzday oqib kelayotgan arava ko'pchilikning diqqatini o'ziga tortdi.

— Kim bo‘ldi bu? — deyishdi odamlar hayron bo‘lib.

— Cho‘loq polvon!

— Uning shunday uchqur oti bormidi?

— Kecha bozorga bitta kulrang qashqa yo‘rg‘a kelgan edi, — dedi kimdir. — Chelyaba shahridan kelgan savdogarning yo‘rg‘asi ekan. Shu yoshga kelib bunday go‘zal, bunday yo‘rg‘ani ko‘rganim yo‘q edi.

— Unday bo‘lsa egasi nega sotadi uni?

— Savdogar xalqi otni salt minarmidi? Aravadan chiqqan ot bo‘lsa kerak-da jonivor. Shuning uchun sotgan bo‘lsa kerak?

— Qanchaga oldi?

— Ikki yuz so‘mga.

— Yopiray. Cho‘loq polvon jinni-pinni bo‘lganmi? — dedi odamlar chuvullashib. — Bu pulga o‘ntacha ot beradi-ku.

— Pul tekin bo‘lgandan keyin... — dedi kimdir. — Qayroqlidan saksonta ho‘kiz o‘g‘irlab sotibdi, o‘shaning puliga olgan-da.

— O‘sha savdogarning yengil faytoni bor ekan, — dedi tag‘in kimdir. — Polvon ot bilan birga o‘sha aravasini ham yuz so‘mga olibdi.

Odamlar Polvonning ot bilan aravani shuncha qimmatga olganini eshitib hayron qolishsa, uning hurkak otni faytonga qo‘shib yurishini ko‘rib yana ham tang qolishdi!..

— Nima, bu otning boshqa otlardan ortiqlik joyi bormi? Hech hayron qolarlik joyi yo‘q, — deyishdi ba’zilar.

— Yonidagisi kim bo‘ldi?

— G‘aliya!

— Qaysi G‘aliya?

— Anavi oqmo‘lalik qimizchi Birjonning xotini-da.

— Nega uni eri indamay Polvonga qo‘shib qo‘yibdi?

— Ularning bu yurishida gap ko‘pga o‘xshaydi-yov...

Odamlar shu zayl gaplashib turishganda kulrang qashqa uchgancha ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Mana uch kundirki, Polvon bilan G‘aliya fayton ustida shunday sayr qilib yurishibdi...

G‘aliyaning uyiga borib qimiz ichgan Cho‘loq polvon ishim bor edi deb jo‘nab ketdi-yu, kechqurun qo‘nish uchun qaytib

keldi. Polvon oqshomda o'zan bo'yidagi tolzor orasiga oq bo'z otini tushovlab kelayotgan edi, tasodifan, oldidan boshiga chopon yopingan ayol chiqib qoldi.

— Kim bu? — dedi Polvon.

— Men G'aliyaman! — dedi haligi ayol yuzlarini ochib.

Rostdan ham G'aliya ekan!

— Polvon, — dedi G'aliya, — Men atayin sizni izlab shu joyga kelgan edim. Agar, xo'p desangiz, aytaman: mening sizdan uchta tilagim bor.

— Gapiring, mayli eshitaman.

— Tilagim shuki, — dedi G'aliya yengil xo'rsinib. — Men sizning mard yigit ekanligingizni nazarda tutib, Cho'loq polvon degan nomingizni e'tiborga olib aytmoqchiman. Birinchi tilagim, mening haqimda ba'zi g'iybat gaplar eshitishingiz mumkin, o'sha g'iybat gaplarning meni badnom qiladigan jihatiga ishonmasangiz. Ikiinchi tilagim, sof ko'ngil bilan haqiqiy do'st bo'lib qolaylik. Uchinchi tilagim, shu bozor o'tguncha bizning mehmonimiz bo'lib turing.

Polvon o'ylanib qoldi. Bu tilaklarning uchalasi ham og'ir edi. Oldingi tilagiga, xo'p dey desa, "Ko'ndalang o'tgan ko'k otliqni quruq yubormas", degan naql bor. Yo'q, mening niyatim halol edi, deganga kim ishonadi deysiz? Ikkinchisi "do'st bo'lish"... haqidagi tilak. Bu juda katta gap! Salmog'i zo'r gap! Sirlashmagan odamga, do'st bo'laylik, deb aytish osonmi? Eng qiyini uchinchi tilak. Qanday qilib G'aliya bilan birga bo'la oladi u? Bunga uning eri ruxsat beradimi? Yomon bo'lsa ham er, erkak degan oti bor. Shunday bo'lgandan keyin o'ziga yarasha ori, nomusi bor emasmi uning? O'sha or-nomusini himoya qilish uchun iloji boricha qarshilik ko'rsatadi-ku, axir?.. Xo'sh, shunda bu gaplarning oqibati nima bilan tugaydi? Shu vaqtgacha uning dushmanlari kammidi? Tag'in dushman orttirishi kimga zarur! U yolg'iz o'zi bo'lsa-ku, yaxshi. Bordi-yu, do'stlari ko'p bo'lib, uning tarafini olsa-chi?..

Polvon mana shunday og'ir o'ylar girdobida indamay o'tirgan edi:

— Tilaklarimni bajarish qo'lingizdan kelmasa, zorim bor-u zo'rim yo'q, — dedi G'aliya.

Ikkalasi shunga kelishishdi. Bunga Birjon guvoh bo'ldi. Birjon G'aliyaning topshirig'i bilan bugun qaytmaydigan bo'lib ketgan, bundan chiqdi, Polvon kechqurun qaytib kelsa kerak, deb o'ylab oqshomda qaytib kelgan, otini uzoqroq joyga tushovlab qo'yib, Polvon bilan xotinining payiga tushgan edi. U soy bo'yidagi qalin tolzor orasida o'tirib, Polvon bilan xotini o'rtasida bo'lib o'tgan hamma gapni eshitdi. Hozircha biror jiddiy gap yuz bermasa-da, eshitgan gaplaridan uncha xursand ham bo'lgani yo'q. Bu gap-so'zlarning oqibati nima bilan tugashiga ko'zi yetmasa ham, bugun kechasi xotinining Polvon bilan qochib ketishiga xalal berishni o'z oldiga birinchi vazifa qilib qo'ydi. Shu maqsadda, u uydagilar yotadigan mahalda, go'yo uzoq yo'ldan kelayotgan bo'lib, otni qattiq yo'rttirib kelib, yasama yo'talib otidan tushdi.

— Xo'jayinimiz kelib ham qoldi! — dedi G'aliya ich-ichidan quvonib.

G'aliya erining oldida yotar ekan, shivir-shivir gaplashib, erini aytganiga ko'ndirib, uyquga ketdi. U eri bilan bunday gaplashgan edi: "O'ynab-kulaman, degan gapimga boshida qarshilik ko'rsatmaslikka rozi bo'lgan eding. Men halol nikohimizga dog' tushirmaslikka va'da beraman, sen Polvon bilan bozorda sayr qilishimga ruxsat ber?"

G'aliyaning gapini ikki qilib o'rganmagan Birjon rozi bo'lmay iloji yo'q edi. Faqatgina u:

— Qaydam, odamlarning ko'ziga erish tuyulmasa... o'zing bilasan.

— Odamlarning men bilan necha pullik ishi bor, — dedi G'aliya, — odamlarning og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Biz bir-birimizga ishonsak bo'lgani-da. Men senga ishonaman. Sen ham menga ishonasan-da?

— Albatta, — deya oldi Birjon.

U tashqaridan shunday dedi-yu, ammo ichida: "Ishonmaymay ilojim qancha", degan o'ksik yo'q emas edi. U bu gapini tashqariga chiqarolmas, G'aliyaning ko'nglini qoldirish u yoqda tursin, biror chakki gap aytishga ham jur'at eta olmasdi. Nima uchun

shunday ekanini o'zi ham bilmaydi. Go'yo uning uchun G'aliya bo'lmasa hayotning ham qizig'i yo'qdek edi. Usiz kechirgan kuni kun emas, qorong'i tun. Uning oyi ham, quyoshi ham G'aliya. Unga dog' tushirish oy bilan quyoshning yuziga dog' tushirish bilan teng...

Haliga qadar Birjonning ko'ngliga g'ulg'ula soladigan darajada biror gap yuz berganicha yo'q edi. Hozir unday emas. Mana bu Cho'loq polvon uning ilgari hech uchratmagan oviga o'xshadi. Ilgari ko'rib, uchratib yurgan ovlari ko'ziga buning oldida arslonning oldidagi bo'rsiqday bo'lib ko'rindi. "Bu, bir yutmasin, — deb cho'chidi Birjon Polvondan. — Agar yutsa, tuyani tuki bilan, biyani yuki bilan yutadigan xilidanga o'xshaydi!.. Buning og'ziga tushgan narsani sug'urib olish amri maholdir-ov.."

Mana shu shubhalarini xotiniga aytay dedi-yu, biroq ko'nglini qoldirib qo'yishdan cho'chidi, aytmay desa, Polvon uni "yutib yuborishidan" qo'rqadi!.. Hali G'aliya: "Menga ishonasiz-a?" deganda, noiloj "albatta" deyishining sababi ham shundan edi...

G'aliyaning eridan ruxsat olganini Cho'loq polvon ertasiga eshitib xursand bo'ldi.

— Haqiqiy yigit ekan u! — deb yubordi u hayajonini ichiga sig'dirolmay. — Do'st tutinsa arzigulik yigit ekan!.. U ham biz bilan birga sayr qilsa nima qiladi?

— Agar ko'nsa mayli...

— Nega ko'nmasin?

— Bunaqa yurishni yoqtirmaydi u...

Galiya haq chiqdi. U bilan sayr qilish uchun yuqorida aytganimiz to'riq qashqa bilan faytonni sotib olgan Cho'loq polvon, haligi taklifni Birjonga aytib ko'rgan edi. U: "Mening bunaqa ishlarga evim yo'q, G'aliyaga ruxsat berdim, o'zlaring sayr qilaveringlar", dedi.

To'riq qashqa qo'shilgan faytonga Cho'loq polvon bilan G'aliya o'tirib jo'nab ketishganda, ko'nglida lov etib yongan rashk o'ti Birjonni ham beixtiyor uyidan olib chiqib, otiga mindirdi. Uning maslahatgo'yi — ham boy, ham bo'lis, buning ustiga Oqmo'la shahrining e'tiborli kishilaridan Ispan degan odam edi.

Birjon kecha ham G'aliya buyurgan ishni qilmay, to'g'ri Ispanning oldiga borib, ko'nglidagi shubhalarini aytgan edi.

— "Bo'rining uligani — yeyman degani", — dedi Ispan. — Cho'loq polvon bekordan bekorga uliydigan bo'rilardan emas, ulisa yeydigan bo'rilardan! Xotiningga qarab ulidimi — yedi deyaver. Tag'in shu kechaning o'zida yeb ketmasin. Mabodo yemasin desang, hozir kelgan izingga qayt!

Birjon zudlik bilan qaytmoqchi bo'ldi.

— Poyloqchi bir nimani poyladimi — olmay qo'ymaydi, — dedi Ispan. — Poylagandan keyin g'ofil paytingni topadi.

— Shuning uchun nima qilishim kerak?

— Buni keyin aytarman. Buguncha uyingga qayt. Avvalo Polvonning uyingga kelish-kelmasligini bil, shunga qarab bamaslahat ish tutamiz.

Ertasiga Birjon kelib, kecha kechqurin bilgan, ko'rgan, eshitgan gaplarini aytib berganida:

— Aytganim to'g'ri chiqdimi? — dedi Ispan Birjonning shubhalarini tag'in ham oshirish niyatida.

— To'g'ri bo'lganda qanday. Avliyo ekansiz!..

— Endi bundan qutulish juda oson, — dedi Ispan.

— Qanday qilib?

— Buni keyin bilasan. Endi senga aytadigan gapim shuki, xotiningning sayr qilishiga monelik qilma...

— Shunaqasiga olib qochib ketsa nima qilaman?

— Cho'loq polvon unday qiladigan yigitlardan emas. U va'dasiga vafo qiladiganlardan. U kechqurun uyingga kelib qo'naman degan bo'lsa — qo'nadi.

Ispan qolgan gaplarni ertaga aytmoqchi bo'lib, Birjonni uyiga qaytarib yubordi. Uning Birjonga "keyin bilasan" degan gapining ma'nosi bunday edi: o'tgan kuni uyezd boshlig'i Otbosarga to'planishgan barcha bo'lislarni oldiga chaqirib, "Yegor Propadkoning ho'kizlarini o'g'irlagan Nurmag'ambet Boymirzin shu bozorda yuribdi", deb xabar qildi. "Uni ko'pchilik o'rtasida, bozorda ushlash qiyin, bir ammallab tutishning chorasini ko'ringlar", deb buyruq bergan edi. To'planishganlar: "Tutamiz", deb va'da be-

rishgan. "Biroq bu ishni juda ehtiyot bo'lib, xufiya qilinglar", deb topshiriq bergan edi uyezd boshlig'i.

Shu maslahatning tepasida bo'lgan Ispanga Birjon olib kelgan xabar qo'l kelib qoldi. "Ko'pchilik o'rtasida tutish juda qiyin, — deb quvondi ichida. — Sayr qilib yurganda tutish oson. Buni uyezd boshlig'iga xabar qilish kerak!"

Tarqab ketmasligi uchun Ispan bu gapni Birjonga aytmagan edi.

Bu gap uyezd boshlig'iga yetgach, u bozorda tartib saqlash uchun qo'yilgan Kazachaya sotnyaga[1]: "Paytini topib, o'rab olinglar!" deb buyruq berdi.

To'riq qashqa qo'shilgan faytonda, hech narsadan xabari yo'q Polvon bilan G'aliya goh surnay chalib, goh o'lan aytishib kelishayotganda, oldilaridan ba'zilari otda, ba'zilari piyoda, bir to'p askar chiqib ularni to'xtatdi-da, o'rab oldi.

— Bular nima qilishmoqchi? — dedi G'aliya yuragi o'ynab. Uning rangida rang qolmadi.

— Nima qilardi deysan? — dedi Polvon. — Bizlarda nima ishi bor bu askarlarning?

Ularning Polvonga qanday muomala qilishini tasvirlashdan oldin "Kazachaya sotnya"ning nima ekanini aytib o'taylik.

Bu sotnya azaldan Ko'kchatog'ning etagidagi Aydabo'l degan joyda turadi. Mazgil-mazgil odamlarini almashtirib turgani bilan sotnyaning bu o'lkaga kelganiga ham ancha yillar bo'ldi. U dastlab 1739-yili tashkil etilib, Abloyxon Rossiyaga qaram bo'lgan mahalda "tartib saqlash" uchun xon o'rdasiga yuborilgan edi. Bu sotnya Abloyxonni, uning o'g'li Valixonni qo'lidan o'tqazib "dala tinchligini saqlash" uchun o'z ishini davom ettirib, qolaverdi. Hukumat bu sotnyani Ko'kchatog', Otbosar, Oqmo'la shaharlarining o'rtaligi hisoblangan Aydabo'lga olib kelib qo'ydi. Otbosarda bozor ochildi deguncha, sotnya "bozor tartibini saqlash"ga olib kelib qo'yiladi.

Keyingi mahallarda sotnyaning askarlari o'zgarib turgani bilan uning atamani hamon o'rnida. U novchadan kelgan, qushburun, ikki chakkasining etlari qochgan, soqoli bilan shop mo'ylovi

[1] Kazak otliq askarlari.

tutashib ketgan, qoshlari uzun-uzun, kichkina qora ko'zlari doim o'ynab turadigan, soqol-mo'ylovi, sochlari oppoq oqarib ketgan, qorachadan kelgan kazak. U Aydabo'lga yaqin joydagi Zerendi tog'i atrofida, kazaklarning stanitsasida tug'ilgan. Bu joydan ko'p atamanlar, boylar, generallar, polkovniklar chiqqan. Biz ta'riflayotgan atamanning ismi Zaxar. Ruslar ham, qozoqlar ham uning familiyasidan ko'ra ismini yaxshiroq bilishadi. Qozoqlar uni "Ko'ktaka" deb atashadi.

Ko'ktaka o'zi bilan tengqur, tanish odam bo'lmasa, o'zgalar bilan yo qamchi, yo esa musht bilan muomala qiladi. "Qo'li toshdan ham qattiq" deyishadi undan kaltak yeganlar. U g'oyibdan mol topishga ustasi farang, u yo'q narsani bahona qilib, ko'ringan odamdan pora oladi. Stansitsada uning molini odamlar qo'rqqanidan tekinga boqadi.

Uning qahrli nomini Cho'loq polvon ham eshitgan. Aslida yomonlikka qasd Polvon ba'zi odamlar Ko'ktakaning zo'ravonligini eshitganida: "La'nati, mening qo'limga bir tushsa edi!" deb g'ijinadigan edi. Mana endi o'sha tilagi bajo bo'ldi, uni o'sha Ko'ktaka boshchiligida kazaklar o'rab olishdi. U Polvonni uyezd boshlig'ining buyrug'iga binoan tutdi.

O'z navbatida Ko'ktaka ham Polvon haqida ko'p gaplar eshitgan, bu gaplar unga xuddi ertakday bo'lib yetib kelgan edi. Faqat qora kuchini demasa, aql-farosati kamroq ataman Polvon haqidagi gaplarga ertakday ishonib, uni bir ko'rishni orzu qilib yurar edi.

Mana u ham o'sha orzusiga yetdi. U qozoqcha chala gaplar bilan Polvonni gapga solmoqchi bo'lib, askarlarni turta-surta oldinga o'tdi.

— Kimniki paren sen? — dedi u.

— Men Cho'loq polvonman! — dedi u tergayotgan odamning kim ekanini fahmlab.

— Axa!.. Ponimayu!.. Qayoqqa boradi sen?

— Bozor oralab yuribman...

— Sen uyezd chaqirgan, men to'xtatgan...

— Mening uyezdlik ishim yo'q.

— Uniki ish senda bor...

Ko'ktaka meni kalaka qilyapti, degan xayol bilan Polvon otining boshini orqaga burmoqchi edi, u bo'jidan mahkam ushlab oldi

— Qo'yib yubor! — deb Polvon bo'jini yana siltagan edi, Ko'ktaka uning qo'liga yopishdi, shu mahal Polvon uning ko'kragiga tepib yubordi. Ko'ktaka uchib tushdi. Ot shu epkin bilan urib-surib chiqib ketdi. Fayton qattiq burilgan mahalda G'aliya bir tomonga uchib tushdi... Polvon uni ko'rib, otining boshini burmoqchi bo'lgan edi:

— Menga qaramang! Qoching! — deya baqirdi G'aliya. Shuning uchunmi, yo ot o'zini to'xtatolmadimi, Polvon arava ustida uchib ketayotganida:

— Otinglar! — degan tovush eshitildi.

Qatorasiga bir necha miltiq otildi. To'riq qashqa yuz tuban yiqilib tushdi, fayton ag'darildi, Polvon bir yonga uchib ketdi.

— O'ldi! — deb chuvullashdi qarab turganlar.

Cho'loq polvon o'rnidan turishga ulgurmay askarlarning qurshovida qoldi...

Soldatlar uni quruq qo'l bilan emas, nayzalar yarqirab turgan miltiqli qo'llari bilan tutishdi. Bordi-yu, quruq qo'l bilan tutishganda hammasini bir yoqli qilib qutulib ketgan bo'lar edi. Miltiqni ko'rib chora topolmay qoldi u. Bobolarning: "Botir — bir o'qlik" degan aqlli gapi tushdi uning esiga. Bundan qutulishning ilojini topolmagan "mana men, ushlanglar" deganday ikki qo'lini orqasiga qilib turdi...

* * *

Ertasiga Cho'loq polvonning oyoq-qo'liga kishan solishib, qo'sh ot qo'shilgan usti berk aravaga mindirishdi-da, salt-otliq ellikta askar himoyasida Ko'kchatog'ga olib ketishdi.

Polvonga joni achigan ba'zi yigitlar: "Yo'lda to'sib, olib qochamiz" deyishib, har joy-har joyga odamlar qo'yishgan edi, arava yaqinlashganda miltiqli askarlarni ko'rib jur'at etisholmadi. Ular ham xo'rsinib: "Botir — bir o'qliq" deganlari rost ekan-da, deyishdi.

Hibsda

Bosganim cho'g'mi edi, ichim to'la dud!
Hibs-azob, uqubat, misli yongan cho'g'.
Olib kirgan kameraga bir qarasam,
Ichida mendan o'zga hech odam yo'q.

Hunarsiz, otga minish nega kerak!
Hunarimni ko'rib el qildi sarak[1]
Zarb bilan urganimda eshigini
Taxtalarin uchirdim — to'rt-besh bo'lak.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Cho'loq polvonni Ko'kchatog' turmasiga olib kelib maxsus xonaga qamab qo'yishdi. Polvon hibsxonaga kirib bunday nazar solsa, baquvvat temir panjarali, kichkina derazali, torgina xona ekan. Devorlarining rangini azbaroyi kirligidan bilib bo'lmasdi. Havosi past, karavoti polga vintlab tashlangan, uning ustiga kanop bilan qavilgan ko'rpa, bo'sag'ada xiragina yonadigan lampa. Xona ichi kunduzlari ham nim qorong'i bo'lib turar ekan.

Bu tor xona ichida Cho'loq polvon xuddi yo'lbars kabi biroz aylanib yurdi-da, karavot ustiga kelib o'tirdi. Haligi ko'rpa deganimizning ichiga somon tiqilgan ekan. Nima qilishini bilmagan Polvonning ko'ziga birinchi chalingan narsa — hibsxonaning qarag'ay eshiklari bo'ldi. Uning esiga bo'lib o'tgan bir voqea tushdi.

Bundan bir necha yil ilgari, kuz paytida, ovulda chillaxona bo'lgan, unga Cho'loq polvon ham ishtirok etgan edi. Bu — shu atrofda qarag'aydan qilingan yakka-yu yagona uy edi. Chillaxonaga kelganlar bilan uy liq to'ldi, hatto bu uy ichida ovqat ham pishirilgach, xona ichi haddan ziyod isib ketdi-yu, yonib turgan lampa ham so'nib qoldi. Ba'zi kishilar uni qayta yoqmoqchi bo'lib ovora bo'lishayotganida, uydagilarning nafaslari qaytib, dam ololmay qolishdi.

— Nafasimiz qaytib ketdi, — deyishdi odamlar chuvullashib. — Eshikni ochish kerak!

---

[1] Hayron bo'lib bosh chayqash. *(Tarj.)*

Odamlar uni ochmoqchi bo'lishgan edi, eshik shishib, mahkam bo'lib qolibdi: tepib ko'rishdi, ammo ochisha olmadi.

— Endi nima qildik? — deb uydagilar shoshib qolishdi. Shunda birov o'rnidan turib:

— Menga yo'l beringlar, — dedi.

— Kimsan?

— Cho'loq polvonman. Eshikni men ochib beray.

— Qani ochgin-chi, — deb eshik oldida o'tirganlar yo'l bo'shata boshlashdi.

Qorong'ida qoqilib-surinib eshikka bazo'r yetgan Cho'loq polvon eshikni mahkam ushlab tortib ko'rgan edi, qarasa, eshik ochiladigan emas, tepib ham ko'rdi, bo'lmadi. U "nimaga ochilmaydi?" deb orqasiga chekinib borib, eshikka bir kalla qo'ydi. Eshik shaqir etib qulab tushdi. Shundan keyin o't ham yondi, lampa ham o't oldi. Odamlar tashqariga chiqib qarashsa, eshikning orqasidagi temiri o'pirilib ketibdi...

Hibsning tor, nim qorong'i xonasida uning esiga shu voqea tushdi-da, eshikni mushti bilan qattiq urdi. Qattiq zarbga dosh berolmay eshikning qarag'ay taxtalari ko'chib tushdi.

Polvon xuddi to'rni uzgan arslonday eshikdan otilib chiqsa, yo'lakning ikki tomonidan miltiqli soqchilar chopishib kelayotgan ekan.

Tanish miltiq!.. "Botir — bir o'qlik!"

Cho'loq polvon qarshilik ko'rsatmadi. Soqchilar uni rosa so'kib, boshqa bir xonaga olib kirib qamashdi. Bu xona ilgarigiga nisbatan ancha keng ekan. Ichi liq to'la odam: ba'zilari tikka turibdi, ba'zilari o'tiribdi... ba'zilari esa yotibdi. Ranglarida rang qolmagan, xuddi hibsxona devorlariday sur, hammasining ko'zida ham hibsxona ichiday nur yo'q, so'lg'in.

Cho'loq polvon xonaga kirishi bilan uni bir to'p odam o'rab oldi. Hammasi ham bir narsani so'rardi: "Kimsan? Aybing nima?"

Cho'loq polvon gezarib ularning savoliga javob bermay, indamay turardi. Bunday atrofga qarasa, tevaragidagi odamlarning hammasi ham oriq, ust-boshlari juldur... O'zining ustidagi kiyimlari esa hali yap-yangi edi.

Haligi juldur kiyimdagilarning bir to'pi Polvonga yaqinlashdi, ichidagi kattakon oldiga keldi:

— Qani, yech kiyimlaringni!

— Nima uchun?! — dedi Polvon hayron bo'lib.

— Biz kiyamiz.

— Xo'sh, men-chi?

— Sen bizning kiyimlarimizni kiyasan! — deb chuvullashib kulishdi. Ular shunday dedi-da, Polvonga tobora yaqinlashaverishdi.

Polvon "Bular nima qilishmoqchi o'zi?" deb sal seskandi.

— Eslaring joyidami o'zi? Nima, men jinni bo'libmanmi yangi kiyimlarimni senlarga yechib berib, eski kiyimlaringni kiyadigan?

— Yechasanmi, yo'qmi! — deyishdi atrofini o'rab turganlar jiddiy. Endi ular Polvonning kiyimlarini o'zlari yechib olishmoqchi bo'lishdi.

— Yo'q! — dedi Polvon baqirib.

Haligi odamlar Polvonga yopishishdi... Polvon ham ular bilan tashlashib ketdi. Kuchining ko'pligi uchunmi yo ularda quvvat qolmaganidanmi, harqalay, polvon ularni uloqtirib-uloqtirib tashladi. Atrofida odam siyraklashib qoldi, ularning Polvonga yaqinlashishga yuraklari dov bermasdi.

— Qani, yana kim bor men bilan bellashadigan! — dedi Polvon tevaragiga qarab. — Ha, qani, kelinglar!

Haligi olishishda Polvonning qo'li qattiqroq tegdimi yo bu odam bilan olishib biron ish chiqara olmasliklariga ko'zlari yetdimi, hech kim unga yaqin kelishga jur'at qilolmadi.

— Bu qanaqa polvon? Kim o'zi? Muncha kuchli? — deb chuvullashdi ular.

— Men Nurmag'ambet Boymirzin bo'laman!.. Ovulimda meni Cho'loq polvon deyishadi, — dedi u o'zini bosib olib.

Shu payt kimdir:

— Nurmag'ambet! — deb qichqirdi.

Polvon "Bu kim bo'ldi?" deb o'ylab ulgurmasdan, orqasidan birov kelib shappa quchoqlab oldi. Polvon uni men bilan bellashgani kelgan bo'lsa kerak, deb o'ylab endi o'zidan itara boshlagan edi:

— Nurmag'ambet!.. Bu men... Andreyman!.. — dedi u Polvonni quchoqlab.

Bunday qarasa, haqiqatdan ham Andrey Kurganovning tovushi!

Biroq aft-basharasi unikiga o'xshamaydi, bet-og'zini soqol bosib ketgan birov... Ust-boshi juldur...

U haqiqatdan ham Andrey ekan. Tor joyda jonajon do'stini uchratgan Polvon xuddi yosh boladay o'ksib-o'ksib yig'ladi, uni yupatish qiyin bo'ldi.

Andrey Sibirga surgun qilingan edi. Surishtirsa, u yaqinda surgundan qochib kelib, tag'in qo'lga tushibdi. Andrey mahbuslarga Polvonning kim ekanligini tanishtirdi. Shundan keyin Polvon ular bilan apoq-chapoq bo'lib ketdi...

Azozillar

Men na qildim, yopiray, yaqinimga,
Tuzim achchiq tatidimi halqumiga?
Hibsda yotganimda bir kelmadi —
Cho'loq qo'lim botganmidi taqimiga?

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Cho'loq polvon hibsda bir oyga yaqin yotdi. Uni hurmat qiladigan odamlarning qo'lidan kelgan ishi faqat ovqat olib kelish edi. Qo'llaridan bundan boshqa hech narsa kelmas edi. Polvon do'stlaridan rozi edi-yu, faqat uydagilari — To'leboydan, turmush o'rtog'i Balqashdan sal xafa edi. Chunki Polvon hibsga tushganidan beri ularning birortasi ham kelib xabar olgani, ovqat olib kelgani yo'q.

"Bu qanday bo'ldi? — deb xafa bo'ldi Polvon. — Eshitishmadimi? Yo, eshitishsa ham kelmadimi?"

"Og'aynilarimning hammasi mo'min bechoralar edi, — deb o'ylardi u goho. — Ko'lankalaridan cho'chishar edi. Polvonning ota-onasi bor edi, sevar yori bor edi! Nega ular kelib xabar olmaydi? Yoki Balqash Polvonning G'aliya bilan sayr qilganini eshitib rashk qildimikan?"

Polvonni Otbosardan konvoy bilan jo'natar paytda, G'aliya Polvonga ko'rinish berib, orqangdan izlab boraman, degan edi. Unga nima bo'ldi, dom-daragi yo'q?

"Agar odamni sezgi hissi aldamasa, men G'aliyaga ishongan edim, o'zimga ishonchli, jon ayamas do'st topdim, deb o'ylagandim. Orqangdan boraman, izlayman, deb kelmagani nimasi? Bu ham vafosiz chiqdimi endi? Yo u bechorani eri uydan chiqarmay, qamab qo'ydimi?"

Cho'loq polvonning G'aliya haqidagi fikr-o'yi to'g'ri edi.

Oqmo'la shahrining kungay tomonida (o'ttiz chaqirimcha keladigan joyda) Moybaliq degan ko'l bor. Ana shu ko'l atrofini makon qilgan Arg'in urug'ining Ag'is degan shoxobchasida Cho'loq polvon bilan tengqur Qo'rdaboy degan yigit bo'lar edi. U ham Polvonga o'xshab sho'x, o'ziga to'q, buning ustiga "bilsa hazil, bilmasa chin" qabilada o'chakishgan odamlarning molini o'g'irlab ketadigan odati ham bor edi.

U G'aliyaga xaridor bo'lganlarning biri. Biroq qalin molga uncha qiziqmaydigan Tilev qizini unga bermagan edi. Shunday qilib armonda qolgan Qo'rdaboy, G'aliya kelin bo'lib tushgandan keyin ham undan umidini uzmadi. "Hech bo'lmasa xufiya uchrashib ham turmaysanmi", deb ming'illagani-ming'illagan edi. Garchi G'aliya uni yoqtirmasa-da, arqonni uzun tashlab, uni laqillatib hazil-huzil qilib yurishni yaxshi ko'rar edi...

Qo'rdaboy G'aliyaning Otbosar bozoriga borishini eshitib, "Qancha ayyor bo'lsang ham shu gal qo'lga tushirmay qo'ymaganim bo'lsin" deb o'ylagan edi.

Otbosarga borib G'aliyaning ko'nglini ovlash uchun Qo'rdaboy hozirdan g'am yeya boshladi, olisdan bir ayg'ir uyuri — o'n beshtacha qisir biyani keltirdi-da, bozorga haydadi.

U yo'lda G'aliya bilan Birjonni uchratib, ular bilan birga ketdi. Qo'rdaboy G'aliya bilan yo'l-yo'lakay hazil qilib borar ekan, o'n beshta yilqini u bilan ishrat qilish uchun olib kelayotganini bildirdi. Bunday hovliqma yigitlarning hotamligidan G'aliya osongina foydalanar edi. U, bu galgi o'yini eriga aytib, "Mabodo unga sal yon bosib kulib qarasam, ko'nglingizga olmang" deb tayinlab qo'ydi.

G‘aliya o‘zini Qo‘rdaboyga ko‘ngli borday qilib ko‘rsatdi, yigit buni fahmlab, esi chiqib ketdi. U o‘n besh nafar yilqining pulini G‘aliyalarning uyida yotib sovurdi. G‘aliya yaqin kunlar ichida Birjonni bir ish bilan Oqmo‘laga yuborishga va’da qildi. U rostdan ham shunday qiladi, deb o‘ylab, o‘zini qo‘yarga joy topmay qoldi...

Cho‘loq polvon kelganida u uyda yo‘q edi, yigitlari G‘aliyaning Polvonni ochiq chiroy bilan kutib olganini aytishdi.

Erkak zoti ichida o‘zimdan ortig‘i yo‘q, deb bilar edi Qo‘rdaboy. U Cho‘loq polvonning ham dong‘ini eshitgandi. Ovuldoshlari Polvon haqida “falonday emish, pismadonday emish” deb gap qilishganda, uning g‘ashi kelib: “Muncha ardoqlamasanglar uni, — derdi u. — U ham bizga o‘xshab bir onadan tug‘ilgan bo‘lsa kerak. U ham bizga o‘xshab ikki oyoqli, yumaloq boshlidir... Juda bo‘lsa kuchi sal ortiqdir, undan boshqa nimasi bor, deysan? U kuchi bilan kimni ham yengardi? “Bilagi kuchli birni yengadi, bilimi kuchli mingni!” Faqat bilimi ortiq bo‘lmasin!”

Yigitlar G‘aliyaning Cho‘loq polvon oldida noz-karashma qilganini ta’rif qilishganda u burnini jiyirdi:

— Shu ham gap bo‘ldimi? — dedi u. — Shuni ham gap deb gapirib o‘tiribsanlarmi? Qani, G‘aliyaga yaqinlashib ko‘rsinchi? Oyog‘ini osmondan keltirib qo‘yay!..

Qo‘rdaboy shunday degani bilan Cho‘loq polvon G‘aliyalarnikiga kelgan kuni hech narsa qilolmadi. Nima siri, karomati borini kim bilsin, shuncha gapiraman, deb taraddudlansa ham, jur’at qilolmadi, rashki, ori qo‘zidi-yu, biroq u na tiliga chiqdi, na bilagiga. U G‘aliya qo‘ldan ketdi, deb Polvonni otmoqchi ham bo‘ldi, payti kelib tursa ham, qo‘li tepkini bosishga ojizlik qildi...

Qo‘rdaboy mana shunday o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib yurganida, Cho‘loq polvon qo‘lga tushdi.

Polvonning qo‘lga tushgani haqidagi xabar bozorga yashin tezligida tarqaldi. Bu xabarni eshitib sevinuvchilar ham, kuyinuvchilar ham bo‘ldi. Sevinganlar orasida Qo‘rdaboy ham bor edi.

Askarlar Cho‘loq polvonni Otbosar shahrining yonginasidagi kazarmaga olib ketishmoqchi bo‘layotganida, Qo‘rdaboy ham shu

yerda hozir-u nozir bo'lgan edi. U kelgan mahalda G'aliya o'zini bilmay yotardi.

— Bu yoqqa olib kel! — deb baqirdi u jahl ustida. — Olib kel qanjiqni, o'ligini erining oldiga olib borib tashlay!..

Shu atrofda to'planishib turgan yigitlar G'aliyani ko'tarib Qo'rdaboyning oldiga o'ngarib berishdi, u chopganicha qimizchining uyiga qarab ketdi.

Uyiga borib o'ziga kelgach, G'aliya Cho'loq polvonning orqasidan bormoqchi bo'ldi, Birjonni Qo'rdaboy qayrab qo'ygan edi, u gapni qisqa qildi:

— Men bamisoli bo'yningga solingan tuzoq arqonman! — dedi u. — Qani, qimir etib ko'r-chi, qanday bo'g'ilar ekansan!..

G'aliyani Birjon bilan Qo'rdaboy bo'yniga arqon solib sudraganday qilib Oqmo'laga olib qaytishdi. Uning Ko'kchatog'ga Cho'loq polvonning orqasidan kelolmaganining sababi shu edi.

Endi Balqashning nima uchun kelmaganiga to'xtalaylik:

Cho'loq polvonning qo'lga tushganini uning ovuli ham Ko'kchatog'ga jo'natilmasidanoq eshitishdi. O'z qarindoshlari qatori Balqash ham chin dildan yig'ladi, kuyindi.

Hammadan ko'p Qalampir yig'ladi. Ko'z yoshi qilsa ham, u hammadan ko'proq g'ayrat ko'rsatdi.

— Chiroqqinam, Balqash, — dedi u o'g'li haqidagi shum xabarni eshitgan kuni. — Ko'z yoshi bilan Nurjonni qutqara olmaymiz. Endi o'zingni bardam tut. Belni mahkam bog'laylik. To'leboy ikkalang yoshsanlar, oyoq-qo'llaring chaqqon. Ko'kchatog'ga otlaninglar, Nurjonga ovqat olib borib beringlar.

Bu maslahat Balqashga ma'qul bo'ldi. Bu payt ulug'larning pora oladigan mahali. Pora beray desa qo'llarida hech vaqo bo'lmagach, Boymirza oilasi bilan: "Shu, el-yurt aylanib, hayr-sadaqa so'rasammikan?" deb maslahat qilgan edi, Qalampirning tepa sochi tikka bo'ldi.

— Vijdonsiz, bor bo'lgir! — dedi u. — Endi xayr-sadaqa so'rashing qolganmidi? Nima, do'st-dushmanga kulgi bo'lmoqchimisan! Joni achigan og'ayni yordamini ayamas. Bermasa hech kimdan hech narsa so'rama!

To‘leboy bir boyning yilqisini boqar edi. U inisi oldiga borib kelish uchun ruxsat so‘ragan edi, boy javob bermadi. “Ketadigan bo‘lsang, bir yo‘la ket, bo‘lmasa ruxsat yo‘q!” dedi. Boyning To‘leboyga qilgan yordami, rahm-shafqati shu bo‘ldiki, ish haqidagi va’da qilgan qo‘yni oldindan berdi. Boymirza bilan Balqash o‘sha qo‘yni so‘yib, go‘shtini pishirib, qo‘shnisining otini so‘rab aravaga qo‘shishdi-da, Ko‘kchatog‘ga qarab jo‘nab ketishdi.

Ular ovuldan ertalab chiqib, tushga yaqin bir ko‘l atrofiga kelib otni o‘tlatib, dam berish uchun to‘xtadi. Bunday qarashsa, shu ko‘l bo‘yida Otbosar bozoridan qaytib kelayotgan ovuldoshlari — To‘qsonboyning o‘g‘li Sizdiq, Jumaning Alijon degan o‘g‘li va boshqa kishilar dam olib yotgan ekan. Boymirza bilan Balqash o‘shalarning yonginasiga borib aravadan tushishdi.

Ot sal qirchang‘iroq, oriqroq edi. Boymirza uni aravadan chiqarib, ko‘l bo‘yiga olib bordi-da, oyoqlarini tushovlab o‘tga qo‘yib, yonida yonboshlab yotdi. Balqash esa arava ustiga — oshlovga solib yuklangan go‘shtni, hidlanib qolmasin, degan ma’noda yoyib shabadalatdi.

Alijon bilan Sizdiq Balqash bilan Boymirzani uzoqdan tanidi, ularning nima uchun ketayotganlarini o‘zlaricha yo‘yishdi.

— E, Yaratgan, yomon Boymirzaning harakatini ko‘rib qo‘y, — dedi Alijon. — Endi bunga ham nomus bitib, qamalgan kishini yo‘qlaydigan bo‘lgandan keyin boshqalar nima qilmaydi!

— Bilmasang gapirma, — dedi Sizdiq. — Kechagi yomon Boymirza bugun yaxshi bo‘lib qola qoldi, deysanmi? Uni yaxshi qilgan kim, bilasanmi?

— Kim ekan?

— Xotini Qalampir. Boymirza o‘shaning yo‘l-yo‘rig‘i bilan odam bo‘lib yuribdi-da. U azbaroyi qo‘lining kaltaligidan to‘rt devor ichiga sig‘ib o‘tiribdi. Agar badavlatroq xonadonning xotini bo‘lsa bormi, u el boshqarar edi.

— Anavi aravaning yonida qolgan ayol kim? Kelini bo‘lsamikan?..

— O‘sha-da.

Ikkalasi ham o‘ylab-o‘ylab Balqashning ismini topisha olmadi.

— Mayli, ishqilib ismi bir narsadir, — dedi Sizdiq. — Bir g'alati ish qilsak nima qiladi? (Alijon "qanday qilib?!" deganday unga qaradi). Shu xotinni yo'lidan ozdirib, orqasiga qaytarsak-chi?

— Qanday qilib?

— Polvonning Otbosarda G'aliya bilan yurganlarini aytsak... O'zining rashki zo'rmish.

— Ishonarmikan?

— Ishontiramiz-da. Yur, oldiga boraylik!

Sizdiq bilan Alijon Balqashning oldiga borib salom berishdi, qayoqqa ketayotganini so'rashdi. Balqash unga qayoqqa, nima uchun ketayotganlarini aytib berdi.

— Shunday xotini bor odamning ham dunyoda armoni bormikan? — dedi Sizdiq Alijonga. — Iloyim, bizlarning boshimizga falokat tushmasin, agar tushsa bormi, xotinlarimiz bo'sag'adan beri hatlab chiqmas edi, faqat kuchlari ko'z yoshi qilishga yetardi, xolos. Mana buni ko'rdingmi, odamlarning xotini xuddi erkaklarday! Er bilan erday, sher bilan sherday!

— Cho'loq polvon past ayol olsa, Cho'loq polpon bo'larmidi! — dedi Alijon Sizdiqqa qarab ko'zini qisib. — Axir uni eldan tanlab olib qochib kelgan-a?

— Yomon xotinlar bizni faqat aysh-ishrat qiladi, deb o'ylashadi, sal oyog'ingni egri bossang rashk qilib, tepangda yong'oq chaqadi. Bizning gunohimiz Cho'loq polvonning gunohi oldida gunoh bo'libdimi? Shunday, do'stim, aqlli xotin bilan aqlsiz xotin boshingga mana shunday ish tushganda bilinadi. (U ko'zini qisdi.) Manavi aqlli xotinni qaragin, Cho'loq polvonning shuncha gunohlarini bilib tursa ham, ketidan uni izlab ketyapti! Biz shunday qilsak, xotinlarimiz orqamizdan kul sochib sharmandayi-sharmisor qilar edi.

— Polvon xotiniga ishonganidan, shunday yuribdi-da. Agar ishonmasa, kuppa-kundizi Otbosar bozorida anavi qimizchining xotini G'aliya bilan aysh-ishrat qilib yurarmidi?

Bo'layotgan gaplarni boyadan beri e'tiborsizgina tinglab o'tirgan Balqash, G'aliyaning nomini eshitishi bilan quloqlari ding bo'ldi. Ilgari ham bozordan kelgan bir dugonasi Polvon bilan G'aliya hangomasini aytib bergan edi. Balqash: "Nima qilar dey-

san, boshi bog'liq, hech qayoqqa ketmas", deb bu gapga uncha e'tibor bermagan edi. Lekin shunday bo'lsa-da, ichini nimadir kuydirganday bo'lgan. Polvon kelgach, shu gaplar rost bo'lsa, bir adabini berib qo'ymoqchi edi.

Sizdiq bilan Alijon Cho'loq polvon bilan G'aliyaning bozorda qanday sayr qilishganini oshirib-toshirib aytib berishdi.

Sizdiq bilan Alijonning quvligi Balqashnikidan ham oshib tushdi. Sirtdan qaraganda shunchaki hazil qilayotgan bo'lsa ham, Balqashning ich-ichidan kuyinayotganini ko'rib-bilib turishdi. Shuning uchun ham ular galma-gal gap tizginini bo'shatmay Balqashning qalbida tutayotgan rashk o'tini puflab yondirishga harakat qilishdi. Balqash boshda sir bermadi-yu, axiri bu gaplarga chidamay yig'lab yubordi.

— "Eshitgan yolg'on-u ko'rgan chin" degan gap bor, — dedi Sizdiq Balqashning ko'nglida yongan olovni tag'in alanga oldirish niyatida.

— Ko'kchatog'ga borsang G'aliya oldingdan chiqadi. Ko'rasan, bilasan qo'yasan!

— E, aytmoqchi... — dedi Alijon. — G'aliya Polvonning ketidan ketganmish.

— Ketganmish, deganing nimasi? — dedi Sizdiq. — O'z ko'zim bilan ko'rdim-ku, axir. U bizlar bilan birga keldi-da, xuddi Ko'kchatog' yoniga kelganida burilib ketdi. Bizlar undan nima uchun ketayotganini so'ragan edik, u: "yetsa molim, yetmasa jonim sadaqa, bo'shatishga harakat qilaman!" dedi.

— Gap shunchalikka boribdimi, demak, bularning sayr qilib yurishlarida bir gap bor... — dedi Alijon ma'noli qilib.

— Bir gap bor, deganing nimasi? — dedi Sizdiq uni koyigan bo'lib. — Otbosarning imomi — Alg'ozi eshonning oldiga borib nikoh o'qitib kelishibdi. Ko'rib kelganlar aytishdi.

— E, attang, unday bo'lsa, mana bu kelin sho'rlik bekorga ovora bo'lib ketayotibdi, desang-chi.

Balqash battar kuyib yig'lay boshladi. Niyatlariga yetgan Sizdiq bilan Alijon sekin jo'nab qolishdi.

— Bopladikmi? — dedi Sizdiq ketib borayotib. — Qani, kutaylik-chi, oqibati nima bilan tugar ekan?

— Boymirza nasihat qilib o‘ziga keltirib qo‘ymasa...

— O‘jar xotin deyishar edi, hay qaydam. Boymirzaning gapiga ko‘na qolmas. Rashk o‘tini yoqishga-ku yoqdik. Endi uni osonlikcha o‘chirib bo‘lmas.

Biroz vaqtdan so‘ng otini sug‘orib, qayta o‘tga qo‘yib Boymirza keldi. Bunday qarasa, kelini yig‘lab yotibdi. Haligi kelgan odamlar tag‘in bir yomon xabar aytishdimi, deb Boymirzaning yuragi taka-puka bo‘lib engashdi:

— Chirog‘im, kelin, yig‘lama! Yomonlik chaqirma! Sog‘-omon bo‘lsa, ozgina ko‘rgan kulfati bir kuncha bo‘lmas, — deb asta gapira boshlagan edi, Balqash boshini yerdan yulib olib, dedi:

— Battar bo‘lmaydimi!

— Kimni aytyapsan?! — dedi Boymirza hayron bo‘lib.

— O‘g‘lingizni!..

— Qaysi o‘g‘limni?

— Haligi, qamalgan...

Boymirzaning jon-poni chiqib ketdi:

—Yopiray, kelin, nimalar deb sandiroqlayotibsan o‘zing?

— Eshityapsizmi? — dedi Balqash yulqinib. — Iloyo juvonmarg bo‘lsin, o‘g‘lingiz!..

— Yopiray, kelin, chirog‘im, — dedi Boymirzaning rangida rang qolmay. — Jinni-pinni bo‘ldingmi?

— Jinni bo‘ldim! Ha, meni jinni qilgan o‘g‘lingiz!..

— Nima uchun? Qanday qilib?!

— Balqash javob bermay, yuztuban tushib yig‘lay boshladi.

Boymirza, “haligi rasvolar yo‘ldan urgan ekan-da”, deb o‘yladi. Boymirza ularning kim ekanini bilmagan edi. “Kim bo‘lsa ham baribir uchrashay”, deb ularning oldiga borsa, Sizdiq bilan Alijon!.. Ular Boymirzani kalaka qilishdi.

Dunyoga kelib Boymirzaning birov bilan urushganini hech kim ko‘rgan emas. “Falonchi bilan gap-so‘zga borib qolibdi” deganida, uning eng yomon gapi “Ko‘karmagur!” xolos.

Sizdiq bilan Alijonning gapiga u:

— Ko‘karmagurlar! — dedi. — Men senlarga nima yomonlik qilgan edimki meni xo‘rlaydigan? Bunaqada ko‘karmassanlar, ko‘karmagurlar!

Boymirza shunday dedi-da, jo'nab ketdi. Sizdiqqa qarashli bir yigit Boymirzani urmoqchi bo'lib intilgan edi, Sizdiq uni Boymirzadan emas, Cho'loq polvondan qo'rqib to'xtatdi.

Boymirza otini olib kelib aravaga qo'shdi. Balqash hali ham yuztuban tushib yotibdi... Yig'lashdan to'xtab, uxlab qolganga o'xshaydi.

— Qani, kelin, ketdik! — dedi Boymirza yoyilib turgan go'shtlarni aravaga yuklab, otining boshini Ko'kchatog'ga qarab burarkan.

— Men bormayman! — dedi Balqash lo'lilik qilib. Uning betog'zi tuproqqa belangan edi.

— Chirog'im, kelin, — deb Boymirza yalinishga tushdi. — Jahlingni qo'y, bolam... Dushman yaxshi gap aytarmidi senga? Sizdiq bilan Alijon Nurjonga do'st emas, dushman. Dushmanning gapiga kirasanmi, chirog'im? Ostonamizga kelganingga ham ancha bo'lib qoldi, shundan beri senga til qotganim ham shudir o'zi. Meni hurmat qilsang, min aravaga!

— O'zingiz boravering, men bormayman! — dedi Balqash gezarib.

Boymirza biror kishi bilan urishsa, qovog'i osilib ketar edi. Hozir ham shunday bo'ldi.

— Bo'pti, kelin, — dedi u. — Bo'lmasa men ketdim!

Boymirza jo'nab ketdi. U orqasiga qaramadi, qaray desa kelin emas, alvasti turganday bo'ldi. U Ko'kchatog' yo'liga tushib yiroqlab ketdi. Balqash jahl ustida hamon qaqqayib turar edi...

— Nima qilib turibsan? — dedi shu mahal uning oldida Sizdiqqa qarashli bir yigit kelib. — Yur, ovulingga olib borib qo'yamiz...

Balqash endigina o'ziga kela boshladi. "Bu qilgan ishim xato bo'ldi, — deb o'yladi u. — Kechirilmas gunoh qildim. Boringki, Polvon gunohkor bo'lganida ham gunohni unga ag'darib, keyin jahl qilsam bo'lmasmidi. Balki, otam aytganday, bu gaplarning hammasi dushmanlarning g'iybatidir!.."

Balqash bunday o'ziga kelib qarasa, Boymirza bir tepalikdan oshib tushib ketayotgan ekan.

U butun kuchini yig'ib:

— Ota!.. Ota-a!.. — deb qichqira boshladi. Boymirza uning tovushini eshitdimi yo yo'qmi, orqasiga qayrilib qaramadi, tepalikdan oshib tushib ketdi...

Balqashning boshiga: "Endi bu yog'i nima bo'ladi? Ajralishamizmi?" degan o'y kelib, o'z o'yidan o'zi qo'rqib ketdi...

U "Ota-a!.." deb qichqirganicha uning ketidan chopdi. Boyagi yigit uni ushlab olmoqchi bo'lgan edi, Balqash uni turtib yiqitib ketdi.

U o'pkasini qo'liga olib entikib tepalik boshiga chiqsa, Boymirza otini to'xtatib, aravasining yonida turgan ekan. "Meni kutib turgan bo'lsa kerak", deb o'yladi. Otasidan minnatdor bo'lib ketdi. Hozirgina turmushi buzilganday bo'lib ko'ringan edi, endi oila qayta tiklanganday sevinib ketdi... Jon-jahdi bilan olg'a qarab yugurdi.

Boymirza boshqa sababdan to'xtab turgan edi. Tepalikka chiqqanida u o'ziga kelib, "Go'sht nima bo'ldi ekan?" deb o'yladi. Boya otini tushovlab, aravaning yoniga kelganida go'sht ustida g'uj-g'uj pashsha uymalayotganini ko'rgan edi. Yozda pashsha qo'ngan go'sht tez qurtlashi Boymirzaning esiga tepadan oshgandan so'nggina tushdi.

"Go'sht qurtlamasa yaxshi edi!" deb aravasini to'xtatib qarasa, ustida g'uj-g'uj qurt o'rmalab yuribdi!..

Boymirza yig'lab yubordi. Nega yig'lamasin axir, tag'in so'yib olib keladigan qo'yi bormidi uning?

— E, xudoyim-ey! — dedi u yig'lab. — Hech bo'lmasa Nurjonga olib kelayotgan go'shtimni buzib nima qilar eding!..

Boymirza yum-yum yig'layotgan mahalda, Balqash yetib keldi.

— Otajon! — dedi u Boymirzani quchoqlab, bo'g'inlari bo'shashib. — Kechiring meni, otajon!..

Balqashga achingan Boymirza unsiz-tovushsiz qotib qoldi... Ikkalasi qo'shilib yig'lashdi.

Yig'lashib bo'lgach:

— Endi orqamizga qaytamiz, — dedi Boymirza.

— Nega?!

— Nimani olib boramiz endi? Ovulga borib tag'in qo'y izlaylik.

Ular ovulga qaytishdi...

Sud va kafolat

O'rgilayin, G'aliya, sen bir to'ti,
Sen bo'lmasang yonmaydi ko'ngil cho'g'i.
Sen esimga tushganda G'aliyaxon,
Hech narsaga arzimaydi ho'kiz sudi.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Cho'loq polvonning Ibroy degan do'sti boshqa jo'ralari bilan kelishib, sudga qadar Polvonni kafillikka olish uchun Ko'kchatog'ga bordi.

Ular Ko'kchatog' ulug'lari oldiga kirishib yalinib ko'rdilar, pora ham bermoqchi bo'ldilar, ammo yo'lini qilsang hamma gunohkorlarga "mehrli" bo'lib ketadigan ulug'lar Cho'loq polvonga kelganda, "adolatparvarliklari" tutib ketib, oldilariga yo'latishmadi. Sudya oldiga kelganlarni pora berish niyatlari borligini eshitib, "kafillikka bersak nima qiladi?" deb uyezd boshlig'i bilan maslahatlashgan edi:

— Qozoq dalasiga o't yoqmoqchimiding? — deb baqirdi uyezd boshlig'i. — Cho'loq polvon, axboring uchun, ana shu yoqiladigan gapini Sutemgan orqali aytib qo'ya qoldi:

— Uyezd boshlig'ining ko'ziga ko'rinmanglar! — deb qo'rqitdi Sutemgan arz qilib keluvchilarni. — Agar ko'rinsanglar, hammangni qamattirib qo'yaversa, u ulug' bo'ldimi? — deb janjal qilishdi qozoqlar.

— Unday bo'lsa, — dedi Sutemgan. — Yashirmayoq qo'ya qolay, baribir eshitasanlar: uyezd boshlig'i Cho'loq polvonni hukumatning ashaddiy dushmani, uni himoya qilgan kishi ham hukumatning dushmani bo'ladi, dedi. Agar arzchilar kelishini qo'ymasa, ularni ham qo'shib sudlaymiz, dedi...

Uyezd boshlig'i va boshqa mahkama mansabdorlaridan ko'ngli qolgan Polvonning do'stlari O'mbaga, gubernator mahkamasiga jo'nab ketishdi.

Ular O'mbada bir oydan ortiqroq yurishdi, xullas, advokatning yordami tufayli "Cho'loq polvon kafillikka berilsin!" degan mazmunda qog'oz olib qaytishdi. Boshqa chiqimlarni bir yoqqa qo'yib turganda shu qog'ozning o'zini olish uchun ming so'm ketdi. Albatta, bu pulni Polvon to'layolmaydi, uni Polvonning do'stlari ko'tarishdi.

Cho'loq polvonni kafilga olib chiqishdi. Polvon uyiga kelgach, Boymirza bilan Qalampir kelinining qilig'idan qattiq ranjigan bo'lsalar-da, o'g'li kelganidan so'ng uning o'ksik ko'nglini tag'in o'ksitmaylik, degan ma'noda chaqmachaqarlik qilib o'tirishmadi.

Ammo "el qulog'i — ellik", "o'ttiz tish orasidan chiqqan so'z o'ttiz urug'ga yetadi" emasmi, Cho'loq polvon Balqashning qilig'ini sekin-asta eshitdi. Albatta, bu gapni unga oshig'i bilan yetkazganlar — To'qsonboyning o'g'li Sizdiqqa o'xshaganlar bo'ldi! Nega hibsga izlab bormaganining sababini eshitgach, Polvon alam va jahldan yorilib ketguday bo'ldi. Boshiga, Balqashning bahridan o'tish fikri ham keldi. "Bari bir sudlanib ketaman, hammasining javobini bir yo'la berib qo'ya qolay" degan xayolga bordi u.

Agar o'tgan yili Balqash farzand ko'rmaganida, balki Polvon uning bahridan o'tgan bo'larmidi? Qizchaning ismini Baten qo'yishgan edi. Polvonning boshiga ish tushib yurgan kezlarida qizcha binoyidek o'sib qolgan ekan. Polvon jahl ustida Balqashni o'ldirish uchun uyiga kirsa, xotini do'mboqqina chaqaloqni emizib o'tirgan ekan. Bolaga mehrli bo'lgan Polvon uni ko'rib indayolmay qoldi, chaqaloqni ayadi.

Balqash Polvonning oldida katta gunoh qilganini his etar, bu gunohidan Polvon xabardormi yo yo'qligini aniq bilmas, "bordi-yu bilib qolsa nima qilaman?" deb ich-ichidan ezilar edi. Shuning uchun ham Polvon kirib kelayotganida doim uning qoshqovog'iga, kayfiyatiga qarar edi.

Bu gal Polvonning ko'chadan qovog'idan qor yog'ib kirganini ko'rib Balqashda jon qolmadi. Aqliga kelib qolganini qarang, o'rnidan shartta turib do'mboqqina qizchasini Polvonga ko'ndalang tutdi.

Dumboqqina qizchasining ko'ylaksiz badanini ko'rib, Polvon shashtidan tushdi, aqlini yig'di. U qizalog'ini bag'riga bosib o'ksib-o'ksib yig'ladi... Balqash nima deyishini bilmay tik turardi. Polvon yig'lab bo'lgach, boshini ko'tardi, namli ko'zlarini xotiniga tikib:

— Eshitdim, hammasini eshitdim, — dedi. — Baten uchun hammasini kechirdim...

Polvon ilgari ham Balqashga na bir og'iz qattiq so'z aytgan va na bir qo'l tekkizgan edi. Gunohidan o'tgandan keyin ham shunday mehrli bo'lib qoldi. Biroq shu gapdan so'ng unga xotinim deb yaqinlashmadi. Urgandan turtgan yomon, deganday, Polvonning bu munosabati Balqashga qattiq botdi. U eriga bor gapni aytib yalindi ham, yolvordi ham, biroq Polvon aytgan gapidan qaytmadi, qayrilib qaramadi.

Polvon kafillikda bir oy yurdi. Shu vaqt ichida ilgarigiday yaramadi, ovul kezishni yig'ishtirib qo'ydi, chaqirgan joylarga ham bormadi. Mehmondorchilikka ham tanlab bordi.

Polvonning tengqur jo'ralari "ko'nglini ko'taraylik" deb tez-tez uyiga kelib turishdi. Ammo bu bilan Polvon yupanmadi.

— Nimaga yupanay axir, — dedi ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lgan yigitlarga. — Bu zamonda adolat degan narsa yo'q ekan. Zo'ravonlardan ozor chekib yurgan faqat mengina emas ekanman, undaylar ko'p ekan. Buni men hibsga tushganimda ko'rdim. Bularning ichida o'ris ham bor, no'g'oy ham bor, biz bilmaydigan millatlardan ham bor. O'shalarning hammasi zo'ravonlarning adolatsizliklariga qarshi kurashaman deb qamalib yotibdi. Podsho ham, ulug' ham, qonun ham o'sha zo'ravonlarning tarafini olar ekan. Ular qo'ygan tuzoqqa tushmaydigan odam bo'lmas ekan. Hibsda ne-ne bilagi kuchlilarni ham, ilmi zo'rlarni ham ko'rdim. Ko'pchiligi podshoga qarshi. Faqat bizning qozoqlargina podshoga qarshi deb yursam, o'rislarning o'zi ham bizdan battar qarshi ekan. Mana shuning uchun ham ko'plari hibsda o'tiribdi...

— O'sha hibsda o'tirganlar podshoga bas keladigan biror narsa bor deydimi yo aytgan gaplari bekormi hammasining?..

— Bor, deyishadi...

— Masalan, nima ekan u?

— Ularning o'zlariga qo'yib bersang, podshoni taxtdan ag'daradigan.

— Qachon, qanday qilib?

— Buni o'zlari ham bilishmaydi... faqat maqsadlari, gaplari shuki, podshoga qarshi kurashish kerak, deydi.

— Kim kurashar ekan shunda?

— Odamlarni kurashga chorlash kerak, deydi...

— Odamlar chiqa qolarmikan?.. Chiqqan taqdirda ham podsho ularni tinch qo'yadimi?.. Xo'sh, sen o'zing qurolga qarshi nima qilolding? O'zgalar ham o'zingga o'xshagan-da!

Hibsga o'rtaga tashlanib, javobini hech kim topa olmagan bu so'roq oldida Polvon ham ojiz edi. Shuning uchun hibsdagilar ham xo'rsinishib:

— Ha, bu qiyin masala! — deyishar edi...

* * *

Bir kuni Polvon yor-do'stlarini yig'ib:

— Xo'sh, do'stlarim, — dedi. — Mana, biroz kun mehmon bo'ldim. Kafillikka olib chiqqanlaringiz uchun katta rahmat. Endi menga ruxsat beringlar, hibsxonaga boray.

— Qayoqqa?! — deb chuvullashdi to'planganlar.

— Ko'kchatog'ga... Hibsxonaga!..

— Senga nima bo'ldi, Polvon?! — deb chuvullashdi odamlar yana. — Yo bizlardan xafa bo'ldingmi?

— Hech ham xafa bo'lganim yo'q. Hibsdan chiqib kelganim bilan bo'ynimdagi gunohimdan soqit bo'lganim yo'q hali, undan uzoqlashganim sayin bo'ynimdagi tuzoq qisib, nafasim siqilib ketayotganday sezyapman o'zimni. Hibsdan qochmay, zora nafas olishim yengillashsa!

Cho'loq polvon yor-birodarlarining gapiga kirmay, ulardan, ota-onasidan ruxsat olib, Ko'kchatog' hibsxonasiga keldi.

Ko'p kechikmay sud bo'ldi. Polvon sud oldida qadimgi Qayroqli shahriga o't qo'ygani bormi, Kazachaya sotnyani urgani bormi, sakson ho'kizni o'g'irlagani bormi, hammasini bo'yniga oldi.

Aybdor hamma aybini bo‘yniga olgach, sud uncha ko‘p cho‘zilmadi. Endi bundan keyingi so‘zni Cho‘loq polvonning o‘zidan eshitib qo‘ya qoling:

Otadan o‘g‘il tug‘mas menday daroz,
Hibsda yotgan ekan nuqul shovvoz.

Olti kun hibsda yotgandan so‘ng,
Keltirishdi sudyadan menga qog‘oz.

Aqlimdan roziman, undan ko‘nglim to‘q,
U qog‘ozdan yurakkinam yorilgani yo‘q.
Qog‘ozning ma’nisiga qarab tursam,
Yetti yil katorga, deb qilibdi do‘q.

Ichimda: bo‘shatar, deb o‘ylab turdim,
Sudyaning haydashini endi bildim.
Haydaydi, degan xabar eshitib men,
O‘z-o‘zimni ovutdim, sabr qildim.

Yigitlar, miqti bo‘lsang, qasdni emir,
Tishingda g‘ayrat bo‘lsa, toshni kemir.
Aybdorning ko‘ngliga soya tushsin, deb
Eshigiga qoqibdi so‘m-so‘m temir.

Tanamga kuch bitganga qildim shukur,
Hibsda qiynalsam gar betga tufur.
Temirin ikki siltab tortganimda,
G‘ishtlari yerga tushdi: shaqir-shuqur.

Bu joylarda oshdi-ku mening hiylam,
Yoshlikdan ko‘rganlarim nuqul sayron[1].
Yopiray, bu qanaqa dajjoldi, deb
Shu asnoda o‘ris, qozoq bo‘ldi hayron.

[1] O‘yin-kulgi ma’nosida.

Yigitman, peshonam xo'p yarqiroq.
Dushman turar oldimda tutib titroq.
Oyog'im va qo'limdagi kishanlarni
Kuch bilan shu dargohda buzdim burab.

Eshitganlar bu gapni qildi ajab,
O'lmay turib hech kimga bo'lmay mazax.
Derazani qiyratib, chiq, deganda
Chiqmadi qo'rqib, cho'chib o'ris, qozoq.

So'rasang Qo'tir, Sho'rtan bizning bo'lis,
Olti kun oq turmada qildim qo'nish.
Sakrab derazadan tishga chiqsam,
Turgan ekan oldimda ikki o'ris.

Mudraganini ko'rib, kulib turdim.
Ikkoviga bas kelishim bilib turdim.
Ikkovini ikki urib yiqitdim-u
Olg'a yurdim, ko'chaga o'zni urdim.

Tangrim olsin er yigitni panohiga,
Qarab qo'ying aqlning rasosiga,
Qoldirib ketaymi, deb oq bo'z otni
Kirib bordim sudyaning qo'rasiga.

Qorong'ida oq bo'z otni toptim zo'rg'a,
Jonivorim, tushibsan-ku tuzoq-to'rga.
Molxonaning eshigini buzib kirib,
Olib chiqdim: biri — uchqur, biri — yo'rg'a.

Jahlim chiqdi, lablarim dirilladi.
Qulog'imga boshqa tovush urilmadi.
Bo'y cho'zib tosh qo'raga qarasam men,
Ichida bir zo'r to'ng'iz xo'rilladi.

O'ylab ko'rsam bu dunyo yolg'on ekan.
Ko'zlagan maqsadiga yetgan ekan.

Oq bo'zginam kelganimni bildi, bildi...
Og'ziga cho'yan qulf urgan ekan.

Yoshlikdan omadim bor, ravon yo'lim,
Bilmadim bu dunyoning o'ng-u so'lin
Buncha kuch tanamga qalay sig'gan?
Yulib oldi qulfni cho'loq qo'lim.

Oq bo'zimni olganman tanlab, saylab,
Raqiblarim o'dag'aylar yo'lim poylab.
Tosh saroyning eshigini buzib kirsam,
Qo'ygan ekan ichiga fonar boylab.

O'rgilayin, oq bo'zim, tolmas to'rqam[1],
Sen uchun men talay toshni qildim talqon.
Chilviri-la yetaklab chiqqanimda,
Oyog'ini bosdi otim alpang-talpang.

Nima kerak yilqini bekor maqtab.
Otni ayt, egasini yurgan saqlab.
To'qqiz yil rosa mingan, jonivorim,
Ko'z yosh qildi iyagini menga tashlab.

Omon bo'lsin, oq bo'zginam, ushbu boshing,
Yumalaydi o'rga qarab tepgan toshim.
Yoshginangda til o'rgangan tulporginam,
Tiyolmadim ko'zlarimdan oqqan yoshim...

Otadan o'g'il tug'mas menday daroz,
Hibsda yotgan ekan nuqul shovvoz.
Sudyaning azobiga chidayolmay,
Fonarining tagida yozdim qog'oz:

"Hibsingda olti kuncha bo'ldim qo'noq,
Nizomingdan so'zlashga tilim no'noq.
Uchqur kulrang, oq bo'zni olib ketgan,
Gar so'rasang kamina: Polvon cho'loq!"

[1] Oltinim degan ma'noda.

Barimta[1]

Aql boshdan chiqadi, asl toshdan,
Suv toshsa soyga tushar qayta boshdan,
Mening ismim belgili: Cho'loq polvon,
O'chakishgan raqibining ko'ksin bosgan.

(Cho'loq polvonning o'z she'ridan.)

Yo'rg'ani, to'riq bilan oq bo'zni olib ketayotgan Cho'loqning boshida birgina fikr mavjud edi. U ham bo'lsa, to'ppa-to'g'ri Qorao'tkalga — G'aliyaning oldiga borish edi.

Shu xayolda u tong otguncha Mengrev qarag'ayzoriga bir amallab yetib olish maqsadida jadal ketayotib, to'satdan boshiga kelgan fikrdan to'xtab qoldi. "Xo'sh, men to'ppa-to'g'ri G'aliyaning oldiga bordim deylik, — o'yladi u, — unda ota-onam nima deydi? Ovuldoshlarim nima deydi?.."

"Shu ketganimcha ketaversam, — deb o'yladi tag'in u. — Ulug' meni qochib ketdi, deb o'rnimga otamni yo To'leboyni, yoki boshqa yaqin do'stlarimni tutib olib qamasa nima bo'ladi? Ularni tutib berib, o'zim ozodlikda yurganimdan nima foyda? Unda mening kim bo'lganim? Yo o'z ixtiyorim bilan hibsxonaga qaytib borsammikan? Yo'g'-e... Bu juda ham to'g'ri bo'lmasa-ov! Undan ko'ra ovuldoshlarimga ham, qarindoshlarimga ham zarar yetkazmaydigan darajada ish tutay!"

U to'ppa-to'g'ri Ko'kchatog'ga, bir do'stinikiga kelib tushdi-da, qayoqdan, qanday qilib kelayotganini ro'yi-rost aytdi.

— Xotirjam bo'l! — dedi do'sti. — Qancha kun yotsang ham hech zog' topolmaydigan joyga yashirib qo'yishga qurbim yetadi. Otingni ham, o'zingni ham.

Do'stining uni yashirib qo'yishini mo'ljallagan joyi Qilshaqli soy bo'yidagi ko'n zavodida ishlaydigan bir ishchining uyi ekan. Do'sti Polvonni uch oti bilan to'riqni qaytarib yubordi-da, oq bo'z bilan Cho'loq polvonni odam bolasi topolmaydigan joyga yashirib qo'ydi.

Do'sti ketdi. Cho'loq polvon ko'n zavodida yotarkan, zimdan shahardan xabar oldirdi. "Uyezd boshlig'i Cho'loq polvonni

[1] O'rinma-o'rin bosib olish.

qidirayotgan emish. Topilmasa, qarindoshlarini, do‘stlarini qamoqqa olar emish...” xabar topib keldi shaharga tushgan odam. Polvon ko‘p kechikmay bu shum xabarning ijrosini ham eshitdi: uyezd boshlig‘i Boymirzani, Qalampirni, To‘leboyni, Polvonning yaqin do‘stlarini tutib qamab qo‘yibdi.

Endi nima qilish kerak?

Bu so‘roqqa Cho‘loq polvonning o‘zi javob topdi. Bir kuni u oq bo‘z otini yaxshilab egarlab, oqshom paytida shaharning kun botish tarafidagi tog‘ga olib chiqadigan yo‘lda poylab yotdi. Polvonning qorong‘iga ko‘zi o‘rganib qolgan, shuning uchun ham uzoqda, yo‘lda yo‘rtib kelayotgan qo‘sh ot qo‘shig‘li faytonni ko‘rib qoldi.

— Mard bo‘lsang yaqinlash! — dedi Polvon haligi faytondan ko‘zini olmay.

Faytondagilar Polvonni sezib qolganday, yaqinlashib qolay deganda shartta orqaga burilib ketdi. Endi u orqasiga qaytmaydi, deb o‘ylab, Polvon quvlamoqchi ham bo‘ldi-yu, o‘ylanib qoldi.

U hamon qo‘sh ot qo‘shig‘li faytondan ko‘z uzmasdi. Fayton qorong‘i ko‘cha ichiga sho‘ng‘ib g‘oyib bo‘ldi.

“Attang! — deb o‘kindi Polvon. — Tavakkal qilib orqasidan quvmagan ekanman-da! O‘z oyog‘i bilan oldimga kelgan o‘ljamdan ayrilib qoldim-a!”

Polvon hali ham umidini uzmay, qorong‘i ko‘chaga tikilib turganida, haligi qo‘sh ot qo‘shig‘li fayton yana chiqib qoldi. Bu gal otlar bulutning soyasiday oqib kelar edi.

“Mard bo‘lsang yaqinlash!” — dedi Polvon yana. Uning poylayotgani uyezd boshlig‘ining O‘mba shahridagi gimnaziyada o‘qiyotgan qizi — Tatyana edi. U yozgi ta’tilga kelgan bo‘lib, oqshomlari otasining qo‘sh arg‘umog‘ini faytonga qo‘shtirib, nim qorong‘i ko‘chalarda sayr qilishni yaxshi ko‘rardi. Bugun ham shunday sayr qilib yurgan kezi edi.

Qo‘sh arg‘umoqli fayton Polvonning yonginasidan tog‘ga qarab uchib o‘tib ketdi. Polvon ham uning orqasidan quvdi, biroq otining boshini tortib, tobora tog‘ga yaqinlashishini kutib quvdi.

Polvon boya fayton ustida ikki odam borligini ko‘rgan edi: ularning biri — kucher, bo‘ji ushlab oldinda o‘tiribdi. Ikkinchisi — qiz, orqa o‘rindiqda!

Fayton tog‘ga yaqinlashib qolganda Polvon oq bo‘zning taqimiga nuqib yuborgan edi, u qushday uchib faytonga yetib oldi. U fayton oldida o‘tirgan kucherni zarb bilan bir urgan edi, u uchib ketdi. Polvon chaqqonlik bilan fayton ustiga tushdi-da, bo‘jini qo‘liga olib, otlarni qarag‘ayzor ichiga qarab haydadi. Nima bo‘lganiga aqli yetmay, o‘zini yo‘qotib qo‘ygan qizni Polvon mahkam bag‘riga bosib oldi.

Polvon fayton ustiga sakrab tushganidayoq qiz o‘zini yo‘qotib qo‘ygan edi. Otasi doim uni: “Odamni ko‘tarib uchib ketadigan burgut bo‘ladi, u kechasi uchadi”, deb qo‘rqitar, qiz sho‘rlik shunga ishonar edi. Polvon faytonga sakrab tushganda, o‘sha kechasi uchadigan burgut bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, bo‘layotgan gaplarni chala-chulpa ilg‘ab, endi panjalariga ilib, osmonga olib chiqib ketsa kerak, deb qo‘rqib yotardi.

Tanasiga hadeganda burgut panjasi botavermagach, qiz bunday ko‘zini ochib qarasa, yonida birov o‘tiribdi. Qiz bechora uni kucher bo‘lsa kerak deb taxmin qildi.

— Bu kim?! — dedi u tili gapga kelib.

— Cho‘loq polvonman!..

— Cho‘loq polvon?! Voy o‘lmasam, — dedi-da, qizning uni chiqmay qoldi. U tag‘in o‘zini yo‘qotib qo‘ygan edi.

Cho‘loq polvon bunday orqasiga o‘girilib qarasa, oq bo‘z ot ham fayton ketida yo‘rtib kelayotgan ekan. Orqasida oq bo‘zdan boshqa hech zog‘ yo‘qligiga ko‘zi yetgach, Polvon faytonni soy tomonga qarab burdi, siyrakroq qarag‘ayzor orasiga kirganidan so‘ng otlarni to‘xtatdi. Oq bo‘z ham to‘xtatdi.

Ko‘zlari to‘rga tushgan qushday javdirab o‘tirgan qizga Polvon bor gapni tushuntirishga harakat qildi. Qiz ham sal o‘ziga kelib, fikrini bayon qildi. Uning gaplaridan Polvonning tushungani shu bo‘ldi:

— Men sizni yaxshi bilaman. Mard yigit ekanligingizni ham bilaman. Men siz to‘g‘ringizda yaxshi fikrdaman. Meni olib qochishingiz to‘g‘ri-yu, biroq qo‘yib yuboring! Men sizning ham-

ma gaplaringizni, istaklaringizni dadamga yetkazaman. Dadam mening aytgan chizig'imdan chiqmaydi. Qamoqqa olingan qarindoshlaringiz ozod qilinadi. O'zingizga ham hech daxl qilmaydigan qilib dadamdan hujjat olib beraman. Ishonmasangiz ertaga uyimizga keling! Agar va'damda turmasam, meni odam o'rnida sanamang! Shundan so'ng, mayli, o'ldirsangiz ham roziman! Men yoshman, yolg'on gapirishni bilmayman, ishoning gaplarimga!

Polvon Tatyananing gaplarini tugal tushunmasa-da, hayajonidan nima deyayotganini angladi. Biroz o'ylab o'tirdi-da:

— Yo'q, bo'lmaydi! — dedi.

— Nima uchun? — dedi hayron bo'lib qiz.

— Otang sening gapingga kirmaydi. Uni zo'rlab ko'ndirish kerak.

— Qanday qilib?

— Seni qarag'ayzor orasiga olib ketib...

Endi qizning Cho'loq polvonga yolvorishdan ma'no yo'qligiga aqli yetdi.

Haqiqatdan ham Cho'loq polvonni qozoq xalqining ritsari deb biladigan qizning ko'ngli birdaniga sovidi, u endi Polvonni qora niyatli, rahm-shafqatni bilmaydigan odamlar qatoriga qo'shdi. Shunday bo'lsa ham umidini uzmadi, tag'in kishi rahmini keltiradigan gaplarni aytib ko'ray, deb og'iz juftlagan ham ediki, qarag'ayzor orasidan kimningdir sharpasi sezildi. Polvon ham, Tatyana ham yalt etib qarashdi.

— Menman! — dedi haligi sharpa qozoqchalab.

Bu — Polvonning Ko'kchatog'dagi do'sti edi. Agar Polvon qizni qo'lga tushirgudek bo'lsa, u bilan shu joyda uchrashmoqchi bo'lib kelishishgan, qiz tanib qolmasligi uchun yuzini ro'molcha bilan o'rab kelmoqchi bo'lgan edi.

Do'sti atrofda hech zog' yo'qligini aytganidan so'ng, Polvon qo'sh otni faytondan chiqardi-da, bittasini qarag'ayga o'ralib qolmaydigan qilib bog'ladi, ikkinchisini do'stining egar-jabdug'i bilan egarladi. So'ng Polvon uyezd boshlig'iga musulmoncha qilib yozib tayyorlab qo'ygan xatni do'stining qo'liga tutqazib, uni pochta qutisiga tashlashni iltimos qildi.

Do‘sti xatni cho‘ntagiga solib, yaydoq otini minib jo‘nab ketdi. Polvon egarlog‘lik arg‘umoqni qizga ko‘ndalang tutdi. U qarshilik qilmoqchi edi: “E, endi sen bilan adi-badi aytishib turaymi!” deb dast ko‘tarib otga mindirdi-da, o‘zi oq bo‘zga mindi. U qiz mingan otning tizginidan yetaklab jo‘nab ketdi.

Dahshatli xat

Uyezd boshlig‘i qizining yo‘qolganini yarim kechada bilib, qidirish uchun ketgan odam topolmay kelgandan so‘ng dahshatga tushib, politsmeysterni oldiga chaqirib, butun shaharni ag‘dar-to‘ntar qildirdi. Lekin baribir qizni topisholmadi!

Uyezd boshlig‘ining jon-poni chiqib, yarim kechada cherkov qo‘ng‘irog‘ini jaranglatdi. Bunday paytda cherkov qo‘ng‘irog‘i faqat yong‘in chiqqanda chalinardi. Uyquda yotgan shahar ahli qo‘ng‘iroq tovushini eshitib qo‘rqib ketdi. Ular yong‘in bo‘ldi deb o‘ylab, uylaridagi bor narsalarini ko‘chaga tashiy boshlashdi. Ba’zi ot-ulovi borlar qimmatbaho narsalarini aravalariga yuklab ko‘l bo‘yiga qarab qochishdi.

Shaharning bor moli ham, joni ham ko‘chaga chiqdi: itlar dahshatdan huridi, mollar ma’radi. Shahar ichi qiy-chuv, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketdi.

Nega deganingizda, bundan o‘n-o‘n besh yil ilgari shaharga o‘t ketib, hamma yoqni tep-tekis qilib yondirgan bu voqea hali xalqning esidan chiqmagan edi.

Cherkov qo‘ng‘irog‘i zarbidan cho‘chib uyg‘ongan odamlar bunday o‘ziga kelib qarashsa, xayriyat, yong‘in bo‘lmagan ekan. Keyin ular sekin-asta cherkov atrofiga to‘planisha boshlashdi. Odamlar uyezd boshlig‘ining qizi yo‘qolganini bir-birlariga shivirlashib gapirardi. Politsaylar to‘planganlarga qisqacha axborot berdi:

— Shahrimizda baxtsizlik yuz berdi. Janobi oliylari uyezd boshlig‘i Terentiy Dyakovich Dolgonosovning farishtaday qizi — Tatyana o‘g‘irlandi. Shuni qidiryapmiz. Buni politsiya boshqarmasining boshlig‘i Siskin baqirib aytdi.

— Shunga shuncha vahimami? — deb to'planganlar tarqalisha boshlagan edi, gorodovoylar ularni tarqalishga qo'ymadi.

Shunday bo'lsa ham odamlar birin-ketin sitilib qochib qolishdi.

Bir mahal odamlar tag'in chuvullashib:

— Nima gap? — deb qolishdi.

— Kucher bilan ot topilibdi!

— Qayerdan?

— Bilmadik.

Politsiya boshlig'i tag'in baqirib jar soldi:

— Kucher chalajon holda topildi. Faytonga qo'shig'lik bir ot qarag'ayzor ichida turgan ekan. Bitta ot bilan Tatyana yo'q. Bu ish Cho'loq polvondan boshqa odamning qo'lidan kelmaydi. U shu atrofdan uzoqlashib ketmagan bo'lsa kerak. Qidiramiz. Topamiz!

Tevarak-atrofga choparlar yuborildi. Uy-uyiga tarqalishib ketishayotgan odamlar bir-biri bilan gaplashar edi:

— Agar shu ish Cho'loq polvonning qo'lidan kelgan bo'lsa, haqiqatdan ham u mard yigit ekan!..

— "Qo'rqoqni ko'p quvlasa, botir bo'lib ketadi" degan gap bor. Hukumat uni mard bo'lmasligiga qo'ydimi? Hadeb tinchligini buzavergandan so'ng nima ham qilsin.

— Tanasida or-nomusi borki, shunday qilgan, bo'lmasa, sen bilan biz uyezd boshlig'ining qizini olib qochishga jur'at qila olarmidik?

— Haqiqatdan ham toshga chopsa mayishmaydigan toza po'lat ekan! Tinchligini buzgan sayin o'chakishayotganini ko'rdingmi?

— Qizni nima qilar ekan.

— O'chakishgan odamning qizini nima qilishi.. ma'lum-ku, axir. O'ldiradi-ketadi.

— Cho'loq polvon judayam unday qiladigan yigitlardan emas. Mana, ko'rib turarsan, shu qizni ota-onasining qo'liga eson-omon topshiradi.

Shahar ahli kechasi bilan shu kabi taxminiy gaplarni gaplashib chiqishdi. Uyezd boshlig'i ham, uning xotini ham uxlayolmadi. Xotini eriga:

— G'ayratli, nomusli yigit deb maqtaganing-maqtagan edi! Mana, nomusli yigitning qo'lidan kelganini ko'rib qo'y!.. U shu

ishi bilan tinib-tinchib qo'ya qolmaydi hali! Bundan ham battarini qiladi! Hali qarab tur, bir emas bir kun uy ichimiz bilan qirib tashlaydi! — deb dag'dag'a qildi.

— Bizlarni nima qilsa ham rozimiz, ammo Tatyanaga tegmasa tuzuk bo'lardi! — deb yig'ladi uyezd boshlig'i.

Haqiqatdan Terentiy qizini jonidan ham ortiq yaxshi ko'rar, uni o'zining baxti deb bilardi. Qizni qidirishayotganlar kechasi bilan shahardan dalaga, daladan shaharga zuv qatnashdi. Lekin hech qanday darak topisholmadi.

Kechasi bilan mijja qoqmay bo'zlab chiqqan uyezd boshlig'i tong otishi bilan qahriga mindi. Qizning daragi chiqmagach, butun shaharni ag'dar-to'ntar qildi, kimki Cho'loq polvonga yaqin bo'lsa hammasini uyezd saroyiga olib kelib qamadi.

Qamalganlar orasidan muomalaga tushunadiganlarini oldiga chaqirib:

— Hozircha men senlarni ozod qilaman. Bugun kechagacha yerdan topsanglar ham, ko'kdan topsanglar ham qizimni qo'limga olib kelib topshirasanlar! Cho'loq polvonni ham ushlab kelasanlar! Agar shunday qilmas ekansanlar, hammalaringni dorga ostiraman, umrlaringni surgunda chiritaman! — dedi.

Shu dahshatli buyruqdan so'ng odamlar har tomonga chopib ketganda, choshgoh paytida Dolgonosovning qo'liga arab alifbesida yozilgan bir xat kelib tushdi.

Dastlab Dolgonosov bu xatga uncha ahamiyat bermadi, chunki unga bunaqa xatlar ko'p kelib turar, ba'zilarida uni boplab so'kar, ba'zi xatlarda esa: "Biz seni o'ldiramiz!" deb do'q qilinar edi. Dolgonosov u xatlarni Sutemganga ochdirib o'qitar edi-da, u arzmi yo boshqa ma'nodagi xatmi, yirtib-yirtib tashlab yuborar, yo esa: "ma, o'tga tashla!" deb buyurar edi.

Qizini yo'qotib, jahl ustida o'tirgan Dolgonosov xatni ochib qarasa, arabcha yozilgan ekan, u avvaliga yirtib tashlamoqchi bo'lib:

— Ma, o'tga tashla! — deb bo'sag'ada o'tirgan Sutemganga qarab uloqtirdi.

Sutemgan konvertni olib, tashlab yubormoqchi bo'lib tashqariga chiqar ekan, "kim yozgan ekan?" deb xatning oxiriga ko'z tashladi.

Ilon ushlab olganday jon-poni chiqib ketdi. U dir-dir titrar edi. Uning bu ahvolini sezgan Dolgonosovning xotini:

— Nima gap, nima bo'ldi? — deb so'radi.

Sutemgan uni "barina" deb atardi.

— O'y barina! — dedi u tovushi qaltirab. — Yomon odamdan kelgan xat...

— Kimdan? — deb so'rashdi bir necha odam baravariga.

— Cho'loq polvondan...

Qo'rqib ketgan ulug'lardan bittasi Sutemganga, o'qi, deb buyurdi. Dolgonosov ham, o'qi, demoqchi edi-yu, xatning nima haqidaligini sezib, uni chiqmay qoldi. Sutemgan xatni ichida o'qib chiqdi. Unda bunday deb yozilgan ekan:

"Sen itning bolasi — uyezd, necha yildan beri menga tinchlik bermaysan. O'zing tegmaganing bilan sudyangni, boshqa hamtovoqlaringni orqamga solib qo'yding. Yerimni tortib olgan ham sen! Ovulimga o't qo'yib yondirgan ham sen! Molimni barimtaga bosib olgan ham sen! Nega muncha ketimga tushib qolding, nima, men sening otangni o'ldirdimmi, onangni...

Mana men qizingni olib qochib ketdim. Sababi — sen mening qarindoshlarimni, do'st-yorlarimni begunohdan begunoh qamading. Esingda bo'lsin, uyezd, agar begunoh odamlarni ozod qilmasang, qizingni cho'chqaning bolasiday chinqirtirib azoblayman. Yaqin do'stlarimga, qarindoshlarimga berayotgan har bir azobing evaziga qizingning bir muchasini kesib tashlayman. Bordi-yu, ularga tegmasang, men ham tegmayman. Men senga yalinmayman, itning bolasi! Gap shu! Nima qilsang ham o'zing bilasan. Qamalganlarni ozod qilib, bundan so'ng hayotingga dahl qilmayman, deb muhrlangan hujjat ber. Ana shundagina qizingni bo'shataman. Shunday qilmagan taqdiringda qizing bilangina qutulolmaysan. Jon uchun jon olaman.

Hamma yoqni titib yuborsang ham meni topolmaysan. Bordi-yu, o'chakishsang, yaqin kunlarda o'zingni ham o'g'irlab ketaman. Endi men senga yalinmayman, sen menga yalinasan. Gapim shu!

Begunohdan begunoh meni qon-qaqshatgan eding. Qashqirday ulitib, itday g'ingshitdimmi! Hali ko'radiganing ko'p!

"Cho'loq polvon"

Bu xatni o'qigan Sutemganning uni tarjima qilib berish uchun tili ham aylanmadi, jur'ati ham yetmadi. Ikki ko'zi kosasidan chiqib ketguday bo'lib, qotib:

— Gapir! — dedi unga uyezd boshlig'i.

Sutemagan: "Go-go-gos-po-din!" dedi-yu, bu yog'ini aytolmadi, yig'lab yubordi...

Bu xonadonga shaharning obro'li rus-kazaklari ham to'planishgan edi. Ular orasida qozoqlar "Tulki mo'ylov" deb atab kelgan Karobkin degan chol ham bor bo'lib, u qozoq tilini yaxshi bilar edi.

— Nega bo'shashib turibsan? — dedi Tulki mo'ylov Sutemganga. — Sen o'qi, men tarjima qilib beray!

Sutemganning ustidan bamisoli tosh ag'darilganday bo'ldi, u o'zini yoqotib qo'yib, xatning: "Sen itning bolasi — uyezd" degan joyini o'qib yuborganini bilmay qoldi.

— O'-ho'! — dedi Tulki mo'ylov ko'zlarini katta-katta ochib. — Juda zo'r boshlabdi-ku?

— Nima debdi?

— Shunchaki, beboshlar aytadigan so'z, — dedi Tulki mo'ylov uyezd boshlig'iga. — Bu yog'ini o'qi, Sutemgan!

Tulki mo'ylov Sutemgan o'qigan har bir jumlani bitta-bittalab tarjima qilib berdi.

Xatdagi gaplardan uydagi odamlarning, ayniqsa, Terentiy Dyakovich bilan uning xotinining quti uchib ketdi.

— Bo'shat! Tez bo'shat!.. Tez bo'shat!.. — deb baqirdi xotini Dolgonosovga. — Tez bo'shatmasang, xarob bo'lamiz!

U shunday dedi-da, ko'zlari olayib o'zini bilmay qoldi. Shu uyda o'tirgan uyezd doktori dori hidlatib, uni bazo'r o'ziga keltirdi.

Boshiga changak urilgan baliqday u yoqdan bu yoqqa chayqalib yurgan uyezd boshlig'i yonidagi odamlar bilan maslahatlashgan edi:

— Bo'shatish kerak, — dedi ular. — Endi unga o'chakishmaydigan bir chora topish kerak. Agar o'chakishadigan bo'lsak, yo o'ladi, yo aytganini qiladi.

Ko‘kchatog‘ ko‘ksida

Bu dunyo qanday dunyo? Kulki dunyo!
Ming tovlanib tog‘dan qochgan tulki dunyo!

(Cho‘loq polvonning o‘z she’ridan.)

Cho‘loq polvon Tatyana mingan otni yetakka olib, to‘g‘ri Ko‘kchatog‘ga qarab ketdi. Shahardan Ko‘kchatog‘ yetmish chaqirim edi. Tong otguncha tog‘ga yetib borishini bilgan Polvon otlarni ko‘pam qistamadi.

Tatyana salt otda sayr qilishni yaxshi ko‘rardi. U O‘mba shahridan dadasiga yozgan xatlarida: “Oh, otajon, salt otga minib sayr qilsam...” der edi. U har yili yozgi ta’tilga kelganida salt otga minib sayr qilardi. Faytonda sayr qilishni shu bu yil odat qildi. U Turgenev romanlarini ko‘p o‘qirdi, shuning ta’siri bo‘lsa ajab emas...

Cho‘loq polvon uni salt otga mindirib chopa jo‘naganida, dastlab boshi aylanib, yiqilib tushayozgan edi, sal yurgach o‘zini o‘nglab oldi. Yozning so‘lim oqshomida, oldidan mayin shabada esib turganda salt otda yurish uning uchun bir rohatdek edi.

Tatyana iliq oqshomda, yuzlarini mayin oqshom shabadasi silab otda yo‘rtib kelarkan, boyagi xavflardan xoli bo‘lib, sal o‘rganganday bo‘ldi. U Polvonga nimalardir demoqchi bo‘lib, otini qistab unga yetib yonma-yon ham yurdi, biroq og‘iz ochib bir nima deyishga jur’at qilolmadi, go‘yo bir nima desa, yo‘rtib ketayotgan yo‘lbars hurkib ketadiganday tuyuldi unga.

Polvon miq etmasdi. Uning o‘tkir ko‘zlari uzoqlarda qorayib ko‘ringan Ko‘kchatog‘ga tikilgan, maqsadi tezroq Ko‘kchatog‘ga yetib olib, uning ustiga tezroq chiqish... U hozir atrofdagilarni unutganday, go‘yo hozir bir o‘zi ketayotganday sekin xirgoyi boshladi-yu, qiz esiga tushgach, qimtinib og‘zini yumdi. Tatyananing oti ba’zan oq bo‘zga ilasha olmay tortinar, Polvon esa ot jilovini siltab, qizni qatorga qo‘shib olardi...

Bunaqa yurishda, agar qiz payt poylab, etovga olgan chilvirni kesib qochib ketsa, ehtimol. Polvon sezmay qolgan ham bo‘lar edi.

Tongga yaqin yarim oy tug'ildi. Kun chiqish tomondan Ko'kchatog' ko'zga yaqqol tashlandi. Bunday razm solib qarasa, mo'ljallangan joyga yetishlariga oz qolibdi.

Polvon otini tejab, asta Tatyanaga qaradi. Buqpadan chiqqanidan beri birinchi qarashi edi. Tatyana oy nurida Polvonning ko'ziga dunyodagi eng go'zal qizlardan biri bo'lib ko'rindi. "Jannat bor, jannatda hur qizlar bor, hur qizlar quyoshdan ham go'zal bo'ladi", degan gaplarni Polvon kitoblardan o'qigan, ularni bir ko'rishni orzu qilardi. Tatyana hozir uning ko'ziga o'sha hur qizlarning biri bo'lib ko'rindi. U Polvonning ko'ziga osmondagi oydan ham go'zalroq, nurliroq bo'lib ko'rindi. Qizning yalang boshidagi oltin rang sochlari unga endi chiqib kelayotgan quyoshning zarrin nurlaridek tuyuldi.

Polvon qizga tikilgan sayin qiz unga ma'qul bo'la boshladi. "Otda chiroylik o'tirar ekan, — deb o'yladi Polvon. — Qara, gavdasini tik tutib o'tiribdi!.. Mag'rur..."

Polvon shu xayol bilan Shabaq posyolkasiga yetib qolganini sezmadi. Bu mahal xo'rozlar qichqirig'i o'tib, itlar hura boshlagan edi.

Ko'kchatog'ga olib boradigan yo'l shu yerdan ikkiga ayrilar edi: yo'lning biri — Shabaq ko'lining orqasi, Ko'kchatog'ning kungay tomonidan, O'qyetmasning pana tomoniga qarab ketadi; biri — Ko'kchatog'ning teskari tomonidan, katta shabaq ko'li bo'ylab O'qyetmasning old tomoniga olib chiqadi. Pana tomonidagi yo'l ham yaqin, ham o'ng'ay biroq bu yo'l posyolkaning qoq o'rtasidan kesib o'tadi:

"Xo'rozlar qichqirishyapti, demak, tong otib qolibdi. Bu paytda posyolkaning odamlari uyg'onishadi. Mabodo qiz dodlasa, posyolkadagilar o'rab, tutib olishi mumkin!" — deb o'yladi Polvon.

"Teskari yo'ldan yursam — olis, buning ustiga tog'ga chiqish qiyin, — deb o'yladi tag'in Polvon. — Bu yo'l bilan tog'ga chiqaman degunimcha tong otib qolishi mumkin!"

Oxiri: "Tavakkal, — qaror qildi Polvon, — posyolkaning o'rtasidan yulduzday uchib o'taman! Kim biladi deysan? Bilganda nima ham qilisha olardi?"

Polvon Tatyananing otini o'ziniki bilan qatorlashtirib oldi-da, chopgan bo'yi posyolkaga kirib ketdi. Ularga ko'chadagi itlar hurib, qo'shilisha chopishdi. Posyolka uylari derazalaridan chiroqlarning nurlari ko'rina boshladi. Kimlardir: "Hoy, bu kim?" deb qichqirishdi. Cho'loq polvon ularga e'tibor ham bermay ko'chadan chopgan ko'yi o'tib ketdi.

Posyolkadan chiqqanidan so'ng orqamizdan quvlab kelayotganlar yo'qmikan, deb orqasiga burilgan edi, bir-ikkita it halloslab kelayotganini ko'rdi, boshqa hech kim ko'zga chalingani yo'q.

Polvon posyolkaga kirganda qiz dod soladimi, deb cho'chigan edi, bunday bo'lmadi, u go'yo to'yga ketayotganday, otini Polvon bilan qatorlashtirib chopib o'tib ketdi.

Shabaq posyolkasi shundaygina tog'ning etagiga joylashgan, tog' etagidagi qalin qarag'ayzor posyolkaga tiralib o'sib yotar edi.

Ular posyolkadan chiqishlari bilan qarag'ayzor ichiga sho'ng'ib ketishdi. Yo'l tog'ga qarab o'rlay boshladi. Qo'shaloq bo'lib turgan ikki tog'ning biri — O'rkeshti, ikkinchisi — Ko'kcha. Azim Ko'kchaning kun botish tomonida ixchamgina ovul bo'lib, uni "Oqilboy ovuli" deb atashardi. Bu ovulda yer ham, u yerda yoyilib yuradigan mol ham yo'q edi. Ovul odamlari tog'dagi qarag'aylarni qorovullab o'tirishadi, bo'sh vaqtlarida Shabaq ko'lidan baliq ovlashadi. Bu ovulning eng uddaburon odami Oqilboy bo'lib, u Polvon bilan yaqin edi.

Polvon bilan Tatyana Oqilboyning ovuliga tong oppoq otib qolganida yetib keldi. Ovul itlari bularning qarshisiga chiqib hura boshlaganda, kimdir ovuldan chiqib:

— Bu kim? — dedi.

Polvon indamay unga yaqinlashdi.

— Kimsan? — dedi boyagi odam tag'in.

— O'zing kimsan? — dedi Polvon.

— Iye, qiziq odam ekansan-ku, — dedi haligi odam. — Yo'lovchi yo'lini aytmay, avval ovul odami javob berganini qayerda ko'rgansan?

— Ko'rmasang endi ko'rasan!

Haligi odam "bu kim bo'ldi ekan?" deganday yaqinlashib keldi-da:

— Iye, Polvonmisan? — dedi.

— Sen Oqilboy emasmisan? — dedi Polvon.

— Ha, Oqilboyman.

Oqilboy otning tizginini ushlab, Polvonning qo'ltig'idan suyamoqchi bo'ldi.

— Tush!

— Tushmayman! — dedi Polvon.

— Ha, nimaga? Yoningdagi kim?

— Ot ustida gaplashdi deb xafa bo'lma. Yonimdagi — barimtam.

— Qayoqdan olib kelyapsan? — deb sinchiklab qaradi Oqilboy. — Barimtang odamga o'xshaydi-ku? Tag'in hazillashayotgan bo'lma, Polvon?

— Hazillashayotganim yo'q. Osilsang ham baland dorga osil, deyishadi-ku, olib kelganim Ko'kchatog' uyezdining qizi.

— Uyezdning?! — Oqilboy rus tilini yaxshi bilar edi, shuning uchun ham aniqlab bilib olmoqchi bo'lib: — Siz uyezdning qizimisiz? — deb so'radi undan.

— Ha, — dedi qiz tovushini kumushday jaranglatib, —men uyezd boshlig'ining qiziman, Terentiy Dyakovich Dolgonosovning!..

— Polvon sizni zo'rlab olib kelgani rostmi?

— Rost.

Oqilboy nima deyishni bilmay qoldi.

— Endi gap bunday, — dedi Polvon. — Ozgina tanishligimiz bo'lmasa, sen bilan sirdosh bo'lmaganman, biron marta ham senga ishim tushmagan. Endi tushungandirsan?

— Yo'q, tushunolmay turibman!..

— Tushunmasang, keyin tushunarsan. Xo'sh, qani ayt-chi, menga do'st bo'lishga yaraysanmi?

— O'zing nima deb o'ylaysan?

— Orqangdan seni mard yigit deb eshitgan edim. "Xonning ishi qoraga tushadi, mardning ishi bolaga" degan naql bor. Qisqasi, oldingga panoh tortib keldim.

— Unday bo'lsa, otdan tush! — dedi Oqilboy. — Tirik bo'lsang tepadaman, o'lik bo'lsang chuqurda.

— Yo'q, men bu yerga tushmay qo'ya qolay. "Botirga ham jon kerak". Ko'rib turibsan-ku, raqibim kuchli, ehtiyot bo'lishim kerak. Mana bu Ko'kchaning tepasiga chiqib ko'rmagan edim, chiqa olarmikinman? Chiqsam panaroq joy topilarmikan?

— Topaman. Odam bolasi topa olmaydigan joy topaman.

— Oting bormi?

— Bor.

— Bo'lmasa min, ketdik.

— Xo'p, hozir otimni egarlay, — dedi Oqilboy, — xotin-xalaj, bola-chaqaning og'zida gap turmaydi. Ko'rib qolishsa, gap-so'z qilishib yurmasin tag'in. Ovulda mendan boshqa hech kim uyg'onganicha yo'q. Sen mana bu ovul chetidan Ko'kchaga qarab ketaver, orqangdan yetib olaman.

Polvon jo'nab ketdi. Qiz qarshilik ko'rsatmadi.

"Bu qiz nimani o'ylab kelyapti ekan? — deb o'yladi Polvon. — Qarshilik ko'rsatmaydi yo gapirmaydi. Bu aqlliligimi yo aqlsizligimi?!"

"Qarshilik ko'rsatganim bilan qutulolmayman, befoyda, — deb o'ylar edi qiz, — undan ko'ra taqdir peshonaga solganini ko'ray. Otam aytganiday, yomon bo'lsa xo'rlab o'ldirar, odamlar aytganiday, mard yigit bo'lsa — boshqa bir o'yi bordir. Nima bo'lsa ham sabr qilay-chi!.."

Qorsarlar[1] va ritsarlar haqidagi Yevropa romanlarini ko'p o'qigan qizga bu sarguzashtning oqibati roman bilan tugaydiganday tuyuldi. Ammo uning uchun bu sarguzashtning oxiri qanday tugashi noma'lum edi...

Oqilboy Polvon bilan Tatyananing ketidan yetib oldi. Ular Ko'kchaning etagiga yetishganda tong otdi.

Birgina ingichka tor so'qmoq Ko'kchaning gavdasiga arqon kabi osilib turibdi.

— Tepaga shu yo'l bilan ko'tarilamiz, — dedi Oqilboy.

— Ot chiqa oladimi? — deb so'radi Polvon. — Juda tik ekan.

— Qiyinlikka qiyin, — dedi Oqilboy, — biroq, ehtiyot bo'lib yursa, chiqsa bo'ladi. Men oldinga tushay. Qizing o'rtada yursin. Otining tizginini menga ber. Sen orqasidan yur.

[1] Dengiz qaroqchilari.

— Ma'qul.

Oqilboy yo'l boshladi. Qiz o'rtada, Polvon orqada.

Polvon bilan Tatyana tog'ga o'rlaganlarida yo'lning juda tik ekanini his qilishdi. Agar ular egarning qoshiga yoki ot yoliga yopishib, oldinga engashmaganlarida, yiqilib tushishlari turgan gap edi.

Boya tog' etagida turib qaraganlarida Ko'kchaning boshi yaqindek tuyulgan edi, ilgarilagan sayin olislab ketgandek bo'lyapti. Tatyana pastga qaragan edi, boshi aylanib ketdi, so'ng u ko'zlarini chirt yumib, egarining qoshini mahkam ushlagancha, otining tizginini bo'sh qo'yib o'tiraverdi.

Oqilboy pastakkina to'riq biya minib olgan edi. Tekis yerda yursa oq bo'z bilan qora arg'umroqqa sira ham yeta olmaydigan ot-u, biroq tog'ga ko'tarilishda xuddi mushuk kabi o'rmalar, agar Oqilboy orqasiga qaramasa, Polvon bilan Tatyanani qoldirib ketadigan darajada tez yurar edi.

Avval tog'ga o'rlab ko'rmagan oq bo'z ham charchab qoldi. Qora arg'umoq esa oldiga biya tushganini ko'rib biroz o'qraygan edi, keyinroq "baytal tugul, bosh qayg'i" bo'lib, o'z gavdasini o'zi zo'rg'a eplaydigan bo'lib qoldi...

Qora ayg'ir bir necha joyda to'xtab qoldi. Bunday paytlarda Oqilboy ayg'irga dam berdi. Tag'in yo'lni davom ettirishganda, charchab qolgan ayg'ir, tog' o'rtalariga borganda pastlikka qarab dumaladi. Polvon chaqqonlik bilan qizni ot ustidan olib qoldi. Ot pastga qarab dumalar ekan, goh toshlarga, goh archa to'nkalariga borib urilar, xuddi rezinka koptok kabi sakrar edi.

— Yaqin qolgani bilan hali yo'lning qiyini oldimizda, — dedi Oqilboy ayg'irning qorasi ko'rinmay ketgach. — Ko'ngling qolmasin deb vahima qilmay qo'ya qolgan edim, Polvon. Bu yo'l shunday xatarli. Ho'sh, cho'qqining boshiga chiqasanmi, yo shu orada odam bolasi topolmaydigan joy bor, shunga panalaysanmi?

— Yurgan yo'limdan qaytgan joyim bormidi? — dedi Polvon. — Bu nima, turmadan yuragi olinib chiqdi, deganingmi?

— Yo'g'-e!

— Bo'lmasa ketdik. Mening otimga mina qolsin qiz.

— O'zing-chi?

— Yayov yuraman.

— Men sening aytganingni qilay, sen ham mening aytganimni qil. Mening otimga min!

Oqilboy otdan tushib, uni Polvonga ko'ndalang qildi.

— O'zing-chi?

— Ko'nglingga olma, polvonligingga, shoirligingga dovim yo'q, biroq tog'ga chiqishda sen menga tenglasha olmaysan. Xafa bo'lsang ham aytay, sen "Maqpal" bilan "Burgitti" tog'laridan boshqasiga chiqib ko'rmagansan. Tog' deb mana bu Ko'kchani aytsa bo'ladi! Bu — o'zgaga baland bo'lgani bilan menga past. Esimni taniganimdan beri har kuni chiqib tushaman bu tog'ga. Gapni ko'paytirma, mana bu otga min! Yo biyaga qanday minaman deb nomus qilib turibsanmi? Bu tog'da sening oq bo'zingdan mening shu biyam ortiq!

— Bo'ldi, taslim bo'ldim! — dedi Polvon.

Polvon biyaga, Tatyana oq bo'zga mindi. Haqiqatdan ham Oqilboy tog'ga chiqishga usta ekan. Otlarning oldiga tushib, lapanglab yetkazmay borar edi. Polvon ham, qizlar ham Oqilboyning bu yurishiga hayron qoldi.

Ular Ko'kchaning tepasiga chiqishganda kun tepaga kelgan edi. Shimoldan janubga qarab cho'zilib ketgan Ko'kchaning yon-verida tuya o'rkachiday cho'qqilar bo'lgani bilan kungay tomoni tik kesilib tushganday yaltiroq tosh ekan. Yuqoridan qaragan odamning boshi aylanadigan darajada chuqur, o'ng tomoni bilan so'l tomoni qalin qarag'ayzor.

Oqilboy boshlagan ingichka tor so'qmoqdan yurib, ular bir ovul sig'sa bo'lguday tekislikka chiqishdi. Bu maydonda xuddi qozonga quyib qo'ygan suvdaygina ko'lcha bor ekan.

— Shu ko'lning chuqurligi yuz gaz deyishadi, — dedi Oqilboy.

— Sathi uncha katta emas-ku, — dedi Polvon, — qayoqdan yuz gaz bo'lsin!

— Bir o'ris o'lchab ko'ribdimish...

— Ehtimol...

Ular gaplashib kelishar ekan, Oqilboy Polvonga yuzlanib dedi:

— Sen meni taniysan, men seni taniyman. Agar sening hojatingni chiqara olsam, o'zimni baxtiyor hisoblayman. Kel, do'st bo'laylik. Yo'q, dema.

Ular mangu do'stliklarining belgisi sifatida o'rnilaridan turib, to'shlarini to'shlariga qo'yishib, quchoqlashishdi.

Oqilboy Polvonning sog'-salomat ekanligini faqat ota-onasigagina aytishga, uyezd boshlig'ining bundan keyingi rejalarini yetkazib turishga, ovqat tashib turishga va'da berdi. "Keyingisini tag'in o'ylashib ko'ramiz" degan qarorga kelishdi ular.

— Xayr, Polvon! — dedi Oqilboy qaytmoqchi bo'lib otiga minayotganda. — Qushing qutlug' bo'lsin!..

Sinashuv

Ko'kchatog'ning shunday tepasida, tuya o'rkachiday bir tosh ustida Tatyana yolg'iz o'tirardi. Bu tosh ustidan qaragan kishiga ko'z ilg'ar joydagi hamma narsa ko'rinar edi.

O'tgan yili yozda, otasi maqtab qo'ymaganidan so'ng Tatyana Buraboyga safar qilib, tog' ichini tomosha qilgan, shunda O'qyetmasning cho'qqisi bu oradagi tog'larning eng balandiday ko'rinar edi. Hozir u Ko'kcha ustidan turib O'qyetmasni ko'rdi, qarasa u bir uyum tezakka o'xshab ko'rindi ko'ziga.

"Bu tog'ning atrofida saksonta ko'l bor", degandi o'shanda otasi Tatyanaga. Tatyana bu gapga ishonmagan edi. Hozir u Ko'kchaning atrofini tomosha qilib o'tirib, saksonta emas, yuz oltmishtacha ko'l borligiga amin bo'ldi: o'mroviga, ko'kragiga kumush taqinchoqlar qadalgan qozoq qizlarining baxmal nimchasiga o'xshaydi go'yo, yam-yashil dala ustida beti kun shu'lasidan yaltirab yotgan bir ko'l.

Ko'kchaning ustidan o'tirib qaralganda, uzoq-uzoqlarda, tuman ichida turganday boshqa tog'lar ham ko'zga tashlanadi, biroq u tog'lar ham Ko'kchaning oldida tog' emas, tepachalarga o'xshab ko'rinadi.

Ko'kchaning ustidan turib qaraganingda ko'zga tashlanadigan shaharlardan biri — Ko'kchatog'. Bu shahar tog' ustida turgan

kishiga, yetmish chaqirim uzoqlikda bo'lsa ham, yigirma-o'ttiz chaqirimcha bo'lib ko'rinadi. Shahar uylarining tunuka tomlari kun nurida tovlanib ko'rinib turadi, kechasi esa chiroqlari. Tatyana shaharning umumiy manzarasini ko'rib o'tirar ekan, o'zicha uning ko'chalarini, xiyobonlarini tasavvur qildi. U ba'zan tog' boshiga chiqib shaharning umumiy ko'rinishini tomosha qilar ekan, xayolan uning ko'chalarini oralaydi, uyiga boradi, ota-onasini quchadi, erkalaydi, o'padi...

U xayoli qochib ko'zlarini ochar ekan, bu erkaliklari rostakam emas, xayoliy ekanligini biladi...

Cho'loq polvon Tatyanani yeydigan ovim deb emas, ota-onasining yomonligiga yomonlik qilish maqsadida olib qochgani, uni tog' cho'qqisiga, "mabodo uyezd boshlig'i insofga kelsa, qaytarib beraman", deb olib kelgani bizga ma'lum. Tatyana ham dastlab Polvonning qo'liga tushganida o'zini bo'rining qo'liga tushgan to'qliday his qilganini, keyinroq uni Polvon salt ot bilan olib ketganida ko'nikib, taqdirga tan berish qabilida ish tutganidan ham xabaringiz bor.

Oqilboy bularni Ko'kchaning tepasiga olib chiqib qo'yib xayrlashib ketayotganida, Tatyana go'yo bir qadrdoni ketib qolayotganday, uning qorasi ko'rinmay ketguncha orqasidan tikilib turdi-da, yuzlarini bir yassi tosh ustiga bosib uzala tushib yotib, o'ksinib-o'ksinib yig'ladi.

Shu daqiqadan boshlab Polvonda Tatyanaga nisbatan rahm-shafqat hissi paydo bo'ldi, uni quchib erkalagisi, xuddi yosh go'dakka o'xshatib allalagisi, ko'z yoshlarini artgisi, nima uchun uni bu yoqlarga olib kelish sababini ochiq aytgisi, mening yomon niyatim yo'q, degisi kelib ketdi.

Polvon bu o'ylarini bundoq aql tarozisiga solib ko'rsa, bu ish o'ziga yengiltaklik bo'lib ko'rindi. "Olib qochishga olib qochdim, endi bu yog'iga odamgarchilik ko'rsatishga shoshilmayoq qo'ya qolay", degan to'xtamga keldi.

Shu xayolda u nariroqda turgan oq bo'z otining egar to'qimini olib: "Nima qilayotgan ekan?" degan fikrda, oyoq uchida yurib qiz yotgan joyga keldi. Qiz qimir etmasdi. Bunday qarasa, uxlab qolgan ekan.

Uyg'otib yubormaslik uchun Polvon yana oyoq uchida undan uzoqlashdi. Nariroqqa borib katta tosh ustiga cho'zildi-da, xayolga berildi.

"Ajab dunyo ekan-da, — deb o'yladi u. — Men yashayotgan dunyoda ojizlarni zo'rlar yeydi: tulki tovuqni, bo'ri qo'yni, burgut quyonni yeydi, deb ulardan gina qilamiz. Odam odamni yesa-chi? Axir bular ov emas-ku?.."

Polvon "nega odam odamni yeydi?" degan so'roqqa javob topolmadi. U dinga ishonar edi. Shuning uchun ham " Odam faqatgina Xudodan qo'rqishi mumkin. Biroq unday desam, nima uchun zo'ravonlar Xudodan qo'rqmaydi?.. Og'zida "Alloh, Alloh" deyishadi-yu, ojizlarning sho'rini quritishadi. Nega?.."

"Bunday qaraganda Xudodan qo'rqqan bo'lib, amalda pinagini ham bo'zmaydiganlarni nega jazolamaydi tangrim?" deb o'yladi Polvon. Biroq u tag'in bir jihatni o'ylab: "Zo'rligi, kambag'allarga o'tkazgan nohaq zulmi uchun jazolangan zo'ravonni hech kim ko'rgan emas.." degan fikrga keldi.

"Ular jazoni oxiratda oladi!" degan xayolga ham bordi Polvon. "O'-ho', ungacha hali ancha zamonlar bor! Bu dunyoda qaytmagan kek u dunyoda qaytganidan nima foyda?.."

Polvonning ko'nglida: "O'sha narigi dunyo, boringki, o'sha Xudoning o'zi bormikan?" degan savol tug'ildi-yu, biroq bu o'yim shakkoklik bo'lmasin tag'in, deb xayolini yig'ishtirb oldi.

"Attang, — deb g'ijindi u. — Kek degan narsa u dunyoda emas, bu dunyoda qaytadigan bo'lganidami!.."

U endi dunyoda adolat degan gap bormi yo yo'qmi, shu haqida o'ylay boshladi.

"Bor, adolat bor! — dedi u tovushini chiqarib. Birpas hayallab turgach, tag'in xayolini davom ettirdi. Agar adolat bo'lmasa nega xalq meni yaxshi ko'radi? Ular meni beg'araz yaxshi ko'rishadi-ku! Ular faqat menigina emas, ko'nglida kiri yo'q, xiyonati yo'q odamlarning hammasini yaxshi ko'rishadi-ku?.. Unday bo'lsa, chin ma'nodagi adolat xalqda emasmi? Tom ma'nodagi adolat bu!.. Rostgo'y adolat bu! Ular chamalari yetguncha himoya qilishadi bu adolatni, chamalari yetmagan joyiga iloji yo'q!.."

"Kuch" degan so'zning ma'nosini chaqishga harakat qilib ko'rdi Polvon. "Ko'pchilik qo'rqitadi, teran botiradi" degan maqol tushdi uning esiga. "Shu gap rost, — deb o'yladi u. — Agar meni ko'pchilik qo'llab-quvvatlamaganida, ovuldagi zo'ravonlar allaqachon yeb qo'yar edi meni... yeyisha olmadi-ku! Mendan emas, ko'pchilikdan hayiqdi-ku!.."

"Xo'sh, shunday ekan, nega ulug'lar... masalan, o'sha uyezd boshlig'i ko'pchilikdan qo'rqmaydi?.. — deb o'yladi tag'in Polvon. — Bildim. Ularning ko'pchilikni, xalqni qo'rqitadigan quroli — miltiq! Otbosarda qo'l bilan mushtlashib olishganimda qo'lga tusharmidim men? Xalq ham xuddi shunday. Ular ham o'sha miltiqdan qo'rqishadi. O'sha ulug'ning qo'lidan miltig'ini olib ko'r-chi, qo'lidan nima ish kelar ekan? Oyog'ini osmondan keltirib qo'yadi bu xalq!.."

"Xalqning qo'liga miltiq berilarmidi!" — deb armon qildi Polvon.

Polvon o'ylay-o'ylay o'yining tagiga yetolmay yotoq joyiga qaytib keldi. Bunday qarasa, Tatyana hali ham uxlab yotar edi. Polvonning boshida yana adolat bilan xiyonat — ikki qarama-qarshi fikr jo'sh urdi. "Qaysi birining aytganini qilishim kerak? — deb o'yladi Polvon. — Xiyonat qiladigan bo'lsam, mana bu qiz mening uchun tayyor oshdek gap. Uni bu yerda mendan ajratib oladigan hech kim yo'q.

Biroq bu ishim to'g'ri bo'larmikan?.. Taqdiri mening ixtiyorimda bo'lgan bir bechorani chinqirtirib ov misoli yeyishim odamgarchilikdan bo'larmikan? Yo'q, bu to'g'ri emas!.. U holda qopag'on itlardan farqim bo'lmaydi-ku!.."

Polvon: "Yo'q, men it emasman!" dedi. Uning tovushi o'zi ham sezmagan holda qattiq chiqdi. Tovushidan cho'chib o'rnidan turib ketdi, uxlab yotgan Tatyana ham cho'chib uyg'onib, esankirab pastlikka qarab qocha boshladi. Agar uni Polvon quvlab yetib tutib olmaganida, shu ketishida to'ppa-to'g'ri pastga qarab yiqilib tushgan bo'lar edi. Polvon uni bo'ri tutgan to'qliday dast ko'tarib olganda, qiz bechora qo'rqqanidan chinqirib yubordi.

— Qo'rqma, qo'rqma, — dedi Polvon uni yupatib. — Men yirtqich emasman, odamman.

Shundagina Tatyana o'ziga kelib Polvonga qaradi-yu, indamay qoldi. Shu topda Polvon unga eng mehribon, munis odam bo'lib ko'rindi.

Polvon qizni ko'targanicha boyagi o'tirgan tosh ustiga olib keldi. O'tqazdi, qo'lidan kelgancha ruschalab, nima uchun u bunday ishga qo'l urganini aytib berdi. Tatyana uni tushundi, hatto uning so'zlaridan ta'sirlanib, bo'g'in-bo'g'inlari bo'shashib ketdi... U avvalo Polvonning so'zlarini sinab tingladi, keyinchalik yig'lab tingladi...

Bir mahal qizga Polvonning ko'zi namlanganday tuyuldi, u ko'zlarini artib qarasa, Polvon haqiqatdan ham yig'lab o'tirgan ekan.

— Sizga nima bo'ldi?! — dedi qiz o'rnidan uchib turib. — Aqlli, mard bo'laturib siz yig'laganingizdan so'ng, kimlar yig'-lamasin? Qo'ying, sizning bu ishingizni ma'qullayman! Men sizni juda yuksak odam, deb bilgan edim, agar shu bahodan pastga tushgingiz kelmasa yig'lamang, arting ko'z yoshingizni!

Polvonga bu gaplar ta'sir qildimi, harqalay, o'ziga kelib, ko'z yoshlarini artdi.

— O'z qadrimga yig'layapman, — dedi u.

— Qadringizga nima bo'libdi?

— Ozod bo'lmaganingdan keyin bu hayotning nima keragi bor menga?

— Mening boshqalar bilan ishim yo'q, — dedi Tatyana. — Ishim bor bo'lgani bilan o'zganing xiyonatini to'g'rilashga qurbim yetmaydi. Sizning ham qurbingiz yetmaydi. Mening qurbim yetadigani faqat shuki, otamga gapimni o'tkaza olaman. Uning nomidan sizni ishontirib ayta olamanki, bundan buyon sizga hech kim xiyonat qilmaydi. Gaplarimga ishoning.

Polvon indamadi.

— Ishonishingizni so'rayman, — dedi Tatyana o'rnidan turib. — Otamga gapimni o'tkaza olaman. Agar xohlasangiz siz bilan bir umrlik do'st bo'lishga tayyorman...

— Ko'ramiz, — dedi Polvon o'rnidan turib. — Og'izdan chiqqan gap — otilgan o'q. Lafz degan narsa qimmat turadi. Do'st

bo'laman desangiz, mening qarshiligim yo'q, unday kishiga quchog'im ochiq!..

To'g'risini aytganda, Polvon Tatyananing gaplariga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qoldi. Ishonmay desa — hali bu go'dak, go'dak turib yolg'on gapirishni qayoqdan biladi, deb o'yladi, ishonay desa — dushmanining qizi... Bu dushmanlikning oqibati nima bilan tugashi noma'lum. Ehtimol, qiz o'z va'dasining ustidan chiqar. Biroq otasi qizining gapiga kiradi, deb kim kafil bo'la oladi? Bordi-yu, qizining gapiga kirsa nur ustiga nur. Bordi-yu, kirmasa-chi, unda nima bo'ladi?

Polvon qizni bir kun emas, bir necha kun sinab ko'rmoqchi bo'ldi.

Polvonning sinovidan Tatyana ham, Tatyananing sinovidan Polvon ham yaxshi o'tdi. Tatyana dastlab, Polvonning do'st bo'laman, deb qat'iy aytmaganidan alami ichida, "oqibati nima bo'lar ekan?" deb cho'chidi. "Agar shunday bo'lsa bugun kechasi ma'lum bo'lishi mumkin, bordi-yu shu kechadan eson-omon o'tsam, unda Polvonning odamgarchiligi zo'r bo'lgani". Polvon esa: "Agar bu qizning boshqa niyati bo'lsa, shu kecha meni uxlatib qo'yib qochishi mumkin", deb shubha qilgan edi.

Oqilboy ovqatni kun botish oldida olib keldi. U Polvon uchun sur go'sht bilan qimiz, qizga esa non bilan qaymoq keltirdi.

Ovqatlanib o'tirib Polvonning qizga bo'lgan ishonchi ortdi. Qiz azbaroyi qorni ochgani uchunmi yo Polvonning ishonchini qozonay dedimi, harqalay, Polvonning dasturxonga qilgan taklifini ikki qilmay kelib o'tirdi-da, sho'x-sho'x gaplar bilan ularni kuldirib, qornini to'ydirib oldi. Boya Oqilboy qizning qovog'i solinib ketganini ko'rib: "Bu bechoraning holi nima kechar ekan", deb achingan edi. Endi uning chiroyini ko'rib, "ikkalasi kelishib qolganga o'xshaydi", degan fikrga keldi.

Oqilboy otiga o'ngarib ko'rpa-yostiq ham ola kelgan edi. U ketgach, Polvon toshlar orasidagi salqin joyga to'shakni soldi-da:

— Endi sen biroz dam ol! — dedi Tatyanaga.

— Siz-chi?..

— Men keyinroq...

— Qayerda?

— Toshlar orasida o'rin ko'p.

— Hozir nima qilmoqchisiz?

— Manovini ermak qila turaman, — deb u Oqilboy olib kelgan do'mbirani ko'rsatdi.

— Yaxshi chalasizmi? — deb so'radi Tatyana.

— Bilgancha.

— Sizni odamlar o'lanchi, oqin deyishadi, shu gap rostmi?

— Albatta.

Ular tosh ustida, uzoqroq-uzoqroq, qator o'tirishdi. Polvon qarag'aydan yasalgan ko'hnaroq do'mbirani qo'liga olib, sozlab, kemtik barmoqlari bilan asta cherta boshladi.

Kuy Tatyananing qalbiga iliq tegib, nafasini birpasgina ichga yutib jim o'tirdi-da:

— Endi itimos, jo'r bo'ling? — dedi.

— Mayli, — dedi Polvon. — Biroq aytadigan o'lanim bu kuyga tushmaydi-da, boshqa...

— Qanaqa boshqa?..

— Oshig'imga atab to'qiganim...

— Yanglishmasam, oshig'ingizning ismi G'aliya bo'lsa kerak? — dedi Tatyana Polvonga qarab jilmayib.

— Qayoqdan eshitdingiz?

— Bu gapni o'zingiz o'lan bilan aytib berishingizni iltimos qilaman.

— Xo'p bo'ladi!

Polvon "G'aliya" degan o'lanini ayta boshladi:

Xat bitaman, G'aliya, senga atab,
Izzatingni, hurmatingni bajo aylab.
Ahyon-ahyon ko'zginamga bir ko'rinsang,
Qorga ag'nagan tulkiday qolaman yayrab.

Haqiqatdan ham Polvonning ovozi shiralimi yo tog' orasi, qalin qarag'ayzor ichi aks sado berdimi, harqalay, uning tovushi Tatyanaga sehrliday tuyuldi. Uning tovushiga butun koinot jo'r bo'lganday, bu jahonda uning ovoziga teng keladigan yo'qday, shu keng jahonga bu o'lan zo'rg'a sig'ib turganday tuyuldi Tatyanaga. Naqadar ajoyib kuy!.. Naqadar ajoyib ovoz bu!..

Ikkalasi ham shu kuy sehriga berilib kech kirib qolganini ham sezishmay qoldi.

— Endi dam olaylik, — dedi Polvon do'mbirasini yoniga suyab.

— Yana, Polvon!

— Har narsa ham me'yorida bo'lgani yaxshi, Tanayjon! — dedi Polvon. (U Tatyana deyish o'rniga Tanyajon degan so'zning og'ziga qanday tushib qolganini ham sezmadi. Tatyana esa bu so'zni tushunmagani uchun unchalik ahamiyat bermadi.) — Me'yordan oshib ketsa har qanday shirinlik ham me'daga tegadi. Buguncha shuning o'zi kifoya. Qolganini ertaga aytib berarman.

— Yaxshi! — dedi Tatyana.

Polvon uyg'onib qarasa, kun yorishib ketibdi. Qarag'aylar orasidan quyoshning zarrin nurlari tushib turibdi... Tatyana esa pish-pish qilib bir chiroyli uxlab yotibdi... U yonboshlab yotar edi, quyosh yuziga tushib, aslida chiroyli yuzi yana ham nurlanib ketdi...

Polvon do'stlikni buzmadi. Tatyana esa, Polvonning halolligi uchunmi, yo yoshlik qilibmi, yoki shu kungacha hech kimni sevmagani uchunmi, biroz vaqt o'tgach, unga mehri tushib qolganini his qildi. U bu sirini tashqariga chiqarolmay, o'z yog'iga o'zi qovurilib yurganida, Polvon unga:

— Sen bugun uyingga qaytasan! — dedi.

— Qayoqqa?!

— Uyingga...

Polvon Tatyanaga otasidan xat kelganini, xatda otasi "Polvonning turmadagi hamma qarindoshlari ozod qilinganini, agar qizimni eson-omon qaytarsang, senga ham tegmayman", deganini aytibdi. Tatyana bu xabarni eshitib xursand bo'ldi. U Polvondan iltimos qildi:

— Meni uyimizga o'zingiz olib borib, ota-onam bilan do'stlashib qayting.

— Afsuski, bu iltimosingni bajo keltirolmayman, — dedi Polvon.

— Nega?

— Do'st tutinish — bu yurak ishi. Sirdosh bo'lmagan odam bilan qanday do'st tutinaman?

— Ota-onamga ishonmaysizmi?

— Nima uchun?

— Bu juda uzoq hangoma, do‘stim, buni senga aytib o‘tirishning keragi ham yo‘q. Endi senga kelganda... agar shartingda tursang, ehtimol, bundan so‘ng yo uchrasharmiz, yo uchrashmasmiz. Bir-birimizga ishimiz tushar, yo tushmas — do‘st bo‘laman dedimmi, men lafzimda qattiq turaman. Shu vaqtgacha sening sha’ningga dog‘ tushiradigan biror nojo‘ya harakat qilmaganligim bu gapimni tasdiqlaydi.

Bu gaplarni eshitib Tatyana indayolmay qoldi: Polvonning o‘z so‘zida turadigan yigit ekanligiga uning ko‘zi allaqachon yetgan. Agar yetmaganida u hoziroq: “Men sizni sevaman”, degan gapni hech ikkilanmay aytgan bo‘lar edi. Bu gapni u Polvonga kechasi, Ko‘kchatog‘ shahrining ko‘chasida, o‘z eshigining oldida aytdi. Ular shaharga yarim kechada, odamlar mast uyqudalik mahalida kirib kelishdi. Ularni olib kelgan ikki ot ham Polvonniki.

Shu bugungacha ham Polvonni uyiga olib kirishga ko‘ndira olmagach, Tatyana eshiklari oldiga kelganda uni boshqa qistamadi.

Polvon Tatyana minib kelgan otning tizginini qo‘liga olib:

— Xo‘sh, Tanayjon, omon bo‘l! — dedi qo‘lini cho‘zib. Tatyana unga qo‘lini uzatish o‘rniga ko‘ksiga boshini qo‘yib, ko‘zlarini mo‘ltiratib, erkalandi:

— Og‘ajon!

— Labbay, Tanayjon?

— Endi siz menga bag‘ishlab yaratgan “Tanayjon” degan o‘laningizni unutasiz... — dedi yig‘lamsirab.

— Qo‘shiqni unutib bo‘ladimi, Tanayjon? Tag‘in buning ustiga ikkinchi misrasida “Tanda mening jonim-ey” degan joyi ham bor-ku?

— Bor...

— “Jon” degan so‘zing nima ekanini bilasanmi?

— Bilaman.

— Unday bo‘lsa, tanamda jonim bor ekan bu so‘z unutilmaydi.

— Ishonaman, og‘a!.. Men ham hech qachon unutmayman, ilgari bunday voqealarni romanlardagina o‘qir edim, siz uni hayotda ko‘rsatdingiz! Sizga katta rahmat! Men endi dunyoda yaxshi

odamlarning borligiga, do‘stlikka, muhabbatning mavjudligiga ishonaman...

— Xayr bo‘lmasa, sevikli Tanyajon! — dedi Polvon birpas unsiz turgandan keyin.

Polvon chaqqon harakat qilib, oq bo‘ziga mindi-da, Tatyana minib kelgan otni etovga olib, jo‘nab ketdi...

Odamni eski kiyim ichida tani

Polvon Tatyanani uyiga olib borib qo‘yganidan keyin, yo‘l-yo‘lakay bir kun dam olib, ertasiga to‘g‘ri uyiga bordi. Turmadan qochganidan keyin uyiga birinchi bor kelishiga qaramay, uning qayerda nima qilib yurganidan oilasi ham xabardor edi.

Oilasi ham, ovuldoshlari ham uni ko‘z yoshi bilan qarshi olishdi.

— Botir, endi sabr qil! — deb iltimos qilishdi yor-birodarlari. — “Ortiqcha g‘ayrat — bosh yoradi” degan bobolarimiz. Tag‘in ularning “O‘ynashmagil arbob bilan, arbob urar har bob bilan”, “Polvon bilan kurashma, ulug‘ bilan tirashma” degan naqllari ham bor. Yosh boshing bilan tog‘ga ham, toshga ham borib urilding. Endi soqol-mo‘yloving chiqib, aqling kirib qoldi, uyli, mol-jonli bo‘ladigan payting. “Tek yursang, to‘q yurasan”. Tinchgina molini boqib yurganlar ochidan o‘layotgani yo‘q-ku, ular ham bir kunini ko‘rib yurishibdi. Ulug‘dan olgan qog‘ozing ishonchli ko‘rinadi. Endi o‘zing taqilmasang, ulug‘ senga taqilmas, bas qil bu yurishingni, chirog‘im.

Bunday yurishlardan horigan Polvon avvaliga ovuldoshlarining gapiga kirib, uyida biroz vaqt jim yurdi.

O‘zini Polvonning oldida benihoya gunohkor sezgan, undan ajralishni mutlaqo xayoliga keltirmagan va keltirishga urinib ham ko‘rmagan Balqash, erining hamma gunohlaridan o‘tib, iloji boricha o‘zini unga yaqin ko‘rsatishga tirishdi. Polvon ham o‘zini undan ilgarigiday olib qochmadi, unga “eringman” degan tushuncha berishga harakat qildi.

Uyezd boshlig‘i qizini eson-omon ko‘rgani bilan va hatto endi Polvonning hayotiga monelik qilmayman, deb tilxat bergani bilan,

uning Polvonga adovati tugagani yo'q edi. U Polvon bilan yuzma-yuz uchrashishdan cho'chisa-da, o'ziga tobe ovul odamlari orqali uning joniga qasd qilmoqchi ham bo'ldi. Bu rejasini amalga oshirishga jur'ati yetmagan Dolgonosov, "Qani ko'raylik-chi, bundan so'ng nima qilar ekan?" degan ma'noda Polvonning ketidan ayg'oqchilar qo'ydi.

— Hozircha tinch yuribdi, — deb xabar qilishdi unga ayg'oqchilar. — O'zi ham charchagan bo'lsa kerak, quyilib qolar.

Cho'loq polvon taqdirga tan berib, ko'rgan-kechirgan adolatsizliklarni unutishga harakat qildi, unutdi ham. Hamma narsani unutgani bilan uning qalbida unutilmas bir dard bor edi. Bu — G'aliya! Nega unday ekanini o'zi ham bilmaydi: uni o'ylamay turolmas, o'ylasa qalbi o'rtanar edi...

Ovuldoshlari endi buni G'aliyaning yodi tinch qo'ymasa kerak, deb o'ylab, uning ko'nglini sovutish uchun: "Otbosar bozoridan qaytgandan so'ng, G'aliya eridan ajralibdi, shundan keyin u buzilib ketibdi", kabi g'iybat gaplarini tarqatishdi.

G'aliyaning oti atalgan sayin Polvonning yuragi jizillar edi. "Eridan ajralishibdi" degan gapni eshitib, tinchligini yo'qotib qo'ydi. "Otbosardan qaytganidan keyin ajralishdi... Ajralishibdi; — deb o'yladi u. — Agar shu gap rost bo'lsa, bunga men aybdorman. Birovning shiringina turmushini buzib, endi nima bo'lsang shu bo'l, deb indamay yuraverganim ma'qul bo'larmikan? Polvonlik sha'nimga to'g'ri kelarmikan? Yo'q, buni aniqlashim kerak!.. Buni Qorao'tkalga borib aniqlashim kerak. Agar G'aliya ilgarigi ahdida turgan bo'lsa, uning qarg'ishiga qolmaganim ma'qul..."

Polvon shu qarorga kelib, bir kuni Balqashga yuragidagi bor gapni to'kib soldi.

U dastlab taqdirlarining birlashgan kezidan boshlab shu paytgacha bo'lgan gaplarni bayon qilib:

— Qozoqlar orasida ikki xotin olgan faqat mengina emasman. Sen xo'p desang, G'aliya yo'q demaydi. Ikki xotinning biri bo'lib o'tiraman, desang, o'zing bilasan... Xohlaganingni qil. Ehtimol, men sening baxtingni bog'lab yurgandirman, bu gunohimni bo'ynimga olaman. To'g'ri, bir-birimizdan ko'nglimiz qolgan kunlarimiz ham bo'ldi. Ammo hozir sendan hech narsani yashira-

yotganim yo'q. Sen ham rost garingni ayt. Ajralishsak ham, birga yashasak ham bir-birimizga yaqinlashmaymiz.

Balqash nima deyishni bilmay qoldi, izza bo'lib yig'ladi-siqtadi, tag'in jahlini chiqarib qo'ymay, deb zo'rma-zo'raki kuldi ham. U kulib turib bo'yida bola borligini, uning o'g'il bo'lib tug'ilish ehtimolini ham aytdi. Biroq Polvon bu gaplarga ham yumshamadi. "Gap shu, xohlaganingni qil", deb turaverdi.

Balqash qattiq qiynaldi. U har ikkala taklifga ham yaqinlasha olmadi. Ajrashmaymiz desa, hozir uning Polvonga bog'lanib turgan yuragi allaqachon sovigan, unga bog'lanib turgan muhabbat va rashk rishtalari allaqachon uzilib ketgan. Polvon Balqashning nazdida "sevimli yor" emas, faqat "erkak" xolos. Shunday bo'lsa ham uning Polvondan ajralgisi yo'qligini sababi: birinchidan — Polvonning xotini degan nomdan ayrilgisi kelmagan bo'lsa, ikkinchidan — ovul odatiga ko'ra bir erkakni ko'rgan ayolni xotini o'lgan yoki qari-qartang olmasa, bo'z bola olmaydi. O'zining fikricha, Balqashning bir ayoldan kam joyi yo'q. "Shunday bo'lsa ham, — deb cho'chidi u, — polvondan ajralishganimdan so'ng tanlaganimga tega olamanmi yo yo'qmi?"

Balqash kelajagini o'ylab, ko'z yoshi qildi, xullas, Polvonga o'z fikrini aytdi:

— Men sizni G'aliyadan qizg'anaman. Nachora, shunday bo'lsa ham ruxsat bermay ilojim yo'q. Mayli, omon bo'ling. Juda menga qayrilib qaramaganingizda ham, men bu yerdan hech qayoqqa ketmayman.

Cho'loq polvon Balqashdan ruxsat olib, hech kimga ovoza qilmay, "Qorao'tkalda ishim bor", dedi-da, jo'nab ketdi.

* * *

Qo'rdaboy G'aliyani Otbosardan zo'rlab olib qaytganidan so'ng, Oqmo'laga yetguncha, yo'l-yo'lakay Birjonni qayrab keldi:

— Bu xotindan sal bo'lmasa ayrilib qolgan eding, — dedi u yo'lda go'yo Birjonga do'st bo'lgan bo'lib. — "Uzoqdagining oti o'zguncha, yaqindagining toyi o'zsin" degan gap bor. Seni Cho'loq polvon mensimaganini ko'rib nomuslarga o'ldim. Qayroqlining saksonta ho'kizini o'g'irlab ketgan bu bedavoni, mana

o‘g‘ri, deb tutdim-da, berdim. Endi hech qachon bo‘shayolmaydigan qilib oyog‘iga kishan soldirdim. Endi bundan qutulib bo‘pti. Nomussiz xotining bir yo‘la Cho‘loq polvonniki bo‘lib qolgan ekan. U qo‘lga tushganda orqasidan ketaman, desa bo‘ladimi! Shunday jinim qo‘zidiki. Bosh-ko‘zi demay bir savalagim kelib ketdi-yu, tag‘in seni ayadim, har holda, bir yostiqqa bosh qo‘yishgan xotining, qo‘l tegizmadim. Mana, ko‘rib turibsanki, raqibingdan xotiningni ayirib olib, qo‘lingga topshirdim. Endi ehtiyot bo‘l! Ityaloqdan suv ichkiz bu rasvoga! Qani, kim oraga tushar ekan, ko‘rib qo‘yay!

Bu gaplarni u Birjonga xoli aytdi. Uning ishi gapiga hech ham to‘g‘ri kelmas edi. U Birjonga shunchaki do‘st bo‘lgan kishi bo‘lib aytayotgani bilan, uning ichida: “Birjon G‘aliyani qiyin-qistovga olsa, undan ko‘ngli soviydi-yu ajralishadi, shundan so‘ng menga tegmaganda qayoqqa ham borardi?” degan o‘y ham yo‘q emasdi.

“Singandan boshqa kasalning hammasi yuqadi” degan maqol bor. Birjon G‘aliyaga uylanganidan so‘ng unga taassublashib o‘lan aytishni, do‘mbira chalishni, she’r to‘qishni o‘rgana boshlagan, ikkinchidan — G‘aliyani ne-ne kazo-kazolarning og‘zidan yulib oldim, deganday g‘urur ham bor edi unda.

Qo‘rdaboyning haligi gapi o‘t oldirib yubordi. Hatto G‘aliyani savalamoqchi ham bo‘ldi. Bu gaplarni ko‘rib Qo‘rdaboy niyatiga yetganday bo‘ldi, endi u G‘aliyaga g‘amxo‘r bo‘lgan bo‘lib:

— Manovi yomon ering nega muncha hovliqadi? U sening harom tukingga ham arzimaydi-ku, “Kambag‘alning og‘zi oshga yetganda burni qonaydi” deganlariday, uning ham burni qonay deb turibdimi? — deb jahlini chiqarishga harakat qildi.

Qo‘rdaboyning bu “g‘amxo‘rligini” Birjon tushunmagani bilan G‘aliya tushundi. Tushunib tursa ham u Otbosardan qaytgach, Birjondan ketdi. Ajralishmaslikning iloji bo‘lmadi, Birjonning ming‘ir-ming‘ir gapi ko‘payib ketdi. Dastlab Birjon: “G‘aliya ketmaydi, yuvosh qilib, qo‘lga olay”, deb o‘ylagan edi. G‘aliya ajralishishga bel bog‘lagandan so‘ng u: “G‘aliya, endi men kechirdim, sen ham meni kechir”, deb yalindi. G‘aliya sovugan ko‘ngil chiqqan jon bilan baravar, deb izn bermadi. Endi Birjon

uni do‘q-po‘pisa bilan ko‘ndirmoqchi bo‘ldi, “Cho‘loq polvonning hamma kirdikorini mana shu biladi”, deb uyezd boshlig‘iga ariza berdi. Oqmo‘la uyezdining boshlig‘i Troytskiy degan kishi bo‘lib, u qimiz bilan sur go‘shtni yaxshi ko‘rar edi. U G‘aliyaning qo‘lidan talay marta qimiz ichgan, sur go‘shtlarini yegan edi. U G‘aliyani ham, Birjonni ham yaxshi biladi.

Birjonning arzi qo‘liga tekkach, Troytskiy ikkalasini ham oldiga chaqirib yarashtirib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Birjon xo‘p degani bilan G‘aliya ko‘nmadi. Troytskiy o‘zini zamonaning ilg‘or odamiman deb bilar edi. G‘aliyaning ko‘nmasligiga ko‘zi yetgach, chetga chaqirib olib, maslahat berdi:

— Agar ajralishmoqchi bo‘lsangiz, sudyaga aytaman-u ajratib qo‘yaman, eringizni ham tinchitaman. Faqat bitta shartim bor: Cho‘loqdan umidingizni uzasiz. U hukumatga qarshi odam, ya’ni bizning dushmanimiz. Bordi-yu, umidimni uzmayman, desangiz, unda mendan xafa bo‘lmang.

Troytskiyning bu sharti G‘aliya uchun naqadar og‘ir bo‘lishiga qaramay, “keyingisini yana ko‘raman” deb uning shartiga ko‘ngan bo‘ldi. Shundan keyin sal kun o‘tmay u qo‘liga taloq xatini oldi.

G‘aliya Birjondan ajralishgandan keyin ham qimiz sotish hunarini tark etgani yo‘q. U Polvonni o‘ylab ich-ichidan o‘zini yeb qo‘ygani bilan sirtida sir boy bergani yo‘q. Ilgarigi o‘yini o‘yin, kulgisi kulgi bo‘lib yuraverdi.

Troytskiyga bergan va’dasiga muvofiq, G‘aliya ancha mahalgacha Polvon haqida o‘ylamaslikka harakat qilib ko‘rdi-yu, baribir, bo‘lmadi, tobora uni sog‘ina boshladi, usiz yashayolmaydigan darajaga yetdi. Keyin, “Jonim shu Polvondan ham ortiqmi, juda bo‘lsa, meni ham turmasiga qamar”, degan xayolda uni izlamoqchi bo‘ldi. O‘sha kezlarda turli gap tarqalib qoldi: birov Polvonni “otildi” dedi, ba’zi birov “surgun qilindi” dedi, birov “qochdi” dedi, ishqilib turli gap tarqaldi. G‘aliya qaysi gapga ishonishni bilmay, boshi qotdi. Mana shunday kunlarning birida G‘aliya Polvonning Tatyanani olib qochganini eshitib qoldi.

— Aha, qalay ekansan? Polvondan endi bir yo‘la ayrildingmi? — deb yuziga soldi Qo‘rdaboy ham, boshqa o‘chakishib yurganlar ham. — Polvon senga o‘xshash qoq baytalni nima qilsin.

Mana, bir-ikki kun sen bilan o'ynadi-yu, tashladi ketdi. Uyezdning qizi go'zal ekan. Endi Polvon o'shanga uylanadi-yu, cho'qinadi.

"Bu nima qilgani Polvonning? — deb ajablandi G'aliya. — U bunday qiladigan odam emasdi-ku?!"

G'iybat ustiga g'iybat qo'shilaverdi:

— Polvon bu atrofga sig'magach, Teshgan tog' tomonga o'tib ketibdimish...

Uni qo'lga tushirishib, turgan joyida otib tashlashibdimish...

— Uyezd boshlig'ining qizini o'ziga eson-omon qaytarib berib, Polvonning hayotiga endi daxl qilmayman, degan tilxat olibdi. Endi bundan buyon umrini G'aliya bilan o'tkazaman deb Qorao'tkalga kelayotgan emish...

G'aliya bu gaplarning qaysi biriga ishonishini bilmay, ich-ichidan o'zini kemirib yeb qo'ydi...

... Kuzning rutubatli kunlaridan birida Qo'rdaboy boshliq bir to'p yigitlar G'aliyanikida qimiz ichishib o'tirishgan edi, darvozadan bo'z ot mingan bir odam kirib keldi.

G'aliya oq bo'z otni ko'rib rangi o'chib ketdi. O'sha oq bo'z otning o'zginasi dey desa, ustidagi odamning ust-boshi yupun.

Oq bo'z otni ko'rib Qo'rdaboyning rangida ham rang qolmadi. G'aliya ham, Qo'rdaboy ham bir-biriga ma'noli qarashib oldi.

U odam to'g'ri uyga kirib keldi. Gavdasi xuddi Cho'loq polvonnikiga o'xshaydi. Unday desa usti yupun, rang-ro'yi ham bir ahvolda: soqol-mo'ylovi o'sib ketibdi, boshida katta tumoq, egnida ko'hna chakmon, oyog'ida qo'njli etik.

G'aliya o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, oyoqlaridan darmon ketib o'tirib qoldi. Shunda ham o'zini qo'lga olib, o'rnidan turdi, u odamga tikilib qaradi — haqiqatdan ham Cho'loq polvon!

Ilgari G'aliya Polvonni ko'rsam, uyda bo'lsa uyni, dalada bo'lsa dalani yangratib yig'lasam kerak, deb o'ylardi. Hozir uning tovushi ham, hatto ko'zlaridan yosh ham chiqmay qoldi.

Asta uyga kirib kelgan Cho'loq polvon G'aliyaning shoshib qolganini fahmladi-yu, biroq nima uchun shoshganini tushunmadi. Polvonning indamay turganini, G'aliyaning shoshib qolganini ko'rgan uyidagi kishilarda un yo'q. Ular: "Endi nima bo'lar ekan?" deb kutib turishgan edi.

Nima deyishini bilmay, tiliga gap kelmay turgan G'aliya asta-sekin Polvonning oldiga yaqinlashdi-da, ko'ksiga boshini qo'yib zo'rg'a:

— Polvon! — dedi.

Shu gapni aytguncha bo'lmay uning ko'z yoshi daryo bo'lib oqdi, Polvonning ko'ksiga bosh qo'yib uzoq yig'ladi. Polvon ko'zlariga yosh olmadi.

U: "Bu yig'lash sog'inganidanmikan yo o'zini oqlash uchunmikan?" degan xayolda edi.

Qo'rdaboyning rashki kelib, atayin Polvon eshitsin, degan ma'noda yigitlarga qarab shivirladi:

— "Polvon! Polvon!" deb asqar tog'day ko'tarar edik. Tog' emas, tepadayoq ekan-ku buning..Ozgina qiyinchilikka chidamay ozib-to'zib ketgani nimasi? G'aliya endi uning nimasiga qiziqayapti?

— "Odamni yirtiq kiyimida tani" degan gap bor-ku, axir? — dedi kimdir Qo'rdaboyning bu gapini yoqtirmay. — Odam odamni kiyimiga qarab yaxshi ko'radimi?..

Yana turmada

Biroz kun dam olgach, Polvon G'aliyaga uylanib birga yashash uchun kelganini aytdi. G'aliya hadeganda bu gaplarga ko'na qolmadi.

— Men baribir sizni sevaman, — dedi u, — shuning uchun ham sizni deb har qancha qiyinchilik bo'lsa tortib yotibman. Men o'zimni emas, sizning tinchligingizni o'ylayman. Men uchun sizning sog'ligingiz qimmatliroq. Siz uchun qo'limda bor molimni qurbon qilishga tayyorman, baxtingizga raxna soluvchilar bilan oxirgi tomchi qonim qolguncha olishishga tayyorman. Birga bo'l desangiz birga bo'lay. "Erning xavfi xotindan" deganday, umringizga zavol bo'ladigan bo'lsam, yuragimda katta armon qoladi. Mana shu jihatini o'ylang, Polvon!

Polvon o'z so'zida qattiq turib olgach, u hadeb qarshilik ko'rsatavermay, Polvon xafa bo'lmasin, deb rozilik berdi.

Shundan keyin Polvon ovulga qaytdi, bor gapni Balqashga aytib berdi.

— Men hech qayoqqa ketmayman, — dedi Balqash. — Shu yerda yashayveraman. "Ot aylanib qozig'ini topadi" degan gap bor. Meni qidirib kelmaganingiz bilan bolalaringizni qidirib kelasiz. Hozir ixtiyor o'zingizda.

— Omon bo'lsak qararmiz, — dedi Polvon.

Polvon Balqash bilan hisob-kitobini to'g'irlagach, "bir qish bizlar bilan bo'ling" deb onasi Qalampirni yoniga olib, Oqmo'laga jo'nab ketdi.

G'aliya bu mahalda otasinikida — Tilevning uyida yashar edi. Polvon tinchgina yashay boshladi. Ammo uni tinch yashashga qo'yishmadi. "Tong otmayman desa ham kun qo'ymaydi" deganlariday, Qo'rdaboy G'aliyani rashk qilib, Polvonning ketiga tushib qoldi.

"Ovul itining quyrig'i yo'g'on" deganlariday, u o'zini — yerlik, Polvonni — kelgindi sanab, gapiga kiradigan yigitlarni to'plab Polvonni savalamoqchi bo'ldi. Polvon unga tegishli javobini berdi, g'aflat paytini topib ko'chada mushtlashaylik deb ham ko'rdi, bo'lmadi, o'zi kaltak yedi.

Nihoyat, mushtlashib obro' topolmagach, Qo'rdaboy qonunni ro'kach qilish yo'liga o'tdi. "Shaharga shunday buzuqi keldi" degan ma'noda uyezd boshlig'i Troytskiy nomiga ariza berdi. O'sha kuni Troytskiy Polvonni oldiga chaqirib tergov qildi. Polvon Dolgonosov bergan hujjatni ko'rsatgandan keyin, "Bundan keyin beboshlik qilma!" deb qo'yib yuborishga majbur bo'ldi. Shunday bo'lsa ham Troytskiy o'sha kuni O'mbadagi general-gubernator Momontovga bor gapni aytdi: qo'lidan tilxat bergani uchun Dolgonosovni so'kdi, bundan keyin nima qilish kerakligi haqida maslahat so'radi.

"U odamni men bilaman, — dedi Momontov. — Qilgan ishlarini ham eshitganman. Dolgonosov tilxat berishdan avval men bilan maslahatlashgan. Qizini qutqarish uchun boshqa chora topolmaganidan so'ng shunday qilishga majbur bo'lgan edik. Cho'loq polvonni qo'lga olishning bir qiyin jihati shundaki, uni xalq benihoya yaxshi ko'radi. Xalq o'rtasida obro'si zo'r.

Shuning uchun hozirgacha tegmasligingizni maslahat beraman. Bordi-yu, juda ham xavfli bo'lib ketayotgan bo'lsa, biror bahona topib qamoqqa oling..."

Troytskiy Cho'loq polvonning ketiga ayg'oqchi qo'ydi. Buni Polvon sezdi ham. Biroq Polvon bunga parvo qilmadi, ilgarigiday erkin o'ynab-kulib yuraverdi.

Polvonni, ayniqsa, G'aliya qattiq nazorat qildi: uning qo'lidan keladigani Polvonni iloji boricha janjalli joylardan xoli ushlash, o'yin-kulgidan boshqa narsalarga aralashtirmaslik edi. Shu niyatda u Polvonni qanchalik ehtiyot qilmasin, ba'zan uddasidan chiqolmay qolar edi. Ba'zan Polvon: "Nima, panaga biqinib yotaymi? O'zi bergan jonni o'zi olar", deb aralashib ketganini o'zi ham bilmay qolar edi. Shunday qilib o'chakishgan odamiga uning qo'li ham, tili ham tegib yurdi.

Polvonning atrofiga to'plangan odamlar, shu atrofning shoir yigitlari — Do'skey, Aziz, Isaboy, Azdemboy, Sotmag'ambet kabilar edi. Ular doim Polvonning atrofida. Polvon qayerga borsa shu yerga borishar, birga o'ynar, birga kulishardi.

Oqmo'lada yarim yil aysh-ishrat surgach, o'rtoqlarining nomusini himoya qilaman, deb ikkita katta janjalga aralashdi. O'sha janjalning biri shoir Aziz tufayli bo'ldi. Aziz otasi Fayzulla Oqmo'la uyezdining nomdor boylaridan Mati (o'n ikki ming yilqisi bor) degan boyning qo'lida mullalik qilar edi. Aziz otasining gapiga kirmay, Mati boyning (Muhammadjon degan o'g'lidan tug'ilgan qizi) nabirasi — Muqishni olib qochib keldi. Muhammadjon qizining Aziz bilan qochganini eshitib orqalaridan odam yubordi. Qizni izlab kelganlar Azizni momataloq qilib savalab, qizni qaytarib olib ketdi. Aziz Cho'loq polvon oldiga kelib she'r bilan ahvolini aytdi.

Cho'loq polvon Azizni ergashtirib Matining oldiga bormoqchi, qizni tortib olib bermoqchi bo'lib ketishga hozirlanayotgan mahalda: "Qiz uzatilgan", degan xabar kelib, Polvon ham, Aziz ham afsuslanib qolishdi. Xuddi o'sha paytda Matining amakivachchasi Sharif Oqmo'laga kelib qoldi-yu, Polvon qildan qiyiq axtarib uni urib sulaytirib tashladi. Ham boy, ham Sharif bo'lis bu alamga chidayolmay uyezd boshlig'iga: "Molimizni o'g'irlab ketdi", de-

gan mazmunda tuhmat qilishdi. Shu mazmunda berilgan arizalarda o'zlariga tobe odamlarni ko'rmasa ham ko'rgan, yolg'ondakam guvoh qilib turgan-bitgani yolg'on aktlar tuzishdi...

Bu arzlar endi tekshirila boshlaganda, Do'skey shoir eliga borib bir qizni olib qochib keldi. Bu qiz — butun Oqmo'la uyezdiga ma'lum va mashhur Nurlan degan boyning qizi edi. Alamiga chiday olmagan Nurlan, "Do'skeyni ham, qizni ham bog'lab olib kelinglar" deb qirqta yigit yubordi. Ular Oqmo'la shahriga kelib qizni ham, yigitni ham tutishib, aravaga bog'lab olib ketmoqchi bo'lib turishganida, Polvon kelib qoldi. Polvon ularni kelishtirib qo'ymoqchi bo'lib oraga tushdi. Lekin ular Polvonni haqorat qilishdi, keyin Polvon qirqta yigitni ham qamchi bilan savab, otdan yiqitdi. Yigitlar dovdirab, qo'rqib qolganidan so'ng Polvon yigit bilan qizni ulardan ajratib olib o'z uyiga olib keldi.

"Uydagi o'ttiz sigirning shoxiga ursang, qirdagi qirqta sigirning tanasi zirqiraydi" deganlariday, bu voqeani eshitib ovuldagilargina emas, shahardagi ulug'larning ham suyagi zirqiradi.

— Bu bir balo bo'ldi! — deyishdi ular. — Agar buning tizginini tortib qo'ymasak, dala-ku dala, uyimizga kirib ham urib ketadi bu! Qo'y, buni o'z holiga tashlab qo'ymaylik. Bir amallab yo'qotaylik...

O'sha kezda Oqmo'la uyezdida Bo'lislarning yig'ilishi bo'ldi. O'sha yig'inda Polvon haqida ham gap bo'ldi. Matining amakivachchasi taklif kiritdi:

— Cho'loq polvon molimizni o'g'irladi, degan arizalar tekshirilyapti, — dedi u. — Shu gapga boshqa bo'lislar ham qo'shilishsa, o'z elida o'g'irlangan mollarning hammasini shunga to'nkashsa-da, ariza berishsa ma'qul bo'lar edi. Hammamizning gapimiz bir joydan chiqsin, "Cho'loq polvondan qutulmasak, tinchiyolmaymiz", deylik.

Ular shu qarorga kelishdi va ariza yozishib qo'l qo'yishdi. Nihoyat, uyezd boshlig'i Troytskiyning oldiga tuhmat to'la arizalar yog'ilib ketdi...

Troytskiy shu bahona bilan Polvonning uyiga ayg'oqchi yuborib uning qanday, qayerda yotishini bilib oldi-da, to'satdan bostirib borib qo'lga oldi.

Yarim kechasi Polvonni ushlab olib ketishganidan so'ng G'aliya bag'rini yostiqqa berib tong otguncha yig'ladi. Qalampir ham dastlab unga qo'shilib yig'lashdi-yu, birozdan so'ng ko'z yoshini tiyib, keliniga aql aytdi:

— Qo'y, chirog'im, ko'z yoshingni tiy! Omon bo'lsa, bundan ham qutulib kelar. Undan ko'ra, agar, joning achiyotgan bo'lsa, qutqarishning ilojini qil!

G'aliya uning bu so'ziga ahamiyat bermay, battar yig'lay boshladi. Qalampir uni jerkib berdi:

— Nurjon seni shuncha yaxshi ko'rganiga, seni erga erday xotindir deb o'ylasam... sen ham uzun etak, aqli kaltalarning biri ekansan-ku! Nurjon tashqi go'zalligingga qiziqqan ekanda sening! Nima, sendan boshqa xotinning eri qamalmaganmidi? Bekat botir qo'lga olinib Itjekkanga surgun qilinganida, xotini Zera orqasidan borib qutqazib kelmaganmidi? Jiyanboy botirni ham podsho hukumati Qorao'tkalda tutib olib, Teshgan tog'dan o'tkazib yuborganida unashtirilib qo'ygan qaylig'i Balqiya orqasidan borib qutqarib kelgan. Eshitganmiz. Mening Nurjonim ham o'shalarday tengini topdi, desam ko'z yoshidan boshqaga yaramaydigan bir xotinni topgan ekan-ku? E, qo'y-e...

Qalampirning bu gaplarini eshitib G'aliya ko'z yoshlarini artdi. U, Polvon har gapining birida "oyim-oyim" der edi, oyisini ko'p gapirishining sirini u endi tushundi.

— Ozgina chekkan azobi bilinmas edi, tez bo'shab chiqsa! — dedi u ko'z yoshini tiyib. — Men bo'shatmaydimi deb qo'rqaman. Bu yerning ulug'lari uni yomon ko'radi.

To'rt-besh kun o'tdi. G'aliya eshigini taqillatmagan mahkama qolmadi. Hammasi ham G'aliyani iliq chiroy bilan qarshi olgani yo'q. Uchrashgan odamlarining bari ham: "Endi senga Polvon yo'q!" deb do'q qildi.

Ulug'lardan ko'ngli sovib, G'aliya erini tutib berganlarni qarg'adi. Nachora! G'aliyaning ilgarigi mag'rurligidan hech nima qolmagan edi. Endi u "ajriqdan baland, yovshandan past".

Bir kuni kechqurun Qalampir G'aliya bilan maslahat qildi:

— Chirog'im, — dedi u G'aliyaga. — Sen ulug'lardan umidingni uzib yuribsan. Noumid shayton! Agar, xo'p desang, men senga bir gap aytay.

— Mayli, ayting, oyi?

— Ovulimizda otam bilan tengqur Qo'lboy, Jonboy degan ikki botir o'tgan ekan. Ular podshoga qarshi chiqishib, bir necha yil o'chakishib yurgan. Podsho ham arqonni uzun tashlab yurib, oxiri bir kuni ularni tutib olibdi-da, Ko'kchatog' turmasiga qamabdi. Qo'lboyning bir Oqtoyloq degan xotini bo'lib, u juda eryurak ekan. Odamlar cho'chishib Qo'lboy bilan Jonboyga ovqat olib borishmabdi. Shunda Oqtoyloq: "O'ldirsa o'ldirar, jonim shu botirlarning jonidan ortiq bo'libdimi?" deb ikki botirga ovqat olib borib beribdi. U olib borgan ovqat bir saba qimiz bilan bir qulunning go'shti ekan. Turmadagi nazoratchilar och ekanmi yo qozoqning olib borgan ovqati ular uchun tansiq ekanmi, so'rab qimizdan ichishibdi, go'shtdan yeyishibdi. Qo'lboy bilan Jonboy kambag'al ekan. Biroq olib borgan ovqatni olganini eshitishgan ovul odamlari kuniga bir saba qimiz bilan bir to'qli berib turibdi. Uni Oqtoyloq turmaga olib borib turibdi, olib borgan sari u turma nazoratchilarini siylab turibdi. Bir kuni Oqtoyloqning xayoliga: "Shu qimizga mingdevona qo'shib bersam nima qiladi?" degan o'y kelibdi.

— Mingdevona degani nima oyi? — deb so'rab qoldi G'aliya.

— Bilmaysanmi bolam?

G'aliya boshini chayqadi.

— Qurayga o'xshash ichi kovak giyoh bo'ladi. Shoxlik. Shoxlarida kattaligi tirnoqday-tirnoqday keladigan qo'ng'iroqsimon tugunchalari bo'lib, unda urug' bo'ladi. O'sha urug'larni mingdevona deyishadi. Agar o'sha urug'larni suvga qaynatib, yo choyga, yo qimizga solib ichirilsa bormi... Ichgan odam esidan og'ib mast bo'ladi!

— Aroqqa o'xshar ekan-da!

— Aroqni ichganlar basharasini burishtiradi-ku, yo'q, buning ta'mi bilinmaydi. Aroqqa mast bo'lganlar esini biladi, biroq buni ichgan odam esini bilmay jinni bo'lib qoladi. Aroq ichgan odam

gandiraklab yuradi, buni ichgan odam esa avvaliga kuchli bo'lib, keyinchalik esa o'zini bilmay ag'darilib tushadi.

— Og'zingizdan gapingizni oldim, oyi, — dedi G'aliya, — haligi Oqtoyloq nima bo'ldi?

— Shuni aytay deb kelyapman. Shunday qilib, Oqtoyloq bir saba qimizga mingdevona qaynatib qo'shib, turmaga olib boradi. Buni turmadagilar ichishib birpasning ichida mast bo'lishib, bir-birlari bilan mushtlashib ketishadi. O'sha mahalda Oqtoyloq turma eshiklarini ochib mahbuslarni chiqarib yuboradi. Qo'lboy bilan Jonboy ham qochishadi. Ular shu qochganicha Jiydali — Boysunga o'tib ketgan deyishadi. U joy musulmonobod, birov-birov bilan ishi bo'lmaydigan, qo'y ustiga bo'z to'rg'ay uya ochgan deyishadi.

— Agar mingdevona bo'lsa, men ham shunday qilgan bo'lar edim, — dedi G'aliya. — Yo'q-da!

— Agar mingdevona qilaman desang, mingdevonani olisdan izlamayoq qo'y. Tishim zirqirab og'riyverganidan so'ng shu mingdevona davo bo'lib, bir xaltasini olib qo'ygan edim. Bu Qorao'tkalning yarmini mast qilishga yetadi.

— Bering, qilganim bo'lsin! — dedi G'aliya quvonib. U ishga tushib ketdi.

Turmada To'qpan degan bir yigit nazoratchi bo'lib ishlar edi. U G'aliya bilan tengqur, buning ustiga yoshligidan birga o'sishgan, bir-birini aka-singilday yaxshi ko'rar edi. Cho'loq polvon hibsga olinganidan so'ng u G'aliyaga kelib ko'ngil aytgan, uni yupatmoqchi bo'lgan edi. G'aliya shu To'qpon bilan gaplashib ko'rsa, turma boshlig'i Zavyalov juda qimizxo'r odam ekan.

— Bu kunda nima ko'p — avaxtada yotgan odam ko'p, — dedi To'qpan. — O'shalarning qarindoshlari har kuni bir sababdan qimiz olib kelishadi. Olib kelingan ovqatlarning rohatini Zavyalov ko'radi. Tekin tomoq bo'lganidan so'ng, hotamtoyligi tutib ketib, ahyon-ahyonda bizlarni ham siylab turadi.

G'aliya u bilan birga o'sganini, buning ustiga uni juda hurmat qilishini o'rtaga qo'yib, mingdevona haqidagi gapni aytdi.

— Bo'pti! — dedi To'qpan. — Cho'loq polvon bilan birga ishlab ko'rmagan bo'lsam ham uning qanaqa yigit ekanligini yaxshi

bilaman. Shu joydan qutulib ketishi tarafdoriman. Olib kel mingdevonangni, topshirig'ingni bajarganim bo'lsin.

— Mabodo qo'rqsang, zo'rlamayman, — dedi G'aliya uni sinab ko'rish uchun.

— Gap bitta bo'ladi! — dedi To'qpan.

U turmadagi hol-ahvolni bilib, bu rejani qaysi kuni amalga oshirish mumkinligini xabar qilmoqchi bo'ldi.

Yana ancha kun o'tdi. Ma'muriyat Cho'loq polvon "tag'in turmani buzib qochib ketmasin" deb uning oyoq-qo'liga kishan solib qo'yishdi.

Bir kuni To'qpan G'aliyaning oldiga keldi:

— Xonasi kelib qolganga o'xshaydi, — dedi u. — Shu bugun Zavyalov ikki saba qimiz oldi-yu, bittasini kunduzi ichdi, ikkinchisini kechqurunga qoldirdi. Yonida bir to'qlining go'shti ham bor. Bugun u hammamizni mehmon qiladigan bo'ldi. Qani ber mingdevonangni, qaynatib kechqurun ichiladigan qimizga qo'shay...

— Qanday qaynatasan?

— Avaxta idorasida bitta samovar kecha-yu kunduz vaqirlab qaynab turadi. Ko'pincha uning yonida odam bo'lmaydi. Qimiz ham shu atrofda turadi. Bir ilojini qilib mingdevonani shu samovarda qaynataman-da, evini topib sabaning ichiga quyib yuboraman.

To'qpan bir xalta mingdevonani olib ketdi. O'sha kuni u kunduzi dam olib, kechasi ishlashi kerak edi. Oqshom tushishi bilan idoraga borsa, yolg'iz farrosh ayol o'tirgan ekan. Samovar shaqillab qaynab turar edi. To'qpan uning ko'zini shamg'alat qilib mingdevonani samovar ichiga tashlab yubordi. Qalampir: "Bir qaynasa bas", degan edi. Sal o'tgach, To'qpan farrosh ayolni bir ish bilan chiqarib yubordi-da, samovardagi qaynoq suvni chelakka ag'darib, boshqatdan suv quyib qo'ydi.

Keyin haligi suvni birpas tinitdi-da, sabaga quyib, chayqab-chayqab aralashtirib yubordi. Shundan keyin Zavyalovga ergashib avaxta xonalarini aylandi.

Cho'loq polvon maxsus xonaga qo'yilgan edi. Zavyalov bilan To'qpan uning xonasiga ham kirdi.

— Xo'sh, endi nega qochmaysan? — deb kesatardi Zavyalov kishanlog'liq Polvonni har ko'rganda.

Polvon har gal bu gapni eshitganida bir gap aytmay qolmasdi. Bu gal ham Zavyalovga tegishli javobini bermoqchi bo'lib turganida, To'qpan ko'zini qisdi. Uning nima uchun bunday qilganini fahmlayolmay qolgan Polvon, "bir gap bor bo'lsa kerak-da", deb indamay qo'ya qoldi.

Zavyalov navbatchilikka odam qo'yib uyiga qaytish oldida hamma xizmatkorlarni idoraga chaqirdi. "Eshik-darvozalar qulflog'liq, devor mustahkam, yov olarmidi", deb eshik oldidagi qorovullarni ham oldiga chaqirdi.

— Senlarni bugun bir mehmon qilay, — dedi maqtanib. — Qani aytinglar-chi, oralaringda qariing bor, yoshing bor, oldin ham mendaqa hotam, qo'li ochiq boshliq bo'lganmidi?

— Yo'q! — deb chuvullashdi ular.

— Unday bo'lsa, ichinglar mana bu qimizni!.. Yenglar mana bu go'shtni!.. To'yib olinglar! Men bo'lmasam allaqachon ochlaringdan o'lib ketardinglar!

Avaxta xizmatkorlarlari qimizni rosa ichishdi, go'shtni boplab tushirishdi. To'qpan ichayotgan, yeyayotgan bo'lib o'tirdi.

Qimiz ham quyuq, ham totli edi. Odamlar ikki-uch kosadan ichib olgach, terisi yupqaroqlari mast bo'la boshladi.

"Mast bo'la boshlagan mahalda shamollasa tezroq ag'dariladi", degan edi Qalampir.

Yolg'ondakam ichayotgan To'qpan hammadan ilgari mast bo'lgan bo'lib, "uy ichi isib ketdi", degan bahonada eshiklarni lang ochib qo'ydi. Shamol edi. Xona ichi g'ir-g'irak bo'lib ketdi. Eshikni yopmoqchi bo'lganlarni mast bo'lib qolgan Zavyalov urishib berdi.

Hammadan ilgari Zavyalovning o'zi mast bo'ldi. U odatda ko'p so'zlaydigan odam edi, hozir jag'i ochilib ketdi:

— Men Xudoman!.. Men podshoman!.. Ochinglar avaxtaning eshigini!.. — deb baqirdi nazoratchiga. — Ozodlik beraman bechoralarga!

Boshqalar ham mast bo'lib qolgan edi. Ular bir-birlari bilan rosa do'pposlashishdi. Mana shunday paytda,To'qpan kalitni topib

olib, dastlab Cho'loq polvon yotgan kameraga kirib uni bo'shatdi, shundan so'ng Polvon ikkalasi butun kameralarning eshigini ochishib, mahbuslarni qochirib yuborishdi...

O'zaro mushtlashgan turma xodimlari orasida boshi yorilgan, yarador bo'lganlari ham oz emasdi. Eng ko'p kaltak yegan odam Zavyalov bo'ldi. Tekin qimiz bilan go'shtga hotamdek ko'ringan bilan o'z qo'li ostidagi xizmatkorlariga nisbatan juda shafqatsiz, tilidan burun qo'li ishga tushib ketar edi. O'sha chekkan azoblari eslarida bor ekanmi, mast bo'lib olgan turma xizmatkorlari Zavyalovni shunday titib yuborishdi... Endi o'zaro mushtlashib, qiychuv qilishib ko'chaga chiqishdi.

Turma binosi Oqmo'la shahrining bir chekkasida, Esil daryosining bo'yida edi. Bu mahalda shahar ahli uy-uyiga kirib ketgan, ko'cha zim-ziyo qorong'i edi.

Ba'zi odamlar bu shovqin-suronni eshitishdi ham. Shaharda bunday janjal-to'polon tez-tez bo'lib turgani uchun, bu ham o'sha to'polonlarning biri bo'lsa kerak-da, deb e'tibor berishmadi. Ularni oddiy odamlar bu yoqda tursin, politsiyachilar ham ajratib qo'yishga hayiqar edi.

Shunday to'polon mahalida turma xizmatkorlaridan biri "shu balodan qutulmay bizga tinchlik yo'q!" deb avaxtaga o't qo'yib yubordi. Turma binosi ikki qavatli, tagi g'ishtli, usti esa yog'ochdan qilingan edi. Quruq taxtaga o't tekkach, gur etib yondi-ketdi.

...Jom chalindi. Odamlar yonayotgan joyga qarab yugurishdi. Esini yo'qotib qo'ygan mastlar ko'ziga ko'ringanini, qo'liga tushganini tutib olib do'pposlay boshladi. Odamlar yong'inni o'chirishni ham, mastlarni tutishni ham bilishmay shoshib qolishdi.

Ancha mahalgacha bu mastlarning kim ekanini, nimadan yong'in chiqqanini hech kim bilolmadi. Troytskiy ham yetib keldi. Mahbuslarning qochib ketganini bildi.

— Xizmatkorlar qani? — dedi u yong'in o'chay deb qolganida o'ziga kelib, — Zavyalov qani?

Uni odamlar o'zini yo'qotib yiqilib yotgan joyidan topib kelishdi. Agar yong'in o'chirilmasa o'lasi qilib kaltaklangan Zavyalov kuyib o'lar ekan...

Odamlar yopirilishib mastlarni tutishsa, hammasi turma xizmatkorlari ekan! Birortasi ham o'zini bilmas edi!..

Bu shunchaki voqea emasligiga ko'zi yetgan Troytskiy jandarmlarga: "O'zlariga kelguncha hammasini bir xonaga qamab qo'yinglar!" deb buyurdi. "Shaharni tintinglar! Avaxtadan qochganlarni topinglar!"

O'sha kuni Troytskiyning uyida Tatyana bilan uning eri sharafiga ziyofat berilayotgan edi. Ziyofatda kuyov, kelindan tashqari O'mbadan kelgan prokuror, gubernatorning siyosiy yordamchisi ham bor edi. Ular yong'inni eshitib cho'chib tushishdi. Troytskiy ularga: "Sizlar bemalol o'tirib turinglar, men o'zim borib xabar olib kelaman", deb chiqib ketgan edi.

Troytskiy qaytib kelganida mehmonlar tashvishda o'tirishgan ekan. Troytskiy ularga sir boy bermay:

— Avaxta yonibdi! — deb qo'ya qoldi.

— Avaxta? — deyishdi o'tirganlarning qutlari uchib. — Sal noxushroq xabar ekan. Mahbuslar-chi?

— Qochishibdi!..

— Endi qanday qilib tutiladi ular? — deb vahima qildi prokuror.

— O'zgalarini tutish oson, — dedi Troytskiy. — Ichida bittasi bor, uni tutish qiyin!

— Kim ekan u?

— Cho'loq polvon!

Tatyana Cho'loq polvonni eshitib, xuddi yashin tekkanday o'tirgan joyida o'zini bilmay qoldi.

— Suv!.. Suv olib kelinglar... — deb chuvullashdi uydagilar.

Tatyana bu shaharda Cho'loq polvon bor deb hech ham o'ylamagan edi. Mana, endi Cho'loq polvon uning qarshisidan chiqib qoldi!..

O'lim tuzog'i

Polvon avaxtadan chiqa solib qorong'i bir ko'chadan yelib-yugurib uyiga kelsa, G'aliya uni eshik oldida kutib turgan ekan.

— Ovulimizda Sarmon degan odamning bir sariq qizi bo'lguvchi edi, — dedi Polvon G'aliyaning qo'lini olar ekan kulib. —

Kimga erga borsa ham biroz kun turib qaytib kelar edi. Shunga o'xshab avaxta — kuyov, men — o'sha sariq qiz, tag'in kelisholmay qaytib keldim.

— Keling, jonimizga keraksiz, — dedi G'aliya.

— Qaydam, qaytib kelgan qiz yomon, qayta chopgan yov yomon bo'lib yurmasa deyman tag'in.

Shu mahal ko'chada odamlarning tovushi eshitilib qoldi.

— Polvon, — dedi G'aliya atrofga alanglab. — Agar ko'nglingizga olmasangiz sizni boshqa uyga olib boraman.

— Qayoqqa?

— Borib ko'rasiz. Hech kim topolmaydigan joy.

— Qochgan odam qayerlarga panalamaydi deysan? — dedi Polvon xo'rsinib. — Qayoqqa olib borsang ham boraman. Lekin oyim bilan xayrlashib chiqay.

— U kishi bu yerda emaslar.

— Unday bo'lsa, ketdik!

G'aliya indamay Polvonning qo'ltig'idan olib, qorong'i ko'chalarning biriga boshladi.

Ular ancha yurishdi. O'sha vaqt avaxtaning yonayotgan binosi alanga olib, ufq qontalashib ketdi. Yong'in bo'layotgan tomonga chopib ketishayotganlar G'aliya bilan Polvonga e'tibor ham berishmadi. "Qayoqqa ketyapsanlar?" deb so'raganlari ham yo'q.

G'aliya Polvonni soy bo'yidagi bir uyga olib keldi. Bu joyni Polvon ilgari ko'rmagan edi. Bu uyda bir keksa sartarosh yakka o'zi yashardi. U G'aliyaning otasi — Tilev bilan yaqin do'st, G'aliyani qizim deb yurar edi.

Sartarosh kichkinagina gavdali, qaddi bo'kilibroq qolgan, yuzidan ham mo'ylovi bilan soqoli katta, qisiq ko'zli, sho'xtabiat, qozoqchani yaxshi gapiradigan odam edi.

— Men uchun keng saroyday edi bu uy, kuyovjon, — dedi chol Polvonga hazillashib. — Senga torlik qilar ekan. Biroq ko'nglim keng. Tor bo'lsa ham kengday ko'rasan-da.

Polvon tashakkur bildirdi. G'aliya shundan so'ng Tilev bilan Qalampirni chaqirib kelish uchun bordi. Ular ham ko'p kechikmay kelishdi.

Ular bundan keyin nima qilish kerakligini maslahatlashib olishdi. Qalampir o'g'lining Yettisuv tomonlarga ketishini ma'qul ko'rdi. Chunki gap bunday edi: Cho'loq polvonning katta buvasi Uysin ekanligi bizga oldingi sahifalardan ma'lum. Bu urug' Balqash ko'li bilan Olatog' o'rtalig'ida istiqomat qilardi. "Er tug'ilgan joyiga oshiqadi" deganlariday, Polvon esini tanibdiki — Uysinni topishni, bordi-yu, u joy yoqib qolsa, o'sha joyda yashashni orzu qilar edi. Boshiga og'ir kunlar tushganda: "Og'aynilar orasida bo'lganimda bunday kulfatlarni chekmasmidim", deb ham o'ylar edi.

Qiziljar bilan Ko'kchatog'dan Olmaotaga, G'uljaga; G'ulja bilan Olmaotadan Qiziljarga, Ko'kchatog'ga savdogarlar kelib-ketib turar edi. Hu bir yili Polvon qamoqda yotganida, o'sha savdogarlar uning uyiga bir xat olib kelishgan, xatda Polvonni taklif qilishgan edi. Avaxtada yotgani uchun Polvon borolmagandi.

Shu mazmundagi xat bu yil bahorda ham keldi. Uning tagiga bir necha kishi qo'l qo'yibdi.

Xatda bunday deyishibdi:

"Hurmatli bahodir Cho'loq polvon ismli Nurmag'ambet Boymirza o'g'liga, bizkim Uysinning yaxshilaridan duoyi salom. Alqissa, bizlardan hol-ahvol so'rasangiz sog' va salomatdurmiz. Endi ushbuni yozib ma'lum qilamizki, bizlar ushbu xat ila ikki marotaba noma yo'lladik. Sizdan faqat bir xat oldik. Shundan beri ushbu xatga qadar hech qanday xabar olganimiz yo'q. Bizning xatimiz sizga tekkani yo tegmagani haqida hech qanday xabar olganimiz yo'q. Dog'ida sizga bir xabar aytamiz: bizning Uysin — Abaq, Taroq bo'lib ikkiga bo'linadi. Taroqdan Jaloyir urug'i tarqalgandur. Ushbu xatni yo'llagan bizkim, Abaq bolalari. Abaqdan Boydibek tug'ilgan. Boydibekdan esa Sori-Uysin, Shoprashti, Jariqshoqlar tug'ilgan. Sizga ushbu nomani yo'llagan — Boydibek urug'iga qarashli Jariqshoq bolalaridur. Jariqshoqdan — Dulat, Albat, Suvonlar tug'ilgandir. Sizga ushbu nomani yo'llagan Dulat bolalaridur. Dulatdan — Siyqim, Bo'tpay, Shimirlar tug'ilgandir. Qariyalardan

urug' surishtirganimizda sizning urug'ingiz Janis bo'lib chiqdi. Bizning elimizda "Janis ko'pmi, qamish ko'pmi?" degan maqol bor. Janis ko'pchilik. O'zingizga ma'lumki, qozoq uch yuzga[1] *bo'linadi. Yolg'iz Uysinning o'zi bitta yuzini tashkil qiladi, ya'ni Ulkan yuzni. Yettisuv viloyatining ko'pchiligi Uysinlar. Uysinlar Xitoyda ham bor. Xalqing seni ko'rishga xumor. Ushbuni yozgan odamlar sening kelishingni oshiqib kutadi".*

Polvon ilgarilari ham o'sha yoqqa borish orzusida yurardi, ayniqsa, shu xatni olganidan so'ng shoshib qoldi. U Oqmo'la viloyatining ulug'lari dastidan charchagandi, bir yo'la ko'chib qutulgisi kelib qoldi. U shu fikrini aytib, do'stlari bilan maslahatlashgan edi, ular:

— Ketaman desang qarshiligimiz yo'q — deyishdi, — u yer ham ota-bobong unib-o'sgan joy. Urug'ingni qidiraman desang, ilojimiz qancha? Biroq bizga alam qiladigan jihati shuki, urug'laringni o'z ixtiyoring bilan izlab borayotganing yo'q, qochib ketgandek bo'lyapsan. U joyda ham biz yashayotgan joyga o'xshab tosh-tarozusi bordir. U yerda ham yaxshilar bilan birga tentaklari ham bordir.

Bordi-yu, ertaga seni birov: "Daydib yurgan qochqin!" desa suyak-suyagingdan o'tib ketmasmikan, deb qo'rqyapmiz. O'ylab ko'r. O'zing bilasan!

— Qo'y, bu ishim bo'lmas ekan, — deb o'yladi Polvon. — "Qochqin" degan so'zni eshitganimdan ko'ra, o'lganim yaxshi. Undan ko'ra ajalimni shu yerda kutib yotganim tuzuk.

Bu maslahatdan Qalampirning ham, G'aliyaning ham xabarlari bor edi. To'qpan mingdevonani turmaga olib ketganida, Qalampir, Tilev, G'aliya uchalasi o'tirib maslahat qilishgan edi.

— Shu gal eson-omon qutulsa, — dedi G'aliya, — eng osoni Yettisuvga ketgani ma'qul.

Tilev: "Juda olis-ku, qanday qilib boradi! O'zi-ku bir amallab yetar, seni, ota-onasini qanday qilib olib ketadi? Olib ketgani bilan baring birday Yettisuvga eson-omon yetib bora olasanlarmi? Yettisuv bu yerdan bir oylik yo'l bo'lsa!" deb vahima qildi. Bu gaplardan hissa shu ediki, uning ko'nglida "qizim Polvondan ay-

[1] Qozoqlar Kichik yuz, O'rta yuz, Ulkan yuz bo'lib uch yuzga bo'linadi.

rilib tag'in baxtsiz bo'lib qoladimi?" degan shubhasi ham yo'q emasdi.

G'aliya otasining fikrini tushundi. Shuning uchun ham u: "Polvonning peshonasiga bitgan sho'r ekanman. Otbosarda ham, bu yerda ham meni deb qo'lga tushdi. Aslini olganda uning birinchi dushmani — men! Agar shu gal eson-omon qutulsa, unga zomin bo'lmay!" deb yum-yum yig'ladi.

Qalampir, G'aliya, Tilev uchalasi maslahatlashib: endi Polvon Yettisuv tomonlarga borib bir-ikki yil yurib kelsin. Ungacha bu yer ham tinchib qolar, o'zi ham yoshi ulg'ayib quyilar, degan qarorga kelishdi. Agar Polvon eson-omon chiqib qolguday bo'lsa, bu gapni o'g'liga Qalampir aytmoqchi bo'ldi.

— Oyi! — dedi Polvon bu gaplarni eshitib bo'lib.

— Xo'sh, qulunim?

— Shu yoshga kelib men sizning ko'nglingizni og'ritganim yo'g'-a?

— Shunday, chirog'im.

— Hali ham ranjitgim yo'q. Bir gap aytay desam, xafa bo'lasiz, deb aytolmay turibman. Nachora, aytishga majburman. Siz meni yaxshi ko'rasiz, shuning uchun aytaman. Yaxshi ko'rganingiz uchun kechirasiz, deb aytaman. Bu mening sizdan eng so'nggi iltimosim, oyi! O'tinchimni qabul qiling, oyijon. Shundan keyin osmon ag'darilib yerga tushsa ham, uni ushlab qoladigan ustin siz bo'lsangiz ham indamayman, hech narsa iltimos qilmayman.

— Muncha qiynalding, chirog'im, ayt, qanaqa tilak ekan u?

— Tilagimni o'rinlasangizgina aytaman, oyi.

Polvon onasining tizzasiga boshini qo'yib, yalingannamo qaradi.

— Chiroqqinam-ay, — dedi Qalampir, — bilib turibman. Sening tilaging yengil-yelpi bo'lmaydi. Mayli ayta qol, berdim tilagingni, faqat onam deb ayab aytma tilagingni!

— Tilagim shu edi, oyi! O'zingizga ma'lumki, men bu dunyoga kulib kelgan bola edim. Shu dunyodan kulib ketmoqchi bo'lib, yaxshi ot mingim keldi, yaxshi yor quchgim keldi, yaxshi ustbosh kiygim keldi, xullas, umrimni vaqtixushlik bilan o'tkazmoqchi bo'ldim. Shu orzularga yetish yo'lida mehnat qilish uchun

bel bog'laganimda menga pand beruvchilar, baxtimga to'g'anoq bo'luvchilar ko'payib ketdi. Men bu to'g'anoqlarning ko'pchiligini pisand qilmay bosib o'tdim-u yuksak orzum sari intilaverdim. Ammo bu to'g'anoqlar sehrgarning to'ri kabi, birini uzsam, ikkinchisi oldimdan chiqaverdi... O'zingiz aytganingizday, qadimda Qo'rqit degan odam bo'lgan ekan. U o'limdan qochibdi, ammo u qayerga bormasin lahad duch kelibdi. Shundan so'ng, azbaroyi qochishdan charchab, o'z erki bilan bir lahadga tushib ajalini kutib, kuy chalib yotibdi. O'sha Qo'rqit men bo'ldim! Siz menga Yettisuvga borgin deysiz, oyi. O'sha tomonda men uchun qazilib qo'yilgan lahad yo'qligini ayta olasizmi, oyi? Ko'kchatog'dan Oqmo'laga o'sha lahaddan qochib kelmaganmidim, oyi? Qani, qutulganim? Mening nima yozig'im bor edi? Nima yomonlik qilgan edim bu hukumatga?

— "Tek yursang — to'q yurasan" bolam, — dedi Tilev. — Ko'nglingga kelsa ham aytay, o'zingda ham ayb yo'q emas, o'zing ham oppoq emassan, tinch yurmaysan.

— Nima qildim tek yurmay?

— Hech vajsiz Mati, Davlen, Nurlanga o'zing borib tiqilding. O'shanda, bolam, o'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan degan edik, quloq solmading!

— Polvonga dashnom beryapmizmi, ota? — dedi G'aliya dadasining gaplariga unamay.

— Xo'sh, bir ojizni zo'r chinqirtirib urayotganida tepasida indamay qarab tursam, necha pullik odam bo'lganim? — dedi Polvon.

— Bizlar sening do'stingmiz, — dedi Tilev. — Azbaroyi jonimiz achiganidan aytayotibmiz. Xo'sh, gapning qisqasi, nima demoqchisan?

— Shuni demoqchimanki... — dedi Polvon. — Gapning qisqasi men qochib ketadigan quyon emasman. Men o'lsam dunyo egasiz qolmaydi. Yovdan xotin kishi qochadi.

— Xo'sh?

— Gapim shuki, tug'ilmoq bor joyda o'lmoq ham bor. Umrimning oxirigacha, men bilan yovlashgan odamlarning adabini beraman. Oyi, mening sizdan tilagim shu, qarshilik qilmang!

O‘g‘lidan bu gapni kutmagan Qalampir boshiga cho‘qmor tekkanday qotib qoldi.

— Polvon, oyimning tilini bog‘lab qo‘ydingiz, — dedi G‘aliya. — u kishi endi sizga nima ham deya olar edi? Indamayman, deb va’da berib qo‘ydilar. Oyim uchun men sizdan o‘tinaman, qayting bu niyatingizdan!

— Oyimdan zo‘rg‘a so‘rab olgan tilagimni senga berolmayman! Mening ikki gapirganimni ko‘rganmiding? Ikki gapirganimdan ko‘ra o‘lganim yaxshi emasmi?

— Baribir iltimos qilaman, Polvon? Ko‘z yoshim bilan iltimos qilaman!..

G‘aliya yig‘ladi, keyin tag‘in iltimos qilib ko‘rdi, yalindi. Polvon o‘z so‘zida qattiq turib oldi.

— Unday bo‘lsa ixtiyoringiz, — dedi G‘aliya to‘satdan o‘ziga kelib. — Peshonangizga shuncha sho‘r bo‘lganim yetar. Avvalo meni o‘ldiring!.. O‘ldiring meni!..

Bir mahal G‘aliya asta o‘rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi. Polvon shundagina boshini ko‘tardi.

— Bor, Nurjon, — dedi Qalampir buyruq ohangida. — Kelinni olib kel!

Polvon ham tashqariga chiqdi. Sartaroshning uyi soy bo‘yida. O‘sha joydan to‘qayga o‘tadigan kichkina ko‘prik bor edi. Polvon chiqsa o‘sha ko‘prik ustida bir odam turibdi. G‘aliya bo‘lsa kerak deb o‘yladi. Asta uning ketidan yurdi. Uning ko‘nglida: “O‘zini suvga tashlarmikan?” degan shubha tug‘ildi.

Polvon qadamini ildamlasa ham G‘aliyaga yetolmadi, u ko‘prik chetiga yetguncha G‘aliya narigi tomonga o‘tib ketdi. “Qayoqqa boryapti bu, — deb o‘yladi Polvon. Orqasidan kelayotganimni bilib ketyaptimi yo bilmay ketyaptimi?”

G‘aliya to‘qayga kirdi. Polvon nariroq borib G‘aliyaga yaqinlashdi. Biroq qani sabr qilay-chi, nima qilar ekan, deb oyoq uchida orqasidan ketaverdi.

To‘qayda pastakkina, qiyshayib bitgan yo‘g‘on daraxt bo‘lguvchi edi. G‘aliya shu daraxtning tagiga bordi-da, nimchasining sirtidan bog‘lab olgan shoyi belbog‘ini yechdi. Polvon o‘sha daraxtning yonginasidan bir tup tol panasida qarab

turar edi. "Orqasidan kelganimni payqab, meni qo'rqitmoqchi bo'lyapti", deb o'yladi u.

G'aliya daraxtning egri shoxiga o'rmalab chiqdi. Uzunligi uch gazcha keladigan qizil shoyi belbog'ning taxminan bir gazchasini yirtib oldi-da, qolganining bir uchuni daraxtga bog'ladi, ikkinchi uchini esa bo'yniga. Shundan so'ng... daraxt tepasidan pastga sakradi.

Xayr, Polvon!

Daraxt ustiga qanday chiqib, belbog'ini qanday keskanini Polvonning o'zi ham bilmay qoldi. U yerga sakrab tushsa, G'aliya cho'zilib xir-xir qilib yotibdi. Darhol G'aliyaning bo'ynini silab ko'rsa, shoyi belbog' uning bo'ynini siqib turgan ekan, zo'rg'a yechdi.

G'aliya o'zini bilmay qolgan edi. Polvon uni oldiga olib:

— G'aliya, jonginam, gapir! — dedi yalingannamo. — Aytganingni qilaman, gapir...

— Polvon, — dedi G'aliya zo'rg'a.

— Labbay? Men... Menman...

G'aliya uni mahkam quchib yig'ladi.

— Yig'lama, G'aliya, — dedi Polvon uning yuzlariga yuzini tegizib. — Bo'ldi, aytganingni qilaman.

— Ha, qalay ekansan? — degan tovush chiqdi. Polvon yalt etib qaradi. U Qalampir edi.

— Shunday bo'ldi, oyi, — dedi Polvon.

— Urishmayman seni, o'g'lim. Faqat aytganimni qilsang, bas, — dedi ona bechora.

* * *

Ular orqaga qaytishdi. Yettisuvga ketish harakatini ko'rgunlaricha, Polvon sartaroshnikida qoldi. Qalampirni G'aliya bilan Tilev uyiga olib ketishdi.

Ularni eshik orqasida jandarmlar kutib turgan ekan. Uchalasini ham tutishdi. Ular tish yorib hech nima deyishmadi. Shundan keyin uchalasini ham yonib ketgan turmaning yonidagi tosh saroyga olib borib qamashdi...

Xayrlashuv

O‘sha kuni Cho‘loq polvon ancha mahalgacha uxladi. Bir vaqt uyg‘onib qarasa, derazalar berkitilgan, xona ichi nimqorong‘i. Derazani qiya qilib tashqariga qaragan edi, osmon tutash bulut, savalab yomg‘ir yog‘ib turgan ekan.

— Uyg‘onganingdan so‘ng eshikni asta chertasan, — degan edi sartarosh.

Odam bormikan deb dahlizga quloq solgan edi, devorda turgan soatning chiq-chiqidan boshqa narsa eshitilmadi. Eshikni ochay desa berk edi. Xonaning dahlizga qaragan derazalari ochiq ekan. Polvon o‘sha derazalardan mo‘ralamoqchi bo‘lib turganida, tashqaridan kimningdir sharpasi keldi. Yuragini oldirib qo‘ygan Polvon darrov derazalarni yopdi. Birov dahlizga kirganday bo‘ldi. Polvonning yuragi gupullab ura boshladi.

— Polvon! — deb chaqirdi kimdir dahlizdan. Bu sartarosh cholning tovushi edi. Polvon eshikni ochib qarasa, sartarosh yomg‘irdan ho‘l bo‘lib ketgan paltosini yechayotgan ekan. Rangi ancha siniq.

— Xo‘sh, nima xabar bor? — dedi Polvon.

Sartarosh chol sir bermagan bo‘lib hazil-mutoyiba qildi, biroq uning hazili qovushmadi, kechagiday emas, tagida gapi bor hazil edi bu.

Sartarosh chol bor gapni yotig‘i bilan aytdi.

Onasi bilan G‘aliyaning qo‘lga tushganini eshitganida Polvonning a’zoyi badani muzlab ketganday bo‘ldi, asabdan ko‘karib, ko‘zlari qontalashib ketdi.

Birpasdan keyin sal o‘ziga kelib:

— Xo‘sh, endi men nima qilay? Qanday maslahat berasiz? — dedi sartarosh cholga. — Onangni, sevgan yoringni qamatib qo‘yib, qochib ketaverganing ma’qul deysizmi yoki olishaymi?

— Buni sovuqqonlik bilan o‘ylab ko‘rish kerak, — dedi sartarosh chol. — Shaharda seni qidirishib yuribdi, yashirinsa bo‘ladi, degan shubhali joy borki, hammasini ag‘dar-to‘ntar qilishyapti. Qo‘lga tushsa, otib tashlanglar, deb buyruq beribdi Troytskiy.

Polvon bu gaplarni indamay pastga qarab o'tirib tingladi-da, bir mahal boshini ko'tarib, Troytskiyning uyi qayerda, qanday qurilganini so'radi.

— Nima qilmoqchisan? — dedi sartarosh chol.

— Kerak.

— Men bilmayman-u, biroq shu yerda biladigan kishi bor.

— Kim u?

— O'shaning uyini qorovullab turadigan uryadnik shu yerda turadi. O'zi ichkilikni yaxshi ko'radi. Ikki finjon aroq ichsa, hamma gapni aytib beradi.

Qozoqmi, o'rismi?

— Qozoq.

— Unday bo'lsa chaqir uni bu yerga. Aroq berib uyezd boshlig'ining uyi haqida gapga sol.

— Nima qilmoqchisan o'zi?

— Uning uyiga boraman-u tutqundagilarni chiqartiraman yo o'zini gumdon qilaman.

— Bu ishing xavfli-ku.

— Qo'rqma, chol. Shundan boshqa choram yo'q. Bitta olti otar to'pponcha topilsa yaxshi bo'lardi-da.

— Menda bor.

Sartarosh chol shkafdan yaltirab turgan olti otar "Smit-vilson"ni olib ko'rsatdi.

— Ishim o'ngidan kelar ekan! — dedi Polvon quvonib. — Iltimos, o'sha uryadnikni kechqurun taklif qil.

— O'zining ham boshi og'ib kelib qoladigan odati bor edi. Nega deganingda, u aroqni xotinidan yashirin ichadi-da! Yaqindagina uyida yurgan edi, kelib qolsa ham ajab emas. Kelmasa, chaqiraman. Bordi-yu, kelib qolguday bo'lsa, sen ichkariga kirib, uning gaplarini eshitib o'tir. U ichkariga kirmaydi.

Sartarosh chol ko'chaga chiqib birpasdan so'ng qaytib kirdi.

— Yashirin!.. Kelyapti!

Uryadnik uyga nimalarnidir gapirib kirdi.

— Xotindan yarimtaga yetadigan pulni o'mardim, — dedi u. — Mana! — deya u yarimta aroqni stol ustiga qo'ydi.

U gazagini ham cho'ntagiga solib kelgan ekan. Sartarosh chol uni kutib olgan bo'lib, stul qo'yib, stakan berib atrofida parvona bo'la boshladi. Halqumidan aroq o'tishi bilan uryadnik gapga tushib ketdi. Dunyodagi mard odam ham o'zi bo'ldi qoldi. U gap o'rtasida Cho'loq polvonni ham tilga oldi: "Mabodo ko'zimga ko'rinsa, bitta pistaning po'chog'iga jo qilib yuboraman!" dedi.

Uryadnik gapirgan sayin sartarosh chol qo'ltig'iga paxta qo'yib, uyezd boshlig'ining uyi haqida barcha gapni gapirtirdi. Uryadnikning gapiga qaraganda: uning uyi atrofi baland tosh qo'rg'on bilan o'rab olingan, qo'rg'on ustida tikanli sim, ichkariga darvozadan boshqa joydan kirib bo'lmas, darvoza oldida soqchi turar ekan. Cho'loq polvon qochganidan beri uyning tashqariga chiqadigan eshik-teshiklari hammasi berkitilibdi. Qo'rg'on ichkarisida binoning tepasiga chiqadigan narvon bor ekan, tomda esa maxsus teshik bo'lib, undan pastga tushsa bo'lar ekan, tomdan uy ichiga tushish uchun zina bor ekan.

— Uyida mehmon bor, — dedi uryadnik Troytskiyning uyi, qo'rg'oni haqidagi hamma gapni aytib bergach.

— Troytskiyning qaynisi kelgan... Xotini bilan...

Bilasanmi u xotinning kim ekanini?

— Kim ekan?

— Cho'loq polvon Ko'kchatog'dan olib qochgan qiz! O'x, i go'zal! O'x, i qo'rqadi Polvondan!.. Troytskiyning uyida bugun to'y, qaynisi hurmatiga!..

Aroqni ichib bo'lib, gap sota-sota uryadnik uyiga ketdi.

Sartarosh chol Polvonning uyezd boshlig'ining uyiga bormay qo'ymasligini payqagach, maslahat aytdi:

— Bu to'pponcha menga ko'pdan beri hamroh bo'lib kelayotuvdi. Uni senga G'aliya uchun, Tilev uchun, sening mardliging uchungina beraman... Endi tag'in bir gap bor: agar, bordi-yu, uyezd boshlig'ining uyiga kirishga muvaffaq bo'lsang, sen ularni shunday qo'rqitginki, bir umr esidan chiqmaydigan bo'lsin.

— Qanday qilib?

— Bu ahvolda bormagin. Men senga kindigingdan pastga tushib turadigan soqol quloqlaringgacha o'rab turadigan mo'ylov

yasab beraman. O'sha soqol-mo'ylovda kirsang, seni ko'rishlari bilanoq ishtonlari ho'l bo'lib qoladi.

— Bo'pti!

Polvon uzun soqol-mo'ylov bilan, egniga juni sirtga qaragan teri po'stin kiyib, qo'yniga "Smit-vilson"ni solib qorong'i kecha ichiga sho'ng'ib ketdi.

Shuncha katta gavdasi bilan uning chaqqonligiga kishi hayron qoladi. U baland qo'rg'ondan chorbog'ga sakrab tushdi-da, simlarga qoqilmay hovli ichiga kirdi. Bir yaxshi jihati — it yo'q ekan.

Hovliga tushgach, bino atrofini aylanib qaragan edi, hamma eshik-teshik, derazalar berkitilibdi.

Binoning tunuka tomiga chiqadigan narvon devor tomonda turgan ekan. Polvon qorong'i kechada tomga bazo'r chiqib, tomdan uyga tushadigan teshikni paypaslab arang topdi. Uy ichidan mast kishilarning tovushi chiqib turar edi. U tom ustidagi teshikdan cherdakka kirib, pastga olib tushadigan teshik og'zidagi qopqoqni asta ko'tardi — u yerda xona ichiga tushiladigan zina ko'rindi.

O'sha mahal skripka surnay bilan jo'rlikda shirin bir kuyni chalib yubordi. Go'yo Polvonga skripka bilan surnay emas, qalb torlari kuy chalganday, bo'g'in-bo'g'ini bo'shashib ketdi. U rus kuylarini, qo'shiqlarini juda yaxshi ko'rar edi. Shu ahvolda u endi bir ashula aytilsa tuzuk bo'lar edi degan edi, biroq ashula aytishmadi.

Polvon: "Mayli, endigisini kutmay qo'ya qolay, kirib ko'rarman", deb zinadan yo'lakka asta tushdi-da, odamlar ovozi chiqayotgan xonaga yuzlandi: qo'lida to'pponcha! Xona ichi keng ekan. Bashang kiyinishib olgan yigirma chog'li ayol-erkak, stol usti turli noz-ne'matlar, shishalarga to'la, stol atrofidagilar kulishib o'tirar edi. O'rtada Tatyana.

Polvonga hammadan oldin ko'zi tushib qolgan bir ayol: "Voy!" dedi-yu, o'zini bilmay stul-pustuli bilan chalqanchasiga yiqilib tushdi. Boshqalar Polvonni ko'rishmadi, ular o'rnilaridan turishib, haligi ayol tepasida uymalashayotgan bir mahalda, Polvon: "Ko'tar, qo'llaringni!" deb baqirdi.

Hamma unga yalt etib qaradi-yu, ranglari o'chib, qo'llarini ko'targanlaricha qimir etmay qolishdi. Polvon alpang-talpang bosib ularga yaqinlashdi. Ba'zi ayollar chinqirib yubordi.

Tatyana kirgan odam Cho'loq polvon ekanini tanidi, a'zoyi badani titrab, bo'g'in-bo'g'ini bo'shashib ketdi.

Polvon o'sha xonadagi pastga tushiladigan taxta eshikni ochdi-da, qahrli imo bilan: "Qani, tushinglar", degan kabi ishora qildi. Uyezd boshlig'i, hamma erkaklar birin ketin pastga tusha boshlashdi. Shu vaqt Tatyana eriga razm solgan edi, u jahl ustida shimi chap cho'ntagidan asta brauningini olayotganini ko'rib qoldi. O'z qilmishidan mast Polvon uning bu harakatini sezadigan darajada emas edi, erining qo'li to'pponcha tutgancha tosh bo'lib qotib qolibdi. Tatyana Polvonga bildirmay eriga qattiq tikildi. Turmush qurganlariga oz vaqt bo'lganiga qaramay, u erini qo'lga olib ulgurgan, erini gapiga kiritish payida ko'pincha so'zini emas, ko'zini ishga solar edi.

Kuyov Tatyananing o'tkir ko'zlariga dosh berolmay, brauningini tutgan qo'llarini bo'shatdi. Tatyana to'pponchani olib bildirmay asta orqasidagi deraza tokchasiga qo'yib qo'ydi.

Polvon Tatyanani eshikdan kirishi bilan tanigan edi. U Ko'kchadagi ko'rinishiga nisbatan ancha o'zgaribdi: sal tana qo'yibdi, bo'yi ham cho'zilib qolganday, oriq yuzlari to'lishibdi, ilgari sal cho'zinchoqroqday edi, hozir yuzi yumaloqroq... bag'baqasi osilib, ko'krak qo'yib, kelinlik nuqsi urib qolibdi!

Polvon erkaklarni yerto'laga qamayotganida Tatyanaga qaramaslikka harakat qildi. "Agar qarasam, — deb o'yladi u, — oldimga kelib xalaqit beradi!"

Polvon eng so'nggi erkakni — Tatyananing erini yerto'laga tushirayotganda, u o'ziga keldi. U ayollarga xonaning boshqa ochiq turgan eshigini ko'rsatib, bu yoqqa kiringlar, dedi. Ayollar qo'rqa-pisa, bir-biriga suykalishib Tatyana ko'rsatgan eshikka kirib ketishdi. Polvon ularni zimdan kuzatar ekan, polning taxta qopqog'ini asta yopdi. Tatyana ayollar kirgan xonaning eshigini yopdi-da, dadil yurib Polvonning oldiga keldi.

— Men hamma gapni eshitdim, — dedi u. — Sizning nima maqsadda bu yerga kelganingizni ham fahmlab turibman. Bila-

man, aytgan so'zingizdan qaytmaydigan odamsiz. Shunday bo'lsa ham umrimda sizdan hech narsa iltimos qilmaganman, bu tilagim ham avvalgisi va eng oxirgisi bo'ladi, bir iltimosim bor, bajarasizmi?

— Qani, ayt-chi, qanaqa iltimos ekan u?

— Bilib turibman, siz mana bu pol tagidagilarni o'ldirish maqsadida kelgansiz. Men uchun shu qurbonlaringizning gunohidan o'ting?

Polvonning tosh bo'lib qotib qolgan yuragini Tatyananing so'zlari eritib yuborganday bo'ldi. Jahldan tushib, yuzlariga qon yugurdi.

— Mayli, kechdim, Tanayjon, — dedi u. — Xo'sh, men-ku sening tutqunga tushgan qarindoshlaringni bo'shataman. Menikini kim bo'shatadi?

— Albatta, men-da! — dedi Tatyana ishonchli qilib. Tatyana Cho'loq polvonning yaqin qarindoshlari avaxtaga tushganini eshitgan edi. O'shalarni bo'shattirishni zimmasiga olib:

— Polning tagidagilarni chiqaring! — dedi.

Polvon qopqoq ustiga surib qo'ygan katta sandiqni itarib yubordi-da, polning tashqariga chiqadigan eshikchasini ochdi. Qamalgan odamlar bitta-bittalab chiqisha boshladi. Hammasi chiqib bo'lgach, Tatyana Troytskiyga bir nima demoqchi bo'lib kelayotgan edi:

— Hamma gapni eshitdim, — dedi u. — Cho'loq polvonga bergan va'dangiz bajariladi...

Ko'p kechikmay uyezd boshlig'ining hovlisidan chiqqan tarantas G'aliyani, Tilevni, Qalampirni, Polvonni uyigacha kuzatib qo'ydi.

* * *

Troytskiy ertasiga Polvonga pasport, yana: "Hech kim tegmasin!" degan mazmunda qog'oz yubortirdi.

Polvon uydagilari bilan xayrlashib, Yettisuvga jo'nab ketdi. Ammo uning qayoqqa ketganini oila a'zolaridan boshqa hech kim bilmadi...

Polvon — ustoz

Tog‘ ko‘rmadim Ko‘kchaning biyigiday,
O‘ynagandim bag‘rida kiyigiday.
Og‘ir emas dunyoda hech bir qayg‘u
Bu jonajon makonimning kuyigiday.

(Cho‘loq polvonning o‘z she’ridan.)

Polvon Oqmo‘ladan chiqib ketayotib: “Endi tug‘ilib o‘sgan joyimga qaytib kelamanmi, yo‘qmi? Yo‘l-yo‘lakay tanimaydigan yurt, boradigan yerimga eson-omon yetib bora olamanmi, yo‘qmi? Yo biyday dalada o‘ligim qolarmikan?” deb qayg‘urgan edi. Yo‘q, Polvon bekorga vahima qilgan ekan, u Oqmo‘ladan hatlab chiqishi bilan qaysi ovulga kelsa o‘sha ovul uni boshiga ko‘tarib, izzat-hurmat ko‘rsatdi.

Shundagina Polvon, o‘zining shuhrati butun qozoq dalasiga yoyilganini his qildi. Yo‘l-yo‘lakay ovullardan o‘zi haqida necha turli hangomalar eshitdi. Yo‘l-yo‘lakay odamlar undan so‘rashar edi:

— Seni qarag‘ay uyga qamashgan ekan, shunda tepasini yelkang bilan ko‘tarib tashlab, chiqib ketganing rosmi?

— Avaxtaning yarim gazcha keladigan taxta devorini bir tepib ag‘darib tashlab chiqib ketganing rostmi?

— Seni sud qilishganda, ular sendan: “Nega bunday to‘polon qilaverasan?” deb so‘rashibdi-ku? Shunda sen: “Kuchim tanamga sig‘maydi!” deb javob beribsan. Shunda ular: “Qani, o‘sha kuchingni ko‘rsat-chi?” deyishibdi. Shunda sen: “Agar bo‘shatadigan bo‘lsalaring mana shu uyning anavi ikki derazasi o‘rtasiga kalla qo‘yib buzib beray” debsan. Sudya bo‘lsa: “Mayli, agar yiqita olsang bo‘shatganimiz bo‘lsin” deb tilxat beribdi. Keyin sen kalla qo‘yib yiqitib chiqib ketibsan-ku? Shu gaplar rostmi?

— “Oqqo‘chqor” degan bir nimang bormish deb eshitganmiz. U yoningda yurib, seni o‘tga solsa yondirmasmish, suvga tashlasa cho‘ktirmasmish, nayza o‘tmas, qilich kesmasmish. Shu gap rostmi? Bir gal mingta miltiqli askar bilan olishib, hammasini so‘yil bilan urib yiqitganing rostmi?

— Seni ko‘z bog‘lagich, degan gap bor. Bir gal seni tutib olmoqchi bo‘lib uyingga uch yuzta askar kirganida ularni sehrlab qo‘yib, g‘oyib bo‘lib ketganing rostmi?

— Oq bo‘z oting shumi? Qo‘ltig‘ida qanoti bor, deyishgan edi, qani? Qiyin ahvolda qolganingda qush bo‘lib ucharmish-ku? Boshingga xavf tushguday bo‘lsa, bir kun ilgari xabar berarmish, deyishadi? Sen aytgan gaplarning barini tushunarmish-a? Senga dushman hamla qilganda oldiga kelsa tishlab, orqasidan kelsa teparmish-a? Quvonch bilan qayg‘ungga sherik emish-a? Shu gaplar rostmi?

Ba’zilar esa:

— Bo‘yningni tikka turgan nor tuyadan ham baland, deyishgan edi, — deydi. — Bir g‘unajinning go‘shtini ko‘rdim demaydi, bir saba qimizga cho‘llashi qonmaydi, bir uxlasa qirq kun uxlaydi, uxlamasdan qirq kuncha chidaydi, deyishgan edi... Shu gaplar rostmi?

— Qadimda o‘tgan Qo‘blandi, Qambar, Alpomish, Er Ko‘kcha, Er Qushday kabi botirlarning ruhlari doim sening atrofingda yurarmish... Sen ularni ko‘rasanmi? Gaplashasanmi?

Polvonning o‘zlariga o‘xshagan oddiy bir odam ekanligini, uning qochib yurganini bilganlarning hafsalasi pir bo‘lib: “E, biz seni daryo deb yurardik, oddiygina bir chuqurcha ekansan-ku! Seni bizlar tog‘ deb yurar edik, tepachadan ham past ekansan-ku! Yo‘rtib yuradigan botir, deb yurar edik, qochib yurgan oddiy odam ekansan-ku!” — deb xafa bo‘lishdi.

Polvon odamlarning maqtaganiga oshib ketgani, yomonlariga ranjigani yo‘q. Nimasiga quvonib, nimasiga ranjisin — quvonay desa, xalqining umidini oqlagani yo‘q, ranjiy desa, ular aytayotgan gaplarning bari to‘g‘ri.

Polvon xalqining gap-so‘zlaridan tuygani shu bo‘ldiki, ular yerli boylardan, zo‘ravonlardan hamda hokimlardan nohaq zulm ko‘rgani uchun o‘zlarini ana shu zulmdan xalos qiladigan bir rahbar — yo‘lboshchi izlar ekanlar. Ularning ana shunday yo‘lboshchisi — Cho‘loq polvon bo‘lishi mumkin, degan umidlari ham yo‘q emas ekan. Shuning uchun ham ular Polvonning fazilatlarini o‘zlariga to‘qib-bichib, bir necha baravar oshirib-toshirib, ertak-

lardagi botirlarga tenglashtirib gapirishar ekan. Polvon ana shu mazlum xalqqa yuzma-yuz duch kelganida, zulmdan qanday qutulish kerakligi haqidagi birorta savolga ham javob bera olgani yo'q. Shunday bo'lgach, uning qaysi fazilatini ko'rib xursand bo'lsin? Uning qilgan ishiga qarab emas, dovrug'iga qarabmi?

Polvon mana shu jihatlarni o'ylab xafa bo'lib ketdi. El-yurti qo'l cho'zgan yuksaklikka yetolmagani uchun xafa bo'ldi! Ammo xafa bo'lganda qo'lidan nima ham kelardi? Kishi o'z bo'yidan o'zi sakray oladimi?

Shunga qaramay, u qayoqqa borsa odamlar shu yoqqa oqib borar, unga benihoya izzat-hurmat ko'rsatishar edi. Buning ikki sababi bor edi: biri — xalq chekayotgan azob-uqubatni buning o'zi ham tortayotgani, biroq uni bu zulmdan qutqaradigan kuch xalqdan topilmasa, o'zida yo'qligi, o'zi ham xalq bilan birga shunday kuchni izlab yurgani, bunday kuchni shu vaqtga qadar topa olmagani bilan hali umidi borligini yashirmasligi bo'lsa; ikkinchidan — xalqni o'z botirligini ko'rsatib xursand qila olmagani bilan, hunarini ko'rsatib xursand qila olishi edi.

Botirlik fazilati yo'q bo'lgani bilan jismoniy kuchining benihoyaligi, uni oddiy qora kuchdan hunar darajasigacha ko'tara olgani xalqni hayron qoldirdi.

Bu atrofdagi polvonlar bir-birini yiqitib nom chiqargan bo'lsa, Cho'loq polvon katta tuyalarni orqalab ketdi. Bir qancha yigit o'rgata olmagan asov otlarni bir o'zi o'rgatdi, unga egar urib, chopib ketayotgan ot ustida uchqurday aylandi. Yo'g'on temirlarni bilagiga o'rab tashladi, o'n chog'li yigit bilan arqon tortishganida, o'zi qimir etmadi, ularni sudrab ketdi.

U qayishni ustalik bilan o'raydi, kiyimni ustalik bilan tikadi, kigizga chiroyli o'yma gul soladi. Buning ustiga barmog'idan bol tomgan do'mbirachi. Do'mbirani qarsillatib uravermaydi, cho'loq barmog'ining uchi bilan asta chertadi, shuning o'zida ham turli ohangrabo tovushlar chiqaradi...

U bu ovulga yangilik — surnay olib kirdi. Ilgari Qayroqlida, Andreyning oldida surnay chalishga uyalar edi. Hozir esa, u surnayni maromiga yetkazib chala bilmagani bilan, shunchalik chalishning o'zi ham bu ovul uchun yangilik edi, shuning

uchun tortinmay chalaverdi, ovulda u "Surnaychi" degan nom chiqardi...

Polvonning ovulga olib kelgan yangiliklaridan biri shu ediki, ilgarilari ovulda faqat yakkaxon o'lanchi bo'lar edi, endi Polvon bir necha odam jo'rligida o'lan aytishni mashq qilib ko'rdi. Juda ajoyib chiqdi.

Polvon ovul yosh-yalanglariga ustozlik qilibgina qolmay, o'zi ham o'lan aytdi. Uning ilgarigi o'lanlari faqat oshiqlik haqida bo'lsa, endi el-yurtini sog'inish mavzusi birinchi o'ringa chiqdi.

Polvon kezib yurgan ovul ko'chmanchi ovul hisoblanadi, Polvon o'rgatgan kuy va o'lanlar ovuldan ovulga qanot bog'lab uchdi...

Yo'lbars bilan olishuv

Olisdagi ovullarga xursandchilik olib borgan Cho'loq polvonga odamlar:

— Shu ovulda biz bilan birga yashasang nima qiladi! — deb iltimos qilishdi. — Hol-ahvolingni ilgarilari ham eshitgan edik, mana o'zingni ham ko'rdik. Tug'ilib o'sgan ovulingda tinchgina o'tira olsang-ku, biz senga hech narsa deyolmas edik. Modomiki, tinchliging yo'q ekan u yerda yashading nima-yu, bu yerda yashading nima?.. "Chevarning hunari-yu, chechanning so'zi o'rtoq" demaganmidi ota-bobolaring? Shunday ekan, shoir ham, qo'shiqchi ham xalqniki emasmi? O'zing butun qozoq xalqining o'g'li bo'lib tug'ilgan ekansan — o'zing yotsiramasang, biz yotsiramaymiz, seni. Shu yerda qol. Bu yer sal tinchroq, yashashga qulay. Agar, xo'p desang ovulingdan ota-onangni ham, xotin, bola-chaqangni ham oldiraylik. Uy-joy qilib, oldingga mol solib beraylik, shu ovulning bir farzandi bo'lib yashayver!..

Uzoq yo'ldan horib-tolib kelayotgan Cho'loq polvon odamlarning shunday iliq so'zlarini eshitib ba'zan shu yerda qolsammikan, degan xayolga boradi-yu, biroq sal o'tmay bu xayol tumanday tarqab ketadi.

Albatta, buning quyidagicha sababi bor:

Polvonni oddiy xalq yaxshi ko'rgani bilan u elning starshinalari, bo'lislari, biylari uni uncha yoqtirmaydi. Ular Polvonning hukumatga chap qiliqlarini eshitishib: "Ovulga shunday buzuqi kelibdi, xalqni yo'ldan uradi, endi buni nima qilamiz?" degan ma'noda yuqoriga shikoyat yog'dirishadi. Bu xabarni eshitgan ulug'lar zimdan: "Xalqni hovliqtirmay, bir ilojini topib gumdon qilinglar", degan javob olishadi.

Bunday ish qila olishlariga ko'zlari yetmagan mahalliy amaldorlar endi yuqoriga shikoyatnoma yoza boshladilar. Peterburgga: "Cho'loq polvon xalqni qo'zg'olonga ko'tarmoqchi", degan shikoyat yuborishdi. O'sha vaqtda Aleksandr uchinchi podsho edi. U Oqmo'la, Qarqarali, Semipalatinsk, Ayag'o'z, Qapel, Olmaota, Avliyoota, Chimkent, Turkiston, Oqmachit, Irg'iz, To'rg'ay, Otbosar shaharlarining ulug'lariga: "Tutinglar, iloji bo'lsa Peterburgga yuboringlar, yo bo'lmasa gumdon qilinglar. Biroq nima qilsanglar ham, xalqni hurkitmanglar!" degan ma'noda yashirin xatlar yubordi.

Ovul hokimlari bu xatdagi gaplarni ham bajarisha olmadi. Chunki kimdan qanday eshitadi bu xalq, bu gaplar yashin tezligida el ichiga tarqab ketar, xalq shunga qarab ish tutardi. "Qani, Cho'loq polvonga qasd qilib ko'rsinlar-chi, — deyishdi odamlar, — unaqa odamni urug'-aymog'i bilan yo'qotib yuboraylik!"

Bu gapni eshitgan hokimlar Cho'loq polvonga tega olmas, payti kelib tursa ham o'ylagan rejalarini amalga oshirishga hayiqar edilar.

Cho'loq polvon o'z elida bo'layotgan gaplarni ham eshitib turar edi. Ba'zi odamlar unga:

— Chirog'im, ehtiyot bo'lganing ma'qul! Ayg'oqchi payingga tushsa, g'aflatda qoldirmay tinchimaydi, — deyishar, ba'zilar esa:

— Bu yerdan tezroq ketganing ma'qul, — deb maslahat berishardi.

— Bu gaplarni eshitib Polvonning bir joyda qo'nimi bo'lmay, xuddi suv yuzida qalqigan tarashaday oldinga siljir edi.

Polvon mana shunday, asta yurib, Oqmo'ladan otda yo tuyada chiqilsa bir oyda yetib borishi mumkin bo'lgan Yettisuvga besh-olti yil deganda arang yetdi. Uzunligi Oqtepadan Semi-

palatinskkacha, Oqmo'ladan Olmaotagacha sayr qilgan Cho'loq polvon Balxash ko'lining shimoliy qirg'og'i bo'ylab izlab kelayotgani Uysin ovuliga qarab ketdi. Uning yonida atoqli qo'shiqchi Qo'chqorboyning o'g'li Shoshuvboy, tag'in besh-oltita yigitlar bor. Yo'l biladigan yigitlarning gaplariga qaraganda, orqadan kattakon cho'lni yurib o'tib Chuvga boriladigan yo'lning o'zi bir oylik yo'l, bo'yida hech qanday ovul, jon-jonivor degan narsa yo'q. Faqat biladigan odamlargina quduqlarni topolmasa, boshqa joyda suvdan nom-nishon ham yo'q emish. Mana shunday qiyin safarga otlanish oldidan yo'lovchilar yaqin ovullardan sur go'sht, qurt, pishloq kabi yo'lga chidamli, buzilmaydigan ovqatlarni olishdi. Yo'l-yo'lakay uchrab qolgan quduqlardan suv olishib, ichiga qurt tashlashdi. Bu suv ot ustida chayqalib, qurt o'zidan o'zi ezilar ekan-u ham suvsin, ham ovqat o'rniga o'tar ekan.

Bularni boshlab ketayotgan Shoshuvboy edi. U yo'lovchilarni urintirmay, och qoldirmay, otlarni charchatmay, bir necha kun deganda Chuv daryosiga olib bordi. Chuv daryosi bo'yida qishlaydigan ovullar bu mahalda ko'chib yurganligi uchun daryo bo'yi bo'm-bo'sh yotgan ekan.

— Chuvning bu tomonining o'zani tor, ot kechib o'tsa bo'ladi, — dedi Shoshuvboy. — Biroq daryo bo'yi qamishlari, har ikkala tomonda ham o'n besh-yigirma chaqirimgacha cho'zilib ketgan. Bu qalin qamish orasida bu kezda to'ng'iz ko'p. Ularni ovlash uchun yo'lbars yurgan bo'lsa ham ajab emas. Agar duch kelib qolgudek bo'lsa, otga ham, odamga ham tashlanishi turgan gap.

— Ehtiyot bo'lish kerak, — deyishdi yigitlar.

Shoshuvboy tuzukkina mergan edi. U miltig'i bilan kechqurun kiyik otib keldi. Yigitlar saksovul yoqishib, kiyik go'shtini o'tga toblab pishirib yeyishdi. Ovqatlanib bo'lganlaridan keyin charchab kelgan yigitlar birpas orom olmoqchi bo'lishdi.

— Yo'lbars olovdan qo'rqadi, — dedi Shoshuvboy, — Saksovulni yondirib qo'yish kerak, tun bo'yi yonib turgani ma'qul. Otlarni shu yaqin oraga tushovlab, kuzatib turishimiz kerak!..

Otlarni tushovlab qo'yishdi. Polvon "otim oyog'i bo'sh turmasa o'tlayolmaydi, mendan uzoqlashib hech qayoqqa ketmaydi" deb oq bo'z otni tushovlatmadi.

"Ot teri hidiga ilon yaqinlashmaydi" degan gapga ko'ra, yigitlar otlarning egar-to'qimlarini boshlariga qo'yishib yotishdi. Olovga butun-butun tashlangan saksovullar chirs-chirs qilib yonardi. Tun zim-ziyo qorong'i. Kechqurun boshlangan shamol kechasiga borib kuchayib ketdi, shamoldan qamishlar chayqalib, bir-biriga urilib shovullaydi. Atrofda nimadir uliganday, nimadir chinqirganday bo'lar edi...

Qorovullikka qo'yilgan yigit o't atrofida biroz uyg'oq o'tirgach, pinakka ketdi. Faqat Cho'loq polvongina uyg'oq.

Polvon ham boshi tagiga egar to'qimini qo'yib ko'zi ilinib borayotgan edi, yonginasidan nimadir irillab o'tganday bo'ldi, uning uyqisi ochilib, boshini ko'tardi. Atrofiga alanglab qaragan edi, hech narsa ko'rinmadi. U yotolmay o'rnidan turib otlarni aylanib ko'rib keldi, hammasi o'rnida, o'tlab yuribdi. Oq bo'z nariroqda... Qorovul yigit dong uyquda.

Cho'loq polvon yaqinlashganda oq bo'z o'qrayib uning oldiga keldi-da, meni sila, deganday iyagini tutdi. Shu mahal Polvonning esiga ovuli, ota-onasi, G'aliya tushdi. U otning yoliga boshini qo'ydi, ko'zlaridan tirqirab yosh otilib chiqqanini bilmay qoldi. Xuddi boladek ho'ngrab yig'lay boshladi, tovushi chiqqanini o'zi ham payqamay qoldi. Bir mahal o'z tovushidan o'zi seskanib, ko'z yoshlarini artdi.

Beixtiyor Mahambet botirning:

Hoy, qizil qush, qizil qush!
Seni ko'ldan ayirgan —
Lochin qushning tepkisi;
Meni eldan ayirgan —
Jangir xonning epkini!
Buni aytmay bo'lurmi
Quvg'inlikda o'tdi-ku,
Mahambetning ko'p kuni! —

degan o'lani esiga tushdi.

Cho'loq polvon qattiq xo'rsindi, otini "endi o'tlagin, jonivor" deb orqasini, tomog'ini silab qo'yib yubordi. Oq bo'z ketmay, Polvonning oldiga kelib turib qoldi...

— Tushunaman, jonivorim, — dedi Polvon oq bo'zga qarab. — Nachora? Tug'ilib o'sgan yeringni sog'inasan! Bilaman! Meni sog'inmaydi deb o'ylaysanmi? Seni ham, meni ham bu yerlarga taqdir haydab keldi!..

Polvon o'pkasi og'ziga tiqilib o'zini yig'lab yuborishdan zo'rg'a tiyib turar edi. Oq bo'z tag'in biroz turdi-da, xuddi "yotib qolding" deb xafa bo'lganday, asta qamishzorga qarab keta boshladi.

Saksovul hali qizarib yonib turardi. Polvon saksovulning yo'g'on tomirini olovga tomon surib qo'ydi-da, yonboshladi. Tun borgan sari qorong'ilashar, shamol kuchayar edi...

Polvon yotibdi. Uning boshini turli-tuman o'ylar band qilgan, bu xayollar uni uxlatgani qo'ymas edi. U jonajon ovulini, yerini, qarindoshlarini, G'aliyani o'ylardi.

...U shu xayollar qurshovida yotar ekan, nazarida, ot kishnaganday, yo'q, chinqirganday bo'ldi. U "oq bo'zga bir nima bo'ldimikan!" deb uchib o'rnidan turdi. Ot tag'in chinqirdi. Shoshib qolgan Polvon qo'liga hech narsa olmay o'sha tomonga qarab yugurdi.

Qulog'iga qalin qamish orasida yugurib kelayotgan nimaningdir irillagan tovushi chalindi. Polvonning yuragi hovliqib, kichik bir bo'shliq joyga chiqqanda, bir narsa oqarib ko'rindi. Bunday qarasa oq bo'z ot! Ustida nimadir qimirlayotibdi. U bosh tomoni bilan otning bag'riga kirib ketibdi. Yo'lbars bo'lsa kerak deb taxmin qildi Polvon.

U ot ustidagi haligi maxluqning dumidan ushlab olib bir chekkaga siltab otib yubormoqchi edi, chog'i kelmadi. U otining bag'ridan uni zo'rg'a sug'irib oldi... Yo'lbars! U burilib hamlaga tayyorlanganda Polvon jon-jahdi bilan bir chekkaga siltab otib yubordi. Yo'lbars o'zini chaqqon o'nglab olib, Polvonga qarab tashlandi. Ikkalasi olisha ketdi. Polvonning qo'li kutilmaganda, yo'lbarsning kekirdagiga tushib qoldi. Yo'lbars bo'g'ilib, tilini chiqarib, bo'shanishga harakat qilib ko'rdi. Lekin Polvonning qo'li ushlagan joyida mahkam qotib qolgan edi. Yo'lbars jon achchig'ida Polvonning badanlariga tirnoqlarini botirishga urindi, baxtiga uning usti qalin edi. Tirnoq izlari baribir botdi... O'sha

payt yo'lbarsni qisib turgan qo'llari yozilib ketayozdi. "O'lsam o'laman, — dedi u. — Lekin ayrilmayman!"

Bo'g'ilib qolgan yo'lbars bo'shayolmasligiga ko'zi yetgach, omon qolish uchun o'zini olib qochishga harakat qildi. Biroq Polvonni sudrab ketolmadi, ikkalasi ag'anashib yiqildi. Polvon yo'lbarsning bo'g'zidagi qo'lini yanada mahkam qisa boshladi.

Bir mahal yo'lbars shilq etib tushdi. Polvon endi o'lgandirsan, deb yo'lbarsning halqumidan qo'lini olmay boshini ko'tarsa, tong ota boshlagan ekan. Shundagina u otining qorasini aniq ko'rdi. Shuncha yerdan kelib, ajaling shu yerda yetdimi, jonivor!" dedi Polvon xo'rsinib.

Polvon hali ham yo'lbarsning halqumidan qo'lini ayirmay uning choviga, qorniga, biqiniga tepib ko'rgan edi, qo'zg'almadi. O'lganligiga amin bo'lib, qo'lini olay desa ololmadi! Qotib qolibdi!

"Yo'ldoshlarimga nima bo'ldi ekan!" deb o'ylab, Polvon "Ho-oy!" deb baqirgan edi, "Ho'-o'v!" deb tovush berdi kimdir. Shundan keyin ular tezda qamish oralab kelib qolishdi. Shoshuvboy Polvonning yo'lbarsni mahkam bo'g'ib turganini ko'rib: "Yigitlar, bu yoqqa!" deb qichqirdi. Boshqa yigitlar ham qamish orasidan chuvullashib chiqa qolishdi.

— Tirikmisan? — deyishdi ular Polvonning oldiga yugurishib kelib.

— O'lgan bo'lsam shunday turarmidim? — dedi Polvon ularga maqtangannamo. Uning qotgan qo'li yozilib ketdi.

— Yopiray, Xudo bir asrab qolibdi! — deb qo'rqishdi yigitlar uning badanidagi yaralarni ko'rib. — Og'ir yaralanibsan-ku!

— Vahima qilavermaylik! – dedi Shoshuvboy. — Yo'lbarsni tez so'yinglar! Hozir, Polvonni iliq teriga o'rab tashlasak yaraning gazagini oladi.

Polvonning sheriklari yo'lbars terisini tezda shilishdi-da, olov yonib jurgan joyga olib kelib Polvonni qip-yalang'och qilib, qon hidi anqib turgan iliq teriga o'rab yotqizishdi.

Olatog‘ bag‘rida

Ko‘rganmiding qirg‘izning Olatog‘in,
Boshidan bulut ketmas, kunda yog‘in.
Sog‘indim olisdagi G‘aliyamni,
Bilsam edi yorginamning eson-sog‘in!

(Cho‘loq polvonning o‘z she’ridan.)

Arab mamlakatlarida bunday bir ertak bor emish. Polvon Ali uzoq bir mamlakatda Darig‘o ismli bir polvon qiz bor, deb eshitib, o‘sha qiz bilan kurash tushish uchun qidirib boribdi. Polvon qiz bilan u bir necha kun olishib, yiqitolmabdi. U nomusga chidayolmay qizni arang yiqitibdi-da, unga uylanibdi. Ular bir necha kun turmush qurishgach, Ali o‘z eliga qaytib kelibdi, qiz esa o‘z yurtida qolibdi. Qizning oy kuni yetib o‘g‘il tug‘ibdi, o‘g‘lining otini Madi qo‘yibdi. Madining qirq kun ichida bo‘yi qirq gaz o‘sibdi, qirq birinchi kun u otasini izlab yo‘lga chiqibdi. U necha tun-u, necha kun yo‘l yurib, bir joyda kurash tushayotganlar ustidan chiqib qolibdi. Madi ularni tomosha qilib o‘tirib, o‘zi ham kurashgisi kelib qolibdi. Kurashni bir keksaroq odam boshqarib o‘tirgan ekan. Xullas, Madi haligilar bilan kurash tushib hammasini yiqitibdi. So‘ng haligi keksa odamning ori kelib bola bilan o‘zi kurashmoqchi bo‘libdi. Keksa odam u bel ushlagan mahalda, Madi: “Yo Ali!” deb uning tizzasini bukibdi. Haligi keksa odam: “To‘xta, sen Madi emasmisan?” deb so‘rabdi. Madi uning gapini tasdiqlabdi. “Bo‘lmasa, men sening otang — Hazrati Ali bo‘laman!” deb tanishtiribdi haligi keksa odam o‘zini. Madi uyalib, tura qochibdi. Ali uning orqasidan quvibdi. Axiri, yetib ushlashiga ko‘zi yetgach, Madi yerga: “Men otamning yoqasidan ushladim, endi uni ko‘rishga yuzim yo‘q, meni yashir!” deb yalinibdi. Yer Madining gapini inobatga olib, ikkiga yorilibdi-da, Madini bag‘riga yashiribdi.

Zamon oxir bo‘lganda yer yuziga Dajjol degan narsa chiqib dunyoni yamlay boshlarmish, o‘shanda Madi yer bag‘riga chiqib insoniyatni ana shu ofatdan saqlab qolar emish...

Qadimda Yettisuv deb atalmish Uysin-Dulat elida:

— Yer yuziga Madi chiqibdi, — degan shov-shuvlar tarqaldi.

— Qo‘y-e... — deyishdi ba’zi bir qariyalar bu gapga ishonishmay.

— Rost!.. Odamning arsloni emish. Tuyani qo'ziday orqalab ketar emish!.. Go'shtlari temirdan deydi... Tishi bilan otning o'rta iligini kemirar emish. O'zi juda ham cho'ng, haybatli emish... Bir qo'li cho'loq deyishadi..

— Yopiray, unda oxir zamonning yaqinlashib qolganimi?! — deb vahima qilishdi bu gapni eshitganlar. — Mullalardan so'rab bilish kerak ekan. Madining ham bir qo'li cho'loq bo'lganmikan?

— Odamlar mulladan so'ragan ekan, u kitob ko'rib: "Madining bir qo'li cho'loq bo'lgan" degan rivoyat topibdi, — degan xabar tarqaldi.

Yoz payti edi. Olatog' bag'ridagi bir yaylovda, Qali O'rdaboyev degan bir boynikiga to'planishib qimiz ichib o'tirgan odamlar ham shu haqida hangomalashganlarida tashqaridan kimdir: "Kim bor?" deb chaqirdi.

Qali sal kiborroq odam edi, tashqarida turib "Kim bor?" deydigan odamni uncha yoqtirmas edi.

— Hoy, kim bo'lsang ham tushaver otdan!.. Oldingga chiqib seni qarshi oladigan odam yo'q bu yerda. Tushmasang, katta ko'cha, ketaver! — dedi qichqirib.

Sal o'tmay o'tov ichiga bashang kiyinib olishgan o'n chog'li yigit kirib kelishdi. Ularning o'rtalarida kelishgan, quyuq qora mo'ylovli, cho'qqi soqol bir yigit Qalining ko'ziga boshqacharoq ko'rindi.

— To'rga chiq! — dedi unga Qali yoqtirmay.

Qali o'ng tomon bo'sag'ada boshqa mehmonlardan xoliroq joyda o'tirgan edi. Bu ovulda hech kim unga yaqin o'tirolmas edi. Mehmon yigit bu tartibni buzib, Qalining yonginasiga borib o'tirdi. O'zgalar esa to'rga chiqishdi.

Mehmonning o'zini erkin tutishiga g'ijingan Qali hadeganda sir boy bermadi, sipo so'rashib, so'zlashib o'tirdi. "Olisdan kelayotgan bo'lsa kerak, bu o'ktamligiga qaraganda bir gap bo'lsa kerakov!" deb tusmolladi u.

— Yo'l bo'lsin, mehmon? — dedi uy egasi unga burilib.

— Alay bo'lsin... Gap avvalo sizdan bo'lsin!..

— O'zingizni tanishtirmadingiz ham, mehmon?

— Tanishtirmasak, ayb bizda. O'zimizni tanishtiraylik, deganimizda oldimizga chiqmasangiz, ayb sizda. Tashqarida ko'rishib,

quchoqlashib omonlashmaganingizdan keyin, endi yotib-yastanib bemalol gaplashaveramiz-da...

Qali so'zdan yutqazib, qiyin ahvolda qoldi.

— Mayli, gaplashsak gaplshaveramiz-da, — dedi-da, yigitlarga buyurdi: — Yo'lovchilar chanqagan bo'lsa kerak, chuvot (qatiqqa suv qo'shilib tayyorlangan suvsin) olib kelinglar!

Hidi dimog'ni qitiqlab turuvchi xushta'm chuvotdan mehmon yigit birvarakayiga ikki-uch kosasini bir ko'tarib ichdi-da, peshonasidan chiqqan terni artib dedi:

— Rahmat, qondim.

U yonboshladi. Boshqa yo'lovchilar shoshmay asta-sekin icha boshlashdi. Mezbon bilan yonma-yon o'tirgan mehmonning chuvot ichishi ham, betakalluf yonboshlashi ham Qaliga erish tuyuldi, u mehmonni gapga solmoqchi bo'ldi:

— "Urug'ini yo qul, yo quv yashiradi" degan gap bor, mehmon. Siz o'shalarning qaysi biri ekanligingizni "yotib-yastanib" bilarmiz. Mayli, bu haqda gapirmasang, mana bu gapga javob ber: jussang ulkan ekan, tag'in polvon-molvon bo'lib yurmagin.

— Nega unday deysiz?

— Gavdangga qarab aytayotibman-da...

— Tuya bo'yiga ishonib yildan quruq qolgan ekan. Nima, gavdali kishilarning bari polvon bo'laveribdimi? Polvon gavdasi bilan emas, kuchi bilan sinalmaydimi? Kuchlimanmi, yo'qmi, sinashsangiz bilarsiz!

Qali "bu sal qing'irroq so'zlaydigan odamga o'xshaydi" deb o'ylab, o'rni kelsa u bilan sinashmoqchi bo'ldi. U yosh kezlarida kurash tushib, eldagi polvonlarning biri atalib yurdi-da, yoshi ulg'aygach, semirib ketib kurashmay qo'ygan edi. Endi u o'z kuchini ko'rsatadigan hunar chiqardi: uyiga kelgan mehmonni agar sal gavdasi yirik, miqtiroq bo'lsa, yoniga o'tqizib olardi-da, o'ng tomonidan so'l tomoniga, so'l tomonidan o'ng tomoniga ko'tarib olib qo'yib o'ynardi. Uning shu odatidan qo'rqib ba'zi bir semiz odamlar uning yoniga yo'lamasdi.

Qali hozir ham mehmoniga shu hunarini ko'rsatkisi kelib, biroz jim o'tirgach, dedi:

— Mehmonjon?

— Labbay, — dedi mehmon boshini ko‘tarib.

— Sizlar tomonda “Ko‘nglida yomonlik yo‘q” degan maqol bormi?

— Bu maqol faqat sizning elingizdagina emas, balki qozoqlarning hammasiga ham birday oid maqol bo‘lsa kerak. Yo mening qozoq ekanligimga shubhangiz bormi?

U Qalini gap bilan tag‘in bir marta ilib tashladi. Qali buni sezdirgisi kelmay:

— Unday bo‘lsa mening bir hunarim bor edi, shuni ko‘rsatsam uyat bo‘lmasmikan?

— Qanaqa hunar ekan u. Qani ko‘raylik-chi?

— O‘ng tomonimda o‘tirgan mehmonimni so‘l tomonimga ko‘tarib o‘tqazib qo‘yardim.

— Unday bo‘lsa, marhamat, men tayyorman.

— Bo‘pti bo‘lmasa, — deb Qali o‘ng tomoniga engashdi-da, qo‘lini mehmonning orqasidan, ikkinchi qo‘lini taqimi ostidan olib o‘ziga tortdi...

Boshqa mahallarda bunday tortishda qanaqa mehmon bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘atib olib, bu yoniga osongina o‘tqazib qo‘yar edi. Bu esa xuddi zil-zambil toshday qimir etmaydi... Qali qanchalik harakat qilmasin, mehmonini o‘rnidan qo‘zg‘atolmadi. U terlab-pishib ketdi, kuchi yetmagach, qo‘lini olib entikib dedi:

— Toshmisan, temirmisan, bilmadim, mehmon. Asov otni ham dumidan ushlaganimda qimir etkazmay qo‘yar edim, qanaqa og‘ir odam bo‘lsa ham ko‘tarib ketaverar edim. Seni qo‘zg‘ata olmadim.

— Unday bo‘lsa, ruxsat eting, men ham shu hunarni ko‘rsatishga urinib ko‘ray? — dedi mehmon. — Maylimi?

— Mayli-ku, lekin sen meni ko‘tara olarmikansan?

— Nima uchun?

— Otdan kuchli emasdirsan. Meni ot ham ko‘tara olmaydi. Faqat nortuya bilan ho‘kizgina ko‘tara oladi...

— Bordi-yu, ko‘tara olmasam ayb qilmassiz. Siz ko‘rdingiz-ku, men ham bir ko‘ray.

— Mayli, o‘zing bilasan.

— Men ham sizga o‘xshab o‘naqay edim, — dedi mehmon. — O‘ng tomonga o‘tib ko‘tarib ko‘rsam maylimi?

— Ixtiyoring.

Mehmon Qalining o‘ng tomoniga o‘tib o‘tirib bir qo‘lini bo‘ksasidan, ikkinchi qo‘lini quchoqqa sig‘maydigan yo‘g‘on gavdasidan ushlab “xaup!” deb yulqib tortganda u dovuldan yiqilgan yo‘g‘on daraxtdek qiyshayib ketdi... Mehmon shu kuyicha uni xuddi bo‘sh bochkani orqalaganday qilib ko‘tara ketdi.

— Qornim yorildi... Tushir!.. — dedi u yalingan tovushda.

Mehmon uni bo‘sag‘agacha olib borib ehtiyot qilib tushirdi.

— Yopiray, o‘zing kimsan? — dedi mehmonga Qali.

— Boya kelishdik-ku, buni “yota-yastana gaplashaveramiz” deb.

— Deyishga dedig-u, shunday bo‘lsa ham?..

— Gap bitta bo‘ladi, lafzdan qaytish yaxshi emas.

Qali tag‘in gapdan qoqildi. U mehmonini o‘rniga o‘tqazib, buyruq berdi:

— Yigitlar! Bu odam kim bo‘lmasin, ajoyib odam ko‘rinadi. Asta-sekin tanisharmiz, mol so‘yinglar, ovqat hozirlanglar!

Yigitlar buyruqni bajarish uchun chiqib ketishgan mahalda, bashang kiyinib olgan o‘n nafar yigit kirib keldi.

— Cho‘loq polvon shu yerdami? — dedi yumaloqqina, o‘rta bo‘yli, bug‘doy rang, qora cho‘qqi soqolli, kelishgangina bir kishi.

Uydagilar bir-birlariga qarashdi.

— Yanglishmasam, Cho‘loq polvon sen bo‘lsang kerak-a? — deb haligi odam do‘mbira tutgan qo‘lini unga cho‘zdi.

— Ehtimol, — dedi mehmon.

— Unday bo‘lsa men Dulatning Saribosh degan bolasiman.

— Eshitgandim! — dedi mehmon uning hurmatiga o‘rnidan turib. — Kel unda quchoqlashib ko‘rishaylik.

Ikkalasi quchoqlashib ko‘rishishdi.

— Ovozangni eshitgan edik, — dedi Saribosh Cho‘loq polvonga, — bir ko‘rishga xumor edik. Orqangdan quvlab yurib, mana, yetdik. Mana bular, seni bir ko‘rishga mushtoq bo‘lib yurgan Uysin-Dulatning shoirlari.

— Mening izlaganim ham sensanlar, — dedi Cho‘loq polvon shoirlarga ta’zim qilib.

— “Madi chiqibdi!” deb hovliqqan edinglar, — dedi Saribosh uydagilarga. — O‘sha Madi mana o‘tiribdi!

Odamlar hayron bo'lib qolishdi.

Majlis qizigandan qizib ketdi. Qalinning o'tovi sirtiga yopilgan kigiz teshilib, tashqaridan yuzlab ko'z mo'ralashib tomosha qilishdi.

— Hoy, bu qanaqa beboshlik! O'tovni yiqitasanlar. Kigizni rasvo qildilaring-ku! Yo'qolinglar! — deb Qali ayiqday baqirdi. Odamlar uning gapiga parvo ham qilishmadi. Ular go'yo bugun ko'rib qolishmasa, ertaga ko'rolmaydiganday kigiz teshigidan talashib-tortishib mo'ralashar edi.

— Mehmon, sen qo'shiq bulog'i — Ko'kchatog'dan kelgansan. Odamlar seni tinglamoqchi bo'lib turishibdi. Qani, endi Yettisuvning chanqog'ini bir qondir! — deyishdi mezbonlar.

Cho'loq polvon ularning iltimosiga ko'ra o'lan boshladi:

Yoshlikda duch kelmasmu yigit dovga?
U dovdan omon qolsang, boshing sovg'a!
Yettisuv mevasi mo'l daraxt eding,
Keldim, butog'ingda qo'noqlashga!

U o'lanni shunday deb boshlab, bu yog'iga bu yerlarga nima uchun kelganini, yo'l-yo'lakay nimalarni ko'rganini, nima gaplarni eshitganini so'zlab ketdi. U o'lani bilan tinglovchilarini ham kuldirdi, ham yig'latdi, ham xursand qildi, ham xo'rsintirdi...

Yettisuvliklar Polvonni oylab emas, yillab mehmon qilishdi. Uning qishi ham, yozi ham to'y-tomosha, o'yin-kulgi bilan o'tdi.

U qayerga borsa odamlar:

— Hol-ahvolingni eshitdik, — deyishdi. — Og'ayni qidirsang — urug'ing mana shu. Uysin. Uysin bo'lmagan taqdirda ham seni bu yerda hech kim yotsiratmaydi, orqangda ayg'oqching ko'p ekan. Bilamiz, tug'ilib o'sgan yering aziz. Biroq sen u yerga qaytib bormayoq qo'y, tag'in bir baloga yo'liqib o'tirma. Shu yerga joylash, O'tov tikib beraylik, oldingga mol solib beraylik, uylantiraylik.

Ayniqsa, shoirlar va qo'shiqchilar Polvonning bu yerdan ketishini xohlashmas edi.

— Eshitganimiz, Ko'kchatog' kuy bilan qo'shiqning bulog'i, — deyishdi ular. — U yerdan chiqqan kuy bilan qo'shiq Orqaning dalasini kezib, bu yerlarga zo'rg'a yetib kelardi, er-

kin eshitsak deb orzu qilar edik. O'sha chanqog'imiz bosilmadi, eshitgan sari yana eshitsak deymiz. Tag'in chanqaymiz. Umrimizni sening qo'shiqlaring bilan bezab o'tkazaylik. Qol shu yerda!

Polvon "Ana qaytaman, mana qaytaman" deb Yettisuvda o'n yildan ortiq yurdi. Olatog' etagida u borib ko'rmagan, u yurmagan joy qolmadi. Balxash ko'lining shimoliy tomoni bilan Avliyootaga bordi, Terskay tomonlarni aylanib Xitoy chegaralarigacha safar qildi. Polvon undan narigi tomonni ham ko'rmoqchi edi, chegarachilar ruxsat bermadi.

U qaysi ovulga bormasin, undan naridagi ovul odamlari kelib mehmonga aytib ketishar, baholi qudrat izzat-hurmat ko'rsatishga harakat qilishar edi. Yo'li uzoqlashib ketayotganini sezib tursa-da, Polvon ularning ko'nglini qoldirgisi kelmadi...

"Har elning odati boshqa, itlari qora qashqa" deganlariday, Polvon uchun yettisuvliklarning urf-odati, turmushlari, kiyinishlari, o'zi tug'ilib o'sgan joydagidan bo'lakcharoq ko'rindi, sezishicha, bu yerdagilarning hayotida "otam zamonidan qolgan" urf-odatlar ko'proq saqlanib qolibdi. Ko'kchatog'liklarning yozlik o'tovi kengroq, havosi ham balandroq bo'ladi. Yettisuvniki esa, aksincha, tor, havosi ham past bo'lar ekan. Ko'kchatog'liklarning o'ziga baquvvatlari bir necha xonali yog'och uylarda, kambag'allari esa, chimdan yasalgan yerto'lalarda o'tirishadi. yettisuvliklar qishda yashash uchun uy solishni bilishmas ekan. Ularning ko'pchiligi yerto'lalarda istiqomat qilishar ekan-u yo tepasidan, yo yonboshidan kichkina teshik ochib, qo'yning qorni bilan qoplab qo'yishar ekan. Ko'kchatog'liklar ko'pincha uy anjomlarini bozordan, fabrikalarda yasalganidan olishadi, bu yerdagilar esa ovul chevarlari yasagan odmi narsalardan foydalanishar ekan. Ko'kchatog'liklarning kiyimlari o'ris yo tatarchaga yaqinroq ixcham qilib tikiladi, bu yerdagilar esa keng-mo'l, uzun qilib shalpillatib kiyib yurishar ekan...

Bu yerning odamlarini Ko'kchatog' odamlari bilan qiyoslaganda, bu yerniki yuvoshroq, mo'min-qobilroq. Bu yerning odamlari Ko'kchatog'liklarnikiga qaraganda mehnatkashroq ekan. Nega deganingizda, Ko'kchatog'liklar o'zlari ekin ekishmaydi, oziqni yaqin o'rtadagi o'ris posyolkalaridan sotib olishadi, yettisuvliklar,

aksincha, ekinni o'zlari ekishar ekan, uni ariqdan sug'orishar ekan. Ko'kchatog'da boshqa, ekin ekishsa, sug'orishmaydi, yomg'ir yog'ishini kutib yotishadi. Har holda, yettisuvliklarning mehnati og'ir ekan.

Olatog' o'lkasining yeri Polvonga ham yoqdi, ham yoqmadi, yog'gan tomoni shu bo'ldiki, tog'ning etagi juda xosiyatli ekan, bu yerda bitmaydigan ekin yo'q ekan.

Shuning uchun ham bu yerdagilar: "Og'och eksang — arava o'sib chiqadi" deyishdi. Olatog'da o'sadigan mevalar Ko'kchatog'da o'smaydi, u madaniy o'simliklarning kamligi tufayli Yettisuvga nisbatan kambag'al: endi, Olatog'ning Polvonga yoqmaydigan jihati shuki, bu yerning bor fazilati faqat tog' bag'ridagina, tog' bag'ridan ellik-oltmish chaqirim nariga uzoqlashsang, tap-taqir yerni ko'rasan. Ko'kchatog'ning qaysi yeriga bormang, ko'm-ko'k o't-o'lan!..

Polvon yettisuvliklarni qanchalik hurmat qilmasin, o'n yildan ortiq yurgach, o'z-birodarlarini, ota-onasini, G'aliyani sog'inib, ketish uchun ulardan ruxsat so'radi.

— Tug'ilib o'sgan joyingga ketaman desang ruxsat, — deyishdi yettisuvliklar. — Biroq tag'in podshoning qiyin-qistoviga duch kelib qolguday bo'lsang, seni yashirishga tayyormiz...

Polvon ketayotib, yo'l-yo'lakay qaysi ovulga tushsa-da, ular bilan bir og'iz o'lan aytib xayrlashdi:

Olatog', mehmon bo'ldim og'nab-quvnab,
Shikasta ko'nglimga topdim men davo.
Qayta kelib ko'rishguncha sog'-omon bo'l,
Uysin, Dulat — urug'im, bu toza havo!

Polvon yoshligini ko'rganday bo'ldi

Olatog'dan qaytish oldida, Polvon yonidagi sheriklariga ruxsat berdi. Ular, seni o'z elinggacha kuzatib qo'yamiz degan edi, Polvon ularga vaj aytdi:

— O'zlaringga ma'lumki, — dedi u sheriklariga. — Men hukumatdan qochib yurgan odamman. Endi senlarni orqamdan

ergashtirib, shov-shuv ko'tarib borsam, ular: "Mana bu hali ham qilig'ini tashlamagan ekan-da", deyishadi-da, qo'lga tushirishadi. Bu ahvolga tushmaslik uchun, elimga kishi bilmas bo'lib borib, e'tiborsiz yurishim kerak.

— Shunday qilsang, hukumat senga tegmaydimi?

— Tinch yurgan odamda nima haqqi bor? — dedi Polvon. — Shoir Azizning "Ellik beshdan oshib ketgan kishining yigitlik davroni tugaydi" degan o'lanini aytib bermaganmidim? Mening ham yoshim ellik beshdan oshib qoldi. Endi menga sho'xlik yarashmaydi. Buning ustiga ko'nglim ham unchalik shod emas. Ovulimga boraman-u, o'timni o'tlab, suvimni suvlab, oddiy odamlarning biri bo'lib yashayveraman. Taqdirning bundan buyongi peshonamga yozgani shu bo'lishi kerak.

— Bu ish agar qo'lingdan kelsa... — deyishdi Polvonning gapini eshitib sheriklari. Uning gapi vaj edi, qarshi biror gap aytisha olmadi.

— Nachora, — dedi Polvon xo'rsinib. — Faqat ko'rshapalakkina yonayotgan olovga o'zini uradi.

Polvon jo'ralaridan ruxsat oldi. U endi bir yo'la "qo'ydan qo'ng'ir, qo'zidan yuvosh" bo'lib olay dedi-da, ustidagi bashang kiyimlarini yechib, jo'ralariga esdalik tarzida ulashib, o'zi juldur kiyimlar kiyib oldi. Hatto otini ham, ot jihozlarini ham jo'ngina qilib olib, jo'ralari bilan quchoqlashib, yig'lashib xayrlashdi-da, jo'nab ketdi.

Polvon Balxash ko'lining shimoliy qirg'og'i bo'ylab yurdi. U bu yoqqa kelishida narigi tomonidan yurgan, bu qirg'oqdagi odamlarning birinchi ko'rishi edi. U bir ovulga kelib tushlik qilar, ikkinchi ovulga kelib qo'nib, otini o'tlatib olar va shu mehmon bo'lgan joylarida "men falonchi bo'laman" deb o'zini tanitmas, oddiygina qilib "yo'lovchiman" deb qo'ya qolar edi. Egnida juldur ust-bosh, jo'ngina, oti ham unchalik maqtaydigan darajada emas, buni ko'rganlar uning Cho'loq polvon ekanini xayoliga ham keltirmas edi.

U Ile daryosi Balxashga kelib qo'yiladigan joydagi "To'por" degan joyga yetib keldi. Sori-Uysin urug'iga mansub bu ovulda, Polvon kelgan mahalda, qaysidir bir boy qizini uzatayotgan, kattakon to'y-tomosha bo'layotgan ekan. Polvonni bu to'yda hech

kim tanimadi, uning o'zi ham to'y tomoshalariga aralashgani yo'q, odamlarning nazarini tortadigan birorta qiliq ham qilgani yo'q.

To'y tugab, odamlar yaqin-tevarakdagi ovullarga tarqalisha boshladi. Polvon ham ko'pchilikka aralashib bir ovulga kelib tushdi.

Bu ovul "Kebekeng" degan kishiga alohida hurmat-izzat ko'rsatishdi. Polvon buning sababini bilsa, Kebekengning o'z ismi — Kepakboy ekan. U butun Dulat urug'ining ham oqsoqoli, ham maslahatgo'yi ekan.

O'sha oqsoqolning yoniga ergashib kelgan kishilar undan:

— Agar ruxsat bersangiz Keneni oldirar edik, majlisimizni qizitar edi, — dedi.

— Mayli, oldira qolinglar, — deb rozilik berdi Kebekeng...

— Bor, topib chaqirib kel, — deb buyurdi bir yigitga haligilar. Yigit ketdi. U ketganidan so'ng davrada Kenen haqida gap bo'ldi.

— Shu yigitni juda ham qo'shiqchi deyishadi, — dedi birov. — O'zi qaysi ovuldan?

— Asli Dulatdan. Dulatdan Janis, Janisdan Qasqarov, Qasqarovdan Sati-Bo'ti tarqagan. O'sha Sati-Bo'tidan. Mati buloq degan joyda istiqomat qilishadi. O'sha Sati-Bo'tida Azirboy degan bir kambag'al chol bo'lguvchi edi. O'sha cholning o'g'li. Qariganda ko'ribdi bu bolani. Yoshligida yetim qolib, boylarning qo'zisini boqqan ekan. Er yetib, qo'shiqchi bo'ldi, butun Dulatni og'ziga qaratib yuribdi. O'zi ham, ko'z tegmasin, sumbatligina, kelishgangina yigit. Ovozi ham tiniq, baland! O'zi ham she'r bitadi, ham qo'shiq aytadi. She'rlari unchalik ta'sirli bo'lmasa-da, qo'shiq aytganida bamisoli bulbul bo'lib ketadi!

— Kimdan o'rgandi ekan?

— Cho'loq polvondan...

— Nima deding? Nima, sen Cho'loq polvonni o'z ko'zing bilan ko'rganmiding?

— Cho'loq polvon Orqadan Yettisuvga kelayotib, yo'l-yo'lakay Sati-Bo'tini oralab Dulanqora tog'iga o'tayotganida, toshlar orasidan ajoyib bir kuy eshitilibdi. Polvon kuylayotgan odamni chaqirtirib kelsa, o'n beshlar chamasidagi yosh bola ekan. Haligi bir zorlangan bolaning o'z ahvolini bo'zto'rg'ayga o'xshatib aytadigan ashulasi bor-ku, o'sha kuyni shu bola yaratgan ekan.

— Yopiray, a?!

— Keyin Cho'loqqa bola yoqib qolibdi. Polvon uni o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'libdi, bola ham ko'nibdi-yu, biroq u bir boyga yollangan ekan, ruxsat bermabdi...

Polvon yurgan joylar doim to'y-tomosha deyishadi. Qosh qorayib qolgan mahalda, u Nug'ayboy degannikiga tushibdi. "Cho'loq polvon keldi" degan gapni eshitib, butun Qasqarov to'planishibdi. Shunda Polvon qo'shiq aytibdi. Hamma qasqarovliklar tang qolishibdi. Polvon ularga: "Mendan ham zo'r qo'shiqchi oldilaringda yuribdi-ku" deb Kenenni rosa maqtabdi. "Ishonmasanglar o'zlaring eshitib ko'ringlar!"deb ot yuborib bolani oldirib kelibdi, Polvonning gapi rost chiqqanini ko'rgan qasqarovliklar bolani boshlariga ko'tarishibdi...

— Yaxshi odamning sadag'asi ketsang arziydi. Kamtarligini qara uning: bolani oshirib, o'zini tushirib gapirganini ko'rdinglarmi? Bo'lmasa o'ziga teng keladigan odam yo'q deb eshitganmiz. Bor ovozi bilan aytsa tog'ni yangratib, toshni titratarmish!.. Aytishlariga qaraganda, Kenen ham o'sal emasga o'xshaydi-ku... Ehtimol, Cho'loq polvondan fotiha olib, og'ziga tuflatgandir!..

— Ha-ya! — deb chuvullashdi odamlar.

— Endi men senlarga qiziq bir hangoma aytib beray, — dedi bir odam tovushini ko'tarib.

— Xo'sh-xo'sh?

— Shu Kenen degan bola bor-ku, o'sha Cho'loq polvonning og'zidagi o'lanlarning barini ilib olibdi?

— Yo'g'-e?!

— Men senlarga aytsam, Cho'loq polvon No'g'ayboyning uyiga tushgan kuni men ham o'sha yerda edim. Polvonning o'lanini eshitamiz deb kelishgan odamlar uy ichiga sig'maganidan so'ng, ko'chaga joy qilishdi. U ko'chaga chiqib o'lan aytganida ovozi balandlab ketdi. Yo'q, u baqirib, qichqirib aytgani yo'q, salmoq bilan aytdi. Shuning o'zida ham tog'ni yangratib, toshni silkitib yubordi.

— Hovliqmaroq odam bo'lsa, odamlarni ko'rib hovliqib ketgan-da!

— Yo'q, sira ham unday emas, — dedi haligi Polvon haqida gapirayotgan odam. — Shunday qilib qiziq bo'ldi.

— Xo'sh?

— O'sha kuni Polvonning va uning jo'ralarining o'lanini eshitgan odamlar kiprik qoqishmadi. Polvon qiziq odam ekan. "Mana bu falonchi o'lanim, mana bu tugunchi o'lanim", deb hammasini boshini boshlab berar ekan-u, bu yog'ini jo'ralari ulab ketishar ekan.

— Bunisi ajoyib ekan-ku!

— Hali bundan ham qizig'i bor...

— Xo'sh-xo'sh?

— Polvonning, haligi aytganday, ajoyib o'lanlarini tinglashayotgan odamlar Hulkar oqqanida sal tinchishib qoldi. Xuddi shu mahal ingichkaroq, po'latni po'latga urishtirganda chiqadigan tovushday bir ovoz haligilarga jo'r bo'lib ketdi! U quruq tovushning o'zigina emas, tiniq tovush, ko'klam chiroyiday, chevarning kashtasiday ajoyib tovush!

— Yopiray, bu kimning tovushi ekan?

— Kenenning...

— U qayoqdan kela qolibdi?

— Cho'loq polvon, olib kelinglar, deb odam yuborgan edida. U azaldan tortinchoq bo'lib o'sgan ekan. Shuning uchun ham kelishi bilan Polvonning oldiga borib o'tirishga jur'at etmabdi-yu, odamlar orasiga borib o'tiribdi. Yuragida o'ti yo'q odam o'lan ayta olarmidi? Polvon jo'ralari bilan o'lan aytayotganda, u o'zini to'xtatolmay, qo'shilib ketibdi. Haligi ingichka tovush shuniki ekan...

— Xo'sh, shundan so'ng nima bo'ldi?

— O'lan aytilib bo'lgach, Polvon uning oldiga bordi-da, "Ha, keldingmi?" deb mahkam quchoqlashdi. "Xaloyiq! — deb murojaat qildi Polvon. — Senlarning bulbullaring mana shu! Bu bolaning ismi sharifi Kenen Azirboy o'g'li. Bu bola o'zingning Dulatingdan. Sati-Bo'ti urug'idan. Biroq bu bola faqat o'z ovulining farzandi emas, hammamizga tan, hammaga birday xizmat qiladigan bola. Biroq bu bola bugun qo'y boqib yuribdi. Bugungi ahvolini o'z quloqlaring bilan eshitdinglar. Xo'sh, Kenen, ayt, "Bo'zto'rg'ay" degan o'laningni!"

Kenen "Bo'z to'rg'ay" degan o'lanini aytganida tinglovchilar uning ayanchli ahvolini ko'z oldilariga keltirib mung'ayib qolish-

di. Shunda Polvon unga, endi "Ko'kcho'loq" degan o'laningni ayt, dedi. Kenen shu o'lanini aytganida odamlar qotib-qotib kulishdi. Shundan so'ng Polvon odamlarga: "Mana ko'rdilaringmi, qo'ylaringning qiyi tagida qanday oltin yotganini? Olinglar bu oltinni qiy ichidan!.. Bundan buyon zang bostirmay yarqiratib tutinglar bu oltinni!" dedi...

Polvon Kenenni o'zi bilan birga olib ketmoqchi ham bo'lgan ekan, uni yollab olgan boy ruxsat bermapti, keyin otasi ham qarib qoldim, o'zimdan uzoqlashtirmayman, debdi. Ammo Polvonning iltimosi ham bekorga ketmabdi: Dulat ahli uni boshiga ko'tarishibdi. Uning o'zi kuy ham, qo'shiq ham to'qiydigan bo'libdi, ovozi ham, kuy uchun yozgan o'lani ham ajoyib bo'libdi. Shundan boshlab Dulatda Kenen ishtirok etmagan to'yning qizig'i bo'lmaydi...

Kenen to'y-tomoshalarda o'z o'lanlarini aytibgina qolmay, boshqa bastakorlarning ham kuylarini, o'lanlarini, ayniqsa, Cho'loq polvonning o'lanlarini ko'proq aytadi...

...Shu payt bir necha odam jo'rligida aytilgan o'lan sadosi eshitilib qoldi. Buni eshitib, odamlar ham, Polvon ham dalaga chiqdi.

Oqshom payti edi. Haligi o'lan tobora yaqinlasha boshladi, yaqinlashgan sayin ko'rkam, tiniqlasha bordi...

— Kenen bilan jo'ralari! — deb tusmollashdi odamlar.

— Men bilsam bu xuddi Cho'loq polvonning o'zginasi! — dedi kimdir. — Kenen o'shaning usulida aytib kelyapti.

Kenen jo'ralari bilan ovulga yetib kelganda, xuddi qumdan o'sib chiqqanday, tevarak-atrofga odam sig'ishmay ketdi.

Bu atrofda shuncha odam sig'adigan uy bo'lmagani uchun odamlarni tashqariga o'tqazishga to'g'ri keldi. O'lan ham dalada, qum ustida aytildi. Odamlar o'zining sevikli o'lanchisini kutib o'tiraylik, deganday uni bir qum tepachaning ustiga o'tqazib qo'yibdi. O'sha mahal "mana, yaxshilab ko'rib olinglar" deganday osmonga o'n to'rt kunlik oy chiqib atrofni sutdek yoritdi...

Kenen qumtepada, nishablikda odamlar, ana shu odamlar orasida oddiygina bo'lib Cho'loq polvon o'tirar edi. O'sha mahal, Cho'loq polvonning nazarida, u o'zining yoshlik paytiga o'xshab ketdi. Hu bir yili ko'rganida yosh bola edi, endi bo'lsa soqol-mo'ylov qo'yib-

di! Peshonasi keng, qoshi quyuq, burni ham xuddi Polvonnikiday. Faqat farqi shundaki, Polvonning yuzi yumaloqroq, buniki sal cho'zinchoq. Polvonning ko'zi qisiqroq, buniki chiqiq, kattaroq. Polvonning iyagi uzunroq, buniki esa yalpoqroq...

Baribir shunday bo'lsa ham Polvon Kenen qiyofasida o'z yoshligini ko'rganday bo'ldi.

U hozir: "Mening kuylarimni, o'lanlarimni ham aytarmikan? Agar aytsa qanday chiqar ekan?" deb o'ylar, unga jon qulog'ini solib o'tirar edi...

Yettisuv shoirlarining bir g'alati joyi shunda ediki, ular to'yda, avvalo, o'lan bilan salomlashib olishadi-da, keyin boshqa o'lan boshlashadi. Odat bo'yicha Kenen ham hozir shunday qildi. U o'lan bilan aytgan salom-aligi Polvonga uncha ta'sir qilmadi, kuyi yog'gani bilan so'zi uncha maqtarli darajada emas edi.

Kenen endi boshqa kuylarga o'tib, o'lan ayta boshlaganda, Polvon qotib qoldi: uning yoshlik paytidagi ingichka tovushi sal yo'g'onlashib, shirali bo'lib qolibdi. Polvon Dulatda Sariposh degan shoirni ko'rgan edi. U o'lanni baqirib boshlab, o'ng qulog'ini burab-burab yuborar edi. Kenen ham shunday qildi. Biroq bu Sariboshdaqa kuchanib baqirmasdi, erkin kuylar edi, shunday bo'lsa ham uning tovushi olam-jahonga yetguday yangrab chiqardi. Polvon umri bino bo'lib bunaqa tovushni eshitmagan. Polvon juda xursand bo'ldi. Biroq u sir boy bermay, churq etmay o'tirar edi...

Polvon bunday razm solsa, Kenen ozgina yil ichida bir talay qo'shiq yaratib qo'yibdi. Bu kuylar xuddi arg'umoq bilan qorabayirdan tug'ilgan qulun misoli chiroyli edi.

Kenenning o'z kuylariga mehri qongan odamlar orasidan kimdir qichqirdi:

— Endi Polvonning kuylaridan ayt!

— To'g'ri, Polvondan bo'lsin!

— Xo'p bo'ladi! — dedi Kenen qo'lini ko'tarib.

Odamlar jim quloq solishdi.

— Xaloyiq! — dedi Kenen. — O'lan ham, kuy ham o'z egasiga o'xshashini yaxshi bilasizlar. Polvon asovroq, o'jarroq odam. Uning o'lanlari bilan kuylari ham o'ziga o'xshashroq,

sho‘x va bardamroq. Men bo‘lsam yuvoshroq odamman. Polvonning o‘lanlarini o‘zidan o‘rganib qolganim rost. Biroq men u kishining o‘lanlar aytish usulini o‘zlashtirganim bilan uni o‘ziday sho‘x va bardam ayta olmayman. Oralaringda Polvonning o‘lanlarini eshitganlar ham, eshitmaganlar ham bor. Eshitmaganlar bilishmaydi-yu, biroq eshitganlar sal o‘xshamay qolsa meni kechirsinlar.

— Buni eshitganimizdan so‘ng bilamiz-da, — deyishdi odamlar.

Odamlar butun jismi quloqqa aylanib jim qolishdi. A’zoyi badanini titroq bosib, Polvonning o‘zi ham quloq soldi...

— Men Polvonning o‘n ikki o‘lanini aytaman, — dedi Kenen do‘mbirasini sozlayotib.

— Bo‘pti, eshitamiz!

Polvon yoshligida qiz-kelinchaklarga bag‘ishlab to‘qigan “Nuqul ko‘k”, “Dingkiltak”, “Sakkiz kelin” kabi qator chiroyli o‘lanlarini aytib berdi. Bu kuylarni Polvon bir kezlari o‘zi ham shunday shirali, shirin qilib aytar edi, hozir u qizarib, uyalib tinglar edi.

“Dingkiltak” kuyining oxirida:

Yoshligimdan ataldim “Cho‘loq dev” deb,
Kim o‘ylar bu dunyoni cho‘loq-ov, deb.
Mol-u mulkni, boylikni tark etmayman,
“Oxir bir kun orqamdan qolar-ov” deb, —

degan so‘zlarini aytganda, Polvon yonidagilarga sezdirmay xo‘rsinib qo‘ydi. “Qo‘sh baraban” degan o‘lani, ayniqsa, bu o‘lanning:

Ko‘kchatog‘im
Har kun yog‘in,
Sakson ko‘lli
Mening ovulim! —

degan naqorati aytilganda, Polvon qattiqroq xo‘rsinib yubordi. Yonidagilar uning qattiq xo‘rsinganini eshitib:

— Ha, muncha xo‘rsinasan? — deb so‘rashdi. U indamay qo‘ya qoldi.

Yettisuvga kelgach, G'aliyani sog'inib, "Sursha qiz" degan o'lan yaratgan edi. Kenen o'sha o'lanni ham aytdi. Uning naqarotida bunday gaplar bor edi:

Shunday qilib, go'zal qiz
Ko'kchatog'da qolding-ov,
Ho-oy, go'zal qiz,
Endi omon bo'l-ey...

Polvon bu satrlarni eshitganda beixtiyor ko'zidan yosh chiqib ketdi. Agar Kenen Polvonning "Qulonning kishnashi" deb ataluvchi sho'x o'lanini, undan keyin "Qo'sh parda" deb ataluvchi jo'shqin o'lanlarini aytib yubormaganida, uning yonida o'tirganlar yig'laganini sezib qolgan bo'lar edi. "Qo'sh parda" degan kuyini eshitib Polvon sal sergak tortdi.

Bu o'lanning so'nggi bandi:

Mening otim — otam qo'ygan — Nurmag'ambet,
Ko'rib yuribman xalqimdan e'zoz, hurmat.
Ko'p odamli uyezdnoyning syezdida,
Ko'tardim sirkning toshin, ellik bir pud! —

degan so'zlar bilan tugar edi. Shu joyiga kelganda tinglovchilar: "Barakallo!" deb chuvullashdi...

"Yeldirma" deb ataluvchi sho'x kuyni eshitib Polvonning ko'ngli sal ko'tarila boshlagan edi, "Joy qo'ng'ir" deb ataluvchi o'lanning:

Aytayin "Joy qo'ng'ir"ni joyi bilan,
O'tar umr kuni, oyi bilan, —

degan satrlarini eshitib, tag'in mung'ayib qoldi. Ha, haqiqatdan ham uning umri o'tib borayotgan edi. Kenen ham uning mana shu o'yinini bilganday, uning umrning o'tishi haqidagi "O'tar umr" o'lanini boshlab yubordi:

Bir yoshga yetgunimcha yo'rgaklaysan,
Ikki yoshda bidirlab til qotmaysan.

Besh yoshda bezib uydan, tol ot minib,
O'n beshda jarda sakragan uloqdaysan.
Yigirmaga kelganda, sozda o'sadigan,
Yam-yashil, mayingina quroqdaysan.
O'ttizda o'rga sakragan quyon misol...
Qirqingda kamol topgan zo'r otdaysan!
Ellikda fikring-o'ying to'lib-toshib,
Tog'dan oqqan sharqiroq buloqdaysan.
Oltmishda bor-u yo'g'ing yuzga chiqib,
Atrofiga nur sochgan chiroqdaysan.
Yetmishda turasan sen yer tayanib
Senga qo'shgan yoringdan yiroqlaysan.
Saksonda bo'g'inlaring titrab-qaqshab,
Charchagan oriq otday buroqlaysan,
To'qsonda o'lsang o'lding, o'lmasang ham
Shum dunyo endi kimga turoqlaysan!

Bu gaplarni eshitib Polvonning tag'in qovoqlari tushib ketdi. Endi Polvonning so'nggi kunlarda yaratgan "Kenja qo'ng'ir" degan kuyi yangradi:

Qo'shig'imning bir nomi "Kenja qo'ng'ir",
Teng kelolmas arg'umog'-u qora ayg'ir.
Armonsiz Uysin-Dulat oraladim,
Ko'p qo'nib, bir ovulni qilmay dilgir.
Xumor-xumor qo'shig'imning muqomiga,
Quloq solar ba'zilar ilmog'iga.
Sari Orqaning sayragan bulbuli edim,
Yettisuv, qo'noqladim butog'ingga!..

— Shu bilan Cho'loq polvonning o'n ikki o'lani tugadi, — dedi Kenen odamlarga qarab.

— O'n bittasi endi tugadi! — dedi birov, sanab o'tirgan ekan.

— Qaysi birini qoldirib ketdim ekan unda? — dedi Kenen hayron bo'lib.

— Qani nomlarini aytib sanagin-chi, bilamiz qo'yamiz! — dedi odamlar. Kenen aytilgan kuylarini qayta boshdan sanay bosh-

lagan mahalda, Polvon o'tirgan tepaligidan asta pastga sirg'alib tushdi-da, saksovulga boylog'liq turgan otini yecha boshladi.

"Endi o'tirib nima ham qildim, — deb o'yladi u. — Mening o'yimda bor gapni Kenen xalqqa aytib berdi. Endi ko'rinib nima qildim? Ularni hovliqtirish uchunmi? Buning kimga keragi bor? Qo'y, undan ko'ra indamay jo'nab qolganim ma'qul!"

Polvon endi otlangan mahalda Kenen boya esidan chiqarib qo'ygan kuyni baralla aytib yubordi. Polvonga tanish kuy. O'z o'lani!

Polvon uzoqlashgan sayin o'lan avjiga chiqa boshladi. Yettisuvda qolib ketayotgan Kenen unga o'zining yoshligi bo'lib ko'rindi.

Uning ko'ngli yorishganday bo'ldi. Qaytib kelmaydigan elda shogirdi qolsa, uning ishini davom ettirsa qanday yaxshi! Polvonning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Bu — sevinch yoshlari edi!..

Ovchilik

Cho'loq polvon yurtimga hech qanday shov-shuvsiz kirib boraman, degani bilan bir oy ilgari "u kelyapti" degan xabar ovoza bo'ldi.

Xabarlar bu yerga har turli bo'lib yetib keldi:

— Uysinlar Polvonni boshlariga xon qilib ko'tarishibdi. U tomonlar juda to'q, badavlat yashashar ekan. Yaylovlarida o'n minglab qo'y, minglarcha tuya yoyilib yurarmish. Polvonning urug'lari ham nihoyatda boy yashashar emish. Ular Polvonga ikkita oq o'tov tikib uylantirishib qo'yibdi. Shu kunlarda Cho'loq polvon boylik ustida g'ozday qalqib, o'rdakday suzib yurganmish. Mollarining hisobi yo'qmish. Sog'uvchisi qirqta ayol, podachisi qirqta yigit emish. Uyida har kuni mehmondorchilik emish, ularga so'yilgan mollar katta bir to'yni obod qilguday emish. Polvonning o'zi ilgarigi sho'xligini, qo'yib shu el kishilarga ibrat bo'lguday odam bo'libdimish. Odamlar uning gapini ikki qilmasmish. Endi ota-onasini, xotin, bola-chaqasini olib ketgani kelayotgan emish...

— Ilgarigi kuchi kuch ekanmi? — deb olib qochdi ba'zi odamlar. — U yoqlarga borganidan so'ng arslon bo'lib ketibdimish. Qadimgi yog'ochdan yasalgan uylarni soyabonday ko'targanini ko'rgan odamlar bor. Bu kuchini ko'rgan u yerning hokimlari ustidan bo'yi baravar oltin sochib, ajoyib saroy qurdirib beribdi, xuddi podsholarday yashayotgan emish.

— Bu gaplarning hammasi yolg'on, — deb xabar qildi ikkinchi bir odam. — Bu yerda ulug'lar Polvonni Yettisuvga hiyla bilan yuborgan ekan. U yerga borgandan so'ng Yettisuvdagi ulug'lar ushlab olib, temirdan yasalgan uyga qamab qo'yishibdi...

— Qamalgani rost, — deb tasdiqladi uchinchi birov. — Shunda bir do'sti yo'lini topib temirni kesadigan pichoq keltirib beribdimish. Polvon temir uyni shu pichoq bilan teshib qochib ketganmish...

— Bu yerdan borgandan so'ng yuvosh bo'lib qolgani rost emish. Yo'lda oti o'lib, o'zi horib-tolib borganidan so'ng Yettisuvda uni hech kim, odam keldimi, it keldimi, deb e'tibor bermaganidan so'ng xor bo'lib eliga piyoda qaytib kelayotganmish...

Polvon haqida shunday g'iybat gaplar eliga yetib turdi. Bu gaplarni G'aliya ham, Balqash ham eshitdi. Bu paytda Qalampir ham, Boymirza ham dunyodan o'tgan edi. Qalampir sevikli o'g'lining Yettisuvga ketishiga rozilik bergani bilan bolasiga kuyib ko'p yotmay vafot qildi. Boymirza esa og'rib o'ldi. Ba'zilar Balqashga: "Endi seni Polvon nima qilsin, er qil!" dedi. Biroq Balqash er qilmay qaynag'asi To'leboyning uyida yashadi. Polvon Yettisuvga ketmasidan oldin u yukli edi. Polvon ketganidan so'ng u o'g'il ko'rdi. Ismini Tavken qo'ydi.

G'aliya Cho'loq polvon kelayotganmish, degan xabarni eshitib nima qilishni bilmay shoshib qoldi. U dastlab Polvonning Yettisuvga ketishiga ko'maklashgan bo'lsa-da, u ketganidan so'ng yig'lab-siqtadi, keyin ichikib bir oycha ko'rpato'shak qilib yotib qoldi. Yor-birodarlari buni ko'rib: "Sen shunday ojizmiding?" deb koyishdi, ba'zilar esa: "Bir-ikki yil degan nima, qaytib keladi, hamma narsa unut bo'ladi" deb nasihat qilishdi. Xullas uni umidli so'zlar sog'aytirdi, u to'shakdan boshini ko'tardi. Shundan so'ng asta-sekin Polvonni qumsashi,

qayg'usi bosila bordi, ba'zi kunlari esiga tushib yuragi achishsa ham, ba'zi kunlari ish bilan ovunib unutib ketadigan ham bo'ldi...

Mana Polvon endi o'sha uzoq davom etgan safaridan qaytib kelyapti. Bu xabar G'aliyaning so'nayozgan muhabbatini qaytadan o't oldirdi, uning yuragi qaytadan alangalana boshladi.

"Ammo, — dedi u xayolida — men-ku shunday yonib-kuyyapman, u kimning dardida kuyib-yonib kelyapti ekan? Er ozig'i yo'lda, deganlariday, u o'z nasibasini yo'ldan topib kelayotgan bo'lsa-ya?!"

Yettisuvdan yetib kelgan ba'zi gaplarga qaraganda, og'aynilari Polvonning oldiga mol solib, o'tov tikib, uylantirib qo'yishgan ko'rinadi... Tag'in ba'zi gaplarga qaraganda, uning hotini bitta emas, bir necha... yana hammasi ham go'zal...

Ba'zan bu gaplardan G'aliyaning ayollik nafsoniyati qo'zib, rashk qiladi... Polvonni ko'rishga ko'zi qolmaydi... Biroq tez jahlidan tushib, sog'ina boshlaydi. Bunday paytlarda u shunday derdi: "Qachon kelsa ham, qanday kelsa ham, ishqilib omon bo'lsin! Ko'zimga tirik ko'rinsin! Shunda men uning hamma gunohlaridan o'tar edim, qayerda yashasang ham, kim bilan yashasang ham ixtiyor o'zingda der edim, faqat omon bo'l der edim!.."

G'aliya Polvonning qanday va qaysi ahvolda kelayotganini bilmay bir shoshsa, shahar hokimlaridan cho'chib ikki shoshdi. Chunki ular agar Polvon ilgarigi qilig'ini qo'ymasa, tutib olib qamashmoqchi bo'lib o'tirishgan edi. "Bu qopqonga Polvonni men chaqiryapman. Oldiga chiqib uni ogohlantirib qo'ysammikan? Xabar qilganim bilan boshqa yoqqa ketarmikan u? Qayoqqa ham boradi, — deb o'ylardi G'aliya. — Yo oyog'iga kishan bo'laverganimdan ko'ra o'zimni o'zim o'ldirib qo'ya qolsammikan?" — degan bema'ni xayolga ham bordi.

G'aliya shunday xayollar girdobida yurganida, Polvon kelib ham qoldi. Tunov kunlari "ana kelib qoladi, mana kelib qoladi" degan xabarlar ko'payib ketgan edi. Ammo Polvon hali-beri kelavermagach, G'aliyaning toshgan ko'ngli bosilib, sovib qolgan

edi. Endi ba'zilar: "Nega kechikib ketdi? Yo bechora qo'lga tushib qoldimi", kabi gaplarni qilib, G'aliyaning ko'ngliga shubha solib qo'yishdi.

Shunday qilib, G'aliya hech qanday tayyorgarliksiz o'tirganida eshikdan Polvon kirib keldi. Bugun keladi deb G'aliya hech ham o'ylamagan edi. U uyini yig'ishtirmay, oddiy kiyimda, oqshom paytida mayda-chuyda ishlar bilan mashg'ul bo'lib yurganida, darvoza taraqlab qoldi:

— Eshikdan birov kirdi shekilli, — dedi u uyida yurgan o'n uch, o'n to'rt yoshlar chamasidagi xizmatkor qizga. — Chiqib xabar olgin-chi? Qo'nadigan joy yo'q, degin.

Qiz tashqariga chiqsa, yupungina kiyingan birov otdan tushayotgan ekan.

Qiz uning kim ekanini tanimay indamay qarab turgan edi, u yaqinlashib:

— Omonmisan, qizim? — dedi. Qiz odob saqlab indamadi.

— G'aliyaning uyi shumi? — deb so'radi yo'lovchi.

— Ha, shu, — dedi qiz.

— O'zi uydami?

— Uyda, — dedi qiz. Ichida: "Opamni so'rayotibdi-ku? Kim bo'ldi ekan bu", deb o'yladi u.

— Uyida otasi bormi?

Bu so'roqni eshitib qizning yuragi jiz etib ketdi. U Polvon degan odam borligi va uning qanday odam ekanligini, G'aliya opasining unga yaqinligini, o'sha odamning qaytib kelayotganini eshitib, uni naqadar sabrsizlik bilan kutayotganini bilar edi.

"Shu odam bo'lsa kerak, — deb o'yladi qiz. — Bo'lmasa, allaqachon o'lib ketgan buvamni so'rab o'tirarmidi?"

Qiz shu xayollar ichida jim turganida, haligi yo'lovchi uyga kirib ketdi. Qiz uning orqasidan ergashdi, G'aliya begonani uyga qo'ndirmaymiz, degan gapni bir necha bor aytishga og'iz juftladi-yu, biroq og'zi bormadi...

Polvon qizdan burun uyga kirdi. G'aliya dahlizda egilib nimadir qilayotgan edi. U bostirib kirib kelgan odamni sanqib yurgan odamlarning biridir-da, deb o'ylab uncha ro'yxush bermadi, qo'liga supurgi olib dahlizni supuraverdi.

Polvon uning bu sovuq qabul qilishini tanimaganga yo'y-di-yu, bir ozdan keyin: "Shu xotin meni atayin tanimay turgani yo'qmi?" degan xayolga ham bordi. U indamay chiqib ketmoqchi ham bo'ldi. Chunki u Ko'kchatog'ga kelgach: "G'aliya Polvonni allaqachon esidan chiqarib yuborgan, boshqa birov bilan turmush qurgan bo'lsa ham ajab emas..." degan so'zni eshitgan edi. "Mana bu qilig'iga qaraganda shu gap rostga o'xshaydi" degan xayolga ham bordi.

G'aliya eshikdan kirib indamay turgan erkakni ko'rib, xayoli bo'lindi. "Bu qanaqa odam o'zi, indamaydi, so'rashmaydi? Yo sovuqmikan?" deb o'ylab, gap qotdi:

— Yo'l bo'lsin? — dedi u qaddini rostlab.

— Mo'l bo'lsin! Rahmat, — dedi Polvon atayin tovushini o'zgartirib.

— Nega bo'sag'ada turibsiz?

— Beruxsat o'tolmay turibman-da...

Endi uning tovushi Polvonnikiga o'xshab ketganday bo'ldi, G'aliya yalt etib uning qomatiga qaragan edi, — xuddi Polvon-niki!

G'aliyaning a'zoyi badani titrab ketdi.

— Yuqoriga chiqing, — dedi u ichkari uyning eshigini ko'r-satib.

Polvon G'aliyaning bunchalik yupun, mung'ayib yurishini ko'rib, haligi gaplar odamlarning ig'vosi ekan-da, deb o'yladi-yu, unda qandaydir bir iliqlik paydo bo'ldi. U o'zini to'xtata olmadi. Quchog'ini keng yozib:

— G'aliya! — dedi.

G'aliya Polvonni shundagina tanidi, tanidi-yu, nima qilishini bilmay qoldi, ranglari oqarib bir nafas qo'rquv ichida orqasiga chekinib o'zini yo'qotib qo'ydi...

Ikki oshiq o'sha kuni kechasi bilan hamma sirlarini bir-bir-lariga aytishdi. Ular bu gal er bilan ayol bo'lib emas, odam bilan odam bo'lib, yosh bo'lishib, o'zlarini tutib olgan keksa kishilar bo'lishib gaplashishdi. Nihoyat, ular shunday qarorga kelishdi: ik-kalasi bir umrga do'st bo'lib qoladi, birining ahvolidan ikkinchisi xabar olib turadi-yu, ammo birga yashashmaydi. Polvon Ko'kcha-

tog‘dagi bola-chaqasi oldiga boradi-da, endigi umrini o‘shalarni boqib, tarbiyalab o‘tkazadi... G‘aliya shu uyda turaveradi, sog‘ingan paytlarida yuz ko‘rishib, borib-kelib turishadi... Endigi umrlariga agar tinchliklari buzilmasa, ular uchun bundan ortiq baxtning keragi yo‘q...

Bu shartlarni Polvonga G‘aliya aytdi, uni ko‘ndirdi. Polvon bu taklifga ko‘nmoqchi emas edi, biroq G‘aliya uni jon-holiga qo‘ymadi. Polvon noiloj ko‘ndi.

Ertasiga Polvon Ko‘kchatog‘dagi uyiga jo‘nab ketdi. Uning Oqmo‘laga kelib ketganini G‘aliya bilan anavi yoshgina qizdan boshqa hech kim bilgani yo‘q. G‘aliya qizga: “Polvonning kelib ketganini hech kimga aytma!” deb tayinlab qo‘ydi.

Polvon elimga kelsam, bir chekkada, faqir kishi panada degandek yuraveraman, deb o‘ylagan edi. U bu niyatiga yetolmadi. Birpasdayoq “Polvon qaytib kelibdimish” degan xabar ovuliga tarqadi ketdi. Polvon uyida to‘pir-to‘pir bo‘lishini xohlamagani bilan uni sog‘inib qolgan odamlar birin-ketin kelaverdi. Polvon xonadonining kambag‘alroq ekanidan ular xabardor edi. Shuning uchun ham ular: “Ko‘p yildan beri tuz-nasiba tatimading, bu sening nasibang”, deyishib birov qo‘y, birov to‘qli, birov mol, birov oziq deganday... olib kelishaverdi.

— Ko‘rsatayotgan iltifotlaring, hurmat-izzatlaring uchun tashakkur, — deb minnatdorchilik bildirdi ularga. — Men endigi umrimni tinchgina o‘tkazmoqchiman...

Biroq Polvon bu va’dasining ustidan ham chiqolmadi. Uning yurib o‘rgangan ko‘ngli uyida tinch o‘tqazmadi. Uni tinchitmagan narsa shu bo‘ldiki, u birinchi jahon urushi boshlanganini Yettisuvda eshitgan edi, endi ovuliga kelib, urushning og‘irligi ovulni zil-zambilday bosib-yanchib turganini ko‘rdi. Bu og‘irlik boylar ustiga emas, odatdagiday kambag‘allar ustiga tushibdi. Bunga chiday olmagan kambag‘allar Polvonning oldiga kelib: “Bu balodan bizni qutqar!” deb tinchlik berishmadi.

U qo‘lidan biror ish kelishiga ko‘zi yetmay, odamlarning ko‘zidan pana bo‘lish uchun ovchilik bilan shug‘ullana boshladi. Bir do‘stining olg‘ir qarchig‘ayini so‘rab olib, bo‘sh vaqtlarini tog‘da, atrofida xalq yo‘q ko‘llar tevaragida o‘tkazdi...

Xufiya maslahat

Ko'kchatog' uyezdining so'nggi paytdagi uyezd boshlig'ini qozoqlar "Davqora" deb atashar edi. U o'rnidan turgan mahalda o'rta bo'yli kishining qo'li bazo'r yetadigan novcha odam edi. U xuddi qorniga bir qop un bog'lab qo'yganday yo'g'on, yelkasi bilan boshi birlashib ketgan, orqasidan qaragan kishiga to'nkarilgan qozon misoli, oldidan qaragan kishiga esa kekkayib turganga o'xshab ko'rinar edi. Barmoqlarining har bir bo'g'ini bitta tuxumday kelar, ko'hna tovoqday yumaloq yuzlarida kichkina ko'zlari yiltillab o'ynab turar edi. Har mo'yi qisir biyaning dumiday dikkayib turardi, u basharasi bilan kulmas, qorni, qo'ying-chi, butun gavdasini silkitib kulardi. Kulganda ot kishnaganday bo'lar, xullas, u odamzod ichidagi bir maxluq...

"Davqora ovul aylanishga chiqibdi" degan so'z odamlarga "yong'in tushibdi" degan so'z bilan baravar edi. U safarga chiqsa, uning oldida qo'sh otliq chopar yuradi. U borib tushadigan uy bir kun oldin tayyor turishi kerak. Yo'lida na mol, na odam turishi kerak emas. O'zi juda mechkay — bir qo'yning go'shtini ko'rdim demaydi. Qaysi ovulga borib tushadigan bo'lsa ham bir kun oldin go'sht pishirilgan holda tayyor turishi kerak, bordi-yu, tayyor turmasa, uy egasini: "Meni pisand qilmading" deb kaltaklattirardi.

Aybsiz kishidan ayb topish uning uchun hech gap emas.

Oddiy xalq bu yoqda tursin, undan ovul kattalari, starshinalari ham qattiq qo'rqishardi. U Ko'kchatog'ga kelganidan beri turmaga tushib chiqmagan bo'lis, starshinaga yo'q desa, mubolag'a bo'lmaydi.

1916-yil u butun ovul bo'lislarini, starshinalarini oldiga chaqirtirdi. Nima uchun chaqirtirganini bilmagan starshinalar bilan bo'lislarning quti uchdi.

"Podshodan yorliq kelgan bo'lsa kerak, — deb cho'chishdi ular. — Bo'lmasa, hammamizni birday chaqirtirmagan bo'lur edi".

— Kim biladi, deysan? Urush bo'layotgan bo'lsa! Zamon alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi... Hukumatning topshirig'ini tugal bajarayotganimiz yo'q. Yo shunga jahl qilib chaqirtirdimikan? Sudlab yubormasa edi...

Ular, har ehtimolga qarshi, uyidan chiqishayotganida xotin, bola-chaqalari bilan xayrlashib chiqishdi.

Ular Davqoraning o'z uyiga kelishi kerak edi. Davqoraning Ko'kchatog'ning markazidagi tosh saroyidan ular ilonning uyasidan qo'rqqanday qo'rqishadi. Biroq nachora, ular qo'rqib-hurkishib, otlarini saroy oldiga bog'lab ichkariga qadam qo'yishdi.

Buni qarangki, Davqora ularni iliq chiroy bilan qarshi oldi, bu mehmonlarga qorong'i tun ichidan quyosh chiqqanday ta'sir qildi. Bu ilgarigi qora Davqora emas, juda sipo, odobli... ilgari u mahkamada hech kimni yaqiniga yo'latmaydigan edi, endi u uyining katta xonasiga joy qildirib mehmonlarga iltifot ko'rsatyapti! Taglariga gilam, ko'rpacha, yostiq!.. Ajabo!

"Ajabo! — deyishdi mehmonlar uyga kirganlaridan so'ng. — Qalay ixlosi tushib qoldi ekan bizlarga? Qiziq?!"

Qozoqlarning rasm-rusumini yaxshi biladigan Davqora ularni rosa mehmon qildi. Mehmondorchilikda kamchilik bo'lmasin deganday ahyon-ahyonda o'zi ularning oldilariga kirib: "Olinglar, yeb-ichib o'tiringlar", deb turdi.

Qozoq bo'lislari yigirmadan oshiq kishi edi. Buning ustiga o'rislarning bir necha atamanlarini, bo'lislarini taklif qilgan edi. Davqora ularning hammasiga ham birday iltifot, izzat-hurmat ko'rsatdi. Oqshom paytida mehmonlarni o'z kabinetiga taklif qilib, maslahatlashdi:

— Rossiyaning boshiga og'ir kunlar tushdi, — dedi u. — Mana, ikki yildirki, German bilan urushyapmiz. Bu urushda, albatta, biz g'alaba qilamiz. Biroq Germaniya tez taslim bo'lib qo'ya qoladigan yov emas. Uni yengish uchun ko'p kuch kerak bo'ladi. O'rislar butun kuchini ayamay kurashyapti. Mana shunday og'ir paytlarda Rossiyaga qaram o'lkalar ham qo'l qovushtirib o'tirgani yo'q, masalan, qozoqlar ham o'z qo'llaridan kelguncha yordam qilishyapti. Agar shu yordamni yana ham ko'paytirishsa, ertaga urush tugagach, Nikolay Aleksandrovich Romanov hazrat oliylari ularga katta rahm-shafqat ko'rsatadi. Qozoq xalqi shu kunga qadar mol berib yordamlashdi, endi odam bilan yordam qilsa juda soz bo'lar edi. Qozoq yigitlari urushga bormaydilar, faqat urush bo'layotgan joylar atrofida ish qiladilar. Albatta, ilgari askar berib

ko'rmagan xalqning bu taklifga ko'nishi qiyin, janjal chiqarishi ham ehtimoldan holi emas. Shuning uchun ham, bu gaplarning oldini olish maqsadida, e'tiborli kishilarni — siz, azizlarni chaqirtirib o'tiribman...

Davqora uzoq so'zladi. Uning so'zini shu mahkamada tilmoch bo'lib ishlaydigan qozoq yigit tarjima qilib turdi.

— Aytgan gaplaringiz bajariladi, taqsir... — deyishdi bo'lislar bir ovozdan. — Xalqni ko'ndiramiz. Qancha yigit kerak bo'lsa beramiz!

Qozoqlardan askar olish bo'lislar o'ylagancha oson ish emasligini aytib, Davqora, agar janjal bo'lguday bo'lsa, uni tezroq bostirishning chorasini oldindan ko'rib qo'yishni uqtirdi.

— Agar qozoqlar bosh ko'targuday bo'lsa, uni boshqara oladigan kim bor? — deb so'radi u bo'lsilardan.

Bo'lislar o'z elidagi xavfli odamlarni aytib berdilar. To'qsonboyning o'g'li Sizdiq o'sha mahalda Qo'tirko'l bo'lisining boshqaruvchisi edi, u Cho'loq polvonni aytdi.

Sizdiqning gapini eshitib, Davqoraning xayoli bo'lindi.

— To'g'ri, u juda xavfli odam! Agar xalq qo'zg'alguday bo'lsa unga rahnamolik qiladigan odam u. Shunday bo'lgandan keyin bir ilojini qilib, undan qutulishning chorasini ko'rish kerak, — dedi Davqora.

— Uni tiriklay tutish qiyin, — dedi Sizdiq.

— Xo'sh, unda nima qilamiz?

— Payt poylab ottirib yuborish kerak!..

Bu aql Davqoraga ma'qul bo'ldi. Biroq u davrada o'tirgan qozoqlar, yetkazib qo'yadi, deb o'ylab bu fikrini ulardan yashirdi:

— Bu bo'lmagan gap! — dedi. — Uni tiriklay qo'lga olish kerak. Axir u ham odam bolasi-ku. Ehtimol, uni so'zimizga ko'ndirarmiz. Ko'nmasa boshqa chorasini toparmiz.

Bu gaplarni sir saqlashga va'da berishib, bo'lislar ovullariga jo'nab ketishdi. Davqora ovuliga ketmoqchi bo'lib chiqib ketgan Sizdiqni, Yegor Propadkoni oqshomda uyiga chaqirtirib xoliroq maslahat qilishdi.

— Sening fikring durust, Cho'loq polvonni ottirish kerak, — dedi u Sizdiqqa. — Biroq bu gapni uchovimizdan boshqa kishi

bilmasin. Kim otganini ham hech kim bilmasin, agar bilib qolsa katta to'polon bo'ladi. Polvonni xalq yaxshi ko'rishini hukumat biladi. Agar xalq kim o'ldirganini bilib qolsa, talay odamning boshiga yetadi. Uni askar olish haqidagi yorliq chiqmasdan oldin o'ldirmasak, u albatta, xalqqa rahnamolik qiladi. Usiz ham shu kunlarda: "Podshoni yo'qotmasdan xalqqa tinchlik bo'lmaydi", deb xalqni o'gitlab yurgan ko'rinadi u.

Ular uchalasi maslahatlashib, Cho'loq polvonni, qarchig'ay bilan ov qilib yurgan mahalida otib o'ldirmoqchi bo'lishdi. Bu ishni bajarish Sizdiq bilan Yegorning zimmasiga yuklandi.

Suiqasd

Davqora bilan bo'lislar ovuldan askar olish haqidagi gapni naqadar yashirishga harakat qilishmasin, baribir tarqalib ketdi.

Odamlar bu gapni ko'proq Cho'loq polvonning oldiga kelib maslahat qilishdi.

— Xo'sh, botir, — dedi unga odamlar. — Eldan askar olisharmish, degan gapni eshitgandirsan. Bo'lislar, boylar o'z bolalarini olib qolib, nuqul kambag'allarning bolalarini jo'natmoqchi bo'layotganini ham ko'rib turibsan. Xo'sh, nima qilishimiz kerak? Ilgari, podshoni yo'qotmay tinchlik yo'q, derding. Shu gap qanday gap o'zi?

Polvonning o'zi ham bu haqida ko'p o'ylar edi. Ammo hozir o'ylab o'tirmay javob berdi:

— Uloq ham o'lar paytida baqirib, tuyog'ini siltaydi. Baribir oldimizda bir o'lim bor. Qo'zg'alamiz! Kurashamiz! Yo g'alaba qilamiz, yo o'lamiz! Ikkining biri! Shundan boshqa yo'l yo'q!..

— To'g'ri! — deyishdi odamlar.

— Biroq bunday ishni boshlashga aql-idrok kerak. Old-ortini o'ylab ish boshlamasak pand yeymiz. Men yaqinda Ulkan yuzni, O'rta yuzni tugal oraladim. Ularning birortasiga ham podsho yoqmaydi, chorasizlikdan indamay o'tirishibdi. Agar podshoga qarshi ko'tariladigan bo'lsak, hammamiz birga ko'tarilishaylik, deb kelishganmiz. Xalqning sabr-toqati tugadi. Endi mana bu askarga

olish masalasi uni alangalatib yuborishiga shubham yo'q. Bu alangani podsho osonlikcha so'ndira olmas. Biladigan odamlar, podsho urush qilaman deb charchab qolgan, deyishadi. Tavakkal qilib bel ushlashib ko'ramiz. Ehtimol, yiqitarmiz. Biroq butun qozoq bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmog'imiz kerak! Buning uchun yon-tevarakka choparlar yuborib xabar oldiraylik!

— To'g'ri!

Tevarak-atrofga choparlar ketdi. Ulardan: "Qo'zg'alamiz! Birlashamiz!" degan xabarlar keldi...

"Qozoq tugul qirg'iz, qoraqalpoq, o'zbek, turkman kabi xalqlar ham ko'tarilishmoqchi" degan xabarlar ovoza bo'ldi.

"Podshoga o'rislarning o'zi ham qarshi ekan. Ishchi va dehqonlari, bizga bunday podshoning keragi yo'q, deb janjal qilishyapti" degan xabarlar ham eshitildi.

Xalq bu ulug' ishga bosh qo'shayotgan kunlarning birida, Polvon kun tushlikdan oqqan mahalda xurjunini ovga to'ldirib uyiga qaytdi. Minib olgan oti oq bo'zday bo'lmasa ham, shu atrofdagi yaxshi otlarning biri edi. Qarchig'ali qo'lida...

Bugun Cho'loq polvonda qandaydir o'zgacha sezgi paydo bo'ldi. U ovuliga qaytib kelar ekan, ovuliga emas, qandaydir katta safarga otlanib ketayotganday his qildi o'zini. Go'yo hamma odamlar uning orqasidan ergashganday, barcha toshlar unga qalqon bo'lganday, tog'ning hamma qushlari g'alaba haqida sayrayotganday, podshoni yo'qotib, umrlik armoni — G'aliyasiga qo'shilib, muhabbat quchog'ida baxtli hayot qurganday sezdi o'zini!..

Polvon yo'lida yaxlit toshni aylanib o'tadigan bir joy bor edi. Ilgarilari shu tosh yonidan o'tayotganda uning ko'ngli allanechuk bo'lib, xavfsirab o'tar edi.

Bu gal xayoliga ham kelmadi, u tog'-u tosh orasini yangratib, "G'aliya" degan o'lanini aytib, o'sha tosh ro'parasiga yaqinlashib qolganda, orqa tomonidan "paq" etgan miltiq tovushi eshitildi.

Polvon cho'chib orqasiga o'girilib qaramoqchi bo'lgan edi, darmoni yetmadi, nima uchundir a'zoyi badani jimirlab, yuragi orqasiga tortib ketganday, ko'kragidan iliqqina bir narsa quyiga qarab yo'rg'alaganday bo'ldi...

"Yopiray, nima bo'ldi?.." deb u qo'lini qo'ltig'iga tiqib qaragan edi — qip-qizil qon!

— Yeding... — dedi u.

Tag'in miltiq tovushi chiqdi. Bu gal o'q kelib tegdimi yo yo'qmi, uni bilishga Polvonda chama qolmagan edi. U boshi aylanib, otdan yiqilib tushmaslik uchun o'ng qo'lidagi qarchig'ayini uchirib, ko'kragini egarning qoshiga tiragan holda otining yolini quchdi...

Uning esi hali butun edi. U o'zini kimdir qasdlik bilan otganini bildi. Biroq otgan odam Yegorning ofitser o'g'li va uning yonidagi Sizdiq ekanini u bilgani yo'q.

Polvonning ot yolini quchib yo'rtib ketayotganini ko'rgan Yegorning bolasi o'q chala tekkan shekilli, orqasidan quvlab borib tag'in otay, deb jadallab borayotgan mahalda, oldingi tomonda bir necha arava, odamlar kelayotganini ko'rib qolib, o'zini qalin qarag'ayzor ichiga urdi.

Polvon aravalar oldiga ot yolini quchib, zo'rg'a yetib keldi. Ular salt ot ustida yotib kelayotgan odamni ko'rib, avvaliga cho'chishdi. Yoniga kelgandan so'ng: "Kim ekan bu, bilaylik-chi?" deb otini to'xtatib qarashsa — Cho'loq polvon!

— Polvon!.. Hoy Polvon! Senga nima bo'ldi?! — deyishib, odamlar uning boshidan suyashdi. Polvon bir nima demoqchi bo'lib og'iz ochgan edi, og'zidan laxta-laxta qon keldi.

— Kim otdi?

Polvon bosh chayqadi. Yo'lovchilar Polvonni aravaga olishdi. Qarashsa, yag'rinidan tekkan o'q ko'kragini o'pirib chiqibdi. Yo'lovchilardan bittasi ustidagi ko'ylagini yechib, yirtib, uni o'rab bog'ladi.

Ular Polvonni ovuliga olib jo'nashdi. Uyiga olib kelishib, to'shak solib yotqizishdi, Polvon til qotmadi. Bu mahalda kun botay deb qolgan edi. Quyoshning yarmi botgan mahalda Polvon ko'zlarini bir ochdi-yu, qayta yumdi. Polvon dunyodan o'tgan edi...

Polvonning janozasiga ozgina odam aytilgan edi, ko'p odam yig'ildi. "Polvon dunyodan o'tibdi" degan xabarni eshitgan odam borki, hammasi yelib-yugurib kelaveribdi.

Polvonning og'aynilari: "Otib o'ldirildi", degan gapni nomus ko'rishib: "To'satdan, o'z ajali bilan o'ldi", deb gap tarqatishgan edi, rost gapni berkitib bo'lmas ekan, hamma bildi: "Albatta uni otganlar dushmanlari!"

— Biz ham indamay ketavermasmiz! — deb chuvullashdi xalq. — Otgan odamni topmay qo'ymaymiz. Qonga qon olmay qo'ymaymiz! Bittaning o'rniga o'ntasining jonini olmay qo'ymasmiz!..

Janozaga to'planishganlar ichida bu yerliklar tanimaydigan kishilar bor edi. Ularning ko'pchiligi Cho'loq polvonni ko'mish marosimiga ham qatnashishdi.

Polvon lahadga qo'yilib fotiha o'qilgach, bu yerliklar tanimaydigan bir o'rta yashar odam o'rnidan turdi:

— Xaloyiq, ruxsat bersangizlar, bir og'iz gapim bor edi, — dedi.

— Mayli, gapiring, — deyishdi odamlar hayron bo'lib.

— Men To'rg'ay uyezdidan kelgan edim. Urug'im — Qipchoq, ismim To'qtor.

— Olisdan kelibsan, yo'ling bo'lsin!

— Rahmat, — dedi To'qtor. — Shu yerga kelayotgan edim. Cho'loq polvonni izlab kelayotgandim, janozasiga duch keldim.

— Nima ishing bor edi?

— To'rg'aydagi Omonkeldi botirni eshitgandirsizlar?

— Eshitganmiz.

— Eshitgan bo'lsangizlar, o'sha Omonkeldiga Cho'loq polvon: "U tomondagi qo'zg'olonga seni rahbar bo'ladi deb eshitdik. Agar shunday bo'lsa, birgalashib harakat qilaylik!" deb xat yozgan ekan.

— Yozdim deyayotgandi, — deb chuvullashdi xabari bor odamlar. — Omonkeldiga yetgan ekan-da, a?

— Ha, oldi... — dedi To'qtor. — Omonkeldi botirning Polvonga aytib yuborgan gapi ko'p edi, xat ham yozib bergan edi. Endi o'sha gaplarni sizga aytaman, xaloyiq, endi o'sha xatni sizlarga o'qib beraman, xaloyiq!..

— Gapni keyin eshitaverarmiz, xatini o'qi! — deyishdi odamlar.

Xat biladigan bir odam o'rtaga tushib, o'qiy boshladi:

"Sizga, izzat-u va hurmatli, ziyoda qadrdon ko'rguvchi Nurmag'ambet Boymirza o'g'li Cho'loq polvonga, bizkim, Omonkeldi Uderboy o'g'li Imonovdan duoyi salom.

Ba'daz bizdan hol-ahvol so'ramoq murodingiz bo'lsa, sog' va salomatdurmiz. Yozgan xatingiz bizning qo'limizga kelib tegdi. Biz ham sizni botindan yaxshi bilar edik. Bundog'i el ham podshoning askar olishiga qarshi bo'lib, unga qarshi chiqmoqchi bo'layotgani rost. Biz ham o'zlaringiz kabi butkul qozoq eli bir tutash bo'lib ko'tarilishini maqbul deb topdik va eldagi e'tiborli kishilarga maktub jo'natdik. Shu mazmunda sizga ham xabar yuboray deb turganimizda, o'zingizdan xat kelib qoldi. Endi sizning oldingizga maxsus odam yuborib o'tiribman.

Yolg'izgina qozoq halqi emas, podshoni o'ris xalqining kambag'al ishchi dehqonlari ham yomon ko'radi, deb eshityapmiz. Hamma xalq mana shunday bir yoqadan bosh chiqarib kurashsa, podshoning kuli ko'kka sovurilishi turgan gap. Bizning ham qo'zg'aladigan paytimiz keldi...

Xat yozildi — birinchi iyul, 1916-yilda.

Omonkeldi Imon o'g'li".

— Ana tomosha! — deb Polvonning bir yaqin do'sti zavqlanib o'rnidan turib ketdi. Odamlar uni ko'rib hayron bo'lishdi.

— Tomoshang nimasi?

— Yettisuv tomonidan Toyinsha bozoriga kelayotgan savdogarlarning yoniga kelgan bir otliq yigit Cho'loq polvonga topshir deb menga bir xat berib ketdi. O'qib ko'rgan edim, mazmuni xuddi haligi xatga o'xshaydi.

— Qani u?

— Mana! — deb haligi yigit ko'krak cho'ntagidan xatni sug'urib oldi.

— O'qi-chi!

"Olatog'ning kun chiqishidagi o'zing ko'rgan uyg'ur, dungan, kungay tomonidan qirg'iz, o'zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari ham ko'tarilishmoqchi bo'lib yotibdi, — deb yozilibdi xatda. — Bu tomoni Uysin-Dulat, Qo'ng'irot-Nayman — hammasining fikri bir. Podsho tarafini olayotgan bir hovuch boylar etagimizdan bosish-

moqchi, biroq ularning gapiga kiradigan birorta odam yo'q. Bu tomondagilarga o'zing taniydigan qadimgi Bekpo'lat botir rahbarlik qilyapti. Biz ko'tarildik! Senlar ham ko'tarilinglar! Bir-birimizga hamkor bo'laylik. Ota-bobolarimizning maqoli bor: "Ko'p qo'rqitadi, teran botiradi!"

Xat o'qilib bo'lgach, odamlar duv o'rnilaridan turishdi. Polvonning qabri — shoxlari baland qarag'ayning tagidan qazilgan edi. Shu qarag'ayning boshiga Polvonning qarchig'ayi kelib qo'nganini odamlar payqashmadi.

Odamlar gur etib ko'tarilishib, otlariga mingan mahalda, cho'chib ketdimi, yo egasining gavdasini qora yer o'z bag'riga olganidan ko'ngli to'lmadimi, qarchig'ay ham "pir" etib uchib ketdi.

Uni odamlar shundagina ko'rib qolishdi. Cho'loq polvonning qarchig'ayi ekanini tanishdi...

Odamlar arvoh degan gaplarga ishonishar edi. Polvon hayot chog'ida: "Arvohim bor, u tushimda nuqul qarchig'ay bo'lib uchib yuradi", der edi. Odamlar uni: "Ana, Polvonning arvohi parvoz qilibdi", deyishdi chuvullashib.

Qarchig'ay tobora osmonga ko'tarila boshladi! Xalq ham oldinga — qo'zg'olonga otlandi. Bu to'lqin ilgari qozoq dalasida eshitilmagan, ko'rilmagan shiddat bilan yoyildi...

1940–1941-yillar.

QALMAQON ABDUQODIROV



"HOJIMUQON"

Bu — mening va'dam edi

1941-yilning bahori. Olatov bag'rida bahorning muattar hidi anqib turibdi. Qorlar erib, savr oyi boshlangan payt. Maysalar gurkirab o'sib, daraxtlar yaproq yoza boshlagan.

Aprelning o'rta kezlari edi. U.paytlarda oyog'im sal og'rib yurar, shuning uchun tashqariga kamroq chiqar edim. Uyimiz oldidagi ariq suvida idish-tovoqlarni yuvib o'tirgan ayolim hovliqib kirib keldi:

— Voy, keldi! — dedi qo'lidagi hali artilmagan idishlarning suvini oqizib, orqasiga qararkan. — Hojimuqon keldi!

Men o'rnimdan turib ulgurmasimdanoq:

— Qalmaqonning uyi shumi? — degan yo'g'on tovush eshitildi. Men ham bu mahal dahlizga chiqib, polvonning beso'naqay, yo'g'on barmoqlarini ushlab ulgurgan edim. Ha, hatto, umrida bir marta ko'rmagan odam ham uni kelbatidan taniy olar edi.

Ha, u kishi bizning uy (Olmaota shahri, Karl Marks ko'chasi, 97-uy) da yigirma uch kun turdi. Uyimizning oldidagi sakson yillik eman daraxti tagida qozoqning ne-ne qariyalari, hurmatli kishilari bo'lmagan deysiz!

Qo'chqorboyning bolasi Shashuboyman,
Qashshoq-gado bo'lsam ham so'zga boyman.
Bir umrga kamimas xazinam — xalq,
Moli ko'p, deb boylarga bosh urmayman.
deb kuylagan Shashuboy ham,

Oq sochli Olatovning Jambuliman,
O'landa — misli uchqur dulduliman.

Ustozimdir Buxorboy-u Suyunboylar.
Kuylamay, zamonamning bulbuliman, —

deb kuylagan Jambul ham bu dargohda ko'p marotaba bo'lgan.

Shuningdek, oqinning ajoyib zamondoshi Nurpeyis ham: tug'ma oqin, qo'liga dombirasini ushlasa to'xtamaydigan Iso ham; garmonga jo'r bo'lganda tovushi qo'shni uylarning devorini zirillatadigan Nortoy ham: ajoyib shoir Kenen, shirin til Quvvat, Soyadil, Yettisuvning iste'dodli oqini Ummatali, Janubiy qozog'istonlik O'rinboy, Alibek, partizan oqin O'marlar ham bu tabarruk joyda bo'lishgan. Qozoq dalasiga birinchi da'fa ilm-ma'rifat chirog'ini yog'gan mashhur Ibroy Oltinsarinning shogirdi Spandiyor Ko'beyev ham shu daraxtning tagida hordiq chiqargan. Mana endi atoqli polvon Hojimuqon ham tashrif buyurdi.

— Qalmaqon, Jambulning o'lanlarini yozib olishda ko'p xizmat qilding, ikki yillab Nortoyni izlading: sendan Mirzacho'l ham Nurota ham, Qo'qon ham, Farg'ona ham qolmadi, axiyri topib, Olmaotaga olib kelinishiga sababchi bo'lding. Balxashning bir chekkasida yotgan Shashuboyni samolyotda olib kelding. Xo'sh menga ayt-chi? Shuncha ishlarni qilgan Qalmaqon men uchun nima qildi? Men-ku kambag'al oilasidan chiqib, polvonlik bilan qozoqning dong'ini dunyoga taratibman. Xo'sh, sen shunday odam haqida aqalli o'ylab ko'rdingmi? Mana, Sobiting bor, G'abiting bor, Isang bor, sen borsan, boshqalaring bor... Qani men haqimda yozgan kitoblaring? Yo'q, men bunga chidolmayman. Ertaga Sobiting oldiga boraman. U meni Orenburgdalik vaqtimdan boshlab biladi, meni yozmay Nurmag'ambet haqida yozdi. To'g'ri, Nurakang tabarruk odam, yozgani yaxshi, lekin, nima uchun meni tilga olmaydi. Mana shuning uchun meni tilga olmaydi. Mana shuning uchun ham uning yelkasini sal ezib qo'ymasam, egasi kelmayman chog'i... — deb kuldi.

— Xafa bo'lmang, Hoji aka. Siz haqingizda ham yoziladi, albatta yoziladi. Sobit yozadi. G'abit yozadi... Ajoyib yozuvchilar yetishib kelyapti, ular ham, albatta, sizni tilga olmay o'tmaydi. Qani, bir choy ichaylik...

Hoji akang ko'rgan-biganlarini bir-bir aytaverdi. Men qo'limga qog'oz, qalam olib eshitib o'tirdim. Ammo qog'ozga hech narsa tushira olmadim. U go'yo bahor jalasiday shatir-shutur gapirar, uning ba'zi tomchilari joniga rohat bag'ishlar, ba'zisi esa muzday tegib seskantirar edi.

Darvoqe, jala! Jala ketidan dala yam-yashil qulpurib ketganday bo'ldi. Qilgan xizmatlaridan ko'nglim yorishib, unga qiziqib qoldim.

"Ari hamma gulga qo'nadi, biroq o'ziga kerak gulning shirasini so'radi, bol oladi", deb kerak-keragini yozib ola boshladim, tushunmagan joylarimni so'rab oldim. Yigirma uch kun badaliga dengizdan tomchigina olib qolishga muyassar bo'ldim.

— Yoz, albatta, yoz!

— Yozaman, og'a,

— Oshirib yozaman deb ovora bo'lma, borini yoz!

— Bo'pti, shunday qilaman, og'a...

Qor kurayotgan bola

Qantar oyining qirchillama sovuq kunlaridan biri; hamma yoq oppoq qirov bilan qoplangan. Qiziljar shahrining markaziy ko'chasidagi hovlilardan birida: "Ha, ha! Ko'tar, ko'tar!" degan tovushlar eshitiladi. Bu hovli savdogar Ivan Nogichning mol saqlaydigan joyi; u, kuzda so'yilgan bo'rdoqi mollarning go'sht-yog'ini jo'natayotgan edi.

Go'sht-yog'ni oltmishta chana bilan kirakash boy Orliy Maslikov tashir edi. Mana, o'ttiz pud yog' quyilgan katta bochkani o'nta odam o'rnidan qo'zg'atolmay halak. Haligi saroy ichidan chiqayotgan tovushlar shularniki edi.

Qor kurash uchun yollangan o'n olti yoshlar chamasidagi bir bola o'qtin-o'qtin hovli tomonga qarab qo'yardi.

— Hey, bola, otangning oti nima? — deb so'radi egniga qora to'n kiygan xo'jayin.

— Nima edi?

— Shunchaki so'rayapman-da.

— Quda bo'lmoqchimisan?... Gaping bo'lsa, o'zimga aytaver, — dedi qor kuraytgan bola kichkina qora ko'zini qisib.

— Yurgan kishilarni ko'rib hayron bo'ldi. Joyidan endi yarim metr yerga zo'rg'a surilgan bochkaning yoniga borib, uni yelkasi bilan itarib yuborgan edi, ostidagi taxta qasirlab ketdi. Nega u yoqqa qarayverasan ha deb. Tezroq qoringni kura-da, oladigan haqingni olib, jo'nab qol. Foydasi yo'q narsaga alanglayverasanmi, hadeb hovliga qarayverasan...

— Menga tushuntiring, axir nima qilishiyapti o'zi u yoqda?

— Tog' ko'tarishyapti.

— Shu hovliga sig'gan tog'ni ko'tarisha olmayaptimi? Shunga ham shuncha qiy-chuvmi? O'zlari odammi yo cho'pni — xari ko'tarib keldik deb, maqtanadiganlardanmi?

— Iye, bu bolaning so'zi o'ttiz pud yog'dan ham og'ir bo'ldiku. Saroyga olib bor, odamlar ko'tarolmay yotgan narsaning nima ekanligini ko'rsin, — dedi darvoza oldida issiq to'nga o'ralib turgan savdogar.

— Qani, borib ko'ra qol. Ana xo'jayinning o'zi ruxsat berdi.

— Ko'rsa nima qilibdi... — deb, haligi bola darvoza oldida turganlarni nari-beri itarib hovliga kirdi. Hammaning et-etidan o'tib kelayotgan ayozni nazar-pisand ham qilmasdi. U paxtali yirtiq chopon kiyib, etagini beliga qistirib, bosh kiyimlarini qo'liga olib dedi:

— Ko'tarolmayotgan tog'laring shumi?

— Nima, senga yengil tuyulyaptimi?

— Qiziq... Shu ham gap bo'ldi-yu... Tog' deganing nima ekan desam, chelakka o'xshagan idish-ku bu. O'n kishi chuvullashib ko'tarolmayotganlaring shumi? Qani, bo'lmasa chetroqqa chiqib, bochkani ortadigan chanalaringni tayyorlayveringlar. Hoy, yaxshi chopon kiyib olgan akalar, sal nariroq turinglar, falokat bosib biror joylaringni mayib qilib olmanglar tag'in.

— Namuncha qo'pol bu bola! Xo'jayinlarga ham shunaqa muomala qiladimi... Bir nimani qoyil qilib qo'yganday nega buncha kekkayadi! — dedi mo'ylovlari muzlab qolgan ishchilar.

— To'xta, mana bu ovuldan kelgan tentakning kuchini ko'raylik! — dedi bu yoqqa kelayotgan ikkita boy.

Bola engashib, haligi bochkani yelkasi bilan itarib yubordi. Bochka tagiga qo'yilgan taxta, g'o'la va lo'mlar shatir-shutur qilib ayqashib qoldi. Hademay o'ttiz pud to'ng yog' quyilgan bochka xuddi shamol uchirgan qamg'oqdek saroy darvozasining oldiga dumalab borib, ikki ot qo'shilgan chana ustiga qanday tushib qolganini odamlar sezmay ham qolishdi.

— Iye, bu bola nima qildi o'zi?

— Nima qilganini ko'rmayapsanmi? O'ntang qo'zg'atolmagan bochkani chanaga ortib qo'ydi.

— Men buni aytmoqchi emasdim, xo'jayin, shu... asli bu bola odammi, yo?

— Seningcha kim?

— Devmi yo... ishqilib, bir balosi bor...

— Kim bo'lsa bo'lsin-u, ammo o'ntang ko'tarolmayotgan bochkani bitta o'zi ortib qo'ydi chanaga. Menga shunisi kerak. Mana senga ellik tiyin, — dedi Maslikov semiz qo'lini barqut shimining cho'ntagiga solib.

— Xasis boy, cho'ntagingni qancha kovlashtirsang ham bir so'mlik sariq chaqa ilinmadi-ya, — deyishdi ikki boy bir-biri bilan hazillashib.

— Sen endi boyib qolding. Endi qor kuraganing uchun haq olmasang ham bo'ladi, — dedi hovli kurayotgan qorovul bolaga.

— Ko'p gapirmay, va'da qilingan o'n besh tiyinni bu yoqqa cho'zib qo'y. Nima, men boymidim? Menga o'n besh tiyin ham ovqat bo'ladi. Mana bu yetmish tiyinni ovuldagi buvimga yuboraman, — dedi yalpoq qayin kurak bilan baland devordan tashqariga qor otayotgan bola. U terlab-pishib ketgan edi.

— Orliy, ko'p gapirmay, mana bu qozoqni qo'lga ol. Kirakashlikka bunday odam kerak bo'ladi. O'rni kelganda yigirma kishining ishini bir o'zi qiladi. Unga bir qara, hali bo'g'ini qotmagan yosh bola-ku. Naq cho'yandan quyilgan alpning haykaliga o'xshaydi.

— O'zim ham shuni o'ylab yigirma tiyin ortiq berdim-da. Lekin o'ziyam yigirma kishining ovqatini yeydi-da. O'zing aytmoqchi, bo'g'ini qotmagan bola, xuddi rezinka qanordek cho'zilaveradi.

— Nima, sovuq urgan kartoshka bilan sasigan baliqni ayaysanmi? Pishirib beraver...

— Ha, bir ilojini qilarman. Yozin-qishin tinmay qatnab turgan kiraga bunday bola, albatta, kerak bo'ladi. Ayniqsa uzoq safarga juda asqotadi.

Bola qorni kurab, tegishli haqini olib bo'lgach, Maslikov yon daftarini olib, kulimsirab, uni gapga soldi:

— Ukam, sen qayerdan kelding? Bilaman, sen Qiziljardan emassan. Qaysi bo'lis, qaysi ovulliksan?

— Oqmo'la oblasti, Sariterak bo'lisi, Qurama ovulidanman.

— Otangning oti nima?

— Mungaytpas Ernaqov.

— O'zingniki-chi?

— Muqon. So'rab nima qilasan?

— Sen bilan do'stlashgim kelib turibdi.

— Nima, do'st bo'lib ot mingizarmiding?

— Mayli, mingizaman. Sen mening qo'limda ishlaysan, xo'pmi?

— Mayli, oyiga nima berasan?

— Hammasini beraman: ovqating mendan bo'ladi, kiyiming yo'q ekan, kiyim beraman. Mana bu katta ishchilarga qancha haq bersam, senga ham shuncha haq beraman, oyiga bir so'm sakson tiyin olasan.

— Do'stim, buning oz-ku. Rost, men ish izlab kelganman. Buvim, ota-onam bor, kambag'almiz. Hech bo'lmasa topganim ota-onamning choy puliga yarab tursin, biroz qo'shinqira.

— Mendan bo'lak kishi senga sakson tiyindan ortiq haq to'lamaydi. Haliyam senga achinib, kattalar oladigan haq hisobidan beryapman.

Bola biroz o'ylanib turdi-da, shunday yollangan edi.

* * *

Muqon Maslikovning uyiga kelgan kuniyoq, ishchilar turadigan yotoqxonaga joylashdi. Unga somon to'shalib, plitka qurilgan xonaning bir burchagi tegdi, kechasi shu yerda tunab chiqdi. Ertasiga xo'jayin uni — o'ttiz pud yog' solingan bochkani bir o'zi qo'zg'atgan pahlavonni uyiga chaqirdi, xotini, bola-chaqasiga,

mehmonlariga ko'rsatib, o'ziga xizmatkor qilib olganini aytdi. Uydagilar bolaning bo'yini o'lchab ko'rishdi, uni rosa tomosha qilishdi-yu, ammo Maslikovning gapiga ishonishmadi.

— E, bu bola o'ttiz pud yukni qanday ko'taradi? Bo'yi bir yarim gaz-u og'irligi ikki yuz qadoq. To'g'ri, bo'yni, qo'l-oyog'i yo'g'onroq. Biroq o'ttiz pud yukni ko'tara olishiga hech kim ishonmaydi, — dedi hisobchi o'zicha taxmin qilib. Maslikov o'z so'ziga ishontira olmaganidan ranjidi.

— Mayli, bo'lmasa Mungaytpasovning kuchini keyin ko'rarsanlar, — dedi u.

— Xo'sh, uka, yaxshi yotib turdingmi? Yotoqxona issiq ekanmi? Yigitlar bilan turish ko'ngilli bo'lsa kerak-a? Ular do'mbira chalishadi, o'lan aytishadi, qarta o'ynashadi. Haqiqatan ham bizning uyimizga qaraganda senlarning yotoqlaring yaxshiroq...

Hojimuqon xafa bo'libroq javob berdi:

— Xo'jayin, men unchaligini bilmadim, rostini aytsam, kechasi bilan uxlayolmay chiqdim.

— Nega? Janjal qilisharkanmi? Janjallashsa, to'rt-beshtasi yig'ilib o'ttiz pud kelmaydi, shartta uloqtirmaysanmi...

— Yo'g'-e, urishishdan gapirmang... Buvim urishqoq bola yomon bo'ladi, degan. Urishga, janjalga tobim yo'q.

— Xo'sh, bo'lmasa nega uxlayolmading?

— Uxlayolmaganimning sababi — tagimizga to'shalgan somon ichida sichqon bor ekan: chiyillaganini eshitsam jon-ponim chiqib ketadi.

Maslikov xotin, bola-chaqasi bilan sillasi qurib, ko'zlaridan yosh chiqquncha qotib-qotib kulishdi. U, polvonning sichqondan qo'rqishini tushunib yetgach, kulgidan to'xtadi.

— Voy, o'ttiz pud yuk ko'taradigan pahlavon-ey, sichqondan boshqa yana nimadan qo'rqasan?

— Undan boshqa hech narsadan qo'rqmayman.

— Bo'ridan-chi?

— E, bo'ri, ayiq, yovvoyi cho'chqa deganlaring — it-ku. Itdan ham kishi qo'rqadimi? Faqat odam yotadigan joyda sichqonning chiyillashi yomon... Shundan so'ng xo'jayin Muqonga oshxonasining dahlizidan joy qilib berdi.

Chana tortgan bola

Kunlar ketidan kunlar o'tdi. Muqonning qo'li bilan qarag'ayni qamishday sug'urib olgan, og'ir yuklarni yakka o'zi aravaga ortgani xalq og'zida doston bo'ldi, u bir necha marta Chelyabinskka, Qozonga, Ufaga, Samaraga borib ham keldi. O'n sakkizga kirdi, bo'yi o'sib, baquvvat yigit bo'ldi.

Qish yarmidan og'di. Qiziljarda fevral ichi tinmay qor yog'ib, qattiq sovuq bo'ldi. Maslikovning uyida o'tin ham, xashak ham tamom bo'ldi. Qayerda ish og'ir bo'lsa, Muqonni shu yerga yuborish odat tusiga kirib qoldi.

Fevralning oxirlarida Rossiyaning ichki tomonlariga mol olib kelgan ot-ulovlar qaytgach, ular uchun shahardan yigirma chaqirim naridagi xashakni olib kelish uchun beshta chana yuborildi. Chanalar ichida Muqon ham bor edi.

Keyingi paytlarda Muqon Maslikov oilasiga o'zining vazmin tabiati, tartibliligi, qobilligi bilan yoqib qoldi. Maslikov Muqonga qanaqa og'ir ish buyurmasin, baribir, bajarmasdan kelmasligiga ishonch hosil qildi. Shuning uchun ham:

— Mitka[1], iloji boricha xashakni tezroq yetkazishga harakat qil. Xashakni chanaga tez-tez ortib, boshqalarga qaramay kelaver. Uzoq safardan kelgan otlar ochlikdan tilini tishlab turibdi, — dedi u Muqonga tayinlab.

— Xo'p, — dedi Muqon.

Yarim kechasida yo'lga chiqqan chanalar qor bosib qolgan so'qmoqdan yurishga qinalib, otlari ham charchab, tush paytida zo'rg'a yetib bordilar. Muqon chanaga eng yaxshi otlarni tanlab qo'shgan bo'lsa ham, og'ir yo'l charchatib qo'ydi. Sovuq yeb, charchab kelgan yigitlar qor bosib, tog'day bo'lib yotgan xashak g'aramini ko'rib kayflari uchib ketdi.

G'aram ustidagi qorni tozalash uchun bir kundan ortiq vaqt kerak edi. Qarasa, ishchilar qorni qay tomondan ochib, xashakni qaysi tomondan aravaga ortishni maslahatlashib ancha turadigan ko'rinadi.

[1] Maslikov oilasi Muqon deyishni qiyin ko'rib, "Mitka" deb chaqirishardi uni.

— Sillamiz qurib xashakka zo'rg'a yetgan edik endi qorni tozalaydigan bo'lsak xashak bilan jasadimiz ham chanaga ortiladi-da, — dedi titrab-qaqshab, tuklari hurpaygan bir yigit.

— Maslikov bir so'm sakson tiyinni o'sha jasading uchun berayotganini endi bildingmi? — dedi gavdali sariq yigit.

— Xashakni mana bu biqinidan olganimiz durust bo'lar, chunki qori uncha qalin emas ko'rinadi. Tagigacha, chana sig'adigan qilib o'yib olsak, keyin ustidan tushgan qorni bir balo qilarmiz, — dedi yana bittasi g'aram atrofidan aylanib.

Sabri chidamagan Muqon, g'aramning shamolda ochilib qolgan joyiga panshaxasini sanchib, xashakni qor-pori bilan yelkasidan oshirib tashladi. G'aramning bir tomoni o'pirilib qoldi.

— Iye, mana bu nima balo qildi, — deyishdi qaysi tomondan ochishni bilmay boshi qotib turgan hamrohlari hayron bo'lishib. Muqon indamadi. Panshaxani ikkinchi marta sanchib ko'targanda, g'aramning yarmisi ochilib qoldi. U shundan keyin otlarning oldiga bir quchoq olib borib tashladi-da, ularni chanadan chiqardi. Keyin o'zi chanasini g'aramga yaqin sudrab kelib, unga xashak orta boshladi.

— Hoy, nima qilyapsan o'zi? Keyin chanani otlaring bu yerdan qanday olib chiqadi? Qorga ko'milib qoladi-ku, — deyishdi hamrohlari.

— Uni o'ylab, bosh qotirib o'tirishga vaqtim yo'q. Xashakni tezroq yetkazishim kerak. Xo'jayinning buyrug'i shu, boshqasini bilmayman.

— Manavi qor otni ko'tarolmaydi deyapsiz-da, bo'lmasa...

— Otni ko'tarolmasa, meni ko'tarar. Ot turgan joygacha o'zim tortib boraman.

— Qo'y, gapni ko'p cho'zma, biroz non-pon yeb, damimizni olib olaylik, qanday qilib ortishni keyin o'ylashib ko'rarmiz. Ustini anavi bola ochib biroz yengillatdi-ku, — deyishdi isinib olish uchun qo'llarini ishqalab, yuzlarini uqalab, u yoqdan-bu yoqqa yugurishib yurgan yigitlar.

Hamrohlari tamaddi qilib olgunlaricha, Muqon chanasiga xashakni tog'day qilib ortib, otlarning yonigacha sudrab bordi. Shundan keyin non yegani o'tirdi.

* * *

Muqon otlarni chanaga qo'shib, yetti-sakkiz chaqirimcha yo'l bosganda, qarshisidan bo'ron turdi. Bo'ron tog'day xashak uyulgan chanani orqaga itarib, otlarini charchatib qo'ydi; otlarning yurganidan turgani ko'payib qoldi. Quyosh botib, qorong'i tushdi. Muqon otlarni tizginidan tortib ko'maklashdi, panshaxa bilan chananing orqasidan itarib ham ko'rdi, bo'lmadi. Chakkasidan ichiga oqib tushgan ter muz bo'lib qotib qolaverdi. Shaharga yetti-sakkiz chaqirimcha qolganda bitta ot tinkasi qurib to'rttala oyog'ini tirab turib oldi. Jahli chiqqan Muqon panshaxa bilan chananing orqasidan jon-jahdi bilan itarib yuborgan edi, yurolmay turgan ot chananing tagida qoldi, ikkinchi ot esa bir chetga chiqib ketdi. Muqon kelib otni to chana tagidan chiqarib olguncha u o'lib qoldi. Shundan so'ng u biroz dam oldi-da, o'lgan otni chanadagi xashakning ustiga uloqtirdi. Keyin chana bo'jilarini mahkam bog'lab, yolg'iz otga shatakka tushib, shaharning chetiga chanani tortib keldi. Shaharga kirgandan keyin bu ot ham yurmay qo'ydi. Muqon endi uni orqaga bog'lab qo'yib, chanani o'zi tortib keldi. Odamlar endi o'rinlaridan turib, hovlilaridagi qorlarni kuray boshlagan mahalda Muqon orqasiga bir ot bog'langan, ustiga bir ot ortilgan chanani tortib, Maslikovning saroyiga kirib keldi. Chana sudrab kelayotgan odamning kim ekanligini bilishga qiziqqan shahar aholisi uning orqasidan to'da-to'da bo'lib ergashdi.

Tog'day qilib xashak ortilgan chana saroyga otsiz kirib kelganda, Maslikovning oilasi ham, xizmatkorlari ham hayron bo'lib hovliga chopib chiqishdi...

— Iye, ot qani?... Voy la'nati to'ng'iz... — deb baqirdi boy ovozining boricha.

— Bitta oting chananing ustida, bittasi orqasida, xo'jayin, qo'rqma, hech narsa dalada qolgani yo'q, — dedi bola.

Xo'jayin o'lgan otni ko'rib:

— Mirshab chaqiringlar. Mana bu hayvon ustidan akt qilsin, — dedi.

Shu zahotiyoq ikkita mirshab yetib kelib:

— Qani, tort chanani xashak-pashagi-yu ot-poti bilan, politsmeysterning oldiga olib boramiz, — dedi.

Badani terlab, ustini oppoq qirov bosgan Muqon o'lik ot ortilgan chanani yana sudrab ketdi.

Ko'pchilikning ko'magi

Muqon chanani politsmeyster idorasiga sudrab kelayotganda, uning ketidan shaharning yuzga yaqin katta-kichik odamlari ergashdi, ularni tarqatish uchun mirshablar qanchalik urinmasin, baribir, hech ish chiqmadi. Bolalar bo'lsa, yumshoq qorni pichoqdek tilib ketayotgan chana orqasidan itarishib, Muqonning yukini yengillatadilar. Politsmeyster irodasi oldiga yaqinlashgach, mirshablar odamlarni haydashdi, keyin bittasi boshlig'ining oldiga kirib ketdi.

Boshliq lapanglab eshik oldiga chiqquncha, Muqon chana bilan idora yoniga kelib qoldi. Azbaroyi xashak ko'p ortilganligidan, chanani tortib kelayotgan odamlar ko'rinmasdi, oppoq qor bosgan xashak ustida bir ot uzala tushib yotibdi. Chana atrofida bolalar chuvullashib yurishibdi. Qo'llariga chelak va belkurak ushlagan erkak va ayollar chana tortib kelayotgan odamni ko'rib qolish uchun shoshib-pishib yugurar, bo'yinlarini cho'zib qarashar edi. Boshliq olomonni ko'rib cho'chib ketdi. U:

— Bu odamlar nega to'planishdi? — deb yonida turgan mirshabga qaradi.

— Janob oliylari, o'zingizdan qolar gap yo'q... Anavi chana sudrab kelgan odamni tomosha qilgani to'planishgan-da.

— Nega haydamadinglar?

— Haydashga haydadik, ammo hovlisiga kirib yana boshqa odamlarni ergashtirib chiqishyapti.

— Chana sudragan qozoq ham tomosha bo'libdimi endi bularga! Haydanglar, hozir tarqashsin. Chanani hovliga olib kirsin, — deb politsiya boshlig'i idorasiga kirib ketdi. Muqon chanasini sudrab politsmeysterning hovlisiga kirib ketdi.

Darvoza yopilgandan so'ng mirshab olomonga qarab turib:

— Agar mana bu qamchi orqamizni tilim-tilim qilmasin desanglar, tarqalinglar! — dedi qo'lidagi qamchisini o'ynatib.

— Nega do‘q qilasan? — dedi birov oloman ichidan.

Bo‘lmasa nega tarqalmaysanlar.

— Tomosha qilamiz.

— Shu ham tomosha bo‘ptimi?

— Nima, bizning Petrograd, Moskvadagiday teatrimiz, klubimiz, sirkimiz bormi borib tomosha qiladigan. Biz uchun chana sudragan ham tomosha-da. Ko‘chaga to‘plangan olomonni ko‘rib, boshlig‘ingning kayfi uchib ketdimi deyman? — dedi bir dehqon...

— Ey, ko‘p mo‘ylovingni silayvermay, haligi chana sudragan odamni bu yoqqa chaqir. Agar xalqning shovqin-suroni boshlaringni og‘ritadigan bo‘lsa, uyimizgayoq olib ketamiz, nimasiga jahling chiqadi. Sening jahlingni har kuni ko‘raverib bo‘lganmiz, — dedi bozor sahnini supuradigan qorovul, mirshabga yaqinlashib.

— Tarqalinglar deyapman, endi u bu yerdan chiqmaydi.

— Nega?

— Ni ishlap?

— Za chto?

— U hukumatga foydasi tegib turgan Maslikovning otini o‘ldirib, chanasini sindirgan.

— Usiz ham Maslikovning dam bermay ishlatadigan oriq-to‘riq otlari har yili o‘lib turibdi-ku. O‘lgan otlarining xunini nuqul xizmatkorlaridan to‘lattirib oladi. Bu kamlik qilganday, ularga ozor beradi. Bo‘ronda qolib ancha xizmatkori o‘lib ketdi-ku, axir. Nima uchun uni qamamaysanlar. Kecha xashak olib kelishgani ketgan beshta chanadan bitta shu keldi. To‘rttasini dalada qor bosib qoldimi, nima bo‘ldi, bilmaymiz. Ot u yoqda tursin, odamlar qirilib ketyapti-ku. Nega ularni izlamaysizlar? — deb baqirdi bittasi.

— Ketmanglar, o‘rtoqlar, polvonni tomosha qilamiz. O‘ttiz pud yukni bir o‘zi u qo‘liga o‘tkazib o‘ynarmish. Kattakon qarag‘ayni oyog‘i bilan tepib sindiradi deyishadi. Ketmanglar, ko‘ramiz, — dedi kimdir.

— Boshliq qani! Otlar ochdan qiriladigan bo‘ldi. Xashakni tez olib kelsin deyapti boy, — dedi Maslikovning yigitlaridan biri, ikki ot yetaklab kelib.

Politsiya boshlig‘i qovog‘ini solib olomon oldiga chiqdi.

— Haloyiq, tushunish kerak-da. Sizlarga, tarqalinglar, dedik-ku, axir. Nega quloq solmaysizlar. Mana shunday qilib xafalashib qolamiz-da!

— Janob politsmeyster, odamlar xafalashib qolguday hech narsa qilganim yo'q. Qor bosib, o'z oyog'imizda turibmiz. Hech kimga og'irligimiz tushayotgani yo'q-ku.

— Bularga gap uqtirib bo'ladimi, — deb sovuqqa chidamagan politsiya boshlig'i nimalarnidir to'ng'illab ichkariga kirib ketayotgan mahalda, Maslikovning omborchisi kelib:

— Taqsir, boy xashakni chanasi bilan qaytarsin, deyapti, ruxsat bersangiz... — dedi.

Haloyiqdan xafa bo'lib turgan boshliq battar tutaqib ketdi:

— Tergab, tekshirib akt qilmay, hech kimni chiqarmayman.

— Taqsir, axir otlar ochdan o'ladigan bo'ldi...

— Menga desa Maslikovning o'zi o'lmaydimi, chiqarmayman, dedimmi, chiqarmayman. Otimni o'ldirdi, tekshir, degan o'zi-ku. Tekshiraman, ot o'lgan yerni borib ko'raman, — deb politsiya boshlig'i jahl bilan eshikni tars etkizib yopib, ichkariga kirib ketdi.

Bolalar politsmeyster hovlisining devoriga osilib:

— Ana, chanasi hovlining o'rtasiga turibdi. O'zi qor ustida yalangbosh o'tiribdi. Ana, ana turdi... idoraga kirib ketyapti, — deb chuvullashdi.

Bir mirshab olomonni tarqatolmagach, ularning polvon haqidagi gaplariga o'zi ham aralashdi. O'zgalarning oldi-qochdi gaplarni ba'zi bir dalillar bilan aniqroq qilib gapirdi.

— Bu chinakam polvon... Chanadagi xashak kamida qirq pud keladi. Ustidagi qor ham besh puddan kam emas. Anavi o'lib qolgan ot ham o'n besh pud bor. Shunday qilib, oltmish pud yukni yetti chaqirim yerdan bir o'zi sudrab kelgan-da. Har holda, bu unaqa-bunaqa bolalardan emas.

Politsiya boshlig'i Muqonni oldiga chaqirib so'roq qildi:

— Maslikovning qo'lida ishlaganinigga qancha bo'ldi?

— Uch yil.

— Nechaga kirding?

— Uni bilmayman, ishqilib yilim tuya...

— Tuya deganing nima?

— Tuya — tuya-da. Molning eng kattasi.

— Tuyaning yoshga nima aloqasi bor?

— Qozoqlarda yoshni shunday o'lchaydi. Sigir, qo'y, yilqi hammasi bor...

Hech narsa tushuna olmagan politsmeyster:

— Ko'chada turgan odamlar ichida birorta qozoq bo'lsa bu yoqqa chaqiringlar-chi, — deb buyurdi eshik oldida turgan mirshabga. U sal o'tmay bir oq soqolli cholni boshlab kirdi. Politsmeyster cholga:

— Mana bu bola "yilim tuya" deydi. Shunda necha yoshda bo'ladi? — deb so'radi. Chol bolaga qarab:

— Tuya yilga ilinmagan. Balki yiling sichqon bo'lsa kerak? — dedi.

— Qo'ying, nomini atamang, sichqoni qursin. Oyim sening yoshing "maxluqning eng kattasi" degan edi. Tuyadan katta maxluq bo'lmasa kerak, deb tuyani ayta qolgan edim.

— Unday bo'lsa yiling nahang ekan. Shunday baliq bor. Dunyoda baliqdan katta maxluq bo'lmaydi, — dedi chol hisoblab.

— Bolaning yoshi o'n sakkizda.

— Yaxshi. Sizga ruxsat, — dedi boshliq.

— Xo'sh, Maslikovning qo'lida ishlaganingga uch yil bo'libdi. Shundan beri uning necha otini o'ldirding?

— Faqat mana shu chana ustida yotgan otgina, xolos.

— Qanday qilib o'ldi bo'lmasa?

— Maslikov xashakni ko'p ort, dedi. Otlar ortilgan xashakni torta olmay qoldi. Men chanani orqasidan itarib yuborgan edim, ostiga tushib o'lib qoldi.

— Qanday qilib ostiga tushdi?

— Otingizni chananing oldiga qo'ying, qanday qilib ostiga tushganini ko'rsataman.

— E-ha, hali sen mening otimni ham o'ldirmoqchimisan? Men senga ot o'ldirishni ko'rsatib qo'yaman...

Shu mahal po'stinga o'ranib olgan Maslikov kirib keldi.

— Otlarimning ichida eng yaxshisi shu edi. Sharofiddin mirza Rossiyadan olib kelib sotgandi. Yoshi o'n oltida, balanddagi narxi

180 so'm. Bu itvachcha umr bo'yi ishlab bersa ham xunini to'lay olmaydi. Endi bu yog'i qanday bo'ladi?

Politsmeyster boyning gapini eshitib bo'lib, Muqonga:

— Ko'ryapsanmi? Boylar hatto otlarining yoshigacha biladi. Sen bo'lsang o'z yoshingni ham bilmaysan. Qaysi yili qanday ish qilganingni birov so'rab qolsa nima deysan? — dedi.

— Uni bilaman, bir yili yaylovda o'lgan ho'kizni orqalab kelganman. Shundan bir yil keyin Qutmanning quduqqa tushib ketgan tuyasini chiqarib berganman. Bu yil esa, mana, boyning xashagini, o'lgan otini uyiga, uyidan shu idoragacha sudrab keldim. Bunga yoshni bilishning nima daxli bor?

— Ko'p vaysayverma. Politsmeyster, mana bundan otimni undirib berasan.

— Mehnat haqidan ushlab qol.

— Mehnat haqi oyiga bir so'm sakson tiyin. Unga bu itvachchaning umri ham yetmaydi. Men kutib o'tiramanmi? Ungacha bu iblis hamma otimni qirib bitiradi. Uyda moli bo'lsa olib kelib bersin.

— Uyingda moling bormi?

— Molim ko'p...

— Seni kafillikka oladigan odaming bormi?

— Hech qanaqa kafillikning hojati yo'q. Umrimda hech kimni aldamaganman.

— Tashqarida turgan odamlardan senga kafillikka o'tadigani bormi? Kafilsiz bo'lmaydi.

— Tashqaridagilarning hammasi kafil bo'la oladi.

— Qanday qilib hammasi kafil bo'la olsin? — deb, hayron bo'ldi tergovchi.

— Qani tashqariga olib chiqaylik. Tashqaridagi qozoqlardan bitta-yarimtasi tanir.

— Buni tanishlikka taniydi-ya, menga otimning xunini to'laydigan odam kerak, — dedi Maslikov.

— Xo'p, sizga keragini topib beraman. Tashqariga chiqaylik, — dedi Muqon. U tashqariga chiqishi bilan olomon bir necha tilda chuvullasha boshladi:

— Akt qilishib bo'ldimi? Qani, yaqinroq kel-chi, bir ko'raylik, — deyishib uni o'rtaga olishdi. Idoradan chiqqanlarning amaldorligi, boyligi bilan hech kimning ishi bo'lmadi, hech kim ularga e'tibor ham bermadi.

— Hoy, xaloyiq! U sizlarga kerak bo'lsa kafillikka olinglar. U Maslikovning otini to'lashi kerak, — dedi politsmeyster.

— Qanaqa kafil?! — deyishdi odamlar. — Bu yoqqa, bu yoqqa panaroqqa olib kelinglar. Bola terlab turibdi, shamollab qolmasin, — deyishib atrofini o'rab, Muqonni ko'chaning narigi betiga olib ketishdi. Politsmeysterning qichqirishi, mirshablarning hushtagi bilan ko'chada shovqin-suron ko'tarildi.

— Nima shovqin, nima gap o'zi? Nega buncha hovliqasanlar? — dedi mo'ylovdor bir kishi orqasiga qarab.

— Aybdorni qayoqqa olib ketyapsanlar?

— Qanaqa aybdor? O'g'irlik qilibdimi aybdor bo'ladi?

— Otning xunini to'lashi kerak.

— Ey, Maslikov, senda o'zi vijdon degan narsa bormi! Shu bola xashak olib kelmaganda saroydagi hamma otlaring qirilib ketar edi-ku. Agar sening o'rningda men bo'lsam, bu bolaga yuz so'm berar edim, — dedi unga qushxona qassobi Petka.

— Vaysayvermanglar, bo'ldi, otning xunini to'laydi dedimmi, to'laydi, — dedi politsmeyster.

— Ungacha birov kafillikka olishi kerak!

— Shunga ham kafilmi... Shuni deb bolani kuni bilan tutib o'tiribsanmi? Bu so'zingni boya aytsang-ku, tomchidan — dengiz, tariqdan — tog' yaratgan xalq buning bir ilojini qilardi-qo'yardi, — dedi olomon ichidan birov.

— Oti necha pul turar ekan?

— Bir yuz sakson so'm...

— Qani, bir so'm bir so'mdan beringlar. Otning xuni u yoqda tursin, Maslikovning otasining xuniga ham yetarlik pul to'plansin!

Necha yuzlab qo'l cho'ntakka suqildi. Birpasda ancha pul to'planib, Maslikovga berildi.

— Shunday mehr-muhabbatlaring bo'lmaganda, senlarni xalq deb kim aytardi, — dedi bir chol. Olomon ichidan bir odam yig'ilgan pulni Maslikovga sanab berib, to'laganiga qo'lidan tilxat oldi.

— To‘xtanglar, xaloyiq,— dedi haligi tilxat olgan kishi, — o‘lgan otning xuni to‘landi, otni ola ketaylik, bo‘lmasa Maslikov uni konserva zavodiga pullaydi. Undan ko‘ra terisini shilib olib, go‘shtini itga berganimiz afzal.

Ot xunidan ortgan pulni olgan Muqon odamlar bilan birga ketdi.

Xalq nasihati

Shahardagi, yalangoyoqlar deb ataluvchi, turli kasb egalari boshlari qo‘shildi deguncha vaqti chog‘liq qilishardi: ular orasida Muqon ham, qiziqchi ham bor edi. Mana bugun Safarboyning ikki xonali uyi turli kasbdagi odamlarga liq to‘ldi.

Bunday bosh qo‘shilgan joyda faqat majlis mavzusi yuzasidangina gapirishadi qariyalar, bu gal ham odatlari bo‘yicha polvonlar haqida ba’zi esda qolganiarini aytib gurunglashdi. Ba’zi birovlar o‘z ko‘rgan-bilganlarini bir boshdan mubolag‘asiz zavq bilan so‘zlashsa, ba’zilar allakimdan eshitganlarini pala-partish, shirasiz, jonsiz qilib aytishardi.

Unutmasam, shu o‘tirgan Qulimbet og‘a bo‘lsa kerak, qadimgi Sarito‘rang‘il degan joyda taraqlining[1] yig‘ini bo‘lgan edi...

— Aytadigan bo‘lsang to‘g‘rilab ayt, mahmadona... barimta[2] dovida o‘tirganing yo‘q-ku, axir. Taraqlining oshida bo‘lganim rost, biroq u Sarito‘rang‘il emas, Sariterak degan joyda bo‘lgan. Gapni rasvo qilmay, to‘g‘ri aytgin-da, — dedi Qulimbet majlis ahlini kuldirib.

— To‘rang‘ili nima-yu teragi nima, baribir emasmi? O‘shandagi anavi polvonni aytmaysanmi. Sizlarga yolg‘on, menga chin, boshi bilan bo‘yni, anavi Andreyning zotli buqasi bor-ku, xuddi shunikiday keladi. O‘rtaga tushib o‘tirganda, hayratdan yoqasini ushlamagan odam qolmadi. Beliga ikki kishining quchog‘i yetmaydi. Bilaklariga ola munchoqni tizib bog‘lab, naq mushtumday keladigan qo‘ng‘iroq ham taqib qo‘yibdi. O‘tirsa katta bir to‘n-

[1] Urug‘ nomi *(tarj.)*.

[2] Birovning molini zo‘rlab bosib olish *(tarj.)*.

kaga o‘xshaydi. Qo‘llarini uqalaganda qo‘ng‘irog‘i jing‘ir-jing‘ir qiladi. Ko‘kragini aytmaysanmi, ko‘kragi anavi Qurimboyning semiz xotini bor-ku, o‘shaning ko‘kragiday keladi... Ko‘zlari-chi...

— E, gapni cho‘zavermay, qanday kurashganidan gapirsang-chi!

— Ha, shunisini ayt, gavdasini qo‘yaver, gavda hammada ham bor.

— Ammo birovni yiqitganini ko‘rganim yo‘q. Endigina: “Sen chiq, sen chiq” deyishayotganda otam “otga bor”... deb haydab yubordi. Bilishimcha, uni hech kim yiqita olmagan bo‘lsa kerak.

— Shumi bor gaping?

— Ha. Kattaligini aytaman-da o‘sha polvonning...

— Oti nima ekan?

— Bilmayman.

— Qulimbet aka, o‘zingiz aytib bering. Bu kimni gapiryapti?

— E, buning aytayotgani sariteraklik. O‘temis degan odamning yig‘inida edi. O‘shanda bu o‘n uch yo o‘n to‘rt yoshlardagi bola edi. Shunda anavi Qoratog‘ orqasidan Qo‘ja polvon degan odam kelgan. Uni odamlar: “Yag‘rini yerga tegmagan, odamni ko‘zga ilmagan” deb ta’riflab, avvaliga hech kim betlay olmagani rost. Biroq uni oriqqina chayir bir odam chiqib yiqitib ketgan.

— Unda anavining shuncha gapi nima bo‘ldi?

— E, uning gapi suvga tushsa ivib ketadigan qog‘ozdek gapda... Polvon haqida aytganlarining bari rost.

— U, avvalo, o‘rtaga tushib, xuddi bir narsa orqasini chimchilab olganday ko‘zini ochib-yumib, qo‘lini uqalab, tanasi muzlagan otday silkinib o‘tirdi.

Boylar poyga bilan bo‘lib, Sir bo‘yilik va dashtlik — ikki taraf bo‘lib ketdi. Polvonlarini sinashmoqchi bo‘lgan bu ikki tarafning qirlik tarafiga Uderboy oqsoqol, Sir bo‘yilik tarafiga esa, Dizaq-So‘zaqdan kelgan Mavken degan bir kishi boshchilik qildi.

Qo‘ja polvonning ko‘rinishidan cho‘chib, o‘rtaga hech kim tushmaganda, Uderboy oqsoqolning jahli chiqdi; qalin, o‘siq qoshlari chimirilib, ko‘ksiga tushib turgan soqoli selkilladi. U jiddiy tovushda:

— O‘g‘il tug‘dim, deb onasi quvongan birorta o‘g‘il bola bormi? — deb iyagini ko‘tardi.

To‘pning orqa tomonida turgan Qazilxon qiziq degan bir yigit otda, to‘pni yorib o‘rtaga chiqdi-da:

— Bor, Uderboy og‘a. Chin o‘g‘il bola bo‘lmasa ham, bundayrog‘i bor, Uderboy... — deb otidan tusha boshladi. U kiyimini yechib ham o‘tirmadi: faqat tuya jun chakmonining o‘ng yengini yechdi, chilvir bilan belini bog‘ladi-da, bo‘sh yengini beliga qistirib qo‘ydi. Qo‘ja polvonning savlatini ko‘rib hayron qolgan odamlar, yigitni u bilan kurashga tushishini xayollariga ham keltirishmagan edi. U beli ingichka, yarg‘ini yalpoq, qotma yigit ekan. U o‘tirgan polvonning oldiga borganda odamlar:

— Bu bechorani qanday ajal boshlab keldiykin?! — deb chuvullashdi. Yigit bu gaplarga parvo ham qilmadi. Polvon, yuki og‘ir tuya o‘rnidan bazo‘r turganday, zo‘rg‘a turib, qo‘llarini orqasiga yoydi.

Qo‘ja polvon xuddi yosh bola bilan o‘ynashgandek bel ushlashmay, yag‘rinidan olmoqchi bo‘lib, qo‘lini cho‘za boshlaganda, yigit bo‘riga chang solgan burgutdek Qo‘janing belidagi belbog‘idan shap etib ushlab oldi-yu, shamol ag‘dargan to‘nkaday gurs etkazib qulatdi. Qo‘ja polvon gangib qolgan boshini yerdan ko‘tarolmay yotganda, yigit yengini kiyib, otiga mindi-da, poyga tomoniga jo‘nab ketdi.

— Ismini bilolmadingizmi, Quimbet og‘a? — deyishdi odamlar qiziqishib.

— Unday odam, albatta, tez ma’lum bo‘ladi; asli turkmanlardan kelib, qozoqlarga qo‘shilib ketgan Mug‘olbek ismli yigit ekan.

— Yo anqov Qo‘jani hadis bilan yiqitib ketdimikin-a? — dedi birov.

— Kuchi bo‘lmasa hadisning o‘zi bilan nima qila olardi. Unda kuch ham, chaqqonlik ham bor. “G‘ofil qoldi, qayta kurashtiramiz”, deb Sir taraf chuvullashganda, polvon:

— Hech ham g‘ofil qolganim yo‘q. O‘zidan kuchli polvon bilan orsiz polvongina qayta kurashadi. Men endi kurashni yig‘ishtirdim, — debdi.

— Mug'olbekning boshqa joyda kurashganini ko'rganingiz yoki eshitganingiz yo'qmi? U hali hayotdir?

— Hali hayot. Men bilan tengdosh. Oltoydagi to'rt devon bosh qo'shib qilgan to'yda hamma polvonlarni yiqitgan bir polvonni yiqitdi-yu, shu-shu kurashga tushmay qo'ydi. O'zi maqtanishni yomon ko'radigan, vazmin odam.

Unga birov "polvon" desa:

— Mening otim "polvon" emas, o'z otimni atab chaqiravering-lar, — derdi. Ikki o'g'li, ikki uyli bo'lib, Esil bo'yida turishadi.

— Muqonimiz ham shunday kuragi yerga tegmaydigan pol-von bo'lib, uyda o'tirib olib, biz ham maqtanamiz-ku hali, — deb Muqonga qaradi Safarboy chol.

— Tabiiy bitgan kuch xuddi olovga o'xshaydi. Bordi-yu u o'rinli ishlatilsa toshni eritib, temirni charxpalakdek aylantiradi. Agar o'rinsiz ishlatilsa bormi, elni o'rtaydi. O'rinli ishlatish uchun aql kerak...

* * *

Otasi Qiziljarga kelganda, Muqonning bo'shab chiqqaniga roppa-rosa bir oydan oshgan edi. Odamlar Muqonni mehmondor-chilikka chaqirishib, biri ko'ylak, biri chopon berib, ust-boshi ham but bo'lib qoldi, rangi-ro'yi ham tuzuk edi. Ilgari Mungaytpas ke-lib o'g'lining topgan-tutgan pulini oz bo'lsa ham olib qaytardi. Bu safar o'sha pulini ham olib qaytishga ko'zi yetmay kelgandi, uning bu fikri noto'g'ri bo'lib chiqdi. Petka o'lgan otning terisini shilib olib, ko'nchiga berdi. Ko'nchi yaxshilab ko'n qilib berdi. Muqon uyga qaytadigan kuni Petka ko'nni yigirma besh so'mga pullab, uning cho'ntagiga soldi-da:

— Sen mana bu puldan ozginasini uyingga ber-da, qolganini ehtiyot qil, — dedi.

— Kunlar isib ketgandan so'ng seni bir joyga yubormoqchi bo'lib maslahatlashib qo'ydik. Fabrikamizning mexanigi Vasiliy-ning bir og'aynisi Orenburg sirkida polvon ekan, u may oylarida boraman dedi, seni o'shanga qo'shib yuboramiz. Ukam, kuchingni bekorga chanaga, aravaga sarf qilib yurasanmi, kelajagi bor joyga

ishlat. Ko'pchilikning umid-ishonchini shundagina oqlaysan, — dedi.

Petkaning so'zini jim o'tirib tinglagan Muqonga u aytgan "kelajak" shu'laday nur sochib, go'yo bu yoqqa kel, deb chaqirayotganday bo'lib tuyuldi. Biroq unga qaysi yo'l bilan borishni bilmasdi.

Mungaytpas shaharga yaqinroq bir qishloqqa kelib tunaganda o'g'li Muqon haqidagi shubha va vahimalaridan asar ham qolmadi. U kelib tushgan uydagi chol Mungaytpasdan hol-ahvol so'rab, uning bu yoqqa nima uchun kelganini bilgach:

— E, Ernoq botirning o'g'li Mungaytpas bo'lsang hamma gap tushunarli. Otang Ernoqni ham, onang Oysarani ham yaxshi bilaman. Onangning otasi Luq polvon bilan bir vaqtlar quda-andaligimiz ham bo'lgan ekan. Bordi-keldimiz kamayib qolgan bo'lsa ham, sirtdan surishtirib ahvollaringdan xabardor bo'lib turaman. Nabirasi haqida qayg'urgan qariyani quvontirib, suyunchisini oladigan xonasi kelib turgan ekan-u, attang, na chora, bir kun qo'nib boradigan joyga olib borib qo'ygudek ulov ham, ilgarigiday quvvat ham yo'q. Qariganda shu ahvolga tushib qoldik... O'g'lingning xabarini eshitganimizga bir oydan oshib ketdi. Hech xafa bo'lma, qaytaga quvon. Suyunchim shu — Oysaraga salomimni yetkaz. U mendan bir yosh kichik, tengdosh edik. Bog'onali Erdavlat desang biladi, — deb u Muqonning ahvoli haqida batafsil gapirib berdi. Mungaytpas cholning uyidan xursand bo'lib chiqib ketdi.

* * *

Muqonning fe'l-atvori ovul kishilariga g'alati tuyulardi. U boshqa bolalarga o'xshab bekordan bekorga qiyqirib, chopib yurmasdi, bolalar yig'ilgan joyga xuddi og'ir yuk orqalab olgan kishiday vazmin, bir-bir qadam tashlab borar, bolalar oshiq o'ynasa, u sigir yoki otning oshig'ini yig'ib olib, hech kimga ozor bermay, o'z holicha o'ynardi. Biroq unga birov tegsa ayamasdi. Ba'zi ota-onalar kelib Muqonni qo'rqitmoqchi bo'lishsa, alpang-talpang qilib qocha olmasdi ham. Uning yugurganiga boshqalar asta yurib, yetib olar edi bemalol. Birov uni jerkisa, u indamay qisiq ko'zla-

rini bir nuqtaga tikib turaverardi, yuzidan qo'rqqan-qo'rqmaganligini bilib bo'lmasdi. Uni ba'zi bir kishilar urardi ham, biroq, bola bo'lib yig'lashni bilmasdi. Keyin o'sha odamlar o'zlariga va ovuldagilarning hammasiga onasiday bo'lib ketgan Oysaradan uzr so'rab:

— Muqoningiz bizning Sormanni urgan ekan, men uni hayiqsin deb dumbasiga bir tarsaki tushirgan edim, xafa bo'lmadingizmi? — desa:

— Shu bitta tarsakini menga kelib aytadigan bo'lsa, uning otini Muqon qo'yarmidim. Unaqa gaplarni menga sira aytmaydi, — derdi Oysara.

Shunday qilib, Muqon birovni urganini ham, birovdan kaltak yeganini ham aytmaydigan bo'ldi.

Soqolli domla kichkina taxtaga yettita harfni yozib berib:

— Auzi, — desa, Muqon uni takrorlab, — oq ho'kiz — derdi.

— Ha bachchag'ar, sira to'g'ri aytolmading-aytolmading-da. Endi bismillo de! — desa: — pishdi munda — derdi.

Xullas, u bir yil o'qib "A" degan harfning qanday yozilishini ham o'rganolmadi. Domla jahli chiqib, chiviq bilan savalardi. U shuni ham onasiga borib aytmasdi. Muqon yarasi tuzalguncha maktabga bormay yurib, bir kuni keladi-da, maktabga kirmay eshik oldida turadi. Hamma talabalar kirib ketadi. Keyin maktabga oq yaktak kiyib olgan domla kirib ketayotganda, Muqon uni yelkasidan yo'g'on tayoq bilan urib, mukkasidan qulatadi. Shushu u domlaning "auzi", "bismillo"si bilan bir umrga xayrlashdi.

Muqonning domlani urib yiqitganini eshitib:

— Ajab bo'libdi! Bolalarning aytishiga qaraganda, domlaning kaltagiga bola u yoqda tursin, ho'kiz ham chidash bera olmas ekan. Orqasidan tirqirab qon oqqanda ham bolapaqir g'ing demabdi. Onasiga ham aytmabdi. Hali esini yig'ib olmagan yosh bolaga shunchalik ham azob beradimi? Domladan kaltak yemagan bola yo'q, — deyishdi ba'zi bir joni achiganlar.

Domla Oysaraning oldiga kelib:

— Boyvuchcha, manavi bolangiz qo'limda bir yil o'qib alifbeni uqmasa ham meni urishni o'rganibdi. Daf'atan tushirib qolsa bo'ladimi, mana bir haftadirki, o'rnimdan turolmay yotibman. Bu-

gun oldingizga sudralib zo'rg'a keldim. Birovga boladan kaltak yedim deyishga ham uyalaman, unga bunday qiliqni kim o'rgatdi? — dedi inqillab.

Kampir barmog'ini og'zida ho'llab, yigirib o'tirgan urchug'idagi ipning chigalini yozdi-da, dalada o'ynab yurgan Muqonga qarab "uh" tortdi.

— Domla, seni qaysi bolam urdi? Mungaytpasning unday odati yo'q edi-ku. U umrida biron kimsani "san" degan bola emas... Muqonim bo'lsa hali yosh.

— Mungaytpasingiz ursa uning vaji boshqa edi. Meni anavi o'qish kallasiga kirmaydigan Muqoningiz urdi. Mullaga bolasini bergan kishi, "eti sizniki, suyagi bizniki", deb beradi. Sabog'ini bilmagandan keyin, urgan edim, kek saqlab tayoq bilan bir urib yiqitib ketdi. Kampir baqraygancha domlaga biroz tikilib turdi-da, o'rnida bir qo'zg'alib:

— Unda ayb o'zingda ekan-da! Men bolamni olib borganimda "eti seniki" deganim yo'q edi-ku! A'zoyi badanini it talaganday qilib o'qitganingning nima keragi bor. Buning nimasini menga arz qilib o'tiribsan?...

— "Bolani boshidan..." deganday, urishib qo'ymaysizmi?

— Uni urishga mening chamam keladimi? Ana, huv anavi ho'kizga qara. "Ho'kizcha" degan nomi bo'lmasa, kattakon ho'kizdek bor. Shuni minib o'ynaydi, charchab qolsa uloqday yelkasiga olib uyiga ko'tarib keladi. Ho'kiz ko'tarib o'ynagan bolaga mening kaltagim kor qiladimi? Domla, it bilan bolaning qilig'i gapirib o'tirishga arzimaydi. Maktabga berib, qarzimdan qutuldim. Ammo senda o'qib mulla bo'lgan odamni ko'rmadik. O'qimasa nima qilay... Yig'lab-siqtab tilab olgan nabiram edi, ona sutiga og'zi tegmay qolgan yetimcham, — dedi kampir yig'i aralash qaltirab, — unga ozor berib bo'lmaydi. Yetimga tekkan yetti do'zaxning o'tida kuyadi. O'zing domla bo'la turib nega urding? — deb qizarib ketgan ko'zlari bilan domlaga biroz tikilib turdi-da, keyin tashqariga chiqib ketdi. Domla lom-mim deyolmay jo'nab qoldi. Shu-shu Muqon qaytib maktabga bormadi.

Tengqurlari maktabga ketganda, kichik bolalar bilan o'ynay olmay, mol boqib yurgan bolalarga qo'shilib dalaga chiqib keta-

digan bo'ldi. Mol boqadigan bolalarga esh bo'lishi uni mehnatga o'rgatdi-yu, o'n ikki yoshidan yollanib ishlay boshladi.

Yozda u so'na tegib, dumini xoda qilib qochadigan sigirlarni emas, yuvosh qo'zilarni boqishni ma'qul ko'rdi. U qo'zilarini sigir podalariga yaqin olib yurar, tush paytlarida Esil daryosi yoqasidagi soya-salqin jarliklarda dam berar edi. U o'n to'rtga qadam qo'yganda kuchi bilan ovul odamlarini hayratda qoldirdi.

Ovulning mollarini bir yuvosh yigit boqar edi. Muqon yoshligidanoq u bilan birga mol boqar, o'ynar edi. Chillaning issiq kunlaridan biri edi; ikki ho'kizcha o'ynashib, suzishib, jar boshiga borib qoldi. Yosh Muqon qaytarib kelaman deguncha biri ikkinchisini suzib pastga qulatib yubordi. Balandlikdan qalpoqdek uchib tushgan ho'kizcha bo'yni sinib til tortmay o'ldi-qoldi. Podachi bola uni bo'g'izlab, besh-olti chaqirim keladigan ovulga xabar beraman deguncha, boshqa mollaridan ayrilib qoladigan bo'ldi. Muqon bo'lsa qo'zilar bilan sigirlarni birday eplay olmaydi, qochgan molni quvib yetishi qiyin. O'lgan ho'kizchani dalaga tashlab ketay desa, itmi, qushmi yeb ketadi. Ovuldagilarning urishib-so'kishidan qo'rqqan podachi bola yig'lab yuboradi.

— Hey, nega yig'laysan? — dedi Muqon hayron bo'lib.

— Ko'rmaysanmi, bu harom qotgurning o'lib qolganini?... Ovulga borib xabar berib kelay desam, hamma mollarga bir o'zing qaray olmaysan. O'zingni yuboray desam, kechgacha zo'rg'a yetasan, bu sasib ketadi. Hech bo'lmasa go'shti tegmasa egasi ho'kizchani menga to'lattiradi. Buning evaziga yana bir yil birovning molini boqishim kerak. Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi degani shu-da. Men yig'lamay kim yig'lasin...

— Qo'y, yig'lama, mening qizlarimni ham singillaringga qo'shib ovulga yetkazsang bo'lgani... Men ho'kizchani ko'tarib egasiga olib borib beraman.

— Qanday qilib ko'tarasan?!

— Bu bizning qo'ng'ir ho'kizchadan og'ir emas, men uni kichkinaligimdayoq ko'targanman. Bu senga qiyin ko'rinsa ham, menga unchalik qiyin emas, mana bunday yelkamga olaman-u, ketaveraman, — deb Muqon ho'kizchani yelkasiga qo'yib, jar boshiga olib chiqdi.

— Qo'zilarimni sigirlaringga qo'shib, asta haydab kelaver. Men mana buni olib borib tashlab, oldingdan chiqaman, — deb jo'nab ketdi u.

O'n to'rt yashar bolaning ho'kizcha ko'tarib kelgani ovuldagilarni hayratda qoldirdi. Hatto, ho'kizchaning qanday o'lgani bilan hech kimning ishi ham bo'lmadi. Politsmeyster oldida uning bir yili "ho'kizni orqalab kelganman" degani mana shu edi. Shunday qilib, u yoshligidanoq polvon degan nom oldi.

Cho'chqa ko'ldagi kurash

Qozon shahrining katta marosimi — "Saban to'y" (odat bo'yicha har yili qo'sh haydab bo'lgach, shunday to'y bilan yozni qarshi olish) har yili "Cho'chqa ko'lida" o'tar edi. Bu marosimga Qozon atrofidagi qishloqlardan, ovullardan, Samara, Yekaterina, Ufa, Zlotous shaharlaridan ham odamlar kelishar, bu yer yarmarkaga aylanar edi.

Attorlar, savdogarlar, oshpazlar, yog'ochdan zarang kosa qilib sotadiganlar, duo yozadigan mullalar, baxshilar, folbunlar, do'kondor savdogarlar, yag'rini yerga tegmagan polvonlar, poygachilar, ko'z boylagichlarning yaqin-atrofdagilari har yilgi odat bo'yicha shu yerga to'planishdi. Shu yerda sotish uchun Omskdan savdogar Presnyakovning minglab qo'yi ham haydab kelindi.

* * *

Omskdan ish izlab kelgan bir guruh odam, qo'lidan keladigan ish axtarib, har qaysisi har yerga o'rnashganda, ikki kishining ishi o'ngidan kelmay qoldi. Ularning biri — sarg'ish, gavdali, qalin soqoli bet-og'zini qoplagan, mo'ylovi qo'chqor shoxiga o'xshab buralib turardi.

Ish izlab yurgan haligi ikki odam idorama-idora yurib, o'nboshi, starshinalarga uchrashib qaytisharkan, temiryo'lda qator tizilib turgan ellik-oltmish qizil vagonni ko'rib qoldi. Uning naryog'ida, ochiq yerda suruv-suruv qo'y, oldiga arava-arava pichan olib kelib tashlashyapti. Bir vagonning yonida odamlar temir ilgakli taxtani

vagonga ilintirolmay ovora bo'lishyapti: goh ko'tarishadi, goh tushirib yuborib, qo'l-oyoqlari yaralanadi. Boshiga bo'rk kiyib olgan birov ishchilarni baqirib so'kyapti.

— Besh soat ichida qo'ylar vagonga chiqarilib bo'lishi kerak. Mana ikki soat bo'libdiki, hammang yopirilishib bitta vagonga ko'prik yasayolmaysanlar. Ey, odam bo'lmay ketinglar! Tfu!

— Hoy yigitlar, anavi taxtani ko'tarishib yuboringlar!

— Nima deyapsiz, xo'jayin? Biz hali sizga yollanganimizcha yo'q-ku! Pul tug'adigan molni pul beribgina vagonga orttirish mumkin. Bo'lmasa bu ahvolda manavi odamlar bilan kuzgacha ham yuklay olmaysiz... — dedi soqolli kishi.

Bir tomoni sal ilinib turgan og'ir taxta, ikkinchi tomonini ko'taraman deganda yerga gurs etib tushib ketdi. Yelib-yugurib yurgan bir ishchi "voydod, o'ldim!" deb baqirib yubordi. Uning ikki oyog'i taxta tagida qolib, yiqilgan ekan.

Ular chuvullashib lo'm qidirib, to'pirlashib yurganda haligi ikkita odamning kichigi taxtani ko'tarib, tagida qolgan odamni sug'urib oldi-da:

— Men buni temirmi desam yog'och ekan-ku. O'ndan ortiq kishi shu taxtaning bir tomonini ko'tara olmaydi-ya? Esiz! Pavel og'a, narigi tomonini suyab yubor, taxtani qo'yib beray mana bularga...

— Qo'y, tashla! Pul bermagandan keyin nima qilasan ovora bo'lib? Anavi meshqorining o'zi qo'yib olsin!

Yo'ldoshning qaysarligidan ranjigan bola taxtaning vagon tomonidan ostiga kirib, yelkasi bilan ko'tarib yuborgan edi, yarim gazcha taxta vagon ichiga kirib ketdi.

— Ana, endi bu yog'ini o'zlaring eplarsanlar! Yur, ketdik, — dedi yo'ldoshiga bola.

Ular keta boshlagan paytda:

— Ey, shoshma, gap bor, — dedi xo'jayin papirosini ustma-ust tortib.

— Xo'sh, qo'ylar ortilib bo'lguncha vagonga taxta qo'yib berishlaring uchun qancha haq so'raysanlar!

— Qo'yib berishimiz bir so'm, tushirib berishimiz bir so'm, har vagon uchun ikki so'm berasan. Boylarning, "hammasini bir

yo‘la olasan”, deganiga ko‘nmaymiz. Har o‘n vagonga ortilib bo‘lganda yigirma so‘mdan cho‘zib turasan.

— O‘h-o‘! Sen bobongdan meros qolgan gadoylik bilan bir kundayoq xayrlashmoqchi ekansan-da. Gapni ko‘p aylantirmagin-u, vagon boshiga ellik tiyindan haq ol. Uni ham sen uchun emas, mana bu qozoq bolasi uchun beraman...

— Ellik tiyining yakshanba kuni boy bo‘lib o‘tgan ota-bobolaringning mozoriga borib aroq ich! Burjuylar qanday mehribon-a... Ruslardan orttirib, qozoqni siylagisi keladi. Yur-e, ketdik. Ikkiovi ancha joyga borib qolishganda haligi boy odam yuborib, vagon boshiga bir so‘mdanga kelishib, qo‘y yuklashdi.

Shunday qilib, qo‘y ortilgan poyezd bilan Muqon ham Qozonga keldi. Uch soatcha ishlab topgan pullarini ikkalasi bo‘lib olishdi. Pavel Omskda qoldi.

Qozon shahri yaqinidagi kichikroq bir stansiyaga olib borib tushirilgan qo‘ylar Cho‘chqa ko‘l yonidagi o‘rmonga o‘rnashib, bir haftacha turib qoldi. Muqon qo‘ylar manzilga yetkazilguncha sutkasiga bir so‘mdan yollanib ikki vagonga qorovullik qilib borgan edi. Qo‘ylar tushirilgach, u qo‘ychivon bo‘lib qoldi.

Qozon mehmonxonalarining birida yotgan xo‘jayinga uchrashish uchun ketgan boyning xo‘jalik ishlarining boshqaruvchi kishisi ikki kun deganda zo‘rg‘a kelib, kechasi turadigan qorovullarni almashtirdi. Kecha ancha salqin bo‘lib, gulxan yoqishdi. Qozonni, chovgumni olovga osib, davra qurib o‘tirishgan kishilar gurunglasha boshladilar. Gap taglariga bosib o‘tirishgan qarag‘ay haqida borardi:

— Nima, shu yerga uy solmoqchimisanlar? Muncha katta qarag‘ayni qanday qilib olib keldinglar? — dedi ish boshqaruvchisi.

— Misha turganda yog‘och olib kelish qiyinmi, qurib qolgan daraxtni tomir-pomiri bilan qo‘porib olib kelaverdi. Qo‘y demasam, hamma yog‘ochlarni olib keladigan.

— Hey, tagingga muncha qarag‘ayni uyib, nima bu Qozondan uy qilmoqchimisan? Bu yerda senga tekin yog‘och yo‘q, hammasining ham xo‘jayini bor! Agar o‘rmonchi ko‘rib qolsa bormi, kissangdagi bor pulingni qoqishtirib oladi-ya.

— Boy to‘lamaydimi?

— Boy qayoqdan to'laydi, chiqim ko'payib ketdi, deb qo'ylar turadigan joyga ijara haqi bergani yo'g'-u. Sen bo'lsang, kuchingni tanangga sig'dirolmay, Qozonning qarag'ayi bilan hazillashib yuribsan.

— Shu bolani boy Orenburgga yetkazib qo'yaman, degan edi. Va'dasida turarmikan-a?

— Oborib bo'pti... Bekorchi chiqimga boyning tobi bormi? Shu o'tirgan ko'pchiligining vagon eshigini ochishga ham madoring kelmaydi. Yo'l-yo'lakay og'ir mehnatlar shu bolaning zimmasida bo'ldi. Boy bo'lsa, qo'ylar vagondan tushgan kundan boshlab haq to'lama, dedi. Mana, ha demay besh kun o'tdi. Bu bolaning haqini yegan o'ngadi deysanmi? Yo'ldagisidan tashqari yana uch kunga haq berishga zo'rg'a ko'ndirdim boyni.

— Sen Orenburgga olib borib qo'yishini aytasan, xo'jayin bo'lsa, mehmonxonada yotgan tatar savdogariga bu bolani juda kuchli, deb maqtab sotib ketishning payida yuribdi-yu. Biroq Qozon savdogari Presnyakovga oson aldanadigan ko'rinmaydi.

— Sening malaying Hazrat Ali bo'lsa kerak, ko'raylik. Agar aytganing rost bo'lsa, uncha-muncha pul ishlab olsa bo'ladi. Cho'chqa ko'l bayramida pul tikib kurash bo'ladi. Agar kichkina polvonlarni yiqitsa, katta yutug'i bor Dobriy-Rabiy G'afrit bilan kurashtiramiz. Uni ham yiqitsa, restoranda ikki-uch o'tirishga yetadigan pul chiqadi, — deydi.

— E, men ularning "G'afrit" deganini bilaman, ko'rganman uni, — dedi aravakash o'rnidan uchib turib. U butun Edil bo'yiga, Sibirga mashhur ovchi. Unutmasam, shu kunda oltmishdan oshgan bo'lsa kerak. Yoshligidan batraklik, ovchilik qilgan. Uning ovlaydigan ovi xavfli hayvonlar: ayiq, yo'lbars, qo'tos. O'zi umrida qo'liga miltiq olgan emas, miltiqni qanday ushlashni ham bilmaydi. U yirtqichlar bilan yakkama-yakka olishib, terisini shilib olaverar ekan. Shunday bo'lsa ham polvonning biron yeri lat yemagan.

— Qo'y-e... nima, miltiqli kishini bir yoqli qilib qo'yadigan yirtqichlarni sehrlab ushlarkanmi? Bu gapingga kim ishonadi deysan.

— Iye, sen hali uning kuchiga ishonmaysanmi? Mana bu bola ko'tarib kelgan qarag'ayni to'rt kishi zo'rg'a ko'taramiz-u, u qa-

yoqda yotibdi, bundan kuchli. Uning qo'lida boltadan boshqa qurol bo'lmas ekan. Ayiqni u tosh yoki yog'och bilanoq urib olarkan. Men senga, uning qo'tosni qanday qildib ushlaganini aytib beray: sen qo'tosni silab-siypasa sut beradigan sigir deb o'ylama. Uning kuchi gavdasida bo'ladi. Kuchlilikda fildan qolishmaydi, har shoxi Ivan Grozniyning o'g'lini urib o'ldirgan hassasiday bor. Ular buzoqlagan paytida juda xavfli bo'ladi.

Bekorchi boylar nimalarni qilmagan deysiz? Londonlik bir boy ataylab Rossiyadagi bir knyaz hamsoyasiga xat yozib, kema bilan odam yuboribdi. Xatda: "Hurmatli do'stim, shukur, asl tosh, oltin, kumushga unchalik muhtoj emasman. Qaynotam mol boqishga ishqiboz odam. Rossiyaning bir qo'tosini olib kelib boqsam, deb armon qilgani-qilgan. Shu vajdan bitta kema yubordim. Siz ulug' martabali do'stimning marhamati bilan iltimosim bajarilishiga ishonaman", deb yozibdi.

G'arbda xo'roz qichqirsa boshini sajdaga qo'yadigan knyaz, Sibir va Uraldagi do'stlariga ustma-ust telegramma berib, ularni ham hol-joniga qo'ymabdi. Ular qayerda qo'tos borligini, uning qaysi mahalda buzoqlashini so'rab, uni ushlab beradigan odamni qidirishibdi. Shunda ular shu Dobriy-Rabiyni topishibdi. Dobriy-Rabiy o'ttiz yoshlarda ekan o'sha paytlarda.

Knyazning topshirig'ini bajo keltirsam, katta mukofot olsam kerak, deb o'ylagan sibirlikmi yo urallikmi bir savdogar, qo'l-oyog'i yerga tegmay izlab, Dobriy-Rabiyni topib, ikki oyga yollabdi?...

— O'ziyam rosa og'zingga kelganini gapiraveradigan odam ekansan-da, savdogarning hisoblamay pul berganini hech vaqt ko'rganmisan? Polvon odam yosh boladek, aldasang laqqa uchadigan bo'ladi. Qaytaga "og'irning usti, yengilning osti bilan yuradiganlar" — sen bilan bizlar. U orqa-oldini o'ylab o'tiribdi deysanmi? Savdogar: "Sendan boshqa kishining qo'lidan kelmaydi, podshoning qarindoshlaridan biri iltimos qilgan edi. Dunyoda seni tanimaydigan odam bormi, arslonning og'zidan oziq tishini sug'urib olgan botirim bitta qo'tosning buzog'ini ushlab bersin", deb senga salom aytibdi, deya tulkilik qilgandan keyin:

— Xo'p, mayli, — debdi. Haqiga nima berasan ham demabdi.

Savdogar mart, aprel oylarida sotadigan narsalarini olib, polvon bilan Oltoy tog'lariga boradi. U yerdagi ovchilar bilan gaplashib, ulardan: "Qo'tosning buzoqlaydigan mahali bo'ldi. Agar joningdan to'ymagan bo'lsang, yovvoyi qo'tosning buzog'ini olaman, deb ovora bo'lma. Hatto, qo'lbola qo'toslar ham, tog'ga chiqib ketgandagina bo'lmasa, buzog'ining oldiga yaqinlashtirmaydi. Uning buzog'ini hech mahal yopiq qo'raga qamamaydi, faqat ochiq joyda turadi. Agar qo'ra ichidan buzog'ining "mo'-o'" degan joyda tovushini eshitsa bormi, uning devori metindek bo'lsa ham suzib, ag'darib tashlaydi. Yovvoyisiga yaqinlashishni qo'limizda miltig'imiz bo'lganda ham xayolimizga keltirgan emasmiz, — degan so'zni eshitibdi.

Unday bo'lsa bu vahimali gaplaringni men bilan kelgan polvonga aytmay qo'ya qolinglar. U yo'lbarsni quyonning bolasiday qo'li bilan tutgan polvonlardan. Yovvoyi qo'tosni izlayotgan odam podsho Romanov avlodidan, bu buyruqni bajarmaslikning iloji yo'q. Faqat, buzoqlab yotgan joyini ko'rsatsanglar bo'lgani, debdi savdogar.

Oltoylik ovchilar Dobriy-Rabiyni ko'rib hayron qolishibdi: "Bu o'zgacha yaratilgan odam ekan, yo'lbars, ayiqni tutsa tutgandir-u, biroq qo'tosni hali ko'rmagan bo'lsa kerak. Buni ergashtirib borib, qo'tos bilan miltiqsiz olishganini bir ko'raylik. Miltig'imizni o'qlab shay bo'lib turaylik. Mabodo qo'tos zo'r kelsa, oraga tushamiz", deyishibdi bir guruh ovchilar.

Polvon qo'toslar o'tlab yuradigan joyga borib, daraxtning katta bir shoxini kesib olibdi-da, tog' oralig'ida to'pidan ajralib, buzog'i bilan o'tlab yurgan bitta qo'tosga yaqinlashibdi. Qorli qoyalarda yuradigan juni o'siq jonivorlar, shunchalik og'ir, qo'pol gavdasi bilan toshdan toshga takaday sakrab o'ynarkan. Esini tanigandan buyon tog'-u toshlarda kuchli yirtqichlar bilan olishib o'sgan polvon ham qo'tosga duch kelganda dol qolmabdi, uni yengish payiga tushibdi. U qiya tosh orqasidan kelib, ko'zga tushganda, buzog'ining atrofida o'tlab yurgan qo'tos o'qday uchib, o'kirgancha polvonga tashlanibdi, polvon uning oldini katta bir shox bilan to'sibdi. Oldingi oyoqlari yerdan kishi bo'yi ko'tarilgan qudratli qo'tos, yerga oyoqlarini tiray olmay, darmonsizlanibdi. Muguzla-

riga yopishgan kuchli qo'l uni itarib yuborganda, u jardan xuddi to'pday yumalab ketibdi. Og'ir gavda tegib qo'porilgan toshlar tog' orasini gumburlatib yuboribdi.

— Yopiray, bu tog'ni qo'porib yubordimi, nima balo, — deyishib hayron qolishibdi merganlar. Shunday qilib, u endi oyoqqa turgan buzoqni olib qaytibdi.

— Savdogarlar-ku mayli-ya, buning evaziga knyaz nima berdi ekan-a?

— Knyaz bu o'jar polvonni o'n yilga badarg'a qilibdi.

— Iye, nega endi?

— Quloq sol, bu azobga mana bunday duchor bo'libdi: katta o'lja hisoblanmish qo'tos buzog'i qo'lga tekkandan so'ng, savdogar temiryo'l bo'yidagi bir shaharga kelib, Petrogradda buzoqni intizor bo'lib kutayotganlarga ustma-ust telegramma beribdi. Bu xabardan Romanov bobosi tirilib kelib, taxtiga qayta o'tirganday quvongan knyaz londonlik do'stiga xabar beribdi: buzoqni va uni tutgan polvonni Arxangelskka olib kelish uchun maxsus vagon yollaganini aytibdi. Yo'l ozig'i, kirasi uchun savdogarga ming so'm pul berib yuboribdi.

— Savdogar uning yuz so'mini ham sarflamay olib borgandir-a...

— Uni o'zimizning xo'jayindan so'rarsan. Men bu yog'ini aytay. Bular Arxangelskka borsa, knyaz bola-chaqasi bilan ingliz kemasiga minib, portda kutib o'tirgan ekan. Kema kapitani polvonni buzog'i bilan suratga olmoqchi bo'libdi. Kapitanning ust-boshiga qarab uning yot odam ekanini ko'rib:

— Bu qaysi mamlakatning odami? — deb so'rabdi polvon.

— E, og'ayni, sen ushlagan buzoq ser Xolmsning saroyida turadi. Sening isming uning kundalik daftariga yoziladigan bo'ldi, — deb maqtanmoqchi bo'libdi knyaz.

— Unda buzoq Rossiyadan ketadimi?

— Londonga boradi, shuning uchun tuttirdik-da buni!...

— Rossiya qo'tosining buzog'ini yot odamlarga berish uchun tutganimiz yo'q. Unday bo'lsa buning ko'z yoshiga qolarkanman. Opasining suyagi Oltoyda qolgan edi, bolasining suyagi Oq dengizda qola qolsin! — deb polvon buzoqni dast ko'tarib suvga uloqtiribdi.

U mana shu qilig'i tufayli o'n yilga badarg'a qilinibdi. Badarg'adan qaytib kelayotganda yo'l-yo'lakay qishlog'imizda o'n kun mehmon qilganmiz. Mana, shunga ham o'n yilcha bo'lib qoldi. Uni Qozon shahri atrofidan chiqqan deyishadi. Bozorlarda kuchini ko'rsatib o'ziga ust-bosh toparmish. Savdogarlarning manavi Muqonni kurashtiramiz degan odami o'sha, yelkasi yerga tegmagan Dobriy-Rabiy. Agar yarmarkaga keladigan bo'lsa, men uni ko'rmasdan ketmayman. Agar o'sha bo'lsa, esingda bo'lsin, bolam. Boylarning gapiga kirib bel ushlasha ko'rma.

— O'sha odamni ko'rgim kelib ketdi.

— Ko'rdingmi bas, boylar seni kurashtirmay qo'ymaydi.

— Kurash deydigan bo'lsa "qo'rqaman deb aytolmaymanda, — Muqon tong saharda turib, Cho'chqako'lga qarab yo'l oldi.

* * *

Xalq ma'rakasini olqishla ganday havo ochiq va ancha issiq bo'ldi. Ovuldan kelgan ikki tatar, yupungina kiyingan, ulkan gavdali bir kishining oldidan o'tisharkan, gapni boshqa yoqqa burdi:

— Mana bunisi ham kelibdi. Qiziq, buni qanday yiqitar ekan?

— Edilning emaniga o'xshaydi-ya?.. Biroq xalq emasmi, u bilan bel ushlashadiganlar ham chiqib qolar.

— Kurash tushgandan nima foyda, kim kurashsa tuproq yalagani kurashadi. Har yilgiday boylar musulmonlar bilan xristianlarni ikki taraf qilib, bir-biriga gij-gijlab pul to'plashadi. Qaysi tomon yiqitsa ham pul boylarning cho'ntagiga tushib, jon kuydirgan sho'rliklar bir chetda qoladi. Albatta manavi polvon yiqitadi. Shunda xoch taqqanlardan biri: "Qani, pullaringni obkelinglar! Bizning mujik yiqitdi", deydi. Shundan keyin hazratim beradi, pop oladi. Keyinchalik hech kim bilmas bo'lishib oladilar. Shaytonlar...

— E... el og'zida doston bo'lgan Dobriy-Rabiy shumi?

— Nastoyashiy o'zi.

— Shunday degin. U Saban to'yga keluvchilar o'rtasida mashhur. Uning qo'li tekkan odam yiqiladigan yumshoq joyni izlab qolsa kerak... O'tgan yili u o'rtaga chiqib o'tirdi-yu, biroq hech

kim yurak yutib talabgor bo'lib chiqmadi. Shundan devonboshi: "Qani, pulni cho'z!" dedi. Hazratim yuz so'mni tutqazdilar, u pulni kissasiga urib jo'nab qoldi. Bu bechoraga besh so'm berdi, xolos. Qolgani devonboshilarning hamyoniga tushdi... Bu dunyoning ikki oyoqli firibgarlari, to'rt oyoqli yirtqichlarni qo'rqitgan polvonning topganini ham yulqishadi.

— Bu yil ham xuddi shunday bo'ladi. Ulardan nima ketdi, terlasa, polvon terlaydi. Topgani it bilan qushga yem bo'ladi, deganlari mana shu-da!

— Ana, kurashga tushadigan joyga bordi. Yur, borib tomosha qilamiz.

— Qo'ysang-chi, nima qilamiz u yerda. U bilan kim kurashga tushadi deysan? Bekorga vaqtimiz o'tadi.

— Qani yur, kuchini bozorga solgan odamning necha pul topganini ko'ramiz.

Ikkalasi boshlashib kurash tushiladigan maydonga kelishdi. Shaharning semiz boylari, qorni katta savdogarlari, kimxob to'n kiygan hokimlari, boylarning ipak, atlas kiygan, quloq-bo'yinlariga zebi-ziynat taqib olgan qizlari, xotinlari maydonga to'planishgan. O'rtada boshiga xuddi qozonday salla o'rab olgan hazrat bilan silindr kiygan pop ikki taraf bo'lishib turishibdi. Ularning narirog'ida atrofiga bolalarni to'plab olib Dobriy-Rabiy turibdi. U ustidagi eski kastumini yechib, kurashga tushganda kiyadigan ola maykasida maydonga chiqib o'tirdi.

Ikki tarafga bo'lingan shahar ahli polvonga yaqinlashdi:

— Kurash boshlandi! — degan tovush "Cho'chqa ko'li" atrofidagi o'rmonni yangratib yubordi. Uni eshitgan odamlar, vaqtincha savdosini to'xtatib bo'lsa ham, kelib ko'rishga shoshilishdi. Moli ko'p do'kondorlar demasa, xaridorsiz qolgan kichik do'konchalar yopilib, sotuvchilari maydonga chopishdi.

Tomoshabinlar ikki taraf bo'lib turishgan shaharliklarni pisand ham qilishmadi. Ular itarib-turtishib o'rtaga kirishga harakat qilib, xotirjamgina o'zlarini yelpib turgan semizlarni turtib-surtib, ikki tarafni bir-biriga qo'shib yubordi. Ular politsiyachilarning qichqirganiga ham parvo qilmay, o'rtada o'tirgan Dobriy-Rabiyni ko'rishga intilishardi.

— Bechora, boy bo'lganingda shunday yurarmiding. Kuchingni qayerga sarf qilishni bilmaganingdan shu yerda o'tiribsan-da, — deb achingan tovushlar eshitiladi. Shu mahal odamlar topgan-tutganini: birov mato, birov bir dumaloq choy, birov bir qadoq qand, birov pul olib borib bera boshladi.

Odamlarning polvonga qilayotgan marhamatini ko'ra olmadimi, yo nomusi keldimi, terlab-pishib turganlarni itara-itara oldinga chiqqan devonboshining tilmochi:

— Birodarlar, keyinroq turinglar. Devonboshi "bunaqa qilish yaramaydi", deyapti. Polvonni kurashtirishimiz kerak. Kim yiqitsa, o'shanga mukofotni janoblarning o'zi beradi.

— Qani, mirshablar, mana bu odamlarni tartibga chaqiringlar, — deb qichqirdi allakim.

— Xalqdan tushgan pulga zodagonlarning o'zi kayf-safo qilib, polvonga juda oz beradi. Biz o'z kuchi bilan ko'nglimizni ko'targan polvonimizning qo'liga berayotibmiz. Qani, janoblaringizning polvoni bo'lsa chiqsin maydonga.

O'h-o'... Buni qara, bular yangi gap topishmasa yorilib ketadi. Polvonni ham o'zlariniki qilib olishibdi.

— Bo'lmasam-chi... "Er yigit o'zi uchun tug'ilsa ham, eli uchun qurbon bo'ladi". Mirzalaringizning pulidan boshqa nimasi bor? Polvon ham, shoir ham, olim ham, chevar ham xalqniki — bizniki. Biz xalqmiz. Qani kurashga tushiradigan polvoning bo'lsa olib chiq maydonga, — dedi kimdir.

— Xuddi shunday, to'g'ri aytyapti u, Dobriy-Rabiy o'ziga o'xshagan kambag'allar bilan har yili kurashadi. Endi boylar bilan ham bir kurashib ko'rsin.

Ko'pchilikning bu haziliga boylar javob berolmadi, allakimlarning otini atab kurashib, yiqilib yurganlarni chaqirib nima qilasan, moy yeydigan boylardan chaqir, — deyishdi odamlar.

Oradan ancha vaqt o'tdi, biroq maydonga hech kim tushmadi. Xristianlar tomonidan devonboshining yordamchisi oldinga chiqib:

— Hazrat afandim, kurashga tushadigan kishingiz bo'lmasa yutug'imizni bering, — dedi.

Baland bo'yli harf teruvchi Simg'at degan kishi tomoshabinlar oldiga chiqib:

— Pomeshchik afandim, janoblar! Bizningcha, kofir yo musulmonga bo'lingandan ko'ra, boylar va kambag'allarga bo'lingan tuzuk bo'lardi. Shuning uchun ham xalq boylar kurashsin, — deyapti. Bular uchun kofirmi, musulmonmi, bari birga o'xshaydi. Bu yer hazratlarim ko'proq tilga oladigan, u dunyoning jannat bilan do'zahda bo'ladigan "arosat maydoni" emas. Shuning uchun ham dinga qarab farq qilish yaramaydi. Xalq kuchli polvonni ko'rmoqchi, xolos. Bugun Xudoning qarg'ishi tekkan kambag'allar bilan mehr-shafqati tushgan boylarning kurashini ko'rgimiz keladi. Boylardan marhamatini ayamagan Xudo kuchdan ham bergandir... Shundaymi, Dobriy? — dedi.

— Davay, — dedi polvon o'rnidan turib.

— To'g'ri! Qazi-qarta yegan boylar bilan tuzlangan bodring yegan kambag'allarning kurashini ham bir ko'raylik, — deb chuvullashdi xalq. Ilgari intilgan xalqni politsmeysterlar orqaga itarib, tartibga chaqirdi. Hech kim o'rtaga tushmadi. Hazrat bilan pop bir-biriga yaqinlashib yutiq pulini undirishmoqchi bo'lishdi. Simg'at devonboshining yordamchisiga qarab:

— Taqsir, kurashga tushadigan odam boylardan topilmasa, xalqdan topilib qolar. Sizlar pul olishga shoshilmasanglar ham bo'ladi. Mana, biz izlaymiz, — dedi.

— Simg'at obzi, yigirma besh tiyinlik romning kayfi nima bo'lardi. Mana, halitdanoq qulog'ing qizarib ketdi. Vaqtni boy berishning nima keragi bor.

Simg'at bir nima demoqchi bo'lib uning basharasiga tikildi-yu, biroq hech nima demadi. U xalqqa qarab:

— Og'aynilar, bizning maqsadimiz poyga olish emas, balki tomosha ko'rib, ko'ngil ochish. Qani, Dobriy-Rabiydan kurash o'rganaman degan talabgor bormi? Yiqitaman deb emas, kurash o'rganaman deb o'rtaga tushsin bor bo'lsa.

Polvon Saban to'yga keladigan hamma polvonlarni yiqitib bo'lgan edi. Hech kim "men bor" deb o'rtaga chiqmadi, faqat, kim chiqar ekan deganday atrofdagi odamlarga ola-zarak bo'lib qarardi.

— Edil bo'yi faqat Dobriynigina yaratmagandir. Qani, bormi talabgor? — bu gal Simg'atning tovushi qattiqroq eshitildi. Shu

mahal odamlar orasidan olomonni nari-beri itarib kimdir oldinga chiqdi.

— Edil yaratmagan bo'lsa Esil yaratgan. Mana, men borman — deb ustiga eski tuya junli chakmon, boshiga sirma chit do'ppi, oyog'iga etik kiyib olgan bir qora yigit o'rtaga tushdi. Uning gavdasi Dobriy-Rabiynikiday bo'lmasa ham shunga yetarli ekan. Xalq haligi notanish yigitga hayratlanib qaradi. Hamlakor arslonday vazmin o'rtaga tushgan yigitning qisiq, suzilgan ko'zlariga polvon ham tikildi. Mo'ylovi endigina sabza urgan yosh yigit o'zini juda erkin tutardi.

Bu notanish yigitni ko'rib, yig'ilganlar hayron bo'lishdi. Birdan ko'tarilgan shov-shuv suv quyganday tindi. Simg'at yigitga peshvoz yurib, keksa polvonga ikki qadam qolganda, uni to'xtatdi.

— Nega chiqding, ukam?

— Kurashmoqchiman.

— E, shundaymi. Sabr qil. Qayerdan kelding, qaysi urug'-dansan?

— Oqmo'ladanman, Esil bo'yidan. Qozoqman.

— Hali yoshga o'xshaysan. Nechaga kirding?

— O'n to'qqizdaman. Yosh emasman.

— Nechadaman deydi? — degan tovushlar eshitildi atrofdan.

— Hali yosh, o'n to'qqizda, — deb qichqirdi Simg'at ham ruschalab, ham tatarchalab.

— E, hali yosh ekan. Uvol bo'ladi-ku — degan tovushlar eshitildi.

— Yasha, uka, azamat ekansan. Edil bo'yidagilarni tamom yiqitib bo'lgan polvonni yiqitolmasang ham, o'rganish uchun kurashganing ma'qul. Seni yosh deyapmiz-ku, lekin o'rtaga tushib kurashadigan kattamiz qani... Mayli, yiqilsang ham poyga beramiz.

— Simg'at, yiqilganda ham poyga to'laydigan qancha puling bor? — dedi devonboshining tilmochi.

— Janoblarining yiqitgan kishiga beradigan necha pul bor?

— Hazratda yuz, popda yuz — ikki yuz so'm...

— Shu bola yiqilsa ham uch yuz so'm berganim bo'lsin.

— Buncha pul sen tugul otangning peshanasiga ham bitmagan edi-ku... Qayoqdan olasan shuncha pulni?

— Unday bo'lsa yiqilganiga ming so'm berganim bo'lsin.

— Gapni ko'paytirmay, cho'ntagingdan uch yuz so'm oq chiqsin-chi, ko'raylik kuchingni.

— Mana senga pul. Necha ming kerak, — deb Simg'at xalqni ko'rsatdi. Har qaysisi yigirma tiyindan berganda ham ancha pul yig'iladi. Mirzalaringning ikki yuz so'miga o'zlaring sharob olib ichaqolinglar. Qani, Ibroy, Xuti, Sergey, Yoqub, Fayzulla, Mixail! Pul yig'inglar. Mana men besh so'm berdim. Yosh polvon bilan keksa polvonni kurashtirib, tomosha qilamiz. Xalqning qanchalik saxiyligini allomalar bir ko'rib qo'ysin.

— Aka, men o'rtaga yiqilish uchun tushmayman. Bir bel ushlashdimmi, katta-kichikligiga qaramayman. Yiqitmasam pullaringizni olmayman ham, — dedi yosh polvon.

Simg'at yosh polvonga qarab iljaydi-da, uning so'zini keksa polvonga tushuntirdi.

— Mayli, bunday dovyurak bola bilan kurashganim uchun men ham nomus qilmaganim bo'lsin. U chinakam polvonchasiga gapirdi, "o'rni kelganda otangni ham ayama", degan qadimgilar.

Oldinga intilgan xalqni orqaga surib, tartibga chaqiruvchilar ko'payishib qoldi. Maydon kengayib, odam ustiga odam oqib kela boshladi. Pop bilan hazrat pul bo'lishib olishni to'xtatib, kurashmoqchi bo'lganlarning kim ekanligini bilib olishmoqchi bo'lishdi.

— Hazrat afandim, endi qanday bo'ladi? Bo'linib turamizmi yo birga turaveramizmi?

— Bo'lmasam-chi, gospodin pop. Rost, musulmon bilan xristian kurashgandan keyin, albatta bo'linib turish kerak.

— Yosh polvonning millati nima ekan?

— Qozoq.

— Hazrat afandim, esingizda bormi, bir vaqtlar ikkovimiz Rossiya xalqlarining qaysi dinga mansub ekanligi haqida gapirishgandik. O'shanda siz: "Qozoq xalqining yuzdan birigina namoz o'qiydi. Ular ham kitobdagidek emas, "oq qo'yning kallasi, qora qo'yning kallasi", deb buzib o'qishadi. Shunday ekan, ularni musulmon desa ham bo'ladi, demasa ham bo'ladi", deb qozoq bilan tatar jirlaridan dalil keltirib, bir og'iz o'lan aytsangiz-a! Hatto meni yaxshi tushunsin, deb tarjima ham qilib bergan edingiz.

Yodingizdan chiqmagan bo'lsa u bunday boshlanardi:

Qozoqlarda manman degan botirlar ko'p,
Bermaganni ular tortib yeyishadi.
Ko'chmanchi u, solib qo'ygan machiti yo'q,
Rivoyatda: "Qozoq — kofir" deyishadi.

Xo'sh, esingizdadir-a? Shunday ekan, bunday dini noma'lum odam uchun nimasiga bo'linamiz? Qozoq kofir bo'lsa — bu ham rus-da.

— Bo'lmasa o'zidan so'rab qo'ya qolaylik, — dedi hazrat.

— Ibadulla, qani, sen bilib kelgin-chi!

Mufti kelib:

— Molay, yozirg'a kirak... Sin qaysi dinda?

— Men unaqa gaplarni bilmayman, qozoqman.

— Hazrat afandim, bilmiy, — deb qaytib keldi Ibadulla mufti.

— Albatta o'qimagan kishi bilmiy. Yuriy gospodin, indi u qozoq bo'lg'ach, har holda musulmon bo'ladi-da, — dedi hazrat.

— Mayli, kim bo'lsa ham kurashaversin, — dedi pop.

— Familiyangni ayt, devonboshi yozib qo'y deyapti — dedi yordamchi uning oldiga kelib.

— Muqon.

— Bu otangning otimi yo o'zingnikimi?

— Otamning oti Mungaytpas, uni nima qilasan? Kurashadigan men, o'zimni yozsang bo'ldi-da.

— Qani, tayyorlan molay, indi kurashasing.

— Allaqachon tayyor bo'lganman.

— Kiyimlaringni yechmaysanmi?

— Nima, kiyimimni yechib suv kecharmidim? Shunday kurashaveraman-da.

— Yo'q, bu bo'lmaydi. Mana bu polvonga o'xshab, yechinib kurash. Mana, seni kiyadi deb mayka oldirdim, — deb Simg'at bir bola olib kelgan qog'ozga o'rog'liq narsani cho'zdi.

— Mayli, polvonga atalgan kiyim bo'lsa, tura tursin, polvon bo'lganimdan keyin kiyarman. Hozircha shundoq kurashaveraman, — deb, u sherday pishiqirib turgan Dobriy-Rabiy bilan bellasha ketdi.

— Bu bola keksa polvon uchun bir nafaslik gap. Olada so'-g'a, — deyishdi ba'zi birovlar.

— Ana, ilk silkinuvdan qoldi faqir, — dedi kimdir.

— Molayning belbog'i uzildi — deb chuvullashdi bolalar.

— Ana, ana, belini quchoqladi. Endi ko'taradi, — dedi birov.

— Qo'li temirdek uzilib ketdi, eh!...

— Qort ingasha, indi yota, yota-da, ota molayni... — dedi birov.

Qari polvonning eng sinalgan hadislaridan biri shu edi: yotib qolib, yonboshi bilan otib yuborar edi. Uni ba'zi bir odamlar, yiqildi, deb aldanib qolardi. Bunday hadisni ilgari bolalardan ko'p ko'rgan Muqon, uning belini mahkam ushlab, tizzasi bilan biqinidan ko'tarib yubordi.

— Ana, shu polvon keksa polvonni to'nkaday yelkasiga ko'tarib oldi, — deb chuvullashdi atrofdagilar. Oyog'i yerdan uzilgan keksa polvon yosh polvonning belidan ushlayman deb har qancha urinmasin, ushlay olmadi.

— Ko'tarib ur, — dedi bir chol.

Yosh polvon Dobriy-Rabiyni ko'targancha to'rt-besh qadam yurdi-da, yerga tikkasidan qo'ydi.

— Bola yiqitolmadi, — dedi devonboshi.

— Yiqitadi. Qayta kurashtiramiz, — dedi mufti.

— Men yiqildim, — dedi keksa polvon, — men o'z kuchim bilan bo'shab chiqqanim yo'q, bola bo'shatdi. O'zimdan kuchli, yosh bir polvon yetishib chiqqani uchun baxtiyorman. Yonboshim yerga tegmagan edi, yerga tegmay qaridim. Endi men kurashishni tashladim. Hurmatli vatandoshlarim! Menga kambag'alsan, deb polvonlik ilmini o'rgatishmadi. Ehtimol, men Edil bo'yigagina emas, balki butun dunyoga mashhur bo'lardim. Endi iltimosim shuki, mana bu yoshni tarbiyalab, dunyoga tanilishi uchun yordam beringlar, — dedi u xalqqa murojat qilib.

Fayzulla bilan Sergey xalqdan yig'ilgan bir xalta kumush tanga bilan bir ro'mol qog'oz pulni olib kelib Simg'atning qo'liga berdi.

Simg'at, odamlardan bir chetda, suv bo'yidagi qulagan daraxt ustida o'tirgan ikki polvonning oldiga bordi. Uning orqasidan ergashgan olomonni yorib chiqqan bir kampir:

— Simg'at, ma, mana bu kampirlar yig'gan siylovni ham ol. Puli oz-u, biroq sirg'a, bilaguzuk, uzuklarini ham berishdi. Polvonlarga ber. Katta polvonning xotin, bola-chaqasi, kichik polvonning onasi, qarindoshlari bordir, — deb qo'lidagi tugunchasini Simg'atga uzatdi.

— Mana, mening siylovimni ham ol. Qishi bilan Cho'chqa ko'ldagi xazinasini poylaganim uchun boy bergan tortiq kamzul edi. Polvonlardan biriga ber, rohat qilib kiyishsin, — dedi bir tatar chol satin kamzulini uzatib.

Kimdir birov terlab-tepchib bir quchoq: barqut do'ppi, uch-to'rtta bir metr-yarim metrlik quroq mato cheti hoshiyali ro'mol, yana ancha mayda-chuyda narsalarni olib kelib, ikki polvonning o'rtasiga tashladi.

— Mana senga, Simg'at, xalq siylovi. Qaysi biriga bersang ham ixtiyor o'zingda. Yig'ilganini yana olib keladi.

Odamlar polvonlar tomonga oqqanda, besh-olti nafar boy yolg'iz o'zlari qaqqayishib qolishdi. Tomosha ko'rgisi kelgan ba'zi yoshlarga o'qrayishib qarab aravakashga "hayda!" deganday qo'l siltashdi.

Polvonlarini o'rab olgan odamlar orasidan bo'yniga cholg'u osib, yupungina kiyingan, ikki bolasini ergashtirgan bir chol oldinga chiqdi. Cholning bo'yniga osib olgan cholg'usi bolalarni qiziqtirib qoldi, u odatdagi muzika asboblarining birontasiga o'xshamasdi; to'rt burchakli ham emas, uch burchakli ham emas. Allaqanday yupqa taxtadan egib yasalgan. Usti teri bilan qoplangan bo'lib, bir necha ingichka sim tortilgan edi. Jiyaklarida buraydigan muruvvatlari ham bor. Uni qanday burab, qanday sozlashini o'zidan boshqa hech kim bilmasdi. Biroq cholning oriq qo'yi tegishi bilan undan goh qayg'u, goh quvonchni ifoda qiluvchi ohanrabo kuylar yangrardi.

Chol o'rtaga chiqib, o'sha cholg'usini qo'liga oldi-da, hali hech kim eshitmagan yangi kuyni chala boshladi. Dastlab bu kuy xuddi momaqaldiroqday chaqnab gulduradi-yu, so'ng shamolning yoxud suv to'lqinining qirg'oqqa urilishini eslatuvchi jo'shqin bir tovushni ifodaladi.

— Bu qanaqa kuy? — dedi birov.

— Kuchni ifodalaydigan kuy.
— Ashulasi yo'qmi?
— Bor.
Shu payt ikki bolaning ingichka tovushi gitaraga jo'r bo'ldi:

Jo'sh ursa kuchlar,
Jam bo'lsa kuchlar,
Dengiz qalqib toshadi.
To'lqinda toshlar
Yaltiray boshlar,
Kema baland oshadi.
O'kirib dovul
Toshlarni butkul —
Uchirar ovloq,
Qulashar jarlar,
Yig'lashar g'orlar,
Atrof sukutda biroq.
Qaynab toshsa kuch
To'siq kelmas duch,
Insondan kuchli kim bor?
Qurigan ko'lni,
Qaqragan cho'lni
Obod etar odamlar.
Mehnatkash erlar
To'kishib terlar,
Bezatar yurt savlatin.
Botir kishilar
Mardona ishlar,
Yaratar baxt-davlatin...

Ikki ko'zi chirt yumuq chol oftobga qarab olib cholg'usini chalaverdi. U ikki bolasining ashulasini ham unutib, allaqanday qah-qah kulgi, qandaydir shart-shurt urilgan shapaloqni eslatuvchi bir kuyni chalarkan, uzun, oriq barmoqlari torlar ustida tinmay yugurar, xayoli esa olamni charx urib kezardi. Gitarachi cholning yonboshida o'tirgan qariyalar ham chuqur xayolga cho'mib, uzoq-uzoqlarga tikilgancha soqollarini silashib o'tirishar, ba'zan

esa, "evoh" deb, ichki dardlarini tashqariga chiqarganday bo'lardilar. Qulagan daraxt ustida o'tirgan yosh polvon sekin kelib, cho'ntagidan ellik tiyinlik kumush tangani gitarachi cholning oldiga tashladi:

— Kuyingiz yaxshi ekan... baxtli bo'ling, — dedi u. Dobriy-Rabiy bo'lsa o'rnidan turmayoq, cho'ntagidan bir so'mlik kumush tanga olib cholning oldiga uloqtirdi. U:

— Asil kuy ekan. Chal, chalaver, mana bu bechora xalq eshitsin, — dedi.

Bir chetda, daraxtga suyanib turgan ish kiyimdagi bir kishi o'rtaga bir tanga tashladi. Uni bolalar olib, cholning oldiga tashlaymiz deb, cholg'uning ichiga tushirib yubordi. Kuy buzildi. Chol yumgan ko'zlarini beixtiyor ochib, o'rtaga yaqinlashgan ishchiga tikilgancha:

Millat diylar, millat diylar,
Millat uchun bit diylar.
Millat kuyi — birlar uchun,
Ko'p qardoshga yetmiylar, —

deb ashula aytdi-da, keyin gitarasini yoniga olib qo'ydi.

Qo'lidagi pullarini tezroq egalariga topshirishga shoshilib turgan Simg'at, ikkiga teng bo'ldi-da, qulagan daraxt ustida o'tirgan ikki polvon oldiga qo'ydi.

— Jigarlarim, bu xalq tortig'i. Xalq bir tomchidan suv bersa — dengiz bo'ladi, bittadan tariq bersa — tog' bo'ladi. Mana bu besh yuz sakson ikki so'm-u yetmish tiyin ikkalangga teng bo'lindi.

Keksa polvon o'rnidan irg'ib turdi:

— Ko'rsatayotgan iltifotlaringiz uchun qulluq. Bu pul mana bu yosh polvonni o'qitish uchun sarf qilinsa. Men shu pulni topolmaganimdan, qariguncha el ichidan chiqolmay qoldim. Keraksiz mahalda topilgan xazinadan na foyda? Bu pul mana bunga berilsin — deb u yonidagi xaltani Muqonga tomon surib qo'ydi.

— Men bu kuchni mulladan olganim yo'q. Qulog'imdan cho'zib, darra bilan urgandan keyin ketib qolganman. Otam bilan bobom o'qimasdanoq — Luq, Ernoq polvon deb nom taratgan ekan. Menga pul to'lab o'qishning nima keragi bor. O'qishga bor-

sam yana bittasi qulog'imdan cho'zadi. Undan ko'ra bu pullarni sen ol, bola-chaqang bor, — deb Muqon pulni Dobriy-Rabiyning oldiga surdi.

— Bo'lib olaveringlar, — deb Simg'at pulni yana ikkiga bo'lib qo'ydi.

— Sen olib o'qigin, — deb keksa polvon Muqonga tomon surdi.

— Yo'q-y-yo'q, sen ol, — Muqon xaltani nari surganda uning qo'li Dobriy-Rabiyning qo'liga taqaldi.

Batrak–akmolinskiy

Muqonning Omskda qilgan orzusi Qozon shahrida bir necha kun turganidan keyin o'zgardi. Bunga quyidagi voqea sabab bo'ldi. Saban to'yi tamom bo'lay deb qolganda Qozonga katta shaharlarning biridan sayyor sirk artistlari kelib qolishdi. Ular ichida masxaraboz, dorbozlardan tashqari, sakkizta polvon bor edi. Sirk dastlab ochilgan kunlari Fayzulla, Simg'atlar bilan birga Muqon ham kelib tomosha qildi; u sahnada saf tortib turgan polvonlarni ko'rganda og'zi ochilib qoldi. U hatto qo'llarini musht qilib olgan edi.

— Molay, nima qilib o'tiribsan? Nima balo, qo'rqib o'tiribsanmi? — dedi yonida o'tirgan yo'ldoshlaridan biri. Muqon uning so'ziga parvo qilmadi, go'yo mudrab o'tirgan odamday indamadi ham.

— Nega indamaysan? — deb biqiniga turtdi haligi odam. U sekin yoniga qarab:

— Bular kimlar? — dedi sahna o'rtasida aylanib, safga tizilgan polvonlarni ko'rsatib.

— Bularning kimligini hozir ko'rasan.

Sirk, odatdagidek, avvalo tomoshani kichik-kichik nomerlardan boshladi; akrobatchilar, chavandozlar, masxarabozlar chiqdi. Muqonga bularning hammasi yoqmadi.

— Haligi polvonlar qayoqqa ketdi? Kurashi qachon boshlanadi, kuttiraverib toqatimni toq qildi-ku, — deb yonidagi yo'ldoshiga qaradi.

— Oshiqma, molay, hozir bo'ladi. Ko'rayotganlaring qiziq emasmi?

— Buning nimasi qiziq? Bu ovulimiz bolalari o'ynaydigan "Oltiboqon", "Otkenshek", "Sirik oyoq" degan o'yinlari-ku.

— Chavandozlar-chi?

— Shu ham o'yin bo'ptimi? Ovulda uloq chopishib ko'p odam mayib bo'lgan. Buvim: "Otga minsang asta yurgin, yiqilib mayib bo'lasan", degan. Otni aravaga qo'shmasa, salt minishni yomon ko'raman.

Tanaffusdan so'ng, o'rtalikdagi maydonni supurib-sidirib, yetti-sakkiz odam aravaning g'ildiragiga o'xshagan og'ir bir narsalarni zo'rg'a o'rtaga olib chiqishdi.

— Molay, mana endi chiqadi polvonlar. O'sha sakkiz odam ko'tarolmayotgan cho'yanni bir polvon ko'taradi. Ko'rdingmi, qanaqa kuchli! — deb qo'lini ishqalab qo'ydi yonida o'tirganlardan biri.

— Xo'sh, ko'tarsa nima bo'pti... Bu sakkiz odam "saksoni yig'ilib tomosha ko'rsatadigan" botirlardan-ku. Tezroq kurashini ko'rsatmaydimi, — deb mushti bilan yonboshiga tayandi Muqon ko'zini qisib.

Temir ko'taradigan polvonni kutib o'tirganida, o'rtaga botinkasining tumshug'i yarim gaz keladigan, boshiga shlapa kiygan, qo'lida yo'g'on tayog'i bor bittasi chiqib, tomoshabinlarga bosh qimrlatib ta'zim qildi.

— Bunisi nimasi? Temir ko'taradigani shumi? U xuddi, "men" deganday boshini liqillatdi.

— Qo'y-e, bu supurgini ham ko'tarolmaydigan bir sho'rlik-ku, — dedi Muqon.

Masxaraboz qo'lidagi yo'g'on tayog'i bilan Muqonga tashlandi. O'rnidan sapchib turgan Muqonni yonidagilar ushlab qoldi. U tayog'ini nayza qilib qarshi keldi-yu, indamay og'zini qiyshaytirdi, ko'zini olaytirdi. Odamlar kulaverib ichak-sillasi qotdi.

— Bu kim? Nima, meni urmoqchimi?

— Seni Xudo saqladi, molay, urmadi. Urganda ham naq sulaytirib qo'yardi.

— Qo'y-e, buning urgani nima bo'lardi? Qulog'idan ushlab uloqtirib yuborarman!

— Uni uloqtirolmaysan. Bu ana shu sakkiz polvonning otasi, ana, ishonmasang, anavi temirni qanday ko'targanini ko'rgin, — dedi kulaverib ichak-chovog'i uzilayozgan yo'ldoshi.

U qo'lidagi tayog'ini Muqonga bir o'qtaldi-da, uloqtirib yubordi. Keyin temirga qarab, uning atrofidan bir aylandi. Temirga qo'lini cho'zdi-yu, boshini chayqadi. Bosh kiyimini yechib, yana qo'lini cho'zdi. Uh tortib, pechanasini ro'molchasi bilan artdi, ustki kiyimlarini yechdi. Oyog'i bilan g'ildirakni bir tepib, o'zi chalqanchasidan tushdi. Odamlar gur etib kulishdi.

— Nimasiga kulasanlar? Qani kurashadi degani. Mana bu masxaraboz ovulimizdagi "oyquloq, nonkampir" degan o'yinni qilyapti, xolos. Buni bolalar ham qila oladi. Men sirk degani polvonlarni ko'rsatadigan, polvonlikka o'rgatadigan maktabmi desam, bu g'irt bolalarning o'yini-ku. Orenburgga borganimizda ham shuni ko'ramanmi?

— Albatta, sirk bo'lgandan keyin...

— Unday bo'lsa, men bormayman.

* * *

Muqon intizorlik bilan kutgan kurash ham boshlandi. U har kuni tomoshaning ikkinchi yarmi — ya'ni kurashnigina tomosha qildi. Biroq fransuzcha kurashning nimaligini tushunmagan Muqonni bu tomoshalar uncha qiziqtirmadi. Unga bu kurashda, go'yo polvonlar kuchi yetganini yiqitib ketaveradigandek tuyuldi. Alpomishnikiday yo'g'on bilaklari bilan birini-biri itarishgani-itarishgan. Biri birini yiqitsa ham, "yag'rini yerga tegmadi", deb qayta kurashtiradi. Bir juft polvon bir-birini bir necha kungacha yiqita olmas, yiqitsa ham zo'r-bazo'r yiqilar edi. Odamlar qiziqib ko'radigan "mayda-chuyda" tomoshalarni Muqonning ko'rgisi kelmas edi.

Muqonni kuzga yaqin sport maktabiga joylashtirish maqsadida yurgan bosmaxona ishchilari, uni sirk hunari bilan oldindan tanish bo'lishini ma'qul ko'rib, har kuni tomoshaga olib tushadigan bo'lishdi. Muqon o'ziga akadek bo'lib qolgan Simg'atga bir necha

bor kurashga tushgisi kelib yurganini aytsa ham, u ma'qul ko'rmadi.

— Sen hali shoshilma. Kurash usulini bilmay turib, o'rtaga tushib bo'lmaydi. Notanish polvonlar ichida senga joni achiydigani yo'q. Ular o'zlarining obro'yi uchun, sen yiqitsang ham "yiqitgani yo'q" deb turaveradi. Senga avvalo ustoz kerak, ustoz bo'ladigan odam bu yerda yo'q. Ustoz topib, seni unga olib boramiz. Hozircha kurashni ko'rib, ko'zing o'rgana bersin, — deb maslahat berdi Simg'at.

Ishchilar yotog'ining bir kichkina hujrasida yotgan Muqonning allamahalgacha uyqusi kelmadi. Simg'atning "ustoz kerak" degan so'zi unga buvisining: "Qarog'im, katta bo'lganingdan keyin yag'rini yerga tegmagan Erjon polvonning oldiga olib borib fotihasini olib beraman", degan so'zini esladi. Keyin u: "Shu fotihani nega anov kuni Dobriy-Rabiydan ola qolmadim", deb afsuslandi. Shu xayolar bilan uxlab qolgan Muqonning tushiga buvisi kirdi.

"Esil toshib, uning bo'yi mevali daraxtlar bilan to'lib ketganmish. Hosilining ko'pligidan daraxt shoxlari egilib, mevalardan esa sharbat tomarmish... Yurtidagi hamma tanish-bilishlari shod-u xurram, to'y-u tomoshada yurishganmish. O'zi ko'rgan Qiziljar, O'mbi, Qozon shaharlarining aholisi ham shu ma'rakada yurganmish... Safarboyning uyida so'z qilishgan polvonlar, sirk polvonlari bir maydonda qator saf tortib o'tirishganmish. Shunda boshida kattakon shoxi bor bir polvon o'rtaga chiqib: "Qani, kurashadiganlar bormi", deb so'rabdi. Hech kim indamagach: "Talabgor yo'q bo'lsa, sovrinni olib kel! Men sovrinni kurashmayoq olaman..." — deb maqtanibdi shoxli polvon. "Shoshma, bunday qilish yaramaydi. Kurashadigan kishi nega topilmasin, chiqib qolar, sabr qil", debdi bir ola otga minib olgan oq soqolli chol. "Buvi, men kurashay", — debdi shunda Muqon. Buvisi esa: "Cho'chqa ko'lga borganingda katta polvon seni shogirdim degan edi-ku, sen uning ruxsatisiz hech kim bilan kurashma! Ahmoqlik qilma! O'sha otangdan o'rgan", — deb baqirib beribdi.

O'z tovushidan uyg'onib ketgan Muqon o'rnidan turib, ko'zini ochsa, kun chiqib ishchilar ishiga ketayotgan mahal ekan. U

o‘ylab o‘tirib-o‘tirib: “odamning o‘ngida o‘ylab yurganlari tushida g‘alati bo‘lib ko‘rinar ekan-da”, deb qo‘ydi.

* * *

Kurashga berilgan Muqon Dobriy-Rabiyning qishlog‘iga borib, u bilan uchrashdi. Dobriy-Rabiyning qizi bilan o‘g‘li xuddi qarindoshi kelganday xursand bo‘lishdi. Muqon unga shaharga sirk kelganini, undagi ko‘p gaplariga keksa polvon tushunmasa ham, uni ma’qullab, Dyadya Ivan nomiga xat yozib berdi. Muqon xatda mening kurash tushishimga ham rozilik berdi, deb o‘ylab, o‘zida yo‘q sevindi. U ertasigayoq Qozonga yetib kelib, yotoqxonada tunadi. Ertalab do‘stlari:

— Molay, sen qayoqqa yo‘qolib ketding? Seni qochib ketdi, deb odamlar bizlarni masxara qilishiyapti.

— Kim masxara qiladi?

— Sen ketgan kuni Kamol boyning odami ikki marta izlab keldi. Boylar o‘zaro maslahatlashib, sirk polvonlari bilan poyga tikib, kurashtirmoqchi bo‘lishgan bo‘lsa kerak. Qayoqqa ketganingni bilmagandan so‘ng, qochib ketibdi, dep gap tarqatishibdi.

— Simg‘at og‘a qani?

— U, boy yuborgan odamlarga: “Biz uni o‘qitmay turib, kurashga solmaymiz. Boylar sovringa tikmoqchi bo‘lgan pullariga hozircha qarta o‘ynab turishsin”, deb javob berdi. O‘zi kechadan beri seni izlab yurgan bo‘lsa kerak, ikki kundan buyon yo‘q.

Simg‘at kechgacha ham kelmadi. Muqon to‘rt-besh tanish yigitlar bilan sirk boshlanishi oldidan keldi. Bu kunlarda sirkning puli uchun kurashadigan ermak kurashlari hammaning me’dasiga tegib odamlar kam keladigan bo‘ldi, bugun ham ko‘p joy bo‘sh, tomoshabinlar xuddi taqir yerda bitgan tariqday siyrak o‘tirishibdi. Sirk boshliqlari hafsalasi pir bo‘lgan tomoshabinlarni qayta qiziqtirish uchun yangiroq repertuar izlayotgan mahal edi.

— Odatdagiday, o‘yinning ko‘p qismini ko‘rmay, behafsala o‘tirgan Muqon polvonlarning o‘yinidan zerikib ketdi, u “Simg‘at bilan maslahatlashmay kurash tusha ko‘rma” deganlarini unutib shartta o‘rnidan turib, sirk boshlig‘ining oldiga bordi. Ko‘ziga onda-sonda tushib yurgan odami oldiga kelgandan so‘ng, sirk

boshqaruvchisi Safronov unga boshdan oyoq bir nazar tashladi-da, sahnadagi kurash tugaguncha uni oldingi qatordagi joylardan bittasiga o'tqazib qo'ydi.

— Xo'sh, nima demoqchisan? — dedi boshqaruvchi yigirma daqiqa olishib, bir-birini yiqita olmagan ikki polvonni o'tqazib bo'lib.

— Mana bu polvonlar bilan kurashsam bo'ladimi?

— O'h-o'... bizlar bilan kurashadigan kishi kelibdi! — deb hali o'pkasini bosib olmagan ikki polvon Muqonning oldiga kelishdi. Boshqaruvchi:

— Hovliqmanglar! — deganday qo'lini siltab, kurashga tushmoqchi bo'lgan bolani surishtira boshladi.

— Yoshing nechada?

— Muqon biroz duduqlanib:

— O'ttizlarga kelib qolgan bo'lsam kerak... — dedi, haqiqiy yoshimni aytsam kurashtirmay qo'yar, degan xavf bilan. Qo'y-e, ko'p bo'lsa yigirmaga kirgandirsan, — dedi boshqaruvchi hali bolaligi sezilib turgan Muqonga tikilib.

— Bu men bilan teng, — dedi yonida ergashib kelgan bola, — o'n to'qqizda.

— Ha men yanglishibman.

— Nega yoshingni yashirasan?

— Yashirganim yo'q, yoshni oshirib aytgan yaxshi bo'ladi, degandi buvim. Yoshim yigirmadan oshib ketdi. Mana bu bola shunchaki aytdi-qo'ydi. Kurashtirsang bo'lgani.

— Bu bilan adi-badi aytishib o'tirishning nima keragi bor! Kurashgisi kelsa bu yoqqa yubor, birpasda kulga ag'anagan kuchukday ag'anaydi, — dedi polvonlardan biri kulib.

— Chiranma! Hali ko'ramiz kulga kim ag'anar ekan, — dedi boshqaruvchi polvonga qarab Muqondan so'radi:

— Sen qozonlikmisan?

— Yo'q, Oqmo'ladan keldim.

— Qirg'izmisan?

— Ha.

— Bo'pti bo'lmasa. O'rningga borib o'tira tur, o'yin tugagandan keyin gaplashamiz.

Ertasi kuni sirk afishasi juda g'alati bo'lib chiqdi. Safda turgan sakkiz polvonning qarshisida yupungina kiyingan bola turibdi. Boshida jiyakli, chiy qalpoq, belida yo'g'on belbog'. Uning ostida: "Sayyor sirkning sakkiz polvoni bilan mahalliy kurash usulida Batrak-Akmolinskiy kurashida", deb yozilgan. Bu afisha tomoshabinlar uchun yangilik edi. Chang bosib bo'sh turgan stullar odamlar bilan liq to'ldi.

Bosmaxonada bosilib, shaharning har joy har joyiga yopishtirilgan afishalarni ko'rib, Simg'at qattiq xafa bo'ldi. Dobriy-Rabiy bu haqida: "Sizlardan iltimosim shuki, bolaga ko'z-quloq bo'lib turinglar. Agar boylarning qo'liga tushsa, bunga xuddi qopag'on it deb qaraydi. Ular biri bilan biri it-mushuk; savdo uchun ham, yer uchun ham, yuguruk ot uchun ham, yaxshi chana uchun ham, hashamatli uy uchun ham, hatto sharob uchun ham talashishgani-talashishgan. Mabodo bu bola qo'llariga tushib qolsa, aldab, xuddi dushmanidan o'ch olganday, gij-gijlab urdiradi. Nima ham deb bo'ladi, biror falokat ro'y berguday bo'lsa, unga yordam beradigan kishi topilmay qolishi mumkin. Men buni o'z boshimdan kechirganman. Hali bunday sirk Qozonda ko'p bo'ladi. O'qishini bitirmay turib, ular bilan kurashga tura ko'rmasin. Chunki u hali yosh, kuchi bo'lgani bilan aqli raso emas. O'ylamay ishlatilgan kuch qachon bo'lsa ham yerga qaratadi.

Sirkka qabul qilingan kishilar o'z kuchiga ishonib, o'z tengimdan yiqilmayman, deb shu ishni kasb qilib olganlar bo'ladi. Ular bir-biriga ustoz bo'lib, biri bilmaganini biri o'rgatishadi. Shuning uchun ular hamisha bir-birini himoya qiladi. Ulardan birortasini yiqitib qo'ysang, qolgan hammasi senga dushman bo'ladi. Men buni ham boshimdan kechirganman. Keyingi vaqtda ular taklif qilsa ham bormaydigan bo'ldim. Bola avvalo o'ziga ustoz, mehribon do'st topib olib, undan keyin kurashgani ma'qul. Petrogradda Ivan tog'a degan — ko'pgina polvonlarning ustozi bo'lgan odam bor. Sizlar bir oila a'zolariday totuv ishchilarsiz. Bolani o'sha Ivan tog'a bilan uchrashtirib qo'yish qo'llaringdan keladi. U meni bir necha marta chaqirgan, bir necha marta xat yozgan. O'ylaymanki, bu bola o'sha kishining tarbiyasiga borsa yomon bo'lmaydi", degan edi.

Qarindoshlari turadigan ovulga borib kelgan Simg'at, shoshapisha sirkka keldi. Sirk liq to'la odam, bosh suqolmaysan kishi. Hatto o'rindiqsiz joylarga ham chipta sotilgan. U qo'liga afisha ushlab, sirk ishchilari kiradigan eshikdan kirib keladi. U allaqanday bir odamni topib, o'zini "batrak" polvonning akasiman, deb tanishtirib zo'rg'a kirdi. Oldingi qatorda Qozon boylari, ularning xotini, bola-chaqalari, savdogarlar o'tirishgan edi. U shularning katta janjali ustidan chiqib qoldi.

Polvonlar o'zlari kiradigan eshik oldida qator tizilishib bo'yinlarini cho'zib turishardi. Boshqaruvchi usti-ustiga hushtak chalib, shov-shuv ko'tarayotgan tomoshabinni tinchitolmay joni halak. Qator turgan sirk polvonlaridan Semyon kimnidir so'kib, belidagi kamarini yechib uloqtirib yubordi. Bir chetda ustiga sirk xizmatkorlarining kanop kamzulini kiyib, beliga paxtadan eshgan yo'g'on belbog' bog'lab olgan Muqon o'tiribdi. Tezroq bolaning yoniga o'tmoqchi bo'lgan Simg'atga haligi qator turgan polvonlar o'qrayib qarab uni nariga o'tkazishmadi.

Sirkda qiy-chuv bosilgach, oldingi qatorda o'tirgan Kamolboy:

— Janobi Safronov, siz bu batrak polvon bilan tuzishgan shartnomangizni ko'rsating-chi, — dedi.

— Qanaqa shartnoma janob?

— Kurashga tushmoqchi bo'lgan batrak, sirkning mehnat haqi olib ishlaydigan xizmatkori bo'lmagandan keyin oladigan haqi ko'rsatilib shartnoma tuzilishi kerak.

— Yo'q, taqsir, biz unday qilganimiz yo'q. Chunki bu bola o'z ixtiyori bilan tushyapti. Biz faqat tomosha qilish uchun uning iltimosini qabul qildik, xolos. O'zimizning shunchaki bir rejamiz bor, u polvonlarimizning hammasi bilan kurashmoqchi. Agar hammasini yiqitsa — yigirma besh so'm, yiqita olmay vaqtini o'tkazib yuborsa, o'n so'm beramiz. Yiqilsa, hech narsa bermaymiz. Yutuq o'yin oxirida, natijaga qarab to'lanadi.

— Ho... oson qutulmoqchi ekansiz-da! Bu bizning bolamiz. Uni sirkka olib kirib, kuchini so'rgingiz kelibdi-da? Men sizga bu pullarni qayoqqa qo'yishni o'rgatib qo'yaman. Mana, men ham bitta tomoshabiniman uning. Agar shu bugun molay kurashmaganda o'n so'm to'lab, mana bu chang bosgan stulingizga kelib o'tir-

magan bo'lar edim. Shundaymi, og'aynilar? — deb atrofiga qaradi boy. "Shunday, to'g'ri... Faqat shuning uchun keldik!..." degan tovushlar eshitildi.

— Ana, janob boshqaruvchi! Shunday ekan, bizning batrak yiqitgani uchun yuz so'm olishi kerak, qani, hozir cho'zib qo'ying.

— Hazilingizni qo'ying, janob. Bu sizning teri omboringiz emas, sirk.

Kamolboy jahli chiqib, o'rnidan sapchib turdi. Polvonlar bilan birga Simg'at ham o'g'ri mushukdek sahnaga ship etib chiqib oldi. U kela solib Muqonni qo'lidan ushlab, tomoshabinlarga qarata qo'lini ko'tardi:

— Sabr qilinglar! — dedi u qisqa qilib.

Oldingi qatordagilar sal tinchlansa ham, keyingi qatorda o'tirishgan besh-olti yosh shovqin-suron ko'tarishdi.

— Endi ikkinchi polvon chiqsa!

— Batrak-Akmolinskiyning bugungi kurashi bitdi. Endi boshqa polvonlar kurashadi.

Bu ishga Simg'atning aralashganini Kamolboy yoqtirmay teskari qarab oldi. Simg'at boshqaruvchining oldiga kelib:

— Janobi Safronov, sizning sirkingiz ko'pchilik uchun, bizlar uchun bir ko'ngil ochadigan joy ekanligiga shubhamiz yo'q. Ba'zan sizlarni qo'msab, xalq nomidan taklif ham qilamiz, sizlar ham kelib turasizlar, bu iltifotlaringiz uchun tashakkur. Biroq bu haqida, birorta gapga tushunadigan odam bilan maslahatlashmay bolani kurashga solganingiz yaxshi bo'lmabdi. Siz uni shoshib, xuddi tajribakor polvonlardek e'lon qilibsiz. Mana sizning qilgan ishingiz, — deb qo'lidagi afishani ko'rsatdi.

— Xo'sh, nima demoqchisiz? — dedi boshqaruvchi qiziqib.

— Siz, tomoshabinga ayting, bola kurashmaydi. Kurashga tushishga akasi ruxsat bermadi, deng.

— Akasi qani buning?

— Akalari ko'p. Ovulda ham bor, bu yerda ham bor, Slovyanka qishlog'ida ham bitta akasi men.

Kamolboy dik etib o'rnidan turdi:

— Ana, eshakni mina bilmagan odam, uni ishdan chiqaradi, degan mana shu-da! Dunyo topishning evidan chiqolmasang, uni

yo'ldan urib nima qilasan. Ishlata bilsa, bu bola har kuni senga o'xshagan qo'rg'oshin kovlaydiganlardan yuztasining topganini topadi. E, xomkalla! Nima qilishingni o'zing bilmaysan-u, yana akasi emish. Oqmo'lada qo'y boqib yurgan qozoq xotini Qozondagi harf teruvchi bir tatar uchun o'g'il tug'ibdimish!.. Hm...

— Janobi Kamol, eskilarning gapini qilib nima qilasiz. Bu sizga teri sotib pul topish emas! Siz minishni biladigan eshaklar uyingizda ko'p bo'lsa ko'pdir. Ammo bizning bosmaxonada eshak zoti yo'q. Men ikki oyog'i bilan yer bosgan har bir odamga barcha sof vijdonli kishi aka bo'lishiga haqli deb o'ylayman. Biroq shuni yaxshi bilingki, siz mina bilgan eshaklarga emas. Har holda bu molay sizga eshak bo'lolmaydi! — deb, Muqonni ergashtirib sirkning ishxonasiga kirib ketdi.

— Muqon, bu nima qilganing? Hech kim bilan maslahatlashmay, o'z bilganingcha kurashga tushibsan? Seni ukam deb yurgan Dobriy buni eshitsa xafa bo'ladi-ku. Sendan emas, mendan xafa bo'ladi-ku.

— Simg'at aka, u sendan xafa bo'lmaydi. Men o'tgan kuni unga borib, kurashga tushmoqchi bo'lganimni aytib, roziligini olib kelganman.

— E-ha. Biz seni yo'qotib, ko'chama-ko'cha qidirib yurganda sen shu yoqqa ketgan ekansan-da. Qanday qilib ruxsat olding?

— Bilganimcha o'rischalab tushuntirdim. O'rischa "borba" so'zini unutib qo'yib, "postupayu kurash" dedim. U: "Kursga kiradigan bo'lsang bo'pti", deb sevinib ketdi. Hatto, ruxsatni qog'ozga yozib ham berdi.

— Qani o'sha qog'oz?

— Uyda.

— Unda cholni juda boplagan ekansan, molay: u seni o'qishga kiradigan bo'pti, deb sevinibdi. Sen bo'lsang, "chirog'imning otasi o'qimayoq xon bo'lgan" qabilidan qilib, kurashga tushaveribsan.

Muqonning Qozon shahriga qanday kelganini, Dobriy-Rabiy bilan qanday qilib tanishganini, uning yosh polvon haqida aytganlarini eshitib, sirk boshqaruvchisi biroz o'ylanib qoldi. Uning yozib bergan qog'ozini o'qib, rosa kulishdi-da, bir qarorga kelishdi.

Tomosha oxirida boshqaruvchi odamlarga: "Batrak-Akmolinskiy kurashi haqida ertaga yangi afisha bilan alohida e'lon qilinadi", dedi. Sirk rahbarlari Simg'at bilan maslahatlashib tomoshabinlar oldida yolg'onchi bo'lib qolmaylik, deb ertasiga Dobriyni chaqirib maslahatlashmoqchi bo'lishdi. Afishada: "Qozon shahridagi sayyor sirk o'z tomoshalarining oxirida tomoshabinlarga zamonamiz yosh polvonlarining otaxoni keksa polvon Dobriy-Rabiyni ko'rsatish niyatida unga odam yubordi. Uning roziligini olganimizdan keyin sizlarga va'da qilgan Batrak-Akmolinskiy beshta polvon bilan esa fransuzcha kurash usulida kurashadi. Batrak-Akmolinskiyga ikki kun davomida fransuzcha kurash usuli o'rgatiladi", deb yozilgan. Bu xabarni eshitib sirk kassasi oldiga yana odam to'plandi.

Sirk xalqqa bergan va'dasining ustidan chiqdi. Navqiron polvonni ko'rgan sirk boshqaruvchisi ham Ivan tog'aga xat yozib berdi.

Ulug' pyotr shahrida

Tumanli, ayozli kunlarning birida qirov bosgan bir eshikni ikki kishi kelib taqillatdi; ulardan biri tatarcha o'rama yoqali palto, ikkinchisi uzun paxtali chopon kiyib olgan edi.

— Kim kerak sizga? — deb so'radi ichkaridan bir ayol kishi.

— Ivan tog'a Lebedev janoblarining huzuriga kelgandik, — dedi tashqarida turganlarning biri.

— Unday bo'lsa tura turinglar, so'rab chiqay, — deb yana bitta eshikni g'ichirlatib, ichkariga kirib ketgan ayolning oyoq tovushi eshitildi.

Biroz vaqt o'tgach, eshik ochildi.

— Kiringlar, — deb ishora qildi o'rta yoshlardagi ayol.

Haligi ikki odam ayolning orqasidan yurib, devorlarga suratlar osilgan, chiroyli qilib jihozlangan xonada yakka o'tirgan kishining oldiga kirishdi. Qishda yupqa pijama kiyib o'tirgan kishi peshvoz chiqib mehmonlarni qarshi oldi. Mezbonning fe'li ham, muomalasi ham, chehrasi ham, mehmonlarning nazarida, ular ilgari uchratgan odamlarga sira o'xshamasdi. U mehmonlar bilan hol-ahvol

so‘rashmasdan avval qo‘llarini siqib ko‘rishib, keyin oq mato g‘ilofli yumshoq kreslolarga taklif qildi:

— Qayoqdan keldinglar? — dedi yo‘g‘on qo‘llarini qornining ustiga qo‘yib.

— Qozondan kelayotgan edik, janob, — dedi bidirlab, qorachadan kelgan kishi.

— Savdo ishlari bilanmi? — deb so‘radi uy egasi boshini ko‘tarib.

— Yo‘q, janob, biz unaqa kishilardan emasmiz.

— Xo‘sh, unday bo‘lsa nima ish bilan keldinglar?

— Mana bu bolani o‘qitmoqchi bo‘lib sizga olib kelgandim.

— O‘h-o‘... Qozonliklar qachondan beri bu o‘qishni havas qiladigan bo‘lib qolishdi? Bu xushxabar-ku, — deb uy egasi o‘rnidan turdi-da, mehmonlarga yaqinlashdi.

— Ha, qozonliklarning orzu-havasi ko‘pligini kundalik hayotning o‘zi ko‘rsatib kelyapti. Biz hali Pyotr shahridan ko‘p narsa o‘rganamiz. Hozircha marhamatingizdan bahramand bo‘lish niyatida bittasini olib keldik.

— Meni juda xursand qildinglar... bu bola tatarmi? Qaysi millatdan?

— Marhamatli Pyotr shahri, bunaqa so‘roqlarni bermasa ekan, deb tangridan har kuni so‘raymiz, Ivan tog‘a afandim. Bu bolaning millati nima bo‘lishidan qat’i nazar, faqat sizning maktabingiz uchun tug‘ilgan odam. Edil bo‘yidagi Dobriy-Rabiy degan polvonni bilasizmi? Bu bolani o‘sha polvonning o‘zi yubordi.

— Iye, nega bilmas ekanman uni? Vasiliy Vednyakovni aytyapsizmi? Men uni yaxshi bilaman. Bir necha bor xat yozib olib kela olmaganman u odamni. U qanday qilib bu yerga odam yuboradigan bo‘lib qoldi... Bu bola kim o‘zi?

— Bu rus ham emas, tatar ham — qozoq.

— Xo‘sh, unday bo‘lsa bu bolaning Dobriy bilan qanday aloqasi bor?

— Qanaqa aloqasi borligini sizga yozgan maktubida aytgandir. Avvalo siz mana buni o‘qib ko‘ring, — deb haligi novcha tatar qo‘ynidan yirik-yirik qilib yozilgan beo‘xshov xatni chiqarib, uning qo‘liga berdi.

"Ulug' martabali Ivan tog'a Lebedev. Bir necha marta xat orqali chaqirganingizda bora olmaganim uchun uzr. Siz xatni chin yurakdan yozgan edingiz. Afsus-ki, bora olmadim. Chunki bu kunda mablag'i yo'q odam qanotsiz qushday gap. U qayerga ham uchib bora olardi. Ikki qanotsiz emas, bir qanotida o'q yegan qush to'qaydan aylanib, chetga chiqa olmaydi. Men ham shunga o'xshab tug'ilib o'sgan Edil bo'yidan hech qayoqqa chiqa olmadim. Bo'lmasa beshigimiz kabi Moskvani, ulug' Pyotr shahrini kimning ko'rgisi kelmaydi deysiz? Shuning uchun ham yetolmagan orzularga yeta oladigan bir bolani topa olarmikinman, deb ko'pdan beri orzu qilib yurardim. Siz, menga yozgan bir xatingizda "bolangni yuborgin", degan ekansiz. Ha, men bolasiz emasman. Ikki qiz, bir o'g'lim bor. Biroq o'g'il otaga, qiz onaga o'xshayvermas ekan. O'g'lim etikdo'z, qizlarim dehqon bo'lib ketdi. Bir qop kartoshkani zo'rg'a ko'targan bolani sizga yuborib nima obro' topdim? Mendan tug'ilgan bola etikdo'z bo'ldi-ya. Shuning uchun ham o'zimga o'xshagan bir bola topib olsam deb orzu qilib yurardim. Orzum ushaldi, tangrim mana bu qozoq bolani yetkazdi. Iloji boricha, iltimosimni yerda qoldirmay maktabingizga qabul qilgaysiz.

Ha, hurmatli Ivan tog'a, zamona odamni oq-qoraga ajratadigan bo'lib qoldi, "millating nima?" deb so'raydigan odat chiqardi. Bu so'roqning nima foydasi bor ekanligini ko'p odam tushunmaydi. Men ham tushunmayman. Siz, ko'zi ochilgan, savodli odamsiz, ehtimol bu gaplarga tushunarsiz. Shuning uchun: "Bu kim? Rus bilan qozoqning nima aloqasi bor?" deb so'rarsiz. Mening fikrimcha, aql bilan kuchda millat bo'lmaydi. Ikkalasi ham xalqniki. Bola mendan ko'ra kuchliroq. Bu yoshda menga bu qadar kuch bitmagan edi. Ko'p yillar davomida og'ir yuklar ko'tarib, talay odamlar, yirtqich hayvonlar bilan kurashib, ba'zan yiqilib, ba'zan yiqitib yurib Dobriy-Rabiy degan nom chiqargan edim. Bu bola belimni ushlaganda uning qo'li o'ttiz to'rt yil ichida bel ushlagan hamma qo'llardan ham kuchliroq tegdi. Shuning uchun ham men bu bolaga inson bolasiga otang kim? — deb so'ramaydigan ulug' Rossiyaning yangi polvoni deb qarab, eritilib, sayqal berilmagan bu po'latni maktabingizga tavsiya qildim. Albatta, qarigan

chog'imda sizga qilgan ushbu iltimosim qondirilar degan umiddaman", deb yozibdi Dobriy-Rabiy. Muqonning dastlabki kurashish uchun fotiha oldim, degan xati mana shu edi.

Keksa polvonning xatini yumshoq kresloda yastanib o'tirib o'qigan uy egasi, qog'ozni yuziga qo'yib, biroz o'ylanib o'tirdi-da, keyin birdan bolalarday sakrab o'rnidan turdi. Eshik yonida kresloda o'tirgan Muqonning yoniga kelib, xuddi hamla qilgan arslonday uning ikki yelkasidan bosdi. Uning nima maqsadda bunday qilganini tushunmagan Muqon, "bunisi nimasi?" deganday o'rnidan uchib turdi. Og'ir kresloning orqasi Muqonning yelkasi bilan Ivan tog'aning qorni o'rtasiga ko'tarildi. Ivan tog'a uni qayta o'tkazmoqchi bo'lib temirdek qo'llari bilan yelkasidan bosgan edi, Muqon qimir etmadi, shunda Ivan tog'a uning yelkasidan oshib, oldiga tushdi. Ikki pudlik kreslo bilan to'qqiz pudlik Ivan tog'a gurs etib tushganda uyning poli zirillab ketdi. Yelkasini jahl bilan silkigan Muqon, osilgan kishi yiqilgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi. Biroq u yuk ustidan sakragan mushukdek polga dik etib tushdi.

— Iye, muncha asovsan?... Juda hurkak ekansan-ku...

— Bo'lmasa nima qilmoqchiyding? Jim o'tirgan odamning ustiga mushukday sakrab...

— Maktabga kiradigan odamdan imtihon olish kerak-da.

— Bu nima deganing? Imtihon deganing nima?

— Kuch sinash-da...

— Kuch sinagan kishi sichqon poylagan mushukday, indamay kelib bosadimi? Undan ko'ra belingga qayish bog'lab, oldimga chiq. Kuchni ana undan keyin sinaysan.

Uning yo'g'on tovush bilan ruscha-qozoqcha aralashtirib, chalakam-chatti aytgan so'zlarini Ivan tog'a qah-qah urib kuldi-da, ish stuliga borib o'tirdi. Trubkasiga to'ldirib tamaki solib, chekdi.

— Maktab haqini kim to'laydi?

— Qancha haq to'lash kerak?

— Yiliga bir yuz ellik so'mdan.

— Bu bolaning bisotidan kuchidan boshqa hech narsasi yo'q. Yo'l xarajati bilan, bir necha kunlik ovqat pulini Qozondagi Karimov degan kishining bosmaxonasida ishlaydigan ishchilar yig'ib

berishdi. Maktabga borar, deb ozgina pul berishgan edi. Biroq o'zingiz ko'rib turibsiz, bu bola sakkiz odamning ovqatini yeydi. Sizga yuz ellik so'mdan bersa, o'zi och qoladi-ku. Maktab haqini sal arzonroq qilsangiz qanday bo'larkin?

Ivan tog'a og'zidan trubkasini yulib olib, yerga bir tupurdi-da, ko'zini qisib turib tatarga dedi:

— Nima, sen Qozon bozorida savdo qilyapsanmi?... Bu maktabga davlat sariq chaqa bermaydi. Bu yerda ishlayotgan o'nlab xizmatchilar qum yeydimi? Hech bo'lmasa bir yilligini to'lashi kerak, busiz iloji yo'q...

— Xo'p, taqsir, xo'p. Ertaga pul bilan olib kelaman.

— Puli bo'lsa, o'zing kelmasang ham bo'ladi. Buni maktabga qabul qilaman. Aytganday, bu bolaning bir nomi "Batrak-Akmolinskiy-a?.."

Simg'at Muqonni yotib yurgan uyiga olib borib uzoq suhbatlashdi. Bu uy Yaushev degan boyning Petrograddan oladigan mayda-chuyda narsalarini tayyorlab turadigan bir savdogarniki edi. Ular qozonlik bir savdogarning uning nomiga yozgan xatini ola kelishib, shu yerga tushishgandi. U: "Agar ko'proq turadigan bo'lsam, yotadigan joy topib olarmiz", degandi. Simg'at ovulga qaytadigan bo'lgandan so'ng, Muqonga ba'zi bir maslahatlar berdi:

— Molay, agar imkoniyati bo'lsa o'sha maktabning yotoqxonasiga joylashib ol. Hamma vaqt ruslar bilan birga bo'lganing yaxshi. Ularning bir yaxshi tomoni shundaki, ko'pchiligi quvlik, shumlik, haromlikni bilmaydi. Ularning yaxshi odatlarini o'rganib olish kerak. Yotoqda yotsang, kamxarajat bo'lasan. Ikkinchidan: qanday bilim o'rgansang ham rus tilida o'rganasan, ruslar bilan yotsang tilini tez o'rganasan. Rus tilini bilsang, chet el odamlari bilan gaplasha olasan. Agar shu maktabni bitirsang, dunyoni aylanib tomosha qilishing ham mumkin. Dunyodagi polvonlar bilan uchrashishing mumkin. Shunda ular bilan rus tilida muomala qilasan. Sendan iltimos, zinhor bu uyda yotuvchi bo'lma.

— Qaytaga, musulmonning uyi yaxshi bo'lmaydimi? Mana bu kampir: "Musulmon ekan, aybat molay ekan, bik matur molay ekan", deb ichi-bag'rimga kirib boryapti. Shu yerda yotaversam nima qiladi?

— Sen molay, musulmon, kofir deganda zinhor quloq soluvchi bo‘lma. Musulmonlarning biri o‘sha o‘zing ko‘rgan Qozondagi hazratmi? Unga boylar machit solib bergan. U kecha-yu kunduz boylarning mol-mulki ko‘paysin, deb duo qiladi. Mana bu kampirning seni yaxshi musulmon ekansan, deb maqtashiga sabab, sendan ko‘proq pul undirish. Sening o‘qishga kelganingni bilib, “puli ko‘p qozoq boylaridan birining o‘g‘li bo‘lsa kerak”, deb o‘ylab, musulmon deyapti-da. Agar puling tugab qolsa seni musulmon demaydi. Ertadan boshlab bu uyda qorangni ko‘rsatma. Buning bir yomon yeri shundaki, men ketganimdan keyin “puldan qisilib qoldim, biroz qarz berib tur”, deb qo‘lingdagi bor pulingni shilib oladi-yu, bir oy o‘tgach, ijara haqi, ovqat puli, deb uydan haydab chiqaradi. Sen bu kampirning nima deb shivirlayotganini tushunasanmi?

— “Yo Ollo, yo Ollo”, demaydimi?

— Hech vaqtda Ollo demaydi. Olti so‘m oltmish tiyin, olti so‘m oltmish tiyin deydi. Men Qozon tatariman-ku, bularning tilini yaxshi bilaman.

— Yo tavba! E, men uning asto... asto... asto... deganini ollo deb o‘tiribdimi desam, oltmish tiyin deyotgani ekan-da. Men buni Qozonda ham eshitganman. Ular ham oltmish tiyin derkan-da bo‘lmasa?

— Bo‘lmasam-chi, hammasini hazrat o‘rgatgan. Bularning ollo degani — pul degani. Astag‘firullo degani — olti so‘m oltmish tiyin degani. Ollohu akbar degani — ola ber degani. Bularga zinhor yaqin yuruvchi bo‘lma, — deb qog‘ozga o‘rab kamzulining ichki cho‘ntagiga solib, ustidan tikib tashlagan pulni olib, sanab berdi. Bu besh yuz yigirma besh so‘m edi.

Pulni berarkan:

— Molay, bu yer sening qozog‘ingning dalasi emas. Bu yerda to‘yguncha yeyaveradigan qo‘y go‘shti kam. Pulni oldi-orqasiga qarab, siylab ishlat, qiynalib qolma. Men kelgusi yili yana bir kelib, senga pul tashlab ketaman, — dedi Simg‘at.

Ertasiga Simg‘at Muqonni Ivan tog‘aning maktabiga kuzatib qo‘yib, o‘zi Qozonga jo‘nab ketdi.

* * *

Muqon Ivan tog'aning idorasiga kirib yuz ellik so'm to'lagandan so'ng, maktab boshqaruvchisi uni katta bir zalga boshlab kirdi. Zalda ertaklarda hikoya qilinadigan Qo'hiqof devlariday talaygina polvon yalang'och bo'lib olib, turli mashqlar qilayotgan ekan. Muqon ichkari kirishi bilan og'zi ochilgancha hayron bo'lib turib qoldi. Ivan tog'a ham ularga yaqinroq borib to'xtadi.

Zalning shifti juda ham baland naq ikki yuz ho'kizga qo'ra bo'lguday keng ekan. Muqon hamma yoqqa ko'z yugurtirib chiqdi. Unda yog'ochdan qilinib, usti charim bilan qoplangan to'rt oyoqli ot ham bor, uning ustidan sakrab o'tishadi, osilib o'ynaydigan yo'g'on arqonlar ham bor. Shiftga osib qo'yilgan chig'riqlar ham bor. Bir chekkada ikki pudlik bolg'a turibdi. Turnik ham turibdi. Taxta ustiga qator gir toshlar tizilib qo'yilibdi. Lo'm temirlar, uzun-uzun relslar yotibdi. Katta-katta xarsang toshlar, shtangalar yotibdi. O'rtaga katta gilam solingan. Sakkiz qanotli o'tovday kattakon yumaloq taxta ham turibdi. Gilam ustida ikki polvon ayiqdek terga pishib olishmoqda, biri birini yerga olib uradi-da, sherday bosadi. Yiqilgan polvon bir ag'anab o'rnidan sapchib turadi-da, yo'g'on bilagi bilan raqibini bir uradi, u inqillab qulab tushadi.

Uyning bir tomonidagi katta eshikdan bir relsga yigirmata odamni mindirib ko'tarib olgan polvon kirib keldi, u zalni aylanib chiqdi-da, keyin odamlarni tushirib, relsni burchakka olib borib tashladi. Hamma polvonlar uni olqishlab chapak chalishdi.

Hushtak tishlab olgan bir odam borib uning qo'lini ushladi.

— Yasha, Dubniy, — deb Ivan tog'a ham uning yoniga bordi.

U indamay boshini liqillatib, yigirma nafar odam bilan o'n sakkiz pudlik og'ir relsning salmog'i tushib qizargan yelkasini oq sochiq bilan ishqalab-ishqalab yubordi. Haligi olishayotgan polvonlar ham bir-birini yiqitisha olmay, Ivan tog'aning oldiga kelishdi. Nima ko'tarib charchashganini kim biladi, har holda zaldagi hamma polvonlar qora terga botgan, suvga tushgan qayishday ivishib turibdi. Ular ham devorda osig'liq turgan sochiq-lungilarni olib, terlarini artishib, eman daraxtidan qilingan uch oyoqli stullarga qator o'tirishdi. Haligi hushtak tishlab yurgan kishi rahbarning yordamchisi edi. U Ivan tog'aning yoniga kelib, unga bugun-

gi o'tkaziladigan programmani ko'rsatdi. Uning so'zini eshitib bo'lib:

— Men sizlarga yangi sherik topib keldim. Mungaytpasov, bu yoqqa kel, — dedi Ivan tog'a.

Ko'rganlarini ko'ngliga sig'dirolmay, tushida ko'rayotganday zal ichini tomosha qilib tugan Muqon uning chaqirganini eshitmadi. U yo'g'on tosh ustunga suyangancha, bir chetdagi ustiga sandiqday-sandiqday to'rtta tosh ortilgan aravani tomosha qilib turaverdi.

Ivan tog'a oldida turgan bir polvonga:

— Borib olib kel. Ehtimol, u senlardan hayiqib turgandir, — dedi. Polvon Muqonning oldiga borib, kulimsirab:

— Omonmisan, do'stim, seni Ivan tog'a chaqiryapti, — deb, odati bo'yicha uning qo'lini kuchining boricha siqib ushladi. Aravadan hali ko'zini olmagan Muqon uning qo'lini siltab yubordi. Dumaloq tosh ustida turgan polvon polga dik etib tushdi.

Kechagi voqeani aytib, kuchini ta'riflab turgan rahbar:

— Ana, Kolyani uchirib yubordi, — dedi.

— Bunisi nimasi? Tentakmi deyman?

— Yo'q. Unaqaga o'xshamaydi. Keng dalaning asov yigiti-da. O'zi hali yosh, endi o'n to'qqizga kiribdi. Hali u bunaqa siqib ushlashni bilmaydi-di. Edildagi Ivan Vasilyevich bilan kurashib tanilibdi.

— Uni yiqitibdimi? — hayron bo'lishib so'rashdi turganlar.

— Gap uning yiqita olish yoki yiqita olmasligida emas. Menimcha, uni hech kim yiqita olmaydi. Biroq u ko'p polvonlarning kuchini sinab ko'rgan. Ammo shu vaqtgacha ularning birontasini mening maktabimga tavsiya qilmagan edi. Bu bolaga ixlosi tushibdi. Hammadan meni u yozgan xat hayron qoldirdi. Uni keyin o'zlaringga o'qib berarman. Baquvvatligi haqida Kiyev sirkining boshqaruvchisi ham yozibdi.

— Buni o'zidan so'rash kerak ekan.

— Hozircha sizlar bilan suhbatlasha olmas. Chunki tilni yaxshi bilmaydi. Sal tilni o'rgansin, keyin so'rarmiz. Hozir qoida bo'yicha birinchi sinovdan o'tkazaylik, — dedi rahbar.

Muqonni chaqirib kelish uchun borgan polvon uning yoniga qayta yaqinlashmay, qo'li bilan seni Ivan tog'a chaqiryapti, deganday ishora qilib, uni boshlab keldi. O'tirgan polvonlar o'rinlaridan turishib, qo'l berishib ko'rishdi. Faqat Dubniygina o'tirgan joyida qo'l cho'zib, stulga tortib o'tqizdi. U qo'lini qattiqroq qissa ham, boyagiday siltab yubormay, sezmagan kishi bo'lib stulga o'tirdi. O'tirganlar o'zaro gaplashishib yengil imtihonni hoziroq boshlamoqchi bo'lishdi. Taxta ustida turgan besh pudlik toshdan to o'n qadoqlik toshlargacha ko'rsatib:

— Shu turgan toshlarning qaysinisini ikkitadan ko'tara olasan? — dedi rahbar yordamchisi.

— Men buning hammasini ham ko'tara olaman.

— Sen bunaqa gaplaringni qo'y. O'quvchi avvalo, ikkita o'n qadoqlik toshni ko'tarishdan boshlaydi. Yarim pudlik ikki toshni jimjilog'i bilan, ikki pudlik ikki toshni ikki qo'li bilan ko'taradigan bo'lib maktab bitirgan, chakki polvon emas. Sen o'n qadoqlikni ko'targing kelmasa, yarim pudlikni ko'taraqol.

Muqon toshlar turgan taxtaga borib, bir-bir qarab chiqdi. Hammasi ham uncha katta tosh emasga o'xshab ko'rindi. "Shu toshlarni ko'tarishni o'qish degan polvonlar ham o'zini polvonman, deb yuribdi-da, a", deb o'yladi u o'zicha. U qisiq ko'zlarini katta toshlarga tikdi, juftlab qo'ygan toshlarni ushlab-ushlab ko'rdi. Dastlab ko'rgan bir juft tosh hech og'ir emasdek tuyuldi. Uch pudlik ikki toshni: "Hozircha shu yetar, chetki ikkalasini keyin ko'tararman", dedi-yu, taxta ustidan yulib olib, chelakday ikki yog'ida polvonlarning oldiga olib keldi.

— Shumi ko'targaning?

— Bo'lmasa, qanday qilib ko'taradi?

— Yo'q, bunday ko'tarib bo'lmaydi. Qani, Dubniy, sen ko'tarib ko'rsat.

Dubniy taxta oldiga bordi-da, ikki pudlik ikki toshni ikki qo'liga oldi, keyin bilagini bukib, avval o'ng qo'lini, keyin chap qo'lini chaqqon yuqoriga ko'tardi. Toshlar uning qo'lida sirg'adek kiyilib qoldi. U qarab turgan odamlar atrofini bir aylanib chiqdi-da, toshlarni yerga qo'ydi.

— Mana shunday qilib ko'tarish kerak, — dedi yordamchi.

— E, bunday kichkina toshni ko'tara olmay nimasi bor, — deb Muqon bitta toshni yuqoriga ko'tardi-yu, ikkinchisini ko'tara olmay bilagiga urib oldi.

— Tashla, kelmay turib, mayib bo'lasan, — dedi Ivan tog'a.

Muqon shig'g'a terga tushib ketdi: "Men buni nega ko'tara olmadim?" — deb xafa bo'ldi u.

— Buzoqligida ko'tarib o'rgangan oddiy odam, polvonlar ko'tara olmaydigan katta ho'kizni ham ko'tara oladi. Og'ir narsani ko'tarish uchun, avvalo, uning usulini bilish kerak. Ikki pud toshni Dubniyday ko'taraman degan odam bu maktabda ikki yil o'qishi kerak. Bekorga kuchangan bilan ish chiqmaydi. U yo ko'targan buyumini, yo o'zini mayib qiladi, — dedi maktab rahbari.

— Mana, Dubniyning sherigi keldi. Bu ham maktabga yangi kelganda shunday asov edi. Keyinchalik o'rganib polvon bo'ldi. Ikki yil o'rgansa bu ham shunday bo'ladi, — dedi yordamchi.

— Men ikki toshni ko'tarish uchun ikki yil yurmayman bu yerda. Ertaga xuddi shunday qilib ko'tarsam bo'ldimi... — deb oldida turgan to'rt pudlik ikki toshni koptokday otib yubordi.

— Bu bola devmi o'zi, nima balo... Ey, toshlarning bandini sindirasan. O'rniga olib borib qo'yish kerak — deb to'ng'illadi qorovul chol.

Ha, shunday qilib, Muqon Ivan tog'aning maktabiga o'qishga kirdi. Bu maktab polvonlarga fransuzcha kurashish usulini o'rgatar edi.

* * *

Mana, tumanli havo siyraklashib, kunlar isib, hamma yoq yoqimli hid taratib, bahor ham yetib keldi. Qishi bilan sport zaliga sig'may yurgan Muqon ochiq maydonga chiqib, ba'zi bir mashg'ulotlarini shu yerda o'tkazadigan bo'ldi.

"Kelinning yuzini kim avval ochsa, shu odam issiq bo'lib ko'rinadi" deganlariday, shu yerga kelganda dastlab uchratgan Ivan tog'ani u o'z og'asiday ko'rib qoldi. U har safar maktabga kirganida Muqon qarindoshi kelganday sevinar edi. Biroq u keyingi kunlarda kam kiradigan bo'lib qoldi. Polvonlar so'nggi kunlarda tosh ko'tarish, temir bukish, burash, turli kurashlarga tushish,

gavdaga tosh qo'yib sindirish, odamlarni relsga o'tqazib ko'tarish, tishi bilan arava tortish, chalqancha yotib ustidan arava o'tkazishni o'rganishdi. Buning hammasi kuch bilan bo'ladigan mashg'ulotlar edi. Biroq sal-palgina kuchi bor polvonlar Muqon qilolmaydigan murakkab mashqlarni bajara olar edi. Ularning qo'lidan kitob tushmasdi. Ba'zan esa kitobga qarab turib ba'zi yangi o'yinlarni topishardi. Muqon u kitoblarga qancha qaramasin, baribir hech narsa tushunmasdi. Shundan keyin ruscha alifbe sotib oldi. U yonida yotgan Semyon degan polvonga:

— Do'stim, shuni menga o'rgatgin! — dedi. U Muqonning iltimosini bajon-u dil qabul qildi. U yarim kechgacha beshta harf o'rgatdi. Biroq Muqon "A" harfidan boshqasini kechasi o'rgansa kunduzi esidan chiqarib, adashtirib, ularning qanday yozilishini esidan chiqarib qo'yaverdi. Semyon, "o'rgatmay qo'ymayman", deb bu ishga qattiq bel bog'ladi. U so'rasa Muqon "a" deb og'zini ochadi-yu, boshqa harflarni ayta olmay kurash normalariningmi, o'yin qurollariningmi nomini aytib adashtiradi. Axiri:

— Semyon, qo'y, meni qiynama. Menga bu o'qish yuz pud tosh ko'targandan ham og'ir. Buning ustiga bu kitobingning ichida sichqonning surati bor ekan. Men bu kitobingni o'qib mulla bo'lmay qo'ya qolay, — deb kitobni Semyonning ko'rpasiga qarab uloqtirib yubordi. Keyin u o'z joyiga yotib xayolga cho'mdi: "Yoshligimda nega o'qimadim ekan-a? Otam meni nega quloq cho'zib o'qitadigan mullaga berdi ekan? Nega qozoqlar mana shunday maktab ochmaydi? Odam bolasi bo'lgandan keyin nega hamma bir tilda so'zlashmaydi? Yoshligimdan ruslar bilan birga o'sganimda tilini yaxshi bilib olgan bo'lardim. Nega ovulimiz shu shaharning yonida bo'lmagan. Hamma o'qishni o'rganganda men nega o'rganmadim..." — shu o'ylar bilan u uyquga ketdi.

Muqon ertalab negadir ko'ngli g'ash bo'lib turdi. Uning esiga uzoqdagi Sariterak dalalari, otasi bag'riga bosgan buvisi tushdi, ovulini esladi. Bugungi bo'ladigan mashg'ulotlar Muqonga yoqmaydigan mashg'ulotlar: yog'ochdan hatlash, turnikka osilish, ip narvonga o'rmalab chiqish edi. U shu mashg'ulotlarni mashq qilib, anchasini to'g'ri bajarolmay terlab o'tirgan mahalda, ko'pdan beri ko'rmagan Ivan tog'ani ko'rib, xo'rligi kelib ketdi. Qo'l berib ko'rishar ekan:

— Og'a, meni bir amallab bu balodan qutqar, — dedi.

— Nimadan? — deb Ivan tog'a uning xomush yuziga qaradi.

— Kurashingning hamma xilini o'rganay, kimni yiqit desang yiqitay, relsni egay, yo'g'on simlaringni burab beray, yetmish pud yuk ortilgan aravangni tishim bilan tortay, ellik pudlik ot-aravangni ustimdan o'tkazay. Sakkiz pudlik toshni ustimda sindiray, lekin yog'och otdan sakrash, ip narvonga o'rmalash azobidan meni qutqarsang. Men shularni o'rganmayoq qo'yay, — dedi yig'lamsirab. Ivan tog'a uning nima deyayotganiga tushungach, xaxolab kuldi.

— Bularning nima qiyinligi bor?

— Juda mayda-chuyda... Bir necha marta qo'limni og'ritib, oyog'imni sindirib qo'ya yozdim.

Ivan tog'a uning yuziga tikilib turib:

— Mayli, sen bularni qilmay qo'yaqol. Biroq mashg'ulotlar tugaguncha boshqalarning ishini ko'rib tur, — dedi.

* * *

Xat-savodi yo'q Muqonga polvonlik hunarining eng og'ir usullarini o'rganishga to'g'ri keldi. Eng yengillari hisoblangan — lo'mni bo'yniga qo'yib egish, uch pudlik ikki toshni ikki qo'li bilan yuqori ko'tarish, eng og'irlari: o'n ikki pudlik relsga yigirma besh odam mindirib ko'tarish, to'rt pudlik toshni gavdasida bolg'a bilan urib sindirish, ikki otni tizginidan tortib to'xtatish, ustiga taxta qo'yib yuk ortilgan ikki otlik aravani o'tkazish, ellik pud yuk ortilgan aravani tishi bilan tortishni o'rgandi. Bularning hammasini ikki yil ichida o'rganishi kerak edi. Biroq bunga Muqonning sabri chidamadi.

U vaqt bilan hisoblashmay, kecha-yu kunduz terlab-pishib, zaldan chiqmay mashq qildi. Qo'l-oyog'i yaralanib qonga belangan kunlari ham bo'ldi. Butun ixlos bilan o'rganayotganini ko'rib maktab rahbari uning ba'zi bir nojo'ya harakatlarini kechirdi. Uning bu odati Ivan tog'aga yoqdi. Yetakchi polvonlarga, istagan mahalda unga o'rgatishni uqtirdi..

— Mana bu qora polvonni nima qilaman? Maktab zalining eshigini to'zdirib yuribdi-ku, ichiga kirib olib yig'uvlik turgan

temirlarni uloqtiradi, ko‘taradi. Yana birontasini o‘z o‘rniga oborib qo‘ymaydi. Vaqt-bevaqt otlarni olib chiqib mashq qiladi. Men u og‘ir narsalarni qanday qilib o‘rniga qo‘yaman. O‘rtoq rahbar, bu bir balo-ku. Ombordagi relsni so‘ragan edi, kalit yo‘q dedim.

— Qayoqda? — deb so‘radi u.

— Yo‘qolgan, — dedim men.

— Nega yo‘qotasan? — deb do‘q qildi. Ezib tashlamasa go‘rga edi, deb kayfim uchdi. Betimga tikilib turdi-yu, Xudo insof berib, tegmadi. Jahl bilan qulfni shartta yulib tashladi. Ombordan relsni olib chiqib, qadoq toshlarni bog‘lab:

— Ustimga min, deb baqirdi. Nima qilay, qo‘rqqanimdan mindim. Zalni biroz aylanib meni tushirdi. Xudo yorlaqab relsni joyiga olib borib qo‘ydi. Koshki edi shu bilan tinsa, chalqanchasiga yotib ikki puldik toshni qorniga qo‘ydi-da, menga:

— Ur bolg‘a bilan! — dedi. Men og‘ir bolg‘ani qanday qilib ko‘tarardim. Azbaroyi o‘takam yorilayozganidan oldingizga qochib keldim. Bayram kuni ham dam olmaydigan qanaqa qarg‘ish tekkan odam o‘zi?.. Sizdan iltimosim shuki, meni qorovullikdan bo‘shating. Bu mo‘g‘ulingiz meni bir kun o‘ldirib qo‘yadi, — deb yig‘ladi. Uning so‘zlariga Ivan tog‘a qotib-qotib kuldi. Keyin:

— O‘zi qayoqda? — deb so‘radi.

— Zalda. Yig‘uvlik turgan temir, toshlarni ko‘tarib hamma yoqning to‘s-to‘polonini chiqarib yotibdi.

Ivan tog‘a qorovul bilan zalga kelganda Muqon hamma asboblarni joy-joyiga qo‘yib, sochiq bilan yuzini artib turgan ekan. O‘z hunarini qunt bilan erinmay o‘rganayotgan talabasiga Ivan tog‘a hech narsa demadi.

— Mungaytpasov, bu nima qilganing, nega bayramda dam olmaysan, — dedi. Muqon salom berib:

— Maktabni muvaffaqiyatli tugatmay turib, menga bayram qilishning nima keragi bor. Har yili yuz ellik so‘m to‘lab turishga pul qani, ikki yil kutib yuramanmi. Dubniy bu yil bitiraman deyapti, men ham shundan qolmay o‘rganib chiqaman, — dedi Muqon entikib.

Ivan tog'a unga mehribonlik bilan tikildi. Muqon bilan tengdosh bo'lgan Dubniyning kuchliligi ko'zga tushgach, uni kemaga yuk tashuvchi bo'lib yurgan joyidan chaqirtirib olishgandi. U Muqonga ko'p yordam berdi. Ilgarilari sirklarda biroz yurib tajriba orttirgan Dubniy, kuchi bor do'stini o'ziga sherik qilib olishga harakat qildi. U o'rganib yurgan hamma hunarini Muqonga tushuntirib o'rgata boshladi.

Kelajakda, shubhasiz, Rossiyaning eng kuchli polvonlaridan biri bo'lib yetishadigan Dubniyning Muqonga alohida mehr qo'yganiga boshqalar hayron qolishardi.

— Sen hozir Rossiyaning yakka-yu yagona polvonisan. Shu qozoqqa muncha vaqtingni bo'lib, ovora bo'lasan. Shuncha ovora bo'lganingga yarasha u senday polvon bo'lib yetishadimi, yo'qmi? — deb so'rashardi.

Shunda Dubniy:

— Men, sen yakka-yu yagona polvonsan, degan gapni juda ko'p odamdan eshitdim, — derdi jiddiy. Bu noto'g'ri. Men Rossiyada bitta emasman, mana buning kuchi menikidan kam emas. Eslaringda bo'lsin. Buning kuchi hali yaxshi yetilgani yo'q. U kuchda men bilan tenglashib, kurash usullarini yaxshi o'rgangandan so'ng men u bilan kurashmayman.

Maktab hayotining dastlabki kunlarida Muqon Dubniyning beg'araz do'stligiga shubha bilan qarar, "hech kimdan yiqilmayman", deb o'ziga qattiq ishongan Muqon kunda Dubniydan qolishganiga xo'rligi kelar edi.

Poddubniyni yerga olib ursa, u tagidan lip etib chiqib ketadi-yu, o'zini bosib oladi. Ag'anatib, yag'rinini yerga tekkizadi.

— Bu noto'g'ri yiqitdi, — deb da'vo ham qilib ko'rdi. Biroq ko'rib turganlar:

— To'g'ri yiqitdi, sen bu kurashning hadisini hali bilmaysan, — deyishdi. Battar alam qilganidan maktabni tashlab ketgisi keldi. Biroq "qochib ketdi" demasin, deb bu fikridan qaytdi. Endi butun fikr-yodi Poddubniyni yiqitishda bo'lib, kun-u tun shu haqida o'ylaydigan bo'lib qoldi. Nihoyat u, "qolgan umrim shu maktabda o'tsa ham uni yiqitmay qo'ymaganim bo'lsin", degan qarorga keldi. Keyingi vaqtlarda Muqonning tanasi po'latdek toblanib,

kuchi kundan kunga osha bordi. Dubniy ham endi uni zo'rg'a yiqitadigan bo'lib qoldi. Keyingi bir kurashda ikkalasi bir soat olishib bir-birini yiqitaolmay ajralishdi.

— Bu meni yiqitadi. Bilmay yurgan bir hadisi bor edi, endi uni o'rgandi, — dedi Dubniy. O'z maqsadiga yetishga oz qolganiga ko'zi yetgan Muqon, sal orom topganday bo'ldi. Rossiyaning qozoq polvoni maktabga kirib o'qiy boshlaganiga besh oy to'lib, oltinchi oyga qadam qo'ydi.

* * *

Maktab direksiyasi "tajriba" ishlariga tayyorlanish haqida buyruq berdi. Polvonlar ro'yxatga olinib, turli shaharlarga taqsimlandi.

Oltinchi oyning oxirlarida maktab zaliga juda ko'p odam to'plandi. Ilgari bu yerga kelmagan qorni katta, cho'ntak soatining bog'lari osilib turgan, yasan-tusan kiyingan odamlar kelishdi. Ivan tog'a bu gal polvonlarga o'zi rahbarlik qildi, haliroq uyda ularni safga tizib, Dubniyni eng oldinga, undan keyin Muqonni turg'azdi. Yigirma to'rt polvon saf tortib sport zaliga kirib keldi. Muqon maktabga kirgan mahalida asov, qo'pol edi. Olti oy o'qish uni xuddi sovutilgan otday, simga tizilgan kumushday sip-silliq qilib chiqardi: ichi tortilib, arslonday tana qo'ydi. Bo'yni yo'g'onlashgan, yelkasi tog'dek kelar edi. Bilagidagi mushaklari xuddi dengiz to'lqiniday o'ynab turar, beliga bog'lab olgan qora ipak belbog'i unga juda yarashib tushgan edi.

Ivan tog'a polvonlarni kelgan kishilar oldiga qator tizib qo'yib, tanishtira boshladi:

— Janoblar, xonimlar, Rossiyaning faxri bo'lgan mana bu yigirma to'rt nafar yosh polvon maktabimizning bu yilgi dasturni tugatib, amaliy ishga chiqish arafasida turibdi. Birinchi Dubniy, — dedi Ivan tog'a. Gulduros qarsak chalindi. Polvon bir qadam olg'a chiqib ta'zim qildi.

— Ikkinchi Mungaytpasov Muqon.

Endi qarsak guldiray boshlaganda, o'tirganlardan soatining bog'i osilgan, qorni katta birov:

— Familiyasi qanaqa? — deb so'rab qoldi. Chapak bo'lindi.
— Mungaytpasov, — deb takrorladi Ivan tog'a.
— Qaysi millatdan? — dedi yana haligi kishi.
— Qozoq.
— Qayoqdan kelgan? Kim yuborgan?
— Samaralik polvon Ivan Vasilyevich tavsiya qilgan.
— Nega ikkinchi o'rinda turibdi?
— Kuchiga qarab, taqsir.
— Qiziq, — dedi u astagina. O'tirganlar o'zaro nima haqidadir so'zlashishdi. Muqon o'rnida qimir etmay turaverdi.

— O'rtaga chiqsin, — deyishdi odamlar. O'rtada turgan Ivan tog'a Muqonga "o'rtaga chiq" deganday qo'li bilan ishora qildi. Gavdasini kerib, og'ir qadam tashlab yosh polvon o'rtaga chiqdi. Hali to'lishib yetmagan yosh polvonning tanasi o'tirganlarga yoqdi. Uzoq chapak chalishdi, bir yosh qiz unga guldasta olib chiqib berdi. U gulni Ivan tog'aga berib, o'zi o'rniga borib turdi.

Polvonlarni tugal tanishtirib bo'lgach, o'yin boshlandi. O'yinda Muqon rels egish bilan birga, yigirma besh odam chiqqan aravani tishi bilan yigirma besh metr joyga tortib borish hunarini ko'rsatdi.

Oltin soatning bog'ichini osiltirib o'tirgan qorni katta kishi — beshta shahar sirkining xo'jayini edi. U o'yinni ko'rib bo'lgach, Muqonni chaqirib unga yigirma besh so'm siylov berdi-da:

— Bundan buyon ko'pchilikka o'zingni Muqon deb tanishtiraver. Mungaytpasov demay qo'yaqol, xo'pmi, — dedi.

Shuning uchun Hojimuqon mening otim,
Menga qasdlik qilgan elni hech ko'rmadim.
Tahsil oldim ulug' Pyotr shaharidan,
Esimdadir polvon deya olgan xatim.

Shu kungi kurashda uch polvonni yiqitib, Dubniyni yiqita olmay ajrashdi.

Polvonlar tajriba o'tkazgani Odessa shahridagi maktabga yuborildi. Bu yerdagi kurash Muqon kuchda Dubniyga tenglashib olganini ko'rsatdi.

* * *

Ming to'qqiz yuz qirq birinchi yili, katta eman daraxtining soyasida o'tirib, o'z o'tmishini hikoya qilarkan, Muqon Dubniyni eslab:

— U mening jigarim edi. Ikkalamiz ko'p yillar birga yurib, ko'p joylarni ko'rdik. Jon ayamas do'st tutindik, u mening ustozim edi. Uni men Parijga borib kelganimizdan keyin ko'ra olmadim, — degan edi tovushi titrab.

— Bu nima deganingiz, Hoji aka? U hali hayot-ku. Borib ko'rsangiz ham bo'ladi.

— Hozir qayerda ekan? — deb sevinib ketdi u.

— Ukrainada bo'lsa kerak. Surishtirsa topiladi.

— Qani endi, shunday qadrdon do'stingni ko'rib, qo'lini qisib ikki og'iz gaplashsang. Gavdasi ham juda kelishgan edi. Bunday kuchli odam tug'ilavermaydi deysanmi! Shu zamonning Rustami dostoni-ku...

Rossiyaning turli shaharlaridan to'plangan qirqta polvon bir yarim oy kurashib, birinchilikni Dubniy, ikkinchi o'rinni Muqon oldi. Shunda tanlangan to'rt polvonning biri bo'lib Muqon ham Petrogradga keldi. Qirq polvondan o'ttiz sakkiztasini yiqitib, bittasini yiqita olmagan Dubniy birinchi mukofot bilan katta medal, Muqon o'ttiz yettitasini yiqitib, ikkinchisini yiqita olmay, ikkinchi mukofot bilan kichik kumush medal taqib qaytdi.

Ivan tog'a g'alaba bilan qaytgan polvonlari sharafiga to'y-tantana qilib berdi. Ularga o'n besh kun dam berib, "vatan ishonchini sharaf bilan oqlaydi", deb ishonilgan to'rt polvon yana Gamburgdagi tajriba maktabiga yubordi.

— U yerga borganlaringdan so'ng, ularning hunarlarini yaxshilab o'rganinglar. Kurashtirganlarida ko'zga ko'ringan polvonlarni yiqitmay, lekin o'zlaring bilan qayta kurashga tushmaydigan qilib tashlanglar. Xo'sh, maktabda o'qib yurishgan talabalari bilan chet eldan kelib chiranib yurganlarini, sog' qo'ymay koptokday uchiraveringlar.

Bu kundagi nemislarga rahbarlik qilayotgan odamlar noto'g'ri tarbiya olgan bolaga o'xshaydi, salgina yutuqqa ega bo'lsa bas,

og‘zi yirtilguncha vaysaydi, sal yutqazib qo‘ysa bormi, naq bo‘taday bo‘zlaydi. Polvonlarni yiqitib azob bermayoq, hunarlarini o‘rganib qaytaveringlar, — dedi Ivan tog‘a.

— Talabalari yiqilsa azoblanmaydimi?

— Ular juda manman bo‘ladi. Chet el odamlarini odam qatoriga qo‘shishmaydi. Atoqli polvonlari yiqilmasa bas, kichiklariga uncha qayg‘urmaydi.

— Nima, unda nemislarning katta polvonlarini yiqitib bo‘lmaydimi? — dedi Muqon.

Ular kelsa, Rossiyaning polvonlarini yiqitib, ketamiz, deb kelishadi. Kuchlaringni ana o‘shanda ko‘rsatasanlar. Sen mana bu relsni egib, yetmish pudlik aravani tishing bilan tortadigan hunaringni ko‘rsatma. Ularning eng kuchli polvoni ko‘targanchalik ko‘tarsang ham bo‘ladi. Xo‘sh, hammaga aytadigan gapim shuki, beboshlik qilmanglar, bu bizning sha’nimizga to‘g‘ri kelmaydi. Vazmin, og‘ir, sabrli bo‘linglar, maqtanchoqlik, qiziqqonlik hamisha uyatga qo‘yadi. Mana shuni eslaringdan chiqarmaglar, — dedi tarbiyachi.

* * *

Uch oy Gamburgda bo‘lib, polvonlarimiz Petrogradga qaytadigan mahalida, sirkda atoqli nemis polvonlarining o‘yinlarini tomosha qilishdi. Ularning dasturida kurash yo‘q edi. Faqat ayiq bilan, ho‘kiz bilan olishish, otni qo‘l bilan ushlab to‘xtatish, lo‘mni bo‘yniga solib egish kabi hunarlarinigina ko‘rsatishar edi.

Konferanse:

— Fon-Kenig ikki qo‘lida ikki otni ushlab qimir etkizmaydi, — deb e’lon qilganda, nemislar:

— Xail! — deb baqirishdi birdan.

Butun badanini qayishlar bilan chandib tashlagan ikki otni bir odam o‘rtaga olib chiqdi. Katta bir nemis chiqib dumiga taqib o‘tkazilgan tizginini qo‘liga o‘rab olib, oyoqlarini otning orqa oyoqlariga tirab taltayib turdi. Qo‘ng‘iroq jingirlab, otlarga qamchi urildi. Ikki ot ikki tomonga tortdi. Fon-Keningning mahkam ushlagan qo‘llari otlarni qimir etkazmay qo‘ydi. Xotin-xalajlar, bolalar zalni yangratib chapak chalishdi.

"Ana ko'rdingmi?" deganday, yaxshi kastum kiyib olgan novcha, olifta nemis ko'zlarini qisib tomosha qilib o'tirgan rus polvonini turtdi. U biqiniga tekkan qo'lni mahkam, xuddi ombir bilan qisganday qisdi-da, nemisga qaradi. Nemis xuddi yuragi og'rigan odamday basharasi burishib, og'zidan trubkasi tushib ketdi. U o'rnidan sapchib turdi. Rus polvoni qo'lini sal bo'shatib:

— Nega biqinimga turtasan?.. — dedi o'rnidan qo'zg'almay.

— Anavini ko'rgin dedim-da...

— Uning nimasini ko'radi?

— Ruslarda ham shunday kuchli polvon bormi?

— Bizdami?.. Bizda yirtqich arslonning jag'ini ayirib, yovvoyi filni dumidan ushlab to'xtatadiganlar to'lib-toshib yotibdi. Otning oyoqlarini bosib turib, boshini qayish.bilan bog'lab tortib to'xtatish ham polvonlikmi?

— Xo'sh, seningcha qanaqa qilib to'xtatish kerak.

— Dumidan ushlab to'xtatish kerak.

Ikkalasining tilini bir-biriga zo'rg'a tushuntirib o'tirgan bir nemis tarjimon, dumi degan so'zni tushuntirolmay hayron bo'lib qoldi. Muqon nemis shimining orqa tomonini burab, dumining nimaligini tushuntirmoqchi bo'lgan edi, u sakrab turib, yonida o'tirgan bir ayolning oyog'ini bosib oldi, shovqin-suron ko'tarildi. Politsiya kelib shovqin-suronning sababini surishtirdi. U gap nimadaligini aniqlab sirk boshqaruvchisini chaqirdi. Bu gapga sirk boshqaruvchisi ham hayron bo'lib:

— Bunday odam qayerda bor ekan? — deb so'radi.

— Rossiyada.

— Oti kim?

— Unday odam ko'p.

— Sen ham to'xtata olasanmi?

— To'xtata olaman.

— Ikki otnimi, bir otnimi?

— Ikki otni.

Muqon pidjagini yechib o'rtaga tushdi. Otlarni qayta olib chiqishdi.

— Ana, dumidan ushlab to'xtata qol.

— Qayishlarini olib tashlanglar.

— Turaversin-da.

— Yo‘q, olinglar. Qayishidan ushladi deb tan olmaysanlar. Otning boshini hech kim ushlamasin, bo‘sh qo‘yaveringlar.

— Rushland, qo‘lingni yulib ketadi...

— Mayli, ishing bo‘lmasin. Biroq otning biror yeri mayib bo‘lsa javob bermayman, qo‘lingdan tilxat ber.

— Qo‘lingni yulib ketsa biz ham javobgar emasmiz.

— Bo‘pti.

Sirk boshqaruvchisi yon daftarini olib ikkita tilxat yozdi. Birini qo‘l qo‘yib Muqonga berdi, ikkinchisini esa Muqonga qo‘l qo‘ydirib o‘zi oldi. Ungacha nemislar hovliqishib biridan biri so‘rab, janjalning sababini ham bilib olishdi. Ular zo‘r tomosha ko‘rsatmoqchi bo‘layotgan rus polvoniga hayron qolishdi. Muqon ustidagi qayishlari olinib, ikki tomonga qarab turgan otlarning o‘rtasiga kirdi, qo‘ng‘iroq chalindi, otlarga qamchi urildi. Kuchining boricha ikki tomonga yulqingan otlarning boshlari ko‘tarilganda, ayollar: “Rushland kaput”, deyishib ko‘zlarini yumib olishdi. Otlarning qisqa dumlarini bilaklariga mahkam o‘rab olgan Muqon bir tortgan edi, ikkala ot ham cho‘qqayib o‘tirib qoldi.

— Mana bunday qilib to‘xtatish kerak. Bu-ku ot. Rossiyada filni dumidan ushlab to‘xtata oladigan polvonlar to‘lib yotibdi, — dedi qo‘liga yopishib qolgan qillarni olib, inqillab yotgan otlarni o‘rnidan turg‘izar ekan. Xayoliga ham keltirmagan kuchni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan nemislar o‘rnilaridan turishib, qotib qolishdi.

— Mana bu temirni bo‘yningga solib ega olasanmi? — dedi bir nemis, o‘rniga o‘tirish uchun ketib borayotgan Muqonga, ikki gazdan oshiqroq lo‘mni ko‘rsatib.

— Bu bolalarning o‘yinchog‘i-ku. Buning uchun men bo‘ynimni iflos qilib o‘tiramanmi, — deb qo‘liga oldi-da, chiviqdek egib tashladi.

— Bu nima qilganing? Keyingi o‘yinga tayyorlangan temirni rasvo qilding, — dedi sirk boshqaruvchisi.

— Mana bu odam egib ko‘r-chi dedi-ku?

— Uni qo‘l bilan egmaydi. Bo‘yinga qo‘yib egadi, — deb yelkasini ko‘rsatdi. Muqon temirlar turgan taxta oldiga borib, bittasini qo‘liga oldi-da:

— Bu ham bolalarning o'yinchog'i. Bizning polvonlar bundan ham yo'g'on temirlarni mana bunday bo'yniga bo'yinbog' qilib o'rab oladi, — deb bitta temirni bo'yniga bo'yinbog' qilib o'rab tashladi. Hayron qolgan sirk boshqaruvchisi tomoshabinlarga nimalardir deb, Muqonning qo'lini ko'tarib hammaga ko'rsatdi. O'yin tugadi, ertasiga esa polvonlar Rossiyaga jo'nab ketishdi. Biroq bo'lar-bo'lmasni sharhlab yozadigan nemis gazetalari bu haqida lom-lim demadi. Uning kuchini sahnada ko'rgan tomoshabinlar og'izdan og'izga ko'chirib, elga tarqatishdi.

— Rus polvonlari bizning polvonlarimizdan kuchli ekan, degan odamlarni politsiya qamab tashladi, — deyishdi nemislar.

* * *

Polvonlar Peterburgga qaytib kelganlaridan so'ng, majlis bo'lib, maktabni tugatgan polvonlarni hunarlariga qarab turli guruhga bo'ldilar. To'rt polvonni chet el sirkiga yubormoqchi bo'lishdi. Ular Dubniy, sibirlik Dmitriy Martinov, saxalinlik Ivan Koren va Muqonlar edi. Peterburg sirkining xo'jayini:

— Buni chetga chiqarmay qo'ya qolaylik, bunga Rossiya ham bo'ladi-ku, — dedi.

— Shunda majlisda qatnashib o'tirgan Dubniy:

— Agar Muqon bormasa men ham bormayman, — dedi.

— Chet mamlakatga borgan har bir odam mamlakatimizning shon-u sharafini ko'z qorachig'iday saqlashi kerak. Chet el polvoni bilan kurashgan yetti yashar bola ham yengib chiqishi kerak. Shuning uchun chet mamlakatga ketayotgan har bir polvon judayam ishonarli bo'lishi kerak. Rus xalqining ishonchini oqlay bilishi kerak. Uning kuchi ko'p bo'lgani bilan savodi yo'q. Savodsiz kuch — filni o'rgangandek gap, uni qovun, tarvuz berib ergashtirib olib ketsa ham bo'laveradi. U rus emas, musulmon. Yevropaning ba'zi shaharlarida bo'lganingizdan keyin, senlarni Parijga, Stambulga, Hindistonga, Kobulga yuboramiz. Ana shunda birovning gapiga laqqa uchib, obro' oladigan joyda yiqilsa, yoki "men musulmon edim", deb turib olsa nima qilasan.

— Yo'q, bu undaylardan emas. Uning musulmon, kofir degan so'zlar bilan ishi yo'q. U rus tilini o'rgandi, o'z fikrini to'la tu-

shuntira oladigan bo'ldi. Germaniyaga borganda biz unga qozoq desak, u:

— Men Rossiyaga borganimdan keyin qozoq bo'laman, hozir rusman. Buvim — "Er yigit millat uchun tug'ilmaydi, yurt uchun, xalq uchun tug'iladi, uyda ovulni, tashqarida elni o'yla", derdi. Podsholigimiz rus xalqi bo'lganidan keyin, nemislarning meni ham rus deb ataganlari ma'qul. Men ularga rusning kuchini ko'rsatib qo'yaman, — dedi. U bizga bir ertak aytib berdi: — Bir o'tinchi chol bor ekan. U bolasi, ikki ola ho'kizi bilan o'tni tashib yurganda, o'g'li ola ho'kizning bunchalik ko'p o'tin ko'targaniga hayron qolib: "Dada, Xudoni kuchli deydi, uning kuchi bizning ola ho'kiznikidan ham ko'pmi?" — deb so'rabdi. Shunda dadasi ranjib: "Qo'y, o'g'lim, Xudoni hayvonga tenglashtirmagin", debdi. Bizning qozoqlar Xudoni ko'z bilan ko'rmasa ishonmaydi, — deydi u. Shunday deb o'tirgan odamni musulmon deb bo'ladimi? Bizlar ba'zi bir pulga yiqiladigan sotqin polvonlar haqida gapirganimizda, u: "Or-nomusini sotgan hayvon. Unday odam, odam emas. Bir odamga kuchini sotgan odam bir kun umr ko'radi. Biroq ko'pchilikka xizmat qilgan odam och, yalang'och qoladimi hech? El nomusi uchun halol xizmat qilsang, u senga osh ham, non ham, ust-bosh ham, mol ham, pul ham bo'ladi. Men Qiziljardagi odamlarni, meni ko'rib quvonib ko'ziga yosh olgan Dobriy-Rabiyni, Qozon shahridagi ichadigan oshini bo'lib berib, meni o'qishga yuborgan ishchilarni, tug'ishgan og'amday bo'lib qolgan Ivan tog'ani hech qachon unutmayman. Ular menga, "xalq uchun kuchingni ber, obro' ol", degan. Pulga sotilib yiqilgunimcha o'lganim yaxshi, deydi. Shunday odamdan shubhalanib bo'ladimi? U yana: "Kurashda yiqilish o'lim bilan baravar. Dastlab kurash usulini o'rgana olmay yurgan paytlarimda doimo sendan yiqilib yurdim. Ba'zan nomus qilib o'zimni-o'zim o'ldirgim ham keldi. Ba'zan jahlim chiqib, seni parcha-parcha qilib tashlagim ham keldi. Biroq keyin bundoq o'ylab ko'rsam, yiqilganim sening do'stligingdan qimmat emas ekan. Mening kuchim senikidan kam emas, faqat kurash usulini o'rganishim kerak ekan, mana o'rgandim. Endi, Rossiya polvonlarini yiqitaman, deb kelgan chet ellik takabbur, maqtanchoq polvonlar qo'limga tushadigan

bo'lsa, ikkinchi marta kurashga tushmaydigan qilib qo'yaman", dedi. Shunday sodiq odamni millati rus emas deb bo'ladimi? Bu bizni uyaltirmaydi. Agar u bormaydigan bo'lsa, meni ham ro'yxatdan o'chirib tashlanglar, men ham chet elga bormayman. Polvon bo'lmasam, hammol bo'lib ham kun ko'raveraman, — dedi Dubniy ranjib.

Sirk xo'jayini Jarovdan boshqa hamma Muqon tarafdori edi. Dubniy yoqlab gapirgandan so'ng u ham indamay qoldi. Maktab tavsiyasi o'z kuchida qoldi.

Qozoqlardan chiqdim, ismim Hojimuqon,
Polvonlikdan so'zlay biroz hikoya.
Ataldim men o'n ikki yil "O'ris polvon",
Yigirma to'rt yurtni kezdim benihoya.

Parijda

Estoniya, Latviya, Astro-Vengriya, Polsha, Shveysariya mamlakatlarida bo'lib, ko'p kurashlarni ko'rgan Muqon chiniqib, yag'rini yerga tegmaydigan polvon bo'ldi. Ko'p polvonlarning nomlarini eshitib, ular bilan uchrashishni sabrsizlik bilan kutdi. Tug'ilib o'sgan dalasini sog'ingan Muqon:

Tug'ildim-u nasibam bo'ldi tuzdan,
Kim bor ekan o'z elidan umid uzgan?
Esimga tushgan chog'da aziz elim,
Yosh dumalab tushadi ikki ko'zdan, —

deb o'lan aytadigan bo'ldi. Yoshi o'ttizdan oshib, endi elimga qaytmasam bo'lmas, deb yurgan mahalda Dubniy Rigadan bir to'p polvon bilan kelib qoldi. Uni ko'rganda xuddi tug'ishganini ko'rganday quvonadigan Muqon, u bilan apoq-chapoq bo'lib gurunglashdi.

— Muqon, endi hademay Parijga jo'naymiz. U yerga yer yuzining hamma polvonlari keladigan bo'libdi. Bizlar kurashib ko'rmagan Fransiya polvoni Paush, Italiya polvoni Strument, Avstraliya polvoni Ros-Baki, Germaniya polvonlari Fon-Kenig,

Gang-Kavan, Angliya polvoni Lon-Puk, turk polvoni Qora Mustafo, Hoji Ali, Hindiston polvoni Proxfi, Yaponiya polvoni Sar-Kekkilar kelishadigan bo'libdi. Shular bilan kurashib o'z kuchimizni sinaymiz, — dedi.

Muqon ko'ra olmay yurgan polvonlarning nomini eshitib quvondi. Hatto, sog'ingan elini ham unutib, safar kunini sabrsizlik bilan kutdi.

Erta-yu kech o'ylagan narsa tushga kirmay qo'ymaydi. Tezroq kurashishni sabrsizlik bilan kutgan Muqonning tushiga odamlarga o'xshamaydigan, allaqanday maxluqlar bilan yulqishib, ayiqlar, arslonlar bilan olishib yurganlari kirdi. Ba'zan baqirib, o'rnidan turib ketadigan bo'lib qoldi. Uyg'onsa o'ngida hech narsa ko'rinmasdi, yonidagi o'rtoqlari:

— Senga nima bo'ldi? — deyishib kulishardi.

— Tush ko'rdim.

— Qanaqa tush?

— Qora ayiq bilan olishib, bosh terisini shilib tashladim.

— Bo'pti, unda ertaga cho'chqa go'shti yer ekansan, yot, — deb yana kulishardi o'rtoqlari.

— Yo'q, haligi, Parijga qachon ketamiz.

— Fransiya hukumati ingliz polvonlariga ruxsat bermay kechiktirayotganga o'xshaydi.

— Bu qanaqasi bo'ldi. Fransiya hukumati unda inglizlardan qo'rqqanmi? Fransuzlar qo'rqsa, mana biz kurashamiz.

— Ular polvonlaridan qo'rqmaydi, do'stim, boshqalaridan qo'rqadi. Ingilizlarning bir yoqqa odam yuborsa yoniga josus qo'shib yuboradigan odati bor-ku, ehtimol, o'shanisidan qo'rqqandir.

— Nima, josus polvonman deb keladimi?

— Polvon bo'lib ham keladi, polvonlarga rahbar bo'lib ham keladi. Qolaversa, shu polvonlarning biriga xizmatchi bo'lib ham keladi.

— Borganingda josusni sezsang, menga aytib qo'y. Bir paytini topib, yaxshilab ta'zirini berib qo'yay, ikkinchi polvonlar orasida yurmaydigan bo'ladi.

Garchi rus polvonlaridan shubhasi bo'lmasa-da, inglizlar va turklar bilan kelishib olib ruxsat etishdi. Jahon birinchiligi uchun

bo'ladigan kurashda birinchi marta qatnashish uchun Dubniy, Muqon, Martinov, Ivan Koren — to'rtalasi Parijga jo'nab ketishdi.

Parijdagi Rossiya elchixonasi xodimlari o'z vatanidan kelgan polvonlarni xushnudlik bilan qarshi olishib, maxsus tayyorlangan joylarga joylashtirishdi. Ularning hurmatini joyiga qo'yishib, dam berishdi. Boshqa mamlakat elchixonalari xodimlari o'z polvonlarining afishalarda ta'riflab, suratlarini soldirib, uning tagiga bo'ylarining uzunliklarini, yelkalarining kengliklarini, og'irliklarini yozdirib, bu afishalarni tegishli joylarga tarqatib ham ulgurishgan edi. Shu vaqtdagi — Rossiyaning Fransiyadagi elchixonasi huzuridagi san'at va madaniyat ishlarini boshqarib turgan Stepan Nikolayevich vatan shon-sharafini hamma narsadan ham yuqori qo'yadigan odam edi. U ikki so'zining birida: "Rossiyaning iti talashsa ham yengib chiqsa deyman", derdi. U, shuningdek, madaniyatli, olim kishi edi. Bu kurashda Rossiya polvonlarining ham qatnashishi haqidagi xabarni eshitgandan keyin, yonboshi yostiqqa tegmay biror narsani bahona qilib bo'lsa ham borib, chiqargan afishalarini kuzatib turdi. Polvonlar keladigan kuni ular yotadigan uyning devoriga ana shu afishalar yopishtirib tashlangan edi. Kelishlari bilanoq polvonlarning ko'zi shu afishalarga tushdi. Ular ichida haddan tashqari bezatilgani nemislarniki edi: unda katta qilib ikki boshli semurg'ning surati solingan, ikki tomoni eman daraxtining yaprog'i bilan bezatilib, o'rtasiga uchta polvonning surati solingan. O'rtasidagisining surati juda katta qilib olingan bo'lib, tagiga: Ans, bo'yi to'rt gaz, yag'rini bir yarim gaz, og'irligi o'n bir pud, deb yozib qo'yilibdi. Ikki tomondagisining biri ilgari Muqon ko'rgan Fon-Kenig, ikkinchisi esa Gans-Kavan ekan. Bu uchalasining o'rtasiga yer sharining surati solingan, go'yo ular futbol o'ynayotganday edi.

— Ha, anchagina og'ir ekan, — dedi Ivan Koren astagina.

— Nimani aytyapsan? — dedi Muqon chamadonidan nimadir qidirayotib.

— Mana bu, nemis polvonini aytyapman.

— Qancha pud ekan?

— O'n bir pud deb yozibdi.

— O‘n sakkiz pudlik temirni yelkangda obkashday ko‘tarib yurasan-u, uning nimasiga hayron qolasan.

— Temir — temir. Bu jonli odam-da.

— Odam bo‘lsa nima bo‘pti, bu o‘n bir pud og‘irlikning hammasi kuch emas. Ular po‘k bo‘ladi. O‘zing bilasanki, nemislarning eng yaxshi ko‘radigan ovqati kartoshka sho‘rva. Siqilsa suvi chiqib ketib, quruq suyagi qoladi, — deb beso‘naqay barmoqlari bilan chamadonini yopdi.

— Kuchingni ko‘rarmiz, Misha, — deb kuldi Ivan.

— Qaytanga, kattasi, gavdaligi ma’qul, tuyaday qilib olib urasan. Kichkinasi yer yorig‘idan lip etib chiqadigan sichqonday yomon bo‘ladi. Men kattalaridan qo‘rqmayman.

— E, aytmoqchi, seni sichqondan qo‘rqadi deyishadi, rostmi? Ana, karavoting tagida sichqon yuribdi.

— Hey, qo‘y, unaqa sovuq gapni gapirma, — deb engashib karavotning tagiga bir qarab qo‘ydi. Men undan qo‘rqmayman, la’natining chiyillashidan qo‘rqaman. Ovozini eshitmasam deyman, — dedi Muqon. Keyin u devorga yopishtirilgan afishalarni ko‘zdan kechirdi. Shularning ichidan bittasiga tikilib:

— Iye, mana bu boshlariga qizil do‘ppi kiyib olishgan qush burunlilar kim? Ko‘ylaklari g‘alati-ya, uzun-uzun... Tagidagi yozuvini o‘qi-chi, Ivan. Qaysi davlatdan ekan? — deb Korenga qaradi.

— Ular sening tug‘ishganlaring, musulmonlar.

— Qayerdagi musulmonlar! Shunaqa uzun ko‘ylak, qizil do‘ppi kiyganlar ham musulmon bo‘larkanmi?

— Ha, bo‘ladi. Bular turklar.

— E-ha, bularning ichida Hoji Alisi qaysi biri?

— O‘rtadagisi. Ikki yonidagisi Qora Mustafo bilan Mirza Ahmad degan polvonlari. Tagidagi arabcha yozuvini o‘qib ko‘rmaysanmi?

— Mana bu to‘lib yotgan jimjima chiziqlarning qaysi biri arabcha? — dedi Muqon qo‘li bilan ko‘rsatib.

— Ana shunisi arabcha.

— Hey, arabcha deganing qumga tushgan chumoli iziga o‘xshagan qing‘ir-qiyshiq bir balo-ku. Qo‘y, bu yozuvdan turklarning polvonini tanib olishni menga ravo ko‘rmagan ekan. Ravo

ko‘rmasa ko‘rmas, bu yozuv bilan boshimni qotirmayoq qo‘ya qolay. Baribir o‘zi qo‘limga tushar.

— Ehtimol, sen uni ko‘rmassan, u sen bilan kurashmas.

— Nega endi ko‘rmas ekanman. Nima, ular kurashga tushmay, Parijga cho‘chqa boqqani kelibdimi?

— Foydasi tegadigan joyda ular dinni o‘rtaga solishadi. Agar ular sening yiqita olishingga ko‘zi yetsa, biz musulmonlarmiz, deb kurashmay qo‘ya qoladi.

— To‘g‘ri kelsa otangni ham ayama, degan buvim. O‘z otasini tanimaydigan kuch Pusirmonni (bu Muqonning o‘z tili) boshiga ursinmi! Men birovdan yiqilib Xudodan imon so‘ramayman, — dedi Muqon qovog‘ini solib.

* * *

Polvonlar hammomga tushib, ust-boshlarini almashtirishgach, ularni ko‘rish uchun Stepan Nikolayevich keldi. U o‘z vatandoshlarini ochiq ko‘ngil bilan qarshi oldi, hol-ahvol so‘radi, vatan hayotini surishtirdi, yo‘l qiyinchiliklarini so‘radi. U gaplashib o‘tirib:

— Qalay, mana bu polvonlarning og‘irligi, gavdasi, ism-sharif-lari bilan tanishdinglarmi? — deb devordagi afishalarga qaradi.

— Ha, tanishyapmiz.

— Savlatini ko‘rib, qo‘rqib ketmadinglarmi?

— Surat ko‘rib qo‘rqadigan odam kurashgani keladimi... Bizning Misha (ular Muqonni shunday deb ataydi): “Bu gavdaning yarmi suv bilan kartoshka, siqib tashlasa quruq suyagi qoladi”, deyapti. Qo‘rqqan kishi shunday deydimi, aka?

— U kim? — deb Dubniy yonida o‘tirgan Muqonga qaradi. Stepan Nikolayevich unga mehribonlarcha tikildi.

— Qaysi millatdan?

— Qirg‘iz.

— Biz “qirg‘iz” deb O‘rol daryosidan to naryog‘i Xitoyga yetguncha cho‘zilgan bepoyon dalada yashovchi xalqni aytamiz. Bu, millatlarga uncha e’tibor berilmay aytilgan gap. Bo‘lmasa bu yerda qozoq ham, qirg‘iz ham, qoraqalpoq ham, o‘zbek ham bor. Shularning qaysi biridansan?

— Qozoq.

— Qayerdagi?

— Esil bo‘yidagi, Sariterak bo‘lisidan.

— Tushunarli. Chin qozoq ekansan[1]. U o‘rta yuz qozoqlarining yeri-ku. Bir mahallar men Oqmo‘la viloyatida To‘rg‘ayda bo‘lganman. Qozoqlar rostgo‘y, oq ko‘ngil, mehmondo‘st, yangilikni yoqlovchi xalq. Uning Cho‘qon, Ibroy kabi ma’rifatparvar kishilari bor. Endi tushunarli. U Muqonga yaqinlashib, maktabdan qanday hunar o‘rganib chiqqanini surishtira boshladi. U suhbatining oxirida:

— Mana bu polvonlardek afishaga suratimizni soldirib maqtanamizmi? — dedi. Dubniy indamay o‘tirgan polvonlarga bir-bir qarab chiqdi-da:

— Bunday qilishning nima keragi bor? Suratimiz bilan emas, kuchimizni ko‘rsatib maqtansak bo‘lmaydimi? “O‘zini o‘zi maqtagan ho‘kiz — tentak” deganday, maqtanchoqlik xalqimizga xos emas-ku.

— Xo‘sh, boshqalaring nima deysanlar? Qani, sen nima deysan, qozog‘im?

— Dubniy to‘g‘ri aytdi. Afisha yozdirib, suratlarini oldirgan shu quruq maqtanchoqlarni yiqitsak, bizni odamlarning o‘zi maqtashadi.

— Men ham xuddi shu fikrda edim. Suratlaringni emas, kuchlaringni ko‘rsatinglar. Biroq Rossiyaning hammasini bir xil kiyimda ko‘rsatmay, har kim o‘z milliy kiyimi bilan, ya’ni kavkaz, ukrain, sibirliklar o‘z milliy kiyimlarida chiqsin. Kiyimlaring boshqa-boshqa bo‘lsa ham, maqsadlaring bir bo‘lsa bas, — dedi Stepan Nikolayevich. Shunday qilib, u, har millatning o‘z kiyimini hozirlatib qo‘ydi. Muqonga qadimgi qozoqlarning tuya jun chakmoni topilmadi, uning boshiga oq tivit qalpoq, ustiga Buxoroning yo‘l-yo‘l ola beqasam to‘ni kiydirildi. Shunday qilib, Muqon butun dunyo pahlavonlari to‘plangan Parij sirkiga ola to‘n bilan kirdi.

---

[1] Qozoqlarning territorial uchta: — kichik yuz, o‘rta yuz, katta yuzga bo‘lingan. Shuni aytmoqchi *(tarj.)*.

* * *

Polvonlarning xalqaro kurashiga rahbarlik qiluvchi (aralash tuzilgan) komissiya birinchi hafta ichida polvonlarning kuchini namoyish qilib, ularni ko'pchilikka tanishtirishni ma'qul dep topdi. Kapitalizmga tish-tirnog'i bilan yopishib olgan Yevropa mamlakatlarining siyosiy diplomatlari feodalizm qoldiqlaridan hali batamom qutula olmagan Rossiyaning har bir mayda-chuyda nuqsonlaridan kulgisi kelar edi. Ular Rossiya o'z polvonlarining afishasini olib chiqib osmaganini "kambag'allikka" yo'yib kuldilar. Mezbon mamlakat Fransiya dastlabki kurashga Rossiya polvonlarini tavsiya qildi. Komissiya a'zosi bo'lgan Stepan Nikolayevich bu taklifni qabul qilmadi.

— Bizning qurilish madaniyat sohasida Yevropaning bir qancha mamlakatlaridan orqada ekanligimiz rost. Kechagi polvonlar haqidagi afishalar Berlinda, Londonda, Stambul va boshqa joylarda bosilib keldi. Bizning polvonlarimiz unday afishalar olib kelgani yo'q. Buning ustiga Angliya, Germaniya, Fransiyaniki singari dunyoga ma'lum bo'lgan polvonlarimiz ham yo'q, nuqul yosh polvonlar keldi. Bizning polvonlarimiz bu kurashda hamma polvonlarni yiqitib, poyga olgani kelgani yo'q, balki ilg'or mamlakatlarning polvonlaridan o'rnak olgani, o'rgangani keldi. Rossiya polvonlari eng oxirida chiqsa ham bo'ladi, — dedi.

Maqtanchoq diplomatlar gerdayishib bir-birlariga ma'noli qarashib, bu taklifga qarshi chiqmadilar.

"Bu ruslarning urushida o'lgan-tirilganiga qaramay jang qilgani bo'lmasa, biznikiga o'xshagan, kurash texnikasini yaxshi bilgan, madaniyatli polvonlar ularga qayoqdan kelsin", deb o'ylashdi o'zlaricha. Ammo ularning bu xom xayoli ko'pga cho'zilmadi, kurash boshlanguncha edi, xolos.

* * *

Kurash ham boshlandi. Polvonlar Parij ahliga turli-tuman hunarlarini, kuchlarini namoyish qildilar.

Ba'zi polvonlar irillagan arslonni oyog'idan ushlab, uloqtirib yubordi, katta ho'kiz bilan olishib, cho'qqaytirib o'tqazib qo'ydi. Ikki pudlik qirq toshdan beshtasini shardek uchirib o'ynadi, bi-

lakday temirni bo'yni bilan, lo'm temirni esa tishi bilan egdi; ikki qo'li bilan ikki otni qimir etkazmay qo'ydi; qo'llariga to'rt odamni mingizib, manejni aylandi; boshi bilan yerda turib, oyog'ida oltita odamni o'ynatdi; ikki pudlik toshni ustiga qo'yib, yarim pudlik bolg'a bilan urib sindirdi.

Hindiston polvoni yumaloq taxta ustida o'z xo'jayinini butun oilasi bilan, dasturxon atrofida o'tirgan holda ko'tarib chiqdi.

Afrika polvoni o'ttiz pudlik filni turgan joyida ko'tardi. Yana ancha hunar, kuch ko'rsatgan polvonlarni Parij ahli olqishladi.

— Ertaga Rossiya polvonlarining hunarini ko'rasizlar, — deb e'lon qildi sirk boshqaruvchisi. Gulduros qarsaklar butun Parijni yangratib yuborganday bo'ldi. Ertasiga sirk ochilganda o'rtada boshqa polvonlar tayyorlatib qo'ygan kabi o'yin asboblari ko'rinmadi. Faqat sirk maydonida katta-kichik g'ildiraklar, qalin taxtalar yotar edi. Ba'zi tomoshabinlar:

— E, bular chopishmi yo sakrashmi, ishqilib shunga o'xshash bir o'yin ko'rsatisharkan-da. Bunday tomoshani har kuni ko'rib yuribmiz-ku, — deb o'ylashdi. Rossiya polvonlarini kutib o'tirganlar ichida: "Ruslar nuqul yosh bolalarni yuborishib, afishada suratlarini ko'rsatishga uyalishganmish", degan gaplarni eshitganlar ham bor edi. Ular sahnada yotgan asboblarni ko'rib: "Mana bu yumaloq taxtani nima qilishar ekan... Nuqul shunaqa og'ir narsalarni tashishibdi-ku..." — deb hayron bo'lishdi. Rus polvonlari o'qishni endigina bitirishib chiqqan deyishganlarida, tomoshabinlar: "Demak, polvonlari jussasi kichik, pachoq bo'lsa kerak", deb o'tirishdi. Kutaverib sabri tugagan xalq ustma-ust qarsak chaldi.

Odat bo'yicha polvonlar o'rtaga chiqib, boshqaruvchi tanishtirgandagina ta'zim qilardi, bular unday qilmadi, hatto hali o'zlari chiqishgani yo'q. Nihoyat, sirkni boshqarib yurgan fransuz chiqib:

— Rus polvonlarining o'yinini boshlaymiz, — dedi.

Odamlar duv etib sirk eshigiga qarashdi. Mushaklari bo'lak-bo'lak bo'lib turgan birov o'n sakkiz pudlik relsga yigirma beshta sirk xizmatchisini mindirib ko'tarib chiqdi. U bu yukni pisand qilmay, xuddi qo'li bo'sh odamday erkin qadam tashlardi. Gulduros qarsak orasidan:

— Sharqiy Yevropada birinchilikni olgan Dubniy, — deb qichqirdi fransuz. Bu so'z ba'zi bir odamlarning qulog'iga elas-elas eshitildi.

Polvon sirk maydonini bir aylanib o'rtaga turdi-da, tomoshabinlardan yana bir nechtasini chaqirib, relsning ikki uchini bostirdi. Qirqqa yaqin odamning og'irligidan relsning ikki uchi egilib yerga tegdi. Shunchalik og'ir yuk ko'targan rus polvonining shuhrati Parij sirkining devorlarini yorib, tashqariga chiqqanday bo'ldi. Uning ketidan sakkiz pudlik ikkita sandiqday-sandiqday keladigan toshni qo'ltig'ida, ikki pud keladigan cho'yan bolg'ani tishida ko'tarib yana bir polvon chiqdi. Uni: "Rossiya polvoni Dmitriy Martinov", deb tanishtirishdi.

Uning ketidan besh pudlik ikkita qadoq toshni jimjilog'ida ilib chiqqan polvonni:

— Bu saxalinlik Ivan Koren, — deb tanishtirdi sirk boshqaruvchisi. Ularning orqasidan boshida qalpoq, egnida ola shohi to'nli odam ikki o'rkachli katta tuyaga minib chiqdi. Bu yevropaliklarning ko'ziga xuddi Chingizxon tirilib kelganday bo'ldi. Zaldagi bolalarning qiy-chuvidan, qarsakdan uning nomini aytishga ham imkon bo'lmadi. Odamlar o'rnidan turishib bir-birining yelkasi osha qarashdi, go'yo sirk ichi ko'chayotganday bo'ldi. Biroq polvon bularga mutlaqo parvo qilmadi. Tuyadan tushib, uning oldingi tizzasiga oyog'i bilan turtib:

— Cho'k! — dedi.

Yelkasidan ushlab, pastga bosgan kuchli qo'l tuyani cho'ktirdi-yu, tizzasidan qayish o'tkazib, tuyani xuddi qopga o'xshatib orqaladi-da, yana qaytib kirib ketdi. Ag'rayib qolgan tomoshabin uning tuyani qanday ko'tarib ketganini ham sezmay qoldi. Ketidan kirmoqchi bo'lib ergashgan bolalarini yubormay, tomoshabinlar sirkni boshiga ko'tarib qichqirishdi:

— Qani u? Yana chiqsin! — degan tovushlarga:

— Chiqadi, — deb javob qildi boshqaruvchi.

Qayta ko'rishni istab, sirk eshigiga tikilgan tomoshabinlarga polvonning qalpog'igina ko'rindi. Tomoshabinlar yana zo'r berib chapak chalishdi.

Polvon sirkning o'rta sahniga bir aravani tishi bilan tortib chiqdi. Arava ustiga yopilgan oq narsa ustiga to'rt tilda, yetmish besh pud, deb yozib qo'yilgan edi.

— Sharqiy Yevropa birinchiligini olgan Muqon Mungaytpasov... — dedi boshqaruvchi.

— Bu rus emas-ku... mo'g'ul-ku... — degan tovushlar eshitildi.

— Ya ne mongul, a rus iz kazaxskoy stepi, — dedi polvon yo'g'on tovush bilan ruschalab. Musiqa sadolari ostida rus polvonlari o'z hunarlarini ko'rsatishda davom etdi.

* * *

Dunyoning talay-talay shahrin kezib,
Tanitdim men jonajon qozoq elin.
Ustimdan og'ir avtobus o'tganda ham
Qayishmadi, bukilmadi mening belim, —

derdi Muqon.

Lo'm temirni egib, bo'yniga bo'yinbog' qilib o'rash Muqonning eng yengil mashqlaridan biri edi. Buni tomoshabinlar ham ko'rdi. Musiqa avjiga mingan mahalda o'rtada turgan sandiqday toshni to'rt kishi bazo'r ko'tarib kelib, Muqonning ustiga qo'ydi. So'ngra sirk boshqaruvchisi:

— Qani, kim urib sindiradi? — dedi tomoshabinlarga qarab. Uch-to'rtta odam:

— Men sindiraman, deb o'rtaga chiqdi-yu biroq, bolg'ani ko'tara olmay orqaga qaytaverdi. Ko'zlari yiltirab, ikki qo'li bilan toshning ikki tomonidan asta ko'tarib, chip-chip terlab yotgan Muqonning ustidagi toshni urib sindirish hazilakam ish emas edi.

— Men bir ko'ray-chi, — deb Hindistonning Riga-Riber degan polvoni bolg'aning dastasini ushladi. Toshni bir urganda sindirish kerak edi. Qari burgutnikiday o'roqburun hind polvoni bolg'ani qulochkashlab ko'tardi. U arslon gavdasiday yastanib yotgan gavdaga kuchining boricha urmoqchi. Musiqa birdan tindi. Minglarcha juft ko'zlar ko'tarilgan bolg'aga tikildi. Bu dahshatli man-

zaraga qarolmay yuzini burgan odamlar ham bo'ldi. Muzika portlagan bombaday birdan yangrab ketganda cho'yan tekkan toshdan yarq etib o't chiqdi. Muqon ikki bo'lingan toshni ikki tomonga otib yuborib o'rnidan uchib turdi.

— Har holda, madaniyatsizroq o'yin ekan, — dedi nemislarning bosh polvoni.

— Rossiyaning katta polvonlarini izlayotgan polvonlarimizda shunday kuchli, yosh polvonlarni yiqitamiz degan umid qoldimikan? — deydi chet ellik diplomatlar o'zaro shivirlashib.

Odamlar o'rnidan turishayotgan mahalda:

— Ertaga kurash boshlanadi, — deb e'lon qildi sirk boshqaruvchisi.

Shu kuni Parij ahli faqat rus polvonlarining kuchi haqida, ularga teng keladigan polvonlarning yo'qligi haqida gaplashishdi.

* * *

Sirk chiptalari haddan tashqari qimmatlashib ketdi. Ishchining bir haftalik mehnat haqi sirk chiptasiga zo'rg'a yetadigan bo'lib qoldi. Buning ustiga savdogarlar ertalab hamma chiptani olib qo'yib, kechqurun ikki hissa qimmatga sotishadigan bo'lishdi. Shuning uchun ishchilar tuya ko'targan, rels eggan rus polvonlari kurashadigan kunni kutishdi. Navbatma-navbat tomosha qilishib, ko'rganlarini boshqa o'toqlariga hikoya qilib berishdi.

Kurashga tushadigan qirq to'rt polvondan ikkisi rus polvonlari ko'targan relsni ko'taramiz deb mayib bo'lib, qatordan chiqib qolishdi. Qolgan qirq ikki polvon bilan kurash boshlanganda, dastlabki o'n kun ichida ruslarning ikki polvoni muttasil qatnashib turdi. Ular na o'zlari yiqildi, na boshqalarni yiqitdi. Muqon bilan Dubniy doktorning spravkasi bilan kurashga qatnashmay faqat tomosha qilib o'tirishdi. Hindiston polvonini arab polvoni, arab polvonini turk polvoni, italiya polvonini ingliz polvoni, ingliz polvonini nemis polvoni, nemis polvonini fransuz polvoni, fransuz polvonini turk polvoni yiqitib kim kuchli, kim kuchsiz ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Qanaqa usulda kurashishlari ham ma'lum bo'lib qoldi. Ikki rus polvonning tushishini taklif qiluvchilar ko'payib ketdi. Shundan keyin Dubniy bilan Muqon ham kurashda qatnashdi.

— Polvon bo'lish uchun Rossiyadan chiqib, chet eldan ustoz izlamayman, o'z elimdagi ustozim bo'ladi, — degan edi yetti marta jahon chempioni nomini olgan, polvonlarning polvoni Ivan Poddubniy. U juda to'g'ri aytgan edi. Ivan tog'a maktabi rus polvonlariga zamonaga xos fransuzcha kurashni benuqson o'rgatganini — "ustozdan shogird o'zgani"ni Parijdagi kurash ravshan ko'rsatdi.

Bu kurash rus polvonlari favqulodda yoki omad tufayli emas, balki kuchi bilan, kurash hadisini yaxshi bilgani tufayli g'alaba qildi.

Saralangan polvonlar ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruh: og'irligi besh pud-u o'n uch qadoqqacha bo'lganlar, yengil kurashda Fransiya chempioni degan nom olish uchun, ikkinchi guruh: o'zidan og'ir polvonlar bilan kurashib, jahon chempioni nomini olish uchun, ruslarning ikki polvoni ikkinchi guruhga qo'shildi.

Polvonning nomi aytilganda: "Nikolani yiqitadigan hali onasining qornida yotibdi", deyishdi odamlar. U o'rtaga chiqqanda qarsakdan sirk yangrab ketdi. Biroq amalda ular o'ylagancha chiqmay qoldi, arslondek haybat bilan tashlangan Nikolaning bo'yni Dubniyning bag'riga kirdi-da, gilam o'rtasiga uzala tushdi. Erkin kuchni erkin ishlatayotgan yosh rus polvoniga Parij ahli hayron qolishdi.

Dubniyda bekorga harakat qilish, terlash degan gap bo'lmadi; yonboshidan bosib yotgan chempionni qimir etkazmay bir qo'lini qo'ltig'i tagidan, bir qo'lini bo'ynidan o'tkazib olib, qisib turaverdi. Uning kuragini yerga tegizishga shoshilmadi ham. Biroq daqiqa sayin Raulning nafasi qisila bordi. Gavdasini ombur kabi qisib yotgan Dubniy, xuddi hazillashayotgan bolalarday, shivirlab dedi:

— Bu issiq quchog'im — sening takabburliging uchun, seni takabbur qilib o'stirgan Parij uchun!

Oradan qirq daqiqa o'tganda Raul xirillab:

— Mana bu meni bo'shatsin, bir gapim bor, — deb sudyadan iltimos qildi.

— Yo'-o'q, bo'lmaydi! Bu hiyla qilyapti, qochib ketadi, — dedi Dubniy. U iltimos qilaverib qo'ymagandan so'ng sudya

bo‘shattirdi. Rangi bo‘zarib ketgan Raul sudya stoliga biroz suyanib turdi-da, kurashni endi davom ettirishning hojati yo‘qligini aytib, odamlar orasiga o‘zini urdi. Uni pirim deb hisoblaydigan ofitserlar: “Boshqatdan kurashing, ming frank beramiz”, deb va’da qilishsa ham bo‘lmadi, boshini chayqab, kurash maydoniga dorimadi. Uning o‘ylagan quvligi “dunyodan kuragim yerga tegmay o‘tdi”, deyish edi. Bunisiga Dubniy ko‘nmadi.

— Biz maydondan qochgan odamni yengildi, deb hisoblaymiz, Raul yiqildi, — dedi u. Dubniyning so‘zini ma’qullagan tovushlar sirkni yangratib yubordi. Sudya ham ko‘pchilikning fikriga qo‘shildi.

— Ertaga Muqon bilan Hoji Ali kurashadi, — deb e’lon qildi sirk boshqaruvchisi. Odamlar ertangi kun chiptasini sotib olishib tarqalishdi. Muqonning ko‘z oldiga Dubniyning Nikolani qanday yiqitgani ko‘rinib ketdi.

* * *

Har kuni Parijning markaziy bog‘idan aylanib kelish polvonlarga odat bo‘lib qolgandi. Ola to‘n, oq qalpoq kiyib olgan Muqon bir qadoqcha keladigan kumush tangasini qo‘liga olib, bog‘ oralab kelardi. Har kuni u bilan birga yuradigan Dubniy qayergadir vakil bo‘lib ketib, bugun yolg‘iz o‘zi qoldi. Qalin butalar oldidan o‘tayotganda, kutilmagan joydan boshqalariga popukli qizil do‘ppi kiyib olishgan ikki turk chiqib qoldi:

— Salom, tug‘ishgan! — qo‘llarini ko‘ksiga qilib omonlashdi ular. Allanarsalarni o‘ylab asta kelayotgan Muqon ularga qarab:

— Salom, salom! — dedi. Ularning biri — kecha o‘zidan yiqilgan Qora Mustafo, ikkinchisi — olifta kiyingan bir turk edi. Ular kelgan tomonini ko‘rsatib:

— Marhabo, marhabo! — deyishdi. Daraxtlar orasidagi shiypondan bir to‘p turklarning gurunglashgan tovushlari eshitildi.

Muqonni ikki turk qo‘ltig‘idan suyab, shularning oldiga olib kelishdi. U yerda yetti-sakkiz chog‘li turk o‘tirishar, ular orasida orq shoyi sallasiga jig‘a qadab olgan begi ham bor ekan. U chilimga tamaki solib, rezinka naydan dam-badam burqiratib tortardi. Begidan boshqalari o‘rnilaridan turishib, “marhabo” deb so‘rash-

di, o‘zaro arabcha nimalardir deyishib kulishib olishdi. Ularning nima deb, nima qo‘yayotganini Muqon tushunmadi. Bek uning bo‘y-bastiga uzoq tikildi. Bu vaqtda Muqonning bet-og‘zi soppa-sog‘, gavdasi lat yemagan, semiz, chiroyli kezi edi. Yelkalari taxtaday yalpoq, alp gavdali, xuddi arslondek yigit edi. Bek unga aylana qarab:

— Cho‘x go‘zal yigit-a... — dedi yonidagilarga. Bittasi turk tilini tushunsa kerak, deb o‘ylab:

— Sen musulmon-a, qardosh. Turkistoniydur? — dedi Muqonning yelkasiga qoqib. Ularning nima deyayotganiga yaxshi tushunmagan Muqon, o‘ylanib turib:

— Ya ne ponyal, — dedi. Turklar yana o‘zaro arabcha-turkcha qilib gaplashib olishdi. So‘ng o‘yga tolgan bek ruschalab so‘radi:

— Sen turk naslidansan-a, musulmonsan-ku?

— Ha, pusurmonman.

— Senlarning hokimlaring rus-a?

— Ha, hokimimiz rus, bo‘lisimiz qozoq.

— Senlarda machit, madrasa bo‘lmaydi, a?

— Bizning qozoqlarga ularning keragi ham yo‘q.

Ko‘chmanchi xalq bo‘lgandan keyin, nima, ularni tuyaga ortib yuradimi?

— Savdo, savdogarlaring ham yo‘q. Senlarda turg‘un bozor ham yo‘q, shundaymasmi?

— Savdogar degani suvdagi baliqday gap. El bor yerda u ham bor. Biroq qozoqlarning eng yomon ko‘radigan narsasi savdo ishi. Savdo ishi bilan shug‘ullangan kishi aldamchi, yolg‘onchi bo‘ladi. Bizning xalqimiz shunday odamlarni yomon ko‘radi.

— Sen rusni yaxshi ko‘rasanmi yo musulmonni yaxshi ko‘rasanmi?

— Men, kishini aldamaydigan, yolg‘on gapirmaydigan odamni yaxshi ko‘raman.

— Unday bo‘lsa musulmonlar odamni aldamaydi.

— Qaydam... Bizning elimizda payg‘ambar avlodi xo‘ja bo‘libdi, derdi buvim, elning moli o‘g‘irlanib, topilmay ketaverar ekan. Shunda, bir qozoq xo‘janing kechasi tasbehi o‘girganiga quloq solsa, u:

— O'rgilayin tasbeh, sendan,
Gumon qilmas hech kim mendan.
Nafsim mening bo'ldi balo...
Haftada yeyman bir tana,
La ilaha illallo... —

dermish. Shunga o'xshagan pusurmonlar to'lib yotibdi. Uni yolg'on so'zlamaydi, deganiga kim ishonadi. Xo'p, ancha gaplashdik, men endi ketay, — deb Muqon o'rnidan turdi.

— Sen biroz sabr qil, tug'ishgan. Qayoqqa boryapsan?

— Kechqurun kurashga tushishim kerak. Anavi suv sotadigan joydan besh-olti shisha pivo ichib qaytaman.

— Unday bo'lsa u shu yerda bor. Qani, tug'ishganimiz bilan tanishganimiz uchun eng yaxshi sharoblardan quyib yuboringlar, — deb odamlariga qaradi bek.

Salqin hovuz suviga solib qo'yilgan kumush ko'zani olib, kumush kosalarga to'ldirib-to'ldirib qizil vino quyishdi. Muqon turklar bilan cho'qishtirib ikki marta ko'targanda chakkasidan ter chiqib ketdi. Boshidagi qalpog'ini olib yuzini yelpidi. Ishtaha bilan ichayotgan polvonga turklar uch-to'rt kosa ortiq ichirib yuborishdi. Kayfi oshgan Muqon o'lan ayta boshladi:

So'rasang Muqon polvon mening otim,
O'rta yuz, o'zim qipchoq asli zotim.
Asli otam — qora qipchoq Qo'blandi,
Qo'llab turar kurashganda zurriyotin...

— Qanday ajoyib o'lan-a, deyishdi turklar vag'irlashib.

— Tug'ishganlarim, senlar uchun ichaman, — deb u yana ikki kosa ichdi. Ko'zlari suzilib, qo'llari kerilib, bilagining mushaklari o'ynay boshladi.

— Qardosh, qalay, tug'ishganlaring o'rtasida o'tirishganingni unutmaysanmi?

— Hech qachon unutmayman!

— Bugun kim bilan kurashishingni bilasanmi?

— Menga baribir. Cho'ziladigan qo'li, ushlaydigan beli bo'lsa bas, kurashaveraman.

— Sen unday dema, islomni yodingda tut. Bugungi kurashadigan odaming mana bu yigit, — deb bek o‘z yonida o‘tirgan yuzi cho‘zinchoq, o‘roqburun, gavdasi Muqonnikiga bir yarim keladigan Hoji Alini ko‘rsatdi. Bu kofir mamlakatlarining o‘ttiz sakkiz polvonini yiqitdi. Endi ikki polvon qoldi. Ularning bittasi sen. Agar sen Hoji Alini yiqitsang, jahon polvoni degan nomni kofirlar olmoqchi. Bordi-yu, sen yiqilsang, musulmonlarning obro‘si ko‘tarilib, jahon polvoni nomini islom olib, hazrati Alining arvohi rozi bo‘ladi.

— E, gap bu yoqda ekan-ku, — dedi, ko‘zlari qizara boshlagan Muqon.

— Aha. Endi tushundi. Kurashda din uchun yiqilish u yoqda tursin, har bir musulmon shahid bo‘lib jon bermog‘i darkor.

— Xo‘p, nima qil deysan?

— Bugun Hoji Alidan yiqilib, obro‘ni musulmonlarga olib ber. Buning uchun Stambulga borgandan so‘ng alohida mukofot olasan, men aytaman, xalifa o‘z qo‘li bilan beradi.

— Ey, anaviningdan bormi yana! Yana ozgina quyib yubor, — deb sharob quyib o‘tirgan turkka qaradi. Ko‘zani silqitib, kumush kosaga to‘ldirib qo‘yilgan sharobni unga berdi. Muqon boshini quyi solib o‘ylanib o‘tirgancha sharobni shimirdi-yu:

— Xo‘p bo‘ladi, obro‘ni pusurmonga olib beraman, — dedi.

— Allohning rahmati yog‘ilsin senga, dedi bek gul-gul yashnab.

Muqon qalpog‘ini kiymay, qo‘lida mijig‘lab ushlaganicha, xayrlashmay keta boshladi.

— Nega xayrlashmaysan? — dedi Mirza Ahmad polvon kulib.

— Kechqurun sirkda uchrashamiz-ku, ungacha nimasiga xayrlashamiz? — deb yotoqxonasiga jo‘nadi Muqon.

— Ana, bunisi yiqiladigan bo‘ldi. Endi rus polvonni bir amallab yiqitishing kerak, — deb bek xandon otib kuldi.

— Musulmon degan so‘zni to‘g‘ri aytolmaydigan odamning yiqilaman, degan so‘ziga ishonib bo‘lmaydi. Besh kishi ichadigan sharobni bir o‘zi ichdi. Agar shu biroz bo‘shashtirib, bir narsa qilmasa “yiqilaman” deganiga men sira ishonmayman, — dedi turk polvoni og‘ir xo‘rsinib.

— Anqovroq ko'rinadi, ushlashayotganda musulmonligini esiga solish uchun bismilloni eshittirib ayt. Yiqilib berishi ham mumkin. Mayli, nima bo'lsa ham kechqurun ko'ramiz.

* * *

— Arab, fors, Misr, hind, Buyuk Birtaniya, Germaniyaning polvonlarini yiqitgan turk polvoni Hoji Ali rus polvoni Muqon Mungaytpasov bilan fransuzcha kurashadi. Vaqti yigirma daqiqa, — deb e'lon qildi sirk boshqaruvchisi.

Sirk odamga liq to'lgan, yurib bo'lmaydi. Tomoshabinlar chapak chalib zalni yangratib yubordi. Shunda qaysidir bir turk fransuz tilida:

— Ikkalasi ham musulmon polvoni... — deb qichqirdi. Biroq unga hech kim e'tibor bermadi. Muqon ustidagi ola to'pini yechib tashlab, tuki yo'q arslonga o'xshab bir-bir bosib tepaday bo'lib turgan turk polvonining ro'parasiga borib turdi. Turk polvoni kichkina polvonni mensimaganday, yo'g'onligi filning oyog'iday keladigan bilagi bilan uning yelkasiga bir urdi. Bu urishiga ilgari boshqa polvonlar yuz tuban qulab tushardi. Bu zarb Muqonga ham yengil tegmadi, engashinqirab borib o'zini o'nglab oldi. Birinchi urishda qulata olmagan turk, jahli chiqib yana hamla qilganda hushtak chalib, sudya yo'lini to'sib qoldi. Fransuzcha kurashning qoidasi bo'yicha dastlabki urganda yiqita olmasa navbati o'tgan hisoblanardi.

Muqonning jahli chiqib ketdi. U, bu qadar og'ir zarbani birinchi marta yeyishi edi. Ularga tikilib turgan minglarcha juft ko'zlar go'yo: "Mana, bu rus polvoni yiqilib qolayozdi", deyayotgandek bo'ldi. Parijga kelgan kunlarining ertasiga Stepan Nikolayevich:

"Vatan obro'si — butun Rossiya xalqlarining obro'si. Rossiyaning iti talashsa ham yengib chiqqanini ma'qul ko'ramiz", degan edi. O'sha Stepan Nikolayevich sirkning bir joyida Muqonning yengib chiqishini istab o'tirganday tuyulib ketdi. Buvisi Oysara: "Nom chiqarmoqchi bo'lgan odam avvalo o'z nomusini himoya qiladi. O'z nomusini himoya qilgan odam, ovul obro'sini saqlay

oladi", derdi. Muqonning yiqilganini eshitsa buvisi nima deydi? Muqonga oq sochli vazmin buvisi Stepan Nikolayevich bilan birga sirkda o'tirganday bo'ldi. G'azabi toshib, tishini g'ijirlatdi. O'rtada turgan sudyani yelkasi bilan bir turtib, fil bo'yinli turk polvoniga chap berdi. U bo'yniga yopishgan po'lat qo'lning yashinmi yo elektr tokimi ekanligini sezmay qoldi, tog' qulasa ham parvo qilmaydigan zo'r gavdasi koptokday uchib ketganini sezmay ham qoldi. Muqon uni ko'tarib, boshidan oshirib otib yubordi. Keyin chaqqonlik bilan bo'riga chang solgan burgutday bosdi. Turk polvoni yoydek egilib, oyoqlarini tiklolmay, qaddini rostlay olmay qoldi. Engashib uning kuragini ko'rgan sudya hushtagini chalib, soatiga qaradi:

— To'rt daqiqa ichida turk polvoni Hoji Alini rus polvoni Muqon Mungaytpasov yiqitdi, -- dedi.

— Ko'ppak o'g'li, musulmonchilik oring, va'dang qani? — dedi ikki qo'lini tirab o'rnidan zo'rg'a turayotgan Hoji Ali.

— Yiqilib pusurmon bo'lganimdan ko'ra, yiqitib polvon bo'lganim yaxshi, — dedi hali jahlidan tushmagan Muqon, qovog'ini solib.

"Men umrimda yiqilishni xayolimga keltirgan emasman. Bog'da, turklardan ayrilgandan so'ng, yotoqxonaga kelguncha turli xayollarga bordim: yoshi, gavdasi menga qaraganda ikki hissa katta polvonning o'z kuchiga ishonmay, menga yalinganday bo'lib, o'z sheriklari orqali arz-u holini ayttirganiga sal ayagim ham keldi. Biroq ko'nglida bor gapni ochiq aytmay, tushunmaydigan so'zlar aytganiga jahlim chiqdi. Rostini aytsam, yotoqxonaga borganimdan keyin, shuni bugun yiqitmay qo'ya qolsam nima qiladi? — degan fikrga ham bordim. Biroq uning kurashda o'zini tutishi meni bu fikrdan qaytardi.

Ivan tog'a: "O'z raqibini o'ldirmoqchi bo'lgan polvonlar birdaniga mana shunday hamla qiladi", degan edi. Uning yiqilganda o'rnidan turolmay "ko'ppak o'g'li" degan so'ziga ko'p yil o'tgandan so'ng tushundim. Bunisi "itning bolasi" degani ekan. Eshitgan zahoti tushunganimda uni sirkdan omon chiqarmas edim", degan edi polvon.

* * *

Ertasi kuni kurashga Poddubniy[1] bilan Hoji Ali tushishi kerak edi. Birinchi kurashda ancha yurak oldirib, bo'shashib qolgan Hoji Ali o'n to'rt daqiqada yiqildi. Poddubniy qirqta polvonni yiqitib birinchi bo'ldi. U endi jahon chempioni nomini olish uchun o'zining do'sti, tarbiyalab o'stirgan shogirdi Muqon bilan kurashishi kerak edi.

Muqon, avvalo, nemis polvoni Ans bilan kurashga tushishi kerak edi. U Poddubniydan yiqilgandan keyin har kuni "og'riydigan" bo'lib qoldi. Ilgari tez-tez ko'rinib turadigan polvon endi siyrak kelar, kelsa har bir chetda, ko'rinmas joyda o'tirar edi. Biroq uch kun ilgari nomi yozilib, rasmi solingan afishalar ko'chaga osilib tashlangan edi. Bu afishalarni ko'rgan odamlar uni kurashmaganiga qo'ymadi. Har kuni so'rab, unga tinchlik bermadi. U rus polvonining kuchiga chidash berolmadi, yiqildi.

G'olib chiqqan ikki polvonni o'rtaga chiqarib komissiya raisi (fransuz):

— Jahon birinchiligi uchun bo'lgan kurashning birinchi o'rnini ham, ikkinchi o'rnini ham, rus polvonlari oldi. Bular mana shu qarshilaringda turgan polvonlar. Beriladigan mukofotimiz mana bu, — deb u bitta katta, bitta kichkina oltin medalni kaftiga solib ko'rsatti, — bu medalni qanday qilib olsa shunday qilib olishadi, baribir shularniki. Komissiya safiga kirgan o'n uch davlat vakili kurashlarni muttasil kuzatib turishdi. Qo'yilgan shartlar benuqson bajarildi. Hech qanday hiyla-nayrang, aldash degan gaplar bo'lgani yo'q, — dedi. Sirkni yana gulduros olqishlar yangratdi.

Ikki bolaning yoqalashayotganini ko'rsa, ishidan qolib tomosha qilish ingliz hukmron doiralarining azaldan odati emasmi? Ularning vakillariga bu ikki rus polvonining kurashganini ko'rish qiziq tuyuldi. Agar qora tanli odamni oq tanli odam yengsa: "Bu oq tanlining alohida ustunligi hisoblanadi. Bordi-yu, oq tanlini qora tanli yiqitsa, unda ayiq odamni yiqitganday gap", deb tushunadigan odamlar, shu kurashni tomosha qilgisi kelib qoldi.

---

[1] Yuqorida uni Hojimuqonning tili bilan Dubniy deb atagan edik.

— Jahon chempioni medalini kim olganligini o'z ko'zimiz bilan ko'rmoqchimiz. Kurashsin, deyishdi ular.

— Janoblar, bir oilaga tekkan mukofotni bo'lib beraman deyish haddan tashqari o'jarlik emasmi ? — dedi Stepan Nikolayevich.

— Sharqlik odamni biz hech qachon Rossiya oilasining a'zosi deb hisoblamaymiz, — dedi birov.

— Albatta, dunyoni faqat siyosatgina bo'ladi, bo'lmasa odam odamdan bo'lingisi kelmaydi. Ana, kurashaman desa o'zlari biladi. Biroq birinchi o'rin bilan ikkinchi o'rin Rossiyaniki ekanligi akt bilan mustahkamlandi, — dedi Stepan Nikolayevich. Ikki polvonning kurashishini iltimos qilib uch-to'rt kishi chapak chaldi, ko'pchilik buni rus polvonlarining umum g'alabasini tabriklagan olqishga aylantirib yubordi. Shunda Muqon:

— O'z og'asi bilan odobsiz ukagina talashadi. Birinchi o'rin mana bu kishiniki, — deb Poddubniyni yelkasiga mindirib kiyinadigan xonaga olib kirib ketdi. U Parijda kichik oltin medal bilan birga har bir mamlakatning bosh polvonini yiqitganda beriladigan sakkiz medalni qo'shib taqib qaytdi.

U shundan sakkiz yil keyin Shveysariyaga borib jahon chempioni nomini olib, katta oltin medal bilan mukofotlandi.

Ko'tarib urar guppinskiy

Uyquga ketgan Muqon, cho'chib uyg'onib, iyagini ikki kaftining o'rtasiga olganicha, biroz xayolga cho'mdi. O'tgan-ketgan gaplar xayolidan bir-bir o'ta boshladi. Ovulini, bolalik chog'larini esladi. Esil daryosining so'lim bo'ylari, dalalari, qirlari, soylari, ba'zan ovul oralab kengayib, ba'zan torayib oqadigan o'zanlar ko'z oldiga keldi. Yalangliklardagi yaylovlarga ko'chib, nochorroq oilalar esa ovul atrofida qolganday... Yoshligidayoq alpang-talpang bosib zo'rg'a yuradigan Muqon qo'llarini orqasiga qilib, sevikli buvisining ketidan asta ergashib borayotganday edi nazarida. Muqon buvisi nima qilsa shunga taqlid qilar, qo'lini katta kishilarday orqasiga qilib keyin qolar, oldinga o'tib ketgan buvisi uni tez-tez chaqirar edi.

— Joybosarim-ov, yursang-chi tezroq. Kun qizimay uyga yetib olaylik-da, qulunim... Qariganimda ermagim, yetim qo'zim... Yur tezroq — der edi u. Muqon xuddi epaqasiz bola yasagan qorboboday, oyog'ini sudrab bosib, shoshilmay asta yetib olardi. Buvisi uni biroz joygacha opichib borardi-da, "uh" deb o'tirib qolar edi. Endi o'zing yur, qarog'im. Mani, uyga ham yetay deb qoldik. Qorning ham ochib qolgandir, mana bu qurutni og'zingga solib ol.

U shunday deb kamzulining cho'ntagidan qurut olib, uning qo'liga tutqazar edi. Shular esiga tushib, go'yo hozir qurut so'rayotganday og'zi suv ochib ketdi. U o'rnidan turib yon-veriga qaradi. Haligi o'ylaganlari xayol bo'lib chiqdi. Hozirgina qurut bergan buvisi Oysaraning yoqimli tovushi qulog'ining tagida jaranglab ketganday bo'ldi. Polvon buvisiga erkalanganday karavotiga cho'zildi. Ro'parasidagi oynaga qarab, soqoli o'sganini ko'rdi.

— Qo'y, endi uyga qaytmasam bo'lmas... Esilning totli suvidan bir chelak qonib ichmagunimcha, mehrim qonmaydiganga o'xshaydi, — dedi-da, soqolini olib, sirk boshlig'ining oldiga jo'nadi. Undan uzoq muddatga ruxsat oldi.

Shunday qilib u tug'ilib o'sgan yurtiga qaytdi.

Muqon kuzda kelgan edi, qor tushguncha qayta olmadi. Boqirov yarmarkasidan kelgan odamlar shaharga ko'chma sirk kelganini, unda bir to'p polvonlar kurash tushayotganini, ular orasida ikki-uch ulkan polvon bor ekanini hayrat bilan gapirishardi.

Sirkdagilar Nurmag'ambet polvonni kurashga taklif qilib, ovuliga xabar yuborishgan ekan, topisholmabdi. Olatovdagi tog'alarning oldiga ketib qolgan ekan. Polvonni bir ko'rishga orzumand ekanlar-u, tog'alarning oldiga ketib qolganini eshitib afsus qilishibdi.

— Unday bo'lsa, nega oqpodshoning polvoni Muqonni chaqirishmaydi. Ikki buklab yerga ko'tarib urar edi, — dedi yugan, qo'yishqon yasaydigan usta.

— Qo'y-e, bular Muqon bilan bel ushlasha olarmidi, anchayin mayda-chuyda polvonlar bo'lsa kerak-da.

— Mayda-chuydasi nimasi! Oralarida Muqonga ikki baravar keladiganlari ham bor deyishyapti-ku. Axir shuncha gavdani bekorga ko'tarib yurishmagandir? Bir nimasi bordir.

— Muqonga bu gapni aytmanglar. Ular bilan kurash tushishga qo'rqadi, — dedi Muqon bilan birga tepkilashib o'sgan yigitlardan biri hazillashib.

— Bizning polvonimiz yonida oqpodsho turmasa kurash tusholmaydi. U shoxli polvonlar bilan kurash tushayotganda, podsho ularga: "Yiqilib bermasalaring, boshlaringni olaman!" deb do'q qiladi, shekilli...

— Hoy, qo'y, naq qulog'ingni yulib qo'lingga beraman-a!

— Ana aytmadimmi, faqat menga yetadi kuchi... Cho'ntagimdagi sichqonni qo'yib yuboraymi? Ishonmaysanmi? Mana, o'zing qo'lingni tiqib qarayqol, chiyillab turibdi, — deb cho'ntagini Muqon tomonga yaqinlashtirdi haligi jo'rasi.

— E, qo'y shunaqa gapingni, nima keragi bor sichqonni gapirib!

— Unday bo'lsa, meni shaharga birga olib borib polvonlarni yiqitib, pulini olib berasan. Agar shunday qilmasang, bugun xirmonga boraman-da, bir xalta sichqon olib kelib, yotadigan yeringga qo'yib yuboraman. Mening aytganimni qilmasang, men ham so'zimdan qaytmayman. Sichqonlarning o'rtasida yotasan...

— Qo'y endi, sichqoning qursin!

— Nega qo'yar ekanman, hoy xotin, menga otto'rvani olib chiqib bergin. Xirmonga borib sichqon olib kelay. Men buni medallarini shaldiratib ovulda yurgizib bo'pman. Borib kurash tushsin. Menga choychaqa kerak. Anavi polvonlarni yiqitib, pul ishlab bersin. Bo'lmasa yotadigan joyini sichqonga to'ldirib yuboraman...

— Qo'y. Petrogradga ketib qolmasin tag'in?

— Nima meni Petrogradga borolmaydi deb o'ylaysanmi? Uyoqqa ham bir xalta sichqon olib borib, yotgan joyiga qo'yib yuborarman.

Davrada o'tirgan qariyalar tengqurlarning hazil-mutoyibalaridan maza qilib kulishdi. Ba'zi qariyalar:

— Qarog'im Muqon, hazil-mutoyiba o'z yo'li bilan, sening ta'rifingni ko'p marta eshitdig-u, lekin haliga qadar kuching borligini o'z ko'zimiz bilan ko'rganimiz yo'q. O'sha shahardagi polvonlar bilan bir kurash tushib ko'rsatsang. Hammamiz borol-

masak ham o'rtamizdan vakil saylab yuborarmiz. Ular ko'rib kelib bizlarga aytib berar, axir. O'z ko'zimiz bilan ko'rganimiz tuzuk, el orasida faxr bilan aytib yuramiz. Bunday tomosha kunda-kunda bo'lavermaydi. Qilichini sudrab qish ham kelib qoldi. Mana shunday paytda tomosha ko'rib qolmasak, qantarga borib kunimiz bo'ron bilan olishib o'tadi, — deyishdi.

— Hujjatlarimni tekshirib ko'rishsa, ular kurashga tushmaydi-da.

— Unday bo'lsa, hujjatlaringni ko'rsatma. O'zingni Muqon Mungaytpasov deb tanishtirmay, anchayin, ovul odami bo'lib borib kurash tushaqol.

— Fransuzcha kurashni qayoqdan o'rganding, deyishsa nima deyman?

— Bizga qozoqcha kurashga tushiboq yiqitib ber-chi. Shuni ko'rsak ham bo'ladi.

— Bu boshqa gap. Unday bo'lsa menga etik bilan qalin guppi-chopon topib beringlar. Mana bu kiyimlarimni ko'rishsa, shubhalanishadi. Hamma narsa topildi. Qo'shni ovuldan o'n chog'li kishi Muqonni olib shaharga tushib ketdi.

* * *

Tomosha ko'rsatish uchun kelgan sirk butun qish bo'yi shu yerda qoldi. Xalq kurashni juda qiziqib tomosha qiladi. So'nggi paytlarda, har kuni bir-biriga o'xshash nomerlar qaytarilavergach, odamlar kamroq keladigan bo'lib qolishdi. Sirk ma'muriyatiga: "Qozoqcha kurash ko'rsatishlaringizni so'raymiz", degan iltimoslar tushdi. Shundan so'ng sirk rahbarlari bu iltimosni bajo keltirish uchun Cho'loq polvonni qidirishibdi, u qayoqqadir, uzoq qarindoshinikiga ketib qolib, topisholmabdi. Nihoyat, tomoshabinlarning istaklari ham bajariladigan kun keldi.

Hojimuqonlar bir tanishlarinikiga otulovlarini boylashib, qamchi va chiviqlarini bellariga qistirishgan ko'yi sirk kassasidan chipta olishib, ichkariga kirishdi.

Shu yerda aylanishib yurgan odamlar:

— Hov anavi qalin guppi kiyib olgan odam polvon emish. Sirkdagi polvonlar bilan kurash tushadigan ko'rinadi. Ular bilan

gaplashmoqchimish... Yuringlar, bizlar ham ko'ramiz, nima deb gaplashisharkan, — deb sirkka oqib kela boshlashdi.

Ba'zilar esa:

— Ovuldan kelgan polvon fransuzcha kurashni bilarmidi, Muqonga o'xshagan. O'qigan polvonlar bo'lmasa, — deyishdi.

— Rost, Muqon nega kelmaydi?

— Oqpodsho ruxsat bermaydi-da. Bo'lmasa, besh-olti yil ilgari duch kelgan bir tatar kishiga: "Ovulimni sog'indim, qaytaman", degan ekan. Hali daragi yo'q. Kelganda ham bular bilan kurash tushmasa kerak.

— Nima, bular Muqondan kammi, anavi Botumskiy degani uncha-muncha devdan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas.

— Qo'y-e, gavdasi bo'lmasa, ichi bo'sh ko'rinadi. Demoqchimanki, alpang-talpang qilib yurgan bilan hech evi yo'q.

Odamlar shu taxlit gaplar bilan tomoshaning dastlabki nomerlarini o'tkazishdi. Endi gal kurashga keldi, o'rtaga chiqadigan polvonning nomi aytildi.

— Nega bizga qozoqcha kurash ko'rsatmaysizlar? Agar sizlarga pul kerak bo'lsa, qozoqcha kurash ko'rsatinglar. Ana shunda butun qozoqlar bola-chaqasi bilan ko'chib kelishadi sirkka. Pul ham ko'p tushadi.

— Bu iltimoslaringizni jon deb bajarar edik, lekin Nurmag'ambet polvonni qidirib topolmadik.

— Nurmag'ambet bo'lmasa, boshqasi bo'lar. El emasmi, mana, Imonjusip bor, Murodbek bor. Qaribroq qolgan bo'lsa ham, Erjon polvon bor. Nima qilaylikki, Muqonimizni Petrogradga oldirib, oqpodsho yubormayapti. O'sha polvonlarimizning boshi qo'shilsa, o'zimiz ham bir sirk tashkil qilardik!

Muqonning yonida o'tirgan jo'ralaridan biri: "Mana u..." deb gap boshlagan edi, polvon: "Jim o'tir!" — deb uning sonini qattiq chimchiladi.

— Ovozingni chiqarsang, son go'shtingni yulib olib, shimingga o'rab, qo'lingga tutqazaman!

— Ho', o'rtoq sirk boshlig'i, birpas mana bu yerga kelib o'tirchi, senga aytadigan gapimiz bor, — dedi Muqonning tog'asi Qali

chol. "Bu chol nima derkin?" deganday sirk boshlig'i uning oldiga kelib o'tirdi.

— Og'ayni, sen mana bu guppi kiyib olgan qozoqqa bir qara. Bu mening bolam bo'ladi. Ovulda yurib mol boqishdan boshqani bilmaydi. O'ziga yarasha kuchi ham bor. Agarda oldi-berdisini sen bilan kelishib olsak, bu bola sening hamma polvoning bilan qozoqcha kurash tushadi. Bordi-yu, yiqilsa, sen bizga sariq chaqa ham berma, agar kerak desang minib kelgan tuyamni ham senga tashlab ketaman.

Haligi chol muguzdan qilingan nosvoy shishasi bilan nariroqda o'tirgan Muqonni ko'rsatdi. Sirk boshlig'i unga boshdan oyoq bir qarab chiqdi, qalin guppisining oldingi tugmalarini ochib tashlab, chalqayib o'tirgan Muqonga birpasda razm soldi. Ust-boshiga qarab ovul odamidan farqi yo'qligini sezdi. Ammo uning shaharda yashovchi odamlarnikiga o'xshatib qo'yilgan soqol-mo'ylovini ko'rib sal shubha qildi. Buning ustiga sirkka kelgan odamlar, sirk boshlig'iga hushomad qilishar edi. Bu bo'lsa hech narsani pisand qilmay, kekkayib o'tiribdi. Sal takabburroq ko'rinadi. Sirk boshlig'i polvonning qo'ltig'iga qo'l solib ko'rmoqchi bo'lib:

— Sen ruschani bilasanmi? — deb so'radi.

Muqon esa:

— Nima deydi? Sen tushunyapsanmi? — deb yonida o'tirgan odamga hayron bo'lib qaradi.

— U o'rischani bilmaydi, — deyishdi yonida o'tirganlar.

Sirk rahbari gumon aralash piching bilan kuldi. Xullas, tomoshabinga, ayniqsa pulga muhtoj sirk boshlig'i qozoq polvoni bilan murosa qildi, qozoqcha kurashni tushunadigan odamlar ishtirokida komissiya tuzish lozim ekanligini aytdi. Mehnat haqiga kelganda esa sirk boshlig'i kutilmagan darajada "saxiylik" qildi:

— Qozoqcha kurash tushib, sendan yiqilgan har polvon boshiga besh so'mdan haq to'layman, yiqita olmasang uch so'mdan... bordi-yu, yiqilib qolsang, mana bu otang aytganday mendan sariq chaqa olaman, deb o'ylama, — dedi u. Tilmoch bu gaplarni Muqonga tushuntirdi. U bu taklifga ko'nmadi.

— Bu yerda o'n ikki polvon bor ekan. Ular bilan tugal kurash tushaman, — dedi ovul polvoni, — bordi-yu yiqitsam, har biriga

yigirma besh so‘mdan to‘la. Tag‘in, bugungiday, har kuni bitta polvon bilan kurashtirib vaqt cho‘zish bo‘lmasin. Men hammasi bilan bir kunda kurashaman.

— Yo‘-o‘q, bu bo‘lmaydi, — sirk boshlig‘i cho‘chib tushdi. Sirkimizning bir kunlik foydasi yigirma besh so‘mdan ortmaydi. Uni senga berib qo‘yib, hammamiz och o‘tirolmaymiz. Birinchi gruppadagi to‘rt polvonimiz oyiga yigirma besh so‘mdan oladi. Shunaqa, do‘stim, sen pul topishni oson deb o‘ylama!

— Men oltmish so‘m uchun bu yerda o‘n ikki kun laqillab yura olmayman. Bundan ko‘ra, o‘n ikki qo‘yimni qishdan eson-omon olib chiqsam, oltmish so‘mlik qo‘zi tug‘ib beradi. Polvonlaringning aft-angorini ko‘rdim, yo‘q desang, ertaga ovulga qaytaman.

Ovuldan kelgan polvonning sirk boshlig‘i bilan gaplashayotganini ko‘rib, ancha tomoshabin to‘planib qolgan, hatto, sirk polvonlari ham uning atrofini o‘rab olishgan edi.

— Bizni ko‘rib qo‘rqib, ataylab gapni cho‘zyapti. Bunga yo‘l bo‘lsin! O‘zi, hatto qozoqcha kurashni ham bilmaydigan, ro‘dapoga o‘xshaydi. Zo‘r polvon bo‘lsa qozoqlar tanir edi-ku. Buni hech kim bilmaydi... — deyishdi o‘zaro.

“Shoshmay turlaring hali. Men senlarga ko‘rsatib qo‘yaman kimligimni!” — dedi ichida Muqon.

Uning qozoqcha gaplarini sirk boshlig‘iga bazo‘r tushuntirib o‘tirgan tilmoch haligilarning gaplarini sal bildirganday bo‘lgan edi, Muqon to‘ng‘illab berdi.

Shunda haligi sirk polvonlari shubhaga borishdi:

— Bu ruschani biladi shekilli, “ko‘rsatib qo‘yaman!” deyapti-ku, — deb ovuldan kelganlarga qarashdi. Muqonning tog‘asi tezda javob qildi:

— Yo‘q, chirog‘im, shunchaki aytgan gapidir-da, o‘ris tilini bilmaydi, bilsa o‘zi so‘zlashmasmidi? — dedi.

— Qaydam... — deb tilmoch ham shubhalanib qoldi. Bu payt Muqon ichida: “Ko‘pchilikning oldida bu bechoralarni so‘ygan uloqday uloqtirib tashlasam, obro‘si tushib yurmasin tag‘in”, deb o‘ylar edi. Shu boisdan kurash haqini bahona qilib, kurash tushmay ketgisi ham bor edi-yu, haligi polvonlarning “qo‘rqyapti”, deganini eshitganidan so‘ng: “Bularni bir martadan emas, ikki mar-

tadan yiqitib sharmanda qilmasammi!.." — deb, kurash tushishga bel bog'ladi.

— Hoy, agar sirkning bir kunlik foydasi yigirma besh so'm bo'lsa, men sendan bir tiyin ham haq olmaganim bo'lsin. Hatto, yuz so'm topsang ham sariq chaqa so'ramay qo'ya qolay. Mana bu odamlar, men kurash tushaman, deganim uchun kelishgan. Mabodo kurash tushadigan bo'lsam, odamlar bundan ham ko'p keladi, men bunga aminman. Menga, bir kunda kassaga tushgan pulning yuz so'midan ortig'ining yarmini bersang ham bo'ladi. Xiyonat bo'lmasin. Kassani tekshirib turish uchun komissiya tuzilsin. Bordi-yu, men o'sha o'n ikki polvonning aqalli bittasidan yiqilsam, ovuldan minib kelgan sakkiz ot, to'rtta tuyamiz bor, shularni ham berib ketaman, — dedi Muqon.

— Mana bu Joybosar hammamizni ovulga yayov haydaydigan bo'ldi-yov, — dedi jo'ralaridan biri.

— Tovushingni chiqarma, omon bo'lsak, tuyalarga aqcha yuklab ketasan!

Polvonlardan biri: "Yiqilsam, minib kelgan ot-ulovimiz tugal seniki", degan gapni chalaroq tushundi shekilli, o'rnidan uchib turib: "Bittasi meniki!" — deb kaftiga tuflab qo'ydi. Ularning fikricha, buning hammasi qiziq ustida aytilayotgan, anchayin, bekorchi gaplardek edi. Tomoshabinlardan kassaga yuz so'mdan ortiq pul tushmaydi, deb o'ylashdi ular. Ovul polvoni aytganidek, shartnoma tuzildi. Kassani tekshirib, kundalik tushgan foydani halol aytib turishni tilmoch yigit o'z bo'yniga oldi. Sirk boshlig'i ertagayoq shu mazmunda buyruq chiqaradigan bo'ldi. Muqon boshliqning sal vaqtini cho'zaman, degan taklifga ham talashmadi.

— Tomosha endi boshlanadi. Ertaga qozoqcha kurash tomosha qilamiz. Nurmag'ambet bo'lganida-ku yutishi turgan gap edi. Buni kim biladi, hali yosh. Hali Nurmag'ambetday chiniqqan emas. Ismini nima dedi?

— Joybosar dedi-ku, hali yonida o'tirgan yigit.

— U jo'rasiga o'xshaydi, hazil qilgandir. Shartnomada nima deb yozdi ekan-a? Saidmurod, sen oldida o'tirgan eding-ku, nima dedi, eshitdingmi?

— Menimcha, shartnomaga yozilgan ham o'zining nomi emas. Juda g'alati bo'ldi. U, avvalo: "Men bilan kurash tushadigan polvonlarning ism-shariflarini yoz", — dedi. Sirk boshlig'i: "Petro Sibirskiy, Mixail Shatinskiy, Zamuk Batumskiy, Ivan Oralskiy..." deb yozdi. So'ng: "O'z ism-sharifingni ayt", dedi. Shunda u tilmochga qarab: "Bularning ism-shariflari bir xilda tugalar ekan, meni ham Ko'tarib urar Guppinskiy deb yozib qo'yaqol", — dedi. U ham shartnomaga shunday deb yozib qo'ya qoldi. Ularga pul tushsa bo'ldi-da. Bu qozoq bizlarni yiqitib ketadi, degan gap ularning xayolida yo'q edi.

— Eh, ettang, mana shunday paytda Muqon bo'larmidi? Nomini eshittirib xursand qilguncha diydorini bir ko'rsatsa bo'lmasmidi-ya...

* * *

Ertasi kuni sirk afishalari yopishtiriladigan taxta katta surat osildi. Unda, sirkning o'n ikki nafar polvoni qarshisida, tulki tumog'ining chap tomonini ichiga qayirib olgan, etikli, egnida qalin guppisi bor qozoq turar edi. U belini yo'g'on arqon bilan bog'lab olib, bilaklarini shimirgan holda: "Qani, mard bo'lsang yaqinlashib ko'r!" deganday yulqinib turar, surati tagiga: "Bu — ovul polvoni Ko'tarib urar Guppinskiy", deb yozib qo'yilgan edi. Bugun qozoqcha kurash bo'ladi, degan habar shaharga, ovulga o'sha kuniyoq yoyilib ketgan edi. Sirkning hamma chiptalari tushgacha qolmay sotilib bo'ldi. O'z narxi bu yoqda tursin, chiptalar ikki baravar qimmatlashib ketdi. Tushga yaqin sirk boshlig'ining stoli ustini shaharning obro'li kishilaridan: "Bizga ham chiptadan qoldiring!" degan mazmundagi xatlar bosib ketdi. Mavjud o'rinlar ustiga qo'shimcha joylar hozirlanib, sirk xodimlari stol tashib ancha ovora bo'lishdi. Oqshomda, tomoshalar boshlanishi oldida, odamlar odatdagi mayda-chuyda o'yinlarni ko'rgisi kelmay qarsak chalishib:

— Polvonlar chiqishsin! Bizga ovuldan kelgan Ko'tarib urarni ko'rsatinglar! — deb chug'urlashdi.

Xullas, navbat polvonlarga yetdi.

Sirk xodimlarining kunduzgi o'zaro yig'ilishida boshliq:

— Xudo iltimosimizni inobatga oldi. Men sirk boshlig'i bo'lganimdan beri munchalik tomoshabin to'planganini ko'rgan emasman. Bundan keyin ham tomoshabinlar mana shunday kelib tursa, ovul polvonini butun qish ichi olib qolar edim. Nachora, xalq uning yo yiqitgani, yo esa yiqilganini ko'rishga mushtoq. Endigi gap shuki, dastlabki yetti polvon bilan bo'ladigan kurashni sal cho'zishga harakat qilaylik. Qozoq kurashida chalib yiqitish mumkin. Biroq ovul polvoni bunday qilmaslikka va'da berdi. Aksincha, rus kurashida yota solib otish usuli bor, shuni ishlatmasliklaringni o'tindi. Faqat kuchlaring ko'p bo'lsa ko'tarib olib, so'ng yiqitinglar. Kuchimiz bor, deb ko'targan zahoti yiqitib o'tirmay, vaqtni biroz cho'zishni ham o'ylanglar. Vaqt qanchalik cho'zilsa, shunchalik pul ko'payishi yodlaringdan chiqmasin. Fikrimcha agar bu polvon ovuldan kelmaganida, ular shahar sport maktabida ta'lim olgan talabalardan biri, der edim. Tag'in ruschani bilmas ekan, deb og'izlaringga kelganini gapiravermanglar. Rus tilini bilsa ehtimol. Sababki, ruslarning o'zi zo'rg'a tushunadigan sport terminlarini aytganimda, tilmoch tarjima qilishga qiynaldi-yu, u bo'lsa, tushundim, deb qo'lini siltab qo'ydi. Har holda anoyi emas ko'rinadi. Ehtiyot bo'lish kerak. Tag'in bu oddiy qozoq bo'lmay, Poddubniyning sherigi Qora Ivan bo'lib yurmasin. Uni shu yerdan chiqqan, deb eshitganman.

— Qora Ivan!? — deb hayron bo'lishdi polvonlar.

— Qo'y-e, u chet elga ketgan polvonlar orasida edi-ku. Men Moskvada gazetada o'qiganman. U qozoq emas...

— Uni men taniyman, — dedi Dmitriy Tomskiy.

— Men ham yaxshi taniyman, — dedi Chorniy Zamuk Batumskiy.

— Ha, aytganday, Zamuk, sen Ivan bilan kurashdim, deb yurar eding. Shu Qora Ivan emasmidi? Sariq Ivandan farqi qalay?

— Ular sariq, qora bo'lgani bilan kuchi shaytonning bolasinikiday... — deb to'ng'illadi u yoqtirmay. Chunki u Muqondan ikki marta yiqilgan edi.

— Dmitriy, sen uni qayerda uchratgan eding? Kurash tushganmiding?

— Kurashganim yo‘g‘-u, bizlar maktabni tugatib chiqqanimizda, ular Xarkovda kurash tushib yurishgan ekan. Bizlarni sinab ko‘rish, malaka oshirish uchun shularning ixtiyoriga yuborishganda, meni Qora Ivan otaliqqa olgan. U qayoqda! Qaddi-qomatini ko‘rsang havasing kelardi... Mana bu uning tirnog‘iga ham arzimaydi.

— Mayli, u bo‘lmasa yana yaxshi. Bilishimcha, bu qozoq ichib bo‘lib uloqtirib tashlaydigan pivoning shishasi emas, har holda ehtiyot bo‘lganlaring yaxshi, — dedi sirk boshlig‘i.

— Faqat Qora Ivan bo‘lib, g‘aflatda qolmasak bo‘lgani. Yiqish-yiqilish o‘zimizning ixtiyorimizda-ku, — deb ba’zi polvonlar shubha qilishdi.

Sirkdagilar, avvalo, ikki polvonni hozirladilar. Boyagi: “Ikki otning biri meniki”, deb kaftiga tupurgan, ixcham gavdali Mitya Amurskiy sahnaga chiqdi. Muqon o‘rnidan turdi. Sirtqi kiyimlarini yechib, uyidan hozirlab kelgan jun chakmonini kiyib, barini qayirib beliga bog‘ladi, etigini yechib, mahsi kiydi-da, davraga tushdi. U o‘zini sahnada notanish qilib ko‘rsatgisi kelsa ham, baribir bo‘lmadi, maktabda o‘rgangan yurishini qilib o‘rtaga chiqdi. Uning bu yurishini qarsaklar, qiy-chuvlar sadosi ostida payqamay qolishdi.

U bir chekkada stol qo‘yib o‘tirgan komissiya a’zolarining oldiga borib o‘tirmadi, to‘g‘ri polvonning oldiga keldi.

— Joybosar ilgarigidan ildamroq yuradigan bo‘lib qolganmi? Juda ixcham bo‘lib ketibdi, yiqitadi shekilli, — dedi birga kelgan jo‘rasi.

U polvonning oldiga kelganda qo‘llarini cho‘zib, gavdasini g‘oz tikdi. Mushak go‘shtlari chakmoni sirtidan tiqmachoqday bo‘lib bo‘rtib ketdi.

— Ana, ko‘rdingmi, mushaklari temirday tortishib ketdi, ovuldan kelgan oddiy odam emas bu! — dedi sirk polvoni yonida turgan boshliq.

Kurash vaqti qirq daqiqa, uslubi qozoqcha ekanligi haqida tomoshabinga e’lon qilindi.

— Hoy, tilmoch, men qozoqcha kurash tartibini aytaman, sen yaxshilab mana bunga tushuntir. Aytganimni buzsa, mendan

o'pkalamasin. Sen shoshmay tur, polvon! Qo'lingni yugurtiraverma, belimdan ushla. Oldin qo'lingni menga ber, Muqon uning ikki qo'lini siqib ushladi-da, o'zining belbog'iga olib bordi.

— Mahkam ushla! — u shunday dedi-da o'zi ham uning belbog'idan tutib, bir tortdi-yu, yana bo'shatdi.

— Belbog'ing bo'sh. Mana, menikiday qilib qattiq bog'la. Ushlaganda belbog'ing bo'sh bo'lsa belingni qiyib yuboradi. Tag'in nontopar belingdan ayrilib qolma, bu bel ertaga ham kerak bo'ladi senga. Tushundingmi? Yaxshilab tushuntir tilmoch. Qanaqa gapirasan o'zing yo o'rischani bilmaysanmi? — deb tilmochni ham bir chaqib oldi.

Kurashsiz o'tgan kunlarini kun qatoriga qo'shmaydigan Muqon ovulda ikki-uch oy yurib zerikib qolgani uchunmi, sirkka kirib yechinganda, qayta suvga tushgan baliqday sergaklanib ketdi. Ro'parasida turgan polvonga qozoqcha kurash usulini xuddi o'zining ustozlari — Ivan tog'a, Poddubniydek o'rgatar edi. Sirk polvoni Muqonning qo'li tekkan sayin qitig'i kelib, tinkasi qurib bo'ldi, bor umidi puchga chiqdi. Negadir uning esiga nuqul Qora Ivan tushar edi.

Muqon qozoqcha kurash hadisini o'rgataman deb, goh oldinga itarib, goh orqaga chekintirib, goh bilaklarini qisib, biqiniga nuqib yurganidayoq bechora polvonning holi qolmagan edi. Buni payqagan sirk boshlig'i undan imo bilan:

— Ahvoling qalay? — deb so'radi.

— Durust-u, lekin...

— "Lekin" deganing nimasi?

— Ilgari bu kurashni ko'rmaganimdan...

— O'rgatyapti-ku.

Ularning gap-so'zi bilan Muqonning ishi yo'q edi. U: — Hoy, oyog'ingni oldinga chiqar. Bunday! — deb uning boldirini siqib o'ziga qarab tortdi. Keyin tilmochga qarab dedi: — Buningga ayt, tag'in o'rischa kurash usulini ishlataman deb yerga ag'anamasin! Unday qilsa burni pachoq bo'lishi mumkin, — deb orqaga itaribroq borib polvonga qaradi.

— Qani, tezroq ushlash. Onasiga ergashib to'yga kelgan bolaga o'xshab taltayaverma, — deb baqirdi kimdir tomoshabinlar

orasidan. Muqon unga parvo ham qilmadi. Kalta chakmonning yengini qaytarayotib:

— Muncha oshiqasanlar, kuchini chamalab ko'ryapman. Bu men o'ylaganday qizlarning qo'g'irchog'i emasga o'xshaydi. Kim biladi tag'in...

Ular bir-birini ushlashib, nari-beri surishib biroz o'rtada yurishdi. Mitya ovul polvonini bag'riga tortib yulqigisi keladi. Muqon unga bo'y bermaydi, o'ziga tortib, qimir etkazmay qo'yadi. Shu tarzda yigirma besh daqiqa o'tib ketdi. Mityaning a'zoyi badani terlab, xuddi yurak og'rig'i tutgan kishiday hansirab qoldi. Odamlarning sabr-toqati tugadi:

— Hoy, Ko'tarib urar bolam, nega shuncha ermak qilasan? Yiqitsang-chi tezroq! — deyishdi ular chuvullashib.

— Nima qilay, og'alar-ov, kuchim yetmayapti, — dedi Muqon polvon bilan.

— Ko'rib turibmiz. O'zing, anchayin, ermak qilib yuribsan-da.

— Qo'ymadinglar-da, bo'lmasa arvohga sig'ininglar...

U Mityani "hap!" deb ko'targan edi, xuddi panshaxaga sanchilgan bir bog' poxolday osmonga chiqib ketganday bo'ldi. Sirk boshlig'i uni uloqtirib yuboradi, deb o'ylab hushtagini churullatgancha ularning yoniga chopib keldi. Muqonning bir qo'li belbog'idan bo'shashi bilan haligi polvon xuddi mushakdek dik etib yerga tushdi.

— Mana bu meni o'ldiradigan bo'ldi, — dedi u o'pkasini bosolmay. Muqonning bir qo'li hali ham uning belida edi. Bo'shatishini so'radi.

— Bunday kurashi qurib ketsin...

— Hoy, tilmoch, mana bu nima deyapti o'zi? Birortamiz yiqilmagunimizcha men uni bo'shatmayman.

— Endi bu usulda hech ham kurashmaganim bo'lsin, — dedi Mitya.

Shu bilan birinchi polvon komissiya a'zolari tomonidan yengildi, deb topildi. Muqon ikkinchi polvonni uch daqiqa ichida yiqitdi-da, kiyimlarini kiyib sirkdan chiqib ketdi.

Ertasiga Muqonni sirk boshlig'i idorasiga chaqirib olib, iltimos qildi:

— Ko‘tarib urar Guppinskiy, rostingni ayt, sen kimsan? Bilib turibman, sen rus tilini ham bilasan, tilmochsiz so‘ylayver. Bizni aldama.

— Nima deyapti bu, tushuntir-chi? — deb Muqon tilmochni qidirib qoldi. Tilmoch yo‘q edi. Sirk boshlig‘i Muqonni sinamoqchi bo‘lib, ataylab tilmochni qo‘shni xonaga o‘tqazib qo‘ygan ekan, nachora, chaqirib kelishga majbur bo‘ldi. Haligi gap qayta boshdan qozoqchalab aytildi.

— Yo‘-o‘q! Ismim ham, bor gapim ham shu. Otamni ko‘rdilaring-ku, haligi, kunda shu yerga kelib yurgan qora chol. Sirk boshlig‘i Muqondan gap ololmadi. Keyin ikkinchi iltimosini aytdi:

— Agar iloji bo‘lsa, shartnomani qayta tuzaylik. Bahorgacha sirkimizda qol. Men o‘zim o‘ttiz besh so‘m maosh olaman, senga ellik so‘mdan beramiz. Haligi... kassaga tushgan yuz so‘mdan ortig‘ining yarmini olaman, degan gapingni qo‘y.

— Yo‘q, bo‘lmaydi. Va’da — va’da. Men ikki so‘zlamayman. Oq qog‘ozga barmoq bosdimmi, gapimda turaman. Kassaga pul tushmasa bir tiyining ham kerak emas. Polvonlaringning ikkitasi yiqildi. Endi qolganlaringning bittasidan yiqilsam, otulovimni tashlayman-u ketaveraman. Bugun nechtasi bilan kurash tushirasan, ixtiyor o‘zingda. Bugun ham yiqitadigan bo‘lsam, ertaga hakimni olaman. Shaharda hamma narsa sotig‘li ekanini o‘zing bilasan. Ulovlarimizga xashak, o‘zimizga ovqat deganday... O‘zingdan qolar gap yo‘q. Pul kerak bo‘lyapti. Men shu ishlarni bir kunda saranjomlab keta qolay degan edim, unga o‘zing ko‘nmading. Tag‘in u-bu gaplarni bahona qilib, kurash muddatini cho‘zib o‘tirma. Qozoqlarning chorvador xalq ekanini o‘zing bilasan, ovulda molimiz bor, cho‘p-xashak tashishimiz kerak. Xayringni bersin, bizlarni ko‘p ushlama, — deb Muqon sirk boshlig‘ining shartnomani qayta tuzish haqidagi taklifini rad qildi.

Muqon shartnoma tuzishib, bir nusxasini allaqachon qo‘liga olgan, sirk boshlig‘i shunga ko‘nmay iloji yo‘q edi. Kurash davom etardi. Bir hafta ichida hamma polvon yiqilib bo‘ldi. Shartnoma bo‘yicha Muqonga uch yuz ellik so‘m pul tegdi. Sotilgan chiptalarni, kassani Muqon tekshirib o‘tirmadi, qo‘liga ilinganini oldi.

Bu orada chopon, ro'mol deganday... tomoshabinlardan sovg'a-salom tushib turdi.

Qozoqcha kurash tugagach, sirk kassasiga tushib turgan pul birdaniga kamayib ketishiga ko'zi yetgan sirk boshlig'i Muqonni sheriklari bilan obro'li bir qozoqnikida mehmon qilib, sirk hisobidan birtalay sovg'a-salomlar berdi. Sirk polvonlari ham dasturxon ustida jamul-jam bo'lishdi. Obi-yovg'on kelgunicha ular quyidagicha iltimosni o'rtaga tashladi.

— Janob Ko'tarib urar mirza, sezib turibmizki, bu sening haqiqiy isming emas. O'zing aytmaganingdan keyin, nachora, shunday deb atashimizdan boshqa ilojimiz yo'q. Kecha bir kishinikiga mehmon bo'lib borgan edik. O'sha uyning bolasi bizga, seni: "U yashirinib yurgan atoqli polvon Muqon Mungaytpasov", dedi. Otasi: "Sen uni qayoqdan bilasan! U hali ovulga kelgani yo'q", deb bolasini jerkib tashladi. Biz bu gapdan hayron bo'ldik. Nazarimizda qozoqlar orasida hali biz bilmaydigan nomdor odamlar ko'p shekilli. El-yurt emasmi, shunday bo'lishi tabiiy, endi sendan iltimosimiz shuki, mabodo mollaringdan havotir olayotgan bo'lsang, otangni ovulga qaytara tursang-u, o'zing biroz muddatga biz bilan qolsang...

Qozoqcha kurashda polvonlarimizni hash-pash deguncha yiqitding. Bular ham, ba'zilar o'ylaganiday, osonlikcha jon beradiganlardan emas, ko'p polvonlarni yiqitib sovrin olishgan, sirkimizga saralab olingan polvonlar edi. Bularga ham armon bo'lib qolmasin. Ular: "Kuchining ko'pligiga shubhamiz yo'g'-u, ammo, hali o'rganmaganimiz, qozoqcha kurashga tushganimiz uchun dog'da qoldik. Fransuzcha kurash bo'lganida boshqa gap edi", deyishyapti. Shuning uchun ham seni otang bilan birga shu joyga taklif qilib o'tiribmiz. Xo'sh, bu gapga nima deysan? — dedi.

Muqon jilmayib sheriklariga qaradi.

Ular ham yelkalarini uchirib:

— O'zing bilasan, — deyishdi.

— Men fransuzcha kurashni bilmayman-da.

— Bilishingga shubhamiz yo'q. Bordi-yu, bilmaganingda ham, bilmagan-ko'rmagan qozoqcha kurashga tushib bizlar ham yiqildik-ku, nima qilibdi, sen ham yiqilarsan...

— Men qanday kurashga tushsam ham yiqilgim kelmaydi, — dedi Muqon kulib. — Mayli, bu taklifni bir o'ylab ko'ray. Ertaga sirkka borib natijasini aytaman...

* * *

Sirk afishalari o'zgartirilib, Ko'tarib urar Guppinskiyning fransuzcha kurashga tushishi e'lon qilindi. Buni eshitib tomoshabinlar tag'in ham ko'paya boshladi. Chiptalar yetishmay qoldi. Kurash bo'ladi desa, o'zlarini tomdan tashlaydigan qozoqlar ovuldan oqib kela boshladilar. Sirk shartiga ko'ra, Muqon kunora bitta polvon bilan kurashadigan bo'ldi. Dastlab o'rtaga Mitya chiqdi.

— Do'stim, men senga qozoqcha kurashni o'rgatgan edim-ku, sen ham menga fransuzcha kurashni o'rgat. Belingda belbog'ing yo'q, seni qanday yiqitaman, xuddi suvdan chiqqan baliqday lipillab turibsan... — dedi Muqon.

Mitya nima deyishni bilmay kulib yubordi:

— Bilmasang ham, menda seni yiqitaman degan umid yo'q...

— Qani, boshla bo'lmasa, qanaqa bo'ladi o'zi? Mening qayerimdan ushlaysan?...

Mitya kelib Muqonning yelkasiga turtib yuborgan edi, u mukkasidan tushdi.

— Iye, anavi bir urib yiqitdimi? Kuchi ko'p bo'lsa ham, hadisini bilmagandan keyin qiyin ekan-da, a? — deb chuvullashdi odamlar.

Muqon tez yiqilgandan so'ng Mitya kurash usulini bilmaydi shekilli deb, nimadandir umidvor bo'lib, qo'ltig'iga qo'lini tiqib ag'darmoqchi bo'lgan edi, uni qo'zg'ata olmadi. Keyin Mitya uning qo'ltig'idan qo'lini sug'urib olaman deb ancha ovora bo'ldi, xuddi mixlanib qo'yilganday... Muqon hali qimir etmay yotibdi, uning ustida Mitya xuddi yosh boladay sakrab, obdan sillasi quridi. Yigirma daqiqa vaqt o'tdi. Muqon keng pochali shim kiyib olgan edi. Shim Mityaning teridan jiqqa ho'l bo'lib ketdi. Vaqt tugashiga atigi ikki daqiqa qolganida Muqon Mityaning ikki qo'lidan mahkam ushlab olib o'rnidan uchib turdi-da, kutilmagan bir chaqqonlik bilan uni tagiga bosdi. Mitya oyog'ini yozib ham ulgurmadi, xuddi tandirga yopilgan nonday yerga yopishdi-qoldi.

— Klassik g'alaba! — dedi sudya.

— O'zi o'rgatgan usul bilan yiqitdim, bunaqa kurashni kim ko'ribdi, — dedi Muqon.

Ovul polvonining kurash hadisi kundan kunga osha bordi.

— Mana bu polvonlarning hadisini obdan bilib oldi, — deyishdi odamlar. Nihoyat sakkizta polvon yiqilib, maydonga Chorniy Zamuk chiqqanida Muqon unga ko'z qirini tashlab:

— Bu bilan keyin kurashaman, — dedi. Uning gavdasi Muqondan ikki baravar katta edi.

— Shundan xavfi borga o'xshaydi, — deb taxmin qilishdi tomoshabinlar. Muqon bu gaplarga parvo ham qilmay, boshqalari bilan kurashni davom ettiraverdi. O'n bir polvon o'n bir xil usul bilan kurash tushsa ham baribir, yiqilib qolaverdi, hakamlik qiluvchilarning hech qanday e'tirozi bo'lmadi. Shahar hokimlari, to'ralar, xullas katta-yu kichigi kurashni zo'r qiziqish bilan kuzatib borishdi. Ular bunchalik kuch, qudrat ovul kishisining peshanasiga qanday bitganidan hayron bo'lar, uni shu vaqtgacha payqamay yurganlaridan o'kinishar edi. Bu polvonning kim ekanini bilish niyatida Sariterak bo'lisiga tekshiruv xati ham yozildi. Xatga quyidagi mazmunda javob olindi: "Hurmatli bo'lisimizning chopari! Shu narsani sizga ma'lum qilamizki, kurash tushayotgan yigit, Qali degan cholning o'g'li. Uning jiyani Muqon Mungaytpasov Petrogradda kurash tushib yuribdi. Ular, asli, urug'-aymog'i bilan polvon o'tgan..."

Shundan keyin ularning: "Bu Qora Ivan bo'lsa kerak", degan shubhalariga o'rin qolmadi. Shaharga kelganiga bir oydan ortiq vaqt o'tib, axiyri Chyorniy Zamuk bilan uchrashadigan kun ham yetib keldi. Tomoshabinlar kundan kunga ko'paya boshladi. Chiptalar qo'ldan qo'lga o'tib, narxi besh so'mgacha chiqib ketdi. Nomdor polvonlarning biri o'tgan kungi kurashda kutilmagan qisqa muddat ichida yiqildi. Bir qiziq jihati shunda ediki, kichik polvonlar kurashda vaqtni ancha cho'zishga muyassar bo'lishgan edi, kattalar esa ko'pga bormay taslim bo'laverdi. Eng zo'r hisoblangan polvonlarning biri uch yarim daqiqadayoq yelkasi yer iskadi.

Bugun Muqon sirkka ancha kuttirib keldi. U o'z vaqtida kelavermagach: "U rosti bilan mana shu polvondan xavfsiraydi shekilli. Tag'in, qochib ketib sharmanda qilmasaydi", deb gap qilishdi. U keldi.

Arenaga yaqinroq o'tirganlar:

— Polvon, bugun kechikib kelding, har kuni erta kelar eding, — deb undan hol so'rashdi.

— Sal mazam yo'qroq, shamollab qolganga o'xshayman... bugun kelmay qo'yaqolay degan edim-u, tag'in odamlar, mana bu polvondan qo'rqdi, demasin, deb uyalganimdan keldim, — deb qo'ya qoldi.

— Hov anavi kuni, qozoqcha kurash tushganda, uni bir zumda yiqitgan eding. O'shanda ba'zilar uni: "Qozoqcha kurashni bilmagani uchun yiqildi", dedi. Sen bo'lsang ularning kurash usulini bilmasang ham yiqitayotibsan. Bizningcha, har qanday hadisning onasi kuchda bo'lsa kerak. Bu polvonning kuchi o'zingnikidan ko'pmi yo...?

— O, bu tengi yo'q polvon-ku. Anov kuni bir yiqitib qoldim-da, bo'lmasa... Bilmadim, bugun qanday bo'ladi... — dedi Muqon qo'rqqan kishi bo'lib.

— Xudo senga yor bo'lsin, chirog'im! Cho'chima! Kuching ko'p ekanligini sirkdagilarning o'zlari ham tan olyapti-ku, — deb ba'zi chollar tasalli berishar edi.

Muqon Chyorniy Zamukning oldiga jadal yurib bordi-da, shappa bo'yniga yopishib quchoqlab oldi. Ikkalasining boshlari bir-biri bilan taqashib, qo'llari xuddi zanjirday ayqashib qoldi. Ular buqalarday bir-birini itarishib-surishib o'rtada bir-ikki daqiqa yurishdi. Keyin Muqon kutilmagan bir chaqqonlik bilan Zamukning qo'llarini yozib yubordi. Yerga engashib o'zini o'nglamoqchi bo'lgan edi, imkon bermadi. Zilday og'ir va ulkan gavda gilam ustiga gurs etib yiqilib tushdi. U mukkasidan yotib esini yig'ib olguncha bo'lmay Muqon uni shartta ag'dardi-da, ustiga uzala tushib yotdi... Sudyaning hushtagi "chur-r" etdi. G'olibning nihoyatda qonun-qoidali yiqitganini, uning tengsiz kuch egasi ekanini e'lon qilishdi.

Polvonlar gilam ustida o'rinlaridan turib, kurash qonuniga binoan qo'l berishib, g'olib yiqitgani uchun uzr aytar ekan, Muqon Zamukka:

— Sen tushingda og'am Vanyadan ikki marta yiqilib, ikki marta yuzingdagi niqobingni oldirgan eding. Endi bu yerga kelib mendan yiqilganing uyat emasmi? — dedi ruschalab.

Zamuk hayron bo'lib, uning yuziga birpas tikilib turdi-da:

— O'-o', do'stim Vanya, jigarim... Seni ko'rar kun ham bor ekan-ku, — deya quchog'ini keng yozdi...

"Jib-jitsa" kurashi

Polvonlar Peterburgga qaytib ketganlaridan so'ng, ularning Parijda ko'rsatgan kuchlari xalq og'zida doston bo'lib ketdi. Ba'zi bir savdo ishlari minbari bo'lib xizmat qiladigan gazetalar e'tiborsiz joyga ularning suratlarini bosib, sharhladilar. Tashqi ishlar ministrligiga Parijdagi elchixonadan xarakteristikalar kelgandan so'ng, ba'zi bir yakka shaxslarning tavsiyasiga ko'ra, qatnashganlarning hammasi medal bilan mukofotlandi. Poddubniy bilan Muqonga podshoning bosh surati solingan medal taqdim etilib, qozoqlar orasida "Mungaytpasovning o'g'li oqpodshoning polvoni bo'libdi, u podshoning uyida birga turarkan", degan mish-mish gaplar tarqalib ketdi.

— Voy tavba, u cho'qinib ketgan-ku, a, — deb kampirlar shivir-shivir gap qilishdi.

— Ko'rgan odamlarning aytishiga qaraganda, u cho'qinmagan ko'rinadi, boshiga oq qalpoq, ustiga Buxoroning ola to'nini kiydirib qo'yganmish. Juma kunlari ko'chaga chiqib yurarmish, bir ko'zli jinni kurashib yengibdi. Shoxli bir devni kurashib yiqitibdi, — deb gap-so'z tarqatishibdi bekorchi chollar. "Qizil soqolli hazrati Madining o'zi Muqon degan odam haqida gapiribdi. Chamasi oxir zamon bo'lib, yaqin o'rtada Dajjol chiqsa kerak", deb vahima qilishibdi. Bu gaplarni eshitgan qozoqlar nima qilib bo'lsa ham Muqonni bir ko'rishga intizor bo'lishdi. Biroq elni qanchalik sog'inmasin, Muqon uyiga, ovuliga qaytishga vaqt

topolmadi. Kurashni yaxshi ko'radigan Muqon chet ellarni kezib, kurashadigan odam axtarib ketdi. Rossiya sha'niga dog' tushirmaydigan rus polvonlari, kurash bo'ladi, degan shaharga to'xtamay boradigan bo'lishdi. Muqon so'nggi uch yil ichida London, Anqara, Eron, Iroq, Hindi-Xitoy shaharlarini oralab chiqdi. U, qozoqlar ovulida gap-so'z qilganidek, podsho uyida turmadi. Hatto podshoni ko'rgani ham yo'q, ko'ra olmagani uchun afsuslanmadi ham. Yotsa ham, tursa ham Qiziljardagi politsmeyster darvozasi oldidagi odamlar uning ko'z oldidan ketmas, ularni ko'rgisi kelar edi. U yosh ulg'ayib yetilgan sayin talay mamlakatlarni oralab, talay voqealarni boshidan kechirdi. Ba'zi mamlakatlarda odamlar hatto soyasi tushadigan yaproq ham topolmay, nohaq o'lib, butun umri qarzdan chiqmay, qul bo'lib sotilgan bechoralarni uchratdi. Shularni ko'zi bilan ko'rib, o'z vatandoshlarining mehribonchiligi, odamgarchiligi sira ko'z oldidan ketmadi: o'lgan otning xunini to'lagani, Safarboynikida o'tgan kecha, Cho'chqa ko'ldagi ma'raka, oq ko'ngil Dobriy-Rabiy, sof niyatli Ivan tog'a va nihoyat Dubniyning yoqimli siymosi, Parijdagi Stepan Nikolayevichning mehribonliklari ko'z oldidan bir-bir o'tganda: "Mehribon, quchog'i keng o'z elim, bepoyon yurtim", deb talay marta xo'rsingan kunlari ham bo'ldi Muqonning.

* * *

Dunyoni kezib chiqqan polvonlarning uzoq safari Xarbin shahriga kelib to'xtadi. Bu yerga Xitoy, Yapon, Koreya, Mo'g'ul mamlakatlarining polvonlari kelishgan edi.

Sar-Kek-Ki — bu Yaponiyaning Parijda bo'lib o'tgan jahon birinchiligi musobaqasida qatnashgan polvoni. U fransuzcha kurashda Hojimuqondan ikki daqiqada yiqilgan edi. Yaponlar izza bo'lgani uchun kek saqlaydigan xalq. Yaponiyaning Mikadosi[1], qayig'ini yurgizmagan shamolni: "Rossiya tomonidan, Xitoy tomonidan esgan shamol", deb xalqini gij-gijlab, o'chakishtirar ekan. Sar-Kek-Ki ham ana shu tarbiyani olgan-da. U ko'p gapirishni, kulishni yomon ko'rar ekan. Xitoydan, Koreyadan kelishgan o'n ikki polvonni yengib, elimga obro' bilan qaytaman deb

[1] Yapon podshosi.

turganda, o'zini hash-pash deguncha yiqitib qo'ygan rus polvoni kelib qoldi. Yana kurashni qaytalab, vaqtni cho'zmaslik uchun Sar-Kek-Kini kim yiqitsa, u yiqitgan o'n ikki polvonni yiqitgan hisoblanib, poygani shu odam oladi degan kurash komissiyasining qarori chiqib qoldi.

— Kurash fransuzcha bo'ladi, — dedi komissiya.

Men yaponcha "Jib-Jitsa" kurashida kurashaman, — dedi Sar-Kek-Ki. Bu kurashda hech qanday qoida bo'lmas ekan, to'g'ri kelgan joyidan ushlab, chamasi kelsa yulib tashlayverar ekan.

— Ivan Koren, sen yaponlarga yaqinroqsan-ku, bu kurash usulini biladigandirsan, sen kurasha qol, — dedi bu kurashni bilmagan Muqon.

— Qo'y-e, talagan itdek yaralanib nima keragi bor. Kurashmayman, — dedi saxalinlik Ivan.

— Men "Jib-jitsa" dan boshqa usul bilan kurashmayman. Rus polvonlari kurashmasa, mukofotni kurashmayoq olaveraman. Birinchilik meniki, — deb Sar-Kek-Ki bezrayib turib oldi. Hojimuqon biroz yerga qarab turdi-da, og'zidagi nosni jahl bilan tupurib:

— Yoz meni, agar itning kurashi bo'lsa ham kurashganim bo'lsin, — dedi.

Mabodo birortasi o'lib qolsa, javobgar bo'lmasligi uchun ikkalasi bir-birining qo'lidan tilxat olishdi. Keyin sirkdagi tomoshabinlardan ikki odamni chaqirib olib aktga qo'l qo'ydirishdi-yu, ikkalasiga ham oq mayka, kalta cholvor kiydirishdi. Oralig'ini ikki sarjin yercha qo'yishib, sirk boshqaruvchisi qo'ng'irog'ini chaldi. Yapon polvoni temirday qattiq qo'li bilan Hojimuqonning bosh-ko'zidan tirqirab qon oqdi. Rus polvonlari o'rinlaridan uchib turishib, o'rtada sakrab yurgan yapon polvoni sari tashlanishdi.

— Chiq bu yoqqa. O'ladigan bo'lding-ku, bechora! — deb qichqirdi kimdir ovozining boricha. Sudyaning hushtagi ustma-ust chalinib Sar-Kek-Kiga qarshi tashlangan polvonlarning yo'lini to'sdi:

— Qayoqqa?

— Nima, o'ldirmoqchimi bu?

— Bu kurashning qoidasi shu! Kuchi yetsa u ham shunday qilsin! Arslondek hamla qilgan uchta polvon chiqqan joyida turib qolishdi:

— La'natining qo'lini endi tekkizma! — deb baqirishdi.

Yapon polvoni yana urmoqchi bo'lib uchinchi marta o'qday uchib kelayotganda qonga bo'yalgan Hojimuqon uni ikki qo'lidan shap ushlab, orqasiga qayirdi-da, yelkasidan ko'tarib olib yerga urdi. Mukkasidan tushirib, o'ng tizzasi bilan yag'rinidan chap oyog'i bilan yelkasidan bosib turib, chap qo'li bilan Sar-Kek-Kining butun yuz terisini shilib oldi.

"O'ldim!" degan dahshatli tovush eshitildi. Biroq Hojimuqonning qasosli po'lat qo'llari unga rahm-shafqat qilmadi. Uning qonga belangan og'ir gavdasi qimir etmadi. Sar-Kek-Kining bosh terisi sidirilib yelkasiga kelganda, sirk boshqaruvchisining hushtagi chalindi. Musiqa qisqagina motam kuyini chaldi. Bunday o'limni ko'p ko'rgan sirk boshqaruvchisi Sar-Kek-Kining o'limini odatdagi ish deb, indamay qo'ya qoldi. U kasalxonaga olib borilgandan keyin o'ldi. Hojimuqon ham bir oy davolanib, tuzalib ketdi. Biroq uning Ivan tog'a maktabidan suluvlanib chiqqan husniga ozgina dog' tushdi.

Bahor payti edi. Hojimuqon kasalxonadan chiqib, o'z do'stlarining safiga qo'shildi. Bular yotadigan joy Xarbin sirkining qurilish materiallari turadigan hovlisidagi bir bo'lmada edi. Hovli ichida uyulib yotgan yog'ochlar ustiga kiyimlarini yozib, kungayga tog' burgutiday to'rtta polvon o'tirardi. Bular ichida yosh jihatdan kattasi ham, xo'jalik ishlar boshqaruvchisi ham Ivan Koren edi. Oldilariga qalinroq bir sirk afishasini yoyib, nonlarini, tuzlangan baliqlarini shishalarini, sirlarini o'rtaga tashlashdi.

— To'yga kelinglar, og'aynilar! Dunya, Yakov boboni chaqir.

— Polvonlar, bularing nima?

— To'y. Ko'pdan beri mana bu "Qora Ivanni" kutib yotgan edik. Bu — elga qaytadigan mahalimizdagi yo'l ocharimiz.

— Bu polvonning oti Hojimuqon emasmi?

— Biz buni ilgari Qora Ivan der edik. Siz aytgan otni Stambulga borganda olgandi, boshidagi yarani o'shanda orttirgan edi-da!

Endi buni ilgarigi nomi bilan aytamiz. Qutlug‘ oting qayta topilganligi uchun... Ol, krujkangni, bir ko‘tarib yubor...

Shu o‘tirgan polvonlar borib kurashgan shaharlardan biri Stambul edi. Shunda Muqonga turklar qiziqib qolib, o‘z to‘pidan ajratib olish payiga tushishib ishlatmagan hiylasi qolmabdi. Muqon har kungi odati bo‘yicha mehmonxona bog‘i o‘rtasidan o‘tadigan ariq bo‘yida yuvinib, suvda suzib yurgan kichkina baliqlarni tomosha qilib o‘tirganda, qayoqdandir, uning ustiga suv sachrabdi. U boshini ko‘tarib ro‘parasiga qarasa, ariqning narigi yuzida boshlariga zar do‘ppi kiyib, og‘izlarini oq shoyi ro‘mol bilan o‘rab olgan ikki qizga ko‘zi tushibdi.

— Salom! — deb kulishibdi qizlar yigitga.

— Salomat bo‘linglar, go‘zalar! Nega suv sachratasanlar?

— Nega qaramaysan?

— Suvdagi suluv baliqlarni tomosha qilib o‘tiribman.

— Voy, baliq bizlardan suluvmi?

— Suluv, ularning og‘zi senlarnikiga o‘xshab qiyshiq emas...

— Bizlarning og‘zimiz qiyshiqmikan?

— Qiyshiq bo‘lmasa nega ro‘mol bilan o‘rab olgansanlar?

Ikki qiz qiqir-qiqir kulishib og‘zidan ro‘molini olishibdi. Ularning marjon taqilgan oppoq bo‘yinlari, inju tishlari, gulday qizil yuzlari Muqonni maftun qilibdi.

— Lablaring go‘zal ekan, bunday labni o‘psa ham bo‘ladi.

— Bizlarning senga o‘pkizib harom qiladigan labimiz yo‘q.

— Mening og‘zim harommi?

— Ha, harom. Seni kofir bo‘lib ketgan turk, deyishadi, rostmi?

— Yolg‘on. Men kofir emasman, pusurmonman. Turk emasman, qozoqman. Senlarga meni “kofir” deb kim aytdi?

— Biladigan kishilar aytdi. Bizlar seni shu bog‘da har kuni ko‘ramiz. Biladigan kishilardan surishtirib so‘rasak, shunday deyishdi.

— Senlar qayerda turasanlar?

— Ro‘parangdagi ochiq turgan derazani ko‘ryapsanmi?

— Ha.

— Xuddi shu uyda turamiz. Yur, uyimizga borib mehmon bo‘l.

— Men uylaringga bormayman.

— Nega?

— Men Stambulga mehmon bo'lish uchun kelganim yo'q, kurashgani kelganman. Kurashim tamom bo'lgandan so'ng, qaytaman.

— Qayoqqa?

— Rossiyaga.

— Rossiya kofirlar vatani, bizda qol.

— Senlar noto'g'ri aytyapsanlar. Rossiyada kofirlar yo'q, faqat ruslar bor. Ular yaxshi odamlar. Buvim: "Kim niyati yomon bo'lsa, o'sha odam kofir", degandi. Qani, senlar meni kofir degan odamni shu yerga olib kelinglar-chi!

— Nima qilasan?

— Mana shu suvga tumshug'ini botiraman! Undan keyin bunday so'zni aytmaydigan bo'ladi.

O'sha ikki qiz uning orqasidan bir necha marta ergashib, xohlagan bittamizni olgin-u, Stambulda qol, deyishibdi. Shunda Muqon:

— Mening uchun aziz narsa — qiz emas, jonajon vatanimning tuprog'i, — deb javob beribdi.

Muqon bir kuni Stambulning katta machitini ko'rgani borganda turk eshoni boshiga turkcha popukli qizil do'ppi kiydirib:

— Bu hamma musulmon machitlarining onasi. Buning ichiga kirgan odam "hoji" bo'ladi. Endi sen Hojimuqon bo'lding, — deb boshidagi popukli turkcha qizil do'ppi bilan suratga olib, gazetaga chiqaradi. Shu-shu o'rtoqlari hazillashib boshqacha nom bilan chaqirib yurishgan ekan. O'zi bilan ko'p yil do'st bo'lib birga yurgan Ivan Korenning boya hazillashib aytgan hikoyasi mana shu edi.

— Endi Yaponiyaga boramizmi?

— Qo'y-e... — dedi Hojimuqon oq qilib ko'targan krujkasini to'nkarib qo'yib:

— Men Dubniy bilan Londonga bormoqchi edim, kemada yura olmaganimdan qoldim. Tushsam ko'nglim ayniydi. Bu yer bilan Yaponiya o'rtasida katta dengiz bor ekan. Ularni men bilan kurashtiradigan polvonlarining ishini Harbinda bir yoqli qildim-ku, bo'lar endi, bormayman. Elni sog'indim. Endi elim-

ga qaytaman. Yer yuzining ba'zi joylarini oralab ko'rdim. Biroq jonajon vatanimiz tuprog'idan aziz, go'zal mamlakatni ko'rmadim.

— To'g'ri aytasan, og'ayni. Bizning mamalakatdan ham go'zal mamlakat, xalqimizdan mehribon xalq bu dunyoda topiladimi! Shu xalq bilan birga yashab, birga ishlashdan ham katta baxt bormi dunyoda!

— Orenburg sirki xat ustiga xat yuborib, chaqirib qo'ymayabdi, boraylik, — dedi Koren.

— To'ylaring to'yga qo'shilib, safarlaring bexatar bo'lsin! — dedi Yakov, hazilkash polvonlarning hikoyasini maroq bilan eshitib bo'lib.

Dunyoga mashhur bo'ldi alp kuchim,
Odamlarni tang qoldirib kurash tushdim,
O'ldirmoqchi bo'lganda Sar-Kek-Kining
Sidirganman, tulkidayin bosh terisin.

Mirza

Ming to'qqiz yuz o'n to'rtinchi yilning qishi xuddi jahon imperialistik urushi kabi sovuq keldi. Kunora bo'ron, izg'irinli yoz bo'lib turdi. Dekabr oyining boshlarida qo'radagi uyilgan qorni ikki ot qo'shilgan taxta mola bilan tozalayotganlar oldiga, ustiga qashqir terisidan tikilgan po'stin kiygan, boshida qora qozonday qalpog'i, qo'lida katta sandiqday chamadoni bor birov kirib keldi. U:

— Ey, birodar, Quttiboy mirzaning hovlisi shumi? — deb so'radi terlab-pishib, uyilgan qorni qo'radan olib chiqib ketayotgan kishidan.

Quttiboy Qiziljarning ko'zga ko'ringan savdogari edi. Bu hovlining yarimidagi uy yevropacha uslubda solingan bo'lsa ham ikkinchi yarmi xashak uyumlari, chanaga qo'shiladigan ot, sotiladigan qo'y va hokazolar bilan ivirsib yotardi. Kechasi bilan uvillab esgan shamol hovlini qorga ko'mar, xashakni har tomonga sochib yuborardi. Ana shu sochilgan xashak, uyilgan qorni tozalash

uchun o'nlarcha yollangan ishchi kecha-yu kunduz tinmay ishlardi. Nihoyatda charchagan xizmatkor qora qalpoqli bu kishiga hayron bo'lib qaradi-da, indamay o'tib ketdi. Yo'lovchi uning qaytib kelishini kutib turdi. Xizmatkor keyingi moladagi qorni olib borganda, oti qorga tiqilib qoldi. Ikki xizmatchi tiqilgan otni chiqarish uchun har qancha urinsa ham bo'lmadi, terlab-pishib ketdi. Ularni ko'rib turgan hovlidagi yo'lovchining toqati toq bo'ldi. Chamadonini darvoza oldiga qo'yib, ular oldiga borib:

— Hoy, namuncha urinib yotibsanlar? — deb so'radi.

— Ko'rmayapsizmi, mirza?

— Ko'rganda nima, so'ysa bir qozon go'sht chiqmaydigan otni tortib ololmayotganlaring uyat emasmi?

— Albatta, mirzalarning ko'ziga shunday ko'rinadi-da. Sizlar faqat go'sht yeyishni bilasizlar. Bu otning og'irligini ko'targan kishigina biladi!

— Bularning gapini qara-yu. Bor, sen borib kurak olib kel, qorni qazib chiqarib olaylik, — dedi ikkinchi xizmatkor qora qalpoqli po'stin kiygan odamga jahl qilib. Bir xizmatkor ustiga yopishgan qorni qoqib, qorga botmagan otini burdi.

— Ey, to'xta! Molani chiqarib, qor ustiga ko'ndalangiga tashla. Nima qilasan kurakka ovora bo'lib, — dedi haligi notanish kishi.

— Nimaga, mirza?

— Sen mirza-pirza degan gapingni qo'y, ishqilib otingni chiqarib bersam bo'ldimi? Taxtani qorga oyog'im botmaydigan qilib tashlagin. Nima qilmoqchi ekanimni ko'rsatay senga.

Qorga oti botgan xizmatkor xo'mrayib qarar ekan:

— Vajohatidan xuddi ayiqqa o'xshaydi-ya, qayoqdan kelib qoldi bu yerga? — deb to'ng'illadi. Ikinchi xizmatkor nima qilishni bilmay turib qoldi.

— Nega ag'rayib turibsan, yech deyman taxtani.

— Qotib qolgan qayish yechiladi deysizmi, mirza. Borib kurak olib kelaman.

— Voy bechora-yey, kurak-kurak deguncha taxtani olib kelsang-chi? — deb u molani bir qo'li bilan tiqilib yotgan otga qarab itarib yubordi. Taxta qo'shig'liq turgan ot-poti, odami bilan sudrab

yurgan chanaday yengil surilib qor uyumiga borib tiraldi. Ot to‘rt oyog‘i toyg‘anib cho‘nqayib o‘tirib qoldi. Haligi odam ot botgan qor ustiga taxtani ko‘ndalang qo‘yib, yol-dumidan ushlab, “haup” deb bir siltaganda, otni qoziqday sug‘urib olib, tuyoqlari yerga tekkandan so‘ng, o‘rnidan turib bir silkindi-da, yonidagi otga qaradi. Ikki xizmatkor xuddi tush ko‘rishganday bir-biriga ma’noli qarashib olishib, noma’lum kishiga tikilishdi. Ular otlarining tizginidan ushlar ekan, so‘rashdi:

— Mirza, chamadoningiz ko‘chada qoldimi?

— Ha.

— Bittasi ilib ketmasin yana. Bu yerda bebosh bolalar ko‘p...

— Ilib ketadigan bolalar ikkalangga o‘xshasa, qayerga borardi deysan. Uning og‘irligi haligi otday bor.

Xizmatkor otlarini qo‘raga haydab kirdilar.

— Yigitlar, yigitlar!... Qo‘raga birov kirdi yo Dajjol, yo Maddoh — ikkalasidan biri. Aft-angori shundan boshqaga o‘xshamaydi, — deb vahima qilishdi haligi xizmatchilar, qo‘rada qor kurab, xas-xashakni tozalab yurganlarga.

— Nima deb valdirayapsanlar o‘zi?

— Nima bo‘lardi... Dev!

— Nima deb aljirayapsanlar? Ko‘zlaringga bir narsa ko‘rindimi o‘zi!? Shu zamonda dev bo‘larmidi!?

— Ana, ana, qo‘raga kirdi.

Qo‘ra ichidagi odamlar uni ko‘rib hayron bo‘lib qolishdi. Boshqalardan unchalik katta bo‘lmasa ham qashqir terisidan po‘stin kiyib olgan gavda odamlarga devdek bo‘lib ko‘rindi.

— Voy-bo‘y, bu odamda bir gap bor! Qo‘lidagi chamadonning o‘zi bir chanaga yuk bo‘ladi-ku. Kim ekan u, so‘zlashdinglarmi?

— So‘zlashdik.

— Tili qanaqa, o‘zimizning odamlarga o‘xshab so‘zlar ekanmi?

— Ha, rus tilini aralashtirib qozoqcha so‘zlashdi.

— Unday bo‘lsa tatar ekan-da.

— Bilmadik. Yuziga tikilib qarayolmadik. Quloq, lablarining dabdalasi chiqib ketgan. Kiyimiga qarab, mirza bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edik, ko‘tarib yurgan chamadonni ko‘rib, kim ekaniga ham aqlimiz yetmay qoldi...

— Ho‘sh, unday bo‘lsa polvon ekanini qayoqdan bildinglar?

— Iya, boya mana bu ot qorga tiqilib qoldi-ku. Shunda orqasi zo‘rg‘a ko‘rinib turgan otni bir o‘zi tortib olib, bir chetga uloqtirib yubordi.

— Otni uloqtirib yubordi deysanmi?

— Ot bu yoqda tursin, vajohatidan tuyani ham uloqtiradiganga o‘xshaydi. Bekorga uni yo Dajjol, yo Maddoh deyapmizmi?

— Xo‘sh, so‘zlaganda nima dedi?

— Aytarlik hech nima demadi-yu, sal manqaroqmi, har holda, tovushi g‘alati, xuddi ingragan arslonning ovoziga o‘xshaydi. Faqat men ko‘chaga chiqib ketayotganimda: “Quttiboy mirzaning hovlisi shumi?” deb so‘radi, xolos. Men shoshilganimdan yuziga ham qarayolmay o‘tib ketaverdim. Otning qorga tiqilib qolganini ko‘rib, oldimizga keldi-da, mening molamni oyog‘i tagiga qo‘yib, chiqarib berdi.

— E, unday bo‘lsa ichkaridan (Rossiyadan) kelgan mirzaning do‘stlaridan bittasidir-da.

— Yo‘q, mirza bo‘lsa ot tugul odam o‘lib yotsa ham qayrilib qaramasdi. Qaysi mirza shunday katta chamadonni qo‘lida ko‘tarib yuradi? Yo odamga ko‘tartirib, yo aravada olib kelmasmidi?

— Rost, agar mirza bo‘lsa qorga botmoq tugul qonga belanib yotsa ham qaramay ketavermasmidi? Bu oddiy odamlardan bo‘lsa kerak.

— Unda kim bo‘lsa ekan-a? Ana, mirzaning uyiga kirib ketdi. Hol-ahvolini ham so‘ray olmadig-a?

* * *

Quttiboy mirzaning tashqari uyida yotadigan ov iti “vov” dedi-yu, “hay!!!” degan salmoqli tovushdan qo‘rqib, eshigi ochiq turgan oshxonaga kirib ketdi. Ilgari bunday qilmaydigan itning g‘ingshishidan shubhalangan pazanda ayol cho‘chib tushdi. Hali shirin uyquda yotgan mirzaning oilasi, mehmonlari uchun ovqat tayyorlayotgan oshpaz ayol qo‘liga kapgirini olib tashqari uyga chiqdi.

— Kampir, Quttiboy mirza uydami? - dedi yo‘g‘on bir tovush.

Boshiga qora qalpoq egniga po'stin kiyib olgan odam oq-soch xotinning ko'ziga go'yo ayiq so'zlayotganday ko'rindi. U qo'rqqanidan mirza uxlab yotgan xonaga qarab yugurdi.

Eshikni odatdagiday taqillatib kirishga ham chamasi kelmay, birdan ochib:

— Mirza! — dedi tovushining boricha, uyg'onganiga ancha bo'lsa-da, turishga erinib yotgan Quttiboyga.

— Nima? — dedi u qo'rqib ketgan ayolga qarab.

— Keldi.

— Kim?

— Qora qalpoq kiygan qashqir... bir...

— Nima deb aljirayapsan? — deb mirza boshini ko'tardi.

Ayol boshqa hech narsa deyolmay mirzaning xotini yotgan xonaga chiqib ketdi.

— Nima deydi bu mal'un. Qalpog'i nimasi, qashqiri nima-si?... — deb mirza shoshib-pishib kiyina boshladi. Hovlida qor kurayotganlarga yordamlashib yurgan uy xizmatkori "dev"ni ko'rmoqchi bo'lib, shoshilib uyga kirdi. U dahlizda turgan meh-monni kiyimlarini yechib qo'yadigan xonaga olib kirib:

— Yechining mirza men xo'jayinga xabar beray, — deb chiqib ketdi.

Mehmon endi po'stinini yechib mixga ilayotganda Quttiboy-ning tovushi eshitildi:

— Sen qayoqda yuribsan o'zing? Uyga bir balo kirib ketdi, deb toza qo'rqitdi-ku, anavi oqsoch mal'un!

— Men qor kurayotgandim, mirza. Sizni so'rab qora qalpoqli, po'stin kiygan bir mirza keldi. O'sha kishini aytgandir-da.

— Po'stini bor deysanmi?... Qayoqdan kelibdi?

— Unisini bilmadim-u, mirza, har holda kiyinishidan Ros-siyadan keladigan mehmonlarga o'xshaydi.

— Unday bo'lsa, uning nimasidan qo'rqib yuribdi, anavi jin urgur. Uyga kirgizdingmi? Yuk-puki bormi?

— Boshqa yuki bormi-yo'qmi bilmayman, qo'lida bir katta chamadoni bor. Yechinadigan uyga olib kirib qo'yay degandim, ko'tarolmadim. O'zi ko'tarib yurganiga qaraganda ichida pul bo'lsa kerak.

— Barakallo, ha, bu boshqa gap! Haligi qo'rqitib, kiyimimni ham tuzukroq kiya olmadim. Men kiyinib, yuz-qo'limni yuvib chiqqunimcha Rossiyadan keladigan odamlar uchun ajratilgan mehmonxonaga olib kir, — deb mirza o'z xonasiga kirib ketdi.

* * *

Quttiboy mirza toza yuvinib, yevropacha kiyinib mehmonxonaga kirganda, mehmonni ko'rishi bilan lol bo'lib, eshik oldida qotib qoldi. Uning miyasidagi shirin xayollar mehmonni ko'rishi bilan chippakka chiqdi. U mehmonni puldor, minglab mol sotib olib ketadigan qorindor savdogarlardan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi. Yo'q, mehmon boshqa odam bo'lib chiqdi. U hecham savdogarga o'xshamasdi, oddiy odamga ham, o'qituvchiga ham, injenerga ham o'xshamasdi. Uning ko'z oldida kamzulining yoqasidan etagigacha medal, znachok taqib olgan bir odam o'tirardi. Kamzulining oldida tugma qadashga ham joy qolmabdi, hamma yog'i turli znachok bilan medalga to'lib ketgan. Uning ichida oltini ham, kumushi ham, misi ham bor. Sal qo'zg'alsa bas, shamol tebratgan daraxt yaprog'iday shildir-shildir qiladi. Bunday mukofotni, Quttiboy o'zi hamtovoq bo'lgan gubernatorda ham ko'rmagan edi. Harbiy odam dey desa, hech qanday belgisi yo'q. Mirza hayron bo'lib:

— Assalamu aleykum! — dedi.

— Salomatmisiz, Quttiboy Mirza? Men Rossiyaning jahon polvoni nomini olgan Hojimuqon Mungaytpasov bo'laman.

Quttiboy mirza xalq necha yildan buyon ko'rishga intizor bo'lgan atoqli polvonning uyiga kelganiga xursand bo'ldi-yu, biroq foydasi tegadigan savdogar bo'lmaganiga achindi. Ranjiganini bildirmaslikka harakat qildi. "Nima bo'lsa ham bundan tezroq qutulish kerak. Bir toyning go'shtini ko'rdim demaydigan bu polvon meni nechuk izlab keldiykin?" deb o'yladi.

Uning esiga qish boshida Sariterak bo'lisidan mehmon bo'lib kelgan bir cholning aytgan gaplari tushdi. Ular dasturxon ustida hazil-mutoyiba qilib o'tirib:

— Chirog'im, bo'lis, podshoning buyrug'i, deb, ko'p qo'y yig'ib yubordinglar. Muncha qo'yni nima qilar ekan u? — debdi

sariteraklik bir oqsoqol xalqning tobora qashshoqlashib borayotganini aytib. Shunga berayotgan bo'lsa kerak.

— Astag'firullo!... Eshitmagan gaplarni eshitasan-a. Unda yiliga bir ming sakkiz yuz qo'y yeydimi?

— Voy-bo'y, ikki mingga yaqin-u!

— Qaydam, chirog'im, unchaligini bilmadim!.. Peterburgda polvon borligi ham rostdir-ku, biroq bir ovulning qo'yini bir polvonga so'yib berib, podshoyi olam o'zlari quruq o'tirmagandirlar. U bu yoqda tursin-u, Qasqirboyning o'zi xalqdan olib, shu yilning o'zida ellikdan ortiq qo'y so'ydi. Xalq farzandlari botir, olim, shoir yesa chiqinimiz dalaga ketdi demas edik. Qaydam, qarog'im... — deydi shunda oqsoqol kulib.

Quttiboy Hojimuqonga katta qozonni to'ldirib go'sht pishirtirdi. Uning ichida qazi ham, qarta ham, yol quyruq ham bor edi. Shu atrofdan keladigan mehmonlar uchun tayyorlab qo'yilgan uyga dasturxon yozdirib, ikki yigit tog'orani to'ldirib go'sht olib kelishdi. Bu yerga shaharlik polvonni ko'rish uchun ikki-uch chollar ham kelishgandi. Boyning qarindosh-urug'lari ham bola-chaqalari bilan kelishdi.

— Polvon, Rossiyada ko'p yil yurgan bo'lsangiz ham, ovul odatini unutmagandirsiz. Qo'yning kallasini qo'ymadi[1] deb ko'nglingizga kelmasin, mirzaning ozroq moli dalada edi. Bozordan olay degan edi, men ayozda qolgan molning go'shti nima bo'lardi, deb oldirmadim. Hozir ayni so'qim go'shti yeydigan mahal-ku, mana, buyurgani oldingizga keldi, qani oling, — dedi qariyalardan biri.

— Mirza, polvonni yigirma to'rt yil chetda yurib ichkilikka o'rganmagandir deysanmi? Beradiganing bo'lsa, bizlardan tortinmay beraver, ovqat oldidan ichib o'tirsin, — dedi boshqa qariya.

Mirza oqsoch xotinga, olib kel, deganday imo qildi. Ayol bolaning bo'yiday keladigan shishani olib kelib mirzaning qo'liga berdi. Hojimuqon dasturxon atrofida o'tirgan odamlarga bir qarab oldi-da:

[1] Qozoqlardagi urf-odatga binoan eng aziz mehmonning oldiga albatta qo'yning kallasi qo'yiladi.

— Mirza, men yigirma to‘rt yil chetda yurib, sening uyingda birinchi marta o‘tiribman. Bu bir navqiron yigitning umri. Kuz o‘tib qish kelganday, qish o‘tib bahor kirganday, bir necha kishi dunyodan o‘tib, uning chirog‘ini bolasi yoqib o‘tiribdi. Shularning biri, mana sen o‘zingsan. Sakang[1]ning vafot etganini bundan yetti yil ilgari eshitgan edim. Ichkiligingni qo‘ya tur.

— Chirog‘im-ey, qayoqdan esingga tushib qoldi... Bugun kun juma edi, juda yaxshi esga solding-da, — deyishdi qariyalar sevinishib.

— Mirza, yana bir iltimosim bor, uni ham ovqat betidan dasturxon olinmay turganda aytay. Men yeyman desam, toyingga qo‘shib qo‘yingni so‘yib ossang ham ichagimga yuq bo‘lmaydi. Yemayman desam, oddiy kishi yeydigan ovqatga ham qanoat qilaman. Shu Qiziljar shahrida men ham qor kuraganman. Endi hovlingni kurab yurgan yigitlaring meni tanimay “mirza” deb yurishibdi. Ular xo‘jayinning oldiga kirishga uyalishyapti shekilli. Bu mening ham boshimdan o‘tgan. Kim biladi, qashqir terisidan po‘stin, tivit qalpoq kiyganimni ko‘rib, meni mirzalardan bittasidir, deb yurishgandir. Quttiboy turganda menga mirzalikni kim qo‘yibdi? — dedi polvon.

— Rost aytasan, polvon, berganiga shukur, — dedi Jontoy mirzaga ko‘z osti bilan qarab, soqolini silarkan.

— Ha, mirzasan, qulochingni keng yoz! O‘sha, meni mirza deb hayqirib yurgan yigitlarning hammasini chaqir, kirsin. Po‘stinli odamning Hojimuqon ekanini, chin mirza Quttiboy ekanini ko‘rib qo‘yishsin. Meni kirib ko‘rishga ham botinolmay yuribdi, sho‘rliklar.

— Polvon, ular ovqatdan kanda emas. Bizlar shulardan ortganini yeb o‘tiribmiz. Ertaga ularning yotoqxonasiga borib, alohida gaplasharmiz. Haligi podshoning saroyida bo‘lganingni aytib ber-chi... Saroyini oltin bilan kumushga bezab tashlagandir-a. Ha, podshoyi a’zam saroyidan nimani ayadi deysan. Uning saroyining darvozasini ko‘rish ham katta gap-a? — dedi Quttiboy gapni boshqa tomonga burmoqchi bo‘lib, polvonni ovqatga taklif qilarkan.

---

[1] Quttiboyning otasining qisqartirilgan oti *(tarj.)*.

Hojimuqon o‘rnidan qo‘zg‘almay, “sabr qil” deganday mirzaga qo‘lini cho‘zib, ko‘zini qisib qaradi:

— Hey, Quttiboy, bundan yigirma ikki yil burun men qo‘shning Maslikovning pichanini olib kelaman deb, bo‘ronda oti o‘lib qolib, chanani menga yayov sudratib, xunini to‘la, deb meni politsmeysterga olib borganda, sen hali yosh bola eding. Odamlar otning xunini to‘laymiz, deb pul to‘plashayotganda Husayin bobo to‘raning yonida turgan otangga: “Chirog‘im Sakenjon, mana bu bechora bolaga Xudo kuchdan beribdi, shunisidan xursand bo‘lgan xalq o‘lgan otning xunini to‘lab yuborishmoqchi bo‘lishyapti. To‘laboy o‘g‘li Jumrat bitta oyog‘ini it talagan otini devonaga berib yuborib obro‘ topgan ekan. Senga, yakka o‘zing to‘lab yubora qol, demaylik, ko‘pchilik qatori sen ham ber”, degani esingdami?

— Ha, esimda.

— Shunda marhum otang senga pul berib, bor, to‘plovchiga olib borib ber, degan edi, esingda bo‘lsa shu pul qancha so‘m edi?

— Bunisi esimda yo‘q, — dedi u tutilib.

— Unda Quttiboy yosh edi-da, oradan shuncha vaqt o‘tib ketdi-yu, esida turadimi? — dedi Quttiboyga yaqinroq o‘tirgan bir qarita, siyrak soqolini silarkan, ko‘zlarini chirt yumib.

— Unutgan bo‘lsang, esingga solib qo‘yay, mirza: Xusayin boboga olib borib bergan puling o‘n besh tiyin edi. U betinga qarab turib: “O‘g‘lim, yamoqchi Jafar ham besh so‘m berdi. Mirzaliging shu bo‘lsa, ma, otangga olib borib ber, chilim olib cheksin. Usiz ham shu yurt omon bo‘lsa, bir ot xunini to‘lashar!” deb teskari qaragan edi. Men bu yerga yotadigan uy topolmaganimdan kelganim yo‘q. Meni Maslikovning panjasidan qutqarib olgan odamlarning ko‘pchiligi hayot hali. Faqat, seni shu yerning ko‘zga ko‘ringan kishisi-ku, endi erki o‘ziga tekkanda bir ko‘ray, deb keldim.

— Ha, marhum Sakengning ba’zan shunday xasisligi tutib qolardi. Ba’zan juda saxiylik qilib, Omsk, Orenburglardan kelganlarga pulni ayamay berib ham yuborardi. Bo‘lmasa o‘sha otning xunini bir o‘zi to‘lab yuborsa ham qudrati kelardi-ku, — deb, go‘sht to‘g‘rab o‘tirgan qariya go‘shtning yog‘liroq joyidan bir

kesib og'ziga soldi. Shunday qilib, chirog'im Hojimuqon, Quttiboyning qo'li ochiq. Davlatni kam qilmasin, talay odamning hojatini chiqaryapti, — deb mirzaga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

— Men aytmoqchi bo'lgan narsa u emas, men mirzadan moldunyo so'ragani kelganim yo'q. Eshikning tirqishidan, qirov bosgan derazalardan odamlar mo'ralashib, qarashib yurishibdi. Xizmatkor yigitlar bo'lsa kerak. Men ketgan mahalda Maslikovning qo'lida ishlab yurgan Seyilbek bilan Sergeyni ham ko'rib qoldim. Hammasi ham meni ko'rgisi kelib yurgandir. Ularni ayozda qolgan sigirday eshikda mo'ralatmay, kirgiz. Shu ovqat hammamizga ham bo'ladi, bir o'tirib gaplashaylik. Podsho va vazirlarning uyida ko'rgan-bilganlarimni aytib beray, ular quloqlari bilan eshitishsin.

— U kim o'zi, eshik oldida yurgan? — mirza eshik tomondagilarga qaradi.

— Kim bo'lardi, mirza, "podshoning polvonini ko'ramiz", deb o'zimizning yigitlar to'p-to'p bo'lib, kelib yurishibdi. Qo'shni hovlilarda ham ancha odam bor. Eshikni ilib, qorovul qo'yib qo'ydik. Bo'lmasa uyga kirib keladigan.

— Mirza, kirgiz ularni, shulardan iymanib dalaga chiqolmay o'tiribman.

— Uyga to'plab o'tirmay, ertaga ularning oldiga borsangiz nima qiladi?

— Men uyingga qishlagani kelganim yo'q. Ertaga ketaman. Hozir kirit. Bo'lmasa ovqatingni yemayman.

— Ha, hammamiz ham polvonni ko'rgani kelib o'tiribmiz. Bu ovqat bo'lsa har kuni yeb-ichib yuribmiz. Polvonning aytgani bo'la qolsin, chaqiring, mirza, — deyishib o'tirganlar Quttiboyga tikildi.

— Bay-bay-bay, oyoqlari iflos, uyni ravso qilishadigan bo'ldi-da.

— Ilfos qiladigan bo'lsa, tozalaydigan o'zlari. Kirishsin.

Yigitlarni chaqirishdi. Birinchi bo'lib Seyilbek bilan Sergey kirib, Hojimuqon bilan quchoqlashib ko'rishdi. Boshqa yigitlar salom berishib, eshik oldida qator o'tirishdi.

— Ana endi arog'ingni quy, mirza. Bu angishvonaday qadahlaringni qo'y, choy ichadigan piyolaga quy. Seyilbek bilan Sergeydan boshlab, yigitlarning hammasiga tekis quy.

— O‘zingga deb oldirilgan bir litr aroq edi, hammasiga yetmaydi-ku, polvon? Do‘kon yopilib qoldi.

— Quttiboyniki yetmasa, Hojimuqonniki yetadi, mirza, quyaver. To‘ldirib-to‘ldirib quy, ichgandan keyin ichganday bo‘lishsin.

— Bir mahaldan xizmatkor bo‘lib yurgan Hojimuqon, mana, Pyotr shahridan ta’lim-tarbiya olib, butun olamni kezib, qozoq polvoni degan nom orttirdim. Yigirma ikki yil! Chet elda yigirma ikki yil kezib, mana, tuprog‘i oltin jonajon elimga keldim. Mana bu o‘zimizning qo‘lbola sharobni boyning eshigida birga ishlagan, bir mayizni bo‘lib eski do‘stlarim — Sergey, Seyilbek, sizlarning sog‘lig‘ingiz uchun ichay. Mirzaga podsho sharobidan beray, — deb chamadonni ochib, Orenburgdan olgan sharobdan besh shishasini olib Quttiboyning oldiga qo‘ydi-da, — ol, boshladik, — deb o‘z kosasini shimirdi Hojimuqon. “Podsho” sharobidan bir-bir ko‘targan odamlarning ko‘ngli ancha ko‘tarilib qoldi.

— Mana, podshoning konfetidan bolalaringga beringlar, — deb polvon turli qog‘ozlarga o‘ralgan konfetlarni sochib yubordi. O‘tirganlar uni talashib-tortishib terib olishdi.

Ovqat yeyilib bo‘lgach Hojimuqon allamahalgacha ko‘rgan-bilganlarini hikoya qilib berdi.

Oxirida:

Yigirma to‘rt podsho yerin kezib o‘tdim,
Necha-necha polvonlarni yiqitdim men.
Yuragimni ilitgan mehri mo‘l-ko‘l
O‘z elimday mehribonni topmadim men, —

deb o‘lan ham aytib berdi.

— Podshoning tilla saroyida yurib ham elni sog‘indingmi? — dedi mirza.

— Ey... tilla deganing nima, bu bir tosh-da! Insondan, ota-onadan, o‘z elingdan aziz nima bor dunyoda.

To‘plangan odamlar polvondan xursand bo‘lishib tarqalishdi. Hojimuqon yotadigan joyiga chiqib ketayotib, mirzaga:

— Mirza, otimning o'lganini eshitib, shoshilinch kelayotgan edim, bir amallab uloving bilan ovulga yetkazib tashla, — dedi.

— Xo'p, polvon.

Cho'loq polvon bilan uchrashuv

Uch ot qo'shilgan, soyabonli chana qalin qorni pichoqdek tilib, Oqmo'la tomonga kelardi. Kuchli bo'ron turib, chana qo'ngan bekatida ikki kun turib qoldi. Bekatga boshqa joylardan kelib tushgan kishilar chana hali kelib yetmasdan ovul odamlariga: "Podshoning tog' ko'taradigan polvoni kelayotgan ekan", deb tezda mish-mish tarqatishdi.

Xotinlar eshitgan xabar, ba'zi bir gazetalardan tez tarqaydi — eshitgan odamlar uyda o'tirolmadi.

— Oyi eshitdingizmi?

— Nimani, chirog'im?

— Bekatga dev kelibdi deydi!..

— Voy, sho'rim qursin, yana nima gap o'zi. Devi nimasi? Dev degan narsa Ko'hiqofda bo'ladi, deyishardi-ku? Hay, Qizlarqul, bu yoqqa kel! Mana bu shum xabarni eshitdingmi? Xo'sh, kelin, uni kim aytibdi?

— O'zim ham chala-chulpa eshitib qoldim. Qaynag'amiz Elgezer bor-ku, o'sha so'fi otamga aytayotgan ekan. Tekeboyning o'g'li Temirbek yo'qolgan yilqini izlab, bekatga borgan ekan. Borsa, bekat qorga ko'milib qolganmish. U: "Bu qandoq bo'ldi, bularni qor ko'mib nafas ololmay qolgan bo'lsa kerak", deb o'ylab, hayron bo'lib tursa, qor uyumi birdan ag'darilib tushibdi. Bundoq qarasa, tagida podshoning polvoni yotgan emish. Haligi qorni o'sha polvon kafti bilan sidirib tashlagan emish.

Shu so'z ming xil o'zgarib, og'izdan og'izga ko'chib yurdi. Esil, Nura atrofini bir zumda aylanib chiqdi.

Haqiqati: chanada ustiga ko'k movut kastum kiyib, uy ichida kiyadigan kigiz chuvakni oyog'iga ilib, og'zi ochiq shishadan liq-liq sharob yutib, bir yo'lovchi kelardi.

— Kun ham botay deb qoldi. Bekatga yaqinlashdikmi?

— Kun botarga yetib boramiz, yaqinlashib qoldik.

— Qizi bor, dedingmi?

— Qizi bo'lganda qandoq... Bahor guli, jannatning huri...

— Ha, chuh de, tezroq hayda. Qosh qoraymasdan yetib olaylik.

Chanaga qo'shilgan uchqur otlar xuddi qator uchgan o'rdaklarday oldi tozalanib, ochiq turgan bekat darvozasidan g'izillab kirib keldi. Yuzlari qizarib ketgan Risbek, mollarga yemish solib bo'lib, qo'raning eshigini endigina yopgan edi. U ko'p vaqtlardan beri ko'rmagan mehmonni xushomad bilan qarshi oldi, chana haydab kelgan yigitga til uchida salom berib, chananing eshigiga yopishdi. U eshikni ochib yuborgan edi, chuvagini tashlab, o'rnidan turib kelayotgan mirzaga ko'zi tushdi. Chanada ust-boshi qo'ng'iroqdek shildirab birov uymalasha boshladi. Bekatchi chanada bir odammi, yo uch odammi ajratolmadi. Bekatchi qashqir terisidan tikilgan po'stinning yoqasini ko'rishi bilanoq:

— Hoy, Xadicha, chirog'im, beri kel! Mehmonni uyga olib kir, sovuq yeb qolgandir, — deb chanadan chiqib kelayotgan kishining qo'ltig'idan suyadi.

— Rahmat, nariroq turing, yana oyog'ingizni bosib olmay. Mana bu po'stinni ushlab turing-chi, yerga tushib kiymasam eshikka sig'maydiganga o'xshayman.

"E, bu qorni katta mirzalardan biri ekan", deb o'yladi martabali odam atrofida parvona bo'lib, bundayroq odam kelsa sovuqroq muomala qiladigan Risbek. Qashqir terisidan tikilgan po'stin qo'liga tekkach, yana ham pitillab qoldi.

— Qarog'im Xadicha, Mirzaning po'stinini qorga tekkizmay ushlab turgin, men unga yordamlashib yuboray...

— Qizingizga bu po'stin og'irlik qiladi, ko'tarolmaydi, o'zingiz uyga olib kiravering. Singlim, bundayroq kel, uyga olib kiradigan narsalarimni beray.

— Mayli, mayli, qarog'im, mirzaning berganlarini ehtiyot qil, yana sinib-pinib qolmasin — deb bekatchi po'stinni ko'tarib uyga jo'nadi.

U uyga kirishi bilan xotiniga shivirladi:

— Xotin, chanadan birov tushdi, bunaqa odamni birinchi ko'rishim. Ustida bir narsalar shaldir-shuldir qiladi. Yo pul solgan

sandig'imikin-a? Ma, po'stinini uyga olib kirib, tozaroq ko'rpalaringdan sol. Xadichaga uyga olib kiradigan narsalarini berayotgan edi, men chiqay...

— Mana bu kiyimiga qaraganda, shaharlik savdogarga o'xshaydi-ku, o'zi qozoqmikan?

— Qorong'ida qayoqdan bilay, gap-so'zidan qozoqqa o'xshaydi, ruscha aralashtirib gapiradi. Uyga kirgandan so'ng so'rarmiz... — deb shoshilinch chiqib ketdi.

— Ma, singlim, sindirib qo'yma, — deb mehmon katta ro'molga tugilgan narsani qizga uzatdi. Qiz uni quchoqlab ushladi.

— Qarog'im, buni menga ber-da, og'angni uyga olib kir, sovuq yeb qolmasin, — dedi bekatchi xushomadomuz. Ko'k movut kamzuli yarq-yurq etgan qora qalpoqli mirza uyga kirdi. Dahlizda xotini eriga shivirladi:

— Hov, boyoqish, mana bu shaqir-shuqur qilib ko'tarib kelayotganing nima balo!..

— Aroq-sharobidir-da.

— Necha kishi ekan?

— Chanachisidan boshqa hech kim yo'q.

— Voy sho'rim, shuning barini bir o'zi icharmikan?..

— Ichgani yaxshi, xotin. Aroq mirzalarni saxiy qiladi. Men otlarni joylashtirib kiray. Sen qozonga nima solishingni so'ra. Qazi, surlangan semiz qo'y go'shti borligini ayt. Necha qadoq go'sht pishir, der ekan.

Qirchillama ayoz otlarning qayishlarini toshday qotirib yuboribdi. Chanani haydab kelgan yigitning qo'li sovuqdan uvishib otlarni chanadan chiqara olmayotgan edi, bekatchi unga yordamlashib yubordi. U yigitga qarashayotib:

— Yigit, bu mirza kim bo'ladi? — deb so'radi.

— Uni o'zidan so'rarsiz. Kimligini bilmadim, — dedi qorong'ida turtinib, otni qantarib bog'layotgan yigit, sovuqdan tishlari taqillab.

— Chana o'zinikimi yo yollab oldimi?

— O'ziniki ham emas, yollab ham olgani yo'q... Ana, yana birov darvozani taqillatyapti. Boring, — deb yigit bekatchini turtdi. U yopiq darvozaning oldiga borib:

— Kim? — deb so‘radi.

— Chanada odam keldimi? — dedi yo o‘n uch, yo o‘n to‘rt yoshlardagi bola tovushi.

— Ha, keldi, nima ishing bor? Kimning o‘g‘lisan? — dedi bekatchi darvozani ochmay turib.

— Rahmat! — dedi-da, haligi bola otini choptirib ketdi.

— Bu qanaqa bola? Qayoqdan keldi?! — dedi bekatchi hayron bo‘lib.

U otlarga qarab yurgan mahalda uy egasining ayoli:

— Xadicha, mehmonlarga choy qo‘yib yubor, — deb qizini hovliga chiqarib yubordi-da, o‘zi mirzaga nazar soldi. Turli odamlarni ko‘rgan bekatchi ayol, bunday odamni hech ko‘rmagan edi. Aft-angori, savlati na boyga, na hokimga va na savdogarga o‘xshardi. Ayol kimga o‘xshatishini bilmay, hayron bo‘ldi.

— Mirza, biz yo‘lovchilarni kutadigan odam bo‘lgandan keyin, qozonimizni mehmonimizning xohishiga qarab osar edik. Ovqat yersiz? — dedi.

— Yeganda qanday... Albatta, yanga. Qanaqa go‘shtlaringiz bor?

— Yilqining qazisi bor, yol bor, semiz qo‘y go‘shti bor.

— Unday bo‘lsa, qazidan o‘n qadoq, yoldan o‘n qadoq, qo‘y go‘shtidan o‘n qadoq osing. Hozircha mana buni olib turing — deb u o‘n so‘mlik qizil ola qog‘ozni ayolga cho‘zdi. Hisobsiz berilgan pulni ayol ololmay hayron bo‘lib qoldi.

— Olavering, yanga, qolganini yana olaverasiz. Sovuqda qornim ochinqirab qoldi. Ovqatingizni tezroq pishiring.

Ayol eshik oldiga kelgan eriga shivirladi:

— Mirza uydagi go‘shtning hammasini qozonga sol deyapti. Bir ot puli — o‘n so‘m berib ham qo‘ydi.

— Necha qadoq go‘sht sol, dedi?

— O‘ttiz qadoq. Qazi bilan yoldan yarim pud, qo‘y go‘shtidan o‘n qadoq. Muncha go‘shtni nima qilmoqchi, qozonga sig‘maydi-ku, axir.

— Yo‘lga olib ketadigandir-da. Yo‘lga olib ketadigan bo‘lsa, o‘zidan so‘rab bo‘lak pishirib ber.

— O‘zingiz so‘ray qoling.

— Bor, bor, go‘shtlarni olib kelaver. Chana haydab kelgan yigitga ko‘rsatib tortib, korsonga solaver. Men joylashib o‘tirgandan keyin so‘rayman...

Cho‘ntagiga o‘n so‘m tushgan Risbek uyga kulimsirab kirdi.

— Mirza, “yuz odamning tusini bilguncha, bir odamning ismini bil” degan, so‘raganning aybi yo‘q... Kim bo‘lasiz? Qaysi urug‘dansiz? Qayoqdan kelyapsiz? Gaplashib o‘tiraylik, — dedi mezbon mehmonga yaqin chordana qurib o‘tirib.

— Jonbilmas urug‘idanman. Belgisiz boyning o‘g‘liman. Rossiyaga bir ming sakkiz yuz to‘qson ikki qo‘y olib borib sotib, (Hojimuqonning Rossiyaga borgan yili) endi elimga ketyapman.

— Qiziq, eshitmagan gaplarni eshitasan-a, Jonbilmas qaysi urug‘ga kiradi? Org‘inmi, Qipchoqmi?

— O‘tog‘asi, unisini o‘zim ham yaxshi bilmayman.

— Mayli. Ha, aytmoqchi, ovqatni ko‘proq qil, degan ekansiz, yo‘lda yeydiganingizni bo‘lak pishirsinmi?

— Yo‘g‘-e, yo‘lda kishi ovqat yermidi? Hammasini pishirib olib kelaversin.

Bu oilada uchta jon bor edi. Ko‘p yillardan beri umri yo‘lovchi kutib o‘tgan bu oila, o‘tgan-ketgan yo‘lovchilarning xizmat haqidan tashqari qiziga u-bu narsalar tashlab ketishini yaxshi ko‘rar edi. Qizning oti Xadicha edi. Ilgari yo‘lovchilar besh-o‘n tiyin yoki bir-ikkita konfet berar, uni quruq qoldirmas edilar. Endi Xadichaning bo‘yi yetib qoldi. Odamlar unga nima berishini bilmay, kichikroq narsa beray desa uyalib, ulg‘ayib qolgan qiz bolaga berishga arziydigan narsa topolmay faqat yotoq joyiga, yegan-ichganiga haq to‘lab ketishaveradigan bo‘lib qoldi. Bu yo‘lovchilar orasida boylar ham, oddiy odamlar ham, savdogar va to‘ralar ham kelib ketadi. Ammo bu oila shu vaqtgacha mana bunday fe’l-atvori boshqacha mirzani ko‘rmagan edi.

Xadicha bug‘ini burqiratib samovarini olib kirishi bilan yonboshlab yotgan mehmon boshini ko‘tardi-da:

— Singlim, anovi tugunni menga olib bergin, Peterburgdan olib kelgan narsalardan senga ham beray, — dedi.

Dasturxonni yozib, piyolalarni tayyorlab qo‘ygan qiz tugunni mirzaga olib berdi. U avvalo, besh shisha aroqni olib qator qilib

qo‘ydi-da, bir siqim konfet olib tashladi. Keyin “Guljahon” degan sovun bilan bir quti vazelin olib qizga berdi.

— Ma, singlim, bu bozorligim. Yana bir yo‘lim tushganda, toy ham mindirib ketaman.

— E, mirza, qo‘ying. Ovulga olib ketayotgan sovg‘a-salomingizni yo‘l-yo‘lakay ulashsangiz, nimasi qoladi? — deyishdi qizning ota-onasi.

— Hechqisi yo‘q, o‘tog‘asi. Parvo qilmang. Bu faqat chanadagisi. Peterburgdan ortilgan yuk hali yo‘lda.

“U qanday narsalar ekan-a?” — deb o‘yladi bekatchi. Choy ichib olgan mirza, shu uydagi hamma yostiqni boshiga qo‘ydirib, qashqir terisidan tikilgan po‘stinini oyog‘iga yopib, ovqat pishguncha yonboshladi.

— Xotin, ovqatingni shoshilmay bemalol pishiraver. Mirza biroz dam olsin, — dedi Risbek.

* * *

Yostig‘ini balandroq qilib uxlash Hojimuqonning odati edi. Boshi yostiqqa tegdi deguncha uyquga ketardi-yu, lekin bilmagan, eshitmagan bo‘lib yotib, hamma gapni eshitib olardi. Biroq u keyin, “falonchi falon dedi”, deb og‘iz ochmasdi. Birovning orqasidan gap-so‘z qilishni ham yomon ko‘rardi.

Ovqat pishgan mahalda bir kuchli qo‘l darvozani taqillatdi. Shunchalik qattiq urdiki, har urganda yog‘och uyning devorlari zirqillab ketdi.

— Yopiray, bu kim bo‘ldi yana? — deb bir bo‘lak go‘shtni korsonga solayotgan ayol eriga qaradi.

— Xudo biladi, polvon bo‘lsa keragov... Avval kuni ovuliga keldi, deb eshitgandim. Men chiqay, — deb Risbek korsonni yerga qo‘yib, darvozani ochgani ketdi. Darvozaga yaqin borib:

— Kim? — deb so‘radi to‘nini yelkasiga tashlab olgan bekatchi.

— Och darvozangni, Nurmag‘ambetman!

— Voy aylanay, seni juda ko‘rgim kelib o‘tirgandim, Xudoning o‘zi yetkazdi... — dedi darvozani tez ochib, otining jilovidan ushlab.

— Otni panaroq joyga bog‘la. Choptirib keldim, terlab qoldi.

— Otdan g‘am yemang, polvon, o‘zim bilaman. Siz sovuq yemay uyga kiravering.

To‘rda, qashqir terisidan tikilgan po‘stin yopinib, to‘nkaday bo‘lib yotgan mirzaga tur deyolmay, uy egasi shunga yaqinroq joyga to‘rt qavat ko‘rpacha soldi. Polvon ustki kiyimlarini yechib, uy ichi bilan ko‘rishdi.

— Polvon, sizni ko‘rmaganimizga ham ancha bo‘ldi-a. Ovulga kelganingizni eshitgandik. Borib ko‘ray desak qor qalin yog‘ib, hech iloji bo‘lmadi!.. — deb Risbek eshikdan kira so‘zga tushdi.

Polvon unga javob bermay, buklab ushlagan qamchisi bilan:

— Mana bu eshik oldida to‘nkaga o‘xshab yotgan kim? — dedi u yotgan mirzaga ishora qilib.

— U Sariterak tomondagi mirzalardan biriga o‘xshaydi. Peterburgga borib qo‘y sotib qaytganmi? Harqalay... Chana bilan qaytibdi, yo‘l ancha qiynab qo‘ygan ko‘rinadi. Qosh qorayganda kelgan edi, dam olib yotibdi.

— Kim ekan?

— Bilmadim, polvon elidan dedimi. Jonbilmas dedimi, bir urug‘ning nomini aytdi. Esimdan chiqibdi... — dedi bekatchi shivirlab.

Cho‘loq polvon baland tovush bilan:

— Unda to‘nka ekani aniq bo‘ldi, mayli, yota tursin.

Yotgan mirza ingranib boshini ko‘tardi-da, polvonga ko‘z qiri bilan qaradi-yu, indamadi.

— Mirza, qayerdan kelyapsan?

— Peterburgdan.

— Xo‘sh, u yoqdagilar omon-esonmi?

— Omon.

— Podshoning Hojimuqon degan polvoni bor emish, ko‘rdingmi?

— Yo‘q.

— Unda sen shuncha yerni kezib, ovulda men ko‘rgan Hojimuqonni ko‘rolmabsan-da?

— Siz uni qayerda ko‘rdingiz?

— Ko‘rganda ham, bopladim. U qor bosgan bir bekatda o‘tirgan ekan. “Men podshoning polvoniman”, deb maqtandi. Men uni o‘tirgan joyidan shartta ko‘tarib olib ko‘chaga uloqtirib yubordim.

— Yolg‘on aytyapsiz. Siz uni ko‘rganingiz yo‘q. Hojimuqonni uloqtirib yuborishingiz uchun siz avvalo men bilan bellashib ko‘rishingiz kerak?

— E, shunaqa hunaring ham bormi?

— Bor.

— Unday bo‘lsa tur o‘rningdan.

Mirza kamzuliga taqilgan medallarni shaldiratib o‘rnidan sakrab turdi. Nurmag‘ambet ham o‘rnidan turib, Hojimuqonni quchoqlab bag‘riga bosdi.

— Noming chiqib, elimizning obro‘si bo‘lgan jigarim, sog‘inib yurganda seni ham ko‘rdim! Kel, o‘pay...

Qozoqning ikki polvoni bekatchining uyida mana shunday uchrashdi.

Qudalik

Nurmag‘ambetning yoshi Hojimuqonnikidan bir muchal katta edi. Shuning uchun ham u: “Jigarim, sog‘inib yurganda seni ham ko‘rdim!” — deb uzoq bag‘riga bosib turdi. U ko‘risharkan, o‘zining xafachiligi yo xalq boshiga tushgan kulfatlar esiga tushdimi, ko‘zlaridan yosh tomchiladi.

— Dardga to‘lgan ko‘nglim sal bo‘shadi, shekilli...

— Yanga, mana bu mening tagimdagi ko‘rpachalarni qayta yozib soling, Nurakam joylashib o‘tirsin, — dedi “mirza” Nurmag‘ambet bilan o‘tirayotib...

Uydagi odamlar hech narsaga tushunmadi. Boya, o‘rningdan tur, deganda talay mirzalarning peshonasini urib yorgan Cho‘loq polvon yana bir janjalni boshlamasa go‘rga edi, deb o‘ylashdi-yu, biroq o‘zlari “mirza” deb o‘tirgan odam podsho polvoni haqida bir narsa aytib, kurashgani o‘rnidan uchib turganda, quchoqlamoq tugul salom bermaydigan polvon, uni “jigarim” deb bag‘riga bosganda, undan battar hayron bo‘lib qolishdi.

— Qarog‘im, Xadicha, og‘angning tagidagi ko‘rpachalarni yozibroq sol, — dedi keyin. Bu kim bo‘ldi, chirog‘im, chiningni aytgin, — deb chana haydab kelgan bolaga imo qildi.

— Sabr qiling, hozir bilasiz, — deb ming‘irladi u.

— Bu mirzaning kim ekanini endi bildingmi, Risbek? — dedi Nurmag‘ambet bekatchiga.

— Qaydam, qarog‘im, to‘qqiz yo‘l qo‘shiladigan joyda qirq yil o‘tirib bunday g‘alati uchrashuvni endi ko‘rib turibman. Oxiri xayrli bo‘lsin.

— Oxiri xayrli bo‘ladi, Bibigul. Xayrli bo‘lmasa, mirza uchun pishirilgan ovqat men bilan “oq podshoning asrayotgan polvoni” — el og‘zida doston bo‘lgan Hojimuqonga buyurarmidi? Bu faqat mehmon uchun pishirilgan ovqat emas, oldimizdagi bo‘ladigan to‘ylarning yo‘locharidir. Bu mening necha yildan beri intizor bo‘lib kutgan jigarim Hojimuqon.

— Voy, aylanay, nima deyapsiz... — deb qo‘lidagi go‘sht olib solayotgan kapgirini korsonga qo‘ya solib, ayol orqasiga o‘girildi. Oqko‘ngil Risbek nima qilarini bilmay Hojimuqonni quchoqladi. Polvon, shoir, botir yigitlarni ta’riflaganda, o‘yiga turli narsalar keladigan qizning yuzi nurlanib ketdi.

— Qarog‘im, ikki polvonning boshi qo‘shilsa seni gapirardi, seni ham ko‘rar kunimiz bor ekan-ku. Boy, xon, to‘ra, sultonlarning nomi ovul atrofidan nariga chiqqan emasdi, sening kuching o‘ris, qozoqqa ma’lum bo‘lib, dovrug‘i olamni tutdi, chirog‘im. Ba’zi bir nomi chiqqan kishilar Peterburgga borib podsho senatining uyini ko‘ribdimish, deb so‘z qilardi xalq. Sen o‘sha uyda turibsan. O‘tgan kuni shu yerda tunab o‘tgan yo‘lovchilar tuni bilan: “Quttiboy ham hazilakam odamlardan emas! Podshoning polvoni o‘shaning uyiga tushibdi, podshoning aroq, sharobini, konfet-shokoladini to‘kib tashlabdi”, deb so‘z qilishgan edi. Agar Nurmag‘ambet biznikiga kelmaganda sening kim ekanligingni bilmay, “mirza”, deb ketaverar ekanmiz-da... Voy chirog‘im-ey, otingni nimaga yashirasan?

— Risbek, men bu yerga bekorga kelganim yo‘q. Men buning shahardan chiqqandan buyon otini yashirib kelayotganini eshitib yurganman. Ovul ro‘parasidagi ikki bekatga ham odam yubortirib,

uning bugun shu yerga kelishini bilganman. Kechqurun darvozangni taqillatib so'rab ketgan bola bor-ku, o'shani men yuborganman.

— Qara, yo'l ustida o'tirib biz bilmagan narsani ovulda o'tirib sen bilibsan-a?

— Buni senlar qayoqdan taniysanlar, o'zicha ochilib so'zlamasa, oti, zotini aytmasa yo basharasini tanimasanglar. Bu menmidim, meni shu yosh boladan tortib to munkillab qolgan chollargacha ovozimdanoq tanib oladi... Bu anchadan beri uyasida yotgan bo'ri bolasidek podshoning saroyiga tiqilib yotibdi-yu...

— Podshoning saroyiga tiqilib yotganim yo'q, og'a!

— Xo'sh, bo'lmasa qayoqda yurding!.. Ovulda sening yo'lingga ko'zi to'rt bo'lib qarab o'tirganlar ozmi? Mana men ham shundaylarning biriman. Seni ko'rishga intizor bo'lgan odamlarga otingni yashirib, "mirzaman" deb Quttiboyning kichkinagina chanasida yurguncha, menga bir og'iz xabar qilsang nima bo'lardi! Seni ot ko'tara olmasa, tuya ko'tarardi-da. Ustiga gilam yopib, oq tuyaga mindirib ovul oralatib olib kelmasmidim. Itning bolasiga ham qo'yilaveradigan "mirza" nomi, jahon polvonlarni yiqitgan Hojimuqon degan nomdan mo'tabar bo'ptimi! O'tirgan joyingda yapondan qolgan tirtiq qulog'ingni yulib tashlayman... — deb hazil aralash jahli chiqdi Nurmag'ambetning. - Shunday qilib, seni oqpodshoning saroyida turadi, degani yolg'on bo'ldimi?

— Podsho polvonni nima qilsin, og'a.

— Yer yuzining yarmisini so'rab o'tirgan podshoni qo'riqlash uchun kuchli odamlar kerak bo'lmaydimi?

— E, uni qo'riqlash uchun olti otari bor bitta esi past yetadi. Podshoga o'nta bilimi bor aqlli kishidan, bitta aroq zavodi bor puldor boy ortiq.

— Bu qanaqasi? Podshoda qirq kishining aqli bo'ladi, deyishardi-ku. Bu yaramas kishining ishi-ku. Qurolni kuchi bor kishi ushlamasa, qo'g'irchoqqa o'xshagan odamdan kim qo'rqadi.

— Qo'rqadi, og'a. Podsholik — ertaklarda ta'riflangan sehrli uzukdek gap. Men o'qib chiqqan maktabning rahbari ham bilimli, ham aqlli, ham polvon. O'shayam maktabga qarab yurgan oriq politsiyachidan qo'rqadi. Uning mast bo'lmagan kuni yo'q.

Bordi-yu, o'chakishib qolsa, nohaq bo'lsa ham uning so'zi o'tadi. Hokimiyat o'shalarning qo'lida bo'lgandan keyin, nachora, tinglaysan-da.

— Maktablaringning boshlig'i qaysi yurtlik ekan?

— Xalq nihoyatda sevadi, o'zi o'ris, oti Ivan tog'a.

— Unaqa ekan, ustidan podshoga arz qilmaydimi?

— Podshoning o'zi shunaqa bo'lgandan keyin kimga arz qilsin!

— Unday bo'lsa, jigarim, bizlarning arz-dodimiz oqpodshoning qulog'iga yetmay yotibdi, og'izma-og'iz gaplashsak mushkulimiz oson bo'lardi, deb yurganimiz, "och qolgan tovuqning tushiga tariq kiradi", deganday gap ekan-da. Unda seni qo'llab-qo'ltiqlab odam qilganlar faqat, Ivan tog'aga o'xshaydiganlar ekan, shuning uchun qaytib ketaman, degan gapni qo'y, elda bo'l. Qayerga borsang ham xalq madadkor bo'lsa, Ivan ham, Ibadulla ham shu yerdan topiladi. O'rganganlaringni bolalarga o'rgat. Bu dala hali qancha-qancha Hojimuqon bilan Nurmag'ambetni yetishtirib beradi. Xo'sh, uylandingmi?

— Uylanishga qo'l tekkani yo'q.

— Qashqir terisidan po'stin kiyib, qora chamadon ko'tarib kelguncha, oltin sochli oq farishtalarning bittasini yetaklab kelsang bo'lmasmidi?

— Qo'y-e, mirza og'a, uni nima qiladi? Qaynim olaman desa, qaysi qozoq qizini bermaydi deysiz, o'z yurtimdan uylanay degan-da, — dedi bekatchining ayoli.

— Olib kelsa nima qilibdi, Bibigul. Yegorning qizi Mariyam dudorga tegib, mana butun qozoqlarning o'lanida kuylanib yuribdi. Agar qaynim deb qovurg'ang qayishsa, qizing Xadichani bera qol. Endi, buni qo'ldan chiqarmay mahkam ushlab qolaylik, — dedi polvon, Hojimuqondan ko'zini olmay o'tirgan qizga qarab.

— Hoy xotin, ozgina issiq cho'rva olib kel-chi, ovqat ham sovib qolay dedi, — dedi Risbek go'shtni to'g'rab bo'lib, qo'lini artar ekan. Qiz uyalganidan yerga qaradi. Terlab ketgan ayol, betiga qon yugurib:

— Qizning ixtiyori menda emas, polvon og'a, ovul og'asi o'zing bilan otasida.

Polvon iljayib Risbekka qaradi:

— Risbek, Bibigulning so'zini eshitdingmi? Agar ixtiyor menda bo'lsa, bu masalani keyinga cho'zmayman, men o'z fikrimni aytib bo'ldim. Ovqatingga qo'l urmay turib, sen ham o'z so'zingni ayt, nasiya qilishni yomon ko'raman, buni o'zing ham bilasanku, — dedi polvon jiddiy.

— Qaydan bilay, qarog'im... Peshonasiga yozgani bordir-da, o'rni kelganda bir og'iz so'z bilan ham ish bitib ketadi, o'zingdan qolar gap yo'q, qarog'im. Oti chiqqan yigit ovulga kelayotgan ekan, behazil aytayotgan bo'lsang o'ylashib ko'rarmiz yana.

— Mening gapimda hazil bo'lmaydi, o'zing bilasan-ku, chin so'zim Risbek aka. Agar Xadichaning og'asi deb ixtiyorini menga bersanglar, shu ovqatni quda oshi deyman. Men qudalashish uchun inimni ergashtirib kelgan bo'laman. Aravakashim mana bu Quttiboyning yigiti bo'ladi. Kiyadigan to'ning mana bu mirzaning qashqir terisidan tikilgan po'stini. Minadigan oting uchun uyga bor-da, yo'rg'amni minib qayt. Qaliningni eldan yig'ib beraman, el mening tugalmas xazinam ekanini bilasan-ku!

— Mana, polvon og'asining qilgan ishi. Ishni ko'z ochib yumguncha bitirdi-qo'ydi. Qudasi ham o'zi, og'asi ham. Bir talay mirzadan sovchi kelganida qovog'idan qor yog'gan edi, bilsak gap bu yoqda ekan-da. Hatto minib yurgan yolg'iz bo'z yo'rg'asini ham beradigan bo'ldi. Ha, aytganday, bizlar minadigan otini ham olib qo'ydik, — dedi qizning onasi.

— Iya, qanday qilib, nima, bu mirzaning yetaklab yurgan yilqisi bor ekanmi? Qanday qilib olding, quv naymanning qizi.

— Aytsam yana jahling chiqadimi, qaydam... Mehmon kelgandan keyin odatimiz bo'yicha qanday ovqat pishiraylik, deb so'ragan edik. "Mirzaman" deb kelgan qaynim o'n so'm pul berdi-da, "mana bu pulni olgin-da, bor go'shtingni os", dedi.

— Sen oldingmi?

— Oldim. Kap-katta odam "mirzaman", deb turgandan keyin olmay bo'ladimi. Endi nima deyarimni bilmay uyalib o'tiribman, — deb Bibigul kuldi.

— Voy, uyiga kelgan mehmonning ayil-yuganini o'g'irlaydigan naymanning qizi-yey, hali otning pulini ham olib qo'ydim degin!

— Ha, mirza og‘a. Nega bo‘lmasa ismini yashiradi, o‘zi aybdor. O‘zingiz emasmi, mirzalarni hecham ayamagin, degan.

— Buning to‘g‘ri. Biroq men qudalashib o‘tirgandan keyin otni men minishim kerak pulni bu yoqqa cho‘z!

— Pul desa sichqon ko‘rgan mushukday chang soladigan og‘ang menga pul ushlatarmidi, olib qo‘ygan allaqachon. Qudang — og‘ang-ku, bitta qoziq dovini qirq yilga cho‘zadigan org‘inlar — endi o‘zlaring dovlashaveringlar. Naymanning qizi endi bu mashmashadan qutuldi, mirza og‘a.

— Risbek aka, sen ham menga o‘xshab juda epchilsan-da... Mana bu nayman qizning suv yuqtirmay qutulib ketganini qara. Mayli, bosh molni o‘z qo‘lingga olibsan, buyog‘ining hisobini keyin qilarmiz, — deb kuldi polvon.

— Ol, chirog‘im Hojimuqon, katta-katta ol. Bu tirikchilik kishini nima ko‘yga solmaydi deysan. Bu Risbek ham ota urug‘imdan. Har odamning tuz-nasibasini tangrim u tug‘ilmay turib daftariga yozib qo‘yarmish. Bunday o‘ylab ko‘rsang, tangrining o‘zi ham kirim-chiqim daftari bor savdogarga o‘xshaydi. U o‘sha ulushlarini taqsim qilganda bizning ota-bobolarimizga: mol boqish bilan yo‘l kuzatishni, Quttiboy bilan Ittiboyga mol, pul yig‘ishni yozgan ko‘rinadi. Men tangrining bu taqsimotiga ko‘nmay, ulardan biroz u-busini tortib yeb ko‘rdim. Ammo tangri menga: “Men seni yemasin, deb yozganman”, degani yo‘g‘-u biroq pul bilan mol xo‘jayinlari biroz koyishdi. Bundoq o‘ylab qarasam, bu bilan tirikchilik qilib bo‘lmas ekan. Keyin, qo‘y, bu ishim bilan bolalarga yomon tarbiya berib qo‘yadigan ko‘rinaman, deb bunaqa ishlarni qo‘ydim. Bir qishloqqa yaqinroq joyga ko‘chib borib, bolalarimni o‘qishga berib, o‘qitayotibman. Risbek akam bu bekatga Bibigulga uylangan yili kelgan edi, chamasi o‘ttiz yilcha bo‘lib qolgandir-a?

— Ha, yigirma sakkiz yil bo‘ldi. To‘ng‘ichimiz o‘lmaganda nabira ko‘rgan bo‘lardik. Qandoq qilay, sakkizta farzanddan bitta shu Xadichaga ega bo‘lib o‘tiribmiz, — deb Bibigul ko‘z yoshi qildi.

— E, yanga, qolganining umrini so‘ra. Shunday qilib, Risbek akamning ozgina qo‘y-echkisi bizning ovulda. Senday hurmatli

mehmonga bor molini so'yib, kalla solib berishdan Risbek akam qisilmas edi-yu... lekin ovuli qurmag'ur o'n chaqirimcha joyda-da. Xo'sh, otangning o'tgan yili vafot qilganidan xabarim bor. "Otang o'lsa ko'milar, oting o'lsa so'yilar, har kuni bunday ulfatchilik qayoqdan topilar" deganday, sening yo'ling bunday o'ngidan tushavermas. Sog'inib yurgandim, zo'rg'a topib oldim. Endi o'n-o'n besh kun tur, mehrim qonsin, to'rt ovulli To'qtovulni toza aylantirmay javob tegadi deb o'ylama aslo! Buni qora chamadonini narigi uyingga olib kirib, eshigini qulfla-da, ertaga Quttiboyning chanasiga tushib, Xadicha bilan bizning ovulga yur, Bibigul. Risbek akam bekatiga uch-to'rt kun o'zi qarab turar. Endi odamlar oqpodshoning polvonini Nurmag'ambetning uyida ko'rsin, — deb u aytganini qilib, ertasiga ikki ot qo'shgan chana bilan ularni ovulga olib ketdi.

Bekatdan chiqqanda Nurmag'ambet yo'rg'a otiga Xadichani mindirib, o'zi Hojimuqon bilan birga chanaga o'tirgan edi, biroz yo'l yurgach, chanani to'xtatib:

— Xadicha, tush otdan, sovuq yeb qolding, chanaga minib ol, podsho polvonining po'stiniga o'ranib o'tirasan. O'ziyam to'rt kishiga yetadigan mo'l ko'rinadi. Men oldinroq borib mehmonlarga joy hozirlatay, — dedi.

— Qo'y, og'asi, otda ketaversin, uyaladi, — deb Bibigul qarshilik ko'rsatsa ham, yuzlari sovuqdan olmaday qizarib ketgan qizni otdan ko'tarib oldi.

— Hey, Hojimuqon, yalpayib yotmay po'stiningning bir tomonini bu yoqqa yoz! Uyalarmish-a! Yigitning po'stinini yopinib o'tirishga sen uyalasan, — deb chanaga sho'ng'itib yubordi.

— Qizginamdan aylanay, kel, og'angning sovuq yedi deganicha bor ekan, kel, o'rtamizga kir, — deb Bibigul nariroq surildi. Hojimuqon po'stinining mo'l etagini burgutning qanotiday yozib yosh qizning yelkasiga tashladi, uni bag'riga bosib o'tirdi, lekin asta-sekin o'rganib qoldi.

— Bola endi chanangni mening izimdan sekin haydayver, tag'in ovul orasidagi so'qmoqlarda ag'darib yuborma! — deb Nurmag'ambet ovulga ot choptirib ketdi. U ovulga borishi bilan boy ovulning yayloviga odam yuborib, bir toy oldirdi. Uning

ustiga yana ikki qo'y so'ydirdi. Ikki xonali uydagi uskunalarni bo'shattirib, gilamlar bilan jihozlatdi. Yaqin atrofdagi hamma qiz-juvonlarni yig'ib, uylarga bo'lib o'tqazdi-da, avvalo, uyga to'lgan ayollarga:

— Mana o'zlaring ko'pdan beri so'z qilishib yurishgan, podshoning saroyida turadigan Hojimuqon polvonlaring. Bu tog' ko'targan bir ko'zli, fil ko'targan shoxli polvonni yiqitishga qudrati kelsa ham, shunday yo'li tushganda o'zini tanitib, bir ko'rishga intizor bo'lgan xalqni aylanib, ko'rib o'tish xayoliga kelmabdi. Quttiboyning chanasiga tushib "mirza" bo'lib kelayotgan ekan. Risbekning bekatidan tutib olib, ikki qo'lini mahkam ushladim-da, yuzidagi pardasini Xadichaga oldirdim. Shunday qilib, mana, o'zini ovulga olib keldim. Mana endi, do'stlar, bu biringning o'g'ling, biringning iningday gap, tanishinglar u bilan.

— Ko'p yasha, chirog'im, bola-chaqangning rohatini ko'r! Buning kuchi bizga osh-non bo'lmasa ham, qozoq degan nomni butun dunyoga tanitdi-ku. Barakallo! Endi xumorimiz bosilguncha javob berma unga.

— Qoziqqa boylab qo'ysammi deb turibman.

— Rahmatli onasi qarag'ayni qoziqdek yulib olardi. Bunga qoziq chidarmikan?

— Qimir etkazolmaydigan qoziq topamiz.

— Mayli unday bo'lsa, biz ham yordamlashaylik.

— Agar yordam bersanglar, Risbek bilan quda bo'lib qizini olib beraman, ana o'shanda qiz bunga qimir ettirmaydigan qoziq bo'ladi. Chirog'im Nurmag'ambet, juda aqilli ish qilibsan. Yordam beramiz — deyishib kattalar ma'qullashdi.

— Agar qizimiz ovulniki, o'g'limiz elimizniki bo'lsa hech qiyinchiligi yo'q! To'yni ertagayoq boshlash kerak...

Qariyalar tarqalishgach, qizlar o'yini boshlandi. Do'mbira, surnay chalinib, turli jozibali kuylar yangradi. O'qtin-o'qtin Hojimuqon o'zining hunarini ko'rsatdi; gavdasida tosh chinniday sinib, temirlar chiviqday buraldi.

Nurmag'ambet Quttiboyning chana haydovchi yigitini bir kun tunatib, ertasiga chanasi bilan qaytarib yubordi. Hojimuqonni qo'shni ovullarga nortuya qo'shilgan chanada olib borishdi,

bu polvonning sha'niga yarashib tushdi. Qayerga borsa ham o'yin-kulgi, xushchaqchaqligini tashlamaydigan Nurmag'ambet, ovul qiz-yigitlarni yonida olib yurdi, shular bilan birga Xadicha ham sayr qildi.

— Qizgina, baxting ochilibdi, qutlug' bo'lsin! Polvon og'angning orqasida, nomi tillarda doston bo'lgan oqpodshoning polvoniga unashtirilibsan-u, — degan yangalarining so'zi dastlab qizga erish ko'rinsa-da, keyin o'rganib ketdi. Ba'zi bir sho'x yangalar uni itarib, Hojimuqonning oldiga yiqitishni ham o'ylab chiqardi. Nurmag'ambet ovulda bo'lgan kechalarning birida yangalar "qo'l ushlatar"ini[1] ham olib ulgurishdi.

Ovulga tezroq ketishga shoshilgan polvonni Nurmag'ambet o'n kuncha ushladi, xabar topib kelgan sariteraklik ovuldoshlari balan bamaslahat Risbekni oldirib, semiz qo'y so'ydirdi-da, qudalik to'yini qildi. Yangi oyning o'rtalarida, o'z uyida to'y qilib, Xadichani qo'shmoqchi bo'lishdi. Ovulning yoshyalanglari kechasi allamahalgacha o'yin-kulgu qilib tarqalishdi. Nurmag'ambetning uyida faqat Hojimuqon bilan Xadichagina qolishdi. Hojimuqon qizning nozik qo'llarini yo'g'on, baquvvat qo'li bilan ushlab, kichkina ko'zlari bilan uning yuziga uzoq tikildi.

— Endi qolgan umrimizni birga o'tkazamiz-a... Seni ko'rishim bilan ko'nglim-ko'nglingga, sirk gumbaziga bog'langan arqondek mahkam bog'landi. Kundan kunga ko'zimga issiq ko'rinib ketyapsan... Tashlab ketishga ham ko'zim qiymay qoldi...

— Sizga kim ketgin deyapti?..

— Kelaman, kechikmay kelaman, Xadicham... Uning qalin labi qizning yuziga taqaldi.

* * *

Butun umri kurashdan boshqani o'ylamay kelgan Hojimuqon, ovuliga qarab yo'l olganda, endi yana bir narsa — sahroda, jar yoqasida qolgan bekatchining uyi haqida o'ylar edi. U uyda, o'zimizga tanish uch kishi turadi. Sariterakka yo'l olganda chana-

[1] Qozoqlarning urf-odatiga binoan to'ydan oldin yangalar kelin va kuyovning qo'llarini bir-birlariga ushlatib pul, sovg'a-salom olishadi *(tarj.)*.

da teskari qarab o'tirgan Hojimuqon, ko'p vaqtgacha shu uydan ko'zini olmadi. Nurmag'ambetnikida o'tgan o'n kunlik totli hayotining ba'zi lavhalari ko'z oldidan o'tib, chanadagilarning so'zlariga uncha quloq ham bermadi. Bekatchining uyi ko'zdan g'oyib bo'lganda, qor bosgan keng daladan chana olti-yetti chaqirim uzoqlashib ketgan edi. Uning yonida o'tirgan ikki odam, o'zi bilan birga tug'ilib, birga o'sgan tengdoshlari, ko'p yillardan beri ko'rmay sog'ingan do'stining kelayotganini eshitib, ikki kunlik yo'lga ulov bilan kelishgan edi. Qozoqlarning urf-odatini yaxshi biladigan Nurmag'ambet uni o'ziga o'la-o'lguncha do'st, deb hisoblar edi. Shuning uchun ham Hojimuqonning ovuldan kelgan odamlarni izzatini o'rniga qo'yib kutdi.

— Mening ko'pdan beri kutgan, ko'rishga mushtoq bo'lgan odamim kelib, o'ylaganimdan ziyod ma'raka qilayotgan vaqtimda keldinglar. Borimiz shu. Oz bo'lsa ko'pday ko'rib, mazur tutinglar.

— Yo'g'-e, hecham-da... Odamgarchilik boylikning quli emas, boylik odamgarchilikning quli. Shunday ekan, erksiz qulni egasi siylov qilib ham beradi, sotadi ham. Qo'limda davlatim bo'lsa, hech qachon hech kimdan ayamaganman, ayamayman ham. Shu bilan kamayib qoldim deb o'kinmayman ham. Biroq iloj qancha, kerak mahalida dunyosi qurg'ur topilmay ham qoladi.

— Mana, Hojimuqonni ovullaringga olib ketmoqchi bo'lib o'tiribsanlar. Zar qadrini zargar biladi, deganiday bunda qanday fazilat birligini men bilaman. Biroq shu men bilgan fazilatni ham ko'pchilik tushunguncha hali ancha vaqt borga o'xshaydi. O'g'ling o'ssa, o'g'li yaxshiga qo'shni bo'l, qizing o'ssa, qizi yaxshiga qo'shni bo'l, deb bobolarimiz juda to'g'ri aytgan. O'risning tarbiyasi qor kurab yurgan Hojimuqonga shuncha obro', shuncha martaba berdi. Endi uni qo'ldan chiqarmaslik uchun ovullarning katta-kichigi bilan maslahatlashmayoq, o'zimcha og'alik qilgan bo'larman deb o'ylab qarindoshimning qiziga unashtirib qo'ydim. Bu ishimni ovulimizning katta-kichigi ma'qul ko'rishdi. Bir niyatim bor: el yaylovga ko'chib chiqqandan so'ng Esil, Nuradagi

odamlarning yordami bilan butun Orqa[1] qozoqlariga to'y bersam deyman. Mana, bu urush degan bir balo chiqib, el turmushi kundan kunga yomonlashyapti. El omon bo'lsa, yaxshi kunlar kelar hali. Otasiga fotiha o'qilgandan so'ng tezroq qaytinglar.

Bizlarda "jiyanchilik" degan bir odat bor emasmi? Shu odat bo'yicha, bir yigit qarib qolgan tog'asinikiga kelib, uch-to'rt kun mehmon bo'lib, so'ng qaytar paytida tamagir ona maqsadini aytibdi. Chol tog'asi ingranib o'tirib, ketish taraddudini ko'rayotgan jiyaniga:

"Chirog'im jiyan, hammasiga tushunib turibsan! Mening to'rimdan go'rim yaqin, ketib qolmay menga uchrashib qolganing ma'qul. Sendan hech narsani ayamayman. Uyda minib yurgan bir otim, yozda sog'ib ichadigan bir qulunli biyam bor, endi o'zing bilasan... Bir-ikki sigirim, besh-o'n tuyoq, qo'y, echkim bor, o'zingdan qolar gap yo'q, lekin yana o'zing bilasan...

Xo'sh, mana bu sandiqda, onangga ko'ylakli besh arshin mato bor, shuni ola ket!.." — degan ekan. O'shanga o'xshab biznikiga birinchi kelishlaring, "bir nima qiladigan" qo'limda hech narsa yo'q, qo'ynidan to'kilsa qo'njiga demoqchi, mana bu choponlarni menga birov kiydirgan edi. Endi ikkalang shu ikki choponni kiyib ketinglar, — deb ikkalasiga chopon yopdi. Bu mardlik Hojimuqonni ko'p o'ylatib qo'ydi. Nurmag'ambetning salobatli gavdasi bilan birga, bekatchining uyida qolgan nozanin qizning yorqin qiyofasi ko'z oldiga keldi.

Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan yosh qiz ochilib hech narsa deyolmadi. Yangi sozday hali sado bermagan bu jononning pardalarini joy-joyiga qo'yib, torlarini tarang tortib, qulog'ini burab tilga keltirishga Hojimuqon ham ojiz edi. Yangalar urchuqdek aylantirib qo'liga ushlatganda, xuddi tuzoqqa tushgan asovdek yulqinib, yuzlari gul-gul yashnab, qo'ltig'iga kirgan qizga biron durustroq so'z topib ayta olmadi.

Shu o'ylar bilan ro'molini ilmoqchi bo'lib cho'ntagiga qo'l solgan edi, qo'liga bir parcha narsa ilindi: u hoshiyasi qizil ip bilan tikilgan yupqa ro'molcha edi. Bu ro'molchani u Xadichaning qo'lida ko'rgandi, cho'ntagiga qanday tushib qolganiga hayron

[1] Tog' orqasida yashovchi qozoqlarni orqa qozoqlar deyishadi. *(tarj.)*.

bo'ldi. Osig'liq turgan kamzuliga bilmasdan solib qo'ygan bo'lsa, men olib ketaverganman, deb o'yladi u. Birovning kichkina narsasini olsa ham o'ziga qaytarib berishga odatlangan Hojimuqon qizning ro'molchasini olib ketganidan juda nomus qildi.

— Ey, to'xta! Chanani qaytar, — dedi u o'rnidan ko'tarilib.

— Ha, Joybosar, nima bo'ldi? — dedi Nurmag'ambetning odamgarchiligini aytib tugatolmay kelayotgan do'sti. Hojimuqon yosh paytida tanasi og'ir bo'lib, bir narsani olib qochgan bolaga quvib yetolmasdi, shuning uchun uni tengdoshlari — "Joybosar" deb atashardi.

— Xadichaning ro'molchasi cho'ntagimda ketibdi. Shuni o'ziga olib borib bermasak uyat bo'ladi.

— Qo'y-e! Endi bir bekatday joyda qolgan ovulga qaytib bormoqchimisan?

— Bo'lmasam-chi...

— E, kallavaram, uni qiz ataylab solib qo'ygan cho'ntagingga. Qizning yigitga beradigan shunday hadyasi bo'ladi. Kap-katta ho'kizday bo'lib shuni bilmaysanmi? O'zingning ro'molchang bormidi?

— Bor.

— Qani ko'rsat-chi.

Hojimuqon cho'ntagini axtarib ro'molchasini topolmadi.

— Ro'molcham yo'q, — dedi medallarini beshikka taqilgan qo'ng'iroqdek shiqirlatib, cho'ntagini axtargan Hojimuqon.

— Bo'ldi, qiz olib qolgan.

— Qo'y-e, Xadicha unday qilmaydi. Olsa, o'zimdan so'rab olmasmidi?

— E, xomkalla, sening bir parcha lattangni so'rab nima qilsin. O'zing bilib hadya qilmaganingdan keyin o'zi olgan-qo'ygan-da.

— Xo'sh, unday bo'lsa uning ro'molchasini mening cho'ntagimga kim solgan?

— Uni ham o'zi solgan. "Ro'molchamni ko'z nuringday saqla, Oq machit, Perovskiy, Orenburg, Troytsk, deb sang'ib yurmay tez qaytib kel, to'yni tezroq qilaylik", degani-da.

— Qo'y-e, kip-kichkina qiz shuni bilarmidi?

— Hm... shu qizni kip-kichkina deb o'tirganingdan keyin — hech narsani bilmas ekansan, og'ayni. Olganingdan keyin ko'rasan, hali kip-kichkina bo'lib, miyangda yong'oq chaqsin.

— Qo'yinglar-e, so'zlaring suyilib ketyapti, — deb Hojimuqon ancha vaqt indamay o'tirdi. Ustiga mo'lgina pichan to'shalgan yumshoqqina chana Sariterakka qarab yo'l oldi.

* * *

Polvonini sog'inib qolgan ovul odamlari mehmoniga, Nurmag'ambetga o'xshab, ikki hafta to'y-tomosha qilib berdi. Otasining oshini qilib o'tkazguncha yana o'n besh kun vaqt o'tdi. Qavm-u qarindoshlari, yor-u birodarlarini ko'rib chiqaman deguncha bir oy ham o'tdi. Kun isib, qorlar eriy boshladi. Xadicha uning qalbidan tobora chuqur joy olib, uni o'ylab, ba'zi tunlarni bedor o'tkazdi. Ovul kishilarining mehribonlik bilan "qarog'im, chirog'im" deb aylanib-o'rgilishlariga berilib, xayoliga kelganini qilaverish huquqidan mahrum bo'lib qoldi. Yaqin-yiroqdagi ovulga bormay desa ham odamlar qo'ymay olib ketishadi. O'z kasbidan boshqa sohada tortinib, uyalib yuradigan Hojimuqon hech kimga "Xadichani sog'indim" deyolmadi. Ovul kattakonlari jam bo'lgan bir yig'inda Nurmag'ambetning odamgarchiligini so'z qilishib, Risbekning qizini bermoqchi bo'lganini ma'qullashdi.

— Er erligini qilgan ekan, biz ham bir odamgarchilik qilaylik. Biroq u to'yni kechroq qilamiz debdi, ha, ezgulikning erta-kechi yo'q, shoshilmaylik. "Shoshilgan qiz erga yolchimas" degan. Hammamiz bo'lib qirq-ellik uy qurama bormiz; borimiz yirikroq, yo'g'imiz maydaroq mol to'plab Nurmag'ambetni, Risbek bilan ovuldagi ko'zga ko'ringan kishilarni chaqiraylik. Xo'sh, Muqonning ozroq puli borga o'xshaydi. Bor pulini otasining ta'ziyasiga sarf qilmoqchi edi, bizlar yo'l qo'ymay, xarajat qildirmadik. Qor erib ketmasidan shaharga odam yuborib, qizga ust-bosh oldiraylik.

El faxri bo'lgan Nurmag'ambet polvon ovulimizning yaqinida turgan bo'lsa ham, hali biz tomonlarga kelgani yo'q edi, mindirsa uyalib qolmaydigan ot topib qo'yinglar. Buning uchun qoraqalpoq, turkman bilan aloqasi bor Qarg'ali, Qaydauldagi o'rqora,

Nuraliga ishning ko'zini biladigan bir yigit yuborib, durustroq ot so'rataylik. Qipchoqligi tutsa tekin berar, agar unutsa pulga berar.

Qariyalar shoshilmay taraddud ko'ra boshladilar. Qor ketguncha aytilganlarning hammasi muhayyo bo'ldi. Shahar yo'lidagi bekatchining qizini sariterakliklarning ko'pi ko'rgan edi, bir qizga o'lchab, ust-boshlarini ham tikib qo'yishdi. Qor ketib, orqaning o't-o'lani ko'kara boshladi. Ovul kattakonlarining Nurmag'ambetni chaqiradigan mahali ham kelib qoldi. Besh-o'n chog'li yigitlarni ergashtirib ovul oralagan Hojimuqon Risbekning bekatiga yaqin bir ovulga keldi.

— Yigitlar, endi bekatga kirib o'tmasak bo'lmaydi!

— To'g'ri, bekatchi buzog'ining ma'rashi ham polvonimizning qulog'iga shirin eshitilyapti, — dedi hazilkash do'sti.

Ular borgan ovulidan qaytadigan kuni, kun juda charaqlab ochilib ketdi. Kechasi bilan yog'gan yomg'irdan suvga tashna bo'lib yotgan ko'katlar gurkirab o'sdi. Qor suvidan keyin goh qirov, goh shudring tushiradigan tungi salqini yo'qolib, xuddi ko'katlar yomg'irdan yuvilgan shoyidek qulf urib ketdi. Bekatga tomon kelayotgan salt otliqlar endi sabza urgan o't-o'lanlarning olamni to'ldirgan muattar hididan mast bo'lishib o'lan aytishar, gurunglashar, o'rtalarida ketayotgan hurmatli polvonning Xadichasi haqida hazil-mutoyiba qilishar, chaqchaqlashib kulishar, Muqonda esa ularga javob beradigan til yo'q eli.

— Hoy, menga qaralaring, hadeb quv tillik qilavermay, Xadichani qo'shib ashula aytlaring. Attang, Nurmag'ambetday o'lan aytib, kuy yarata oladigan bo'lsam, o'zimdan boshqa odam ko'tara olmaydigan kitob yozardim.

— Unday bo'lsa og'irligi tuyaday kitob bo'lar ekan-da. Bunday kitobga nimalarni yozarding?

— E, topiladi: qoshini, ko'zini, sochini, xipcha belini, oyday yuzini, yoqimli qilig'ini, bolday shirin so'zini, o'zimning dukduk urgan yuragimni, tushlarimni yozaverardim. Bordi-yu, taqdir bo'lib, bir yostiqqa bosh qo'yadigan bo'lsak, Omsk, Orenburg kabi sirki bor shaharlarning biriga olib borib Rossiya polvonlarining xotinlariday lojaga o'tqazib qo'yardim-u, o'zim kurashga tushardim.

— E, unday bo'lsa, Nurmag'ambet senga Xadichani bermaydi. U, seni uzoqqa ketmaydi, hunarini yoshlarga o'rgatadi, deb bermoqchi bo'lyapti-da. Sen uni ola solib Orenburg, Peterburgga ketadigan bo'lsang, biz shu bugunoq borib Nurmag'ambetga aytamiz.

— Bundoq o'ylab ko'ringlar, axir men senlarga o'xshab mol boqa olmasam, so'qa haydab, o't o'ra olmasam, qanday qilib tirikchilik qilaman? Men pulsiz kun ko'ra olmayman. Savdogarchilik qilib pul topish qo'limdan kelmasa. Sirki bor shaharga bormay qanday tura olaman...

— Nurmag'ambet umri bino bo'lib shu el ichida tirikchilik qilib keldi-ku, sen ham bir kuningni ko'rarsan. Mana, kelganingga uch oy bo'ldi. Shundan beri el sendan osh-nonini ayadimi? Shunday qilib yashayverasan-da...

— Nurmag'ambet ham, bunday tirikchilik jonimga tegdi, deyapti. Bu tarqoq el shahar bo'lib, shahrida sirk, teatr qurilguncha men el ichida bekor yura olarmidim... Mayli, uni keyin o'ylashib ko'rarmiz, qani bir o'lan aytib yuboringlar.

O'rdaklar ko'lni bo'ylab uchar har chog',
Qo'limda ko'k qarchig'ay, belda belbog',
Mavj urgan daryo uzra yozdim quloch,
Xadicham, sensiz menga yo'qdir iloj.
Oq yuzing oyday tiniq, chiroylangan,
Ko'p odam ko'raman, deb gir aylangan,
Yoningdan keta olmas Hojimuqon
Savdorga mato ko'rgan kishisimon.
Bir daraxtda qo'sh o'rik,
Yosh yigitga qiz ko'rik.
Ovuling olis ko'chganda,
Bo'lar qanday kun ko'rib! —

deb o'lan aytishar, Hojimuqon ham qo'shilishar edi.

— Bu o'lanlar senga yoqyaptimi, Laylosining ishqida yurgan Majnun?

— Nurmag'ambetning G'aliyaga aytgan o'laniday bo'lsa...

Bir to'p yigit gurunglashib, bekatga yaqinlashib qoldi.

Ochilganda bahor guli
Tinmas bulbul xonishi.
Gul uzilib, kuy tinishin —
Istarmidi hech kishi?

* * *

— Oyi, bu yoqqa keling-chi, mazam qochyapti.

Sahar turib sigirini sog'gan Bibigul chelagini qo'ya solib, yostiqqa suyanib o'tirgan Xadichaning oldiga keldi. Yuzi o't bo'lib, qovog'i sal kirtayibdi.

— Qizim, nima bo'ldi, shamollab qolgandirsan-da, kecha kechqurun dalada yupun kiyinib yurgan eding, — dedi peshonasini kafti bilan bosib, ko'ziga tikilgan onasi.

— Dadam qani? — dedi qovjiragan lablarini qimtib, ko'zi suzilib.

— Mollarni dalaga chiqarib yurgandir, jonginam...

— Suv bormi?

— Hozir choy qaynaydi, chiroqqinam.

— Unda men biroz yota turay, siz ishingizga boravering, — deb yostig'iga yonboshladi. Bu Hojimuqonlar kelishidan bir kun oldin bo'lgan edi.

Risbek mollarini dalaga chiqarib, uyiga kelganda, Bibigul choy-nonni hozirlab, dasturxon yozib, Xadichaning yoniga borib boshini ushlab o'tirgan edi.

— Chirog'im, turib yuz-qo'lingni yuv, bir piyola choy ichib ol.

— Qo'zichog'im, bahor kelib hamma yoq yashnab ketdi. Mana, o'lmagan qul, omon bo'lsa shu kunlarni ham ko'rar ekan. Odam bo'shashib erinchoq bo'lib ketyapti. Xadichaxon, bugun ko'p uxlading-ku, tursang bo'lardi... Sariterakdagi qipchoqlarning kelamiz, degan kuni ham yaqinlashib qoldi. Bugun tushdan keyin qadimgi joyiga o'tovni tikmasak bo'lmas. Tur, bolam, — deb kalta to'nini yechib, qizining oldiga otasi ham keldi. — Ha, sen nega xafasan, qovog'ing soliq? — deb Bibigulning yuziga qaradi u.

— Xadichaning tobi yo'qroq, yotib qoladimi, qaydam?

— Qo'y-e, nafasingni sovuq qilma! Bahorda kishining shunday sal mazasi qochadi.

— Iloyim shunday bo‘lsin... Qaydam, ko‘pdan qolgan yolg‘izim edi...

— Qo‘y deyapman senga, qayoqdagi sovuq gaplarni gapirma... Qani, qani, ha dadasi aylansin, bu yoqqa kel-chi, bir iskay, — deb qo‘lini tegizgan edi, dadasi ham cho‘chib ketdi. Tanasi cho‘g‘day yonib turgan ekan, — voy-bo‘y, Xudo ko‘rsatmasin! Issig‘i juda baland-ku...

— Dadasi, choy-poyingizni ichib, otga mining-da, avvalo yo‘l-yo‘lakay ovchi qaynimga xabar qiling, uyida bo‘lsa kelsin, undan keyin polvonning uyiga boring, o‘shanikida sano, simobga o‘xshagan dorilar bo‘lardi. Tabib uyida bo‘lsa ola keling, tomirini ushlab ko‘rsin.

Risbek otiga minib Nurmag‘ambetnikiga ketdi. Yetti farzandini yer qo‘yniga bergan Bibigul tashqariga chiqib ho‘ng-ho‘ng yig‘-ladi:

— E, bevafo hayot! Bizga kelganda shunchalar berahm bo‘l-ding! Shunday dalada yakka o‘zi qolgan bekatni bor-yo‘g‘idan judo qilding. El zada bo‘lgan qushlarday har tomonda taralib yuribdi... Boshingga ish tushsa yordamga chaqirgunday jon top-maysan bu yerlardan! Hurkkan ovday biridan biri qochib yurgan bu eldan keragida emchi, qisilganda damchi topib ko‘r-chi. Hamma bolalarim tabib topa olmaganlikdan o‘ldi. O‘tday yonib yotgan bolaginamga nima em qildim. Evoh...

Dovdirab qolgan sho‘rlik ona bitta zarang oldi-da, uni suvga botirib, xasta yongan qizini uchuqladi, keyin zarangni tashqariga olib chiqib to‘nkarib qo‘ydi. Sovuq suvdan badani junjikkan Xadicha ko‘rpasini ustiga yopib yotib qoldi.

— Qizim, dadangning to‘nini yopay-chi, zora terlasang, — deb kuygan badanni battar yondirdi. Xadichaning ahvoli daqiqa sayin og‘irlashib borardi.

— Oyi, ustimdagi to‘nni oling, nafasim qisilib ketyapti, — dedi lablari qurib, qoraya boshlagan Xadicha.

— Chirog‘im, ternikidir, biroz sabr qil...

U olib kelgan suvdan bir qultum yutdi-da, qo‘liga qaytarib berdi.

— Tashqariga chiqib qarang-chi, oyi, ko‘rinarmikan?

— Kim, chiroqqinam?

— Haligi... — deb buyog'ini ayta olmay yuzini devor tomonga burdi Xadicha.

Tashqaridan ot dupuri eshitildi. Bibigul chiqqanda kun tushga yaqinlashib, quyosh nuri yerni tovadek qizdirar edi. Kelgan odam ovchi qaynisi ekan. U otini boylayotib:

— Yanga, Xadichaning tobi qochib qoldimi? — deb so'radi.

— Qaydam, ko'rpa-to'shak qilib yotibdi, — dedi u astagina, so'ng uyiga kirib ketdi.

— Qaroqqinam keldi.

— Kim, oyi? — deb boshini ko'tardi qiz.

— Aylanay, ovchi og'ang!

— Ey... — u basharasini burushtirib, to'nni qo'li bilan surib tashlab, suv so'radi. Yana bir qultum yutib piyolani yoniga qo'ydi.

— Qarog'im, tuzukmisan? — deb so'ragan ovchining yuziga u bir qaradi-yu, indamadi.

Tushdan keyin Xadichaning issig'i oshib, lovullab yona boshladi. Dam-badam suv so'rardi. Katta ovulga ketgan Risbek tabibni topolmay, qishloqdagi bolalari yoniga ketgan Nurmag'ambetning orqasidan odam yubordi, o'zi bir siqim sano topib keldi. U kelganda Xadicha alahlab yotgan edi.

— Oyi, keldimi?

— Keldim, qulunim. Sano olib keldim. Buyursa, hozir ichasan, — deb manglayini siladi Risbek.

Xadicha boshini ko'tarib, uyda o'tirganlarga bir-bir qaradi-da, yana yotdi.

Kechga tomon katta ovuldan qizlar, kelinchaklar; tuyaga, otga mingan o'ntacha odamlar kelishdi. Kechasi bilan mijja qoqmagan Xadichani navbatma-navbat poylab chiqishdi. U avval qimir etmay o'tirgan onasidan qayta-qayta "keldimi?" deb so'rar edi. Onasi kelgan odamlarni birma-bir aytib chiqdi. "Ularning menga keragi yo'q", deganday indamay yotardi qiz.

— Oyi, kichkina sandiqdagini olib bering-chi? — dedi bir mahal. Oyisi kichkina sandiqni oldiga olib kelib ochdi-da:

— Qarog'im, o'zing qara-chi, nima edi izlaganing? — dedi.

Xadicha boshimni suyab turing deganday ishora qildi. Dadasi boshini suyadi. U ko'zini suzib sandiqqa qaradi-da, cheti ko'rinib

turgan ro'molchani ko'rsatdi. U Hojimuqonning ro'molchasi edi. Oyisi ko'zlaridan yosh oqib, ro'molchani sug'urib oldi.

— Boshimni bog'lang, — dedi qiz. — Tong otdimi?

Xadichaning og'ziga suv tomizilayotgan qayg'uli kechada, yaqin bir yerda tunab chiqqan Hojimuqonlar bekatga kelib tushishdi. Kayfi chog' bo'lib kelgan yigitlar odamlarning uydan qovog'i solinib, xafa bo'lib chiqayotganlarini ko'rib bo'shashib qoldilar. Lol bo'lib qolgan Hojimuqonni Nurmag'ambetning ayoli qo'lidan asta ushlab uyga boshlab kirdi. Xadichaning boshida ko'z yoshi to'kib o'tirishgan kampir-cholning yoniga kelib:

— Erkam, mana, Hojimuqon keldi! — dedi yig'i aralash tovush bilan.

— Keldi... — dedi qiz va nuri so'nayotgan ko'zlarini ochdi. Boshini ko'targisi kelganday dahanini asta qimirlatdi.

— Polvon, sen qo'lidan tort-chi, — dedi yangasi. U qo'lini ushlaganda, qiz yana ko'zini ochdi: "Xayr!.." deganday lablari qimirlab mangulikka ko'z yumdi.

Uyda dod-faryod ko'tarilganda, Xadichaning qo'lini hamon ushlab turgan Hojimuqonni tislantirib, qizga tikilib qarab turgan tabib yigit:

— Voy, attang, kuydirgi chiqqan ekan-ku! Bilgan zahoti emlanganda tuzalib qolardi, — dedi.

Hojimuqonning kichkina qisiq ko'zlaridan yosh marjonday yumalab tushardi. U tashqariga chiqib:

— Chini bilan ketganingmi? — dedi.

Xadicha vafot etdi o'n yettida,
Qarab hech to'ymas edim nur yuziga.
Esizgina ahdimiz, paymonimiz,
Armon bo'ldi, chiqmay ketdi yuzaga.

Uylanish

Ovul qariyalari el oralab yurgan Hojimuqonga chopar yuborib, Nurmag'ambet bilan Risbekni chaqirib kelishni topshirgan edi. Quda chaqiriq suyunchi olib, o'lja bilan qaytaman, deb kel-

gan chopar yigit, o'yin-kulgi o'rniga, yig'i ustidan chiqdi. Uncha-munchaga parvo qilmaydigan Hojimuqon ham xafa edi. Ilgari kam edi, endi mutlaqo so'zlamaydigan bo'lib qolibdi. Chopar uni xoliroq joyda uchratib, biror narsa dey desa, u qaramasdi. Xadichani ko'mib bo'lgan odamlar ketmon, kuraklarini, baqon siriqlardan[1] yasalgan tobutni tuyaga ortib bekatga jo'nab ketishdi. Bu hol faqatgina, suyunchi olaman deb kelgan chopar yigitnigina emas, shu bilan birga, shu qizni olsam umr yo'ldoshim bo'lar deb o'ylagan Hojimuqonning ham, atoqli polvon Hojimuqonni o'z qo'li bilan uylantirdi, degan obro'ga ega bo'lsam, deb o'ylagan Nurmag'ambetning ham, sakkiz bolamdan qolgan yolg'izim — Xadicham elga mashhur bo'lgan o'z tengiga qo'shadigan bo'ldik, endi shularga umr bersin, qo'sha qarisin, deb niyat qilishgan Risbek bilan Bibigulning ham, elning guli, sayragan bulbuli, kambag'al bo'lsa-da, bekami ko'st yigit Nurmag'ambet bilan quda-anda tushadigan bo'ldik, deb quvonishgan qudalarning ham umidini uzdi. Bekatga yetib, uyiga kirgan Risbek o'zini yo'qotib biroz yotdi-da, keyin o'rnidan sapchib turib, to'nini qo'ltig'iga qisgancha:

— Bibigul, uyingga qara! Men Xadichaning uyiga borib kelay. Hali bola-ku, mol-jonga qaray oladi deysanmi ular?.. Uyida bir-ikki kun yotib, yordamlashib kelay!.. — deb chiqib ketdi.

Qovoqlari tushib, har joy, har joyda cho'qqayishib o'tirishgan odamlar ketib borayotgan cholni ushlab olishib, yuziga suv sepib yotqizib qo'yishdi. Shunday bir og'ir vaziyatda Hojimuqon bilan birga kelgan yigitlardan ba'zilari choparni ergashtirib ovulga ketishdi.

Bekatda, qizni ko'mib kelganlarga bir-ikki mol so'yib berib, Nurmag'ambet:

— To'y-u tomosha qilaman, surnay tovushini eshitaman degan joyda, nola-yu fig'on eshitdim, — dedi. — Bu zamon meni qaysi istagimga yetkazgan edi! Bibigul yanga! Mana bu og'am yakka-yu yagona merosxo'ridan ajraldi, endi uni ota deb kim chaqiradi? Biroq nachora?! Taqdirga tan berish kerak, qolganlarning joni ba-

[1] O'tovning qismlari *(tarj.)*.

salomat bo'lsin. Men, Hojimuqonni ergashtirib ovulga olib boray, ovulda sal ko'nglini yozib qaytar.

— Og'a, men endi ovulga bormayman, — dedi Nurmag'ambetnikida ikki kun bo'lgan Hojimuqon, — siz meni Qiziljarga bir amallab yetkazib tashlang. Men yana Rossiyaga ketaman. Meni ovulda tursin desa Xadicha o'lmas edi...

— Voy tentag-ey, nimalar deyapsan o'zing? Xadicha o'lsa, qolgan umringning birini olib ketdi, deb o'ylaysanmi? Buning hammasi vaqtincha, yomg'ir tinib, bulut tarqaladi, o't-o'lanlar ko'karadi. Sen bu gaplaringni qo'y, men seni hech qayoqqa yubormayman.

— Qo'y, og'a, endi mening orzu-umidlarim suv betidagi pufakday puchga chiqdi. Ovulga qaytib borib nima ham qildim, otamga osh berdim. Ovul qariyalari shu bahona bilan sizni chaqirtirib diydor ko'rishamiz deb quvonishib yurgan edi. Chaqirib kelgan odam motam ustidan chiqib qolib, sizga ayta olmay ketdi.

— Ular yozgan xatni o'qidim. Biroq mana bu yig'isida unga biron narsa deyolmadim. Qiz o'z dardini, sirr-u asrorini ochmay ketgani uchun umr bo'yi yig'lab o'tgan Janatday bo'lmoqchimisan? Qo'y, yana bir-ikki kun bo'l. Men seni bahring ochiladigan bir joyga olib boray.

— Og'a, o'sha Janat haqida gapirib ber.

— Xo'p, men aytib beray, biroq sen Rossiyaga ketaman degan gapingni qo'y. — U hikoyasini boshladi: — Otam bolalik vaqtida keksaroq bir kishi bilan Uysindagi tog'asinikiga ketib borayotib, Balxash bo'yidagi bir uyga qo'nibdi. Otam kirgan uy — qadim qozoqlar yozda yashaydigan o'tov edi: u o'tovning odam panalab o'tirgudek joyi ham yo'q ekan; bir vaqtlar qalin bosilgan kigizdan qilingan yopqichlar to'zib ketgandan so'ng qirq yamoq bo'lib, teri, to'zgan choponning etagi, ko'kragi, hatto bosh kiyimining ba'zi bo'laklari ham yamalaverib, nima ekanini ajratib bo'lmaydigan holga kelibdi. Kigiz uyni ko'tarib turgan keraga, uvuq, bo'sag'a, kesaki, chang'aroqlari [1] to'zib, bir necha joylari qisib bog'lanib, yerga tegib turgan joylari chirib, qirqila-qirqila pastakkina bo'lib

[1] O'tovning qismlari *(tarj.)*.

qolibdi. Eshik o'rniga allaqanday oriqlab o'lgan hayvonning terisi osilgan ekan.

Uy tevaragida mol, it yoki mushuk kabi hayvonlarning oti-zoti yo'q, baland tepalik yonboshida yolg'iz uy haligi chaylanamo o'tovgina cho'qqayib turarkan.

Yo'lovchilar borib tushganda o'tovda ikki kishi bor ekan. Ulardan biri nihoyatda ozib-to'zib ketgan, eti borib suyagiga yopishgan yosh bir ayol, ikkinchisini eski bir yog'och karovotda, latta-puttalar ustida o'tirgan bir keksa chol ekan. Otam u cholni tasvirlashga so'z topolmay, shu uyining ko'rinishi qanday bo'lsa cholning ko'rinishi ham shunday edi, derdi.

Uy shunchalik to'zigan, xonavayron bo'lgan bo'lsa ham, uning ayrim joylari bu uy qachonlardir bir boy odamning uyi ekanligidan dalolat berib turarkan, qarag'aydanmi yoki boshqa daraxtdanmi, har holda keraga va uvuqlari katta daraxtdan qilinganligi ko'rinib turarkan. U avvalo, o'n ikki qanotli uy bo'lib, sinig'i kesilib, bir-biriga ulanib, to'rt qanotli uyday bo'lib qolibdi. Keraga va uvuqlarning pardozlangan joylari ko'k bo'yoq bilan bo'yalb, qaloqlari suyak bilan, kumush bilan qoplangan. U suyak ustiga Xitoyningmi yoki Hindistonningmi naqshi o'yilgan ekan. Yog'och karavotning bosh tomoni ham shunday; o'yma naqsh bilan bezatilib, ba'zi joylari kumush bilan qoplangan ekan. Bular ham mayishgan, singan, ba'zilari tushib, o'rni ochilib qolgan, qoqilgan mixlarning uchida, o'yilgan suyaklarning orasida yiltiragan kumush siniqlari ko'rinarmish. Chol bo'lsa, o'sha yog'och karavot ustida, qora qurum to'ziq gilamlar ustida o'tirarkan. Olisdan kelgan yo'lovchilar uning oldiga salom berib kirishsa, u alik olmas ekan. Otam cholning bosh tomonida turgan qo'bizni, to'shak oldiga kigizdan tikilib keragaga kirlab ketgan ipak ip bilan osib qo'yilgan ikki tugunchakni ko'rib hayron bo'libdi.

Yo'lovchilar uyning ahvolini ko'rib ketgilari kelsa-da, yaqin tevarak-atrofda ovul bo'lmagani uchun shu yerda qo'nishga majbur bo'lishibdi. Yuklarini olib, ulovlarini o'tga qo'yibdi. Hech kim bulardan hol-ahvol so'ramasa-da, otamning yonidagi odam onda-sonda tovush chiqarib, o'siq qoshlari ko'zlarini bekitib turgan cholga o'zining ahvolidan gapira beribdi. Unga chol indamabdi.

Kun botish oldidan to'rvasiga ikki baliq solib olgan, o'ttizlar chamasidagi yigit kelibdi. U ham juda oriq, yupun ekan. U uyga kelgan mehmonlarga hayron bo'lib ko'z qirini tashlab salomlashibdi.

— Chirog'im, orqadan Olatog'dagi og'aynilarimizga ketib borayotgan edik. Ot-ulovlarimizga dam bermoqchi bo'lib, shu yerda qoldik. Qariya charchab qolganmi, sira javob bermaydi, kim bo'lasizlar? — debdi.

— To'biqti... — deb to'ng'illabdi yigit.

— Unday bo'lsa, biz arg'indanmiz, asli tug'ishgan ekanmiz-ku. Nega muncha chetga chiqib ketgansizlar?

— E-e... — deb xo'rsinibdi-da yigit, karavotda o'tirgan cholga qarabdi-yu, indamabdi. Ayol to'rvadagi baliqni olib chiqib tozalab, pishira boshlabdi. Otam ham o'tga chovgumini qo'yib, choy qaynatibdi. Yo'lovchilar yigit bilan choldan qanchalik ezmalanib so'ramasin, baribir, bir tuzukroq javob ololmay, tashqariga chiqib choyini ichibdi-yu, keyin egar-jabduqlarini boshlariga qo'yib yotishibdi. Uydagilar ham baliqni yeb, gapirishmay uyquga ketishibdi.

Endi tong yorishib kelayotganda uyqusi sergak yo'ldoshi otamni uyg'otib yuboribdi. Quloq solsa, uydan qo'biz tovushi chiqayotgan emish. Otam: "Bunday kuyni umrimda eshitmagandim", deb ta'rif qilar edi.

Ko'm-ko'k ajriqqa ko'milib yotgan yo'lovchilar boshlarini ko'tarishib jim yotishgancha butun vujudlari bilan tinglashibdi.

— Qo'bizdan dastlab "oh!" deganday bir nido chiqib, og'ir, mungli bir kuy tarala boshlabdi. U oydinda, ko'l betida erkin uchgan qushlarning sayrashi, yengil shabada, kichik to'lqinlarning shovullashiga o'xshab yoqimli kuy taralib kishiga orom berar, shirin his-tuyg'ular uyg'otar, ba'zan esa bulbulning navosiga, toyning kishnashiga, qo'zining ma'rashiga, yosh bolaning kulgisiga o'xshash tovushlar chiqarib tinglovchiga zavq bag'ishlar; kuy ba'zan kishi ko'nglini shodlikka to'ldirar, ba'zan g'amgin qilib, chuqur o'yga toldirar edi... — derdi otam.

Kuyni yaxshi ko'radigan otam bu mahal ajriqdan emaklab kelib, pachog'i chiqqan karavot ustida o'tirib, ikki ko'zini chirt

yumib, kichkina qo'bizni zavq bilan chalayotgan cholga keraganing sirtidan qarab yotgan edim, deydi. Sozanda kuy sal buzilsa, bir narsadan cho'chiganday ko'zini shart ochib, xuddi esini yig'ib olganday, yana ko'zini yumganicha chalishda davom etar ekan. Kuy xuddi yo'rg'alagan ot dupuriga o'xshab bir xil ohangda yangrab turibdi. Bir mahal unga hurgan it, allaqanday ingragan narsaning tovushi aks etib, quvonch, kimningdir noroziligi sezilibdi, bog'loqlik ot bo'shaganday tovush erkin sado berib uchgan qironday bo'libdi. Keyin bu tovush tobora ingichka bo'lib turli ohangda jaranglabdi-yu, dastlabki "oh" ni qaytalab, uvullab esgan shamolday, bo'talog'idan ayrilgan norday, egasiz qolgan itday, turli-tuman tovush-ohanglar chiqaribdi. Qo'shtor nolib yig'laganda otam ham, boshini ko'tarmay yotgan yo'ldoshi ham achchiq-achchiq yig'lashibdi. Ko'zi berkilgan buloqday cholning ko'zlaridan yosh chiqmas ekan; biroq qo'biz tovushi bilan jo'r bo'lib o'ksigan, g'amgin tovush chiqibdi. Keyin qo'bizni chap tomonga qo'yib, keragaga osig'liq turgan tugunchakni olib bag'riga bosibdi-da, indamay o'tirib qolibdi. O'sha cholning ismi Janat ekan. Uni tildan qoldirib, odamgarchilikdan chiqarib, so'qqabosh qilib, shu kuyga solgan narsa bir suluv qizning sochi bilan ilonning boshini olib ikki tugunga tugib qo'ygan ekan. U mahalda yoshi o'n sakkizda ekan — Qiz Jayiq bo'yidan kelgan ekan. Endi bu yog'ini keyinroq, to'ying bo'lgan kuni aytib beraman.

— Jon og'a, hozir aytib ber...

— Yo'q.

* * *

Hojimuqon Nurmag'ambet bilan sayil qilib yurganda, ovul odamlari yana boshqa bir gap topib qo'yishdi: Xadichaning kiyimini bo'yiga o'lchab bichtirgan qiz, Hojimuqonga munosib qiz edi, qariyalar o'zaro maslahatlashib o'sha qizni olib bermoqchi bo'lishdi. Hojimuqon ko'p vaqtgacha Xadichani unuta olmadi. Ichimdagini top, deb yuradigan vazmin tabiatli Hojimuqon ko'p vaqtgacha bu haqida gapirmadi. O'zini qo'shib o'lan aytadigan Cho'loq polvonga tavsif qilib, do'mbira chertadigan, yuqorida keltirilgan to'rtliklarni Nurmag'ambetdan o'rganib, uni oti bor

joylarga o‘z otini qo‘shib aytadigan bo‘ldi. Xadicha vafot etgandan so‘ng, birinchi bandining oxiridagi: “Xadicha vafot etdi o‘n yettida” misrasini ko‘p takrorlaydigan bo‘lib qoldi.

U ovul qariyalari ma’qul ko‘rishgan qizni yoqtirmadi. “Akalar, biroz sabr qilinglar”, deb ovul oralab yurib, bir kuni aravada Qiziljarga ketib qolganini eshitib qolishdi odamlar. U shu ketgancha dom-daraksiz yo‘qolib, keyinchalik Varshavadan daragi topildi.

Yozning qulf urgan ko‘m-ko‘k maysasi. Visla daryosining bo‘yida, xuddi cho‘qqiga qo‘ngan burgutdek uch-to‘rt polvon, kurash kiyimida qator o‘tirishardi.

— Ey qizil niqob, senga nima bo‘ldi, sira qovog‘ing ochilmaydi? Sen ilgari bunday emasding-ku, nima balo, elingga boraman deb g‘am-g‘ussa orttirib keldingmi?

— Mening hech qanday qayg‘um yo‘q.

— Ey, Vanya, sen hazillashma, biz senga yosh bola emasmiz, sen bilan Yevropani kamida ikki marta aylanib chiqqan Rossiyaning shoxli polvonlari so‘zlashyapti. Sen nimadandir xafasan yo bo‘lmasa ilgarigi fikringdan qaytgansan.

— Nega unday deysan?

— Nega deysanmi? Negaligini aytay... Ilgari bizlardan hech siringni yashirmas eding, endi hech gaplashging kelmaydi. Ilgarilari atoqli polvonlar, yosh polvonlarni qiynamay, ayabroq kurashar edi, sen-chi, sen bo‘lsang qo‘linga tushgan polvonning yuzidagi niqobini yulib olasan. Kurash boshlanganiga o‘n kun bo‘libdi-yu, yig‘gan niqobing bir xalta bo‘ldi. Yurish-turishingni ko‘rib seni jinni bo‘ldimi, deb o‘ylab yurganlar ham bor. Birov seni yiqitdimi desak, sharqiy Rossiyada seni yiqitadigan hech kim yo‘q. Rostingni ayt, nima bo‘ldi senga?

— Boshimga og‘ir musibat tushgani rost, bir suluv qizini sevgandim, olaman deb turganimda o‘lib qoldi, - deb u boshidan o‘tgan voqeani aytib berdi.

— Ha, aytdik-ku, bir gap bor deb. Bu sharqliklarning qadimiy odati, sevganiga yeta olmasa, ishqida kuyib-yonib, jinni bo‘ladi. Endi bu dardingga bizlar davo topamiz.

— Men kasal emasman.

— Sening kasaling, xotin kasali, uni bizlar topamiz. Shu yerda bir polvon qiz bor. Biz qatnashayotgan kurashni ham o'sha qizning og'asi tashkil etgan. Qiz har kuni sirkka kelib kurashimizni ko'rib o'tirarkan, biroq u qanday qiz ekanligini hech qaysimiz bilmaymiz. Shu yerda kurashgan polvonlarning eng zo'ri bilan kurasharmish. Yiqilsa o'shanga tegarmish, umr bo'yi shuning xizmatkori bo'larmish, yiqitsa, hamma polvonlarning niqob-nishonlarini yig'ishtirib, chamadonga solib, yiqilgan polvonga piyoda ko'tartirib yurarmish.

— Men uning lash-lushlarini ko'tarishga tobim yo'q.

— Nachora, sharti shu bo'lgandan keyin, yiqilsang ko'tarasan-da!

— Yiqilmayman!

— Qanday qilib yiqilmaysan, Poddubniydan kuchlimisan?

— Kuchliman, deb maqtana olmayman.

— U bultur kelib qo'rqqandan kurasha olmay ketibdi.

— Qo'y-e, yolg'on. Poddubniy Dajjolingdan ham qo'rqmaydi.

— Qo'rqmaydi?.. Qiz qo'lini cho'zishi bilan chap berib qochibdi, qo'liga kamzulining bir etagi ilingan ekan, yulib olib uyiga olib borib osib qo'yibdi. Mana ko'rmaysanmi, shu-shu kurashga chaqirsa ham kelmayapti.

— Qo'y-e, nima qilasan yolg'on gapirib. Polshada polvon qiz bor dep bir vaqtlar eshitgan edim, uni bir yosh venger polvon yiqitib olib ketibdi, deyishgan.

— Demak, shu qiz. Uni hech kim yiqita olmaydi. Qo'lingga tekkan odamni yerga olib uravermay, kuchingni shunga saqla!

— Qo'y-e, shunga kuch saqlash kerakmi? Qiz deganing xotin-da. "Xotinning zo'ri qozon qaynatadi", deydi bizning qozoqlar.

— Agar kurashadigan bo'lsa, birpasda yiqitaman-u, o'z xuningcha pul to'la, deyman!

— Pul bermaydi, o'zi tegadi.

— Olmayman, deyman.

— Yo'q, buning bo'lmaydi, agar olmasang, yiqilgan hisoblanasan.

— Unday bo'lsa kurashmayman...

— Unda ham yiqilgan bo'lasan. Bo'lmasa kurashgan polvonlarining hech qaysisini yiqitma-yu, o'zing yiqilaver. Shunday qilsang, u qiz sen bilan qo'lingdan pul berganingda ham kurashmaydi.

— Qanday balo o'zi.

— Bu yerda yigirmadan ortiq yirik polvon, o'ttizdan ortiq yosh polvon bor. Shularning birortasidan yiqilsa yoki bir-birini yiqita olmasa, qiz uni polvonlarning polvoni deb hisoblamaydi, u bilan kurashmay qo'ya qoladi. Eng zo'r polvon topaman, deb og'asi har yili polvonlarni Varshavaga to'playdi. Sen yiqitib shu qizni ol, bu ovoragarchilikdan qutulaylik.

— Ey, senlar, bu hazillaringni qo'y, men qizdan qo'rqib, hech kimdan yiqilmayman, qizning lash-lushini ham ko'tarib yurmayman.

Bu garchi hazil bo'lsa ham, uning tagida sir bor edi, u ko'p o'tmay ochildi.

Sirkda arqonga, ip narvonga osilib o'ynaydigan bir artistning bo'yi yetgan singlisi bo'lardi, u har yili turli mamlakat polvonlari yig'ila boshlaganda — hamma polvonlarni yiqitgan polvonga tegib olaman, deb yurarkan. Shu so'zini eshitgan yoshlar yag'rini yerga tegmaydigan polvonlar kiyadigan niqob kiyib olishibdi. "Oq niqob", "Ko'k niqob" Varshavaga to'lib ketibdi. Buning ustiga qo'li tegsa yiqitmay qo'ymaydigan Vanya kelib ularning niqoblarini sidirib olaveribdi. "Endi qiz mo'g'ulniki bo'la qolsin!" deb umid uzganlari niqoblarini olib, yashirin nomlarini yo'qotib, to'g'ri nomlarini ayta boshlabdi. Buning sirini bilgan ba'zilar "ayanqirab yiqit", deb qora polvonning changalida mijig'lanib yotardi.

Har kuni ko'p tomoshabinlarning biri bo'lib kelib o'tirgan qiz, oltin, kumush, bir talay medallarini bo'yniga halqa qilib chiqqan Hojimuqonni ko'rib o'tirgan joyida qotib qoldi. Ko'zlari chaqnab qayta-qayta qo'llarini uqaladi. To'satdan yonidan o'tib, ko'zini qisganga darrov ketidan ergashib ketadigan yigitlardan bo'lmagan Hojimuqon yelkasiga bir turtib o'tgan qizga ko'z qirini tashlab, "veynauat!" deb qo'ya qoladi. Sho'rlik qiz nima qilishini bilmay hayajonga tushadi. Uyiga borishi bilan ko'zgu oldiga kelib, upa-elik, hidli yog'larini yuziga surtadi, uzun sochlarini har turli

maqomda o'rib ko'radi, taraydi. Biroq bularning birortasi ham uning dardiga davo bo'lolmaydi. G'ishtinning podshosi goh o'ngga, goh chapga o'tadi, bir ko'rganda to'g'ri keladi, bir ko'rganda esa, aksincha. Ba'zan labini tishlab xafa bo'ladi, ba'zan esa xursand. Gapga no'noq "mo'g'ulga" oshiq bo'lgan bechora qiz ba'zi kunlar xastalanib ham qoladi, sabr-u toqati tugagan boyaqish peshonasini shartta bog'lab olib yana sirkka keladi. Axiri bo'lmagach, Hojimuqon bilan birga turadigan odamlardan u bilan gaplashib ko'rishini yalinib so'raydi. Xadichaga bo'lgan muhabbati hali ham so'nmagan polvonga ular:

— Sen qizlar bilan nega gaplashmaysan? — deb ham ko'rdi.

— Ya sovsem ne xashu... — deb qo'ya qoldi polvonlarning yuzidan sidirib olgan niqoblarini sanab o'tirgan Hojimuqon.

Qizning iltimosiga ko'ra haligi suv bo'yida o'tirgan polvonlar ham gaplashib ko'rdi, lekin hech ish chiqmadi. Oradan bir yarim oy o'tib, kurash tamom bo'lay deb qolganda, "polvon qizni ko'rsatish uchun" polvonlar Hojimuqonni shahar restoraniga olib boradi. Shunday qilib, o'sha qizga uylanish masalasi quyidagicha tus oldi.

Polvonlar restorandan chiqqach, Visla bo'yidagi bog'ni oralab besh chaqirim yergacha sekin yurib gaplashib keldilar. Suv bo'yidagi skameykalarda kemadan tushgan polvonlarni kutganday uch qiz o'tirishardi. Ular ichida oq guldan guldastasi bor bir suluv qiz, guldastani ko'tarib, polvonlarni to'xtatdi.

— Janob polvonlar, dugonamiz polvon Polyaxonim shu guldastani polvonlar polvoniga topshirib qo'yishimizni iltimos qildi. Polvonman, deb o'ziga ishongan uch qadam oldinga chiqib, guldastani olsin! — dedi.

Polvonlar chiqolmay, bir-biriga qaragancha biroz turib qolishdi. O'sha kuni ulfat bo'lishgan varshavalik ikki yosh polvonning bittasi:

— Hech kimning yuragi dov bermasa, mana men olaman! — deb oldin chiqa boshlaganda Hojimuqon uning yelkasidan chelak ko'targanday ko'tarib orqaga olib qo'ydi-da:

— Bekam, u buyruq bergan xonimingiz qayerda? — deb so'radi.

— Saroyda. Nimaydi, guldastani olmoqchimisan? Sening polvonlar polvoni bo'ladigan hech narsang yo'q-ku. Polvonlar polvoniman desang, uch qadam oldinga chiq!..

Hojimuqon oldinga chiqdi. Qiz guldastani uzatarkan, boshqa polvonlarga kulimsirab qarab:

— Buning polvonlar polvoni ekani rostmi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi mashhur polvonlardan biri.

— Gul olganing uchun guvoh bo'ladigan bir narsangni ber, Polyaxonimning oldiga borganingda o'zingga qaytarib beradi.

Hojimuqon katta kumush soatini uzatdi.

— Buning keragi yo'q, ro'molchangni bersang ham bo'ladi, — dedi qiz. U ro'molchasini qog'ozga o'rab berdi. Qiz uni qo'liga olib:

— Ertaga soat beshda falon joyga borishingizni so'rayman, — dedi-da, polvonlarga odob yuzasidan ta'zim qilib, ketdi.

Hojimuqon ertasiga Koren bilan o'sha aytilgan joyga borib qarashsa, hech qanaqa saroy-paroy yo'q, qadimgi Varshavadagi oddiy uylardan biri ekan. Hovlidagi shinam, xushmanzara bog' ichiga stol, stullar qo'yib ovqat hozirlashibdi. Bularni o'zlariga tanish sirkning artisti kutib olib, hurmat-ehtirom bilan o'tirishga taklif qildi. Uyda o'tirishgan uch-to'rt odam chiqib, mehmonlar bilan ko'rishishdi. Keyin kechagi guldasta taqdim etgan qiz elliklarga kirgan onasini boshlab chiqdi. O'tirgan odamlar o'rinlaridan turishib, onaga hurmat bildirishdi.

— Qozoq o'lkasining polvoni qaysi biring?

Hojimuqon qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi.

Kampir "mening yonimga o'tir", deganday yonidagi stulni ko'rsatdi. Odamlar o'rnilariga o'tirib bo'lib, stol ustidagi taomlarning yuzi ochilgandan keyin mezbon artist o'rnidan turib:

— Do'stlar, hamma xalqda ham "tog'ga tog' qo'shilmaydi", degan maqol bor. O'sha qo'shila olmasa turolmaydigan inson muhabbatiga chek qo'yib bo'lmaydi. Polvon Mungaytpasov, uning do'sti polvon Koren — sizlarni bu yerga olib kelgan ham o'sha insoniy muhabbatdir. Men, birovning shaxsiy ezgu ishim deb bilgan yumushiga aralashib, uning yo'lini to'sishni yomon ko'raman. Bunday ishlarga aralashadigan millatlarning urf-odatlari, diniy

e'tiqodlariga qo'shila olmayman. Mening sevikli singlim, Polya Mungaytpasovga oshiq bo'ldi. Qizning bu yurak sirini ochiq aytishi Yevropa xalqlari o'rtasida hech erish tuyulmaydi, aksincha, o'z erkini yaxshi tushungan hisoblanadi. Qiz sevganiga kecha oq guldasta taqdim etib, ro'molchasini olib kelib, onasidan ruxsat so'radi. Biz onamiz oldida shuni ochiq aytib, o'zimizning eng yaxshi istak-orzularimizni izhor qilgimiz keladi... Berilgan belgini qabul qilganlaring rostmi?

— Menga uni polvon qizning guli, deb berdi.

— Polvon qiz — qo'li bilan gul bergan, Polya. Kurashga tushadigan qizlar faqat ertaklardagina bo'ladi.

— Unday bo'lsa gulni olganim rost.

Shundan bir oy o'tgach, u polyak qizi Polyaga uylanadi. Kuzga borib nemis qo'shinlari Varshavaning tinchligini buzib bostirib kirgach, Hojimuqon Polyaning otini Fotima qo'yib, Omskka olib keladi. U yerdagi sirk otlarini ofitserlar urushga minib ketganlaridan keyin Shardoqdagi qozoqlar Hojimuqonni ko'chirib olib ketishadi. U yerda polvonga uy-joy solib, mol-hol qilib berishadi. Fotimadan Xayrulla, Abdulla degan ikkita o'g'il ko'radi. Biroq o'g'illar Fotima orzu qilganday — yag'rini yerga tegmaydigan polvon emas, oddiy bolalarday o'sib, ikkalasi ham hukumat xizmatchisi bo'lib ketadi.

Aravakash

O'n sakkizinchi yilning qahraton qishi; qor bo'roni quturib, dahshatli uvullaydi. Odamlar: "Bu bo'ron boshlangan kuniga borib tinadi", deb yurishgan edi, yo'q, tinmadi: seshanbagacha — sakkiz, chorshanba — to'qqiz, payshanba — o'n, bugun juma — o'n bir kun bo'ldi, quturgan norday hamon o'kirib turibdi.

Butun umrini aravakashlikda o'tkazgan Misha o'zining ko'p yillik yo'ldoshi — kulrang otiga qarab turib rahmi keldi, achinganidan yig'lab yubordi. Boshi ustida o'ynab turadigan quloqlari shalpaygan, taram-taram bo'lib turadigan yol-kokili paxmoqlanib, ko'zining oldini mushtday yiring bosibdi. Mishaning ovozini

eshitishi bilan talpinib turadigan jonivor, endi xo'jasidan o'pkalaganday, oldidagi pichanni chaynashga ham chamasi kelmay, mukkasidan tushib yotibdi. Misha odati bo'yicha:

— Jonivorim, uvoling oqlarga bo'lsin! Kuli ko'kka sovrilsin bu iblislarning! Senga deb yig'gan xashagimni olib ketdi-ya, la'natilar. Yeming ham yo'q. O'zingni ishlatib-ishlatib o'lar holatda olib kelib berdi. Endi senga nima beraman, jonivorim... qo'y, seni bunday xor qilib o'ldirguncha, xashagi bor ovulda turadigan do'stlarimning biriga berib yuboray...

U shunday nolib yurgan mahalda ovuldan ish izlab kelgan Hojimuqon uchrashib qoldi. Uning hol-ahvolini so'rab bo'lib, Misha:

— Do'stim, sen hammol bo'lib ham kun ko'ra olasan. Biroq bir iltimosimni qabul qilgaysan. Odamzodning zo'ri sen-u otning kuchlisi mana bu mening kulrang otim. La'nati Kolchak buning yemishini tashib ketdi. Sen shuni aravasi bilan ovulingga olib ket. Bir hafta boqib, sal o'ziga keltirib olsang, u-bu tashib turishingga yaraydi. Bu bebaraka shahardan nima ham topolarding. Agar ot sening qo'lingda tursa, Kolchakning qamchisidan qon tomgan politsiyachilar yoniga betlab kelolmas edi. Buning ustiga ovulingdagi odamlar seni hurmat qilib, otni ko'p ishlatmas edi.

— Rost aytasan.

— Bo'lmasa aravasiga qo'shib beray, olib ket. Ko'p yil yo'ldoshim, yordamchim bo'lgan jonivorning noliganini ko'rmay. Boqim durust bo'lsa, arava bilan qirq pud, chana bilan sakson pud yukni ko'rdim demaydi.

Shunday qilib Mishaning kurang oti Hojimuqonning qo'liga tushib, mirshablarning har kungi ovoragarchiligidan qutuldi. Qattiq bo'ron, sovuq bo'lgan kunlarda, Sharloq atrofida, kuchli ulov faqat polvondagina bor edi. Vaqti-vaqti bilan qo'liga dastasi yo'g'on panshaxa ushlab yurishligini bilgan ulov oluvchilar Hojimuqonning yaqiniga ham yo'lashmasdi. Undan qo'rqib, chetroq yuradigan politsiyachilarga boylar: "Anavining ulovini nega tortib olmaysanlar?" deyishsa, ular: "Senlar o'z ulovlaringni bergilaring kelmay, har narsani bir valdirayverasanlar! U Nikolaydan qirq yettita mukofot olgan polvon. Biz uni hurmat qilishga majburmiz!" — deb javob berishardi.

Hojimuqon Misha bergan kulrang otga yem izlab xirmon ko'tarayotganlarga borganda, xirmon boshida sovun, choy va shunga o'xshagan mayda-chuyda narsalarni bug'doyga almashtirib yurgan Bo'rsiqboyni uchratib qoldi.

— Ha, polvon, ahvoling qalay?

— Shukur... El qatori bir kunimiz o'tyapti.

— Durust, durust. Barakalla, ot-aravang ham o'zingga bop tushibdi. Nima, bu yerda oladiganing bormi?

— Nimani olardim? Senikiday sotadigan sovunim bo'lmasa. Xirmonchilar xo'p desa, mana bu chiqitga chiqqan choridan olay deb kelgandim.

— Ha, to'g'ri, to'g'ri... xirmon degan — kon. Dehqonlar biror qop chorini sendan ayamas. Qani, hoy dehqonlar, Xudo bergan narsaga xasislik qilmay, polvonning qopini to'ldirib yuboringlar.

— Bu bizning ishimiz. Bo'rsiqboy aka, siz ham manavi qora moydan qilingan balchiqqa o'xshash sovuningizni zarday qimmat qilmay, sal arzonroqqa bering-da... Bir qadoq kelmaydigan bir bo'lak sovuningizga bir pud bug'doy so'raysiz. U bilan kir yuvib bo'ladimi?

— Mayli, ixtiyor o'zingizda, zorimiz bor, zo'rimiz yo'q. Sovunimiz balchiq bo'lsa ham, loy bo'lsa ham aravamda. Bug'doylaring xirmonlaringda. Balchiqmish-a, — dedi u piching qilib — zamonaning nima bo'layotganini tushunmagan odamlarga gap uqtirib bo'ladimi? Shu balchiqning o'zi ham dunyoning bir chekkasidagi Irkutskiydan olib kelinyapti, ham jiydaning bargini qovurib, choy deb ichib o'tirganlari bilan ishlari yo'q! Munkillab qolgan onalari qishlov atrofini izlab, mujib tashlangan suyaklardan sovun qaynatmoqchi bo'ladi-yu, onalarini shu azob-uqubatdan qutqazishga sal bo'lsa ham yordam beraman degan odamga bularning muomala qilishini qarang. Quyon terisidan qilingan telpagiga qizil latta yopishtirib olgan qizillar kelgandan keyin perviy sort sovun bilan kir yuvarsanlar!

— Bo'rsiqboy, shular kelyapti degani rostmi?

— Kim biladi, polvon. Ichkaridagi (Rossiyadagi) hamma boylarni qamab, zavod-fabrikalarning kulini ko'kka sovurib, yer betini tep-tekis qilayotganmish-ku ular. Uraldan o'tib Selebga

(Chelyabinsk) kelib qolgan emish, oqlar zo'r chiqib o'tkazmayotgan bo'lsa kerak...

— Bo'rsiqboy, gapinigning tayini bormi? O'zing ham tarozining qaysi pallasi bossa, shu tomonga o'tasanmi deb qoldim! Tunov kuni: "Dunyodagi eng zarur narsalar qizillar olgan joylardan chiqyapti, fabrika-zavodlar ham o'shalarning qo'lida, ishning ko'zini biladiganlar ham o'shalar, oqlar qo'liga kosov ushlab urushib yuribdi", demabmiding. Endi odamlarni qizillarga qarshi qo'ymoqchimisan? Unaqa gaplaringning bizga keragi yo'q. Bir dumaloq choying bilan, bir bo'lak sovuningni mana bu qopdagi bug'doyga berasanmi?" — deb gavdali bir dehqon qop tubidagi bir pudcha bug'doyni ko'rsatdi. Bo'rsiqboy yog' bosgan ko'zlari bilan qopga bir qarab qo'yib:

— Qo'y, senlar bilan ish bitmas ekan... Senlar bilan qo'llaringdagi bor donni Kolchak askarlari tortib olgandan keyin gaplashaman!.. Xayr, men ketdim bo'lmasa, — deb aravasiga o'tirib, xirmondan chiqib ketayotganda:

— To'xta, — deyishdi choy, sovunga muhtoj odamlar...

* * *

Bo'ron zo'rayib, shahar bilan ovul o'rtasidagi aloqa uzilib qolgandan so'ng, shaharda bir pud un Kolchak puli bilan ming so'm, Kerenskiy puli bilan sakkiz yuz so'm. Nikolay puli bilan yuz so'm bo'libdi, deganini eshitib, Bo'rsiqboyning uyqusi qochdi. Uning savdo-sotiq bilan yig'ib qo'ygan ikki yuz pud bug'doyi bo'lib, Kolchakning g'alla to'plovchilaridan yashirib olib borish o'limdan qiyin edi. Yo'lda bitta non uchun odam o'ldirib ketibdi, degan so'zni eshitib jinni bo'lib qolayozdi. Buning ustiga yon tevaragidagi o'z qarindoshlarining ahvoli tang bo'lib:

— Sen bizdan olishda "og'ayni" bo'lasan-u, berishga kelganda teskari qaraysan! O'rangni ochib, bekorga chirib yotgan bug'doyingni jilla qursa qarzga ber. Mana bu ochdan och chuvlab o'tirgan bolalarimizga rahming kelsin. O'lmay tirik bo'lsak to'larmiz, — deb biridan so'ng biri kelishdi. Ba'zan ular:

— Bilib qo'y, Sho'ro hukumati hademay bu yerga keladi, ha! Ular senga g'alla sotqizib bo'pti! Qizillar xalq g'amini yeydigan

kishilar ekanini eshitib yuribmiz. Ular keladigan bo'lsa, bizlar sendan so'rab o'tirmaymiz, o'shanda o'rangni ochadilar-u, och o'tirganlarga bo'lib beradilar! — deb qovoqlarini soladigan bo'lib qolishdi.

Garchi Bo'rsiqboy ularga do'q-po'psa qilsa ham, lekin ich-ichidan qo'rqadigan bo'lib qoldi. G'alla qimmat bo'lib turganda bug'doyning bir qismini bir amallab sotib olmoqchi bo'ldi. Uni shaharga olib borishga qo'rqdi, o'z qarindosh-urug'lariga esa ishonmadi. Uning bitta umidi Hojimuqon edi. U kishi mulkiga xiyonat qilmaydi, qurollari to'da bo'lmasa, ikki-uch odam undan tortib ololmaydi.

Hojimuqon erta turib, kechasi bosib qolgan qorlarni tozalab, uyiga endi kirgan edi, ust-boshini qirov bosgan, qalin ichikka o'rangan Bo'rsiqboy kirib keldi.

— Polvon, qalay, omon-eson o'tiribsanmi?

— Shukur. Tinchlikmi, kallayi saharlab bo'ronda kelibsan? Uy iching omonmi?

— Bo'ron deb uydan chiqmay yotaversang ham bo'lmas ekan. Yulib borayotgan hech narsasi yo'q, yursa bo'ladi. Boshimga bir ish tushib oldingga keldim... Yordam qilmasang, ishim chatoq...

— Ha, nima gap? Savdogar do'stim...

— Hukumatning promtorg degan mahkamasidan g'alla yig'ib beraman, deb ozroq molini olgandim, polvon. Kuzda xirmon boshida uchrashganimizda shuni yig'ib yurgan edim. G'allasi tushsin, kun issiq paytlarda to'plandi-yu, biroq vaqtida tashib olinmay, mana ko'rmaysanmi, bo'ronga qolib ketdi. Endi shuni ikki kun ichida yetkazib bermasam, o'zimni qamab, mol-mulkimni g'aznaga soladigan bo'libdi. Uning ustiga yo'lto'sar degan bir balolar chiqib uchragan odamni shilib ketarmish. Shuning yuz pud bug'doyini olib borib berishga yordamlashib yubor, deb keldim, — dedi sotaman desa polvonning ko'nmasligini bilgan Bo'rsiqboy.

Uning juda qattiq xafa bo'lib turganini ko'rib, polvon o'ylanib qoldi.

— Ot-uloving tayyormi?

— Ot-ulov, shukur, bor-ku... Biroq, bir lekini bor, Hojimuqon. Ularga men, ulov topilmayapti, deb bahona qilgan edim. Shuning

uchun o'z oting bilan olib borib bersang yaxshi bo'lardi. Buning uchun tegishli haqingni to'layman.

— Unda bo'lmas ekan, qo'limdagi birovning omonat oti. Yo'l tushmagan so'qmoqda o'lib qolishi ham hech gap emas. Bechoraning tuzukkina yem-xashagi ham yo'q. Ulov topsang, yetkazib beray.

Bo'rsiqboy tushgacha javrab, qo'yarda-qo'ymay Hojimuqonni oti bilan bir chana bug'doyni shaharga olib borib berishga ko'ndirdi. O'zi ham choy, kerosin, sovunga o'xshash narsalarga muhtoj edi. Ular qattiq bo'ron bo'lishiga qaramay, chanaga ellik pud bug'doy ortib shaharga ketishdi. Buning evaziga Hojimuqon otining oldiga xashak solib, o'zi yarim qop bug'doy ko'tarib Mishaning uyiga keldi. Kelsa Mishaning oilasi boshiga katta musibat tushibdi.

Ot-aravasini Hojimuqonga bergandan so'ng Lespromxozga ishga kirgan Misha dekabr ichida bo'lgan ishchilar ish tashlashida qatnashgani uchun qamalib ketibdi. Xotini qaysi bir idorada farroshlik qilib, eng kattasi o'n uch yashar to'rt bolasini amallab boqib turgan ekan-u, besh kun bo'libdi o'pkasi shamollab yotib qolibdi. Hojimuqon ularning yeyishga ovqati, yoqishga o'tini bo'lmay ho'ngrashib yig'lab o'tirganlarining ustidan chiqib qoldi. Ro'zg'or ishlarini bilmaydigan Hojimuqon ularga qanday qilib yordam berishini ham bilmay shoshib qoldi. Otini qantarib qo'raga bog'ladi-da, boya kelayotganda, temiryo'l bo'yida, bir to'nka ko'rgan edi, shuni borib tag-tapi bilan ko'tarib olib kelib, maydalab, o'tin qilib berdi. Quduqdan suv olib kelib, chovgumlarini to'ldirdi. Devorlari oppoq qirov erib uy ichini bug' bosdi. Katta pech oldiga tiqilib yotgan bolalar, boshlarini ko'tarib o't yoniga kela boshlashdi. Endi ularning qornini to'ydirish kerak edi. Hojimuqonning yo'lga olgan noni bilan bir parcha go'shti sovuqda tosh bo'lib qotib qolgan edi, uni qiziy boshlagan pech ustiga qo'yib isitib, bolalarga berdi. Olib kelgan yarim qop bug'doyini ham qo'l tegirmonida un qilib berdi.

Aravakashlik kasbi mana shunday boshlandi. Mishaning qo'ni-qo'shnilari ot-aravali polvonning kelib turganini, ovqatsiz, o'tinsiz, och o'tirishgan bolalarga ko'rsatgan mehr-u shafqatini,

muzda, qorda qotib turgan to'nkani bir o'zi qo'porib olganini ertakday qilib bir-biriga gapirishardi. Shu mahallada turuvchi bir rus savdogar yo'lto'sarlardan qo'rqib, shahar chetidagi o'tinini olib kelolmay o'tirgandi, u aravakash polvonni eshitib, so'zlashmoqchi bo'lib keldi.

— Qancha o'tining bor? — deb so'radi polvon uning muhtojligini bilib...

— O'n kubometr. Hammasini tashib olmasam o'g'irlab ketishadi. Yoningga yana bitta ot-arava qo'shaman. Hovlimga olib kelib, qalab berishing uchun qancha haq so'raysan?

— So'raganimni berasanmi?

— Ko'ramiz-da. Aravang bo'lgani uchun senga keldim-da, bo'lmasa ish topolmay yurgan odam ko'p.

— O'sha odamlarni nega yubormaysan?

— Hamma to'qayga borishga qo'rqadi. Bo'lmasa pulni ayamas edim. O'tiningni olib kelib bersam, menga ham pul berasanmi?

— Albatta.

— Men pulga o'tin tashimayman.

— Nega?

— Pulning muhrini ajrata olmayman, yuzdan oshig'ini sanashni ham bilmayman. Ovuldan kelganimni ko'rib turibsan. To'novchilar o'rtasida turgan o'tiningga boshqa odam borishga qo'rqadigan bo'lsa, mening jonim ikkita emas. Mana bu kasal bo'lib yotgan ayolni, och-yalang'och to'rt bolasini ko'rib ovulimga qaytolmay qoldim. O'zimning ham ikki bolam, xotinim yo'limga qarab o'tiribdi. To'novchisi bor to'qayga borib, o'tiningni olib kelib berishim uchun xunimni to'laysan!

Savdogar xaxolab rosa kuldi.

— Nega kulasan? Men o'lib qolguday bo'lsam, ikki uydagi ikki xotin bilan olti bolaning ham ochdan o'lishi turgan gap. O'zing ko'rib turibsan-ku.

— Sen o'z bola-chaqangni gapirsang-chi, bularni nima qilasan?

— Nega gapirmas ekanman?

— Bular mening tug'ishganim — rus bolalari-ku.

— Unday bo'lsa, nega yordamlashmaysan?

— Sakson million rus bor, qaysi kambag'alning bolasini boqasan?

— Sen sakson millionni emas, faqat bitta oilani boqsang ham bo'ladi. Mening pulim ham, molim ham yo'q. Do'st kishi o'ris, qozoq deb millat ajratib o'tirmaydi. Bularga yordam berish mening insonlik burchim.

— To'g'ri, gapingga qo'shilaman. Xo'sh, nima so'raysan, qani ayt. Hazilingni qo'y, oladiganingni ayt.

— Xunimni to'laysan dedim-ku senga.

— Xuning qancha turadi? — deb yana kuldi boy.

— Ko'p so'ramayman. Bir qop un, to'rt taxta choy bersang bo'ladi. O'tiningni tashib bo'lguncha otimga yem-xashak, o'zimga ovqat berasan. Undan keyin eng oxirida shu uyga o'tiningdan bir arava tushirib beraman, bunga xasislik qilmassan.

Boy cho'chib ketib:

— Sen ish qiladigan odamga o'xshamaysan! — deb jo'nab qoldi.

Biroq ertasiga kelib, polvon so'ragan narsalarning ozginasini berib o'tinini tashitdi. Hojimuqon kirakashlik qilib, shaharda ikki oy turib qoldi.

Bug'doyini molga almashtirgan Bo'rsiqboy bo'yi baravar foydaning tagida qolib, g'allamning qolganini ham olib kelib ber, deb polvonga yalina boshladi.

O'zi ham uyga kerak narsalarini olib borib tashlamoqchi bo'lib yurgan Hojimuqon kira haqisiga bolalariga ust-bosh oldi-da, yana olti qop bug'doyini olib kelib berdi.

Qor eriy boshlagan mahalda g'allani olib kelayotganda Bo'rsiqboyni ellik qop bug'doyi bilan yo'lto'sarlar tunab ketdi. Uning ichida Bo'rsiqboyning katta o'g'li ham bor edi. Vajohatidan o'n odam qo'rqadigan polvon qo'lida kichkina panshaxasi bor choldan qo'rqib boshini qorga tiqib, qimir etmay qoldi.

* * *

Bo'rsiqboy yashirincha ko'mgan bug'doyini kechasi qoplab, aravaga ortib, ovuldan endi olti chaqirim uzoqlashganda, tong yorishib qolgan edi. Chanasiga o'n qop bug'doyini ortib, ustiga

xashakni mo'l qilib tashlab olgan Hojimuqon yo'g'on tayog'ini yoniga qo'yib mudrab kelardi.

— Polvon, tezroq hayda, mana bu butalardan o'tib ketaylik, — dedi o'rtadagi chanada o'tirgan Bo'rsiqboy nimadandir seskanib.

— Men bor yerda nimadan qo'rqasan, Bo'rsiqboy. Buta o'rtasida nima bor deysan?

— Nima ham deb bo'lardi... lekin juda asta kelyapsan, polvon, tezroq hayda.

U "chuh" deb otining jilovini silkitganda echkining "ma-a..." degan tovushi eshitilganday bo'ldi. Cho'chib tushgan polvon yo'l bo'yida bir panshaxaning buta orasidan chanaga tomon cho'zilganini ko'rib qoldi. Panshaxaning uchiga sanchilgan bir necha sichqon Hojimuqonning burniga tegib ketishiga sal qoldi. Polvon "voy" deb qattiq qichqirib, yo'l yuzidagi qorga mukkasidan quladi. Bo'rsiqboyning:

— Hojimuqon! Tayog'ing bilan tushir, — degan tovushi eshitildi-yu, keyin ovozi o'chdi. Polvon boshini sal ko'tarib qarasa, sichqon sanchilgan panshaxa hali ham turgan ekan, u po'stinini boshiga o'rab yana yotib qoldi. Qaytib qarashga yuragi dov bermay, tong otgandagina boshini ko'tardi. Qarasa, Bo'rsiqboy bilan o'g'li qo'l-oyog'i bog'liq ikki yerda dodlab yotibdi. U borib ota-bolani bo'shatdi.

— Voy sho'rlik boshim-ey, o'zlari atigi besh odam ekan, qo'llarida panshaxa bilan boltadan boshqa hech narsa yo'q ekan, nega tayog'ing bilan urmading?

— E, men ularni qo'lim bilanoq qorga bosib, rosa adabini berardim-a, lekin bir panshaxa sichqonni ko'rib jon-ponim chiqib ketdi-yu, qayoqdan uray...

— O'lgan sichqondan ham odam qo'rqadimi?

— Qo'rqmay bo'ladimi, quloqlari dikkayib turibdi-yu, padari la'natning...

Uchovi qorga botib uylariga zo'rg'a yetib oldi. Bo'rsiqboy bilan o'g'lini yo'lto'sarlar qattiq qiynashgan ekan, uyiga kela solib ko'rpa-to'shak qilib yotib qolishdi. Tunalgan ot-aravalarni izlab, uning orqasidan tushgan odam ham bo'lmadi. Hojimuqon uyiga kelib:

— Fotima, kulrang otni Bo‘rsiqboyning bug‘doyi yetaklab ketdi. Uyga qachon kelar ekan, jonivor... — deb piqillab kuldi. Fotima erining nega kulayotganiga tushunmay hayron bo‘ldi.

* * *

Shu voqeadan sal burun shaharga olti qop bug‘doy olib borganida, Bo‘rsiqboyning och qolgan tug‘ishganlaridan biri polvonning chanasida ketgan edi. Yo‘qchilikdan adoyi tamom bo‘lgan yigit:

— Polvon og‘a, tirikchiligimiz kundan kunga og‘irlashib ketayotganidan xabaringiz bormi? Oqlar ishsizlik, ocharchilik balosini olib keldi. Bor bud-shudimizni shilib olib, o‘g‘ri-muttahamlarga yo‘l ochib berdi. Mana endi, oxiri qonimizni boylar bilan savdogarlarga so‘rg‘izyapti. Kosiblarni bitta qo‘ymay yo‘qotdi. O‘n ikki muchamiz soppa-sog‘ bo‘lsa-yu, ish topolmasak, bu qanaqa xo‘rlik, axir! Odamgarchilikdan nom-nishon ham qolmadi-ku. Bir otadan yigirmaga yaqin uy edik, bilak kuchimizni zulukdek so‘rib boyigan Bo‘rsiqboy biz kambag‘allashgan sayin zulm pichog‘ini o‘tkirroq qilib qayrayapti. Mana, uch oy bo‘ldiki, bolalarimiz och-yalang‘och. Oppoq soqoli bilan otam oldiga borgan edim, qarzga bir pud bug‘doy berishga yaramadi, baraka topmagur. “O‘lganlaringga men javobgar emasman”, deydi. Mana bu g‘allani shaharda pullab, uyini oltin, kumushga to‘ldiryapti. “Og‘aynilar, senlar turganda kimni ham yollar edim. O‘zlaring ishlab, keragida olib yenglar!” — deb ishini bitirib olib, endi bo‘lsa o‘lib borayotsak ham og‘zimizga suv tomizmaydi. “Yo‘q” deyishdan boshqani bilmaydi. Biz mana endi ko‘cha-ko‘yda sanqib yuribmiz. Bir pud bug‘doy topib kelarmikanman, deb shaharga ketyapman.

— Odamgarchilikni bilmagandan keyin, tortib olib yemaysanlarmi?

— Uni ham o‘ylab qo‘ygandik. Biroq qayerga ko‘mganini bilmaymiz. Shaharga olib borishni bizlardan bitta-yarimtamizga topshirganda edi, allaqachon tortib olgan bo‘lar edik. Kuchimiz yetmaydi. Chunki g‘allani siz tashiyapsiz... G‘allasi ham sob bo‘lib qoldi shekilli.

— Hali ham olsanglar bo'ladi, o'ntacha xonadonni bemalol yozga olib chiqishga yetadigan bug'doyi bor chog'i.

— Agar endigi qolganini siz olib bormasangiz undan tortib olardik.

— Men bormasam, u bug'doyini olib bormaydi, ko'mgan joyida chiritadi. Qayerga ko'mganini bilsam aytar edim, bilmayman-da. O'zlari qoplab, o'zlari aravaga ortishadi. Men faqat aravaning ustiga minganimda ko'raman. Qolgan bug'doyini dalada qor ketmay jo'natadigan ko'rinadi. Mendan qo'rqmanglar. Men sichqondan qo'rqaman, buni hamma biladi. O'lgan sichqonni panshaxaga sanchib ko'rsatsanglar bo'lgani, men dunyoni suv olib ketsa ham qimir etmay yotaveraman.

— Polvon og'a, busiz ham bir amallab tirikchilik qilar edig-u, lekin xalqdagi bor g'allani Kolchak tortib olib qo'ydi-da. Endi shu atrofda bundan boshqa hech kimda g'alla yo'q.

— Unday bo'lsa, harakatlaringni qilib qolinglar...

* * *

Ehtimol, buta orasida tunaganlar shulardir. Ertasiga polvonning kulrang oti ovul o'rtasida chanasini sudrab yurganini ko'rgan birov yetaklab olib kelib berdi. Bug'doyning qayerga ketganini hech kim bilmadi.

— Chanadagi bug'doy qayoqqa ketdi ekan-a? — deb so'raganlarga:

— Uni kulrang ot bilmasa, men qayoqdan bilay — deb javob berdi polvon.

Polvon Sho'ro hukumati tuzilguncha aravakashligini tashlamadi. Turmada bir yil yotib, ozod qilgan Misha harbiyda xizmat qilib, fuqarolar urushi tugagach uyiga qaytib keldi. Hojimuqon ungacha ikki xonadonni boqib turdi.

— Polvon, endi arvakashlik, hammollik senga yarashmay qoldi, hali tanangda kuching bor, Semeyda sirk tashkil etilyapti, shunga bor, — dedi shahar Kengashining raisi.

Janubga safar

Qarovsiz yotgan, beo'xshov, rangsiz gilamdek dunyoni — kir, chang bosgan ko'hna dunyoni Sho'ro hukumati hayot bahoriga olib chiqib qoqib silkib yubordi; chang-to'zondan xalos bo'lgan dunyo kundan kunga barq urib yashnadi. Hayot ko'zi ochilgan buloqday qaynay boshladi. Xalqning ijodiy kuchi, bitmas-tuganmas g'ayrati shu hayot binosiga g'isht bo'lib qalanaverdi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan ochlik-qashshoqlik barham topib, ilm va madaniyat rivojlana boshladi. Eshigiga qopag'on itlar bog'lab, hech kimni kiritmaydigan muhtasham saroylar bo'yinlariga qizil bo'yinbog' taqib olishgan quvnoq yosh avlodlarga to'lib, maktab, internatga aylantirildi. Hamma yerda shod-u xurramlik kuyi yangradi. Shunday quvonchli kunlarning birida Fotima xastalanib qolib, sirk bor shaharlarning birida yurgan Hojimuqonni telegramma bilan chaqirtirib, shunday dedi:

— O, hayot cho'qqisiga parvoz qilgan lochinim, ishingdan qo'yganim uchun meni kechir, sevib qo'shilgan yorim eding, sen bilan birga o'tgan umrimdan o'kinmayman. Endi taqdir o'lchab bergan kun tugab, vidolashish soati yaqin qolgan ko'rinadi. Hayotimizning yodgori bo'lmish mana bu ikki bolani senga topshiray, deb chaqirgan edim. Ularni o'qitib odam qil, o'z do'stlariga qo'sh. Hayotingning boshqa tomonlariga men endi aralasha olmayman. men seni butun qalbim bilan sevardim. Sevishgan, do'stlashgan qalbim o'zim bilan birga ko'miladi. Xayr, baxtli-saodatli bo'l, sevikli yorim...

Bu so'zlarni eshitgan polvonning po'latday chiniqqan gavdasi bo'shashib, ko'zlaridan tinmay yosh oqdi. Yorining boshida o'tirib, peshonasini silar ekan, labi nimalardir deb pichirladi. Uning nima deganiga hech kim tushunmadi. Polvonning bir yuz o'ttiz kilogrammlik gavdasi ikki baravar og'irlashganday bo'ldi.

Sho'ro hukumatining qudratli puli chiqib, uch so'mga bir qo'y, yigirma so'mga yilqi beradigan vaqt edi. Fotimani qozoq urf-odati bo'yicha dafn qilishdi. Polvon uch-to'rt oy bolalarining yonida bo'lib, ularni o'qishga joylashtirdi-da, sharloqlik og'aynilariga topshirib, Toshkentga chipta oldi.

Fotima — varshavalik polyak qizi,
Qo'shildim nasib etib tami-tuzi.
Vidolashdim yig'lab turib mozorida,
Ko'kimning so'ngan kabi bir yulduzi.

* * *

Sirk san'atining ba'zi bir jihatlari o'zbek xalqida qadimdan mavjud. Qiziqchilik, masxarabozlik sirk san'atining bir sohasi. Xalq qiziqchilari, masxarabozlari bir joyda emas, balki shahar-ma-shahar yurib tomosha ko'rsatardi. Sho'ro hukumati barpo etilgandan keyin bir joyga to'planishdi — Toshkentda sirk ochildi. O'zbeklarda "Ot o'yin" deb nom olgan bu madaniyat o'chog'i dastlab mayda-chuyda tomoshalardan tashkil topgan bo'lsa ham, yigirma to'rtinchi yillarga kelib, Yevropa, Osiyoning mashhur polvonlari bosh qo'shilib turli o'yinlar ko'rsata boshladi. O'yin-kulgini jon-dilidan sevadigan o'zbeklar ularni zo'r quvonch bilan qarshi oldi. Bu o'yinda yerli xalqning "bel kurashi" usulida marg'ilonlik O'zar polvon ishtirok etdi. Kunlardan bir kuni ular davrasiga bir notanish odam kelib qo'shildi. Sirkning dastlabki davrlarida yuziga niqob kiyib chiqib, uch-to'rt kun o'tgach yiqilib, yuzi ochilib qoladigan polvonlar siyraklashib "Qora niqob", "Qizil niqob", "Ko'k niqob" degan uch polvon qoldi.

Polvonlar ichida eng ko'zga tushgani "Qora niqob" — "Qora qulf" degani edi. Uning ko'rinishi ham g'alati edi, avvalo, bo'yi ko'zga tashlanardi; bo'yi boshqa polvonlardan yarim gaz baland, peshonasi yalpoq, katta burni niqob ostidan ko'rinib turar edi. Qorni kattaligidanmi yoki bori shumi, yelkasi qisqaroq edi. Safda turib qolgunday bo'lsa, bo'yiga qarab doimo oldinda yurardi. Sirk maydonida aylanib yurganda uzun oyoqlari ko'l bo'yida yurgan ko'k qo'tosday g'alati ko'rinardi. Odamlar ko'p vaqtgacha:

— Buni hech kim yiqita olmasa kerak, tuyaday keladigan bu odamni kim ham yiqita oladi deysan? — deyishib yurishdi. Kichkina polvonlarning niqobini bitta qo'ymay sidirib olgan ham shu polvon edi. Shunga qaramay uning qo'polligi shuncha ediki, kichkina polvonlar oyog'ining orasidan lip etib o'tib, yelkasiga yopishib olar edi. Ba'zan uni ko'tarib turib, to'nkaday gurs etkizib

urar, biroq kuragi yerga tegmas edi. Ba'zi polvonlar katta polvon qo'lidan ushlab turganda, qorniga bir tepib bo'shab ketardi. Polvon ularga allanima deb to'ng'illar, odamlar esa qotib-qotib kulishar edi.

Ayniqsa kampir-chollar "Qora qulf"ning yiqilishini istamasdi. Chunki u choyxonada o'tirib, birovga: "Men musulmonman, Afrikadan kelgan arabman", debdi. U bu so'zni turk tilida tushunarli qilib aytibdi. Shuning uchun bitta-yarimta polvon uni ko'tarib ketayotganda ba'zi chollar:

— O'zing madad bergaysan! — deb qo'yishar ekan. "Kuragi yerga tekkani yo'q" deganda: "Ha, barakalla, shunday bo'lishi kerak", — deyishib quvonishar ekan. Xuddi ana shu polvonni "Sheri xudo" madad qilmagan kun ham yetib keldi. Polvonlar kurashi boshlanish oldida, egniga tuya junidan tikilgan chakmon, boshiga qo'qoncha do'ppi kiyib olgan, chit ko'ylagining yoqasi ochiq, qo'liga kichkina chamadon ushlagan bir odam sirkka kirib keldi. Uning bo'yi "Qora qulf"dan sal pastroq bo'lsa ham, bo'yi, gavdasi unikidan yo'g'onroq edi. U sirk xodimlariga ruschalab bir-ikki og'iz so'z aytdi. Bittasi yugurib rahbarning oldiga kirib ketdi.

— Sizni kabinetiga chaqiryapti, — dedi haligi kishi qaytib chiqib.

— Bu ham polvon bo'lsa kerak, ko'rinishidan shunaqaga o'xshaydi — dedi ag'rayishib qolgan odamlarning biri.

— Basharasiga qaraganda mo'g'ulmi deb qoldim...

— Ha... Sho'ro hukumati mehmonxona eshigini keng ochib qo'ydi, har kuni turli-tuman odamlar kelib turibdi, ota-bobolarimiz ko'rmagan odamlarni ko'ryapmiz. Bunisiga ham shukur! Buning do'ppisi o'zbeknikiga, chakmoni qozoqnikiga o'xshaydi... Tili ruscha, kim ekanini Xudo biladi...

— Bu to'g'ri kelib rahbarni so'radi, kambag'al niqobida yurgan boylardan bo'lsa ham ajab emas. Unaqalar har qanday joydan ham pul chiqadigan yerini topadi...

Polvonlar har kungi odatiga ko'ra kurashni tamomladi. Tomoshabinlar oldiga rahbarning o'zi chiqib yangi xabar e'lon qildi:

— Hurmatli tomoshabinlar, o'zlaringiz har kuni tomosha qilib yurgan Toshkent davlat sirki ko'z oldingizda kun sayin o'smoqda. Shu keyingi ikki oy ichida bir qancha yangi odamlar kelib qo'shilganini o'z ko'zlaringiz bilan ko'rdingizlar. Bugun sirkimizning shon-shuhratini oshiradigan sport jamiyatining ko'pdan buyon intizor bo'lib kutgan mehmoni keldi. Kelganiga juda xursand bo'lib, u bilan maslahatlashdik. Biz — sirkimiz jamoasini, unga o'z odamimiz sifatida qatnashavering, desak ham, u chetdan xalq vakili sifatida qatnashmoqchi bo'lganini aytdi. Noiloj unisiga ham rozi bo'ldik. U o'zlaringiz ko'rib yurgan kurash hunarining hamma turlarida kurashadi. Polvonlik hunarining hamma turini ko'rsatadi.

— Astag'firullo!.. Polvonlik hunarining hamma turini ko'rsatadi deydimi... bularning murakkab hunarlarini xalq orasida yurib qanday o'rganib oldiykan-a?..

— Iltimos, gapimni bo'lmang, men aytib bo'lay. Xalq nomidan kurashadigan polvon shu yerdagi ellikdan oshiq polvonning hammasi bilan emas, balki elanib g'alvirdan o'tgani bilan kurashadi.

— Bo'lmasa, tomosha juda zo'r bo'larkan-da... "Elanib g'alvirdan o'tgani bilan" bo'lsa, unda mayda-chuydalari bilan ekanda, a?

— Voy, kallavaram-ey! O'zing shu vaqtgacha dehqonlarning xirmonini ham ko'rmaganga o'xshaysan. Elanib, g'alvirdan o'tsa tagiga qumi, betiga chori chiqib, nuqul doni qoladi. Bu polvon ana shunaqalari bilan kurashadi, deyapti.

— U "Qora qulf" bilan ham kurashadimi, bizga shuni ayting?

— U bilan shu bugunoq kurashmoqchi edi-yu, biz ruxsat bermadik.

— Nega?

— Poyezdda sakkiz kun yurib, uzoqdan kelibdi, sal dam olsin, mo'rchaga tushsin, dedik.

— Unday bo'lsa hozirgina oldimizdan o'tib rahbar idorasiga kirgan kishi ekan-da. Sakkiz kun poyezdda yurgan bo'lsa juda uzoq joy ekan. Qayerdan keldiykin-a?

— Otini ayting rahbar amaki...

— Eng oxirgi polvonni yiqitgandan keyin otini o‘zi aytadi. Bordi-yu, yiqita olmasa aytmaganicha ketaveradi. Hozircha u kurashga “Dala burguti” laqabi bilan niqobsiz, ochiq qatnashadi.

Noma’lum polvonni yana kelib ko‘rish ishtiyoqida tomoshabinlar tarqalishdi.

Ertasiga tomoshabinlar ko‘p keldi. Navbatdagi polvonlardan bir-ikkitasi kurashgandan keyin:

— Endi, O‘rta Osiyo xalqlarining polvoni “Dala burguti” bilan “Ko‘k niqob” — Liv kurashadi! Kurash fransuzcha usul bilan... Vaqt yigirma daqiqa... — deb bo‘lib-bo‘lib e’lon qilindi. Ko‘k niqobli kichkina polvon yengil-yengil bosib o‘rtaga chiqdi. Tomoshabinlar orasidan birov o‘rnidan turdi-da, ustki kiyimini yechib tashladi. Bunday odamning tomoshabinlari orasida o‘tirganini hech kim payqamagan edi. U kechagidan butunlay o‘zgarib ketibdi: boshida eski qo‘qon do‘ppisi, egnida yo‘l-yo‘l beqasam to‘n. Ustidan to‘nini yechib tashlaganda yuqa, yiltiroq satindan tikilgan mayka, kalta cholvar, qo‘nji uzun yengil mahsisi ko‘rindi. Kecha soqol-mo‘ylovi bor edi, bugun esa sochiga qo‘shib oldirib tashlabdi.

Uning o‘tirganda meshday shalviragan gavdasi sozlangan qo‘biz toriday tarang tortilib, yelkasi xuddi tekislangan yog‘ochday yum-yumaloq bo‘lib, shalvirab turadigan bag‘baqasini bosib turgan boshi gavdasi xuddi ikki oyog‘ida turgan arslonga o‘xshardi. U oyog‘ini xuddi tantana marshida yurganday bosib, “Ko‘k niqob”ning oldiga borib tik turdi.

— Aka, bu yoqqa qarang, “Dala burguti” degani shumi?

— Ey, buni cho‘l-u sahrodan kelgan bir oddiy odamday ta’rif qilishgan edi-yu, suyagi shu sirk ilmi bilan qotgan odamga o‘xshaydi-ku. Ko‘rmaysanmi anavi ho‘kiz o‘tirgan O‘zar polvonni... Fransuzcha kurashni bilmaganidan keyin bular bilan kurashmay qo‘ydi. Buning vajohatiga qaraganda Dajjol kurash bo‘lsa qam “qaytmayman” deydiganlar xilidan.

Yoki sirk xodimlari odam ko‘p kelsin deb, o‘zlarining bir polvonini shunday qildimikan-a? Bu masxarabozlarning qo‘lidan kelmagani bormi?

— Qo‘y-e, biz bularni ikki oydan beri ko‘rib kelyapmiz. Shundan beri kuchlilardan to‘rt polvon qo‘shildi, ularning hammasi

ham kurash boshlanar oldidan oldimizdan o'tgan. Mana buning ko'rinishiga qara, lablari gezargan, bunday qulog'i yirtilgan polvonni birinchi ko'rishimiz... Mayli, kim bo'lsa bo'lsin, gavdasidan xuddi devga o'xshar ekan, har kuni ko'zimizga ulkan ko'rinadigan "Ko'k niqob" uning oldida nortuyaga ergashgan bo'taday bo'lib qoldi. Tomoshabinlar shunday gap-so'z qilayotganda:

— Ey, gapni cho'zma, ikkalasi qo'l berishib ko'rishdi, ilgari bir-birini ko'rmagan ekan-da, — dedi birov. Bunisi sirk qonuni bo'yicha, bir-biri bilan kurashmagan polvonlarning salomlashuv va rozilik alomati edi.

"Ko'k niqob" sal oldinga engashib, qo'llarini hamlaga hozirladi. "Dala burguti" bo'lsa bitta oyog'ini sal oldinga chiqarib, biqinini ushlaganicha turdi. Bir necha daqiqa o'tgach, o'ng qo'li bilan "Ko'k niqob"ning qo'lini qoqib yubordi. Ular galma-gal hamla qilishardi. Katta polvonning "Ko'k niqob" bilagiga qoqib yuborgani — "harakat qil, navbat seniki!" degani edi. Niqobli polvon qaddini rostlab turib, to'satdan katta polvonning bo'yniga yopishdi, og'ir gavdani egib, yelkasidan oshirib otmoqchi bo'ldi. U bu hunarini talay-talay polvonga ko'rsatgan edi. Biroq bu gal tajribali polvonning tadbiri amalga oshmay qoldi. Yag'riniga yopishgan katta polvonning to'shi uni siltab yuborgan edi, qo'llari bo'shab, xuddi ot qoqqan odamdek uchib ketdi. Izza bo'lgan niqobli polvon yana hamla qilib, iyagiga boshini tirab, bir qo'ltig'idan ushlab, qulatmoqchi bo'ldi — bu harakati ham chippakka chiqdi. Uni qo'ltiqlab olgan kuchli qo'llar yelkasidan qisib, cho'kkan tuyaday mukkasidan tushirdi. Biroq "Dala burguti" uni yiqitmadi.

Belgilangan vaqtning sakkiz daqiqasi o'tganda:

— Ana, aytmovdimmi, o'z odamlari deb, shuncha kuchli bo'la turib yiqitmadi! Ko'rarsan hali burgutni Liv g'ajib tashlaydi... Yo yiqitadi, yo bir-birini yiqita olmay ajrashadi, — deb lof urdi izza bo'lgan bir odam.

Katta polvon so'zlarshayotganlarga yo'g'on bo'ynini burib bir qarab qo'ydi.

— Bizning tilimizga tushunadigan ko'rinadi, jahl bilan qarayapti. Jahling chiqsa nima qilay, kuching yetsa niqobini sindirib ol! Uning diydorini ko'rolmay ikki oydan beri o'ladigan bo'ldik-ku.

Ozgina dam olib, qayta kurashayotgan polvonlar oyoqlari, goh qo'llari bukilib, goh yozilib, rosa olishishdi. Qo'ltiqqa ilingan bo'yinlar ba'zan mixday buralib, ba'zan op-oson, ba'zan zo'rg'a bo'shaydi. Bir mahal "Ko'k niqob" ko'z ilg'amas bir tezlikda bir bog' qamish kabi "Dala burguti"ning qo'ltig'iga ilindi, oyoq-qo'llarini behuda tipirchilatardi, o'sha qo'ltiqqa qisilgancha gilam o'rtasiga kelib chalqanchasidan tushdi. Sudya engashib qarab, hushtagini chaldi.

— O'n to'rt daqiqa-yu qirq sekundda "Ko'k niqob"ni "Dala burguti" yiqitdi. U hech qanday qoidani buzmay, juda to'g'ri yiqitdi.

"Ko'k niqob" o'rnidan turib, ko'pchilikka ta'zim qildi, keyin niqobini o'zi oldi-da, yiqitgan polvonga olib borib berdi. Katta polvon niqobni olib, uning qo'lidan o'pdi.

— Niqobi olingan, sakkiz yil "Liv" laqabida yurgan Yakub Japaridze, niqobini olingan H. M. — "Dala burguti!".

— Ey, o'rtoq "H. M." deganing kim o'zi, aytib yuboraqol, baraka topgur?..

* * *

Sirk o'yini kundan kunga qiziq bo'ldi. "Dala burguti" bilan kurashadigan polvonlarning o'n to'qqiztasi yiqilib to'rttasi qoldi. Niqobligidan faqat "Qora qulf" qoldi.

— Bobomiz butun dunyoning sirini ochganda faqat mana shu kishigina yuzini yashirib yuribdi. Burgut aka, shu odamning diydorini bir ko'rsat bizlarga, baraka topgur, — deyishib qichqirishardi yosh tomoshabinlar.

— Juvonmarglar, nega buncha shoshilasanlar? Musulmon bechora yiqilmasin!

— Yuzini ko'ramiz, ota. Xotin-qizlar tashlayotgan chachvonni u nega tashlamaydi? Burgut akam ochib bersin...

Toshkentda kun isiy boshladi. Skverdagi bog' ichidagi pivoxona stullari bo'shamay qoldi. To'rt polvoning pivoga to'lgan stoliga navbat kutib, ikkita yosh yigit keldi.

— Gapni cho'zishning nima keragi bor, men-ku bundan yigirma besh yil ilgari Odessada niqobingni sidirib olgan edim. Yana bir tang'ib yurganingda Bokuda sidirib oldim. Orenburgda ham

olganman. Uyalmay yana tang‘ib yuribsanmi? Ko‘p gapirmay, pivongni quy, qirq shishaga yetkaz. Bo‘lmasa niqobingni o‘zing berishingni kutib turmay, sidirib olaman-u, butun sir-u asroringni xalqqa aytaman. Ayniqsa o‘zing arman bo‘la turib, “musulmonman” deb aldab yurganingni aytaman...

— Qo‘y-qo‘y, qulog‘ini yaponga tishlatgan yarim quloq! Jinni bo‘lma. Sen shunday qilib yurib, sirkning qizig‘ini ketkazib qo‘yasan. Meni yiqitma. Yaqinda Qizilo‘rdaga boramiz. O‘sha yerda kurash tugay deb qolganda yiqitarsan...

— Qo‘y-e, “o‘zbek o‘z og‘am” deydi, bizning qozoqlar. Tug‘ishganlarimga yuzingni bir ko‘rsatmay seni qanday qilib Qizilo‘rdaga olib boraman... Qo‘y...

— Iya, “Dala burguti” shu ekan...

— Qozoq ekan.

— Ha. Buning otini bilish kerak endi.

— Otimni hamma polvonlarni yiqitib bo‘lgandan so‘ng aytaman, degan edi-ku.

— Qachon yiqitadi endi? Eshitmayapsanmi anavi polvonning “yiqitma” deyotganini. Pivo pulini ham o‘sha to‘layapti shekilli. Mana shunaqa, pivoni ichkizadi-ichkizadi-da, yiqilmay ketaveradi, otini ham aytmaydi.

— Bo‘lmasa Oxunboboyevga borib aytamiz. U kishi buni oldiga chaqirib oladi-da, izzat-hurmatini joyiga qo‘yib suratini gazetaga bostiradi. Ana shundan keyin buning oti ham, zoti ham ma’lum bo‘ladi-qoladi. So‘ng, o‘zini mehmonga chaqiramiz, o‘zimizning “Polvon akamiz” bo‘ladi-qoladi.

— Bu juda to‘g‘ri fikr.

O‘zbeklarning sevikli Yo‘ldosh otasi o‘zining butun hayotini ishchi va dehqonlar orasida o‘tkazgan. Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro qumlari, Xorazm atrofida u bormagan shahar-qishloq, u kirmagan teatr, klub, choyxona, dehqon kulbasi qolmagan. U O‘rta Osiyo xalqlarining sevikli otasi bo‘ldi. U mamlakatning katta-katta ishlarigagina emas, hatto har bir oilaga ham zo‘r e’tibor bilan qarardi. U xalq sirini, uning orzu-umidini biluvchi qomus edi. Unga sirk tomoshabinlarining iltimosi ham aytildi.

— Xo‘p bo‘ladi, o‘g‘illarim. Kechqurun sirkka o‘zim boraman, — dedi Yo‘ldosh ota.

Bugungi sirk afishasida “Dala burguti” katta yumaloq taxtani qorniga qo‘yib, chalqanchasiga yotibdi. Uning ustida sig‘ganicha odam chiqqan bir yarim tonnalik mashina turibdi. Tagiga: “To‘qson pud yuk ortilgan mashina polvonning ustidan o‘tadi!” deb yozilgan edi.

Oyog‘ini bola bosib olsa dod-voy soladigan odamlar:

— Bu mumkin emas! Qaysi bir jonidan umidi bor odam qorniga taxta qo‘yib mashina tagida yotadi?.. Yon-beriga toshmi, temirmi, ishqilib bir balo qo‘yib mashinani o‘tkazadi-yuboradi. Qornidan o‘tkazarmish-a! — deyishdi suratiga tikilishib.

— Mayli, borib ko‘ramiz...

Sirk ichida qadam bosadigan joy qolmagan, liq to‘la odam. O‘yin maydoni atrofidagi stullarda hukumat rahbarlari o‘tirishibdi: qog‘oz-qalam ushlab olgan muxbirlar, apparatini bo‘yniga osib olgan fotograflar aylanishib yurishibdi. Shular orasida boshiga qo‘qon do‘ppi, ustiga yozlik oq shohi chopon kiyib olgan Yo‘ldosh Oxunboboyev ham bor. Uning hurmatini qilib odamlar churq etmay o‘tiribdi. Hammaning ko‘zi o‘rtadagi maydonda.

Bir-biriga yopishtirilgan ikki bo‘lak katta qalin taxtani sakkiz odam arang ko‘tarib chiqib, maydon devoriga suyab qo‘ydi. Sirkning katta ikki qanot eshiklari lang ochilib, ichkaridan chiroqlari yarqirab mashina chiqdi. Direktor boshqa eshikdan ustiga ola to‘n kiyib olgan polvonni boshlab chiqib, o‘rtadagi gilam ustiga olib keldi. U qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, tomoshabinlarga ta’zim qildi. Keyin o‘ziga o‘ttiz yildan oshiq hamroh bo‘lgan (Parijda kiygan), ola to‘nini yechib, sirk xizmatchilaridan biriga berdi-da, indamay gilam ustiga chalqancha yotdi, ikki qo‘lini kerib, tirsagini yerga tirab, kaftlarini yozdi. Xizmatkorlar qalin matrasni qavatlab, bilagidan sal baland qilib to‘shadi. Uning ustiga boyagi yumaloq taxta qo‘yildi. Yup-yumaloq maydonga balandligi bilak bo‘yiday keladigan qilib mashina o‘tadigan ko‘prik solindi. Mashina o‘t olib, ustini sirk tomoshabinlari to‘ldirganda, mehribon Yo‘ldosh aka:

— Juda og‘ir ish ekan-da... — dedi yonida o‘tirgan hamrohiga. Mashina yumaloq taxtaning bir uchini bosib ikkinchi uchi metr

bo'yi ko'tarilib, qirsillay boshlaganda ko'p odamlar ko'zlarini yumishib, mashina ro'paradagi eshikka kirib ketgandagina ochishdi. Ustidan shunchalik og'ir yukni o'tkazgan polvon taxtalarni uloqtirib tashlab, sakrab turdi. Ko'pchilikka qarab ta'zim qilarkan, quchog'i to'p-to'p guldastalarga to'lib ketdi.

Ertasiga polvonni Oxunboboyev idorasiga chaqirib olib, bosh-oyoq sarpo, pul mukofoti berib:

— Polvon aka, Toshkentni doim o'z uyingizday ko'ring. Yosh avlodlar sizni doim "Polvon bobo" deb ataydigan bo'lsinlar, — dedi.

Gazetalar uni sharhlab: "Qozoq polvoni, jahon chempioni Hojimuqon Mungaytpasov", — deb suratini bosdi. Yoz o'rtalarida sirk polvonlari Qizilo'rdaga jo'nab ketishdi.

* * *

Ikki oyga cho'zilgan kurash kundan kunga qiziy boshladi. Ovuldan shaharga kelgan odamlar ot, tuyasiga bir-ikki kunlik yem-xashagini ham ola kelishib:

— Hojimuqonning kurashini ko'rsin, deb kampir-cholimizni ham ola kelgan edik. Shaharda aytarli ishimiz ham yo'q. Ko'rib borgan odamlardan eshitib og'zimiz ochilib qoldi. Rels egadi deydimi, temirni burab mayishtiradi deydimi, gavdasida tosh sindiradi deydimi, ustidan tuya qo'shgan arava, mashina o'tkazadi deydimi... Xudoning qudrati, shunday ham odam bo'larkan-a!

— U haligi bir achchiq suvni ko'proq ichadi, deyishadi... Sotishga uch-to'rt mol haydab keldik, iloji bo'lsa tuz-ta'm totqizib ketamiz. Juda iloji bo'lmasa yotgan uyiga olib borib berarmiz. Ovulning katta-kichiklari uni olib kel, deydi. Hojimuqon biri tog'da, biri bog'da yurgan qozoqning qaysi biriga bora olardi! — deyishardi ovul odamlari sharillab oqayotgan ariq bo'yiga to'planishib.

— U tog'day polvonlarning talayini yiqitdi. Endigi qolgan polvon Toshkentda niqobini sidirib olgan "Qora qulf" edi. U Qizilo'rdaga kelgandan so'ng, qovun yeganmi... kuchayib ketib, niqobini olarda Hojimuqondan o'n daqiqada yiqilgan odam, mana bir hafta bo'ldiki, unga hech kuch bermasdi. Ba'zan Hojimuqonni

ko‘tarib, go‘yo tashlab yuborishga quduq topolmay yurgan odamday sirk ichida yugurib yuradi. Buni ko‘rgan oq qalpoq, suvsar telpakli qozoqlar xuddi Hojimuqonni yiqilib qoladiganday ko‘rishib tashvish tortadi. U endi gilam ustiga olib kelib bosaman deganda, qo‘lidan lip etib chiqib ketib, polvonni bilagi bilan bir urib tiz cho‘ktirib qo‘yadi.

— Ha, barakalla, shunday qil, chirog‘im, — deyishadi yuragi o‘rniga tushgan ovul odamlari.

Cho‘nqayib o‘tirgan polvonni Hojimuqon dam u yoqqa, dam bu yoqqa tortadi. Yelkasiga minib biroz o‘tiradi. Zo‘rg‘a chalqanchasiga yotqizib, qorniga minib oladi-da:

— Ey, kuragi yerga tegdimi? — deb sudyadan so‘raydi. U engashib qarab:

— Chap tomoni tekkani yo‘q! Vaqt tugadi! — deydi hushtagini chalib: — Qirq daqiqa ichida Hojimuqon bilan “Qora qulf” bir-birini yiqita olmadi. Ertaga Hojimuqon “Qizil niqob” — “Quyon” bilan kurashadi, — deb e’lon qildi.

O‘yin tugadi.

— Hoy Hojimuqon! Shuni yiqitganingni ko‘ramiz deb sillamiz quridi. Bizni ovora qilmay, yiqitadigan bo‘lsang yiqit-da, chirog‘im, — deb qichqiradi chollar.

— Nima qilay, og‘alar... U yog‘och bo‘lsa ekan orqalab borib Sirdaryoning bo‘yiga tashlab kelsam. U ham yer yuzini oralab chiqqan polvonga o‘xshaydi, — dedi u shig‘g‘a terini sochiq bilan artar ekan.

— Rost, chirog‘im, rost... Ozingga ham Xudo gavdadan bergan ekan... Shu turishi bilan uni dalada bitta-yarimta odam ko‘rsa, yuragi yorilib o‘lardi, — deyishib chollar “Qora qulf”ga qarashadi.

Oxiri Hojimuqon uni ham yiqitdi... Yiqitgan sayin chollar chopon, chakmon, ayollar chit, batis ko‘ylak kiydirishardi. Ba’zi bir irimchi kelinlar ro‘molchasi bilan terini artib, peshonasini bog‘lardi. Kampirlar bo‘lsa bolalarini sudrab:

— Qarog‘im, umri uzoq bo‘larmikan, polvonning oyoqlari orasidan o‘tkazib olay-chi, — derdi. Polvon ham ularga e’tiroz bildirmay:

— Ko'p yasha, o'g'lim... Tufa-tufa! — deb cho'ntagidan konfetmi, manpasimi olib berardi.

"Qizil niqob" hech yiqilmadi. Gavdasi Hojimuqonning yarmisiday keladi, kip-kichkina. Badani qog'ozdek oppoq, maymunday o'ynab, simobday yumalaydi. Hojimuqon qancha urinsa ham qo'liga tushmaydi. U kuchli qo'llari bilan yelkasiga ko'taray deb turganda, kichkina polvon taltayib turgan oyoqlari orasidan lip etib o'tib ketadi. Hojimuqon unga burilib qarayman deguncha, orqasidan sakrab bo'yniga osilib oladi. Shundan keyin u yemto'rvasi bo'yniga tushib qolgan otdek, boshini likillatgani-likillatgan. Engashib silkisa oyog'ini qisib olib hech ham tushmaydi. Keyin bir amallab qo'lidan ushlab bag'riga bossa, qorniga bir tepib yana chiqib ketadi. Ba'zan uni quvaman deb o'zi yiqilib qoladi. "Qizil niqob" yashinday uchib kelib yelkasidan bosadi, yotgan yerida kap-katta gavdaning qo'ltig'iga qo'lini solib, zilday tanani to'nkaday ag'darib tashlaydi.

— Eh, g'aflatda qoldi-ya polvon! Yelkasi yerga tegdi, shekilli, — deb chollar chiday olmay o'rnidan turib ketishadi. Biroq chollar o'ylagancha bo'lib chiqmaydi. U xuddi kamalakday egilib, boshi bilan oyog'ini yerga tirab, qorni to'mpayib, yag'rini yerdan yarim gaz ko'tarilib ketadi. Ustida bo'ynini qo'li bilan itarib, oyoqlarini tepkilab yotgan "Qizil niqob"ni ikki biqinidan qisib o'rnidan uchib turadi. Qo'ltig'ida bir bog' bedaday qisilib yurgan "Quyon"ni yerga uloqtirib yuboradi. U ham oyoq-boshi bukilib kamalak bo'ladi-yu qoladi. Uni shu kuyicha ko'tarib gilam o'rtasiga olib kelganda, lip etib qo'lidan chiqib ketadi.

Hojimuqon juda charchaydi, haqiqatan ham charchaydi. Ular bir-birlaridan ajrashgach, polvon temirchining damiday guv-guv qilib entikib nafas oladi. "Quyon" o'ynoqlab, bemalol kelayotganda, go'yo allanarsa esiga tushganday ko'zini qisib, xo'rsinadi. Ehtimol unga ellik yosh og'irlik qilib yoshligi esiga tushar, "Qizil niqob"ning yuzi hali ochilmasa ham uning tajribakor polvon ekanligi xatti-harakatidan ko'rinib turardi.

Birortasini yiqitishini ko'rishga mushtoq bo'lgan, har kuni kelaverib zerikkan tomoshabinlar ariq bo'yidagi daraxt soyasida

o'tirib olishib, Hojimuqonning yiqita olmay yurganini o'zlaricha talqin qiladilar.

— Hojimuqonning "Qizil niqob"ni yiqita olmay yurganida bir gap bor, — deyishadi ular: — "Quyon" bir shaharlik katta boyning yakka-yu yagona o'g'liga o'xshaydi. U o'g'lining Hojimuqon bilan kurashayotganini eshitib xat yozganmish. "Yolg'iz erkam edi, yiqitmagin, nima tilasang shuni beray", debdi. Mazmunidan ko'p pul olgan bo'lsa kerak-da...

— Voy tavba, unda pul uchun sotilganmi?.. Biz uning yiqitganini ko'ramiz, deb har kuni kelamiz. Unda bizdagi shu qiziqishni ham sotgan bo'ldimi. Yo'g'-e. Unday emasdir. U hech qachon xalqdan ajralmaydi. O'skanboy ertaga uni mehmon qilaman deb bugun bozordan semiz qo'y oldi. Hamma gapni o'shanikida o'ziga aytaylik. Agar shuning puliga qiziqib yurgan bo'lsa, unikidan ikki hissa ko'p pul yig'ib beraylik. Endi bizni ovora qilmay, yiqit, deylik.

Bu so'z aytildi ham.

Hovli o'rtasiga tikilgan katta oq o'tovning aylanasiga suv sepilib, kigizni yarimigacha ko'tarib qo'yishgan. O'tov ichi yasatilmagan, jo'ngina. Faqat ko'rpa-ko'rpachalar solinib, oppoq yostiqlar qo'yilgan.

O'tov ichi liq to'la odam, to'rda oq shohi ko'ylagining yoqasi ilinmagan Hojimuqon o'tiribdi. Uning o'ng va chap yonida oqsoqollar, Alibek baxshi, idora xizmatchilari, muxbirlar, bunday joydan quruq qolmaydigan odamlar. To'rdan bo'sag'agacha cho'zilgan dasturxonda noz-u ne'mat to'la, to'rt joyga laganda qovurdoq qo'yilgan. Ikki katta qozonning birida palov, birida go'sht pishirilyapti. Utilayotgan qo'y kallasining, yog'ning yoqimsiz hidi atrofga, ko'chadan o'tgan kishining dimog'iga uriladi.

— Xo'sh, polvon, oling, yeb o'tirib gaplashaylik.

— Qani, baxshi, bir-ikki og'iz bir narsa devoring.

Ey...
Alalay-da bulalay,
Mard atalmas sinalmay,
Bir podaning noriday,

Sirda suzgan baliqday.
Har bir ona tug‘avermas
Bunday polvon kishini.
Olam tanidi endi
Arab, Eron va Hindi —
Xullas, aytsam, butun yer:
“Hojimuqon — polvon!” deb
Ta’rifladi birma-bir...
Bilmay qoldi kim buni?..

— Rahmat, chirog‘im! Rost, buni bilmaydigan odam kam! Biroq shu bir “Qizil niqob” deganini tuya bilan o‘ynashgan mushukday bo‘ynidan tushmay qoldi... Biz uni qachon yiqitarkin, deb bo‘ynimizni cho‘za-cho‘za charchadik! Bo‘lmasa, uni kuchi kam, deyotganimiz yo‘q. Uni har qancha maqtasang arziydi, maqtayver... Polvon so‘zlagan cholga xo‘mrayib qarab:

— Men uni yiqitar edim-ku, biroq pulini olib qo‘ydim-da, — dedi.

— Qarog‘im, pulni nima qilasan?

Polvon yana qovog‘ini solinqirab:

— Pul kerak-da. Har kuni bir qo‘y yeyman, bir chelak toza sharob ichaman. Buning ustiga uylanmoqchiman. Shunday tiz cho‘kib yalingan polvonlarning pulini olmasam, men pulni qayoqdan olaman? Har polvonni yiqitganim uchun yuz so‘m, kuch-hunarimni ko‘rsatganim uchun yuz so‘m beradi. Har kuni yiqitaverishga polvon topiladimi? Har kuni ustimdan mashina o‘tkazib, qornimda tosh sindiraversam sillam qurib o‘laman-ku.

— Chirog‘im, sen dunyo deb g‘am yema... Har kuni yuz so‘m topilmasa ham, har kuni xalq yoningda-ku. Xalq bitmas-tuganmas dunyo, saxiy bir daryo!

— Rahmat, og‘a! Bu so‘zingiz rost, shu xalq har kuni yonimda bo‘lmasa, men alloqachon o‘lib ketmasmidim.

— Barakallo, biroq xalq qadriga yetmaydigan odam ko‘p. Xalqqa suyanganning qayg‘usi bo‘lmaydi. Xo‘sh, shunday qilib, “Qizil niqob”ni qachon sidirib olasan? Shundan gapir.

— Bugun...

— Unda chiptaga chopaylik. Bir, ikki, uch... O'tovda o'ttiz yettita. Uydagi odamlarni ham hisoblab hammasiga olaman...

— Chirog'im, durustroq joydan bo'lsin, bir chetda — chuvullagan bolalar o'rtasida qolmaylik!

— Nima deyapsiz, oqsoqol, oldingi lojalardan olaman.

* * *

Kurash vaqti har kungidan o'zgarib oltmish daqiqaga cho'zildi. Hojimuqon har kuni kurash oldidan sirk rahbarining oldiga kirib chiqar edi. Bugun unday qilmadi. Ilgari o'z navbati kelguncha boshqa o'yinlarni tomosha qilib o'tirar edi, endi ko'zlarini chirt yumib, mudrab o'tiribdi. Sirk xodimlari to'planadigan joydan birov yugurib kelib, Hojimuqonning qulog'iga bir narsa deb shivirlagan edi, engashib nosini tupurarkan:

— Ne nado! — dedi.

"Qizil niqob" bu gal negadir xafaroq bo'lib chiqdi. Hojimuqon o'tirgan joyida yechinib kurashadigan polvon bilan o'pkalashganday, jiddiy bordi. Har kungi odati bo'yicha sudya:

— Fransuz kurashi bo'yicha jahon chempioni Hojimuqon Mungaytpasov "Qizil niqob" bilan so'nggi marta kurashadi. Vaqt oltmish daqiqa, — deb dona-dona qilib aytdi-da, chur etkizib hushtagini chaldi.

"Qizil niqob" har kungidan ko'ra chaqqon harakat qildi. Biroq katta polvon surinmadi ham, qorniga ham tepkizmadi. Shunday bo'lsa-da, uni qo'liga tushira olmay yigirma daqiqa vaqtini o'tkazdi. Bir payt u oyoqlari orasidan o'tib yelkasiga yopishganda ikki bilagidan ushlab, qo'lini qayirib qimirlatmay ikki daqiqa ushlab turdi. "Qizil niqob"ning oppoq tanasi qip-qizil bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. Sudya hushtagini churillatib, ularga yaqinlashganda, uni gilam ustiga yonboshlatib, ustidan og'ir gavdasi bilan bosdi. Engashib qaragan sudya "bo'ldi" degandek hushtagini chaldi. Kichik polvonning Hojimuqon mahkam qisgan bilaklari oq latta bog'lab qo'yganga o'xshab ancha vaqtgacha qon yurishmay qoldi.

"Qizil niqob" — Hojimurod Davlatqorayev degan qrimlik yigit ekan. U keyingi paytlarda "Hojimuqonning o'g'liman deb ham yurdi.

Minay yanga

Yarim kechada uyiga kelgan davlat arbobi:

— Onasi, bir choynak choying bo'lsa, kabinetga olib kirib bera qol, juda chanqab ketdim — dedi ish kiyimlarini yechib, yengil kiyinar ekan.

— Dadasi, mehmonxonaga kirib ovqat yemaysizmi? Sizni ancha kutib o'tirdik. O'n ikkilarda kelamiz, degandingiz, mana soat ikki bo'ldi. Haliyam ovqatga tobingiz yo'qqa o'xshaydi...

— Bahor lolalari ochilgan vaqtda bulbul ovqat yeyishni unutadi der edi, biz ham shu-da, onasi... Hayot bahori shirin bo'lib ketdi shu kunlarda.

Jahon jumbog'i yechilgan kunda,
Ishlamak bo'laman el bilan birga.

Bu Oxunboboyevning har kungi hayotidan bir lavha, xolos. U choyini icharkan stol ustidagi gazeta va jurnallarni ham ko'rib chiqdi. "Qizil O'zbekiston" gazetasini ko'zdan kechirar ekan, ko'pdan buyon bormagan Farg'ona vodiysining bir chekkasi esiga tushib ketdi: "O'sha kampirning o'g'li qayerda ekan-a?" — deb o'yladi u. Bu uy Yo'ldosh otaning bosmachilarga qarshi kurashib yurgan vaqtlarida yotib yurgan uyi edi. Tog' oralig'ini makon qilgan bir kampir bo'lib, uning Mutalib degan o'g'li bor edi. Yo'ldosh ota shular haqida o'ylar edi.

"Mayli, ertaga Farg'onaga borib, shu bechoralarning hol-ahvolidan xabar olib kelay. Aravakashlik qilgan, ishchi bo'lgan kunlarim... Yoshligimdagi xor-zorlik... O'sha bechoralarning ham ko'p yaxshiligini ko'rdim. Dengizday yaxshiligiga bir tomchi yordamim tegsa..." deb o'yladi.

U ertalab idorasiga borib, yo'lga mashina hozirladi. Biroq yana birovga yordam berish lozim bo'lib qolib, tushgacha ushlanib qoldi.

— Ota, bir kishi oldingizga kirish uchun ruxsat so'rayapti, — dedi yordamchisi.

— Kirsin.

Egnida o‘zi kiydirgan beqasam to‘n (to‘n to‘zibroq qolgan edi), boshida oq qalpoq, Hojimuqon kirib keldi.

— Assalomu alaykum!

— E... Polvon bobo, hormang, qani, qani, qadamingizga hasanot. Xayrli bo‘lsin...

— Yo‘ldoshjon, o‘sha xayringizni o‘zingiz tashkil etmasangiz u meni izlab boradigan emas!..

— Iya, nima bo‘ldi?

— Qartaydim, qartayganda xotin oldim. Oppoq soqolim bo‘laturib yulqilashib yotishdan uyalib, kurashni yig‘ishtirdim. Mening boqadigan molim ham, o‘radigan ekinim ham shu kurash edi; shundan ayrilganimdan so‘ng nima bilan tirikchilik qilishim o‘zinga ma’lum...

— Xo‘p, xo‘p. Buyog‘i tushunarli.

— O‘zimni o‘lguncha kuta oladigan juvon, yoshi o‘ttizlar chamasida. Sizlarga qo‘shni — Chavuldir rayonida qarindoshlarim bor. O‘shalardan biri o‘lib, xotini ikki yosh bolasi bilan yesir qolgan edi. Bu — ham xotin olganim, ham yetim bolalarni asraganim. Bechora meni ham quruq qo‘ymadi, homilador. O‘g‘il tug‘sa otini Haydarxon, qiz tug‘sa Darig‘a qo‘yaman. Oldingi o‘g‘illarimni onasi o‘lgandan so‘ng davlat asragan edi. Endi el kezishdan qutuldim, o‘la-o‘lgunimcha o‘zim parvarish qilaman. Yo‘ldoshjon, menga kuch berib yorlaqayman deb tashvishga solib qo‘ydi.

— Iya, bu nima deganingiz?..

— Qirq kishining kuchini berish bilan birga qirq kishining ovqatini yeydigan qilib yaratibdi. Nasibamni yozganda, oddiy kishilarnikiday qilib yozmay, faqat go‘sht, qand, choy, konfet, sharob yozibdi. Bularni yetarli qilib yozmay, kurashni tashlaganimdan so‘ng — atala, yovg‘on go‘ja yozib hamma yoqni chalkashtirib yuboribdi. Ust-bosh, ko‘rpa-yostiqni-yu, mutlaqo o‘ylamabdi. Endi o‘sha taqdirning nodurust joylarini to‘g‘rilab ber; sening oldingdan chiqib Qozog‘iston hukumatiga ham boraman. Nasibamni ikki hukumat bir amallab to‘g‘irlab berar, deb o‘ylayman.

Oxunboboyev xaxolab kuldi... U kula-kula bo'lim boshliqlarini chaqirib oldi. Hojimuqonning so'zini aytib ularni ham kuldirdi. Shunday qilib, Oliy Sovetning yakka shaxslar uchun beriladigan yordam fondidan besh ming so'm pul ajratib, unga kerak narsalarini berishni aytdi. Hojimuqon ko'rpa-yostiq, kerakli ust-bosh oldi, Oxunboboyev o'z yonidan ikki ming so'm berdi.

— Bu sob bo'lsa yana kelaymi? — dedi polvon.

— Kechasimi, kunduzimi, qachon kelsangiz ham bu eshik siz uchun ochiq, polvon bobo.

Hojimuqon ko'p yuk bilan "Oqtepa" kolxoziga keldi. Ayoli o'g'il tug'ib, otini Haydarxon qo'ydi. O'g'li ellik beshinchi yilda o'n oltiga kirdi. Uni tug'gan Minay yanga edi. Bola ko'rinishidan sal otasiga o'xshasa ham, yuzi, odati uncha o'xshamasdi.

Minay yanga bir necha yildan so'ng ikkinchi Hojimuqonni tug'di. Uning otini Janabil qo'yishdi. U ellik beshinchi yili yetti yoshga kirdi. Bu to'g'rida keyinroq hikoya qilarmiz.

Ikkinchi jahon urushining bir kuni

Oy oxirlari edi. Zimiston kecha. Tinchlik paytida erta yotadigan qariyalar bilan bolalarning uxlaydigan mahali allaqachon bo'lgan. Endi ular shu mahalda daladan qaytib kelishyapti. Bunday kechalarda, chiroq yorug'ida qaymoqli quyuq sut qo'shilgan choy ichib o'tirib ertak aytadigan keksa onalar yarim kechada qalin to'shaklarini yig'ishtirib, ishga erta saharlab ketib, yarim kechada keladigan oila azolariga ovqat hozirlab o'tiribdi.

Ona sutini o'z vaqtida emmas, dod solib yig'laydigan bolalar ham sabrli bo'lib qolgan: buvilari qoshiq bilan ichkizgan sutlarini liq-liq yutishar, qo'liga ushlatgan ko'mach-kulchalarini yer, ba'zan nimalarnidir aytib kampirlarni kuldirar edi. Buni ko'rgan ba'zi kampirlar esa: "Vo ajabo, el boshiga tushgan kulfatni kip-kichkina bo'lib shular ham biladi-ya! Og'asining uyida yo'g'ini, yangasining ishdaligini bilganday, yig'lashmaydi ham-a?" — deb ko'z yoshlarini artishadi. Uylarida otasimi yo onasimi ko'tarmasa,

erkalatmasa yig'lab, janjal qiladigan bolalar endi o'sha kampirlarning yugurdagi, yordamchisi.

— Jumatoy, Qunduz oyingning chelagini so'rab olib kela qol. Suv keltirib olay...

— Bolaginam, it huryapti, chiqib qara-chi, dadang bilan oying kelyaptimikan... — desa, qulun kabi chopqillab chiqib ketadi.

Mehnatda chiniqqan odamlar, soqoli ko'ksiga tushadigan chollar, bo'g'ini qotmagan yosh bolalar, "ayol bilan erkak teng bo'ladimi, charchadik", deydigan ayollar uylariga kelgach, "uh" deyishni unutib yuborganday, dadil qadam bosar, qattiq-qattiq so'zlar edi. Bo'sag'adan hatlab uyga kirmay turib bunday derdi:

— Qani, ovqating bo'lsa olib kel... Fufaykamni yoyib qo'ya qol, terlab orqamni muzlatib yubordi.

Bu Ikkinchi jahon urushi kunlarining lavhalari edi.

Shunday kunlarning birida beshinchi sinf o'quvchisi Esali ishdan har kungisidan ertaroq kelib, sut qo'shilgan kesma osh tayyorlab o'tirgan Jangilning bo'ynidan quchoqlab, bugungi qilgan ishlarini xursand bo'lib so'zlab berdi:

— Buvi, men bugun kuni bo'yi polvon bobomning oldida ishladim. U meni o'zi tanlab oldi. Brigadir bobomga panshaxa topib berolmagach, u ariq bo'yidagi yo'g'onligi mening sonimday keladigan qurib qolgan tolni sug'urib oldi-da, butalarini bolta bilan choptirib tashlatib panshaxa qilib oldi. Uni bobomning yoniga Tilev ikkovimiz zo'rg'a ko'tarib olib bordik. Unga rais:

— Siz nega keldingiz? — degan edi, bobom yerga jahl bilan tupurdi-da:

— Uyda yotaverib juda zax o'tib ketdi. Endi urush tugab, yigitlar qaytguncha, men dalada ishlayman. Yaxshisi menga beradigan ishingni ayt, — dedi.

— Bo'lmasa xirmonda ishlay qoling, — dedi rais.

— U yerda nima qilaman? Ish yo'q-ku.

— Kombaynga ajratilgan to'rt-besh chol o'tirishibdi. Tushgacha g'alla tashiydi, ish bo'lib turadi. Yetmishdan oshib qolgansiz-ku, sizga tushdan keyingi ish ham yetadi.

Shunda bobom qovog'ini solib, yog'och panshaxa ustida o'tirgan raisni ko'tarib tashlab:

— Men senga sotiladigan otday tishim bilan yoshimni sanatgani kelganim yo'q! Menga qo'sh ho'kizli arava, yonimga Esali bilan Tilevni qo'shib ber. Bular panshaxaga ilinmay qolgan bug'doylarni yig'ib berib tursin. Tushgacha xirmondagi ishlarni tugatsak, tushdan keyin xirmonni ag'dartirasanmi, kombaynni sudratasanmi, bu sening ishing — dedi-da, Tilev ikkovimizni ergashtirib, dalaga tomon yurdi. Rais boshqa hech narsa demadi. Brigadirga:

— Mana bu kishiga arvakashlarni yubor-da, suvsinini mo'l qilib olib borib ber, — deb ishiga jo'nab ketdi.

— Buvi-chi, buvi, bobomning panshaxasi uzunligi naq o'tov uvug'iday keladi! Boshqalar uch-to'rt bo'lib ko'taradigan bog'lamlarni u bir ko'tarib aravaga tashlaydi. Uning o'rnini tozalash uchun o'nta bola torma soldik. Aravaga bog' ortayotgan ayollarning barini bo'shatib, o'toqqa yubordi-da, bitta brigadirning bug'doyini aravaga bir o'zi ortdi. Kun botganda o'rilgan bug'doy qolmadi, shunda tabelchi kelib bobomga o'ttiz mehnat kuni, bizlarning har bittamizga besh mehnat kunidan yozdi...

— Uyga sen bilan birga keldimi?

— Yo'q, buvi, xirmondagi bug'doyni kombaynga solmoqchi bo'lib qoldi.

— Bechora, o'zi ham rosa charchagandir?..

— Charchagani yo'q, buvi, xirmonga kelayotib, yo'lda ko'prikka g'ildiragi kirib qolgan aravani bir qo'li bilan ko'tarib chiqardi.

— Necha mesh qimiz ichdi ekan?

— Mening ichganimcha ham ichgani yo'q, buvi... Tushda bitta non bilan bitta katta kosada go'ja ichdi. Xirmonga kelgandan keyin bir kosa sovuq choy ichdi.

— Qari odamga xirmondagilar uyingizga borib dam oling demadimi?

— Aytdi, buvi. U bo'lsa: "Nor yo'lida yuk qolmaydi! Shuncha bug'doyni uyib qo'yib uyga boramanmi?.. Yog'och panshaxam bilan kombaynning halqumiga tiqib yuboray", dedi.

— Unda, shu bugun bir kuchimni ko'rsatay, degan ekan-da bobong.

— Yo‘q, buvi, unaqa emas. Bobom ertaga ham ishga chiqadi. Ish bitguncha ishlayman deyapti. Menga:

— O‘g‘lim, ertaga ham men bilan birga bo‘l. Ertaga ikkinchi brigadada ishlaymiz, dedi...

Shunday qilib, Hojimuqon jazirama issiqda kolxozda o‘n besh kun ishlab, uch yuzdan oshiq mehnat kuni topdi. Kolxoz, uyiga olib kelib bergan ikki arava g‘allani tushirmay, uyi oldidagi yo‘l bo‘yiga tushirtirdi, keyin temir yo‘l stansiyasiga ketayotgan mashinani to‘xtatib, bo‘g‘ma qilib solingan qoplarni tarvuzdek mashina ustiga uloqtirdi:

— Elevatorning boshlig‘iga ayt: dushman bilan olishayotgan bolalarimga o‘z halol mehnatim bilan topgan bir kulcha nonday sovg‘a-salom — shu mashinangga solgan bug‘doyni tez yetkazsin! Qoplarning sirtiga: “Keksa polvon Hojimuqon Mungaytpasovdan”, deb yozib qo‘yishsin, talay-talay zo‘r polvonlar yelkasini yer iskatgan keksa polvon Vatanimiz tuprog‘ini dushmanning iflos qadamidan tozalaguncha mehnat maydonida ishlab turadi... Chirog‘im, shofyor, qonli maydonda jang qilayotgan qahramon bolalarimga shunday deb yozinglar!

Dastlabki mehnat haqini jang maydoniga yuborgan polvon butun kuchi bilan kolxozga yordam bera boshladi. Katta-katta bug‘doy bog‘lamlarini inqillab ko‘tarolmayotgan yoshlarning yoniga kelib:

— Bolam, bundayroq tur, — deb katta panshaxasi bilan ko‘tarib tashlab, keng peshonasidan chiqqan terni kafti bilan artarkan, uni ko‘rganlar, rahmi kelib:

— Voy tavba, tanasidagi qo‘rg‘oshinday kuchni qaysi ishga sarflasa ham baribir ekan-a. Men uni kurashdan boshqaga yaramasa kerak, deb o‘ylardim. Bunaqa ishlashda ish qoladimi? — deydi uning yonida ishlab yurgan birov.

— Ha, shunday ekan. Men ham bir-ikki kundan keyin charchagan tuyaday cho‘kib qolar, deb yurardim. Qara, bo‘sh keladigan emas, qaytaga po‘latday toblanib boryapti, — deydi ikkinchi birov, panshaxasining dastasiga suyanib, uzoqdan tikilarkan.

— Shunaqa o'n nafar odam, o'nta mashina bilan o'nta traktor bo'lsa boshqa hech narsaning keragi bo'lmasdi, bemalol bitta kolxozning ishini qilaverardi deydi yana bittasi.

— Otam kelib, og'ir ishlardan sal qutulib qoldik, baraka topsin! Yana biroz ishlab tursa yaxshi bo'lar edi... Kim biladi, temir-toshini orqalab yana bir yoqqa ketib qoladimi?.. — deyishardi ayollar.

Ko'p o'tmay shularning aytgani bo'ldi. Polvon otalari temir-toshini ko'tarib ketishga bel bog'lab qoldi.

Jang maydonida bir qo'li bilan bir oyog'idan ajralgan Jaqip ovulga qaytib, ikki qo'ltiqtayoqda orden va medallarni shaldiratib Polvon otani ko'rgani keldi.

— Assalomu alaykum! — dedi jangchi. O'ng qo'lidagi tayoqni so'l qo'li bilan tizzasiga suyanqirab, engashib qo'lini cho'zdi.

— Sog' bo'l, chirog'im! — dedi polvon. U o'rnidan turib jangchini qo'ltiqtayog'i bilan qo'shib quchoqlab peshonasidan o'pdida, keyin to'rdagi ko'rpachaga o'tkazdi.

— Ko'kragingdagi yaltiroq narsalaring mardlik ko'rsatganlarga beriladiganidan xabarim bor. Menga endi dushmanning qachon yengilishini ayt, — dedi u hol-ahvol so'rashib bo'lgach.

— Xo'p, ota. Bostirib kelishni bilgan dushman qochishni ham bilar ekan, ota. Albatta, ular yog'och emaski, nariroq itarib qo'ya qolsang, zambarak tumshug'idan urib turgandan keyin qochmay iloji bormi. Katyusha ham ta'zirini berib turibdi. Avtomat-ku ko'zini juda ochirmayapti. Ko'proq tank bilan samolyot kerak — shu ikkalasi ko'p bo'lsa tozi bilan burgutday biri yerdan, biri osmondan qochgan dushmanni sog' qo'ymay abjag'ini chiqaradi...

— To'g'ri aytasan, o'g'lim, qochgan bo'rini qaytib kelmaydigan qilish uchun burgut kerak. Xalqimizning ham fikr-yodi shuni ko'paytirishda. Men ham shundan bittasini uchirsammikan deb o'ylab yuribman.

— Niyatingizga yeting, men ham tilakdoshman, biroq sizga og'irlik qilmasmikin.

— Azamatim, u qancha og'ir bo'lsa ham men ko'tarmayman-ku, po'lat qanotlari bilan o'zi uchib ketadi... Necha pul turar ekan-a?

— Og'ir deyayotganim shu puli-da ota. Bir samolyot yuz ming so'msiz bitmas.

Polvon chap qo'lini yuqori ko'tarib, bo'lak-bo'lak bo'lib turgan mushaklarini o'ynatib, changallab ushlab ko'rib:

— Mana shu qo'ldan yuz ming so'm chiqmasmikin-a. Hali baquvvat-ku! Hay, qaydam, bir-ikki yuz ming so'm chiqsa keragov, qo'y, millionlar berishga qodir — saxiy xalqimizga boray.

Shunday qilib u ertasigayoq Esalini ergashtirib, temir-toshlari ortilgan aravasi bilan Chavuldirga yo'l oldi.

Qozig'urt quchog'ida

Katta bo'z otga qo'shilgan yengil arava Qozig'urt tog'ining g'arbiy yonbag'ridan Chimkent bilan Toshkent oralig'idagi tosh yo'lga tomon siljir, uni o'n uch, o'n to'rt yoshlar chamasidagi bir bola haydab kelar, arava ustida ulkan gavdali bir odam chordana qurib o'tirardi. To yaqiniga kelib qaramaguncha uning odam ekanini kishi ajrata olmasdi. Arava yengil bo'lsa ham ellik pud yukni ko'tara oladigan darajada pishiq, ustidagi yuklar oz ko'ringani bilan ancha og'ir edi. Aravakash bola bilan mayda-chuyda temir-tersaklarni hisoblamaganda, haligi kishining og'irligi bir yuz yigirma kilogramm, qisqa dastali bolg'a o'n olti kilogramm, aravadan bir uchi chiqib turgan rels ikki yuz sakson kilogramm, har qaysisi o'n kilogrammdan keladigan bir bog'lam temir lo'mlar bor edi. Ulardan ba'zi birlari egri-bugri bo'lib, buralib, mayishib yotibdi. Zanjir, taxta, hammasini qo'shib hisoblaganda esa ikki odamdan boshqa, aravada yarim tonnadan ortiqroq yuk bor edi. Tanasida qo'sh otning kuchi bor — bo'z ot bo'lmasa, bu yukni boshqa ot tortolmas ham edi.

Bo'z otning bu aravani tortib yurganiga bir yarim oydan ortiq vaqt o'tdi. Jazirama chillaning oxirlarida Chimkentdan chiqqan edi; Chavuldir, Chayon, Aris, Bodamli, Paxtaorol, Kirov, Sariyog'och, Keles, Bo'stonliq, Qoratosh rayonlarini oralab, Qozig'urt kolxoziga tushib, qovoqxona oldida otiga dam berdi. Endi yana Chimkentga qaytib kelyapti.

— Chorrahaga ham yaqinlashib qoldik, bobo, qovoqxonaga kirib o'tamizmi? — dedi bola.

Aravadagi katta kishi yonboshidagi kanop qopning burchagini ushlab ko'rib:

— Bolam, mana bu ko'kati bor tepalikka buril. Otni o'tlatib, qopdagi pulni sanab ko'raylik. Chamaga yetgan bo'lsa, to'g'ri Chimkentga ketaveramiz.

Bola u aytgan yerga borib, otni to'xtatdi. Haligi kishi aravadan qopni olib tushdi-da, brezent chakmonini yerga yozdi. Qopning og'zini ochib silkib yubordi, g'ijim-g'ijim qog'oz pullar chakmon ustiga uyulib qoldi.

— Qani, bolam, mana bu pulning yuz so'mliklarini bir bo'lak, ellik so'mligini bir bo'lak, maydalarini bir bo'lak qilaver. Men sanab boylayveray.

Pulning ko'pi yuz so'mlik edi, u ancha vaqt sanab, o'n ming so'mlik qilib bog'lay boshladi. O'n bir bog'lam pulni qopga solganda, besh mingcha keladigan mayda pul qoldi.

— Bolam, mana bu pulni ro'molchaga tugib, onangga olib borib ber. Ukalaringning hojatiga yaratsin. O'g'lim, sen yozish-chizishni bilasanmi?

— Ha, yoza olaman, ota.

— Qalam-qog'ozing bormi?

— Bor.

— Bo'lmasa, qalam-qog'ozingni ol, men aytib turaman, sen yoz:

"Vatan Mudofaa Komissariga! Yetmish besh yoshlik qozoq xalqining polvoni Hojimuqon Mungaytpas o'g'lidan qardoshlik hamda o'rtoqlik istak: yovuz niyatli bosqinchi dushmanning jonajon vatanimizga bostirib kirib, tinch mehnatimizni, farog'atimizni buzganiga uch yil to'lib, mana to'rt yilga qadam qo'ydi. Qonli jang maydonidagi jangchilarimizning qahramonligini har kuni eshitib turibman. Nima uchun qon to'kayotganimizni ham tushunaman. Qozoq xalqining erkin el bo'lishiga yordam bergan rus xalqi olov ichida turibdi. Ukrainalik jonajon do'stim Poddubniyning vatani yov oyog'i ostida yotibdi. Agar shu ulkan el yov yo'lini ko'kragi bilan to'smaganda biz ham allaqachon shu olovni

ko‘rgan bo‘lar edik. Jang maydonidagi o‘g‘il-qizlarining g‘alabasi uchun hormay-tolmay mehnat qilayotgan ota-onalarni, aka-ukalarni ko‘rib, men ham jim o‘tira olmadim. Yetmish besh yoshimda panshaxa ushlab, qop ko‘tarib, xirmon sovurganim o‘zimga oz ko‘rindi.

Menda hech qachon ortiqcha mol-mulk bo‘lgan emas, faqat kuchim bor, xolos. Shu kuchim tufayli “Jahon polvoni” degan nomga ega bo‘ldim. Mening bitmas-tuganmas xazinam — xalqim. Oxirgi kuchim bilan yuz ming so‘m to‘pladim. Samolyot bilan kelgan yov, samolyot bilan kul-parchin bo‘lsin! Qaraganimda yalang‘och gavdamda tosh sindirib, yelkamda rels egib, tishim bilan yukli arava tortib, peshona terim bilan topgan pulimga bitta samolyot yasatishingizni so‘rayman. Mening, Vatan urushining dovyurak armiyasiga mindirgan otim shu bo‘lsin!

Istagimni qabul et. Ko‘p yasha, Stalin!”

U shu xatni yozdirib, qayta o‘qitib, ko‘krak cho‘ntagiga soldi-da:

— O‘g‘lim, otingni qo‘sh. To‘g‘ri Chimkentga hayda. Mana bu pulni bankka topshiray, — dedi.

Qayg‘u va quvonch

Olmaotaning ot chopadigan maydoni ko‘m-ko‘k maysa bilan qoplangan. U yerga o‘tovlar tikilib qo‘yilgan. Esil, Nura, To‘bil, Irtish, Yettisuv, Sir bo‘yi, Jayiq, Jem, Sarisuv va Tolas bo‘yidan kelgan qozoqlar bilan Moskva, Leningrad, Frunze, Toshkentdan kelgan mehmonlar aralashib, maydon liq to‘lgan. Kolxoz, sovxozlardan saralanib kelgan poygachi otlar yer tepinib, quloqlarini o‘ynatib, bog‘log‘liq turibdi. Ot chopiladigan joydan shahargacha olti kilometrlik oraliqda mashinalar zuv qatnab, osmonga chang-to‘zon ko‘tarishardi. Bepoyon dalaning olimlari, mashhur yozuvchilari, mehnat g‘oliblari, oltin yulduzli qahramonlari, kishi bahrini ochadigan ashulachi-o‘lanchilari shu yerga to‘planishgan.

Har bir simyog'ochga osilgan radiokarnaylar Olatov bag'rini yangratib turibdi. Bu Ikkinchi jahon urushining tugash arafasida bo'layotgan Abayning yuz yillik to'yi edi. Shu to'y o'tayotgan joyida tagiga oq kigiz to'shab, kurash sudyasi — Hojimuqon o'tiribdi.

Yonida to'planishgan yag'rini keng, gavdali polvonlar, otasining oldida odob saqlagan o'g'ilday qo'llarini uqalashib jim turishardi. Hojimuqon alp gavdasini kerib, polvonlarga ko'zini qisib qarab:

— Ey, chetda turgan bolam, oting nima? — dedi.

— O'rimbet, Hoji aka...

— O'rimbet, o'ng tomonimga o't.

— Gavdali yigitim, sening oting kim?

— Tulem, Hoji aka...

— Chap tomonimga o't.

— Bo'ylaring, gavdalaring bir ko'rinadi, kuchlaring ham teng bo'lsa kerak. Yaqinroq kelinglar. Kurash — bu mushtlashish emas! Kulib turinglar. Ma, kurashchilar kiyimi, o'tovga kirib yechinib, kiyib, bellaringni boylab kelinglar.

— Hoy, ikki bola, anavi buklog'liq turgan gilamni olib kelib, o'rtaga yozinglar.

— Oqsoqol, qozoqcha kurashadigan bo'lgandan keyin maysa ustida kurashavermaydimi?..

— Bu tuproqqa ag'anashadigan To'spayning to'yi emas, madaniyat, ilm-ma'rifat otasi Abayning to'yi! Katta odamning gapini qaytargan uyat bo'ladi, boringlar!

Gilam yozilib, polvonlar kiyimlarini kiyib kelishdi. Polvonlar otasi o'rnidan turib, ikkovining chiroyli va ixcham bo'ylariga qarab:

— Sen belbog'ingni sal bo'shat. Kurashganda chalish, tizzaga, to'piqqa tepish bo'lmasin! Dunyoda men ko'rmagan kurash yo'q. Belini mahkam boylagan odam — belimni bemalol ushlay olmasin, deb o'ylaydi. Kuchli qo'l ushlasa qovurg'angni sindirib yuboradi, bemalol ushlagani ma'qul. Ha, ana endi durust bo'ldi. Seniki juda bo'sh. Ko'targanda surilib ketsin, deysan-da, a? Kuchli qo'ldan lip etib chiqib ketadigan simobmisan? Tort! Xo'sh, endi

ikkalang qo'l olishinglar. Ha, barakalla... Do'stlar odil kurashishi kerak, baxtli bo'linglar.

— Haydarxon, akalaringning kurashini tomosha qil, qozoq kurashi degani mana shu.

Minay yanga o'g'li Haydarxonni ergashtirib kelib, Abayning to'yida birinchi mukofotni olib qaytdi. Polvon ovuliga qaytib borgach, maktab sport o'yinida yetti yashar o'g'li Haydarxon o'n to'rt yashar bir bola bilan boksga tushib, yutib katta to'y qilib berdi. Shu to'y ketidan ko'chma bulutdek bir parcha qayg'u ro'para bo'ldi.

Dumi, yollari uzun semiz to'riq ot minib kelgan pochtalyon Polvonga salom berib, ko'n sumkasidan xat olib uzatdi. Polvon xuddi o'qigisi kelmaganday, biroz qo'lida ushlab turdi-da:

— Esbo'l, hoy Esbo'l, mana bu xatni o'qib yubor. Minskiydan kelibdi, kim yozdi ekan? — dedi.

Bola o'tirib xatni o'qiy boshladi:

"Hurmatli Hojimuqon Mungaytpasov! Sizning o'z Vatanini jonidan sevadigan sof qalbingizni larzaga soladigan bir mudhish xabarni ma'lum qilishga to'g'ri kelib qoldi. Ikkinchi jahon urushida sodir bo'lgan bundan mudhishroq xabarlarni yashirganimiz yo'q. Bu xabar bilan sizning yetmishdan oshgan og'ir gavdangizni yana ham og'irlatishga ko'zimiz yetsa-da, bu achchiq haqiqatni sizga aytmay ilojimiz yo'q.

Sizning o'g'lingiz Habibulla Mungaytpasov Hojimuqonovich biz yashab turgan N. shahrini dushmandan himoya qiluvchilarning biri edi. U o'z Vatanini butun qalbi bilan sevgan azamat, mard yigit edi. O'z vazifasini sharaf bilan bajarib, dushman bilan mardlarcha kurashib halok bo'ldi. Shunday mard, qahramon do'stimizning nomini mangu unutmaslik uchun, o'g'lingiz vafot etgan ko'chaning nomini Mungaytpasov qo'ydik. Siz tarbiyalab voyaga yetkazgan o'g'il belorus xalqining ham o'g'lidir, qayg'uingizga sherikmiz. Quvonchli kunlarga yetishingizga tilakdoshmiz! Harbiy bo'lim shtabi..."

Polvon qimir etmay, ancha vaqt jim o'tirdi. "Voy jigarim" deb, ba'zi ko'z yoshi qilganlarni turtib, unini o'chirdi. Yonida yotgan ro'molchasini olib marvarid donalariday ko'z yoshlarini artdi-da:

— Hech kim o'lmay qolmaydi, keragida o'la bilish ham kerak. O'rinli o'lim hayot eshigini ochadi. Qo'zim, senga rahmat! — dedi.

Ertasiga, odati bo'yicha, yosh bolalarni ergashtirib dalaga chiqib og'ir temirlarni ko'tartirdi, bir-biri bilan kurashtirdi; xullas, sport o'yinlarini o'rgata boshladi. Shunday bir paytda quvonchli xabar kelib qoldi.

— Polvon bobo, siz qurdirgan samolyotning uchuvchisi kelyapti, deb rayondan juda ko'p odam Temir stansiyasiga to'planishyapti! Ular meni sizga yuborishdi... — dedi bu xabarni olib kelgan bola qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Polvon stansiyaga borganda poyezdning kelishiga hali o'n daqiqa bor edi. Rayon rahbarlari, kolxozlardan kelgan bir qancha kolxozchilar, temiryo'l ishchilari, o'zlarining polvonini hurmatlab, katta bo'lsa ham, mashinadan dast ko'tarib olishdi-da, poyezd yo'li bo'yida, o'rtalariga olib turishdi.

"Leytenant Qajitoy Shalabayev, ovulingga qaytib Qozog'istonga bor, dalaning alp polvoni, hurmatli otamiz Hojimuqon Mungaytpasovga bizdan salom ayt! Yovuzlarni jazolab, ezilganlarni himoya qiladigan xaloskor Sho'ro Armiyasining otashin salomini yetkaz. Insonparvarlikning nima ekanini chuqur tushungan minglarcha sof vijdonli o'g'il-qiz o'stirgan qozoq xalqiga, shu jumladan Hojimuqon polvonga ko'pdan ko'p rahmat. Vatan boshiga tushgan og'ir kunlarda yordam uchun bergan po'lat qanoti ko'kdagi dahshatli janglarga o'n sakkiz marta kirib chiqqanini ayt. "Yovuz fashistni yanch!" degan edi, uning bu buyrug'i bajarildi. Uning o'z halol mehnati evaziga qurilgan samolyot Omongeldi botir nomidagi aviatsiya bo'limida omon-eson turganini ayt. Xalq qahridan tug'ilgan bu kuch to butun dunyoda tinchlik barqaror bo'lmaguncha, osmon xavfsizligini ko'z qorachig'iday saqlaydi. Qanotlariga g'ubor yuqmaydi. Hojimuqon bergan shunqorning uchuvchisi o'zing ekanini bayon qil!" — deb tayinlab yuborilgan jangchini Temir stansiyasida kuchli qo'l, uning oyoqlarini poyezd zinasiga ham tegizmay, dast ko'tarib oldi. Maydonda yov ko'ziga devday dahshatli ko'rinadigan qishloqi qora yigit, bu kuchli qo'lda beshikdagi boladek bo'lib qoldi.

— O, lochinim, uchuvchi o'g'lim, seni ham ko'rar kun bor ekan.

Qaytmas safar

"Oqtepa" xo'jaligining sharqiy tomonida katta bir do'nglik bo'lib, uni odamlar "Buziq" deb atashardi. U shu atrofdagi "Oqtepa", "Qo'ng'irtepa", "Qorovultepa", "Qiziltepa" kabi tepalarning eng kattasi edi. Buziqtepaning atrofi uzumzor edi. Qariyalarning gapiga qaraganda ilgari bu atrofni "Mayiz qala" deb atashar ekan. "Oqtepa" xo'jaligi tashkil etilib, ariq qazilganda bu yerdan ichiga olti pud tariq ketadigan katta xum topilibdi, uni odamlar, qadimda bu idishda kimdir bo'za solgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilishibdi. Bu qal'a bir mahallar bog'-rog'li, ko'rkam joy bo'lgan-u, keyinchalik, Bo'gan soyi tomonidagi qo'rg'on buzilgach, "Buziq" deb atashib kelishgan. Polvon har safar shu yerga kelib, biroz dam olib ketardi. Mana bugun ham keldi. U so'nggi kunlarda, "Ovulga kelib o'yiningni bir ko'rsatgin? Sening diydoringni ko'radigan kun ham bormikan?" — deb iltimos qilganlarga ham bormadi. O'g'li Haydarxonga tanang qorayadi, deb tuzlangan yog' yegizib, sport mashqlarini o'rgatib o'tirar edi, bu ishni ham qo'ydi. Mana, hozir shu tepa ustida ham negadir ma'yus o'tiribdi. Nabirasi — Abdullaning o'g'li Shodmonga:

— Huv anavi qorayib ko'ringan tepa Qo'blandi bobom aytib ketgan:

Qoraspan tog'ini makon etgan,
Behisob qipchoq elimda,

degan joyi... Bu "Buziq"da bir vaqtlar ancha xonadon turar edi... Mana endi buzilib-buzilib tepa bo'ldi. Hojimuqon bobong yer yuzini aylanib chiqqan jo'mard polvon edi, bir kun emas, bir kun men ham qulab tepa bo'laman... Yur, o'g'lim, ketaylik, — deb uyiga keldi. Uch-to'rt yostiqni yonboshiga qo'yib uxlaydigan polvon, kunbotar oldida uyqusirab:

"Xadicha, Xadicha, qo'lingni ber! Qo'lingni ber!" — deya uyg'ondi.

Oqshomda mollariga qarab yurgan ayoli uning nima deyayotganiga e'tibor ham qilmadi. Polvon boshini ko'tarib atrofga bir nazar soldi-da:

— Shodmon, bo'sh otni olib kelib aravaga qo'sh, — dedi.

Bobosining so'zini ikki qilmaydigan nabirasi, bedazorga tushovlab qo'ygan otni olib kelib, aravaga qo'shdi. Kun botgandan so'ng tug'ilgan oy terak bo'yi ko'tarilib ham qoldi. Polvon yo'l kiyimlarini kiyib:

— Minayim, ho Minayim... Ko'rpa yostig'ingni aravaga ort, Esbo'l, Esali, Haydarxon, to'rtalang ham aravaga min, — dedi.

— Yarim kecha qayoqqa boramiz, polvon?..

— So'rab nima qilasan? Men boradigan manzilga yaqinlashaylik, ular meni ko'zi to'rt bo'lib kutishayotgan bo'lsa kerak...

Ilgarilari Qaraspan tog'iga boraman deb yurganidan xabardor Minay yanga yugurib-yelib aravaga yuklarini ortdi, bolalarini mindirdi.

— Shodmon, sen mollarni piyoda haydab Temurlangga yetkaz, bizlar sekin aravada ketaveramiz, — dedi-da, jo'nab ketdi.

Uning "Oqtepa"dan ko'chib ketganini qo'shnilari ham bilmay qolishdi. Ko'char oldida yaqin qarindoshi Mamish kelib:

— Polvon, yarim kechada bunday qilganing nimasi? — deganda:

— Qaytmas safarga otlanadigan odam erta-kech deb o'tirmay, boradigan joyiga asta siljiyveradi. Meni izlasanglar Temurlangdagi xo'jalikka boringlar! — deb yo'lga ravona bo'ldi.

Tungi salqinda jadal yurib, quyosh endi ko'tarilganda Aris — Turkiston kanalining to'g'on quriladigan joyidagi "Kuntepa" xo'jaligiga kelishdi. Ovul bolalari:

— Polvon bobom keldi, — deyishib, yugurishdi.

— Polvon, safaringiz xayrli bo'lsin! — deyishib kattalar ham yig'ila boshladi.

— Yarim-yorti bo'lib bu qanaqa ko'chib yurish?

— Butunlay ko'chib kelayotibmiz. Bobomga boraman!

— Iya, bu qanaqasi bo'ldi, u kishi sizni chaqirdimi? — deyishdi ular kulishib.

— Ha, chaqirdi.

Shu yerda yurgan Aris rayonining rahbarlaridan biri, ko'pchilik to'planib turgan joyga kelib, polvonga salom berdi.

— Yaxshi yo'liqib qolding, chirog'im. Temurlangga borganimdan so'ng, otimga biroz dam berib, keyin oldingga boraman, deb kelayotgan edim. Mayli, bir borishga boraman-u, biroq aytadigan gapimni hoziroq aytib qo'ya qolay. Oqarda, Esil bo'yida tug'ilgan edim. Sir bo'yida, Aris atrofida o'laman. Yo'rgakka o'ralgan yerimning kafanga o'ralgan yerimdan olis bo'lgani uchun o'kinmayman. Men uchun qozoq dalasida olis joy yo'q.

Bu yerlar:

Bizning ovul Arisda,
Juda-juda olisda.
Bo'lsang agar sen tulpor,
Uzoqqa chop, qolishma!.. —

deb, ota-bobom makon etgan yerlari... Odamlarnikiday menda ham bitta yurak bo'ldi, ikkita bo'lmadi, deb o'kinmayman. Bu yurak faqat bitta narsa uchun — xalq uchun tepdi. Zarracha bo'lsa ham xalqdan ko'nglim qolmadi, hamma istagimni bajo keltirdi. Hayotimda xalq shodiyonasini eshitmagan kunlarimni — kun deb hisoblamagan edim. O'lganimdan so'ng ham odamzod oyog'ining tovushi eshitilib turadigan joyga ko'milsam ekan, degan umidda katta yo'l bo'yi — Aris-Turkiston kanalining bosh tomoniga kelyapman.

Mahalliy hokimiyat unga markazdan katta to'rt xonali uy solib, bog'-rog' qilib berdi-da:

— Mana, oqsoqol, marhamat, uyingizga kiring. Iltimosingiz qondirildi. Yetmish besh yil kasalga chalinmay keldingiz. Endi bundan buyon ham sog'-omon bo'ling, — deyishdi.

So'ngra polvon sharafiga katta to'y qilib berishdi.

* * *

Yangi uy xayrli bo'lib, qirq sakkizinchi yilning o'rtalarida Minay yanga o'g'il tug'di. Polvon kenja o'g'liga katta to'y qilib berdi. U Hojimuqonning xuddi o'zginasi edi. Bola chillasi chiqib,

bo‘g‘ini qota boshlaganda qovun opishib janubning fayzli kunlari boshlangan edi. Chaqaloqqa Janabil deb ism qo‘yishdi.

— Polvon, Haydarxonga taqovul qilib A’zamxon qo‘yaylik, — deganlarga:

— Yo‘q! Janabil yaxshi, bu — hazrat Ali bilan kurashgan qipchoq bobolarining oti. To‘ytepa qo‘rg‘oni tepa bo‘lib yotibdi. Shuning otini qo‘yaman, — dedi.

Soy bo‘yidagi maysaga tikilgan o‘tovda qimiz ichib o‘tirgan polvon:

— Haydarxon maktabiga ketdimi? — deb so‘radi. O‘qishni hali boshlagani yo‘q, dastlabki ochilgan paxtalarni teramiz deb ketishdi, nega so‘rayapsan?

— O‘zim. Janabilni emizib bo‘lsang, menga berarsan.

U o‘g‘lini qo‘liga olib, unga biroz tikildi-da, boshini iskadi.

— Mening kuchim shunga qo‘nadi, ishim qo‘nadimi yo yo‘qmi, buni bilmayman... Ma, ol!..

Polvon uydan chiqib arava yoniga bordi-yu, qo‘lini bo‘jiga cho‘zgancha:

— Oh! — dedi. Yonidagi o‘g‘li uni qo‘ltig‘idan suyaguncha bo‘lmay og‘ir gavda yerga qulab, qaytmas safarga jo‘nab ham ketdi.

Olmaota, 1951–1956

MUNDARIJA

So‘zboshi *(Yergash Abduvalitov)* 3

SOBIT MUQONOV.
Hayot maktabi
(memuar qissa)

Bobolarim haqida.....6
Mening tug‘ilish tarixim 9
O‘roz 17
Chin yetimlar 25
O‘qishga borish 30
Qabr boshida 40
Ko‘k biya 43
Bo‘ronli kechada 49
Yaylovdagi hayot 55
Nafs balosi 61
O‘ksigan ko‘ngil 66
Qaydasan, opa?.....71
Podalar ketida 74
Urush 85
Guvoh bo‘lganimning balosi 94
Qo‘zg‘olon 102
Dastlabki aytishuv 110
Boymag‘ambet Iztulin 117
Yana aytishuv 131
Abay o‘lanlari 136

Podsho taxtdan tushganda 145
Podshoni quvgan botir 152
Dostobren 158
Askar so'rovchilar 162
Ovuldan jo'nash 171

Cho'loq polvon

(qissa)

"Alp — onadan tug'iladi" 175
Kek 181
Yong'in 185
O'radagi bo'ri 188
Yoqimtoy xizmatkor 192
Kutilmagan falokat 198
Cho'loq polvon 207
Karon bilan kurash tushish 216
Shubha 221
"Er yigitning qanoti — ot" 226
Oq bo'z ot 232
Qiz olib qochish 238
Er yigit — el farzandi 244
Anqovlik 250
G'aliya 255
Botir — bir o'qlik 264
Hibsda 273
Azozillar 276
Sud va kafolat 286
Barimta 293
Dahshatli xat 297
Ko'kchatog' ko'ksida 302
Sinashuv 309
Odamni eski kiyim ichida tani 318
Yana turmada 324
Mingdevona 328
O'lim tuzog'i 334

Xayrlashuv....342
Polvon — ustoz....348
Yo'lbars bilan olishuv....351
Olatog' bag'rida....357
Polvon yoshligini ko'rganday bo'ldi....364
Ovchilik....374
Xufiya maslahat....380
Suiqasd....383

QALMAQON ABDUQODIROV

"Hojimuqon"

(Qissa)

Bu — mening va'dam edi....390
Qor kurayotgan bola....392
Chana tortgan bola....397
Ko'pchilikning ko'magi....400
Xalq nasihati....406
Cho'chqa ko'ldagi kurash....414
Batrak — Akmolinskiy....432
Ulug' Pyotr shahrida....442
Parijda....464
Ko'tarib urar Guppinskiy....483
"Jib-jitsa" kurashi....501
Mirza....507
Cho'loq polvon bilan uchrashuv....518
Qudalik....525
Uylanish....543
Aravakash....554
Janubga safar....565
Minay yanga....580
Ikkinchi jahon urushining bir kuni....582
Qozig'urt quchog'ida....587
Qayg'u va quvonch....589
Qaytmas safar....593

S 74 Sobit Muqonov [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Yergash Abduvalitov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 600 b.
ISBN 978-9943-8734-2-1

UO'K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SOBIT MUQONOV
QALMAQON ABDUQODIROV

75-jild

Adabiy-badiiy nashr


Tarjimon
Nosir Fozilov

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^1/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 37,5. Nashriyot-hisob tabog'i 35,26
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 68-1/22 Buyurtma raqami № 22-358

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



SOBIT MUQONOV

QALMAQON
ABDUQODIROV